O’ZBEKISTON RESPUBLIKASI

OLIY VA O’RTA MAXSUS TA’LIM VAZIRLIGI

GULISTON DAVLAT UNIVERSITETI

“IQTISODIYOT” KAFEDRASI

O.X. SHOEV

JAHON IQTISODIYOTI VA HALQARO IQTISODIY MUNOSABATLAR

FANIDAN

O’QUV-USLUBIY MAJMUA

bilim sohasi: 200000 – ijtimoiy soha, iqtisod va huquq

ta’lim sohasi: 230000 – iqtisod

ta’lim yo’nalishi: 5230100 – iqtisodiyot tarmoqlar va sohalar bo’yicha

GULISTON - 2020

“JI va XIM” fanidan o’quv-uslubiy majmua Guliston davlat universitetining 2020 yil 29 avgustdagi №1-sonli yig’ilishi bilan tasdiqlangan “JI va XIM” fanining o’quv dasturiga muvofiq ishlab chiqilgan va vazirlikning 2017 yil 1 martdagi №107 sonli “yangi o’quv majmualarni tayyorlash bo’yicha uslubiy ko’rsatmani tavsiya etish to’g’risidagi” buyrug’i asosida tayoyrlangan

Tuzuvchi:

O.X.Shoev - “Iqtisodiyot” kafedrasi o’qituvchisi.

Taqrizchilar:

O.Sattorqulov - “Iqtisodiyot” kafedrasi dotsenti, i.f.n.;

A.Burxonov - “Iqtisodiyot” kafedrasi dotsenti, i.f.n..

O’quv-uslubiy majmua Guliston davlat universiteti o’quv-uslubiy kengashining 2020 yil “29” avgustdagi №1- sonli qaroriga muvofiq o’quv jarayoniga tatbiq etish uchun tavsiya etilgan.

© GulDU, 2020 yil

MUNDARIJA

	Kirish	
I.	O’quv materiallari	
1.1.	Ma’ruza materiallari	
1.2.	Amaliy mashg’ulot mavzulari	
	a) Asosiy matn	
	b) Topshiriqlar (misollar, keyslar, testlar)	
	v) Nazorat savollari	
	g) Adabiyotlar ro’yxati	
II.	Mustaqil ta’lim mashg’ulotlari	
III.	Glossariy	
IV.	Ilovalar	
4.1.	Fan dasturi	
4.2.	Ishchi o’quv dasturi	
4.3.	Tarqatma materiallar	
4.4.	Reyting tizimi asosida baholash mezonlari	

KIRISH

O'quv-uslubiy majmua – Guliston davlat universitetida bakalavriat ta'lim bosqichining O'quv rejalarida aks etgan fanlar bo'yicha professor-o'qituvchining dars jarayoniga o'quv-uslubiy tayyorligini tasdiqlovchi eng muhim mezon, me'yoriy-uslubiy hujjatdir.

Majmuaning asosiy maqsadi – avvalombor fanning o'qituvchisi, xuddi shuningdek talaba uchun, fanni har tomonlama sermazmun, chuqur nazariy, uslubiy va amaliy tarzda etkazish (talaba uchun – o'zlashtirish) uchun yagona o'quv-uslubiy va axborot-resurs manbaini yaratish hisoblanadi.

O'quv-uslubiy majmua Guliston davlat universiteti bakalavriat ta'lim yo'nalishlari uchun mo'ljallangan bo'lib, u jumladan quyidagi tarkibiy tuzilishga ega:

- ***fanning me'yoriy-uslubiy ta'minoti,***
- ***fanning mazmuni va axborot-resurs ta'minoti,***
- ***fanni o'qitishning interaktiv texnologiyalari,***
- ***talabalarning bilimini baholash uslubiyoti,***
- ***qo'shimcha elektron ta'lim resurslarini*** o'z ichiga olgan.

Ilg'or xorijiy tajriba bilan uzviylik.

Mazkur majmua ilg'or xorijiy tajribani keng o'rganish, umumlashtirish va undan ta'lim va tadqiqotlar jarayonida samarali foydalanish mahsulidir.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016 yil 26 may qarorida oliy o'quv yurtlari "Jahonning rivojlangan mamlakatlaridagi etakchi universitetlar va oliy o'quv yurtlari bilan qalin hamkorlik doirasida keng ko'lamda ishtirok etgan holda 2016G'2017 o'quv yili boshlangunga qadar barcha o'quv rejalari va dasturlari tubdan qayta ishlab chiqilishini nihoyasiga etkazishni ta'minlasin, fanlarni o'qitishning eskirgan, umrini o'tab bo'lgan yondashuv va uslublaridan batamom voz kechishni, bakalavriat va magistraturada jahon fani va ilg'or pedagogik texnologiyalarning zamonaviy yutuqlariga asoslangan yangi o'quv rejalari va dasturlarini joriy etishni, shuningdek, ta'lim jarayonida ularni amalga oshirish hamda oliy ma'lumotli mutaxassislar tayyorlash sifatini oshirish uchun ... etakchi xorijiy olimlar va o'qituvchilarni jalb etishni nazarda tutsin"[1] deb alohida ta'kidlangan.

Ushbu qarorda belgilangan vazifalarni amalga oshirish maqsadida ta'lim va tadqiqotlarning mazkur axborot-resurs manbaini ishlab chiqishda Dankin Universiteti,

[1]Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2016 йил 26 майдаги "2016/2017 ўқув йилида Ўзбекистон Республикаси олий таълим муассасаларида ўқишга қабул қилиш тўғрисида"ги қарори. "Халқ сўзи" газетаси, 2016 йил 27 май, №103 (6538). Б.1

Massachusets Texnologiya instituti va Nyu-York Davlat Universiteti (AQSh), Oksford Universiteti, Bat Universiteti va London Metropoliten Universiteti (Buyuk Britaniya), Bremerxafen Universiteti (Germaniya), Vaseda Universiteti (Yaponiya), Kemyong Universiteti (Koreya Respublikasi), Shanxay Universiteti (XXR) va boshqa etakchi xorijiy universitetlar boy ijobiy tajribasidan samarali foydalanildi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yilni biz **Xalq bilan muloqot va inson manfaatlari yili,** deb e'lon qildik. Bugungi majlisimizning asosiy mazmunini aynan shu talabdan kelib chiqqan holda belgilashni taklif etaman. Shu munosabat bilan sizlarning e'tiboringizni quyidagi eng muhim masalalarga qaratishni zarur, deb hisoblayman.

Birinchidan, nima sababdan o'tgan yilda iqtisodiyot tarmoqlari va hududlarni rivojlantirishning ayrim ko'rsatkichlariga erishilmadi? Buning uchun kim shaxsan javob beradi?

Ikkinchidan, 2017 yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim yo'nalishlari va ustuvor vazifalarini belgilab olishimiz zarur.

Uchinchidan, kelgusi besh yil davomida qanday strategik vazifalarni amalga oshirishimiz kerak?

Bugun mamlakatimizning barqaror rivojlanish yo'lida izchil ilgarilab borishini tahlil qilar ekanmiz, o'tgan yili printsipial muhim islohotlarni amalga oshirish bo'yicha qat'iy qadamlar qo'yildi, deb aytishga barcha asoslarimiz bor.

Bu islohotlarning asosiy maqsadi – aholi uchun munosib hayot darajasi va sifatini ta'minlashdir.

Jadal va barqaror rivojlanishga qaratilgan bu siyosat bundan keyin ham so'zsiz davom ettiriladi.

Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik har bir rahbarni – bu Bosh vazir yoki uning o'rinbosarlari bo'ladimi, hukumat a'zosi yoki hududlar hokimi bo'ladimi, ular faoliyatining kundalik qoidasi bo'lib qolishi kerak.[2]

Majmuani takomillashtirish masalalari.

Elektron o'quv-uslubiy majmua o'quv yili mobaynida xalqaro va milliy iqtisodiyot tizimidagi o'zgarishlar va tendentsiyalar, yangi qabul qilingan qonunlar, farmonlar va qarorlarni, xorijda va respublikada chop etilgan yangi o'quv va ilmiy adabiyotlarni, fan-texnika va texnologiya borasida erishilgan yangi yutuqlarni hisobga olgan holda muntazam takomillashtirilib boriladi.

---

[2]Mirziyoev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. – Toshkent: "O'zbekiston" NMIU, 2017. – 104 b.

“Global iqtisodiy rivojlanish” fani o’z ichiga quyidagi vazifalarni oladi:

- ***birinchidan,*** jahon iqtisodiyoti va xalqaro iqtisodiy munosabatlarning nazariy asoslari va tamoyillarini rivojlantirishning o’ziga xos jihatlarini o’rganish;

- ***ikkinchidan,*** jahon mamlakatlari iqtisodiyotini belgilovchi asosiy ko’rsatkichlardan foydalanishni o’rganish;

- ***uchinchidan,*** jahon mamlakatlari iqtisodiyotini belgilab beruvchi asosiy makroiqgisodiy parametrlar taxdilini amalga oshirishni o’rganish;

- ***to’rtinchidan,*** jahon iqtisodiyotida xalqaro savdoning mohiyati va ahamiyatini o’rganish;

- ***beshinchidan,*** jahon iqtisodiyotida xalqaro tashkilotlar faoliyatining maqsad va vazifalarini o’rganish;

- ***oltinchidan,*** jahon mamlakatlari bilan samarali hamkorlik qilishning nazariy va amaliy tomonlarini o’rganish.

I.O'QUV MATERIALLARI

1.1.MA'RUZA MAShG'ULOTLARI MATNI

1-mavzu: Jahon xo'jaligi va halqaro iqtisodiy munosabatlar asosiy ko'rinishlari va xususiyatlari. Halqaro mehnat taqsimoti

Ko'rib chiqiladigan asosiy savollar:

1. Jahon iqtisodiyoti va xalqaro iqtisodiy munosabatlar faning predmeti.
2. Jahon xo'jaligini rivojlanish bosqichlari va tendentsiyalari.
3.Zamonaviy xalqaro iqtisodiy munosabatlarning rivojlanish xususiyatlari.

Mavzuga oid tayanch tushuncha va iboralar: Fan predmeti, fan ob'ekti, ilmiy tadqiqot metodlari, jahon iqtisodiyoti, xalqaro iqtisodiy munosabatlar, rivojlanish bosqichlari, mamlakatlar klassifikatsiyasi.

Mavzuda ko'rib chiqiladigan muammolar:

1.Fanni o'qitishning o'ziga xos ahamiyati bor. Shunga siz qanday fikr bildirasiz?

2.Jahon iqtisodiyoti va xalqaro iqtisodiy munosabatlar fani boshqa fanlar bilan mustahkam aloqada. Ularni mazmunan qanday izohlaysiz?

3. Fan o'zining ilmiy tadqiqot metodlariga ega. Bozor iqtisodi sharoitida bu metodlarni qanday izohlaysiz?

1.1. Jahon iqtisodiyoti va xalqaro iqtisodiy munosabatlar fanining predmeti

Jahon iqtisodiyoti - bu jahon xo'jaligi yaxlit tizimini tashkil etuvchi milliy iqtisodiyotlar yig'indisidir. Bugungi kunda jahonda 200 ortiq mamlakatlar bo'lib har biri o'z milliy iqtisodiyotiga egadir. Barcha mamlakatlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish darajasi va bozor iqtisodiyoti islohotlarini olib borish xususiyatlariga ko'ra: rivojlangan, rivojlanayotgan va iqtisodiyoti o'tish davriga xos mamlakatlar guruhiga bo'linadi.

Jahon iqtisodiyotining asosiy sub'ektlari bo'lib milliy iqtisodiyotlar, transmilliy korporatsiyalar, integratsion birlashmalar va xalqaro iqtisodiy tashkilotlar hisoblanadi.

Jahon iqtisodiyoti va xalqaro iqtisodiy munosabatlar fanining predmeti - jahon xo'jaligi yaxlit tizimini tashkil etuvchi milliy iqtisodiyotlar ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish xusususiyatlari va tendensiyalari hamda ushbu mamlakatlar o'rtasida amalga oshiriladigan iqtisodiy munosabatlar shakllarini o'rganish hisoblanadi.

XX asrning 50-yillarida jahon xo'jaligi faoliyatining o'ziga xos tomonlaridan biri bu xalqaro iqtisodiy munosabatlarning jadal ravishda rivojlanib borishidir. Jahon xo'jaligida davlatlar guruhlari va iqtisodiy guruhlar, alohida firma va tashkilotlar o'rtasidagi iqtisodiy munosabatlar tobora kengayib, chuqurlashib bormoqda. Bu jarayonlar xalqaro mehnat

taqsimotining chuqurlashuvi va xo‘jalik hayotining baynalminallashuvida, ularning bir-biriga bog‘liqligi va yaqinlashuvida, mintaqaviy xalqaro tizimlarning rivojlanishi va mustahkamlanishida namoyon bo‘lmoqda.

Shunisi xarakterliki, o‘zaro hamkorlik va integratsiya jarayonlari qarama-qarshi, dialektik xarakterga ega. Xalqaro iqtisodiy munosabatlarning dialektikasi shundaki, ayrim mamlakatlarning iqtisodiy mustaqillikka, milliy xo‘jalikni mustahkamlashga intilishi, oqibat natijada jahon xo‘jaligini yanada ko‘proq baynalminallashuviga, milliy iqtisodiyotning ochiqligiga, xalqaro mehnat taqsimotining chuqurlashuviga olib keladi.

Xalqaro iqtisodiy munosabatlar predmeti ikki asosiy qismdan, ya’ni, xalqaro iqtisodiy munosabatlarning o‘zi va uni amalga oshirish mexanizmidan iboratdir. Xalqaro iqtisodiy munosabatlar o‘z ichiga alohida mamlakatlar, ularning mintaqaviy birlashmalari, shuningdek alohida korxonalarning (transmilliy, ko‘pmilliy korporatsiyalarni) jahon xo‘jaligi tizimidagi bir-biriga qarama-qarshi bo‘lgan iqtisodiy munosabatlarining majmuini oladi. Xalqaro iqtisodiy munosabatlar mexanizmi esa o‘z ichiga huquqiy me’yorlar va ularni amalga oshirish vositalari (xalqaro iqtisodiy shartnomalar, kelishuvlar, “kodekslar”, hartiyalar va h.k.), xalqaro iqtisodiy munosabatlarni rivojlantirish maqsadida amalga oshirishga yo‘naltirilgan xalqaro iqtisodiy tashkilotlarning faoliyatini oladi. Xalqaro iqtisodiy munosabatlar (XIM) tizimiga quyidagilar kiradi:

1 Xalqaro mehnat taqsimoti;
2 Xalqaro tovar va xizmatlar savdosi;
3 Xalqaro kapital va xorijiy investitsiyalar harakati;
4 Xalqaro ishchi kuchi migratsiyasi;
5 Xalqaro valyuta-moliya va kredit munosabatlari;
6 Xalqaro iqtisodiy integratsiya;
7 Erkin iqtisodiy hududlar;
8 Xalqaro korporatsiyalar;

Xalqaro iqtisodiy munosabatlar (asosan savdo) jahon xo‘jaligi vujudga kelmasdan oldin ham mavjud bo‘lgan. Masalan: Yevropa davlatlari o‘rtasidagi XIM, mintaqalar (Yevropa-Shimoliy Afrika, Yevropa-Yaqin Sharq va h.k.) o‘rtasidagi xalqaro iqtisodiy munosabatlar. Bu munosabatlar mintaqaviy xarakterga ega bo‘lgan. Jahon xo‘jaligining vujudga kelishi (XVIII asr oxiri va XIX asr boshlari) va rivojlanishi bilan xalqaro iqtisodiy munosabatlar kengaydi va chuqurlashib, global xarakterga ega bo‘ldi.

Zamonaviy jahon xo‘jaligi bu - bozor iqtisodiyotining ob’ektiv qonunlariga bo‘ysinuvchi, o‘zaro bog‘liq bo‘lgan milliy iqtisodiyotlar birlashmasi, global iqtisodiy organizmdir.

Fanni o‘rganish jarayonida umume’tirof etilgan materialistik dialektika, ilmiy abstraksiya, tahlil va sintez, induksiya va deduksiya, tarixiylik va mantiqiylik usullardan foydalaniladi.

Jahon iqtisodiyoti va xalqaro iqtisodiy munosabatlar fani iqtisodiyot nazariyasi, mikroiqtisodiyot, makroiqtisodiyot, statistika, mehnat iqtisodiyoti va demografiya, investitsiya fanlari bilan o‘zaro bog‘liqligi mavjud bo‘lib, ushbu fanlarning iqtisodiy qonun va kategoriyalaridan bevosita foydalanadi.

1.2. Jahon xo‘jaligini rivojlanish bosqichlari va tendensiyalari

Jahon xo‘jaligi o‘zining vujudga kelishi va rivojlanishida uzoq hamda qiyin yo‘l bosib o‘tdi. Ayrim tadqiqotchilar uning vujudga kelishini Rim imperiyasi davri bilan bog‘lashadi (er.avv.gi II va eramizning I asrlari). Bunda ular Rim imperiyasini o‘sha vaqtdagi butunjahon xo‘jalik tizimi deb baholaydilar. Boshqa olimlar jahon xo‘jaligini faoliyat ko‘rsata boshlagan davrni XV-XVI asrlar, ya’ni buyuk jug‘rofiy kashfiyotlar davri bilan bog‘laydilar. Aynan shu kashfiyotlar qimmatbaho toshlar, metallar, shirinliklar va qullar bilan xalqaro savdoning tez rivojlanishiga sabab bo‘ldi. Ammo bu davrdagi jahon xo‘jaligi cheklangan bo‘lib, faqat savdogarlarning sarmoyalari ishlaydigan soha bo‘lgan edi xolos.

Iqtisodchi olim professor A.V.Vaxabov jahon xo‘jaligi rivojlanish bosqichlarini quyidagicha ta’riflaydi[3]:

№	Bosqichlari	Xususiyatlari
I	XV-XVI asrlar	Buyuk geografik kashfiyotlar. Jahon mustamlaka tizimining shaklanishi. Jahon kapitalistik bozorining paydo bo‘lishi. Manufaktura
II	XVII asrning birinchi yarmi - XIX asr	Jahon kapitalistik bozorining shakllanishi, xalqaro mehnat taqsimotining rivojlanishi, jahon savdosining halqaro iqtisodiy munosabatlar shakli sifatida rivojlanishi
III	I va II jahon urushi davri	Xalqaro moliya tizimining beqarorligi, sanoat jihatdan tarraqiy etgan mamlakatlardan uzoq muddatli kapitallarning chiqib ketishi
IV	XX asrning 50-90 yillari	Xalqaro iqtisodiy munosabatlarni qaytadan yo‘lga qo‘yish yoki yangi xalqaro iqtisodiyo tartibni ishlab chiqish davri
V	XX asrning 90 yillaridan hozirga qadar	Jahon iqtisodiyotining globallashuvi, TMK va TMB lar rolini kuchayichshi. Jahon bozorining globallashuvi

[3] Vaxabov A.V., Xajibakiev Sh.X. “Jaxon iqtisodiyoti va xalqaro iqtisodiy munosabatlar” T.: “Iqtisod-moliya” 2014 yil 8 бет.

Zamonaviy jahon xo‘jaligi sanoat inqilobidan keyin, kapitalning monopol bosqichiga o‘tishi davomida vujudga keldi.

XXI asr bo‘sag‘asidagi jahon xo‘jaligi - o‘z miqyosiga ko‘ra globaldir; u to‘liq ravishda bozor iqtisodiyotining tamoyillari, xalqaro mehnat taqsimotining ob’ektiv qonuniyatlari va ishlab chiqarishning baynalminallashuviga asoslanadi. Ikkinchi jaxon urushidan keyingi o‘n yilliklarda jahon xo‘jaligini rivojlanish etakchi tendensiyalaridan biri, bu ko‘plab davlatlarning birin-ketin yopiq milliy xo‘jalikdan tashqi bozorga yuz tutgan iqtisodiy ochiq tipdagi xo‘jalikka o‘tishidir. Aynan ana shu davrda AQSH olimlari “Ochiq savdo”, “Ochiq iqtisodiyot” degan tezislar bilan chiqdilar. Bu avvalo jahon bozorida o‘z hukmronligini o‘tkazish bilan bog‘liq edi. Ikkinchi jahon urushidan g‘olib va yanada boyib chiqqan AQSH hukumati tomonidan yangi iqtisodiy tartib qo‘llanmalari taklif etildi. Bunday “erkin savdo” va “ochiq iqtisodiyot” tezislari hukmron iqtisodiyotning kamroq rivojlangan davlatlarga qarshi qaratilgan quroli, shuningdek amerika korporatsiyalarining tutib bo‘lmas ekspansiyaga intilishlari edi.

Ammo urushdan keyingi yillarda dunyoda ijtimoiy-iqtisodiy holatning o‘zgara borishi bilan bog‘liq holda “Ochiq iqtisodiyot” haqidagi tezis amerika ekspansionizmining manfaatlariga yo‘naltirilganlikni yo‘qota borib, jahon xo‘jalik aloqalarining baynalminallashuvi ma’nosini ola boshladi.

Jahon iqtisodiyotida ochiq iqtisodiyotni shakllanishida davlat muhim rol o‘ynadi. Davlat tovar va xizmatlar olib chiqishni rag‘batlantirib, xorijiy firmalar bilan kooperatsiyalarga, tashqi iqtisodiy aloqalarni rivojlanishiga yordamlashib, o‘ziga eksportga yo‘naltirilgan ishlab chiqarishni rag‘batlantirish funksiyasini bajarmoqda. Chet eldan investitsiyalar, texnologiyalar, ishchi kuchi va axborot vositalarini oqib kelishini yengillashtiruvchi mustahkam huquqiy asos yaratildi.

Jahon iqtisodiyoti va xalqaro iqtisodiy munosabatlarda “Erkin savdo” va “Ochiq iqtisodiyot” tushunchalarini farqlash lozim. “Erkin savdo” haqidagi konsepsiya A.Smitning siyosiy iqtisodiyotidan boshlanib u va zamonaviy amerika iqtisodchilarining kashfiyoti emas. “Ochiq iqtisodiyot” tushunchasi aslida ishlab chiqarish omillari, axborot, milliy valyutalarning o‘zaro almashuvining erkin harakatini o‘z ichiga olgan tovarlar savdosi ko‘rinishida bo‘lib “erkin savdo” tezisidan kengroq tushunchadir.

Ochiq iqtisodiyotni avtarkiya, o‘z-o‘zini ta’minlash iqtisodiyoti, haddan tashqari o‘z kuchiga suyanishning antipodi sifatida ham tushunish lozim. Ochiq iqtisodiyotning vujudga kelishi - bu jahon rivojlanishining ob’ektiv tendensiyasidir. Ochiq iqtisodiyot tamoyillariga mos ravishda harakat qilish bu – jahon bozori standartlarini tan olish, uning qonunlari asosida harakat qilishdir.

Ochiq iqtisodiyot ichki bozorning chet el kapitali, tovarlari, texnologiyalari, axborotlari, ishchi kuchining oqimi uchun aqlga to‘g‘ri keladigan darajada ochiqligini nazarda tutadi.

Ochiq iqtisodiyotning afzalliklari quyidagilardir:

- ishlab chiqarishning ixtisoslashuvi va kooperatsiyalashuvining chuqurlashishi;
- resurslarni mulohazakorlik bilan samaradorlik darajasiga qarab taqsimlash;
- xalqaro iqtisodiy aloqalar tizimi orqali jahon tajribasining tarqalishi;
- jahon bozoridagi raqobat tomonidan rag‘batlantiriladigan milliy ishlab chiqaruvchilar orasida raqobatning kuchayishi.

Shakllanib bo‘lgan ochiq iqtisodiyot va ochiq iqtisodiyotga o‘tish bir xil narsa emas. Ochiq iqtisodiyot davlatning tashqi iqtisodiy aloqalarida nazoratsizlik va hamma narsa mumkin, chegaralar ochiq degani emas. Ochiq iqtisodiyot uning aqlga sig‘adigan darajada amalga oshirish mexanizmini shakllantirishda davlatning sezilarli aralashuvini talab qiladi. Hech bir mamlakatda iqtisodiyotning mutloq (absolyut) ochiqligi yo‘q.

Ochiqlik miqdorining birinchi darajali indikatoriga eksport va importning yalpi ichki mahsulotdagi (YAIM) ulushini kiritish mumkin. Ularning kombinatsiyasi alohida milliy iqtisodiyotlarning jahon bozori bilan aloqalarining miqyosi haqida tushuncha beradi. SHunday qilib, eksportning YAIMga munosabati eksport kvotasi sifatida aniqlanadi:

Ek q EG’YAIM x 100%,

bu erda ***Ek*** - eksport kvotasi, ***E*** - eksport hajmi.

Agar ***Ek*** 10% bo‘lsa, iqtisodiyotning ochiqligi maqsadga muvofiq hisoblanadi. Iqtisodiyot ochiqligining boshqa ko‘rsatkichi import bilan YAIM munosabatidan kelib chiquvchi import kvotasi ko‘rsatkichidir:

Ik q IG’YAIM x 100%,

bu erda ***Ik*** - import kvotasi, ***I*** - import hajmi.

Ochiqlikning kompleks ko‘rsatkichlaridan biri deb odatda tashqi savdo kvotasi ko‘rsatiladi:

TSk q TSG’YAIM x 100%,

bu erda ***TSk*** -tashqi savdo kvotasi, ***TS*** - tashqi savdo aylanmasining hajmi.

Bu ko‘rsatkichning kamchiligi unda kapital eksporti kattaligining hisobga olinmaganligidir.

Shuni ta’kidlash lozimki, ko‘rsatib berilgan koeffitsient va ko‘rsatkichlar har doim ham iqtisodiyot ochiqligining holatini to‘liq ko‘rsata olmaydi. Masalan, tashqi savdo kvotasi ma’lum ma’noda iqtisodiyot ochiqligini namoyish qilsa ham, uning sintetik ko‘rsatkichi bo‘la olmaydi. Tashqi savdo kvotasi asosan davlatning xalqaro mehnat taqsimotidagi ishtirokini ko‘rsatadi. Bu

esa ochiq iqtisodiyot tushunchasining bir qismi xolos. Iqtisodiyot ochiqligi ko‘rsatkichi esa murakkabroq kompleks ko‘rsatkichdir.

1.3. Zamonaviy jahon iqtisodiyoti va xalqaro iqtisodiy munosabatlarning rivojlanish xususiyatlari

Jahon iqtisodiyotining XXI asr boshlarida rivojlanishi quydagi tamoyillarga asosan amalga oshmoqda:

- milliy iqtisodiyotlar xo‘jalik hayotida baynalminallashuv jarayonlarining chuqurlashuvi;
- tashqi iqtisodiy aloqalarning erkinlashuvi;
- hududiy integratsion jarayonlarining kuchayishi;
- ishlab chiqarish va kapitalning transmilliylashuvi;
- jahon xo‘jalik aloqalarini davlatlararo tartibga solish tizimining barpo etilishi va iqtisodiy qoidalarning birxillashuvi;
- jahon xo‘jaligining globallashuvi;

O‘z navbatida mamlakatlar o‘rtasidagi iqtisodiy munosabatlar ham ma’lum bir tamoyillar asosida rivojlanmoqda. Jumladan intensiv davlatlararo iqtisodiy aloqalarning hozirgi darajasi quyidagilarni ko‘rsatadi:

- jahon xo‘jaligida xalqaro mehnat taqsimoti darajasining chuqurligi;
- an’anaviy xalqaro tayyor mahsulotlar savdosi miqyoslarining kengayishi va xarakterining o‘zgarganligi (u ko‘p jihatdan milliy ishlab chiqarish jarayonlariga to‘g‘ridan-to‘g‘ri xizmat qila boshlaydi);
- kapital migratsiyasining intensivlashganligi;
- ilmiy-texnik bilimlar almashuvining tezlashganligi va shuningdek xizmatlar sohasining rivojlanganligi;
- ishchi kuchi migratsiyasining sezilarli darajada o‘sganligi (xalqaro ishchi kuchi migratsiyasi xalqaro xo‘jalikning baynalminallashuvining muhim qismi bo‘lib qolmoqda);
- davlatlar va mintaqalar o‘rtasidagi iqtisodiy integratsiyalashuv jarayonlarining tezlashishi va kengayishi.

Sanoati rivojlangan davlatlarning savdo, ishlab chiqarish va kredit-moliya sohasida erishilgan yutuqlar darajasi jahon xo‘jaligining shakllanishida omil bo‘lib xizmat qiladi. Uning ishtirokchilari davlat chegaralarining mavjudligiga qaramay umumiy xo‘jalik tizimining tarkibiy qismi sifatida faoliyat ko‘rsatadilar. Xo‘jalik hayotining baynalminallashuvi tushunchasi ortida alohida davlatlarni global jahon majmuiga birlashtiruvchi ko‘p darajali jahon xo‘jalik aloqalari tizimining samarali faoliyati turadi.

Baynalminallashuv alohida milliy iqtisodiy tizimlarning o‘sib borayotgan o‘zaro aloqa va o‘zaro bog‘liqligini xarakterlaydi. XX asrda ayirboshlashning baynalminallashuvi kapital va ishlab chiqarishning baynalminallashuviga aylanadi, ITI ta’sirida rivojlanishda sezilarli turtki oladi. Xalqaro ixtisoslashuv va ishlab chiqarish kooperatsiyasi keskin o‘sdi. Yirik miqyosdagi ixtisoslashgan ishlab chiqarish uchun ichki bozorlar doirasi torlik qila boshlab, u ob’ektiv ravishda milliy chegaralardan chiqa boshladi.

ITI ta’sirida ishlab chiqarishning baynalminallashuvi shunday holatni yuzaga keltiradiki, u har qanday mamlakat uchun “shaxsiy ishlab chiqarishga” ega bo‘lish foydasiz bo‘lib alohida milliy iqtisodiyotlar esa yanada ko‘proq jahon xo‘jaligiga integratsiyalashadilar. Ishchi kuchi harakati, kadrlar tayyorlash, mutaxassislar bilan almashish yanada baynalminal xarakterga ega bo‘ladi.

Ushbu aloqalar va rivojlanishning istiqboli shakllanish qonuniyatlarini tekshirish shuni ko‘rsatmoqdaki, jahon xo‘jaligini rivojlanishining asosiy tendensiyasi bo‘lib kapital, tovar va xizmatlarning Yagona planetar bozorini tashkil qilish va alohida davlatlarni Yagona jahon xo‘jaligi majmuiga birlashtirishga bo‘lgan harakat hisoblanadi. Bu esa global iqtisodiyot masalalarini xalqaro iqtisodiyot munosabatlar tizimi majmui sifatida o‘rganish zaruriyatini keltirib chiqaradi. Bu esa xalqaro iqtisodiy munosabatlarning boshqacha qilib aytganda yuqoriroq darajasidir.

Jahon iqtisodiyoti va xalqaro iqtisodiy munosabatlarda globalizatsiya fenomenini ikki tomonlama, ya’ni makroiqtisodiy va mikroiqtisodiy darajada ko‘rib chiqish mumkin. Makroiqtisodiy darajada globalizatsiya - bu, davlatlar va alohida mintaqalarning chegaralaridan tashqarida iqtisodiy faoliyat ko‘rsatishga bo‘lgan umumiy intilishlari tushunuladi. Bunday intilishlarning ko‘rinishlari - liberalizatsiya, savdo va investitsion to‘siqlarning olib tashlanishi, erkin tadbirkorlik zonalari tashkil etish va h.k.lar hisoblanadi. Mikroiqtisodiy darajadagi globalizatsiya esa korxona faoliyatining ichki bozor chegaralaridan tashqarida kengayishi tushiniladi. Tadbirkorlik faoliyatining millatlararo yoki ko‘pmilliy yo‘nalganligidan farqli ravishda globalizatsiya jahon bozori yoki “jahon uchligi” (Shimoliy Amerika, g‘arbiy Yevropa, Yaponiya) bozorlarini o‘zlashtirishda Yagona yondashishni bildiradi.

1.4. Xalqaro mehnat taqsimoti va unga ta’sir etuvchi omillar

Jahon iqtisodiyoti va xalqaro iqtisodiy munosabatlarning ma’nosini ko‘rsatuvchi asosiy ko‘rsatkichlardan biri xalqaro mehnat taqsimotidir. Dunyoning barcha mamlakatlari u yoki bu jihatdan xalqaro mehnat taqsimotiga (XMT) qo‘shilgan. Uning chuqurlashuvi fan-texnika

inqilobining (FTI)ning ta’siri ostida bo‘lgan ishlab chiqarish kuchlarining rivojlanishidan kelib chiqadi.

Xalqaro mehnat taqsimotida ishtirok etish davlatlarga qo‘shimcha iqtisodiy samara berib, o‘z ehtiyojlarini eng kam harajatlar bilan to‘liqroq qondirish imkonini beradi.

Mehnat taqsimoti - bu tarixan belgilangan ijtimoiy mehnat tizimidir. U jamiyat rivojlanishi jarayonida faoliyatning sifat jihatdan differensiatsiyasi natijasida kelib chiqadi.

Mehnat taqsimoti turli shakllarda namoyon bo‘ladi. Xalqaro iqtisodiy munosabatlar kursida xalqaro mehnat taqsimoti o‘rganiladi.

Xalqaro mehnat taqsimoti mohiyati ishlab chiqarish jarayonining mehnat faoliyatini turli shakllarining ixtisoslashuvi va ularning kooperatsiyalashuvida, o‘zaro hamkorligida namoyon bo‘ladi. Mehnat taqsimotini faqat ajratish jarayoni sifatida emas, balki, jahon miqyosida mehnatni birlashtirish yo‘li sifatida ham ko‘rish mumkin.

Xalqaro mehnat taqsimoti davlatlar o‘rtasida mehnatning ijtimoiy-hududiy taqsimotining darajasi hisoblanadi. U alohida bir davlatlar ishlab chiqarishlarining ixtisoslashuviga asoslanadi.

Jahon xo‘jaligini rivojlantirish uchun, birinchi navbatda, ishlab chiqarishda mehnat unumdorligini oshirish, ishlab chiqarishda samaradorlikni ko‘tarish, shuningdek ishlab chiqarishda harajatlarni kamaytirishga intilish zarur. Xalqaro mehnat taqsimotini rivojlanishi jarayonida asosiy narsa, bu shu jarayonning har bir ishtirokchisi o‘zining XMTdagi ishtirokidan iqtisodiy foyda qidirishi va topishidir.

Har qanday davlatning xalqaro almashuv jarayonida xalqaro mehnat taqsimotining ustunliklarini amalga oshirishi - birinchidan, eksport qilinayotgan tovar va xizmatlarning tashqi va ichki bozor narxlaridagi farqni olish; ikkinchidan, arzonroq bo‘lgan importdan foydalanib, milliy ishlab chiqarishdan voz kechgan holda ichki harajatlarni kamaytirish imkonini beradi.

Jahon xo‘jaligini tizim sifatida ko‘rib chiqqanda XMTni tizimni tashkil qilgan birlashtiruvchi asos deb ko‘rish mumkin.

Jahon iqtisodiyotida sanoati rivojlangan davlatlarning ishlab chiqarishi ko‘p holatlarda tashqi iste’molchilarga, ichki talab esa importga yo‘nalgan bo‘ladi deb taxmin qilinsa, rivojlanayotgan davlatlarda esa ichki bozorning nisbatan tez, lekin ekstensiv kengayishi taxmin qilinmoqda.

Xullas, XX-XXI asrlar bo‘sag‘asida jahonda misli ko‘rilmagan iqtisodiy, siyosiy, ijtimoiy jarayonlar ro‘y berib, ular albatta xalqaro mehnat taqsimotini rivojlanishiga o‘zining sezilarli ta’sirini ko‘rsatib kelmoqda.

1.5. Xalqaro mehnat taqsimotini rivojlanishining zamonaviy o‘ziga xos tomonlari. Xalqaro ixtisoslashuv va ishlab chiqarish kooperatsiyasi

Xalqaro mehnat taqsimotining rivojlanish yo‘nalishlarini xalqaro ixtisoslashuv va ishlab chiqarish kooperatsiyasining kengayishida ko‘rishimiz mumkin. Xalqaro kooperatsiya (XK) va xalqaro ixtisoslashuv (XI) xalqaro mehnat taqsimotining shakllari bo‘lib, uning mohiyatini namoyon qiladi.

Turli davlatlarning korxonalarini ma’lum bir tovarga ixtisoslashuvi zamonaviy FTT bilan bog‘liqdir. Ishlab chiqarishning texnologik tizimini murakkablashib borishi bilan tayyor mahsulotda ishlatiladigan detallar soni ko‘paydi. Masalan: yengil avtomobil sanoatida 20 minggatacha, prokat dastgohlarida 100 mingtacha, elektrovozlarda esa 250 mingtacha detallarning qismlari ishlatilishi mumkin.

Jahon iqtisodiyotida xalqaro ishlab chiqarishni ixtisoslashuvi (XII) ikkita yo‘nalish bo‘yicha – ishlab chiqarish va hududiy yo‘nalishlar bo‘yicha rivojlanib bormoqda. O‘z navbatida, ishlab chiqarish yo‘nalishi:

a) sohalararo;

b) davlatlar guruhi;

c) alohida korxonalarning ixtisoslashuviga bo‘linishi mumkin. Bundan tashqari hududiy xalqaro ishlab chiqarish ixtisoslashuvi esa:

a) alohida davlatlar;

b) davlatlar guruhi;

c) hududlarning jahon bozori uchun ma’lum tovarlarni ishlab chiqarishga ixtisoslashuviga bo‘linadi.

Xalqaro ishlab chiqarish ixtisoslashuvining asosiy turlariga:

- predmetli (mahsulot ishlab chiqarish);
- detalli (mahsulotni tashkil qiluvchilarni ishlab chiqarish);
- texnologik yoki bosqichli (ya’ni, alohida texnologik jarayonlarni, masalan yig‘ish, bo‘yash va boshqalarni amalga oshirish) ixtisoslashish kiradi.

Xalqaro mehnat taqsimotining boshqa bir shakli - xalqaro ishlab chiqarish kooperatsiyasidir. Uning ob’ektiv asosi bo‘lib, ishlab chiqarish kuchlarini rivojlanishining o‘sib borayotgan darajasi, hamda mamlakat ichida yoki tashqarisida ro‘y berishidan qat’iy nazar mustaqil korxonalar o‘rtasidagi barqaror ishlab chiqarish jarayonlarini borishi hisoblanadi. Xalqaro ishlab chiqarish kooperatsiyasi o‘zining rivojlangan shakllarida hamkorlikning turli sohalarini qamrab oladi. Jumladan,

1. ishlab chiqarishda texnologik hamkorlik. Ushbu hamkorliklarga quyidagilar kiradi:

a) litsenziyalar berish va mulkchilik huquqlaridan foydalanish;

b) loyiha-konstruktorlik hujjatlari, texnologik jarayonlarni, mahsulotning texnik darajasi va sifati, qurilish va montaj ishlari zamonaviy, kooperatsiyalashgan korxonalarni ishlab chiqish va moslashtirish;

v)ishlab chiqarishni boshqarish, standartlashtirish, unifikatsiyalash, sertifikatsiyalashni takomillashtirish, ishlab chiqarish dasturlarini taqsimlash va h.k.lar.

2. Kooperativ mahsulotni sotish bilan bog‘liq bo‘lgan savdo-iqtisodiy jarayonlar.

3.Sotilgan texnikaga xizmat ko‘rsatish.

Jahon iqtisodiyotida kooperatsiya aloqalarini o‘rnatishda foydalaniladigan quyidagi uch asosiy usulga alohida e’tibor beriladi:

- Hamkorlikdagi dasturlarni amalga oshirish.
- Shartnoma asosida ixtisoslashish.
- Qo‘shma korxonalar tashkil qilish.

Hamkorlikdagi dasturlarni amalga oshirish o‘z navbatida ikki asosiy shaklda, (pudratli ishlab chiqarish kooperatsiyasi va hamkorlikdagi ishlab chiqarish) amalga oshiriladi. Shartnoma asosida ixtisoslashish esa ishlab chiqarish dasturlarini ishlab chiqarish kooperatsiyasi ishtirokchilari orasida taqsimlanishini nazarda tutadi. Qo‘shma korxonalar bu integratsiyalashgan kooperatsiyadir.

Tayanch iboralar: jahon xo‘jaligi, xalqaro iqtisodiy munosabatlar, xalqaro iqtisodiy munosabatlarni amalga oshirish mexanizmi, “ochiq iqtisodiyot”, avtarkiya, tashqi savdo kvotasi, baynalminallashuv, globallashuv, mehnat taqsimoti, ishlab chiqarishni ixtisoslashuvi, kooperatsiya, fan-texnika inqilobining ta’siri.

Bobning qisqacha xulosasi:

Jahon xo‘jaligi faoliyatining o‘ziga xos tomonlaridan biri xalqaro iqtisodiy munasabatlarning intensiv rivojlanib borishidir. Jahon xo‘jaligida davlat guruxlari, shuningdek iqtisodiy va ijtimoiy-siyosiy tashkilotlar o‘rtasidagi munosabatlar kengayib, rivojlanib bormoqda. Ushbu jarayonlar xalqaro mehnat taqsimotini chuqurlashuvi va ho‘jalik xayotning baynalminallashuvida, ularning bir-biriga bog‘liqligi va yaqinlashuvida, mintaqaviy xalqaro tizimlarning rivojlanishi va mustahkamlanishida namoyon bo‘lmoqda.

Zamonaviy jahon xo‘jaligi vujudga kelmasdan oldin ham xalqaro iqtisodiy munosabatlar (asosan savdo ko‘rinishda) mavjud bo‘lib, uning rivojlanishi sanoat inqilobi bilan chanbarchas bog‘liqdir. Ana shu davrda xalqaro iqtisodiy munosabatlar kengaydi va chuqurlashib, global xarakterga ega bo‘ldi. Zamonaviy jahon xo‘jaligi – bu bozor iqtisodiyotining ob’ektiv qonunlariga bo‘ysunuvchi, o‘zaro bog‘liq bo‘lgan milliy iqtisodiyotlar birlashmasi , global iqtisodiy organizmdir.

Xalqaro mehnat taqsimotining rivojlanishiga ta’sir etuvchi omillar va rivojlanishning o‘ziga xos tomonlari, xalqaro ixtisoslashuv va ishlab chiqarish kooperatsiyasining o‘ziga xos tamoyillarini o‘rganish katta ahamiyatga egadir.

Nazorat uchun savollar:

1. Jahon xo‘jaligi nima?
2. XIM tizimiga nimalar kiradi?
3. Jahon xo‘jaligi rivojlanishining bosqichlarini tavsiflab bering.
4. “Avtarkiya” nima?
5. Mamlakatlarni “ochiqligi” qanday ko‘rsatkichlar bo‘yicha belgilanadi.
6. “Ochiq iqtisodiyotning” mazmuni va mohiyatini tushuntirib bering.
7. Globallashuv nimani anglatadi?
8. Tashqi savdo kvotasi nimani anglatadi?
9. Xalqaro mehnat taqsimotining mohiyati qaysi olimlarning nazariyalarida aks ettirilgan?
10. Xalqaro mehnat taqsimotiga ta’sir ko‘rsatuvchi asosiy omillarni xarakterlab bering.
11. Xalqaro ishlab chiqarish ixtisoslashuvi nima?
12. Ishlab chiqarish ixtisoslashuvining shakllarini ko‘rsating.

2-mavzu: Halqaro iqtisodiy munosabatlar tizimida halqaro savdo

Ko’rib chiqiladigan asosiy savollar:

1.Xalqaro iqtisodiy munosabatlar tizimida xalqaro savdo. Xalqaro savdo kontseptsiyasi.

2.Tashqi savdoni davlat tomonidan tartibga solish va boshqarish yo’llari

Mavzuga oid tayanch tushuncha va iboralar: Tashqi savdo, eksport, import, kvotalash, tarif usullar, notarif usullar, subsidiyalash, demping.

Mavzuda ko’rib chiqiladigan muammolar:

1. Halqaro savdo halqaro iqtisodiy munosabatlarning davlatlar o’rtasida eng ko’p qo’llanadigan shaklidir. Shunga siz qanday fikr bildirasiz?

2.Halqaro savdoning rivojlanishi nazariyalarini qanday izohlaysiz?

3.Tashqi savdoni davlat tomonidan tartibga solish bozor iqtisodiyoti sharoitida zarurdir. Shunga siz qanday fikr bildirasiz?

1-asosiy savol bo’yicha dars maqsadi: Talabalarda halqaro savdoning mohiyati, uning tarkibi, rivojlanish nazariyalari va davlat tomonidan tartibga solish usullari to’g’risida tushunchalar hosil qilish.

Identiv o’quv maqsadlari:

1.1.Halqaro savdoning mohiyati va tarkibini izohlay oladi.

1.2.Halqaro savdoning kontseptsiyalari va davlat tomonidan tartibga solishning hozirgi kundagi ahamiyatini izohlay oladi.

2.1. Xalqaro iqtisodiy munosabatlar tizimida xalqaro savdo. Xalqaro savdo konsepsiyasi

Xalqaro iqtisodiy munosabatlarning an'anaviy va eng rivojlangan ko'rinishlaridan biri tashqi savdo hisoblanadi. Jahon iqtisodiyotida ro'y berayotgan xalqaro iqtisodiy munosabatlar umumiy hajmining 75-80% tashqi savdoning ulushiga to'g'ri keladi.

Dunyoda mavjud bo'lgan har qanday mamlakat uchun tashqi savdoning roli kattadir, chunki jahon xo'jalik tizimidan ajralgan holatda biron-bir mamlakat sog'lom iqtisodiyotni hosil qila olmaydi.

Xalqaro savdoda xalqaro mehnat taqsimoti asosida paydo bo'ladigan turli davlatlarni tovar ishlab chiqaruvchilari o'rtasidagi aloqalarning bir shakli bo'lib, ular o'rtasidagi o'zaro iqtisodiy bog'liqlikni namoyon qiladi.

Mamlakatlar iqtisodiyotida FTT ta'siri ostida ro'y berayotgan tuzilmaviy o'zgarishlar, (sanoat ishlab chiqarishning ixtisoslashuvi va kooperatsiyalashuvi) milliy xo'jaliklarning o'zaro hamkorligini kuchaytirmoqda. Bu esa xalqaro savdoni faollashuviga imkon yaratmoqda. Xalqaro savdo ishlab chiqarishga nisbatan tezroq o'smoqda. Tashqi savdo aylanmasini tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, jahonda ishlab chiqarish 10%ga ko'paygan xolda jahon savdosi 16%ga o'smoqda.

"Tashqi savdo" deganda bir mamlakatning boshqa bir mamlakat bilan haq to'lanadigan olib kirishi, ya'ni import va haq to'lanadigan olib chiqish, ya'ni eksportdan iborat savdosi nazarda tutiladi. Dunyodagi barcha mamlakatlarning hak to'lanadigan tovar aylanmasi yig'indisi xalqaro savdo deb ataladi. Xalqaro savdo tushunchasi torroq ma'noda ham ishlatilishi mumkin. Masalan, sanoati rivojlangan davlatlarda tovar aylanmasining yig'indisi, rivojlanayotgan davlatlarda tovar aylanmasining yig'indisi va x.k.

Jahonning barcha davlatlari oldida tashqi savdo bo'yicha milliy siyosat muammosi turibdi, 2000 yillar mobaynida esa bu mavzuda qizg'in tortishuvlar bo'lib turibdi.

Erkin savdo yoki proteksionizm siyosatini tanlash yoki uni qanday bo'lsa shu holda saqlash oldingi asrlarga xos edi. Bizning davrimizda bu ikki yo'nalish o'zaro bog'liqdir. Ammo ko'p hollarda uni bu qarama-qarshi birlik erkin savdo tamoyilining bosh vazifasi rolini bajarardi.

Jahon iqtisodiyotida erkin savdo siyosatiga birinchi bo'lib Adam Smit o'z ta'rifini bergan edi. Adam Smit "ayirboshlash har bir mamlakat uchun foydali bo'lib, har bir mamlakat bunda

mutloq ustunlikka ega bo‘lishini” ta’kidlagan edi[4]. Adam Smitning tahlillari klassik nazariyaning asosi bo‘lgan va erkin savdo siyosatining har qanday shakli uchun asos bo‘lib kelgan.

David Rikardo “Siyosiy iqtisod va soliq solishning boshlanishi” (1817yil) nomli asarida boshi berk ko‘chadan klassik nazariyani olib chiqdi. U xalqaro ixtisoslashuv mezonlarini ajratgan holda, davlatlar uchun qanday holatlarda davlatlararo ayirboshlash manfaatli ekanini ko‘rsatib berdi. Har bir davlat uchun ustunlik qilgan yoki kuchsizligi nisbatan kamroq bo‘lgan sohaga ixtisoslashish manfaat keltiradi, degan fikrni berdi. Uning qarashlar konsepsiyasi taqqoslanish nazariyasi yoki prinsipida o‘z aksini topdi[5].

D. Rikardo o‘z ta’limotida xalqaro ayirboshlash barcha davlatlar uchun mumkin va manfaatliligi, ayirboshlash barcha uchun foydali bo‘lgan narx zonalarini aniqlab bergan bo‘lsa, Djon Styuart Mill o‘zining “Siyosiy iqtisod asoslari”(1848y) nomli asarida qanday narxda ayriboshlashni amalga oshirilishini foydali ekanligini ko‘rsatgan edi. Styuart Millning ta’limoti bo‘yicha ayirboshlash narhi talab va taklif qonuniga ko‘ra, har bir davlatning yalpi eksport miqdori yalpi import miqdorini qoplaydigan daraja bilan belgilanadi. Djon Styuart Millning muhim xizmatlaridan biri uning xalqaro narx qonuni yoki “xalqaro narx nazariyasi”dir. Xalqaro narh qonunida ta’kidlanishicha, shunday narx mavjudki u davlatlar orasidagi tovar ayirboshlashni optimallashtiradi. Bu bozor narxi bo‘lib, u talab va taklifga bog‘liqdir[6].

Klassik siyosiy iqtisodchilarning nazariyasini rivojlantirib Gotfrid Xaberler o‘z qarashlar konsepsiyasini nafaqat mehnatga, balki ishlab chiqarishning barcha omillariga e’tiborni qaratgan edi.

Xalqaro savdo oqimini nima bilan aniqlanishi va uning tarkibini Eli Xeksher va Bertil Olinlar o‘zlarining zamonaviy qarashlarida aks ettirdilar. Ular nisbiy ustunlik tushunchasini izohlab u yoki bu davlatning ma’lum bir tovarlarga ixtisoslashishi ularning ishlab chiqarish omillariga egalik darajasiga bog‘liqdir deb ta’kidlangandilar. E.Xeksher va B.Olin “narxlarning ishlab chiqarish omillariga tenglashtirish” nazariyasini ilgari surdilar[7].

1948 yilda Amerikalik iqtisodchilar P. Samuelson va V. Stolper o‘z nazariyalarini kiritib Xeksher-Olin ta’limotining isbotini yanada mukammallashtirib, ishlab chiqarish omillaridan biri, texnika asosan bir mukammal raqobat va tovarlarning to‘la harakatchanligi mavjud bo‘lganda xalqaro ayirboshlash ishlab chiqarish omillarining davlatlar orasidagi narxini tenglashtiradi deb izohlagandi.

---

[4] A.Smit «Xalqlar boiligining tabiati va sabablari» Oksford Universiteti - press, 1998 yil 648 b.
[5] D.Rikardo «Siyosiy iqtisod va soliq solishning boshlanishi» Cambridge Universiteti - press, 1951 yil, 133-149 бб.
[6] Dj.Stuart Mill « Siyosiy iqtisod asoslari» 1848 yil
[7] Hecksher Eli 1919. The Effect of foreign Trade on the distribution of income. Economisk Tidskrift, pp 497-512, Bertil Olin. Interregional and international trade. – Cambridge, Massachuset: Harvard university press, 1993

Xalqaro savdoning zamonaviy nazariyalari o‘z tarixiga ega, albatta. Mamlakatlarning nima sababdan o‘zaro oldi-sotdi kilishi masalasi XVII asrning boshlaridanoq iqtisodchi olimlarni qiziqtirib kelgan. Endigina vujudga kelgan iqtisodiy ta’limot maktablari tashqi savdoni rivojlantirishga o‘z e’tiborlarini qaratishgan.

2.2. Xalqaro savdoning klassik nazariyalari

Merkantilistik nazariya.

O‘rta asrlar feodalizmining taraqqiyoti davrida dengiz sayyohchiligi yutuqlariga asoslangan buyuk jugrofiy kashfiyotlar yangi qita’larga borish imkoniyatini berdi. Garbiy yarim sharda topilgan oltin undan pul sifatida foydalanish imkoniyatlarini sezilarli darajada kengaytirdi. Milliy davlatlar mustahkamlana bordi, ularning eng kuchlilari esa kuchsizlarini bosib olib o‘zlarining koloniyalariga aylantirdi va o‘z ta’sir doiralarini kengaytirish uchun kurash olib bordi. Shaharlar iqtisodiy markazlar sifatida yana ham muximroq ahamiyat kasb eta boshladi.

San’atdagi Uygonish davri ta’lim soxasida sifat jihatdan yangi pogonaga sakrashga olib keldi. Ana shunday tarixiy vaziyatda o‘z-o‘zini ta’minlashga qaratilgan feodal nazariyalar doirasidan chetga chiqa oladigan va yangi xo‘jalik tizimi doirasida tovarning ahamiyatini asoslab beradigan hamda milliy davlatlarning xorijga ekspansiyalarini amalga oshirishi zarurligini isbotlab beruvchi iqtisodiy nazariyaga extiyoj tug‘ildi. Merkantilizm ana shunday nazariyaga aylandi.

Merkantilizm iqtisodiy ta’limotning bir yo‘nalishi bo‘lib, u Yevropalik olimlar (Tomas Man (1571-1641), Charlz Davenant (1656-1714) Jan Batist Kolbert (1619-1683), Viliyam Pettilar (1623-1687)) tomonidan ishlab chiqilgan. Merkantilistlar ishlab chiqarishning tovar tabiatiga urg‘u berishgan.

Merkantilistlar nuqtai nazariga ko‘ra, dunyo cheklangan mikdordagi boyliklarga ega, shuning uchun bir mamlakatning boyishi fakatgina boshqa mamlakatning kambag‘allashuvi hisobiga yuz berishi mumkin. Boylikning ko‘payishi qayta taqsimlanish orkali mumkin bo‘lganligi bois, har bir mamlakatga kuchli iqtisodiyotdan tashkari armiya, xarbiy va savdo flotini o‘z ichiga olgan kuchli davlat "mashina"si ham kerakki, u mamlakatning boshka mamlakatlardan ustunligini ta’minlay olsin.

Merkantilistlar iqtisodiy tizimni uch tarmoqdan - ishlab chiqarish, qishloq xo‘jaligi tarmoqlari va xorijiy koloniyalardan tashkil topgan deb hisoblashadi. Savdogarlarga iqtisodiy tizimning muvaffaqiyatli faoliyat olib borishi uchun zarur bo‘lgan eng muhim guruh, mehnatga esa asosiy ishlab chiqarish omili sifatida qaralgan.

Mamlakat boyligini bu mamlakatda mavjud bo‘lgan oltin va kumush miqdori bilan bog‘lagan holda, tashqi savdoning merkantilistik maktabi namoyondalari milliy mavqeini mustahkamlash uchun davlat quyidagilarni amalga oshirishi kerak deb hisoblaydi:

• ijobiy savdo balansini ushlab turish - tovarlarni mamlakatga olib kirishga nisbatan ularni chetga ko‘prok olib chiqish, zero bu mamlakatga oltin kirib kelishini ta’minlaydi, bu esa o‘z navbatida ichki xarajatlar, ishlab chiqarish va bandlikni oshiradi;

• ijobiy savdo qoldig‘ini ta’minlash maqsadida eksportni ko‘paytirish va importni qiskartirish uchun tashqi savdoni tariflar, kvotalar va savdo siyosatining boshqa dastaklari yordamida tartibga solish;

• chetga xomashyo olib chiqishni keskin chegaralash yoki ta’qiklash, mamlakatda qazib olinmaydigan xomashyolarni chetdan bojlarsiz import qilishga ruxsat berish, bu oltin zaxiralarini jamlash va tayyor maxsulotlarning eksport narxlarini past darajada ushlab turish imkoniyatini beradi;

• koloniyalarning metropoliyadan tashqari barcha boshqa mamlakatlar bilan xar qanday savdosini ta’qiqlash, faqat metropoliyagina koloniyalarda ishlab chiqarilgan tovarlarni xorijga sotishi mumkin, shu bilan birgalikda koloniyalarda tayyor tavarlar ishlab chiqarishni ta’qiqlash orqali ularni metropoliya uchun xomashyo etkazib beruvchiga aylantirish.

Merkantilistik qarashlardan iqtisodiy tizim to‘la bo‘lmagan bandlik sharoitida faoliyat olib borayotganligi kelib chiqadi, buning natijasida esa chetdan kirib kelgan qo‘shimcha oltin ortiqcha ishchi kuchi bilan birlashishi va ishlab chiqarishni kupaytirishi mumkin. Aks xolda esa, ya’ni to‘lik bandlik nazarda tutilsa, chetdan oltin kirib kelishi inflyasiyani o‘sishiga olib keladi, bu esa ushbu oltinlardan samarali foydalanish imkoniyatini bermaydi.

Amaldagi iqtisodiy siyosat

Merkantilizm namoyondalari dunyoqarashlari bilan asoslangan amaliy iqtisodiy siyosat qimmatbaxo metallarni ishlatish va ayirboshlash ustidan davlat nazoratini o‘rnatilishiga olib keldi. Hukumat xususiy shaxslar tomonidan oltin va kumushni chetga olib chiqishni ta’qiqlab quyishga harakat qila boshladi. Qo‘lga tushib qolganlar turli jazolarga, xattoki o‘lim jazosigacha mahkum qilindi.

Hukumat tashqi savdoni amalga oshirishni aloxida yunalishlar bo‘yicha va alohida kompaniyalargagina ruxsat berardi. Bu kompaniyalarning asosiy vazifasi savdo balansini ijobiy qoldikka erishishini ta’minlash edi. Usha paytda vujudga kelgan savdo monopoliyalari - «Hudson Bay Company» va «Dutch East India Traiding Company» - bir necha o‘n yillab, XVIII asrning o‘rtalarigacha faoliyat olib bordi. Bundan tashkari, hukumat eksportga subsidiyalar ajratgan, is’temol tovarlar importiga bojxona bojlari joriy etgan, ayni paytda eksport tovarga aylantirish mumkin bo‘lgan xom ashyo importiga boj joriy etilmagan.

Merkantilistlarning xalqaro savdo nazariyasi uchun sezilarli hissasi shundaki, ular mamlakatning iqtisodiy taraqqiyotida xalqaro savdoning ahamiyatini qayd etdilar va uni rivojlantirish modellaridan birini ishlab chiqdilar. Ular zamonaviy iqtisodiyotda ishlatiladigan to‘lov balansi tushunchasini birinchilardan bo‘lib izohlab berishgan.

Merkantilistlar dunyoqarashlarining chegaralanib qolganligi shundaki, ular bir mamlakatning boyishi faqatgina u savdo olib borayotgan boshqa mamlakatning kambagallashuvi xisobiga yuz berishi mumkin deb xisobladilar, xalqaro iqtisodiyot rivojlanib borishi, binobarin mamlakatning rivojlanishi mavjud boylik chegarasida emas, balki bu boylikni ko‘paytirish xisobiga ham yuz berishi mumkinligini tushuna olmadilar. Biroq bir muncha keyinroq vujudga kelgan fiziokratlar ta’limotlaridan farqli ularok, merkantilistlarning qarashlari ilmiy tafakkurni xalqaro iqtisodiyotda klassik maktab g‘oyalari tomon undadi.

Merkantilistlar maktabi iqtisodiyotda bir yuz ellik yil hukmronlik qildi. Buning natijasida XVIII asrning boshlariga kelib, xalqaro savdo barcha mumkin bo‘lgan, ba’zan umuman sun’iy cheklashlar turi bilan urab tashlandi. Turli davlatlar tomonidan ishlab chiqilgan savdo qoidalari nafaqat o‘zaro savdo yo‘liga ulkan g‘ov bo‘lardi, balki tugilib kelayotgan kapitalistik ishlab chiqarish extiyojlariga ham mos kelmas edi.

Ingliz iqtisodchisi David Xyum “narx-oltin-oqimlar” o‘zaro ta’siri mexanizmini ishlab chqish orqali birinchilardan bo‘lib merkantilistlarga zarba berdi. U merkantilistlarning, mamlakat o‘zida mavjud oltin miqdorini cheksiz ko‘paytirib borishi mumkin, bu uning xalqaro bozordagi raqobatbardoshligiga ta’sir ko‘rsatmaydi, degan fikrlarining noto‘g‘riligini ko‘rsatib berdi.

David Xyum savdo balansini ijobiy qoldiqda ushlab turish natijasida oltinning oqib kirishi mamlakat ichida pul taklifining ortishiga, ish haqi va narxlarning ko‘tarilishiga olib kelishi mumkinligiga o‘z e’tiborini qaratdi. Narxlarning oshishi natijasida mamlakatning raqobatbardoshligi pasayadi. Aksincha, oltinning chiqib ketishi mamlakat ichida pul taklifining kamayishiga, ish haqi va narxlarning pasayishiga olib keladi va mamlakat raqobatbardoshligi ortadi. Binobarin, mamlakat savdo balansi qoldig‘ini hamisha ijobiy holatda ushlab tura olmaydi – bunga ichki iqtisodiy omillar yo‘l qo‘ymaydi. Oltinning harakati milliy iqtisodiyotlarni sozlab turadigan nozik mexanizm hisoblanadi, buning natijasida eksport miqdori import miqdori bilan tenglashadi va savdo qoldig‘i nolga aylanadi.

Bu tamoyil quyidagilarga asoslanib ishlab chiqilgan: Muomaladagi pul miqdori bilan narx darajasi o‘rtasida to‘g‘ridan-to‘g‘ri bog‘liqlik mavjud; Har ikki mamlakatda to‘liq bandlik hukmron; Sotiladigan tovarlarga talab narx bo‘yicha egiluvchan; Tovarlar bozorida ham, ishlab chiqarish omillari bozorida ham sof raqobat hukmron; Milliy valyuta oltinga, oltin milliy valyutaga erkin ayirboshlanadi.

Mana shu shartlar bajarilganda savdo balansining muvozanatlashuvi avtomat ravishda yuz beradi.

Shunday qilib, merkantilistlar birinchi bo‘lib xalqaro savdoning o‘ziga xos modelini taklif etdilar. Ular mamlakatning boyligi mamlakatda mavjud bo‘lgan oltin va kumush miqdori bilan bog‘liq deb hisobladilar. Merkantilistlar tovarlarni mamlakatga olib kirishga nisbatan ularni chetga qo‘proq olib chiqish, eksportni ko‘paytirish va importni qisqartirish uchun tashqi savdoni tartibga solish, chetga xomashyo olib chiqishni keskin chegaralash yoki ta’qiqlash, xomashyolarni chetdan bojlarsiz import qilishga ruxsat berish, koloniyalarning metropoliyadan tashqari barcha boshqa mamlakatlar bilan har qanday savdosini ta’qiqlash kerak deb ta’kidlaydilar.

Keyinchalik klassik nomini olgan maktab vakillari tashki savdoga merkantilistcha karashlarga keskin zarba berishdi.

Mutloq ustunlik nazariyasi

Merkantilistlarga keskin zarba bergan iqtisodchilardan biri Adam Smit bo‘ldi. Adam Smit millat boyligi to‘plangan oltin miqdoriga emas, balki mamlakatning pirovard tovar va xizmatlar ishlab chiqara olish qobiliyatiga ko’prok bog‘liqligini anik-ravshan asoslab berdi. Shuning uchun ham asosiy masala oltinga ega bo‘lishda emas, asosiy masala mehnat taqsimoti va mehnat kooperatsiyasi xisobiga ishlab chiqarishni rivojlantirish xisoblandi. Ishlab chiqaruvchilar iqtisodiy jixatdan mutloq erkin, mavjud qonunlar doirasida o‘z faoliyatlari turini mustaqil ravishda tanlay oladigan sharoitlarda eng yaxshi natijaga erishish mumkin. Bu siyosat "lesse-fer" nomini oldi.

@ «Lesse-fer» (fr. fr. laissez-faire) — iqtisodiyot va erkin raqobatga davlatning aralashmaslik siyosati[8].

Adam Smitning tashki savdo siyosati bir qancha farazlarga asoslangan. U quyidagilarni aksioma sifatida qabul kiladi:

- Mehnat Yagona ishlab chiqarish omili;
- To‘lik bandlikka erishilgan, ya’ni barcha mavjud resurslardan tovar ishlab chiqarishda foydalaniladi;
- Xalqaro savdoda ikki mamlakat ishtirok etadi, bu mamlakatlar ikki xil tovar bilan o‘zaro savdo olib boradi;
- Ishlab chiqarish xarajatlari doimiy, ularning kamayishi tovarga bo‘lgan talabni ko‘paytiradi;

[8] A.Smit “Xalqlar boiligining tabiati va sabablari”Oksford Universiteti - press, 1998 yil 648 b.

- Bir tovarning narxi ikkinchi tovarni ishlab chiqarishga sarflangan mehnat bilan ifodalangan;
- Tovarni bir mamlakatdan ikkinchisiga tashish bo‘yicha transport xarajatlari nolga teng;
- Tashki savdo cheklashlar va reglamentatsiyalardan xoli. Adam Smit qarashlariga muvofiq ravishda:
- Hukumat tashqi savdoga aralashmasligi, ochiq bozorlar rejimi va erkin savdoni qullab-quvvatlashi kerak;
- Millatlar, xususiy shaxslar ham o‘zlari ustunlikka ega bo‘lgan tovarlarni ishlab chiqarishga ixtisoslashishi va bu tovarlarni ishlab chiqarilishida boshqa mamlakatlar ustunlikka ega bo’lgan tovarlarga ayirboshlash asosida savdo qilishi kerak;
- Tashqi savdo bozorni mamlakat sarhadlaridan tashqariga kengaytirish orqali mehnat samaradorligini rivojlantirishni ragbatlantiradi;
- Eksport mamlakat iqtisodiyoti uchun ijobiy omil sanaladi, zero u mamlakat ichkarisida sotish imkoniyati bo‘lmagan ortiqcha tovarlarni sotish imkoniyatini beradi
- Eksportga subsidiyalar ajratilishi axoli uchun ortikcha soliq hisoblanadi va ichki narxlarning ortishiga olib keladi, shuning uchun bu subsidiyalar bekor kilinishi kerak.

@ Mutloq ustunlik nazariyasi — mamlakatlar o‘zlari eng kam xarajatlar bilan ishlab chiqaradigan (ishlab chiqarishda mutlaq ustunlikka ega bo‘lgan) tovarlarni eksport qiladi va boshqa mamlakatlarda eng kam xarajatlar bilan ishlab chiqariladigan (ishlab chiqarishda savdo hamkorlari mutlaq ustunlikka ega bo‘lgan) tovarlarni import qiladi.

Agar ikki mamlakat savdo hamkoriga nisbatan kam xarajatlar bilan ishlab chiqaradigan (ya’ni mamlakat ishlab chiqarish xarajatlari bo‘yicha mutlaq ustunlikka ega bo‘lgan) tovarlar bilan o‘zaro savdo qilganda xalqaro savdo foydali bo‘ladi. Mehnat Yagona ishlab chiqarish omili bo‘lganligi bois ishlab chiqarish xarajatlarida mutlaq ustunlik sharti bir birlik tovarni ishlab chiqarishga sarflanadigan vaqt bir mamlakatda ikkinchisidan kamroq bo‘lishini anglatadi. Agar to‘liq bandlik hukmron bo‘lsa, ya’ni tovarlar ishlab chiqarishda barcha mavjud resurslardan to‘liq foydalanilyapti deb faraz qilaylik, bir mamlakat doirasida bu shartning bajarilishini quyidagi formula orqali ifodash mumkin:

$$A_1Q_1 \text{ Q } A_2Q_2 \leq L, \qquad (1)$$

Bu erda A_1 - bir birlik birinchi tovarni ishlab chiqarishga sarflangan vaqt, A_2 - bir birlik ikkinchi tovarni ishlab chiqarishga sarflangan vaqt, Q_1 - ishlab chiqarilgan birinchi tovar miqdori, Q_2 - ishlab chiqarilgan ikkinchi tovar miqdori, L - mamlakatdagi mavjud mehnat resurslari. Formuladan ko‘rinib turibdiki, birinchi tovar ishlab chiqarishni ko‘paytirish uchun mamlakat ikkinchi tovar ishlab chiqarishini qisqartirishga majbur. Va, aksincha, ikkinchi tovar

ishlab chiqarilishining har qanday ko‘paytirilishi birinchi tovar ishlab chiqarilishining kamayishiga olib keladi.

Ikkinchi mamlakatni ko‘rib chiqaylik. Bu mamlakatda A_1' - bir birlik birinchi tovarni ishlab chiqarishga sarflangan vaqt, A_2' - bir birlik ikkinchi tovarni ishlab chiqarishga sarflangan vaqt.

Agar birinchi mamlakatda birinchi tovarni ishlab chiqarish uchun ikkinchi mamlakatga nisbatan kam vaqt sarflansa (bu birinchi mamlakat ikkinchisiga nisbatan mutlaq ustunlikka ega ekanligini bildiradi) bu mamlakat bu tovarni ikkinchi mamlakatga eksport qiladi: $A_1<A_1'$

Agar ikkinchi mamlakatda ikkinchi tovarni ishlab chiqarish uchun birinchi mamlakatga nisbatan kam vaqt sarflansa (bu ikkinchi mamlakat birinchisiga nisbatan mutlaq ustunlikka ega ekanligini bildiradi) bu mamlakat ikkinchi tovarni birinchi mamlakatga eksport qiladi: $A_2<A_2'$

Mutlaq ustunlik nazariyasining kuchli tomoni shundaki, u mehnatning qiymat nazariyasiga asoslangan va mehnat taqsimotining yaqqol ustunliklarini nafaqat milliy miqyosda, balki xalqaro miqyosda ham ko‘rsatib beradi. Xalqaro savdoni tushuntirib berishda uning cheklanganligi ham yaqqol ko‘rinib turadi.

Bu nazariya u yoki bu tovarlarni ishlab chiqarishda mutlak ustunlik bo‘lmaganda mamlakatlar nima sababdan o‘zaro savdo olib borishini tushuntirib bera olmaydi.

Nisbiy ustunlik nazariyasi

Adam Smit nazariyasiga ko‘ra, ishlab chiqarish omillari mamlakat ichkarisida to‘liq harakatchan, ya’ni ular yukori mutlak ustunlikka ega bo‘ladigan hududlarga bemalol ko‘chib o‘ta oladi. Ertami kechmi ishlab chiqarish omillarining ko‘chib o‘tishi natijasida bir hududning boshkasidan ustunligi yo‘kolib boradi va omillardan keladigan foyda barobarlashib boradi. Demak o‘zaro savdo to‘xtab kolishi kerakdek tuyuladi. Birok David Rikardo mutlaq ustunliklar nazariyasini rivojlantirdi va ikki mamlakat o‘rtasida o‘zaro savdo ularning xech biri ma’lum bir tovarni ishlab chiqarishda mutlak ustunlikka ega bulmaganda ham foydali bulishini kursatib berdi.

Mutlaq ustunlik nazariyasidagi kabi ma’lum bir farazlardan kelib chiqib, nisbiy ustunlik nazariyasi muqobil narx yoki boshqacha qilib aytganda o‘rnini qoplash xarajatlari (narxi) tushunchasidan foydalaniladi. Muqobil narx ikki tovarning ularni ishlab chiqarishga sarflangan ish vaqti orqali ifodalangan narxlarini solishtirishni aks ettiradi (1 birlik tovar ishlab chiqarishga 2 soatlik mehnat sarflangan). O‘rnini qoplash xarajatlari ma’no jihatidan muqobil narxga deyarli mos keladi, farqi shundaki, bunda mehnat sarfiga teskari miqdorlar – vaqt birligida ishlab chiqarilgan tovar birliklari solishtiriladi (1 soat vaqt birligida 1G’5 birlik tovar ishlab chiqarilgan).

@ Muqobil narx (opportunity cost) - bir birlik tovarni ishlab chiqarish uchun zarur bo‘lgan ish vaqtining boshqa bir birlik tovarni ishlab chiqarish uchun zarur bo‘lgan ish vaqti bilan ifodalanishidir.

Ikki o‘zgaruvchi orasidagi to‘g‘ridan to‘g‘ri bog‘liqlikni hisobga olgan holda, 2-tovarni ishlab chiqarish uchun zarur bo‘lgan vaqt miqdori bilan ifodalangan 1-tovarni ishlab chiqarish uchun zarur bo‘lgan muqobil xarajatlar $\mathbf{A_1G'A_2}$ ni tashkil qiladi.

Faraz qilaylik, ma’lum bir tovarlarni ishlab chiqarish uchun zarur bo‘lgan muqobil xarajatlar I mamlakatda II mamlakatga nisbatan kamroq, ya’ni:

$$(A_1G'A_2) < (A_1{*}G'A_2{*}) \qquad (1)$$

Yoki boshqacha qilib ifodalaganda,

$$(A_1G'\ A_1{*}) < (A_2G'A_2{*}) \qquad (2)$$

1 formula nisbiy ustunlikni ifoda etuvchi formula bo‘lib, u ma’lum bir mamlakatda 2-tovarni ishlab chiqarish uchun zarur bo‘lgan xarajatlar orqali ifodalangan 1-tovarga sarflangan ishlab chiqarish xarajatlari boshqa mamlakatda xuddi shu tovarni (2-tovarni ishlab chiqarish uchun zarur bo‘lgan xarajatlar bilan ifodalangan) ishlab chiqarish xarajatlaridan kamligini ko‘rsatadi. Bu har qanday ikki mamlakat va har qanday ikki tovar uchun o‘rinlidir, zero nisbiy ustunlik faqatgina har bir mamlakatdagi mehnat samaradorligi nisbatiga bog‘liq bo‘ladi.

@ Nisbiy ustunlik nazariyasi - agar bir mamlakat boshqa mamlakat bilan solishtirganda nisbatan kamroq xarajatlar bilan ishlab chiqara oladigan tovarlarni ishlab chiqarishga ixtisoslashsa ularning birida ishlab chiqarish boshqasiga nisbatan mutlaq samaraliroq bo‘lishidan qat’iy nazar o‘zaro savdo har ikki mamlakat uchun foydali bo‘ladi.

Nisbiy talab (RD - relative demand) va nisbiy taklif (RS - relative supply) grafiklarini chizish uchun I va II mamlakatlarda ishlab chiqarilgan 1-tovar va 2-tovarlarning nisbiy miqdori bilan ularning nisbiy narxlari o‘rtasidagi bog‘liqlikni o‘rnatish kerak. (1 rasm).

Har ikki mamlakat tomonidan ishlab chiqarilgan 1-tovarning nisbiy miqdori quyidagicha bo‘ladi:

$$(Q_1Q\ Q_1^{*})G'(\ Q_2\ QQ_2^{*}) \qquad (1)$$

1-tovarning nisbiy jahon narxi esa quyidagiga teng bo‘ladi:

$$P_1G'R_2 \qquad (2)$$

Ushbu holatni quyidagi 2.1-rasm misolida ko‘rishimiz mumkin.

I mamlakat 1-tovarni ishlab chiqarishda nisbiy ustunlikka ega. Bu esa 1-tovarning sarflangan mehnat xarajatlarini solishtirish orqali ifodalangan nisbiy narxi II mamlakatdagiga nisbatan kamligini bildiradi va rasmda 1-tovarning II mamlakatdagi nisbiy narxi ($A_1^{*}G'A_2^{*}$)dan pastroqda joylashgan. 1-tovarning nisbiy taklifi uning I va II mamlakatlardagi nisbiy bahosi hamda uning jahon bozoridagi nisbiy narxiga bog‘liq bo‘ladi.



2.1.- rasm. Nisbiy jahon narxining shakllanishi.

Nazariy jihatdan bir necha variant bo‘lishi mumkin: Agar 1-tovarning nisbiy jahon narxi uning I mamlakatdagi nisbiy narxidan (**$R_1G'R_2$ < $A_1G'A_2$**), o‘z navbatida, II mamlakatdagi nisbiy narxdan ham pastroq bo‘lganda 1-tovar ishlab chiqarilmaydi, zero uni sotish foyda keltirmaydi, chunki jahonda ikki mamlakat bor xolos.

Agar 1-tovarning nisbiy jahon narxi uning I mamlakatdagi nisbiy narxiga teng bo‘lsa (**$R_1G'R_2$ q $A_1G'A_2$**), bu vaziyatda I mamlakatdagi ishchilar har ikki tovar uchun bir xil narxga ega bo‘lishadi, shuning uchun ularga bu ikki tovardan qaysi birini ishlab chiqarishning farqi yo‘q (RS nisbiy taklif grafigining pastki gorizontal qismi).

Agar 1-tovarning nisbiy jahon narxi uning I mamlakatdagi nisbiy narxidan yuqori (**$R_1G'R_2$ > $A_1G'A_2$**) bo‘lsa, bu mamlakat 1-tovarni ishlab chiqarishga ixtisoslashadi. Ayni paytda, 1-tovarning nisbiy jahon narxi uning II mamlakatdagi nisbiy narxidan pastroq bo‘lganda (**$R_1G'R_2$ < $A_1^*G'A_2^*$**) II mamlakat 2-tovarni ishlab chiqarishga ixtisoslashadi (RS nisbiy taklif nisbiy taklif egri chizig‘ning vertikal qismi). Har ikki mamlakatdagi mehnat resurslari (mos ravishda **L va L^***) cheklanganligi bois, I mamlakat 1-tovarga ixtisoslashganda uni ishlab chiqarish hajmi **$LG'A_1$** va o‘z navbatida, II mamlakat 2-tovarga ixtisoslashganda uni ishlab chiqarish hajmi **$L^*G'A_2^*$** ni tashkil etadi. Shuning uchun 1-tovarning nisbiy narxi **$A_1G'A_2$ va $A_1^*G'A_2^*$** chegarasida bo‘ladi, bu tovarning nisbiy taklifi esa quyidagiga teng bo‘ladi:

$$(LG'A_1)\,G'\,(L^*G'A_2^*) \qquad (3)$$

Agar 1-tovarning nisbiy jahon narxi uning II mamlakatdagi nisbiy narxiga teng bo‘lsa (**$R_1G'R_2$ q $A_1^*G'A_2^*$**), II mamlakat uchun qaysi tovarni ishlab chiqarishning farqi yo‘q: 1-tovar uchun ham, 2-tovar uchun ham bir xil narxga ega bo‘ladi (RS nisbiy taklif nisbiy taklif egri chizig‘ning yuqori gorizontal qismi).

Agar 1-tovarning nisbiy jahon narxi uning II mamlakatdagi nisbiy narxidan yuqori (**$R_1G'R_2 > A_1^*G'A_2^*$**), o‘z navbatida, I mamlakatdagi nisbiy narxdan ham yuqori bo‘lganda 2-tovar ishlab chiqarilmaydi. Har ikki mamlakat 1-tovarni ishlab chiqarishga ixtisoslashadi. 1-tovar nisbiy taklifi grafigi cheksizlikka intiladi.

Mamlakatlar o‘zlari nisbiy ustunlikka ega bo‘lgan tovarlarni ishlab chiqarishga ixtisoslashganda o‘zaro savdo har ikki mamlakat uchun qay darajada nafliligini qanday hisoblash mumkin degan haqli savol tug‘iladi.

@ Savdodan keladigan yutuq (gains from trade) - mamlakatlar o‘zlari nisbiy ustunlikka ega bo‘lgan tovarlarni ishlab chiqarishga ixtisoslashganda savdoda ishtirok etuvchi har ikki mamlakat bu savdodan oladigan iqtisodiy naf.

Savdodan keladigan yutuq mamlakatning o‘z tovarlari hisobiga ichki bozordagiga nisbatan chetdan xorijiy tovarlarga ko‘proq ega bo‘lishi natijasida vujudga keladi. Savdodan keladigan yutuqqa ikki taraflama qarash mumkin: mehnat xarajatlarini tejash va iste’molning ko‘payishi.

I mamlakat bir birlik ish vaqtida **$1G'A_1$** ta 1-tovarni va **$1G'A_2$** ta 2-tovarni ishlab chiqara oladi, 1-tovarning 2-tovar narxi orqali ifodalangan nisbiy narxi avvalgidek, **$R_1G'R_2$** ga teng. Binobarin, mamlakat vaqt birligida **$(1G'A_1)x(R_1G'R_2)$** ta 2-tovarni import qila oladi. Toki 1-tovarni xorijga sotish orqali II mamlakatdan 2-tovarni o‘z ichki bozoriga nisbatan ko‘proq sotib olish imkoni bor ekan, chetdan tovar sotib olish I mamlakat uchun foydali bo‘ladi, ya’ni:

$$(1G'A_1)x(R_1G'R_2) > (1G'A_2) \qquad (1)$$

Yoki tengsizlikni har ikki tomonini **$(1G'A_1)$** ga bo‘lsak:

$$(R_1G'R_2) > (A_1G'A_2) \qquad (2)$$

2 tengsizlik nisbiy ustunlik nazariyasining mamlakatlar o‘zlari nisbiy ustunlikka ega bo‘lgan tovarlarni ishlab chiqarishga ixtisoslashuvini ifoda etuvchi asosiy tenglamasiga ekvivalent. Shuning uchun I mamlakat uchun 2-tovarga ega bo‘lishning eng samarali usuli 1-tovarni ko‘proq ishlab chiqarib uni 2-tovarga ayirboshlashdan iborat. II mamlakat uchun esa aksincha, 1-tovarga ega bo‘lishning eng samarali usuli 2-tovarni ko‘proq ishlab chiqarib uni 1-tovarga ayirboshlashdan iborat.

Savdodan keladigan yutuqni har ikki mamlakatda birinchi va ikkinchi tovarlar iste’moli miqdorining qanchaga ko‘payishi ham belgilaydi. (2.2.-rasm).



2.2.-rasm. Savdo natijasida iste'molning ortishi.

Agar I mamlakatning ishlab chiqarish imkoniyatlari egri chizig'i AB, II mamlakatniki esa A*B* ni tashkil etsa, mamlakatlar o'rtasida savdoning rivojlanishi natijasida ularning har biri birinchi va ikkinchi tovarlarni ko'proq miqdorda iste'mol qila oladi. Natijada I mamlakat ixtiyorida S ta 2-tovar, II mamlakat ixtiyorida esa S* ta 1-tovar bo'ladi. Rasmdan ko'rinib turibdiki, har ikki holatda ishlab chiqarish imkoniyatlari egri chizig'i surildi va OCB hamda OA*C* uchburchaklarning yuzi oldingi AOB (I mamlakat uchun) hamda OA*B* (II mamlakat uchun) uchburchaklar yuzidan sezilarli darajada kattaroqdir.

Nisbiy ustunliklar nazariyasida jahon ikki mamlakatdan iborat va ular ikki tovar bilan savdo qiladi deb faraz qilingan edi. Amalda esa bunday holatning bo'lishi mumkin emas, albatta. Jahondagi mamlakatlar ichidan ikkitasining faqat ikki tovar bilan o'zaro savdosini o'rganmoqchi bo'lsak ham, bu savdoni ushbu mamlakatlar va boshqa mamlakatlar umumiy savdosidan hamda juda ko'p miqdordagi tovarlar orasidan ajratib olishning imkoni yo'q.

Nisbiy ustunlik nazariyasining ahamiyatini baholash juda mushkul, albatta. U bir necha o'n yillar davomida xalqaro savdoni tushuntirib beruvchi va barcha iqtisodiy bilimlarga kuchli ta'sir o'tkaza olgan asosiy nazariyalarning biri bo'lib qoldi. Iqtisodiyotdagi klassik maktab vakillari tomonidan qilingan ko'p sonli o'zgartirishlar va kengaytirishlar bilan nisbiy ustunlik nazariyasi amalda birinchi bo'lib jami talab va jami taklif muvozanatini izohlab berdi. Tovar qiymati uni ishlab chiqarishga sarflangan mehnat miqdori bilan aniqlanishi ko'zda tutilgan bo'lsa-da, nisbiy ustunlik nazariyasi tovarning qiymati ushbu tovarga ham mamlakat ichidagi, ham xorijdagi jami talab va taklifning nisbati bilan aniqlanishini ko'rsatib berdi.

Albatta, nisbiy ustunlik nazariyasi mavhum va juda soddalashtirilgan tabiatga ega va xalqaro savdoga bevosita ta'sir ko'rsatadigan bir qator hodisalarni e'tiborga olmaydi.

Nazariyaning cheklanganligi uni yaratilishida qilingan farazlar bilan bog‘liq. Shuning uchun u yoki bu tovar oqimlarini nisbiy ustunlik nazariyasini qo‘llagan holda tahlil qilishda quyidagilarni e’tiborga olish kerak, ya’ni bu nazariya:

• transport xarajatlarini e’tiborga olmaydi, bu xarajatlar shunday miqdorga etishi mumkinki, mamlakat bir tovarni ishlab chiqarishga sarflangan mehnat xarajatlari bo‘yicha nisbiy ustunlikka ega bo‘lsa-da, ushbu tovarni xorijga eksport qilish naf keltirmasligi mumkin;

• mamlakat ichida daromadlarning qayta taqsimlanishiga, narx va ish haqining o‘zgarishiga, inflyatsiya, xalqaro kapital harakatiga tashqi savdoning ta’sirini inobatga olmaydi;

• faqat bitta ishlab chiqarish omili (mehnat) mavjudligidan kelib chiqadi, mamlakatlarning ishlab chiqarish omillari bilan bir xil ta’minlanmaganligi kabi xalqaro savdoning dastlabki shartlariga e’tibor bermaydi;

• to‘liq bandlik shartidan kelib chiqadi, ya’ni ishchilar bir tarmoqdan ketar ekan boshqa yanada samaraliroq tarmoqda ish topadi, ishsiz qolmaydi deb faraz qilinadi;

• biri ikkinchisi oldida nisbiy ustunlikka ega bo‘lmagan taxminan bir xil mamlakatlar o‘rtasidagi savdoni tushuntirib bera olmaydi.

Ishlab chiqarish omillari nisbiy nazariyasi

Nisbiy narxlardagi farq mamlakatlarning ishlab chiqarish omillari bilan notekis ta’minlanganligi bilan tushuntiriladi degan g‘oyani ilgari suruvchi xalqaro savdo nazariyasi ham mutlaq va nisbiy ustunlik nazariyalari kabi bir qator gipotezalarga asoslangan.

Ishlab chiqarish omillari nisbiy nazariyasi ishlab chiqarish omillari, bozor, ishlab chiqarish, tovarlar tabiatiga o‘ziga xos munosabat jihatidan gipotezalarga asoslangan. Bu gipotezalarning ko‘pchiligidan mutlaq va nisbiy ustunlik nazariyalarida ham foydalanilgan. Farqi shundaki, ishlab chiqarish omillari nisbiy nazariyasida avvalgidek ikki mamlakat va ikki tovar bo‘lsa-da, tovarning biri mehnat sig‘imli, ikkinchisi kapital sig‘imli bo‘lib, ishlab chiqarish omillari ham ikkita: mehnat - L hamda kapital - K. Bundan tashqari har ikki mamlakat ishlab chiqarish omillari bilan bir xil ta’minlanmagan. Mehnatning qiymat nazariyasi inkor etilmaydi, faqatgina qiymatning yaratilishida mehnatdan tashqari boshqa ishlab chiqarish omillari ham ishtirok etadi, degan fikr bilan to‘ldiriladi. Ayni paytda mamlakat u yoki bu tovarga to‘liq ixtisoslashmaydi va har ikki mamlakatda texnologiya bir xil. Shunday qilib, ishlab chiqarish omillari nisbati nazariyasidagi asosiy gipotezalardan biri alohida olingan tovarning mehnat yoki kapital sig‘imliligi hamda mamlakatlarning ishlab chiqarish omillari bilan bir xil ta’minlanmaganligi hisoblanadi.

Omillar intensivligi (factor intensity) - ma’lum bir tovarni yaratish uchun ishlab chiqarish omillari nisbiy sarfini belgilovchi ko‘rsatkich.

2-tovar 1-tovarga nisbatan kapital sig‘imliroq hisoblanadi, agar bu tovarni ishlab chiqarishda sarflangan mehnat va kapital xarajatlari nisbati 1-tovarga sarflangan xuddi shu xarajatlar nisbatidan ko‘proq bo‘lsa, ya’ni:

$$(K_2G'L_2) > (K_1G'L_1)$$

Omillar serobligi (factor abundance) - mamlakatning ishlab chiqarish omillari bilan nisbiy ta’minlanganligini belgilovchi ko‘rsatkich.

Omillar serobligi ikki usul bilan aniqlanishi mumkin: har bir ishlab chiqarish omilining nisbiy narxlari orqali va ishlab chiqarish omillarining mutlaq miqdori orqali. II mamlakat kapital bilan yaxshiroq ta’minlangan sanaladi, agar bu mamlakatda kapital va mehnat narxlari nisbati birinchi mamlakatdagi xuddi shu nisbatdan kichikroq bo‘lsa, ya’ni kapital II mamlakatda I mamlakatga nisbatan arzonroq bo‘lsa:

$$(P_k{*}G'P_L{*}) < (P_kG'P_L)$$

Odatda kapital bahosi deganda foiz stavkasi, mehnat bahosi deganda esa ish haqi tushuniladi. Bu erda ham gap omillar intensivligi holatidagi kabi nisbiy ko‘rsatkichlar haqida ketyapti.

Agar omillar serobliligini ishlab chiqarish omillarining mutlaq miqdori bilan aniqlaydigan bo‘lsak, u holda II mamlakatda mavjud kapital umumiy hajmining ishchi kuchi umumiy hajmiga nisbati I mamlakatdagi xuddi shu nisbatdan yuqoriroq bo‘lsa, II mamlakat I mamlakatga nisbatan kapitalga boy sanaladi:

$$(T_kG'T_L) > (T_k{*}G'T_L{*})$$

Omillar serobliligining birinchi ta’rifi bozor muvozanatining har ikki tomoni – talab va taklifni hisobga oladi, chunki ta’rif omillar narxi orqali berilyapti, narx esa talab va taklifning muvozanati natijasidir. Ishlab chiqarish omillari narxi u yoki bu mamlakatda ularga ega bo‘lish imkoniyati darajasini hamda uning texnologik rivoji saviyasini aks ettiradi. Ikkinchi ta’rif esa talabni inkor etgan holda faqatgina taklifni inobatga oladi. Taklif ham ushbu holatda juda muhim, chunki u yaratilishida ishlab chiqarish omillari foydalaniladigan pirovard tovarlarga bo‘lgan talabdan kelib chiquvchi hosilaviy talab hisoblanadi.

Turli ta’riflardan foydalanish ham bir xil, ham turli natijalarga olib kelishi mumkin. Agar birinchi va ikkinchi tovarlarga har ikki mamlakatda talab bir xil bo‘lsa, har bir ta’rifdan foydalanish natijasi bir xil bo‘ladi: Yaponiyada kapitalning umumiy miqdorin mehnatning umumiy miqdoriga nisbati O‘zbekistondagiga nisbatan kamroq bo‘lgani bois Yaponiya har ikki ta’rif bo‘yicha kapital serob mamlakat hisoblanishi mumkin. Agar O‘zbekistonga nisbatan Yaponiyada kapitalga talab ortib bordi deb faraz qilsak, bu mamlakatda kapital taklifi nisbatan ko‘p bo‘lishidan qat’iy nazar, Yaponiyada kapitalning nisbiy narxi O‘zbekistonga nisbatan yuqori bo‘ladi. Bu vaziyatda Yaponiya ikkinchi ta’rifga ko‘ra, mutlaq miqdor bo‘yicha kapital

serob, ammo nisbiy narxlarga asoslangan birinchi ta’rifga ko‘ra esa mehnat serob mamlakat hisoblanadi, chunki bu mamlakatda mehnat narxi nisbatan arzon bo‘ladi. Shunga o‘xshash ziddiyatlarga duch kelmaslik uchun u yoki bu mamlakatda omillar serobligini aniqlashda birinchi ta’rifdan foydalangan ma’qulroq.



2.3.-rasm. Mamlakatlarning ishlab chiqarish omillari bilan notekis ta’minlanganligi holatidagi ishlab chiqarish imkoniyatlari chegaralari

Ishlab chiqarish omillari bilan notekis ta’minlanganligi nazariyasi xalqaro savdo uchun asos sifatida bir-biri bilan o‘zaro bog‘liq ikki teorema ko‘rinishida ifodalanishi mumkin: Xeksher-Olin teoremasi va ishlab chiqarish omillari narxining muvozanatlashuvi teoremasi.

Xeksher-Olin teoremasi (Heckscher-Ohlin Theorem) - har bir mamlakat o‘z ishlab chiqarishlarida nisbatan katta hajmga ega bo‘lgan omillarni talab etuvchi mahsulotlarni ustun darajada ishlab chiqarish va eksport qilishga ixtisoslashadi, binobarin, bu mamlakatlar milliy xo‘jalik nuqtai nazaridan nisbatan kamchil omillar bilan ta’minlangan tovarlarni import qiladilar.

O‘zbekiston mehnat serob mamlakat, 1-tovar esa mehnat sig‘imli tovar bo‘lgani bois, bu mamlakat 1-tovarni ishlab chiqaradi va eksport qiladi. Yaponiya kapital serob mamlakat, 2-tovar esa kapital sig‘imli tovar bo‘lgani sababli bu mamlakat 2-tovarni ishlab chiqaradi va eksport qiladi. Nisbatan serob ishlab chiqarish omillari egalari savdodan yutadi, nisbatan kamchil ishlab chiqarish omillari egalari esa savdodan yutqazadi.



2.4.-rasm. Mamlakatlarning ixtisoslashuvga kirishi

Teoremani isbotlash va tushuntirish uchun grafiklarga murojaat qilamiz. O‘zbekiston mehnat resurslariga boy mamlakat, 1-tovar mehnat sig‘imli tovar, Yaponiya kapitalga boy mamlakat, 2-tovar esa kapital sig‘imli tovar ekanligini eslatib o‘tamiz. Qabul qilingan shartlarga muvofiq ravishda teorema har ikki mamlakatdagi iste’molchilar juda o‘xshash yoki deyarli bir xil didga ega ekanligini nazarda tutadi. Nazariy jihatdan har bir mamlakatdagi icte’molchilarning did va istaklari shunchalik farq qilishi mumkinki, befarqlik egri chizig‘i umuman mos kelmasligi va hattoki umuman kesishmasligi mumkin. Bu holatda Xeksher-Olin teoremasi bajarilmaydi. Bu teorema iste’molchilar xohish va istaklari har ikki mamlakatda batamom bir xil va Yagona befarqlik egri chizig‘iga qo‘shilib ketishini talab etmaydi, balki bu xohish istaklar mamlakatlarni avtarkiya sharoitida qoldiradigan va ularni o‘zaro savdo qilishdan voz kechishga olib keladigan darajada farq qilmaydi deb taxmin qiladi. Shunday bo‘lsa-da, har bir mamlakatdagi icte’molchilarning did va istaklari shunchalik o‘xshashki, befarqlik egri chizig‘i har ikki mamlakat uchun bir xil bo‘lsin deb faraz qilamiz.

Yagona befarqlik egri chizig‘i O‘zbekistonning ishlab chiqarish imkoniyatlari egri chizig‘i bilan A nuqtada o‘zaro Yagona nuqtaga ega. Yaponiyada esa bu A* nuqtada joylashgan. Shunday qilib, I befarqlik egri chizig‘i va A hamda A* nuqtalar o‘zaro savdo bo‘lmagan sharoitda har ikki mamlakatdagi mumkin bo‘lgan maksimal ishlab chiqarish va iste’mol hajmini ifoda etadi, urinma chiziqlar esa, 1- va 2-tovarning O‘zbekiston va Yaponiyadagi nisbiy narxlarini (P va P*) ko‘rsatadi. Grafikdan R < R* ekanligi ko‘rinib turibdi, binobarin O‘zbekiston 1-tovarni, Yaponiya 2-tovarni ishlab chiqarish bo‘yicha nisbiy ustunlikka ega.

Savdoni rivojlantirgan holda mehnat serob sanalgan O‘zbekiston mehnat sig‘imli 1-tovarni, kapital serob bo‘lgan Yaponiya esa kapital sig‘imli 2-tovarni ishlab chiqarishga ixtisoslasha boshlaydi

Bunda ishlab chiqarish va iste'mol hajmini ko'rsatuvchi nuqtalar O'zbekistonda A dan B ga, Yaponiyada A* dan B* ga ko'chadi. Ixtisoslashuv mamlakatlar umumiy ekvivalent nisbiy jahon narxi - P_w darajasiga chiqquncha davom etadi. Bu narx esa, yuqorida ko'rsatib o'tganimizdek, har ikki mamlakatdagi savdo boshlanmasdan oldingi ichki narxlar o'rtasida joylashdi, ya'ni $P<P_w<P^*$. Chizmada P_w har ikki mamlakatning ishlab chiqarish imkoniyatlari egri chizig'i va yangi II befarqlik egri chizig'iga o'tkazilgan urinmani aks ettiradi.

E nuqta A nuqta bilan solishtirganda O'zbekistonda "o'z" tovari "begona" tovardan kam iste'mol qilinganligini nazarda tutsa-da, O'zbekiston o'zaro savdodan yutadi, chunki uning yangi befarqlik egri chizig'i yuqoriroqda joylashgan va iste'molning ortganligini ko'rsatib turibdi. Xuddi shunday holat Yaponiyada ham kuzatiladi: E* nuqta A* nuqta bilan solishtirganda Yaponiyada "o'z" tovari "begona" tovardan kam iste'mol qilinganligini nazarda tutsa-da, Yaponiya ham o'zaro savdodan yutadi, chunki uning yangi befarqlik egri chizig'i ilgarigisidan yuqoriroqda joylashgan va iste'molning ortganligini ko'rsatib turibdi. Demak, har ikki mamlakat o'zaro savdo natijasida yutuqqa erishdi, zero ularning befarqlik egri chiziqlari grafikda yuqoriga ko'tarildi.

Savdo natijasida ayirboshlanayotgan tovarlarning nisbiy narxlari bir-biriga yaqinlashish tamoyiliga ega. Agar tovarlarning nisbiy narxi mamlakatlarning ishlab chiqarish omillari bilan ta'minlanganligi darajasi hamda bu omillarning nisbiy narxlariga bog'liq deb faraz qilinsa, tabiiy savol tug'iladi: tovarlar narxining muvozanatlashishi ishlab chiqarish omillari narxiga qanday aks ta'sir ko'rsatadi?

Amerikalik iqtisodchi Pol Samuelson bu savolga javob bera oldi. Samuelson tomonidan isbotlangan Xeksher-Olin teoremasi to'g'riligi shartidan kelib chiquvchi bu teorema ishlab chiqarish omillari narxining muvozanatlashuvi yoki Xeksher-Olin-Samuelson teoremasi nomini oldi.

@ Ishlab chiqarish omillari narxining muvozanatlashuvi (factor price equalization theorem) (Xeksher-Olin-Samuelson teoremasi) - xalqaro savdo olib boruvchi mamlakatlarda gomogen ishlab chiqarish omillarining mutlaq va nisbiy narxlarini muvozanatlashuviga olib keladi.

Nisbiy narxlarning muvozanatlashuvi teoremasining grafik talqini 2.5.-rasmda ifodalangan.



2.5.-rasm. Ishlab chiqarish omillari narxining muvozanatlashuvi

Kapital narxi (r) orqali ifodalangan mehnat narxi (w), ya'ni mehnatning ishlab chiqarish omili sifatidagi nisbiy narxi (wG'r) gorizontal. 1-tovarning 2-tovar narxi orqali ifodalangan nisbiy narxi ($R_1G'R_2$) esa vertikal o'qqa joylashtirilgan.

Mehnatning ishlab chiqarish omili sifatidagi nisbiy narxi O'zbekistonda OG, Yaponiyada esa OI ni, mos ravishda 1-tovarning nisbiy narxi O'zbekistonda OF, Yaponiyada esa OD ni tashkil etadi. Mamlakatlar o'rtasida savdo boshlanmasdan oldin O'zbekistonda A, Yaponiyada B nuqtada bozor muvozanatiga erishilgan. O'zaro savdodan avval (wG'r) nisbat O'zbekistonda Yaponiyaga nisbatan kichik bo'lgani uchun u mehnat sig'imli 1-tovarni, Yaponiya esa kapital sig'imli 2-tovarni ishlab chiqarish bo'yicha nisbiy ustunlikka ega.

Savdo boshlanganidan keyin O'zbekiston mehnat sig'imli 1-tovarga ixtisoslashgani bois bu mamlakatda mehnatga nisbiy talab oshib boradi, bu mehnatning nisbiy narxi (wG'r)ning ortib borishiga, ushbu holat o'z navbatida 1-tovarning nisbiy narxi (**$P_1G'P_2$**)ning ko'tarilishiga olib keladi. Yaponiya kapital sig'imli 2-tovarga ixtisoslashgani bois bu mamlakatda kapitalga nisbiy talab oshib borishi kapitalning nisbiy narxi (rG'w)ning ortib borishiga yoki mehnatning nisbiy narxi (wG'r)ning pasayishiga, bu esa o'z navbatida 2-tovarning nisbiy narxi (**$R_2G'R_1$**)ning ko'tarilishiga, 1-tovarning nisbiy narxi (**$P_1G'P_2$**)ning kamayishiga olib keladi. Binobarin A va B nuqtalar C nuqtada ustma-ust tushmaguncha bir-biriga yaqinlashib keladi va 1-tovarning har ikki mamlakatdagi nisbiy narxi E nuqtada muvozanatlashadi. Bu esa 1-tovarni ishlab chiqarishga sarflangan mehnatning nisbiy narxini O'zbekiston va Yaponiyada H nuqtada tenglashishiga olib keladi. Shunday qilib, xalqaro savdo natijasida tovarlar nisbiy narxining muvozanatga kelishi, ushbu tovarlarni yaratishda foydalanilgan ishlab chiqarish omillari nisbiy narxining tenglashishiga olib keladi.

Haqiqiy olamda ishlab chiqarish omillari narxi umuman muvozanatlashmagan. Misol uchun turli mamlakatlarda mehnatga to'lanadigan ish haqi ular o'rtasida faol savdo aloqalari olib

borilishiga qaramay sezilarli farq qilib kelmoqda. Buning bosh sababi yuqorida oldindan qabul qilingan shartlardir:

• Har ikki tovar har ikki mamlakatda ishlab chiqarilishi nazarda tutilgan.

• Savdo olib boruvchi mamlakatlarda texnologiya bir xil deb faraz qilingan.

• Ishlab chiqarish omillari va tovarlar mamlakat ichida to‘liq harakatchan deb faraz qilingan.

• Ishlab chiqarish omillarining xalqaro harakati mavjud emas deb faraz qilingan.

• Ishlab chiqarish omillari narxining muvozanatlashuvi teoremasi barcha cheklanishlari va kamchiliklariga qaramacdan, xalqaro iqtisodiyot tahlilida muhim ahamiyat kasb etadi.

Shunday qilib, omillar sig‘imligi ma’lum bir tovarni yaratish uchun ishlab chiqarish omillari nisbiy sarfini, omillar serobligi mamlakatning ishlab chiqarish omillari bilan nisbiy ta’minlanganligini belgilab beradi. Xeksher-Olinning ishlab chiqarish omillari nisbati nazariyasiga ko‘ra, turli mamlakatlarda tovarlar nisbiy narxidagi farq, o‘z navbarida ular o‘rtasidagi savdo ularning ishlab chiqarish omillari bilan bir xil ta’minlanmaganligi bilan tushuntiriladi.

Ishlab chiqarish omillari nisbati nazariyasi o‘zining barcha kamchiliklari va mavhum tabiatiga qaramay hozirgi kungacha xalqaro savdoning rivojlanishini tushuntiruvchi eng mashhur nazariyalarning biri bo‘lib qolmoqda. Shuning uchun ham bu nazariyaning turli mamlakatlar, tovarlar va ishlab chiqarish omillariga nisbatan ulkan statistik massivlar yordamida empirik yo‘llar bilan tekshirilishiga ajablanmasa ham bo‘ladi.

Ba’zi empirik testlar nazariyani tasdiqlar, boshqalari rad etar edi. Xeksher-Olin-Samuelson xulosalarini rad etgan tadqiqotlarning eng mashhuri 1953 yilda kelib chiqishi Rossiyadan bo‘lgan amerikalik olim Vasiliy Leontev tomonidan amalga oshirilgan.

Leontev bir necha empirik testlar yordamida Xeksher-Olin nazariyasi shartlari amalda bajarilmasligini ko‘rsatib berdi. Ikkinchi jahon urushidan keyin AQSH eng boy va kapital serob bo‘lgan mamlakatlarning biri bo‘lib, boshqa mamlakatlar bilan solishtirganda mehnatga haq to‘lash me’yori ham yuqori bo‘lganligi bois ishlab chiqarish omillari nisbiy nazariyasiga muvofiq ravishda kapital sig‘imli tovarlarni eksport qilishi kerak edi. Leontev bu gipotezani tekshirish uchun 1 million dollar qiymatiga ega bo‘lgan eksportga mo‘ljallangan tovarlar va shuncha qiymatli import bilan bevosita raqobat qiluvchi tovarlarni ishlab chiqarish uchun qancha kapital va ishchi kuchi zarurligini hisoblab chiqdi. U har bir sanoat tarmog‘i kapital va ishchi kuchi sarfini hisobladi, bunda faqatgina tayyor mahsulotlar (masalan, avtomobillar) bilan cheklanmadi, balki oraliq mahsulotlar (po‘lat, oyna, rezina) uchun ham kerakli hisob-kitoblarni amalga oshirdi. Shundan so‘ng AQSHning 1947 yildagi eksport tarkibidan foydalangan holda 1 million dollar summadagi eksport tovarlarga sarflangan kapital va mehnat xarajatlarining

nisbatini hisoblab chiqdi. Leontev AQSHning shu yildagi import tarkibi bo‘yicha (import tovarlari ro‘yxatiga AQSHda ishlab chiqarilmaydigan tovarlar kiritilmadi) import o‘rnini bosuvchi AQSH tovarlarini ishlab chiqarishga sarflangan kapital va mehnat xarajatlari nisbatini aniqladi.

Amalda bir birlik AQSH importini ishlab chiqarish uchun zarur bo‘lgan kapital va mehnat nisbati - **$(KG'L)_{im}$** ni bir birlik AQSH eksportini ishlab chiqarish uchun zarur bo‘lgan kapital va mehnat nisbati - **$(KG'L)_x$** bilan solishtirildi. “Leontev statistikasi” (**Leontief statistic**) nomini olgan ushbu nisbatga muvofiq 1 tengsizlik bajarilsa har qanday mamlakat kapital serob, 2 tengsizlik bajarilganda esa mehnat serob mamlakat sanalishi mumkin.

$$(KG'L)_{im} \text{ G' } (KG'L)_x < 1 \qquad (1)$$

$$(KG'L)_{im} \text{ G' } (KG'L)_x > 1 \qquad (2)$$

Leontev, Xeksher-Olin nazariyasiga muvofiq, eksport tovarlar import o‘rnini bosuvchi tovarlarga (deyarli AQSH importi) nisbatan har bir ishchi kuchi hisobiga ko‘proq kapital talab qilishini kutgan edi. Natija buning qarama-qarshisi bo‘lib chiqdi: AQSH importining kapital sig‘imliligi uning eksporti kapital sig‘imliligidan 30 foizga ko‘p chiqdi, bu esa AQSH kapital serob bo‘lgan mamlakat emas, balki mehnat serob mamlakat ekanligidan dalolat berardi, ushbu holat mavjud tasavvurlarga umuman mos kelmas edi.

Leontev paradoksi (Leontief paradox) - bu Xeksher-Olinning ishlab chiqarish omillari nisbiy nazariyasining amalda bajarilmasligi – mehnat serob mamlakatlarning kapital sig‘imli, kapital serob mamlakatlarning mehnat sig‘imli tovarlarni eksport qilishidir.

O‘sha paytda etakchi bo‘lgan yondashuvning inkor etilishi uning tushuntirilishini talab qilardi. Munozaralar Xeksher-Olin nazariyasi to‘g‘ri, Leontev tomonidan olingan natijalar noto‘g‘ri ekanligini isbotlashga harakatlar doirasida bo‘ldi. Leontev paradoksiga qarshi keltirilgan ba’zi dalillar quyidagilar:

Ishchi kuchini malakali va malakasiz ishchi kuchi guruhlariga ajratish kerak hamda eksport tovarlarga sarflangan xarajatlarni har ikki guruh uchun alohida hisoblash kerak.

AQSH qazib olinishida katta miqdorda kapital xarajatlarini talab qiluvchi xomashyoni ko‘p hajmda import qiladi. Shuning uchun AQSHning eksport tovarlari katta hajmdagi kapital sig‘imli xomashyoni talab qiladi, bu esa eksportni kapital sig‘imliga aylantiradi.

Leontev testi AQSHda mavjud bo‘lgan import tariflarini inobatga olmagan, bu tariflar AQSH sanoatining mehnat sig‘imli tarmoqlarini xorijiy raqobatdan himoyalash uchun joriy qilingan, natijada mehnat sig‘imli tovarlar importiga to‘siq qo‘yilgan.

Amerikaliklarning did va xohishlari an’anaviy ravishda kapital sig‘imli texnologik mahsulotlarga qaratilgan bo‘lib, AQSH kapital bilan yaxshi ta’minlangan bo‘lishiga qaramasdan bu tovarlarni ular xorijdan sotib olishadi.

Ishlab chiqarish omillari reversi: bir tovar mehnat serob mamlakatda mehnat sig‘imli, kapital serob mamlakatda kapital sig‘imli bo‘lishi mumkin. Masalan, kapital serob sanalgan AQSHda yetishtirilgan guruch yuqori texnologiya vositasida ishlab chiqarilgani bois kapital sig‘imli hisoblansa, Vetnamda yetishtirilgan gurunch mehnat sig‘imlidir, chunki u asosan qo‘l mehnati yordamida tayyorlanadi.

2.3. Xalqaro savdoda umumiy muvozanat

Xalqaro savdoning standart modeli

Tarixan xalqaro savdo nazariyalarini ishlab chiqishda iqtisodiy ta’limot tovarlar va ishlab chiqarish omillari taklifini o‘rganishga ko‘proq e’tibor qaratgan, talabga esa yetarli darajada e’tibor berilmagan. Biroq barchaga ma’lumki, jahon bozorida tovarlar taklifi talabga bog‘liq bo‘ladi, shuning uchun ham zamonaviy xalqaro savdo nazariyasi tovarlar talab va taklifiga birdek e’tibor beradi. U oldingi mavzularda ko‘rib chiqilgan klassik va neoklassik modellarni rad etmaydi, zero qanday muammo hal etilishi kerakligi va qaysi ishlab chiqarish omiliga ko‘proq e’tibor qaratilishi lozimligiga bog‘liq ravishda bu modellardan hozirgi paytda ham analitik maqsadlarda faol foydalanib kelinmoqda. Shuning uchun yuqorida keltirilgan modellar ma’lum ma’noda jahon iqtisodiy ta’limoti tomonidan tan olingan va zamonaviy bosqichda xalqaro savdoni nazariy tahlil dastagi sifatida xizmat qiluvchi, xalqaro savdoning standart modeli nomini olgan modelning xususiy holi deb hisoblanishi mumkin.

Talab va taklif muvozanatining neoklassik postulatlariga asoslangan xalqaro savdoning standart modeli juda ko‘plab iqtisodchilar-neoklassiklar harakatlarining qo‘shilishi samarasidir, bu iqtisodchilar jamiyat miqyosidagi jami talabga alohida e’tibor karatishgan. Standart modelda foydalaniladigan asosiy tushunchalar turli yillarda irland iqtisodchisi Frensis Edjuort va kelib chiqishi Avstriyalik bo‘lgan amerikalik iqtisodchi Gottfrid Xeberler tomonidan kiritilgan.

Klassik modellar talab va taklifdan chegaralangan doiradagi ma’lum bir tovarlar uchun foydalanilgan. Standart model esa bu doirani jami talab va taklifgacha kengaytirdi. Standart model bizga umumiy iqtisodiy nazariyasidan ma’lum bo‘lgan hamda haqiqiy iqtisodiy vaziyatlarga ko‘proq mos keluvchi o‘rnini qoplash xarajatlarining ortib borishi to‘g‘risidagi qonuniyatiga tegishli daslabki shartlardan kelib chiqadi.

Ortib boruvchi o‘rnini qoplash xarajatlari (increasing opportunity costs) har bir qo‘shimcha 2-tovarni ishlab chiqarish uchun voz kechiladigan 1-tovarning miqdori doimiy emas, balki ortib boruvchi bo‘lishligini nazarda tutadi.

2.6.-rasmdagi ishlab chiqarish imkoniyatlari egri chizig‘idan ko‘rinib turibdiki, O‘zbekistonda o‘zi nisbiy ustunlikka ega bo‘lgan 1-tovarning har bir qo‘shimcha birligini ishlab chiqarish uchun voz kechiladigan 2-tovar soni borgan sari ortib bormoqda.



2.6.-rasm. Savdo bo‘lmagan sharoitdagi muvozanat (O‘zbekiston)



2.7.-rasm. Savdo bo‘lmagan sharoitdagi muvozanat (Yaponiya)

1-b rasmdagi ishlab chiqarish imkoniyatlari egri chizig‘i esa Yaponiya o‘zi nisbiy ustunlikka ega bo‘lgan 2-tovarning har bir qo‘shimcha birligini ishlab chiqarishni ta’minlash uchun borgan sari ortib boruvchi 1-tovar birligidan voz kechishga majbur bo‘lishini ko‘rsatmoqda.

@ Transformatsiyaning chegaraviy me'yori (marginal rate of transformation) - 1-tovarning qo'shimcha birligini ishlab chiqarish uchun voz kechiladigan 2-tovar soni.

O'rnini qoplashning chegaraviy me'yori (marginal rate of substitution) - mavjud iste'mol darajasining saqlanib qolishi ta'minlangan holda 1-tovarning qo'shimcha birligini ishlab chiqarish uchun voz kechiladigan 2-tovar miqdori.

Xalqaro savdo quyidagi jihatlar bilan xarakterlanadi:

❖ Ishlab chiqarish imkoniyatlari egri chizig'i har bir mamlakatda turlicha, bu ularda o'zaro savdoga kirishishga ishtiyoq tug'diradi;

❖ Agar ishlab chiqarish imkoniyatlari egri chizig'i mos kelsa, ya'ni ishlab chiqariladigan tovarlar nisbati har ikki mamlakatda bir xil bo'lsa, o'zaro savdo iste'molchilarning didi va istaklaridagi farqqa asoslanadi, bu esa juda yaqin mamlakatlarda ham hech qachon to'liq mos kelmaydi;

❖ Taklif transformatsiyaning chegaraviy me'yori, talab esa o'rnini qoplashning chegaraviy me'yori bilan aniqlanadi;

❖ Xalqaro savdo amalga oshadigan muvozanat narxi tovarga bo'lgan jahon nisbiy talabi va jahon nisbiy taklifi bilan aniqlanadi.

Mamlakatlar bir-biri bilan savdo munosabatlariga kirishguncha bo'lgan muvozanat transformatsiyaning chegaraviy me'yori (taklif) va o'rnini qoplashning chegaraviy me'yori (talab) o'rtasidagi o'zaro ta'sir orqali o'rnatiladi. O'zbekistonning ishlab chiqarish imkoniyatlari egri chizig'i o'rnini qoplashning chegaraviy me'yori egri chizig'i (I) bilan A nuqtada tutashgan, ushbu nuqtada mamlakat ehtiyojlarini qondirish maksimal darajaga yetadi – O'zbekiston o'zi ishlab chiqaradigan 1- va 2- tovarlarni maksimal miqdorda iste'mol qiladi. Yaponiyaning ishlab chiqarish imkoniyatlari egri chizig'i esa o'rnini qoplashning chegaraviy me'yori egri chizig'i (I*) bilan A* nuqtada tutashgan, ya'ni ushbu A* nuqtada mamlakat ehtiyojlarini qondirish maksimal darajaga o'tadi – Yaponiya o'zi ishlab chiqaradigan 1- va 2- tovarlarni maksimal miqdorda iste'mol qiladi.

Ishlab chiqarish imkoniyatlari egri chiziqlari va o'rnini qoplashning chegaraviy me'yori egri chiziqlari shaklining har xilligi tufayli 1- va 2-tovarlarning O'zbekiston va Yaponiyada (A va A*) turlicha bo'ladi. 1-tovarning nisbiy muvozanat narxi O'zbekistonda A nuqtadan o'tuvchi to'g'ri chiziq bilan ifodalanadi va u 2-tovarning 1G'4 birligiga teng, ya'ni P_A q $P_1G'P_2$ q 1G'4

Yaponiyada esa ushbu narx A* nuqtadan o'tuvchi to'g'ri chiziq bilan ifodalangan bo'lib, bu nisbiy narx 2-tovarning 4 birligini tashkil etadi:

P_A^* q $P_1G'P_2$ q 4

Shu narsa aniq ravshanki, $\mathbf{P_aG'A < P^*_aG'A^*}$ bo'lgani bois O'zbekiston 1-tovar, Yaponiya esa 2-tovar bo'yicha nisbiy ustunlikka ega. Ishlab chiqarishning maksimal hajmi (**V**)ga har ikki

mamlakatda **A va A*** nuqtalarda erishiladi, **Q_1 va Q_2** 1- va 2-tovarlarni ishlab chiqarish miqdorini ifoda etadi:

$$P_1xQ_1QP_2Q_2 \text{ q } V$$

Savdo boshlangandan so‘ng 1-tovar bo‘yicha nisbiy ustunlikka ega bo‘lgan, shuning uchun ushbu tovarni ishlab chiqarishga ixtisoslashuvchi O‘zbekiston 2-tovar ishlab chiqarishini qisqartirgan holda 1-tovar ishlab chiqarishini kengaytiradi. Binobarin ishlab chiqarish nuqtasi A ishlab chiqarish imkoniyatlari egri chizig‘i bo‘ylab pastga qarab ko‘chadi. Yaponiya esa 2-tovar bo‘yicha nisbiy ustunlikka ega, shuning uchun u ushbu tovarni ishlab chiqarishga ixtisoslashadi hamda 1-tovar ishlab chiqarishini qisqartirgan holda 2-tovar ishlab chiqarishini kengaytiradi, o‘z navbatida ishlab chiqarish nuqtasi A* ishlab chiqarish imkoniyatlari egri chizig‘i bo‘ylab yuqoriga qarab ko‘chadi (2.8.-a va 2.8.-b rasmlar). Bu jarayon har ikki mamlakatdagi nisbiy narxlar tenglashgungacha davom etadi. Yangi nisbiy narx **R_Aq 1G’4 va R_A^* q 4** orasida joylashadi. Bizning vaziyatda bu narxni ifoda etuvchi chiziq O‘zbekistonda B, Yaponiyada B* nuqtalar orqali o‘tadi va **R_VqR_V^*q1** ga teng bo‘ladi. Mana shu holatda nisbiy ustunlik nazariyasi o‘z nihoyasiga yetadi. Standart model ortib boruvchi o‘rnini qoplash xarajatlarini hisobga olgan holda bu nazariyani boshqacharoq talqin etadi.



2.8.-a rasm



2.8.-b rasm

Shundan keyin talab tahlil qilinadi. Ma’lumki, muvozanatlashgan iqtisodiyotda tovarlar iste’moli ishlab chiqarish hajmiga mos kelishi kerak, ya’ni ular grafik orqali ifodalanganda o‘zaro kesishishi kerak. Agar D_1 va D_2 1- va 2-tovarlar iste’moli bo‘lsa, quyidagi tenglik o‘rinli bo‘ladi:

$$P_1xD_1QP_2D_2 \text{ q } P_1xQ_1QP_2Q_2 \text{ q } V$$

O‘zaro savdoda muvozanat narxiga erishilgandan so‘ng ixtisoslashni davom ettirish o‘zining iqtisodiy mohiyatini yo‘qotadi, chunki o‘rnini qoplash xarajatlarining ortib borishi tufayli bundan keyingi ixtisoslashuv orqali ishlab chiqarilgan tovarlar ularni xorijdan sotib olishga nisbatan qimmatroqqa tushadi. 3.1.2-a va 3.1.2-b rasmlardan ko‘rinib turibdiki, muvozanat narxga **$R_V qR_V$*q1** nuqtada erishilgan, ya’ni ishlab chiqarish nuqtasi to‘liq ixtisoslashuv tomon harakatlangan bo‘lsa-da har ikki mamlakat uchun mos ravishda gorizontal va vertikal o‘qlarga etib bormagan.

Xalqaro savdoda savdo sharti tushunchasi. Mamlakatning iqtisodiy o‘sish yo‘llari va ularning xususiyatlari

Nisbiy narxlarning o‘zgarishiga asoslangan o‘zaro bog‘liqlik savdo shartlari tushunchasi orqali ifodalanadi.

@ Savdo shartlari (terms of trade) - ma’lum bir tovarning eksport va import narxlarining, mamlakat bo‘yicha yoki mamlakatlar guruhi bo‘yicha eksport va import narxlari indekslarining nisbatidir.

Agar bizni ma’lum bir tovar qiziqtirsa, narxlar nisbati faqat shu tovarning eksport va import narxlari nisbati orqali ifodalanishi mumkin, barcha tovarlar bo‘yicha tashqi savdo o‘rganilayotgan bo‘lsa, u holda narxlar nisbati barcha tovarlar bo‘yicha ifodalanadi. Agar $\mathbf{R_x}$ - eksport narxlari indeksi, $\mathbf{R_{im}}$ - import narxlari indeksi, $\mathbf{Q_x}$ - eksportning miqdoriy hajmi, $\mathbf{Q_{im}}$ - importning miqdoriy hajmi, RS - eksport qilinayotgan tovarlar nisbiy taklifi va RD - import qilinayotgan tovarlarga nisbiy talab bo‘lsa, savdo shartlari grafikda quyidagicha aks ettiriladi. (2.9-rasm).

Eksport qilinayotgan tovarlar nisbiy taklifi egri chizig‘ining joylashuvi eksport tovarlari jami nisbiy narxi oshganda eksportning nisbiy miqdoriy hajmi importning nisbiy miqdoriy hajmiga nisbatan ortib ketishidan dalolat beradi.



2.9.-rasm. Savdo sharti

Import qilinayotgan tovarlar nisbiy taklifi egri chizig‘ining joylashuvi esa teskari bog‘liqlikni ko‘rsatadi: importning nisbiy narxi ko‘tarilganda, import qilinayotgan tovarlarga nisbiy talab kamayadi. Import qilinayotgan tovarlar nisbiy taklifi egri chizig‘i va eksport qilinayotgan tovarlar nisbiy taklifi egri chizig‘ining kesishishi natijasida A nuqtada vujudga keluvchi nisbiy narx (**$P_xG'P_{im}$**) bu tovarlarning **$Q_xG'Q_{im}$** nisbiy miqdorida savdo shartlarini ifodalaydi.

Savdo shartlari har bir mamlakatning eksporti va importi o‘zaro taklifi va o‘zaro talabi nisbatini ifodalaydi. Ular har bir mamlakatning eksport va import narxlari indeksi nisbati negizida hisoblanadi va mamlakatning tashqi iqtisodiy siyosati, jumladan tashqi savdo siyosati uchun muhim yo‘naltiruvchi hisoblanadi. ***ToTq100*** eksport va import narxlarining tengligini bildiradi. Savdo shartlari indeksining o‘sib borishi (**ToT>100**) mamlakat eksporti jami narxi import jami narxiga nisbatan ortganda har bir eksport qilingan tovar uchun yanada ko‘proq import tovarlar sotib olish mumkin bo‘lishini ko‘rsatadi. Avvalgidek ekport miqdori hisobiga ko‘proq import hajmiga ega bo‘lish imkoniyati mamlakat farovonligini oshiradi. Savdo shartlari indeksining kamayib borishi (**ToT<100**) mamlakat importi jami narxi eksport jami narxiga nisbatan ortganda har bir eksport qilingan tovar uchun yanada kamroq import tovarlar sotib olish mumkin bo‘lishini ko‘rsatadi. Avvalgidek ekport miqdori hisobiga kamroq import hajmiga ega bo‘lish oqibatida mamlakat farovonligi pasayadi.

Nisbiy talab va taklifning bu nisbati har qanday alohida olingan tovar uchun ham, butun mamlakat bo‘yicha ham to‘g‘ri bo‘ladi. Nisbiy talab va nisbiy taklif egri chizig‘idagi har qanday siljishlar yoki iqtisodiy o‘sish, yoki mamlakatlar o‘rtasida daromadning qayta taqsimlanishi parametrlarining o‘zgarishiga olib keladi. Shuning uchun savdo shartlarini iqtisodiy ko‘rsatkich sifatida quyidagi asosiy ko‘rinishlarda bo‘lishi mumkin:

• Tovar yoki sof barter savdo shartlari (**commodity, net barter terms of trade**) - ma’lum bir tovarning eksport va import narxlarining yoki barcha tovarlar bo‘yicha eksport va import narxlari indekslarining nisbatidir.

$$ToT\ q\ P_xG'P_{im}$$

• Daromadni ifodalovchi savdo shartlari (**income terms of trade**) - mamlakatning jami eksportdan kelgan tushum hisobiga qancha tovar import qila olishi salohiyatini ko‘rsatuvchi indeks. Bu indeks tovar savdo shartlarini eksportning miqdor indeksi (**Q_x**)ga ko‘paytirish orqali hisoblanadi. Bu indeksning o‘sishi eksportdan tushumni ortishi hisobiga import qilish salohiyati ortishini ko‘rsatadi.

$$ToT\ q\ (P_xG'P_{im})\ x\ Q_x$$

• Omillar bilan bog‘liq savdo shartlari (**factor terms of trade**) - import narxlarini bir yoki bir necha ishlab chiqarish omillarining samaradorligi bilan bog‘lovchi, eksport tarmoqlarida samaradorlikni bir birlikka oshishi hisobiga qancha miqdorda qo‘shimcha import qilish mumkinligini ko‘rsatuvchi indeks. Bu ko‘rsatkich tovar savdo shartlarini eksport tarmoqlaridagi samaradorlik indeksiga (**Q_x**) yoki ushbu mamlakatda eksport tarmoqlaridagi samaradorlik indeksini import qilinayotgan mamlakat eksport tarmoqlaridagi samaradorlik indeksiga nisbatiga (**$Q_xG'Q_{im}$**) ko‘paytirish orqali hisoblanadi.

$$\mathbf{ToT\ q\ (P_xG'P_{im})\ x\ (Q_x\ G'Q_{im})}$$

Xalqaro savdo va iqtisodiy o‘sish orasidagi bog‘liqlik hamisha jiddiy munozaralar uchun mavzu bo‘lib kelgan: bir tomondan ishlab chiqarishni kuchaytirish eksportga yanada arzonroq tovarlar taklifini kengaytirishga va yangi bozorlarni egallashga olib kelishi mumkin, ammo boshqa tomondan esa, buning natijasida iqtisodiy o‘sishning tezlashuvi tufayli mamlakatda yuzaga kelgan ustunliklar yanada arzon eksport narxlar orqali xorijga o‘tib ketadi. O‘sish, uning xalqaro savdoga ta’siri nuqtai nazaridan neytral, eksportni kengaytirishga qaratilgan va import o‘rnini qoplashga qaratilgan bo‘lishi mumkin. O‘sishning xalqaro savdoga ta’siri qanday ishlab chiqarish omillari - eksportni kengaytirishga qaratilgan omillar yoki import o‘rnini qoplashga qaratilgan omillarning o‘sishi bilan aniqlanadi.

Faraz qilaylik, O‘zbekiston va Yaponiya faqat 1- va 2-tovarlarni ishlab chiqaradi.

Gorizontal o‘qqa 1-tovarning nisbiy miqdorini uning o‘sishini inobatga olgan holda **(Q_1QQ_1')G'(Q_2QQ_2')**, vertikal o‘qqa esa nisbiy narx **($R_1G'R_2$)**ni joylashtiramiz. Birinchi mamlakatda eksport qilinadigan 1-tovar ishlab chiqarishi keskin ko‘payib, bu holda uning taklifi ortadi va 2-tovarning nisbiy ishlab chiqarishi kamayadi. Nisbiy taklif egri chizig‘i **RS** nuqtadan **RS'** ga ko‘chadi. 1-tovarning nisbiy narxi **($P_1G'P_2$)**dan **($P_1G'P_2$)'**gacha tushadi (2.10-rasm)



2.10-rasm. a) Eksportni kengaytirishga qaratilgan o‘sish. b) Importni o‘rnini qoplashga yo‘naltirilgan o‘sish

Eksport narxlari tushadi, import narxlari esa ortadi. Bu O‘zbekiston uchun savdo sharti yomonlashgani, Yaponiya uchun esa savdo sharti yaxshilanganidan dalolat beradi. Qaysi mamlakatda o‘sish boshlangani emas, balki qaysi tovar ishlab chiqarishi ko‘payganligi muhim hisoblanadi. 1-tovar ishlab chiqarishi Yaponiyada o‘sganda ham bu holatning nisbiy taklif egri chizig‘iga ta’siri xuddi yuqorigidek bo‘lar edi.

@ Eksportni kengaytirishga qaratilgan o‘sish (export-biased growth) - mamlakat eksport qiladigan tovar ishlab chiqarishini kengayishi bo‘lib, bu savdo shartini savdo hamkorlari foydasiga yaxshilanishiga olib keladi.

Eksportni kengaytirishga qaratilgan o‘sish har bir mamlakatda eksport tovarini - bizning misolimizda O‘zbekistonda 1-tovar, Yaponiyada 2-tovar ishlab chiqarishini ko‘payishi bilan aniqlanadi. Jahon bozoriga bu tovarlar taklifining ortishi nisbiy narxlarning pasayishiga olib keladi. Chunki har bir mamlakat nisbiy narxi ortib borayotgan import tovarlarini ilgaridek miqdorda sotib olish uchun nisbiy narxlari tushub borayotgan o‘zlarining eksport tovarlarini yanada ko‘proq miqdorda sotishga majbur bo‘lishadi. Buning natijasida eksportni kengaytirishga qaratilgan o‘sish mamlakat savdo shartini savdo hamkorlari foydasiga yaxshilanishiga olib keladi.

Boshqa tomondan esa, agar O‘zbekiston va Yaponiyada mos ravishda import qilinadigan 2-tovar yoki 1-tovar ishlab chiqarishi ko‘payadigan bo‘lsa, nisbiy taklif egri chizig‘i **RS** nuqtadan **RS'** nuqtaga ko‘chadi. Natijada 1-tovarning nisbiy narxi **($P_1G'P_2$)**dan **($P_1G'P_2$)'**gacha

ko‘tariladi (2.3.4.-b rasm), bu O‘zbekiston uchun savdo sharti yaxshilanib, Yaponiya uchun yomonlashishini anglatadi.

@ Import o‘rnini qoplashga qaratilgan o‘sish (import-biased growth) - mamlakat import qiladigan tovar ishlab chiqarishining kengayishi bo‘lib, bu savdo shartini savdo hamkorlar uchun yomonlashib, mamlakat foydasiga yaxshilanishiga olib keladi.

Import o‘rnini qoplashga qaratilgan o‘sish har bir mamlakatda import bilan raqobat qiluvchi tovar – bizning misolimizda, O‘zbekistonda 2-tovar, Yaponiyada esa 1-tovar ishlab chiqarishining o‘sishi bilan belgilanadi. Bu tovarlar ichki ishlab chiqarishining o‘sishi eksport nisbiy narxlarining ortishiga, import nisbiy narxlarining pasayishiga olib keladi, chunki har bir mamlakat mustaqil ravishda ishlab chiqarayotgani bois an’anaviy import tovarlarini kamroq xarid qila boshlaydi. Importga talabning qisqarishi natijasida import tovarlar nisbiy narxi tushadi, binobarin savdo sharti savdo hamkorlari uchun yomonlashib, mamlakat foydasiga yaxshilanishiga olib keladi.

Savdoning neytral o‘sishi (neutral trade growth) - bu mamlakatlar o‘rtasida savdo shartining o‘zgarmagan holatida xalqaro savdo jismoniy hajmining ortishidir.

§ 2.4. Xalqaro savdoning yangi nazariyalari

Xalqaro savdoning masshtab samarasi modeli

Umumiy iqtisodiy nazariyadan ma’lumki, ishlab chiqarish masshtabi kengayib borgani sari tovarning tannarxi pasayib boradi.

Masshtab samarasi orqali ishlab chiqarish omillari bilan bir xil yoki deyarli bir xil ta’minlangan mamlakatlar o‘rtasidagi savdo tushuntiriladi. Masshtab samarasi orqali texnologik jihatdan bir biriga yaqin, hattoki bir xil tovar ishlab chiqaradigan mamlakatlar o‘rtasidagi savdoni ham tushuntirish mumkin.

Masshtab samarasi (economies of scale) - ishlab chiqarishning shunday rivojlanishiki, bunda omillar sarfining bir birlikka o‘sishi ishlab chiqarish bir birlikdan ko‘proqqa o‘sishiga olib keladi.

Buni quyidagi jadvalda ko‘rishimiz mumkin:

2.10.-jadval. Masshtab samarasi

Mehnat (soat)	4	5	6	7	8	9	10	11
Tovar (dona)	1	2	3	4	5	6	7	8
1 tovarga qilingan sarf	4.00	2.50	2.00	1.75	1.60	1.50	1.43	1.38

Masshtab samarasi mamlakatdagi tarmoq va korxonalarning raqobat bozoridagi hatti-harakati va faoliyat yo‘nalishlaridan kelib chiqqan holda tashqi va ichki masshtab samaralariga ajraladi.

Tashqi masshtab samarasi butun tarmoqda ishlab chiqarish masshtabini o‘sishi natijasida firma doirasida tovar birligiga to‘g‘ri keladigan xarajatlarning kamayishi.

Ichki masshtab samarasi firma doirasida ishlab chiqarish masshtabini kengaytirish orqali tovar birligiga sarflanadigan xarajatlarning kamayishidir.

Tashqi masshtab samarasi shuni nazarda tutadiki, har bir firmaning hajmi o‘zgarmagan holda bir xil tovar ishlab chiqaradigan firmalar soni ortadi. Odatda ushbu holatda bozor yetarli darajada raqobatbardoshligini saqlab qoladi, bu esa bu model asosidagi savdo qonuniyatlarini xalqaro savdoning klassik nazariyalariga yaqinlashtiradi, ya’ni eksportyorlar o‘zlari ta’sir ko‘rsata olmaydigan bozordagi narxda xohlagan miqdorda tovar sotishlari mumkin.

Ichki masshtab samarasi esa ishlab chiqarish miqdori o‘zgarmagan holda tovar ishlab chiqaruvchi firmalar soni kamaygan holatni nazarda tutadi. Ushbu vaziyat aksariyat hollarda nosog‘lom raqobatni keltirib chiqaradi, ya’ni ishlab chiqaruvchilar o‘z tovarlari narxiga ta’sir ko‘rsata oladi va tovar narxini pasaytirish orqali sotish hajmini ortirishlari mumkin. Ichki masshtab samarasining ekstremal holati sof monopoliya hisoblanadi.

Monopolistik raqobat sharoitida savdo

Ma’lumki xalqaro savdoda sof mukammal raqobat ancha kam uchraydi, buning sababi jahon xom-ashyo va tovarlar bozorining bo‘lishib olinganligi va xalqaro bozorlarda o‘ziga xos oligopoliya va monopoliyalarning vujudga kelganligidir. Monopolistik raqobat asosidagi savdo nazariyasining rivojlanishiga katta hissa qo‘shgan olim Pol Krugman bo‘ldi.

Agar X - ma’lum firmaning sotish hajmi, S - tarmoqdagi umumiy sotish hajmi, n - tarmoqdagi firmalar soni, b - firmaning o‘z tovari narxiga bog‘liq ravishda bozordagi ulushini ko‘rsatuvchi talab o‘zgaruvchisi, R - mazkur firma tovari narxi, R* - raqobatchi tovarlarning o‘rtacha narxi bo‘lsa,

XqS[(1G’n)-bx(P-P)*] (1) bo‘ladi.

Agar firma o‘z tovarlarini o‘rta narxda yuqori sotsa (R > R*), uning bozordagi ulushi (SG’n) kam bo‘ladi (X<(SG’n)). Agar firma o‘z tovarlarini o‘rtacha narxdan past narxda sotsa (R < R*), uning bozor ulushi ko‘proq bo‘lishi kerak(X>(SG’n)).

Monopolistik raqobatning xalqaro savdoga ta’sirni aniqlash uchun eng avvalo firmalar soni va ularning tovarlari narxi orasidagi uchta asosiy o‘zaro bog‘liqlikni aniqlash kerak:

- firmalar soni qanchalik ko‘p bo‘lsa, har bir firma ishlab chiqaradigan tovar hajmi shuncha kam bo‘ladi, o‘rtacha xarajatlar ortib boradi;

- Firmalar soni qanchalik ko‘p bo‘lsa, raqobat darajasi yuqori bo‘ladi va tovar tarxi pasayadi;

- Agar narx o‘rtacha narxdan yuqori bo‘lsa, bozordagi firmalar soni ortadi va aksincha.

Monopolistik raqobat modelida dastlabki ikki bog‘liqlik muhim hisoblanadi. Xalqaro savdo tovar sotish bozorlari sig‘imini oshiradi. Firmalar soni va bir firmaga to‘g‘ri keladigan o‘rtacha ishlab chiqarish xarajatlari quyidagi chiziqli tenglama bilan ifodalanadi:

S* q (FG’X) Q c, (2)

S* q n(FG’S)Qc, (2a)

Bu erda S* - o‘rtacha xarajatlar, F - doimiy xarajatlar, s - firmaning chegaraviy xarajatlari.



Монополистик рақобат шароитида халқаро савдо

2.11-rasm. Monopolistik raqobat sharoitida halqaro savdo

Formuladan ko‘rinib turibdiki, ishlab chiqarish hajmi, o‘z navbatida sotish hajmi ortib borgan sari firmaning o‘rtacha xarajatlari kamayib boradi, chunki doimiy xarajatlar yanada ko‘proq tovarlar soniga bo‘linadi. Bozor muvozanatda bo‘lgan sharoitda har bir firma tovari narxi bir xil bo‘ladi, R q R*. Ushbu holatda 1 formula X q SG’n ga keladi. X qiymatini ikkinchi formulaga qo‘ysak, 2a formula kelib chiqadi. Bu formuladan ko‘rinib turibdiki, tarmoqda firmalar soni qanchalik ko‘p bo‘lsa, o‘rtacha xarajatlar shunchalik ortib boradi. Firmalar soni o‘zgarmagan holda sotish hajmining ortishi o‘rtacha xarajatlarning qisqarishiga olib keladi.

Tarmoq ichidagi savdo va tarmoqlararo savdoning farqlari

Tarmoq ichidagi savdo – bu mamlakatlar o‘rtasida bir tarmoqning differensiyalashgan mahsulotlari bilan savdo qilishidir.



2.12.-rasm. Tarmoqlararo savdo

Tarmoqlararo savdo mamlakatlarning turli tarmoqlarning gomogen mahsulotlari bilan savdo qilishidir.

Tarmoq ichidagi savdo asosan differensiyalashgan tovarlar bilan amalga oshadi, ba'zi vaziyatlarda gomogen tovarlar bilan ham amalga oshishi mumkin. Bunga sabab sifatida transport xarajatlarini qisqartirish va mavsumdagi farq bo‘lishi mumkin. 1 va 2 mamlakatlarda bir tovarni ishlab chiqaruvchilar (S, S') va iste'molchilar (D i D') jug‘rofiy jihatdan rasmdagidek joylashgan. SD' masofa D'S' masofadan sezilarli darajada qisqa bo‘lganligi sababli ikkinchi mamlakat uchun tovarni o‘z ishlab chiqaruvchisidan sotib olishga ko‘ra xorijdan import qilish foydaliroq bo‘ladi.

Shimoliy va janubiy yarim sharda yil fasllari turli paytga to‘g‘ri keladi, ya'ni Braziliya o‘zining qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini yig‘im paytida AQSHga eksport qiladi va AQSHda yig‘im paytida AQSHdan sotib oladi.

Differensiyalashgan tovarlar bilan tarmoq ichidagi savdoni sabablari quyidagilar:

- Iste'molchilar istak va xohishlari har xil;
- Kesishuvchi talab;
- Keng ko‘lamda ishlab chiqarish effekti

Lindertning kesishuvchi talab nazariyasi

Kesishuvchi talab nazariyasi bu xalqaro savdoni talab tomonidan tushuntiruvchi kamdan kam nazariyalarning biridir. Bu nazariyaga ko‘ra mamlakat eksporti importyor-mamlakatdagi talabga bog‘liq.

Kamdan kam tovarlar faqat eksport uchun ishlab chiqariladi. Tovarlarning asosiy qismi ichki bozorda sotiladi, ichki iste'mol to'liq qondirilgandan keyingina bu tovar eksport qilinadi. Bu tovarni xorijiy mamlakatlarda sotishda bu mamlakatdagi talab tarkibi o'z mamlakatidagi talab o'xshash bo'lgan mamlakatni tanlash maqsadga muvofiq. Ikki mamlakatda talab tarkibi ko'proq daromad darajasiga bog'liq bo'ladi, daromad qanchalik yuqori bo'lsa sifatli tovarga bo'lgan talab ortib boradi.



2.13.-rasm. Kesishuvchi talab

Kesishuvchi talab nazariyasi - bu turli mamlakatlardagi iste'molchilarning daromadlari va istak-hohishlari deyarli bir xil bo'lganligi sababli har bir mamlakat uchun ishlab chiqarishda va ichki bozorda yaxshiroq tajriba to'plangan tovarlarni eksport qilish oson bo'lishidir.

Nazariyaning grafik ko'rinishi quyidagicha: faraz qilaylik, ikki mamlakat mavjud, birinchi mamlakatda daromad darajasi A dan S gacha, bu daromad darajasida ushbu mamlakatda sotiladigan tovarlar sifati A' dan S' gacha. Ikkinchi mamlakatda esa daromad darajasi V dan D gacha, bu daromad darajasida ushbu mamlakatda sotiladigan tovarlar sifati V' dan D' gacha. Ikki mamlakat o'rtasidagi savdo sifati V' dan S' gacha bo'lgan tovarlar bilan amalga oshadi. Chunki bu oraliqda ikki mamlakatdagi iste'molchilarning talabi kesishadi.

Tayanch iboralar: tashqi savdo, xalqaro savdo, eksport, import, reeksport, reimport, mutloq ustunlik, nisbiy ustunlik, tashqi savdo aylanmasi, GATT, JST.

Bobning qisqacha xulosasi:

Merkantilistlar birinchi bo'lib xalqaro savdoning o'ziga xos modelini taklif etdilar. Ular mamlakatning boyligi mamlakatda mavjud bulgan oltin va kumush mikdori bilan boglik deb

xisobladilar. Merkantilistlar tovarlarni mamlakatga olib kirishga nisbatan ularni chetga kuprok olib chiqish, eksportni kupaytirish va importni kiskartirish uchun tashki savdoni tartibga solish, chetga xomashyo olib chiqishni keskin chegaralash yoki ta'kiklash, xomashyolarni chetdan bojlarsiz import kilishga ruxsat berish, koloniyalarning metropoliyadan tashkari barcha boshka mamlakatlar bilan xar kanday savdosini ta'kiklash kerak deb takidlaydilar.

Adam Smit tomonidan ishlab chikilgan mutlak ustunlik nazariyasiga muvofik, mamlakatlar uzlari eng kam xarajatlar bilan ishlab chikaradigan tovarlarni eksport kiladi va boshka mamlakatlarda eng kam xarajatlar bilan ishlab chikariladigan ustunlikka ega bulgan tovarlarni import kiladi.

Klassik siyosiy iqtisod asoschilaridan biri D. Rikardo tovar oqimlari harakatiga dalil sifatida nisbiy ustunlikning mikdoriy nazariyasini taklif etdi. Albatta, nisbiy ustunlik nazariyasi mavxum va juda soddalashtirilgan tabiatga ega va xalqaro savdoga bevosita ta'sir kursatadigan bir kator xodisalarni e'tiborga olmaydi. Nazariyaning cheklanganligi uni yaratilishida kilingan farazlar bilan boglik.

Xeksher-Olinning ishlab chiqarish omillari nisbiy nazariyasiga ko'ra, omillar sigimligi ma'lum bir tovarni yaratish uchun ishlab chiqarish omillari nisbiy sarfini, omillar serobligi mamlakatning ishlab chiqarish omillari bilan nisbiy ta'minlanganligini belgilab beradi. Turli mamlakatlarda tovarlar nisbiy narxidagi fark, o'z navbatida ular o'rtasidagi savdo ularning ishlab chiqarish omillari bilan bir xil ta'minlanmaganligi bilan tushuntiriladi.

Xalqaro savdoning standart modeli xalqaro savdoda umumiy muvozanat modeli xisoblanadi va mamlakat ichida tovarga bulgan talab va tovar taklifini shu tovarga bo'lgan xorijiy talab va taklifni o'zaro boglaydi. Bu model turli mikdordagi tovarlarni eksport kilishga xoxish uygonishi uchun mamlakat kancha mikdorda boshka bir tovarlarni import kilishi kerakligini ifodalovchi o'zaro talab tushunchasiga asoslangan. Ushbu model xalqaro savdoning barcha asosiy parametrlarini va u bilan boglik bulgan milliy iqtisodiyotning parametrlarini o'rganish imkonini beradi.

Xalqaro savdoda ishtirok etuvchi xar kanday mamlakat uchun eksport va import narxlarining xar kanday uzgarishi real daromadning uzgarishini anglatadi. Tovar narxi oshganda, bu tovar eksport kilinayotgan bo'lsa, mamlakatning real daromadi oshadi, agar bu tovar import qilinayotgan bo'lsa, aksincha, real daromad kamayadi.

Ma'lum bir tovarning eksport va import narxlarining nisbati yoki eksport va import narxlari indekslari nisbati orkali aniklanuvchi mamlakat eksport va import narxlarining nisbati savdo sharti deb ataladi. Uning o'sishi natijasida mamlakat farovonligi ortadi, pasayishi natijasida esa farovonlik tushadi. Taklifning ortishi (iqtisodiy o'sish) va talabning ortishi (daromadning kayta taqsimlanishi) savdo shartiga ta'sir ko'rsatishi mumkin.

XX asrda rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlar o‘rtasidagi eksport-import operatsiyalarning sifatiy xususiyatlarini e’tiborga oluvchi yangi tamoyillar paydo bo‘ldi; keyingi yillarda bir kator amerikalik iqtisodchilar tomonidan tovar ayirboshlashning turli omillarini xisobga oluvchi «tovar xayotiy sikli», «xalqaro rakobat» va boshka modellar ishlab chikildi.

Nazorat uchun savollar:

1.Tashqi savdo deganda nimani tushunasiz?

2.XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab xalqaro savdoning jadal rivojlanishiga qanday omillar ta’sir ko‘rsatgan?

3.Sizning fikringizcha, XXI asrda tashqi savdoning rivojlanishiga asosan qanday omillar ta’sir ko‘rsatadi?

4.Mintaqaviy integratsion jarayonlarning kuchayishi xalqaro savdoning rivojlanishiga qanday ta’sir ko‘rsatmoqda?

5.Mutloq ustunlik nazariyasini tushuntirib bering.

6.Nisbiy ustunlik nazariyasini tushuntirib bering.

7.Xalqaro savdoning qanday yangi rivojlanish nazariya va modellari bor?

8.Xalqaro savdo nazariya va modellarining amaliy tatbiqini tushuntirib bering.

3-mavzu. Tashqi savdoni davlat tomonidan tartibga solish va boshqarish yo’llari

3.1. Xalqaro savdoda davlatning roli

Har qanday davlatning tashqi savdo siyosati hukumatning umumiqtisodiy yo‘nalishining muhim tarkibiy qismi sanaladi, yanada torroq ma’noda esa eksport-import tovar oqimlari hajmi, tovar tarkibi va jug‘rofiy yo‘nalishini tartibga solish bilan bog‘liq byudjet-soliq faoliyati sohalaridan biridir.

Tashqi savdo siyosati xo‘jalik rivojlanishining ichki jihatlari bilan uzviy bog‘liq bo‘lganligi uchun uning bosh vazifasi mamlakat ichkarisida kengaytirilgan takror ishlab chiqarish va milliy boylikni ko‘paytirish uchun zarur bo‘lgan qulay tashqi iqtisodiy shart-sharoitlarni shakllantirish hisoblanadi.

Erkin savdo siyosati (yoki fritredlik - inglizcha free trade) iqtisodiy hayotning bir hodisasi sifatida XVIII asrning ikkinchi yarmida paydo bo‘ldi. Uning nazariy jihatdan asoslanishida A. Smitning mashhur asari - «Xalqlar boyligi tabiati va sabablari» hal qiluvchi ahamiyat kasb etdi[9].

[9] A.Smit “Xalqlar boiligining tabiati va sabablari” Oksford Universiteti - press, 1998 yil 648 b

Fritredlik nazariyasi boshqa bir ingliz iqtisodchisi D. Rikardo asarlarida rivojlantirildi va deyarli nihoyasiga etkazildi. D. Rikardo Adam Smitning raqobat sharoitida erkin tadbirkorlik ahamiyati va mamlakat iqtisodiyotini «ko‘rinmas qo‘l» hukmronligiga, ya’ni bozorning o‘z-o‘zini boshqarish qonunlari ixtiyoriga topshiruvchi jamiyatning «tungi qorovuli» sifatidagi davlat roli haqidagi g‘oyalarini rivojlantirdi.

Erkin savdo siyosatining klassik namunalarini XIX asrning ikkinchi yarmidagi ingliz-sakson mamlakatlari, ayniqsa, Buyuk Britaniya va uning dominionlari (1947 yilgacha Britaniya tarkibiga kirgan, rasmiy jihatdan mustaqil bo‘lgan davlatlar) iqtisodiyotida kuzatish mumkin. Hozirgi paytga kelib fritredlik tizimining klassik ko‘rinishi davlat ixtiyorida bo‘lgan biror-bir mamlakat qolmadi. Davlatning nufuzli tashkilotlarini tartibga solish borasida rolini sezilarli oshganligini hisobga olsak, bu o‘z-o‘zidan tushunarli, albatta. Biroq erkin savdo siyosatining unsurlari ko‘plab mamlakatlarning iqtisodiy siyosatida hozir ham sezilarli, ayniqsa, rivojlangan va hududi hamda resurslari jihatidan kichik bo‘lgan mamlakatlarda, masalan, Singapurda.

Iqtisodiy nazariyada odatda erkin savdo proteksionizm siyosatiga (ingl. protection - himoya, homiylik), ya’ni milliy iqtisodiyotni ichki va tashqi bozor tamoyillarining salbiy ta’sirlaridan himoyalash maqsadida davlat tomonidan joriy etiladigan iqtisodiy va ma’muriy chora-tadbirlar tizimi qarama-qarshi qo‘yiladi.

Proteksionizm o‘z mohiyatiga ko‘ra, ilk davlatlar shakllangan paytdan buyon mavjud. Bu siyosatning prinsiplari nazariy jihatdan amerikalik davlat arbobi A. Gamilton (XVIII asrning oxiri) va taniqli nemis iqtisodchisi F. List (XIX asrning o‘rtalari) asarlarida ishlab chiqilgan. Biroq proteksionizm amaliy chora-tadbirlar seriyasi sifatida sayyoramizda so‘l (SSSR) va o‘ng («Uchinchi reyx» - fashistlar Germaniyasi) siyosiy oqimlarning totalitar rejimi davrida o‘z kulminatsiyasiga etgan. Bu mamlakatlarda savdo sohasiga davlat monopoliyasi xos edi.

Yuqorida qayd etib o‘tilgandek, xalqaro iqtisodiy munosabatlarning asosiy tamoyili sifatida yanada ko‘p sonli mamlakatlarni aholi turmush farovonligini oshishini ta’minlovchi erkin savdo siyosatiga o‘tishi tan olinib kelinayotgan bo‘lsada, proteksionizmning «tanlangan» restavratsiyasi deb atalgan jarayon ham kuzatilmoqda.

3.2. Tashqi savdoni davlat tomonidan tartibga solishning tarifli usullari

Tashqi savdoni davlat tomonidan tartibga solish turli ko‘rinishlarda bo‘lishi mumkin. Ularni tovar oqimlariga ta’siri tabiatiga ko‘ra bir-biridan jiddiy farq qiluvchi ikkita asosiy tipga ajratish mumkin: iqtisodiy va ma’muriy.

Iqtisodiy (tarifli deb ham ataladigan) usullardan foydalanganda ishlab chiqaruvchi va iste’molchilar, eng avvalo, narx mutanosibligi, tovar va resurslar eksporti hamda importining

sifati va shartlariga amal qilishadi. Tashqi savdoni tartibga solishning ma'muriy (mos ravishda tarifsiz) usullaridan foydalanilganda bozor mexanizmiga davlat organlari tomonidan ta'sir o'tkaziladi, ularning qarorlari va hatti-harakatlari ko'p jihatdan ishlab chiqaruvchilar va iste'molchilarning xohishlarini belgilab beradi.

Tarifli usullar tovar narxiga bevosita ta'sir qiladi. Bu usullar davlatlar tashqi savdo amaliyotida eng keng tarqalgan, chunki ular birdaniga uchta vazifani hal qilish imkonini beradi:

1) fiskal - byudjet uchun qo'shimcha mablag'larni olish;

2) rag'batlantiruvchi - xorijiy hamkorlar bilan aloqalarni rivojlantirish;

3) proteksionistik - milliy tovar ishlab chiqaruvchilar uchun qulay shart-sharoitlarni yaratish.

Tashqi savdoni tarifli tartibga solish usullari qatoriga bojxona bojlari, bojlar, yig'imlar, shuningdek, boshqa bilvosita soliqlar, mas. aksizlar kiradi.

Tarifsiz usullar - tovar ayirboshlashga ta'sir qilish dastaklarini, ya'ni olib kiriladigan yoki olib chiqiladigan mahsulot hajmi va nomenklaturasini cheklashni bildiradi. Ular ko'proq rivojlanayotgan va hukumat tomonidan proteksionistik iqtisodiy siyosatni talab qiluvchi, bozor tuzilmalari shakllanayotgan o'tish davri iqtisodiyotli mamlakatlarga xosdir.

Tarifsiz ta'sir qilish vositalariga kvotalash, litsenziyalash, eksportni subsidiyalash, demping, kartel bitimlar va mamlakatlar o'rtasidagi tovar oqimlarining yo'lida texnik to'siqlarni yaratish kabilar kiritiladi.

Jahondagi mamlakatlar va hududlar bo'yicha statistik axborotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, tashqi savdoni davlat tomonidan boshqarish tarifli va tarifsiz usullarning kombinatsiyasi yordamida amalga oshiriladi. Tarifli usullarning mavqei keyingi paytda pasayib bormoqda, bu esa Umumjahon savdo tashkilot tomonidan a'zo-mamlakatlar oldiga qo'yilgan strategik vazifa, ya'ni ular orasidagi o'zaro tovar ayirboshlashda tarifli cheklashlarni bosqichma-bosqich bartaraf etish vazifasi bilan bog'liq. Tarifsiz cheklashlarning ahamiyati «tanlovli» proteksionistik savdo siyosatining kengayib borishi tufayli ortib bormoqda.

Tashki savdoni tarifli tartibga solish usullari katoriga bojxona tariflari, bojlar, yig'imlar, shuningdek, boshqa bilvosita soliqlar, aksizlar kiradi.

3.3. Tarif siyosatining asosiy ko'rinishlari

Milliy xo'jalikning holatiga bog'liq ravishda bojxona siyosati olib borishning ikki variantini ajratib ko'rsatish mumkin, yani iqtisodiy rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlardagi bojxona siyosatlari.

Rivojlangan mamlakatlar uchun ko‘p jihatli tariflar xos bo’lib, u turli import boji stavkalari: barcha davlatlar uchun taalluqli bo’lgan miqdori baland umumiy stavkalar, eng qulay sharoit yaratish rejimi stavkasi (ikki mamlakat urtasida kelishilgan xolda urnatilgan savdo operatsiyalarining imtiyozli tartibi), kambagal, past darajada rivojlangan iqtisodiyotli mamlakatlardan qilinadigan importlar uchun belgilangan preferensial koeffitsentli stavkalarni nazarda tutadi.

Rivojlangan mamlakatlar bojxona tariflarining boshqa bir xususiyati, bu tariflarning 1988 yilda joriy etilgan «Xalqaro tovarlarni tavsiflash va kodlashtirishning uygunlashtirilgan tizimi» (UT) bilan korrelyasiyasi (o‘zaro bog‘liqligi) hisoblanadi.

Rivojlanayotgan mamlakatlar guruhi bojxona siyosatining uziga xos xususiyati eksport bojlaridan keng ko’lamda foydalanish va nisbatan yuqori import tarifi stavkalarini ushlab turish (bu stavkalar rivojlangan mamlakatlar uchun misli kurilmagan darajaga etadi - 50-100 foizgacha, Misr, Ekvador, Pokistonda hatto bundan ham yuqori) xosdir.

Bundan tashqari ko’pchilik rivojlanayotgan mamlakatlarda, AQSH, Yaponiya va Yevropa davlatlaridan farqli ravishda, eski Bryussel tovar nomenklaturasidan yangi Uygunlashtirilgan tizimga endigina o’tishmokda. Shuning uchun ularning ba’zilari ko‘p kolonkali tariflar (Senegalda - 9 ta, Malida - 17 ta)ni qo‘llaydi. Milliy tariflar bilan bir qatorda jahon iqtisodiyotida bir necha mamlakatlarni bojxona ittifoqlariga birlashishi keng tarqalib bormoqda. Bojxona ittifoqlari tashqi savdoni davlatlararo tartibga solishni turli ko‘rinishlaridan amaliy foydalanishmoqda, bunda ular turli hududiy va global xalqaro tashkilotlar ko‘magiga suyanmoqda.

Bojxona bojlarining mohiyati va ko‘rinishlari

Tashqi iqtisodiy faoliyat amaliyotida tashqi savdoni davlat tomonidan tartibga solishning eng keng tarqalgan usullaridan biri bojxona bojlari hisoblanadi. Bojxona boji iqtisodiy mohiyati jihatidan tovar davlat chegarasidan o‘tayotganda olinadigan maxsus pul yig‘imi, soliqni bildiradi.

Bojxona bojlari ko‘rinishlarining turli-tumanligi ularning tovar oqimlarini tartibga solish jarayonida bajaradigan funksiyalarining nihoyatda keng ko‘lamliligi bilan izoxlanadi. Eslatib o‘tamiz, bojxona bojlarini joriy etishdan asosiy maqsad: byudjetning daromad qismini ko‘paytirish va «nohalol» raqobat bilan kurashishdir. Shuning uchun ham savdoga ta’sir o‘tkazishning bu usulidan hozirgi kunda jahonning yuzdan ortiq mamlakatida foydalaniladi.

Tovar oqimlarining yo‘nalishiga bog‘liq ravishda import, eksport va tranzit bojlari mavjud.

Import bojlarini joriy qilish milliy kompaniyalar (rezidentlar)ga ishlab chiqarishni kengaytirish imkoniyatini beradi, chunki ular jahon bozoridagi o‘rtacha darajaga nisbatan yuqoriroq xarajatlar bilan mahsulot ishlab chiqarish imkoniyatiga ega bo‘ladi.

Hozirgi paytda eksport bojlari ancha kam qo‘llaniladi. Ulardan deyarli barcha rivojlangan mamlakatlar voz kechishgan, chunki ularni joriy qilish jahon bozoridagi keskin raqobat sharoitda eksportning qimmatlashishiga olib keladi.

Tranzit bojlar mamlakat hududini kesib o‘tuvchi tovarlardan olinadi va tranzit yig‘imlar ko‘rinishiga ega.

Bojxona bojiga tortishning ikkita asosiy usuli mavjud:

Maxsus, bunda boj miqdori tovarning og‘irligi, hajmi miqdori birligidan belgilangan summa sifatida o‘rnatiladi (masalan, avtomobil dvigatelining 1 sm kub dan).

Advalor (lot. - ad valorem - qiymatdan), bunda bojxona boji sotuvchi tomonidan qayd etilgan tovar qiymatidan foiz ko‘rinishida aniqlanadi.

Bundan tashkari tashki savdo amaliyotida bojlarni xisoblashning kombinatsion usuli mavjud. Uning mohiyati shundan iboratki, malum bir bojxona tashkiloti vaziyatdan kelib chiqqan xolda maxsus va advalor orasidagi usulni mustaqil ravishda tanlash huquqiga ega buladilar.

Bojxona boji o‘rnatishning u yoki bu usulini tanlash tovar guruhi tabiatiga bog‘liq Xomashyo tovarlariga odatda birinchi usul qo‘llaniladi, eksport bojlariga kelsak, ular ham odatda maxsus usuldan foydalangan holda o‘rnatiladi. Advalor usuldan foydalanish, mashinasozlik mahsulotlari va butlovchi qismlar, ya’ni yuqori darajada differensiatsiyaga ega buyumlar importida qulay hisoblanadi. Hozirgi paytda bu usul hissasiga barcha bojxona yig‘imlarining 80 foizidan ko‘progi to‘g‘ri keladi. Savdo aloqalaridagi mamlakatlar bir-biri bilan turli shartnoma munosabatlarida bo‘lganligi uchun import bojlari: preferensial (maxsus imtiyozli) boj, shartnomaviy (minimal) boj va asosiy (jahon bozori uchun maksimal darajada mumkin bo‘lgan) bojlar bo‘lishi mumkin.

Iqtisodiyotda davlat tomonidan tashlangan proteksionistik qadamlar ishlab chiqaruvchilar va iste’molchilarga hamda qisqa va uzoq muddatli istiqbolda davlatning o‘ziga ham har xil ta’sir ko‘rsatadi. Bunday siyosatning ichki bozor uchun mahsulot ishlab chiqaruvchi milliy kompaniyalarga ta’sirini ko‘rib chiqishdan boshlaymiz.



3.1.-rasm. Import bojining milliy iqtisodiyotga ta'siri.

3.1.-rasm yordamida import bojining kichik iqtisodiyot (ichki narx jahon narxiga ta'sir ko'rsata olmaydigan iqtisodiyot)ga ta'sirini baholashimiz mumkin. Savdo boshlanmasdan oldin, mamlakatda 100 ta tovar ishlab chiqarilyapti va iste'mol qilinyapti, muvozanat narxi 8 dollarga teng (talab va taklif chiziqlari E nuqtada kesishgan). Agar tovarning jahon narxi ichki narxdan past bo'lsa, mamlakatga jahon narxida (5 dollar) 120 ta tovar kirib keladi, ichki narx jahon narxi darajasigacha tushib ketadi. Buning natijasida milliy ishlab chiqaruvchilar faqatgina 40 ta tovar taklif qiladi, iste'mol esa 160 taga etadi. Milliy ishlab chiqaruvchilarni himoyalash maqsadida hukumat 2 dollar miqdorida bojxona boji joriy qilsa, eksportyorlar o'z tovarini 7 dollardan sotishga majbur bo'ladi va ichki bozordagi narx ko'tariladi. Buning natijasida ichki ishlab chiqarish 80 ta tovarni tashkil qiladi, import esa 40 tagacha qisqaradi. Iste'molchilar jami 120 ta tovar sotib oladi. Bojxona boji o'rnatilishi natijasida milliy ishlab chiqaruvchilar **a** trapetsiyaning yuziga teng bo'lgan qo'shimcha foyda ko'radi. **C** to'g'ri to'rtburchakning yuziga teng bo'lgan summa bojxona boji sifatida davlat byudjetiga tushadi.

Boshqacha qilib aytganda, milliy kompaniyalarning ichki bozor uchun ishlab chiqargan mahsulotlari bojxona solig'idan ozod bo'lganligi sababli uning narxi import qilinayotgan ana shunday tovardan sezilarli darajada past bo'lishi mumkin, bunday sharoitda xo'jalik yurituvchi sub'ektlar yangi texnologiyalar, xomashyo va materiallarni tejash hisobiga xarjatlarini kamaytirish zaruriyatiga ehtiyoj sezishmaydi. Amalda import o'rnini qoplashga yo'naltirilgan

sohalardagi milliy firmalar o‘z tovarlarini import tarifiga yaqin narxlarda sotadi, natijada qo‘shimcha foyda ko‘radi. Milliy kompaniyalarning daromadlarini o‘sishi va milliy ishlab chiqarishning kengayishi sabablaridan biri xam ana shunda.

Tarifning katta mamlakat iqtisodiyotiga ta’siri

Katta mamlakat uchun import tarifi faqatgina ichki ishlab chiqarishni himoyalash emas, balki tashqi dunyo bilan savdo shartini yaxshilab olish vositasi hamdir. Darhaqiqat, katta mamlakat importni qisqartirsa, bu mamlakat ana shu tovarning asosiy xaridori bo‘lganligi sababli eksportyor mamlakat ushbu tovar narxini pasaytirishga majbur bo‘ladi. Eksport tovarlari narxi o‘zgarmagan holda import tovarlar narxining pasayishi importyor mamlakat uchun savdo shartining yaxshilanishiga olib keladi. lekin katta iqtisodiyotli mamlakat ham import bojini joriy qilishdan sof foyda ko‘rmasligi mumkin.

Katta mamlakat hukumati ichki ishlab chiqaruvchilarni xorijiy raqobatdan himoya qilish maqsadida importga boj joriy qiladi. Boj o‘rnatilishi natijasida tovarning jahon narxi tushadi. Lekin ushbu tovarning ichki narxi boj miqdoriga ko‘tariladi (t) P_w dan P_{wQt}ga. Jami taklif chizig‘i yuqoriga yangi S_{dQwQt} darajaga suriladi. Taklifning yangi darajasida ichki talab va jami taklif G nuqtada muvozanatga keladi, natijada ichki ishlab chiqarish Q_1Q_2ga ortadi, ichki talab Q_5Q_4ga kamayadi. Import Q_1Q_5 dan Q_2Q_4 ga qisqaradi.



3.2.-rasm. Tarifning katta mamlakat iqtisodiyotiga ta’siri

Import tarifi joriy qilinishi natijasida iste’molchilarning zarari aQbQcQd ga teng bo‘ldi. Kichik mamlakatda bo‘lgani kabi import bojining ta’sirini ikkiga ajratishimiz mumkin: qayta taqsimlanish effekti va yo‘qotish effekti..

Katta mamlakat misolida daromad effekti ikkiga ajraladi: ichki daromad effekti va savdo sharti effekti.

Ichki daromad effekti - bu daromadning ichki iste’molchilaridir.

Savdo sharti effekti - bu daromadning xorijiy ishlab chiqaruvchilardan davlat byudjeti foydasiga qayta taqsimlanishi.

Tarif kvotasi

Import boji ichki qarama-qarshilikka ega. Ya'ni ishlab chiqaruvchilar bir tarafdan xalqaro raqobatdan qutilish maqsadida bundan manfaatdor bo'lsa, ikkinchi tomondan ish vaqtidan tashqari paytda iste'molchi sifatida import tarifiga qarshidirlar. Bu ziddiyat qisman tarif kvotasini joriy qilish orqali hal etiladi..

Tarif kvotasi - o'zgaruvchan bojxona boji ko'rinishi bo'lib, boj stavkasi miqdori import qilinadigan tovar hajmiga bog'liq bo'ladi: ma'lum chegaradagi importga pastroq miqdordagi boj, bu chegaradan oshib ketganda yuqoriroq boj o'rnatiladi.



3.3.-rasm. Tarif kvotasi

Faraz qilaylik, ichki talab (D_d), ichki taklif (S_d) va jahon taklifi (S_w) chiziqlar bilan ifodalangan. Savdo boshlanmasdan oldin tovar narxi 540 dollarga teng. Erkin savdo sharoitida tovar narxi 400 dollarga tushadi. Bu narxda mamlakat 5 birlik tovar ishlab chiqaradi va 40 birlik tovar iste'mol qiladi. Binobarin, 35 birlik tovar import qiladi. Ichki ishlab chiqaruvchilarni himoyalash maqsadida dastlabki 5 birlik tovar importga 10 foizlik, undan ortig'iga 20 foizlik import boji joriy qilinadi. Ilgari mamlakat sezilarli darajada ko'proq tovar import qilganligi bois, tovarning ichki narxini 480 dollargacha ko'taruvchi ikki qavatli tarif yuzaga keladi. Natijada ichki ishlab chiqarish 15 birlikka etadi, iste'mol 30 taga, import 15 taga kamayadi. Chegaraviy effekt a ga teng bo'ladi, to'g'ridan to'g'ri iqtisodiy zarar tarifdagi bo'lgani kabi bQd ga teng bo'ladi.

Daromad segmenti s bir necha segmentchalarga bo'linadi. Dastlabki 5 birlik tovarga 10 foizlik, ya'ni 40 dollarga teng boj joriy qilingan, 200 doll. (s_1q5x\$40q\$200) miqdoridagi foyda byudjetga tushadi. Keyingi 10 birlik tovarga 80 dollarlik boj o'rnatilgan, demak 800 dollar (s_2Qs_3q 10x \$80q \$800) ham byudjetga tushadi. s_4 (s_4q 5x \$80- 5x \$40q \$200) segment esa mahalliy kompaniyalarning ko'zda tutilmagan foydasidir. Ya'ni bu kompaniyalar tovarni 440

dollardan sotib olib 480 dollardan sotish imkoniyatiga ega bo‘ladi. Agar eksportyorlar tovar narxini 480 dollarga oshirishsa, ko‘zda tutilmagan daromadga xorijliklar ega bo‘ladi.

Eksport tarifi

Eksport bojlari eksport tovarlari mamlakat chegarasidan chiqib ketayotganda olinadigan majburiy to‘lovdir.

Faraz qilaylik, hukumat eksportni boj orqali cheklamoqchi. Kichik mamlakat misolida tahlil qiladigan bo‘lsak, eksport bojini joriy qilinishi jahon narxiga ta’sir ko‘rsatmaydi. Binobarin savdo sharti o‘zgarmaydi. Tovar eksportining foydaliligi pasayadi va ishlab chiqaruvchilar tovarlarning bir qismini ichki bozorga qaytarishadi, natijada bu tovarning ichki narxi boj miqdorida P_w dan P_{wQt} ga tushadi. Jami talab chizig‘i eksport tarifi miqdorida pastga ko‘chadi S_{dQwQt}. Talabning yangi darajasida ichki taklif va jami talab muvozanatiga G da erishiladi, bu vaziyatda eksport tarifi yordamida ichki iste’mol Q_1Q_2 ga ortadi, ichki taklif Q_5Q_4 ga kamayadi.



3.4.-rasm. Eksport tarifi.

Eksport miqdori esa Q_5Q_1 dan Q_4Q_2 ga qisqaradi. Demak, eksport tarifi joriy qilinish natijasida ichki iste’mol ortdi, ichki taklif va eksport miqdori qisqardi.

Eksport tarifi o‘rnatilishi natijasida iste’molchilar a segment miqdorida foyda ko‘rishdi. Davlat eksport boj yordamida s ga teng miqdordagi foydani ishlab chiqaruvchilardan o‘z foydasiga qayta taqsimlaydi. bQd segmentlari ishlab chiqaruvchilarning sof yo‘qotishlaridir. Umuman olganda eksport tarifi o‘rnatilganda ham import boji joriy qilingandagi kabi effektlar yuzaga keladi: yani qayta taqsimlash effektlari va yo‘qotish effektlari .

3.4. Tarifli boshqaruvning afzallik va kamchiliklari

TIF sohasidan cheklashlar siyosatini keng ko‘lamda va faol amalga oshirish davlatga qisqa muddatda muvaffaqiyat olib kelishi mumkin. Bu yutuqlarni quyidagi jihatlar bilan bog‘lash mumkin: milliy korxonalarda ishlab chiqarish hajmining ortishi, boj, soliq, yig‘imlar hisobiga byudjet daromadining ko‘payishi, iqtisodiy xavfsizlik va mudofaa qobiliyatining ta’minlanishi.

Biroq haqiqatda esa, bu taktik ustunliklar strategik, uzoq muddatli istiqboldan kelib chiqsak, qarama-qarshi tomonga o‘zgaradi. Davlatning tarif miqdoriga ko‘paytirilgan import miqdoriga teng iqtisodiy yutug‘i iste’molchilar tomonidan davlat foydasiga transfert to‘lov hisoblanadi. Albatta, mablag‘larning bir qismi ijtimoiy ehtiyojlar (oyliklarni oshirish, nafaqalar to‘lash)ga sarflanishi mumkin, biroq ularning katta qismi byurokratik o‘zboshimchalik va mablag‘larni davlat tashkilotlari orqali o‘tishi bilan bog‘liq xarajatlar tufayli qaytarib berilmaydi.

Bundan tashqari, boshqa mamlakatlarning proteksionistik javob tadbirlarini ham unutmaslik lozim. Bu tadbirlar tufayli tovar aylanmasi kamayib ketadi, ish joylari qisqaradi, oxir-oqibat bir qator kompaniyalarning mahsulotlari milliy bozordan arzonroq va sifatsizroq tovar ishlab chiqaruvchi foydasiga surib chiqariladi.

Iste’molchilar masalasiga to‘xtaladigan bo‘lsak, ularning asosiy qismi «belbog‘larini mahkam boylab olishlari» kerak bo‘ladi, chunki oddiy odamlarning daromadlari ishlab chiqaruvchilar foydasiga qayta taqsimlanadi, zero bojxona tarifi joriy etilishidan oldingi va keyingi ichki narxlardagi farq iste’molchilar elkasiga tushadi. Faqatgina importni o‘rnini qoplash sohasidagi kompaniyalarning aksiyalariga ega bo‘lgan uncha katta bo‘lmagan ayrim guruhlarga kiruvchi iste’molchilar olib kirish bojlaridan daromad ko‘rishi mumkin. Shunday qilib, bozor iqtisodiyoti sharoitida proteksionistik siyosatni amalga oshirish narx yuqoriligi sababli ichki iste’molning kamayishiga, soliq bazasining qisqarishiga va jamiyat uchun umuman olganda sof yo‘qotishlarga olib keladi.

Bosqichma-bosqich proteksionistik siyosat totalitar rejimlar tomonidan ma’muriy-buyruqbozlik tizimida cheklangan makon va zamonda olib borilgan.

Proteksionizmning salbiy xususiyatlariga quyidagilarni kiritish mumkin:

- Aholi turmush darajasida sof yo‘qotishlarning ortib ketishi. Import bojlari kiritilganidan keyin xaridorlar olib kirilgan tovarlar uchun yanada yuqoriroq haq to‘lashga majbur bo‘lishadi. Bu investitsiyalarga aylanishi mumkin bo‘lgan iste’moldan ortadigan jamg‘armalarni kamayishiga olib keladi.

- Yanada ko‘proq mamlakatlar tomonidan tarif cheklashlarini joriy etilishining zanjir reaksiyasi bilan bog‘liq xalqaro ko‘paytiruvchi effektning paydo bo‘lishi.

- Milliy iqtisodiyotda nosamaraviy sohalar va korxonalarning saqlanib qolishi. Milliy korxonalarga imtiyozlar berilishi sharoitida ishlab chiqaruvchilarda xarajatlarni kamaytirish va raqobatbardosh tovarlar ishlab chiqarishga rag‘bat bo‘lmaydi.

- Iqtisodiy sohada korrupsiya va o‘z amalidan foydalanishning boshqa ko‘rinishlari keng tarqaladi. Milliy iqtisodiyotning «yopiqligi» odatda TIFning kriminallashuvi uchun ozuqa muhitini yaratadi.

Hukumatning TIFni tartibga solish bo‘yicha chora-tadbirlar kompleksini joriy etishga majbur etuvchi omillar (ijobiy omillar) ichida quyidagilarni ajratib ko‘rsatish mumkin:

- Iqtisodiyotning yangidan shakllanayotgan sohalarini qudratli xorijiy kompaniyalar raqobatidan himoyalash;

- Davlat ko‘magisiz tuzilmani qayta qurishning iloji bo‘lmagan jahon bozorida raqobatbardosh bo‘lmagan «eski» sohalarni qo‘llab-quvvatlash;

- Diskriminatsion savdo siyosati olib borayotgan mamlakatlar yoki kompaniyalarga javob tariqasida demping va xorijiy raqobatning boshqa nohalol usullari bilan kurashish;

- Jahon bozor kon’yunkturasidagi tebranishlarning milliy iqtisodiyotga ta’sirini kamaytirish. Bu omil xomashyo va tabiiy resurslar eksport qiluvchi mamlakatlar uchun dolzarb hisoblanadi;

- Byudjetning daromad qismini ko‘paytirish - o‘tish davri iqtisodiyoti va rivojlangan mamlakatlarda davlat byudjeti ko‘pincha proteksionistik siyosatning tarkibiy unsurlari bo‘lgan bojxona bojlari va boshqa egri soliqlar hisobiga amalga oshiriladi.

Shunday qilib, proteksionizm tashqi savdo operatsiyalariga turli-tuman cheklashlarni joriy etuvchi davlatga vaqtinchalik, taktik yutuq keltirsa-da, strategik, uzoq muddatli rejada istiqbolsiz siyosat hisoblanadi. Bu siyosat XX asr tajribasidan ma’lumki, hayot darajasining va aholi turmush farovonligining pasayishiga olib keladi. Shunday bo‘lsa-da, iqtisodiy erkinlashtirish kursini saqlagan holda proteksionizmning ayrim unsurlaridan oqilona foydalanish ma’lum vaqt oralig‘ida milliy iqtisodiyotni rivojlantirishda ijobiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin.

3.5. Tashqi savdoni tartibga solishning notarif usullari

Notarif usullar - tovar ayirboshlashga ta’sir qilish dastaklarini, ya’ni olib kiriladigan yoki olib chikiladigan maxsulot hajmi va nomenklaturasini cheklashni bildiradi. Notarif usullar miqdoriy, moliyaviy, yashirin va noiqtisodiy usullarga ajratiladi. Ular ko‘prok rivojlanayotgan va xukumat tomonidan proteksionistik iqtisodiy siyosatni talab qiluvchi, bozor tuzilmalari shakllanayotgan utish davri iqtisodiyotli mamlakatlarga xosdir.

Jahondagi mamlakatlar va hududlar bo‘yicha statistik axborotlar taxlili shuni ko’rsatadiki, tashki savdoni davlat tomonidan boshqarish tarifli va notarif usullarning kombinatsiyasi yordamida amalga oshiriladi. Tarifli usullarning mavqei keyingi paytda pasayib bormoqda, bu esa Umumjahon savdo tashkiloti tomonidan a’zo-mamlakatlar oldiga quyilgan strategik vazifa, ya’ni ular orasidagi o‘zaro tovar ayirboshlashda tarifli cheklashlarni bosqichma-bosqich bartaraf etish vazifasi bilan bog‘lik.

Notarif ta’sir qilish vositalariga kvotalash, litsenziyalash, eksportni subsidiyalash, demping, kartel bitimlar va mamlakatlar o‘rtasida tovar oqimlari yo‘lida texnik to‘siqlarni yaratish kabilar kiritiladi.

Kvotalash yoki kontingentlash

Umuman olganda, boshqa mamlakatlar bilan savdoni davlat tomonidan tartibga solishning notarif usullarining 50 dan ortiq turi mavjud. Ularning ichida eng keng tarqalgani kvotalardir. Agar tarifli usullar aniq bir tovar guruhi bo‘yicha eksport yoki import hajmi masalasini ochiq qoldirsa, kvotalar olib kiriladigan yoki olib chiqiladigan mahsulotning qiymat yoki miqdoriy hajmini to‘g‘ridan to‘g‘ri cheklash vositasi bo‘lib xizmat qiladi.

Import kvotalarini joriy qilishda davlat milliy ishlab chiqaruvchilar uchun xorijiy raqobat ta’sirini bartaraf qilishga intiladi. Bunday kvotalarning harakat mexanizmi import tariflaridan foydalangandagi holatni eslatadi, ya’ni import tovarlar taklifi cheklanganda ichki baholar jahon narxiga nisbatan o‘sib boradi. Biroq tarifdan farqli ravishda, import kvotalari xorijiy raqobatning ichki narxlarga ta’sir qilishiga yo‘l qo‘ymaydi, bu orqali importdan keladigan foydani ko‘paytiradi va mamlakat to‘lov balansini muvozanatga keltirish jarayonini osonlashtiradi. Xalqaro bitimlar orqali qat’iy belgilanuvchi tarif stavkalari o‘rnatilgan vaziyatda mamlakat yuqoridagi masalani hal eta olmaydi, UST eksport-import operatsiyalarga miqdoriy cheklashlar joriy qilishga ruxsat beradi.

O‘z navbatida, eksport kvotalari milliy ishlab chiqaruvchilarni etarli tabiiy resurslar bilan ta’minlash, jahon bozoridagi eksport baholarini oshirish va harbiy-strategik maqsadlarga erishish kabilarga qaratilgan.

Import kvotalari kabi eksport kvotalari ham mamlakat hukumati tomonidan bir tomonlama tartibda yoki manfaatdor hamkor bilan xalqaro kelishuv xulosasi orqali joriy etilishi mumkin. Ular global yoki ma’lum davrda amal qiluvchi mavsumiy bo‘lishi mumkin.

Litsenziyalash

Kvotalash jarayoni (boshqacha qilib aytganda, kontingentlash), odatda, litsenziyalash, ya’ni maxsus ro‘yxatga kiritilgan resurslar va mahsulotlar bilan tashqi savdo operatsiyalarini amalga oshirish vakolatiga ega bo‘lgan davlat tashkilotlari (vazirliklar va mahkamalar) tomonidan ruxsat berish bilan birgalikda kuzatiladi.

Ko‘pchilik davlatlarda tashqi iqtisodiy faoliyatni litsenziyalashni joriy qilish xalqaro huquqiy aktlarga asoslanadi, ularning ichida eng asosiysi 1947 yilda imzolangan Savdo va tariflar bo‘yicha Bosh bitim (GATT) hisoblanadi. Keyinchalik GATT doirasida ba’zi bir boshqa shartnomalar ham imzolangan.

Tashqi savdoni litsenziyalash turli ko‘rinishlarni olishi mumkin: bosh litsenziya, bir martalik litsenziya va avtomatik litsenziya. Bosh litsenziyalar uning egasining ma’lum tovar guruhi bilan ma’lum vaqt oralig‘ida (odatda bir yildan uch yilgacha) eksport-import operatsiyalarini amalga oshirish huquqini bildiradi. Bir martalik litsenziya kompaniyalarga xorijiy hamkor bilan aniq bir bitimni amalga oshirish uchun beriladi. Avtomatik litsenziya davlat tomonidan harid, ya’ni harid hajmini ham, tovar oqimlarining jug‘rofiy yo‘nalishini ham doimiy ravishda nazorat qilishni nazarda tutadi.

Litsenziyalarni joylashtirishning asosiy usullariga quyidagilarni kiritish mumkin:

- Ochiq konkurs - bunda maksimal narx taklif qilgan firma litsenziyaga ega bo‘ladi;
- yaqqol afzallik tizimi - bunda davlat ana shu sohadagi eng obro‘li kompaniyalarga litsenziya beradi;
- harajatlar usuli - bu raqobatchilariga nisbatan kattaroq ishlab chiqarish quvvatlari va boshqa resurslarga ega korxonalarga litsenziya berishni anglatadi;

O‘z-o‘zidan tushunarliki, keltirilgan usullar ichida eng afzali korrupsiya va oshna-og‘aynigarchilikdan xoli bo‘lgan ochiq konkurs usulidir.

Yevropa Ittifoqiga a’zo-mamlakatlar orasida eksport-import operatsiyalarini litsenziyalash tovar aylanmasi umumiy hajmining 5-6 foizi darajasiga etadi (kvotalash va litsenziyalash bo‘yicha o‘ziga xos «lider» Fransiya hisoblanadi).

Litsenziyalashni talab etadigan tovarlar ro‘yxatiga, birinchi navbatda, eksportga mo‘ljallangan kvotalanadigan mahsulotlar, shuningdek, ba’zi bir maxsus guruhdagi tovarlar: strategik ahamiyatga ega tovar va resurslar, dori-darmonlar, bolalar assortimenti va boshqalar kiradi.

«Ko‘ngilli» eksport cheklashlar

Mutaxassislarning fikricha, eksport kvotalarining muhim turlaridan biri ko‘ngilli eksport cheklashlari (KECH) hisoblanadi. KECH holatida eksportyor-davlat «ko‘ngilli» ravishda boshqa mamlakatga olib chiqadigan mahsuloti hajmini chegaralaydi va hamkor taziyqi ostida minimal import narxlarini o‘rnatadi. Bunday amaliyot AQSH va Yevropa Ittifoqida Yaponiya tovarlari (avtomobillar, elektronika, po‘lat)ga nisbatan keng qo‘llaniladi. Hozirgi paytda jahonda bunday turdagi 100 dan ortiq bitimlar imzolangan, biroq UST a’zo-mamlakatlar oldiga ular o‘rtasidagi savdoda XXI asr boshlariga kelib KECHni umumiy bekor qilish vazifasini qo‘ymoqda.

Maxsus, mantiqiy nihoyasiga etkazilgan kvotalash usuli iqtisodiy sanksiya ko‘rinishidagi embargo hisoblanadi. Bu usul bir mamlakat yoki mamlakatlar guruhi bilan savdo operatsiyalarini butunlay ta’qiqlashni bildiradi. Odatda siyosiy maqsadlarni ko‘zlagan holda embargoni joriy qilish butun nomenklaturadagi yoki alohida guruhdagi tovarlar eksporti yoki importini cheklashni nazarda tutadi. XX asrda savdoni tartibga solishni bunday usuliga yetarli darajada misollar keltirish mumkin. BMT qaroriga ko‘ra embargo siyosati Iroqqa, qisman sobiq Yugoslaviya, Livan, Eron va ba’zi boshqa mamlakatlarga nisbatan amalga oshirilgan.

Yashirin proteksionizm ko‘rinishlari

Jahon amaliyotida tashqi savdoni tartibga solishning notarif usullari ichida miqdoriy va moliyaviy usullardan tashqari yashirin proteksionizm usullaridan foydalaniladi. Yashirin proteksionizm usullari mohiyati jihatdan markaziy hukumat va hatto mahalliy hokimiyat organlari tomonidan tashqi savdo yo‘liga bojxona tabiatiga ega bo‘lmagan turli tuman to‘siqlarni o‘rnatishini anglatadi. Yashirin proteksionizm usullarining ko‘pchiligi xalqaro savdo muvofiqlashtirilgan tamoyillarini buzishning yaqqol namunasidir.

Alohida mamlakat import yoki eksportni bir tomonlama chegaralashida foydalanadigan yashirin proteksionizm usullarining yuzdan oshiq turi mavjud. Bu usullarni to‘rtta katta guruhga ajratish mumkin:

- Texnik to‘siqlar;
- Ichki soliqlar va yig‘imlar;
- Davlat xaridlari doirasidagi siyosat;
- Mahalliy komponentlarning tovar tarkibida bo‘lishligiga talablar.

Texnik to‘siqlar - bu yashirin proteksionizm usuli bo‘lib, milliy texnik, ma’muriy va me’yorlar hamda qoidalar shunday ishlab chiqiladiki, ular tovarlarni tashqaridan olib kirishga to‘sqinlik qiladi. Texnik xarakterdagi to‘siqlarning eng keng tarqalganlari qatoriga quyidagilarni kiritish mumkin:

- Milliy standartlarga rioya qilishni talab qilinishi;
- Import mahsulotni sifati haqida sertifikat olinishini talab qilinishi;
- Maxsus qadoqlash va markirovkalashni talab qilinishi;
- Ma’lum sanitariya va gigiena qoidalariga rioya qilishni talab qilinishi;
- Atrof-muhitni himoyalash bo‘yicha tadbirlar o‘tkazishni talab qilinishi;
- Murakablashtirilgan bojxona rasmiyatchiliklariga rioya qilinishini talab qilinishi;
- Iste’molchilar huquqlarini himoyalash to‘g‘risidagi qonunlarga rioya qilishni talab qilinishi va hokazolar.

Ichki soliqlar va yig‘imlar (domestic taxes and charges) - bu yashirin proteksionizm usuli bo‘lib, ular import tovarning ichki narxini ko‘tarishga va bu orqali uning ichki bozordagi

raqobatbardoshligini pasaytirishgan yo‘naltirilgandir. Ular ham markaziy hukumat, ham mahalliy hokimiyat organlari tomonidan joriy qilinishi mumkin. Import tovarlardan olinadigan soliqlar juda xilma xil, bu soliqlar to‘g‘ri soliqlar (qo‘shimcha qiymat solig‘i, aksiz solig‘i, sotishdan olinadigan soliq) yoki egri soliqlar (bojxonada rasmiylashtirish uchun yig‘imlar, registratsiya uchun va boshqa rasmiyatchiliklar uchun yig‘imlar, port yig‘imlari) bo‘lishi mumkin.



3.5.-rasm.Mahalliy komponentlarning tovar tarkibida bo‘lishligiga talablar

Davlat xaridlari doirasida siyosat (state procurements) - bu yashirin proteksionizm usuli bo‘lib, unga ko‘ra davlat organlari va korxonalardan faqat milliy ishlab chiqaruvchilar tovarlarini (bu tovarlar import tovarlardan qimmat bo‘lsa ham) sotib olish talab qilinadi.

Mahalliy komponentlarning tovar tarkibida bo‘lishligiga talablar (local content requirement) - bu davlat siyosatining yashirin usuli bo‘lib, unga ko‘ra ichki bozorda sotiladigan pirovard tovarda milliy ishlab chiqaruvchilarning ulushi qonuniy ravishda belgilab qo‘yiladi.

Savdo siyosatining yashirin usullarining ko‘pchiligini miqdoran baholash juda qiyin, bu esa uni oqibatlarini iqtisodiy talqin qilish ham qiyinlashadi. Quyida mahalliy komponentlarning tovar tarkibida bo‘lishligiga talablar misolida yashirin usullarning iqtisodiy effektini ko‘rib chiqamiz (3.5.-rasm).

Faraz qilaylik, mamlakatda tovar taklifi S_d, tovarga talab esa D_d ni tashkil qiladi. Erkin savdo sharoitida R_1 narxda xorijdan tovar taklifi S_1 ni tashkil qiladi. Ushbu mamlakatda ishlab chiqarish tannarxi xorijga nisbatan yuqori bo‘lganligi sababli mahalliy tovarlar taklif qilinadigan narx ham yuqoridir. Agar mahalliy ishlab chiqaruvchilar va xorijdan taklif qilinayotgan tovarlar miqdorini har bir narx uchun qo‘shib chiqsak, ushbu mamlakat bozorida ana shu tovarning jami taklif to‘g‘ri chizig‘iga - S_2 ega bo‘lamiz. Ichki talab jami talab bilan A nuqtada muvozanatga keladi. Bu muvozanat nuqtada R_1 narxda Q_6 ta tovar sotiladi, bu tovarlarning Q_1 tasi ichki ishlab chiqaruvchilar, Q_5 tasi xorijliklar tomonidan sotiladi (1-a-rasm).

Hukumat mahalliy ishlab chiqaruvchilarni himoya qilishga oid qaror qabul qiladi va mahalliy komponentlarning tovar tarkibida bo‘lish talablarni joriy qiladi. Cheklovlarga ro‘para kelmaslik uchun xorijiy kompaniyalar o‘z ishlab chiqarishini ushbu mamlakat hududiga ko‘chirib o‘tkazadi, bu esa ularning xarajatlarini oshishiga olib keladi. Xarajatlar oshishi natijasida tovar qimmatlashadi xorijdan taklif chizig‘i S_1 dan S_3 ga ko‘chib o‘tadi. Buning natijasida jami taklif chizig‘i ham S_2 dan S_4 ga ko‘chib o‘tadi va V nuqtada muvozanatga keladi. Natijada tovar narxi R_2 gacha oshadi va sotish hajmi Q_4 gacha kamayadi. Sotilgan tovarlarni Q_2 tasi mahalliy ishlab chiqaruvchilar, Q_3 tasi esa mamlakatga ko‘chib o‘tgan xorijliklar tomonidan ishlab chiqariladi.

Mahalliy komponentlarni xorijga nisbatan qimmatroq sotib olish talabiga muvofiq ishlab chiqarish xarajatlari oshib ketdi va narx P_1 esa dan P_2 ga ko‘tarildi, iste’molchilarning zarari esa aQbQcQdQe ga teng bo‘ldi. Bu erda a segment chegaraviy effekt (mahalliy ishlab chiqaruvchilarga qayta taqsimlanadigan summa), b segment - himoyalash effekti (mahalliy ishlab chiqarishning xorijiy ishlab chiqarishga nisbatan nosamaraviyroqligi sababli yo‘qotishlar) d segment - iste’mol effekti (narx oshishi natijasida iste’mol miqdoridagi yo‘qotishlar). Ikki segmentning yig‘indisi sQe daromad effekti (xorijiy ishlab chiqaruvchilarning narx ko‘tarilishi natijasida olgan qo‘shimcha daromadii)ni ifodalaydi, bu erda s segment ushbu mamlakatda joylashgan xorijiy ishlab chiqaruvchilarga tegadi, e segment esa ishlab chiqarish xarajatlarining ortishini ifodalaydi. Mamlakatning jami iqtisodiy zarari bQeQd ni tashkil qiladi.

Savdo siyosatining moliyaviy usullari: Subsidiyalar

Litsenziyalashga qo‘shimcha ravishda, davlat milliy tovar ishlab chiqaruvchilarni bevosita va bilvosita subsidiyalar tizimi, ya’ni mamlakat byudjetidan ayrim korxonalarga va mahalliy hokimiyat organlariga dotatsiyalar berish orqali rag‘batlantirishi mumkin. Bundan maqsad arzon import tovarlari raqobatidan himoya qilish, eng asosiysi - milliy sanoat va qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini xorijga eksport qilishni rag‘batlantirishdan iborat. Bu vaziyatda bevosita subsidiyalar pul ko‘rinishidagi mablag‘ni, bilvosita subsidiyalar esa imtiyozli shartlarda kreditlash, soliqqa tortish, xavf-xatarni sug‘urtalash bo‘yicha davlat tomonidan kafolatlash,

davlat xazinasi hisobidan eksport qilinadigan tovarlarni tashqi bozorlarda reklama qilish kabilarni nazarda tutadi.

GATT (UST) qoidalariga muvofiq, a'zo-mamlakatlar o'rtasidagi savdoda bevosita eksport subsidiyalaridan foydalanish ta'qiqlangan. Yevropa Ittifoqi doirasida qishloq xo'jaligi mahsulotlarini ishlab chiqarishga bevosita eksport subsidiyalari berish bundan mustasno. Yuqorida ko'rsatilgan qoidalarning buzilishi import qilayotgan mamlakatga kompensatsiyalovchi import bojlari olish orqali javob choralar ko'rishga asos bo'ladi. Bu bojlar UST arbitrajida bahs hal etilgunga qadar saqlanadi.

Eksport subsidiyalari miqdori rivojlangan mamlakatlarning qayta ishlash sanoati eksporti qiymatining 1 foizidan oshmaydi, biroq ayrim tovar guruhlari uchun, ayniqsa, rivojlanayotgan va o'tish davri iqtisodiyotli mamlakatlarda bu me'yor juda katta miqdorga etishi mumkin.

Savdo siyosatining moliyaviy usullari: Eksport kreditlari

Eksport kreditlari tashqi savdo siyosatining moliyaviy usuli bo'lib, u milliy firmalar eksporti rivojlanishini davlat tomondan moliyaviy rag'batlantirishni nazarda tutadi.

Eksport kreditlari quyidagi ko'rinishda bo'lishi mumkin:

• Milliy eksportyorlarga subsidiyalashgan kreditlar - davlat banklari tomonidan bozor stavkasidan past stavkada kreditlar berilishi;

• Xorijiy importyorlarga davlat kreditlarini berilishi, ya'ni kredit bergan mamlakat tovarini sotib olish sharti bilan;

• Milliy eksportyorlarni eksport risklaridan sug'urtalash.

Eksport kreditlari: qisqa muddatli, o'rta muddatli va uzoq muddatli bo'lishi mumkin.

Eksport kreditlari bo'yicha eng yirik uyushmalardan biri Eksport krediti guruhi - Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti doirasida eksportni kreditlash bo'yicha hukumat va agentliklar vakillari guruhi hisoblandi. Bu guruh 2 yil va undan ortiq muddatli eksport kreditlarini tartibga soladi. Ikkinchi yirik tashkilot Bern ittifoqi, ya'ni kreditlar va investitsiyalarni sug'urtalash bo'yicha xalqaro ittifoqdir.

Eksport kreditlariga ba'zi hollarda boshqa davlatlarga tashqi yordam sifatida qaraladi.

Savdo siyosatining moliyaviy usullari: Demping

Tashqi savdoni notarif usullar bilan tartibga solish amaliyotini o'rganish shuni ko'rsatadiki, eksport subsidiyalari ko'pincha dempingga - xorijiy bozorlarda eksportyor mamlakat ichki bozoridagi o'rtacha narxga nisbatan past baholarda sotishga moddiy asos bo'ladi.

Mutaxassislar dempingning quyidagi variantlarini ajratib ko'rsatishadi:

❖ Tasodifiy - eksportyorda tasodifiy ortiqcha tovarlarni paydo bo'lishi bilan bog'liq;

- Vaqtinchalik - eksportyor tomonidan boshqa mamlakat bozoriga tezlik bilan kirib borish uchun qo‘llaniladi;
- Doimiy - monopolist kompaniya tomonidan, uning tashqi iqtisodiy faoliyati davlatning doimiy qo‘llab-quvvatlashi sharoitida, tashqi bozorlarda foydani maksimallashtirish uchun qo‘llaniladi, bunda ichki bozorda nisbatan yuqori narx saqlab turiladi.

Dempingdan, eng avvalo, davriy pasayishlar va ichki talab kamayganda, iqtisodiyotni tarkibiy qayta qurish davrida foydalaniladi. Masalan, 30-yillarda shunga o‘xshash hodisa Sharqiy Yevropa mamlakatlaridan import qilinuvchi qishloq xo‘jaligi mahsulotlari bozorida kuzatildi, 70-yillarda AQSH va Yevropa Ittifoqi tomonidan Yaponiyaga nisbatan dempingdan foydalanish ayblovi ilgari surildi.

Vaqtinchalik va ayniqsa, doimiy dempingga qarshi importyor-mamlakatlar GATT moddalariga asoslangan holda importga qarshi import bojlarini joriy etish huquqiga ega bo‘lganligi sababli keyingi paytda yashirin demping keng tarqalmoqda. Bu eksportyor va importyorlar o‘rtasida importyorlar tomonidan o‘z milliy bozorida tovarlarni eksportyor etkazib bergan narxdan past baholarda sotish haqida oshkor bo‘lmagan kelishuvni nazarda tutadi. Yashirin demping yirik TMKlar tomonidan firma ichida qo‘llaniladigan butlovchi qismlarni transferti amaliyotida keng tarqalgan (mas. yapon TMKlari ichida).

Tayanch iboralar: tashqi savdo hajmi, eksport, import hajmi, tashqi savdoda sanoat mahsulotlarining ulushi, JST bilan hamkorlik, rivojlangan mamlakatlar bilan savdo-iqtisodiy hamkorlik, tashqi iqtisodiy munosabatlarni erkinlashtirish.

Bobning qisqacha xulosasi:

O‘zbekiston Respublikasi o‘zining milliy mustaqilligini qo‘lga kiritishga qadar, mamlakatning tashqi iqtisoliy faoliyati sobiq SSSRning tegishli va vazirliklari ixtiyorida bo‘lgan edi. Mustaqillik tufayli O‘zbekiston 160 dan ortiq horijiy mamlakatlar bilan savdo–iqtisodiy aloqalarni yo‘lga qo‘ydi. O‘zbekiston 1994 yilning iyunida JST ning kuzatuvchi maqomini oldi. Respublikamiz MDH, EI, Shanxay xamkorlik tashkiloti guruhi kabi o‘nlab mintaqaviy davlatlar bilan savdo-iqtisodiy munasabatlarni kengaytirib, rivojlantirib bormoqda.Ushbu jarayonlarni borishida respublikada tashkil topgan tashqi iqtisodiy faoliyat milliy banki, bojxonalar xizmatini tashkil topishi va shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasida va uning idora-tashkilotlarida tegishli tashqi iqtisodiy faoliyat bo‘limlarining faoliyat ko‘rsatishi muhim ahamiyat kasb etmoqda. Jahonning bir qator mamlakatlarida (RF, AQSH, Buyuk Britaniya, GFR va boshqalar) O‘zbekistonning savdo- sanoat palatalari faoliyat ko‘rsatib turibdi.

Nazorat uchun savollar:

1. O‘zbekiston Respublikasi iqtisodiyotida tashqi savdoning tutgan o‘rni va ahamiyatini gapirib bering.
2. O‘zbekiston Respublikasi tashqi savdosining 2010-2019 yillardagi ko‘rsatkichlarini gapirib bering.
3. Tashqi savdo strukturasida qanday o‘zgarishlar ro‘y bermoqda?
4. Respublikamiz qaysi xalqaro tashkilotlar bilan tashqi iqtisodiy aloqalarini rivojlantirib bormoqda?
5. Tashqi savdoni erkinlashtirish deganda nimani tushunasiz?
6. O‘zbekiston Respublikasining JSTga a’zo bo‘lish istiqbollarini xarakterlab bering?
7. Keyingi yillarda tashqi savdo sohasida ro‘y berayotgan o‘zgarishlarni ko‘rsatib bering.
8. Respublikamizning eksportga yo‘naltirilgan iqtisodiy rivojlanish modelini tanlashi tashqi savdoni rivojlanishiga qanday ta’sir ko‘rsatishini tavsiflab bering?

4-mavzu. Halqaro ishchi kuchi migratsiyasi

Ko’rib chiqiladigan asosiy savollar:

1. Jahon xo’jaligida inson resurslari. Bandlik va ishsizlik.
2. Jahon ishchi kuchi bozorining mohiyati va paydo bo’lish sabablari. Mehnat migratsiyasining asosiy yo’nalishlari va markazlari.
3. Xalqaro ishchi kuchi migratsiyasining milliy iqtisodiyotga ta’siri

Mavzuga oid tayanch tushuncha va iboralar: Ishchi kuchi migratsiyasi, ishsizlar, ishga layoqatli shaxslar, ishchi kuchini eksport-import qiluvchi mamlakatlar, “aqlli kishilar”ning ketib qolish muammosi.

Mavzuda ko’rib chiqiladigan muammolar:

1.Xalqaro iqtisodiy munosabatlarning zamonaviy shakllaridan biri halqaro ishchi kuchi migratsiyasir. Shunga siz qanday fikr bildirasiz?

2. Halqaro ishchi kuchi migratsiyasining bir qator ijtimoiy-iqtisodiy sabablari mavjud. Siz qanday izohlaysiz?

3.Halqaro ishchi kuchi migratsiyasi malkatlar iqtisodiyotiga salbiy va ijobiy ta’sir ko’rsatadi. Shunga siz qanday fikr bildirasiz?

4.1. Jahon xo‘jaligida inson resurslari. Bandlik va ishsizlik

Jahon iqtisodiyotida demografiya - aholi sonining harakati va mehnat resurslari bilan shug‘ullanuvchi fan bo‘lib, u ijtimoiy, iqtisodiy, biologik va geografik omillar asosida aholi

tarkibi, dinamikasi, shuningdek, joylashuvi va ko‘chishining umumiy qonuniyatlarini o‘rganadi. Shular asosida turli mamlakat va mintaqalarda aholi sonining o‘zgarishlari, istiqbol davri uchun taxminlar ishlab chiqiladi. Demografik statistikada tug‘ilish koeffitsienti (har 1000 kishiga tug‘ilganlar soni), o‘lim koeffitsienti (har 1000 kishiga o‘lganlar soni), nikoh koeffitsienti, tabiiy o‘sish koeffitsienti, ya’ni tug‘ilish va o‘lim koeffitsienti o‘rtasidagi farqlar kabi ko‘rsatkichlardan keng foydalaniladi.

Tug‘ilish va o‘lim natijasida aholining uzluksiz yangilanish jarayoni davom etadi va u aholini takror ishlab chiqarish deb nomlanadi. Bu jarayon esa ikki tushuncha bilan, ya’ni aholining tabiiy qo‘shimcha o‘sishi va avlodlar almashuvi bilan bog‘liqdir. U yoki bu aholi dinamikasini o‘rganishning eng oddiy usuli - bu uning yillik qo‘shimcha o‘sishini aniqlashdan iborat. Yillik qo‘shimcha o‘sish koeffitsienti - bu mazkur yil davomida (ya’ni ikki ketma-ket 1 yanvar orasida) aholining o‘rtacha arifmetik qo‘shimcha o‘sishidir.

Yillik qo‘shimcha o‘sish koeffitsienti

Rk q Rk x Rm

Bu erda **Rk** - yil davomida qo‘shimcha o‘sish; **Rm** - aholining o‘rtacha yillik soni.

Avlodlar almashinuvi qanchalik ta’minlanganligini bilish uchun ayrim olingan avlodni tug‘ilgan vaqtidan boshlab to nasl yaratishgacha bo‘lgan davrini kuzatish zarur bo‘ladi. Agar ma’lum bir avlodning 1000 kishisi 1000ta farzandni dunyoga keltirgan bo‘lsa, demak avlod almashinuvi to‘la ta’minlangan bo‘ladi.

Aholi dinamikasini tahlili shuni ko‘rsatmoqdaki, ko‘pgina Yevropa mamlakatlarida va shuningdek Shimoliy Amerika davlatlarida XIX va XX asrlarda aholi o‘rtasida o‘lim darajasi kamayganligini ko‘rishimiz mumkin. Dunyoning boshqa mamlakatlarida esa o‘limning kamayishi asosan Ikkinchi jahon urushidan keyingi yillarda kolonial imperiyalarni tugatilishidan keyin boshlandi. O‘limning kamayishi quyidagi sabablarga asoslanadi:

- aholi turmush darajasining o‘sishi;
- meditsina xizmatining yaxshilanishi;
- yuqumli va boshqa kasalliklar oldini oluvchi chora-tadbirlarning o‘tkazilishi va h.k. lar;

Shunday qilib, aholi o‘rtasida o‘limning kamayishi aholining keskin o‘sish jarayonini keltirib chiqargan omillardan biri bo‘ldi. 2019 yilda er shari aholisi soni 7,7 mlrd kishini tashkil etgan bulsa, 2030 yillarga borib esa 10 mlrd. kishiga etishi kutilmoqda. Aholi o‘zgarishini o‘rganish dinamikasining tahlili asosida ko‘rsatilgan demografik koeffitsientlar natijasida quyidagi o‘ziga xos bosqichlar yoki populyatsion sikllarni ajratish mumkin:

1.Dastlabki populyatsion xarakterdagi siklga quyidagilar xos:

- yuqori darajada tug‘ilish;
- yuqori o‘lim va buning natijasida aholi o‘sishining sekin borishi;

Bunday xususiyatlar kam rivojlanib borayotgan mamlakatlarga, jumladan, Afrikaning bir qator tropik davlatlari (Gabon,Nigeriya) va ba'zi bir Janubiy-Sharqiy Osiyo (kamrok darajada) mamlakatlariga xosdir.

2. Ikkinchi populyasion xarakterdagi siklga quyidagilar xos:

- yuqori darajada tug'ilish;
- o'limning pasayishi va natijada aholining keskin o'sishi;

Bunday xususiyatlar Afrika va Yaqin Sharq mamlakatlariga, Sharqiy Osiyoning ko'pgina davlatlariga, nisbatan rivojlangan ba'zi bir Lotin Amerikasi davlatlariga (Paragvay va Argentina) xosdir.

3.Uchinchi o'ziga xos populyasion siklga quyidagilar xos:

- Tug'ilishning pasayishi;
- o'limning qisqarishi;

Bunday populyasion xarakterda tug'ilish o'limga nisbatan (uncha katta bo'lmagan holda) yuqoriroq bo'lishi saqlansada, aholining o'sish darajasi doimo pasayib borishi kuzatiladi.(Masalan, Zamonaviy AQSH).

4.To'rtinchi populyasion xarakterdagi siklga quyidagilar xos:

- Tug'ilishning pastligi;
- o'limning kamligi va natijada nisbatan barqarorlashuv yoki aholi o'sish dinamikasining minimal rivojlanishi. Bularga ko'plab Yevropa davlatlarini ko'rsatsa bo'ladi;

Shu bilan bir qatorda ba'zan demografiyada o'ziga xos ko'rinishga ega bo'lgan populyasion xarakterdagi sikllar ham namoyon bo'lmoqda. Ya'ni o'lim tug'ilishga nisbatan oshib borishi bilan aholining tabiiy xarakterda minus belgisiga ega bo'lgan koeffitsient paydo bo'ladi (depopulyatsiya, ya'ni mamlakatlarda aholining tabiiy qisqarishi yuz beradi). Bunday tendensiya hozirgi kunda Rossiyada aniq ko'rinmoqda.

Er shari aholisining o'sish darajasi borgan sari davom etib, XXI asrning oxirgi yillariga kelib taxminan 10,5 mlrd. kishiga yetishi va barqarorlashuvi kutilmoqda. Xullas, dunyo aholisining o'sish darajasi pasayib borayotgan bo'lsada, absolyut miqdorda uning o'rtacha yillik o'sishi 80 mln. kishidan ortiqroqni tashkil etmoqda (Buni biz asosan Osiyo, Afrika va Lotin Amerikasidagi ba'zi mamlakatlar misolida ko'rishimiz mumkin).

Ma'lumki, xalqaro statistikada "iqtisodiy faol aholi" va "iqtisodiy faol bo'lmagan aholi" kategoriyalari keng qo'llaniladi. Xalqaro mehnat tashkiloti tavsiyanomasiga binoan iqtisodiy faol aholiga tovarlar va xizmatlar ishlab chiqarishda qatnashuvchi barcha kishilar kiradi. Bular qatoriga yollanma mehnat kishilari - ishchilar va xizmatchilar, mustaqil ishchilar, oilaning haq to'lanmaydigan a'zolari, mavsumiy va tasodifiy ishchilar, ob'ektiv sabablarga ko'ra (kasallik, ta'til) vaqtincha ishlamayotgan kishilar, to'liqsiz ish vaqti rejimida ishlab o'qishni davom

ettirayotgan o‘quvchilar, stipendiya yoki ish haqi olib ishlab chiqarishda kasb o‘rganayotgan shogirdlar kiradi.

Hozirgi vaqtda bozor iqtisodiyoti mamlakatlarida iqtisodiy faol aholi - ishchi kuchi deb yuritiladi. Iqtisodiy faol aholining mehnat statusi miqdoriy jihatdan ma’lum muddat (1 yil) ichida ishlagan hafta yoki kunlari soni bilan aniqlanadi. Shunga ko‘ra iqtisodiy faol aholi - bandlar, ishsizlar va qisman bandlarga bo‘linadi.

Iqtisodiy faol bo‘lmagan aholiga yoshidan qat’iy nazar iqtisodiy faol aholi kategoriyasiga kirmaydigan kishilar taaluqlidir. Bunday aholi tarkibiga kunduzgi bo‘lim talabalari, uy bekalari, qarilik va nogironlik bo‘yicha nafaqaxo‘rlar, ijtimoiy tashkilotlar va xususiy shaxslardan moddiy yordam oluvchi kishilar va boshqalar kiradi. Iqtisodiy faol bo‘lmagan aholiga shuningdek bir qancha alohida funksional guruhlar kiradi. Xaq to‘lanmaydigan ijtimoiy ish bilan mashg‘ul kishilar, ixtiyoriy tekin xizmatlar ko‘rsatuvchi kishilar, sub’ektiv va ob’ektiv sabablarga ko‘ra ish qidirmayotgan mehnatga yaroqli yoshdagi kishilar ham kiradi.

Mehnatga yaroqli aholining ijtimoiy mahsulot yaratishdagi faoliyati bandlik deyiladi. Bundan tashqari ishlab chiqarishda band bo‘lmagan aholi tushunchasi ham mavjud bo‘lib, ularga ishsizlar va majburiy band bo‘lmagan kishilar kiradi.

XX asrning 70-yillarida sanoati rivojlangan mamlakatlarda iqtisodiy faol aholining asosiy qismi (30-45 %) sanoat va qurilishlarda band bo‘lgan edi. Ammo keyinchalik bu munosabat nisbatan o‘zgarib borishi bilan bog‘liq holda bu tarmoqlarda aholi sonining avval nisbiy, keyinchalik absolyut bandligi keskin kamayib borayotganligi ko‘zga tashlanmoqda. Shu bilan bir qatorda aholining iqtisodiy faolligini pasayishi qishloq xo‘jaligida ham kuzatilmoqda.

Xalqaro Mehnat tashkilotining ta’rifiga ko‘ra ishsizlar deb - oxirgi 4 hafta ichida ish qidirayotgan va ishga ega bo‘lmagan yoki ishga joylashib xali ishga kirishmagan kishilarga aytila33di. Bu kategoriya turli mamlakatlarda turlicha talqin etiladi. Turli mamlakatlarda ishsizlar sonini aniqlashda ikki xil yondashuv mavjud. Birinchisi - 1 haftalik tekshirishda ishsizlar statusiga javob beruvchi kishilar sonini aniqlaydi, bu usul AQSH, Yaponiyada ishlatiladi. Buyuk Britaniyada bu usul qimmat hisoblanib, ishsizlar soni davlat bandlik xizmatlariga ishsizlik nafaqasini olishga topshirilgan talabnomalar asosida hisoblanadi.

Ishsizlarning asosiy qismini ish stajiga ega ishdan bo‘shatilgan kishilar tashkil qiladi. Bu kategoriyaga iqtisodiyotda va ishlab chiqarishda tarkibiy o‘zgarishlar natijasida korxonalarning bekilishi, yangi mahsulot ishlab chiqarishga o‘tishi, ishlab chiqarishning modernizatsiyalashuvi natijasida ishini yo‘qotgan ishchilar kiradi. Bola tarbiyasi bilan mashg‘ul ayollar, o‘qishni tugatib ish qidirayotgan yoshlar ishsizlar safiga kiritilmaydi.

4.2. Jahon ishchi kuchi bozorining mohiyati va paydo bo‘lish sabablari

Jahon aholisi yoshiga bog‘lik ravishda ikki tipdagi odamlarni o‘z ichiga oladi: mehnatga layoqatli - 15-60 yoshlilar, mehnatga layoqatsiz - bolalar va qariyalar. Aholi umumiy hajmining taxminan 70 foizi birinchi tipga tegishli, biroq bu ulush turli hududlarda o‘zgarib turadi. Masalan, Osiyo va Afrikada voyaga etmaganlar, Yevropa va Shimoliy Amerikada qariyalar ulushi yuqorirok.

O‘z navbatida mehnatga layoqatli aholi xam ikkiga ajratiladi: iqtisodiy faol va faol bo‘lmaganlar. Uy bekalari, talabalar (ta’til paytida), davlat qaramog‘idagi fuqarolar, shuningdek, fuqaroligi bo‘lmaganlar iqtisodiy faol bo‘lmaganlar qatoriga kiradi. Bizni iqtisodiy faol aholi, ya’ni mehnatga layoqatli va unga intiluvchi odamlar qiziqtiradi. Fuqarolarning aynan shu toifasi mamlakat ichkarisida va xorijdan ish qidirish jarayonida faol ishtirok etadi.

Xalqaro ishchi kuchi migratsiyasi uzoq tarixga ega bo‘lsada, faqatgina XX asrga kelib ishlab chiqarish omillari harakatining etakchi ko‘rinishlaridan biriga, binobarin XIMning alohida sohasiga aylandi.

Buni quyidagi sabablar bilan bog‘lash mumkin:

- xo‘jalik hayotining baynalmilallashuvi;
- ijtimoiy-demografik o‘zgarishlar;
- fan-texnika va axborot sohasidagi inqilob;
- integratsiya jarayonlarining rivojlanishi;
- kapitalning halqaro xarakati va transmilliy korporatsiyalar faoliyati;
- mamlakatlar iqtisodiy rivojlanish darajasining turlichaligi;
- ish haqi miqdori o‘rtasida milliy farqlarning mavjudligi;
- ishsizlikning mavjudligi;

Bu barcha omillar mehnatga layoqatli aholining harakatchanligini kuchayishiga sababchi bo‘ldi, zero insonlar mamlakatlar va qit’alararo ko‘chish uchun rivojlangan kommunikatsiya infratuzilmasidan foydalanishadi. Hozirgi kunga kelib jahon ishchi kuchi bozori (JIKB) vujudga keldiki, bu bozor asosini milliy xo‘jalik tizimlari va jahon iqtisodiyoti doirasida ishlab chiqaruvchi kuchlarning darajasi, tabiati va joylashuviga sezilarli ta’sir etuvchi iqtisodiy faol aholining mamlakatlar va hududlar o‘rtasida jami migratsiya aylanmasi tashkil etadi. XX asrning oxiriga kelib mehnatkash-migrantlarning bir yildagi o‘rtacha miqdori 35 mln. kishiga etdi (1960-yilda 3,5 mln.). JIKB faqatgina migrantlarni emas, balki turli darajadagi migratsiya xizmatlarini, shuningdek, xorijiy mehnatkashlar xuquqiy statusi, ularning mehnatini himoyalash, ularga

ijtimoiy kafolatlar berish va boshqa masalalar bilan shug‘ullanuvchi xalqaro tashkilotlarni xam o‘z ichiga oladi.

Mazkur mavzuda aholining ko‘chishi jarayonlari ichida ijtimoiy-iqtisodiy maqsadlar keltirib chiqargan mehnat migratsiyasi to‘g‘risida so‘z boradi. Fuqarolarni o‘z vatanidan tashqarida ish qidirishga majbur etuvchi omillar ichida eng asosiysi turmush darajasini yaxshilash va o‘z qobiliyatlaridan unumli foydalanishga intilishlari hisoblanadi. Ayni paytda ishsizlik, qishloq xo‘jaligida aholining ko‘payib ketishi kabi salbiy ijtimoiy-iqtisodiy hodisalar ham yashash joyini vaqtincha yoki doimiy o‘zgartirishga sababchi bo‘ladi.

Hozirgi paytda davlatlar mehnat migratsiyasini tartibga solish borasida o‘z harakatlarini kuchaytirib borishmoqda. Migrantlarni jo‘natuvchi (eksportyor-mamlakatlar) va qabul qiluvchi (importyor-mamlakatlar) tomonlarning o‘zaro manfaatlarini huquqiy ifodasi odatda ikki va ko‘p tomonlama kelishuvlar ko‘rinishida amalga oshiriladi. Bu sohada xalqaro konvensiyalarni tayyorlashda aholi bo‘yicha BMT Komissiyasi, Xalqaro mehnat tashkiloti, Migratsiya bo‘yicha xalqaro tashkilot kabi global tashkilotlar sezilarli ko‘mak berib kelmoqda. Ishchi-migrantlar huquqlarini himoya qilish bilan shug‘ullanuvchi hududiy tuzilmalarga misol sifatida G‘arbiy Yevropadagi Migratsiya masalalari bo‘yicha hukumatlararo qo‘mitani keltirish mumkin. JIKB doirasidagi munosabatlarni tartibga solishning asosiy xalqaro me’yoriy xujjatlari Xalqaro mehnat tashkilotining 1962, 1975, 1982 yillardagi Konvensiyalari hisoblanadi. Bu hujjatlarning moddalari migrantlarni yollash, ularning huquqlarini kafolatlash, migratsiyaning yashirish kanallari bilan ko‘rashish kabi masalalarni tartibga soladi.

4.3. Mehnat migratsiyasining asosiy yo‘nalishlari va markazlari

Mehnat migratsiyasi deyarli barcha milliy iqtisodiyotlarga xos jarayondir. Biroq uning jadallik darajasi jahonning u yoki bu hududlarida sezilarli farq qiladi. Mehnatkash-migrantlarning eng jadal oqimi ishchi kuchini eksportG’import qiluvchi mamlakatlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi darajasida va tabiiy demografik o‘sish sur’atida jiddiy farq bo‘lganda kuzatiladi. Migratsiyaning asosiy to‘rtta yo‘nalishlari ichida jami migratsiya oqimining hajmi bo‘yicha rivojlanayotgan mamlakatlardan rivojlangan mamlakatlar tomon ishchi kuchlarini ko‘chishi birinchi o‘rinda turadi. Mutaxassislar quyidagi migratsiya oqimlarini alohida ko‘rsatib o‘tishadi: G‘arbiy Yevropa va Shimoliy Amerika mamlakatlari o‘rtasida, sobiq sotsialistik mamlakatlardan bozor iqtisodiyotli mamlakatlarga, rivojlanayotgan yoki o‘tish davri iqtisodiyotli davlatlar o‘rtasida (mas. Janubiy Amerika chegarasida, Ukrainadan Rossiyaga).

Ishchi kuchi migratsiyasining yana bir yo‘nalishi, ya’ni rivojlangan mamlakatlardan rivojlanayotgan yoki o‘tish davri iqtisodiyotli davlatlarga migratsiya uchrasa-da, bu yo‘nalishni

tanlovchi migrantlar soni unchalik ko‘pchilikni tashkil etmaydi va ular TMKlarning shahobchalari va shu’ba korxonalarida band bo‘lgan kadrlar, turli hayriya tashkilotlari va fondlari a’zolari, shuningdek, sarguzasht izlovchilar xamda tavakkalchilardan iborat. Ishchi kuchini o‘ziga tortuvchi markazlar ichida eng yirik va uch yuz yildan beri mavjud bo‘lgan markaz Shimoliy Amerika (AQSH va Kanada) hisoblanadi. Amerikalik statistlarning ma’lumotlariga ko‘ra 90-yillar davomida AQSHga belgilangan kvota 675 ming kishi bo‘lishiga qaramay yiliga 1 mln.dan ortiq migrantlar kirib kelgan.

Migrantlarni o‘ziga tortuvchi boshqa bir «ohangrabo» Yevropa Ittifoqi mamlakatlaridir. Ularga xorijiy ishchi kuchi jami aylanmasining to‘rtdan bir qismidan ko‘progi to‘g‘ri keladi. Bu hududda Fransiya (mamlakat aholisining 8 foizi xorijliklar), Germaniya (7,5 foiz) etakchilik qilmoqda. Bulardan tashqari Buyuk Britaniya, Belgiya, Niderlandiya, Shvetsiya, Avstriya ham ishchi kuchi qabul qilishda oldingi o‘rinlarda turadi. Mehnat migratsiyasining uchinchi yirik markaz - Avstraliyadir. Avstraliya hukumati mamlakat hududining katta qismida aholi zichligi darajasi pastligi va uning tarkibida xitoy etnosining ulushi ko‘payib borayotganidan xavotirda. Shuning uchun xam Kanberra tomonidan Avstraliya mamlakatiga - qit’aga oq irqqa mansub aholini, asosan fertil (turmush qurish va farzand qurishga qodir) yoshdagi ayollarni ko‘chib o‘tishini rag‘batlantirish borasida chora-tadbirlar majmuasini e’lon qilgan.

Muhim migratsiya markazlardan biri sifatida Isroilni esga olishimiz ham maqsadga muvofiq. Isroil barcha yaxudiylarni o‘zlarining tarixiy vatanlariga qaytarishga harakat qilmoqda. Yaxudiylarning «Jannatmakon er»ga migratsiyasi umuman olganda siyosiy sabablar tufayli bo‘lsada, uning iqtisodiy jihatlari ham mavjud, turmush darajasi past bo‘lgan mamlakatlardan Isroilga kelayotgan migrantlar oqimining jadalligi ham bundan dalolat berib turibdi.

Keyingi yigirma yil ichida migrantlarni o‘ziga jalb etuvchi yangi markazlar vujudga keldi. Ularning ichida Fors ko‘rfazi mamlakatlari (Saudiya Arabistoni, Qatar, Quvayt, Baxrayn, Birlashgan Arab Amirligi) va Lotin Amerikasi (Argentina, Braziliya, Meksika) xamda Osiyoning (Indoneziya, Malayziya, Singapur, Tayvan) yangi industrial mamlakatlarini ajratib ko‘rsatish mumkin. Afrika qit’asida esa bunday markaz JAR hisoblanadi.

MDH doirasida Rossiya yirik markaz bo‘lsada, u ham eksportyor, ham importyor mamlakat sanaladi. Rossiyadan MDHdan tashqari ishchi kuchi eksport qilinsa (yiliga 10 ming kishi), MDH mamlakatlaridan - asosan Ukraina, Belorusiya, Moldaviya, Qozog‘istondan (yiliga 300-500 ming kishi) import qilinadi.

Umumiy holatda mamlakatlar guruhi kesimida ishchi kuchi migratsiyasi geografiyasi asosiy yo‘nalishlari quydagilardir:

1.Rivojlanayotgan mamlakatlardan sanoati rivojlangan mamlakatlarga;

2.Sanoati rivojlangan mamlakatlardan rivojlanayotgan mamlakatlarga;

3.Rivojlanayotgan mamlakatlar o‘rtasida;

4.Sanoati rivojlangan mamlakatlar o‘rtasida;

5.Iqtisodiyoti o‘tish davriga xos bo‘lgan mamlakatlardan sanoati rivojlangan mamlakatlarga;

6.Iqtisodiyoti o‘tish davriga xos bo‘lgan mamlakatlardan yangi industrial mamlakatlarga;

Xalqaro migratsiya aylanmasi tarkibini tushunib etish uchun mehnat migratsiyasining ko‘rinishlarini belgilab chiqish zarur, ularni turli mezonlarga ko‘ra sinflash mumkin. Migratsiyaning asosiy ko‘rinishlari quyidagilar:

- davomiyligiga ko‘ra - vaqtinchalik, mavsumiy va doimiy;
- ijtimoiy tarkibiga ko‘ra - malakasiz ishchilar, o‘rta texnik va servis xodimlari, talabalar (ta’til paytida), mutaxassislar, fan, madaniyat va sport arboblari, tadbirkorlar;
- tabiatiga ko‘ra - bevosita va bilvosita (TMK doirasida firma ichida);
- mehnat shartnomasi ko‘rinishiga ko‘ra - shaxsiy va jamoaviy;
- qabul qiluvchi mamlakatda huquqiy holatga ko‘ra - assimilyasion (keyinchalik fuqarolik berilishi) va noassimilyasion;
- Hududiy qamroviga ko‘ra – qit’alararo va qit’alar ichida;
- Huquqiy asosiga ko‘ra rasmiy va norasmiy;

Xalqaro statistika ma’lumotlariga ko‘ra, migrantlarning asosiy qismini ishlab chiqarish va qishloq xo‘jaligida band bo‘lgan kam malakali ishchilar tashkil etadi. Shunday bo‘lsa-da, mutaxassislarning, ya’ni TMKlar tuzilmasida e’tiborli va yuqori xaq to‘lanadigan mansablarni egallagan yuqori malakali ishchi kuchining migratsion oqimi o‘sib bormoqda (gap «aqllilarning ketib kolishi» to‘g‘risida bormoqda). Bundan tashqari yildan yilga Yevropa Ittifoqi kabi integratsion birlashmalarda ayollar va yoshlarning safarbarligi kuchaymoqda.

XIMda migratsiya oqimlarini kuchayib borishi tufayli ularning qabul qilib oluvchi va jo‘natuvchi davlatlar iqtisodiyotiga ta’siri yanada sezilarli bo‘lib bormoqda. Shuning uchun jahon ishchi kuchi bozorini ana shu nuqtai nazardan ko‘rib chiqish joiz.

4.4. Xalqaro ishchi kuchi migratsiyasining milliy iqtisodiyotga ta’siri

Ishchi kuchi ko‘chib yurishining iqtisodiy sababi mehnatga to‘lanadigan xaqning turli davlatlarda turlichaligidir. Xalqaro ishchi kuchi harakatining asosiy bosh sababi, demak, turli davlatlarda o‘rtacha real ish haqi darajasining har xilligida.

"A" davlat **"V" davlat**



4.1.-rasm. Mehnat migratsiyasining iqtisodiy samaradorligi.

Tasavvur qilamizki dunyoda "A" va "V" davlatlari mavjud. "A" davlat LA miqdorda mehnat resurslari bilan, "V" davlat esa AL* miqdorida resurslar bilan ta’minlangan. Ikkala davlatning umumiy mehnat resurslari LL* ga tengdir.

S1 va S2 to‘g‘ri chiziqlari bu ishchi kuchi evaziga yaratilgan mahsulot hajmi. Agarda, xalqaro mehnat migratsiyasi namoyon bo‘lmasa, "A" davlat ichki mehnat resurslari zahirasidan foydalanib ularga o‘rtacha real ish xaqi LC to‘laydi. "V" davlat ham o‘z mehnat resurslari zahirasidan foydalanib L*D miqdorida o‘rtacha real ish haqi to‘laydi. "A" davlat bor ichki mehnat resurslaridan foydalangan holda aQbQcQdQe miqdorda mahsulot ishlab chiqaradi. "V" davlatning ishlab chiqaradigan mahsuloti hajmi iQjQk ga teng bo‘ladi. "V" davlat "A" davlatga qaraganda ishchi kuchiga bir muncha ko‘p xaq to‘lamoqda. LC<L*D, ya’ni "A" davlatdagi ish kuchi bahosi "V" davlatnikiga qaraganda past.

Davlatlarning real o‘rtacha ish haqlari turlicha bo‘lganligi munosabati bilan "A" davlatning bir qism AV ishchilari "V" davlatga o‘tishadi. Natijada, ikkala davlatning ish haqi darajalari BR muvozanat holatga erishadi. "A" davlatda qolgan mehnat resurslari va "V" davlatga ishlash uchun ketgan ishchi kuchi evaziga yaratilgan yalpi mahsulot hajmi aQbQcQdQeQh ga ko‘paygan. Bu erda aQbQcQd "A" davlatdan ketmagan ishchi kuchiga tegishli yaratilgan mahsulot bo‘lsa, eQh "V" davlatga emigratsiya qilingan ishchi kuchi tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulot hajmini tashkil etadi. Rasmga e’tiborni qaratadigan bo‘lsak, "A" davlat, mehnat unumdorligini oshirgani xolda va ko‘chib o‘tgan ishchilar

tomonidan yaratilgan yalpi mahsulot x segmentiga ortgan. Bu esa ishlovchilar daromadini oshishiga olib kelmoqda. "V" davlatdagi o‘zgarishni qaraydigan bo‘lsak, "A" davlatdan kelgan migrantlar hisobiga, "V" davlatning o‘rtacha real ish xaqi L*D dan L*FqBR gacha pasayganligi kuzatiladi. Ammo o‘z navbatida "V" davlatda yaratilgan ichki mahsulot hajmi iQjQh dan iQjQhQgQe ga ko‘paygan. Bunda hQe segmentlar, xorijiy ishchi kuchidan yaratilgan mahsulot hajmiga to‘g‘ri keladi va bir qismi daromaddan ushlab qolinadigan soliqni ayirib tashlagan xolda xorijiy ishchi kuchiga maosh tarzida to‘lanadi. Sof ichki ishlab chiqarish hajmi esa 8 ~ segmentni tashkil etadi. Real o‘rtacha ish xaqi darajasi pasayganligi munosabati bilan "V" davlatdagi ishlovchilar daromadlari jQk danga qisqaradi. Boshqa ishlab chiqarish omillari egalarining daromadi i-dan iQgQj ga ko‘tariladi. Bir davlatdan ikkinchi davlatga ishchilarni migratsiya qilish natijasida yaratilgan yalpi umumiy ishlab chiqarish hajmi [aQbQcQdQe] Q [kQjQI] dan [aQbQcQd] Q [eQgQhQiQjQk] ga ko‘paygan. Bu erda h, "A" davlatning bir kism mehnat resurslarining "V" davlatga emigratsiya qilish tufayli va qolgan ishchi kuchidan samarali foydalangan holda oshirilgan ishlab chiqarish hajmini anglatadi. g- segment esa "V" davlatning, xorijiy ishchi kuchidan foydalanilgan holda ishlab chiqarilgan mahsulot hajmidir. Shunday qilib, ishchi kuchining xalqaro migratsiyasi tufayli ikkala davlat ham o‘zaro manfaatli natijalarga erishishga muyassar bo‘lishdi.

O‘zbekiston xam xalqaro savdo va moliya-kredit munosabatlarini rivojlantirish bilan bir qatorda ishchi kuchining xalqaro migratsiyasida o‘zining ishtirokini kengaytirmog‘i lozim.

4.5. Ishchi kuchi migratsiyasining eksportyor-importyor mamlakatlarga iqtisodiy ta’siri

Xalqaro huquqiy hujjatlarda ishsizlikni kamaytirish, emigrant-ishchilardan valyuta mablag‘larini kirib kelishi, qabul qiluvchi mamlakatda ularga yetarli darajadagi turmush sharoitini ta’minlashga ko‘mak berish uchun emigratsion siyosat olib borilishi qayd etiladi. Migrantlarning asosiy qismini 30-40 yoshdagilar tashkil etadi, ularning xorijga chiqishi ichki mehnat bozoridagi raqobatni yumshatish imkoniyatini beradi. Binobarin, milliy iqtisodiyotning beqarorligi sharoitida ijtimoiy keskinlik yumshatiladi.

Emigrantlarning o‘tkazmalaridan kelib tushadigan valyuta mablag‘lari jahondagi asosiy ishchi kuchi eksportyorlari (Osiyo, Afrika va Lotin Amerikasining bir qator mamlakatlari, shuningdek, ba’zi sobiq sotsialistik davlatlar) uchun milliardlab dollar bilan o‘lchanadi. Bunday mamlakatlar o‘nta atrofida. O‘ttizdan ko‘proq mamlakatlar yiliga 100 va undan ko‘proq million dollar miqdorida emigrantlarning pul o‘tkazmalarini oladi. Bunda kanal orqali valyuta daromadlari olishda ishlab chiqarish xarajatlari bilan kuzatilmaydi, zero bunday xarajatlar tovar

savdosiga xosdir. Natijada ishchi kuchi eksportidan iqtisodiy samara tovarlar yoki xizmatlar savdosidagidan taxminan besh marta yuqori bo‘ladi. Mutaxassislar migrantlarning chet elga chiqishidan keladigan valyuta daromadlarining beshta manbasini ko‘rsatib o‘tishadi: vositachi-firmalar foydasidan soliqlar, migrantlarning o‘z yurtiga pul o‘tkazmalaridan soliqlar, migrantlarning shaxsiy investitsiyalashlari, ishchi kuchini import qiluvchi mamlakatlardan eksportyor mamlakatlarga davlarlararo kanallar orqali kelib tushadigan kapitallar, xayriya fondlari va xalqaro tashkilotlarning subsidiyalari.

Bundan tashqari migrantlar chet elda ishlab kaytgandan so‘ng, odatda ikki-yetti yil davomida valyuta o‘tkazmalariga ekvivalent miqdorda qimmatli buyumlar va jamg‘armalar olib kelishadi. Ishchi kuchi eksportining o‘ziga xos ijobiy tomonlariga uzoq vaqt davom etgan xorijiy faoliyatdan so‘ng bu ishchilarning umumiy kasb mahorati darajasi ortadi va ular o‘z vatanlarida iqtisodiy hayotning yangi sohalarida ishlashga tayyor bo‘lishini kiritish mumkin.

Ishchi kuchining chet elga yuborilishining salbiy jihatlari ichida eng asosiysi mehnatga layoqatli va yuqori malakali mutaxassislarning yo‘qotilishi hisoblanadi.

Ishchi kuchini import qiluvchi mamlakatlar odatda, migrantlar soni va sifatiy tarkibini tartibga solib boruvchi iqtisodiy jihatdan rivojlangan davlatlardir. Tartibga solish dastaklari sifatida immigratsion kvotalar va turli cheklashlardan (migrantning yoshi, ma’lumotlilik saviyasi, kasb maxorati darajasi, sog‘ligi kabilar) foydalaniladi. Shuning uchun xam xorijdan ishchi kuchini jalb etishga tanlov tamoyilidan foydalanish to‘g‘risida gapirish mumkin.

Ichki mehnat bozorida qo‘shimcha ishchi kuchini paydo bo‘lishining shubhasiz ijobiy jihatlariga quyidagilarni kiritish mumkin:

• immigrantlar tomonidan ishlab chiqariladigan tovarlarning xarajatlarni kamayishi (xorijliklar importyor-mamlakat fuqarolariga nisbatan faolroq va kamroq ish haqiga ishlashga tayyor bo‘lishadi) hisobiga raqobatbardoshligi oshadi;

• migrant-ishchilar tomonidan tovar va xizmatlarga ichki talabni rag‘batlantirilishi;

• malakali mutaxasssislar tayyorlash, ijtimoiy dasturlar, shuningdek, boshqa davlatlardan patentlar, litsenziyalar va nou-xaular sotib olishga zarur mablag‘larni tejalishi;

• ishchi kuchi taklifi sohasida raqobatni kuchaytirish orqali ichki mehnat bozoriga qo‘shimcha egiluvchanlikni berish;

Biroq ishchi kuchini eksport qilishdagi singari uning importida ham salbiy jihatlar mavjud. Xususan, rezidentlar va migrantlar o‘rtasidagi ish joyi uchun qo‘shimcha raqobat ishsizlikni kuchayishiga olib keladi. Immigrantlar oqimini kengayishi bilan bog‘liq ravishda mamlakatdan valyuta mablag‘larini xorijga chiqib ketishi ortib boradi. Bundan tashqari xorijiy ishchi kuchi,

ayniqsa, afrikalik va osiyoliklar G‘arbiy Yevropa va Shimoliy Amerikada milliy, irqiy va diniy negizdagi to‘qnashuvlarni keltirib chiqaradi, iqtisodiyot kriminallashadi.

Xalqaro ishchi kuchi migratsiyasining donor va qabul qilib oluvchi mamlakatlar iqtisodiyotiga ta’siri quydagi jadvalda ko‘rib chiqamiz:

4.1.-jadval. Halqaro ishchi kuchi migratsiyasining ijtimoiy-iqtisodiy oqibatlari[10]

	Ijobiy	**Salbiy**
Ishchi kuchini eksport qiluvchi mamlakat	Ishchilar tomonidan yangi malakaviy ko‘nikmalarning egallanishi	Malakali ishchi kuchini yo‘qotish
	Mamlakat to‘lov balansi kamomadining qisqarishi	Tovarlar va ishchi kuchi bo‘yicha halqaro talabga bog‘liqliqning kuchayishi
	Ichki mehnat bozoridagi talab va taklifning muvozanatga kelishi	Ist’emol uchun mo‘ljallangan ishlab chiqarish resurslarni o‘zlashtirish uchun sarflanayotgan kapilning boshqa sohalarga yo‘naltirilishi
	Ishlab chiqarishni tarkiban va texnologik jihatdan qayta qurish	Inflyasiya darajasining o‘sishi
Ishchi kuchini import qiluvchi mamlakat	Hududiy tarkibiy siljishlarning jadallashuvi	Mehnatni tejovchi texnologiyalarni ishlab chiqarishga joriy etishning sekinlashuvi
	Mahalliy ishchi-xodimlarning vertikal xarakatchanligiga ko‘maklashish	Ichki mehnat bozoridagi holatning murakkablashishi
	Ishchi kuchi sonining qisqarishi bilan bog‘liq holda umumiy ishchi kuchi qiymatining pasayishi	Xorijiy ishsizlar va ularning oilalariga sarflanayotgan xarajatlarning oshishi
	Xorijiy ishchilarning jamg‘arishga bo‘lgan moyilligi tufayli narxlar o‘sishining to‘xtalishi	
	Yosh, malakali ishchilarni tanlab olish orqali ishchi kuchi sifatining oshirilishi	

[10] Vaxabov A.V., Tadjibayeva D.A., Xajibakiev Sh.X. Jahon iqtisodiyoti va xalqaro iqtisodiy munosabatlar. – Toshkent.: Baktria press, 2015. -584 b.

Shunday qilib migratsiya jarayonlarining jahon mamlakatlari iqtisodiyotiga ta'siri yetarli darajada ziddiyatlidir, uning salbiy va ijobiy tomonlarini nisbiy baholash mazkur mamlakatdagi ijtimoiy-iqtisodiy vaziyat va uning XIM tizimidagi holatiga bevosita bog'liq bo'ladi.

4.6. «Aqlli kishilarning ketib qolish» muammosining mohiyati

Ishchi kuchi eksporti milliy iqtisodiyotda ijobiy oqibatlar bilan bir qatorda salbiy oqibatlar xam qoldiradi. Bu eng avvalo «aqlli kishilarning ketib kolishi» deb ataluvchi yuqori malakali mutaxassislarning xorijga ketib qolishi bilan bog'liqdir. Bu jarayonning mohiyati shundaki, mutaxassislar turmush darajasi past davlatlardan yuqori ish xaqi, yaxshi mehnat sharoitlari, ijodiy imkoniyatlarni amalga oshirishga etarli shart-sharoit va nihoyat ijtimoiy kafolatlar yaratib bera oladigan mamlakatlarga ketib qoladi.

Ishchi kuchini jo'natuvchi davlat uchun salbiy bo'lgan jihatlar qabul qilib oluvchi mamlakatlar uchun ijobiy hisoblanadi. Chunki kirib keluvchi ishchilarning aksariyat qismini yuqori darajada ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy faol bo'lgan yoshlar tashkil etadi. Bunga misol sifatida Polshadan 1983-1987 yillarda yosh kadrlarni chiqib ketishi bilan bog'liq vaziyatni keltirish mumkin: bu mamlakatni tark etganlarning 15 foizini (50 ming kishi atrofida) oliy ma'lumotlilar tashkil etgan, bu Polsha oliy o'quv yurtlarining bir yillik bitiruvchilariga to'g'ri keladi. "Intellektual migratsiya" jami ishchi kuchi migratsiyasi miqdorining 3-5 foiziga teng bo'lsa-da, hozirgi paytda bu ulushning yildan-yilga ortib borishi kuzatilmoqda, binobarin jo'natuvchi mamlakat uchun iqtisodiy zarar miqdori xam oshib boryapti. Bu zarar ba'zi bir mamlakatlarning milliy daromadining 10 foizigacha teng bo'lmoqda. Mutaxassislarni chetga chiqib ketishi jahon bozoridagi raqiblarning mavqeini kuchaytiradi, chunki bu mutaxassislarning ko'pchiligi yirik transmilliy korporatsiyalarga ishga joylashadi.

«Yuqori sifatli» ishchi kuchini o'ziga jalb qiluvchi asosiy markazlar eng boy mamlakatlar: AQSH, Kanada, Germaniya, Fransiya, Buyuk Britaniya, Shvetsiya, kamroq darajada Yaponiya, Singapur, Tayvan sanaladi. Aqlli kishilarni chiqib ketishining asosiy kanallari birinchidan, xorijiy talabalar va aspirantlarni chet eldagi universitetlari tomonidan jalb etilishi, ikkinchidan, tajribali mutaxassislarni xalqaro kompaniyalarda ishga taklif etilishi hisoblanadi.

Tayanch iboralar: Ishchi kuchi migratsiyasi, ishsizlar, ishga layoqatli shaxslar, ishchi kuchini eksport-import qiluvchi mamlakatlar, "aqlli kishilar"ning ketib qolish muammosi.

Bobning qisqacha xulosasi:

Jahon ishchi kuchi bozori (JIKB) o'zining hozirgi ko'rinishiga so'nggi ellik yil davomida shakllandi. JIKB tarkibiga xam migrantlar - mehnat qobiliyatli yoshdagi iqtisodiy faol odamlar,

xam xorijda ish qidirishga intilayotgan odamlarga ko‘maklashuvchi migratsiya xizmatlari va xalqaro tashkilotlar kiradi. Mehnat migratsiyasining asosiy yo‘nalishi ishchi kuchining rivojlanayotgan mamlakatlardan rivojlangan mamlakatlarga chiqishi sanaladi, xorijiy ishchilarni o‘ziga tortuvchi asosiy xalqaro markazlar Shimoliy Amerika, G‘arbiy Yevropa, Avstraliya va Isroil hisoblanadi. Bular bilan mehnatkash-migrantlarni o‘ziga tortuvchi yangi hududiy «qutblar»: ba’zi arab davlatlari raqobat qila boshladi.

Mehnat migratsiyasining milliy iqtisodiyotlarga ta’siri darajasi turlicha bo‘lib, ko‘p jihatdan hukumat tomonidan olib boriladigan siyosatga bog‘liq. Ishchi kuchini eksport qiluvchi mamlakatlar asosiy foydani xorijdan valyuta transferti oqimlarini kengayishidan oladi, ammo bunda ko‘pchilik xollarda yuqori malakali kadrlarini yo‘qotadi. Importyor mamlakatlar esa mehnat immigratsiyasining miqdoriy va sifat darajasini kvotalar va cheklashlar joriy qilish orqali tartibga solishga harakat qiladi, hozirgi paytda malakali kadrlarni va ilmiy-texnika sohasidagi ekspertlarning kirib kelishi maqsadga muvofiqdir.

Aqlli kishilarni ketib kolishi muammosi XIMda keyingi yigirma-o‘ttiz yillar ichida eng dolzarb muammoga aylandi. Muammoning mohiyati shundaki, ishga joylashish maqsadida xorijga chiqib ketgan malakali kadrlarni yo‘qotish eksport qiluvchi mamlakat uchun ma’lum miqdorda iqtisodiy zarar etkazadi.

Nazorat uchun savollar:

1. Jahon ishchi kuchi bozorining vujudga kelish sabablarini ayting
2. JIKBning mohiyatini ochib bering
3. Mehnat migratsiyasining asosiy yo‘nalishlari va markazlarini ayting
4. Mehnat migratsiyasining qanday ko‘rinishlarini bilasiz
5. O‘zbekistonning xalqaro migratsiya aylanmasidagi holatini tushuntiring
6. Ishchi kuchi eksportini jo‘natuvchi mamlakatlarning ijobiy va salbiy jihatlarini tushuntirib bering
7. Ishchi kuchi importidan olinadigan iqtisodiy samara qanday aniqlanadi
8. «Aqlli kishilarning ketib kolishi» muammosining mohiyati nimadan iborat

5-mavzu. Xalqaro kapital migratsiyasi va transmilliy kompaniyalar

Ko'rib chiqiladigan asosiy savollar:

1. Kapital eksporti - xalqaro iqtisodiy munosabatlarning ilg'or shakli sifatida
2. Kapital eksportining asosiy shakllari va uning o'ziga xos tomonlari
3. Xalqaro korporatsiyalarning mohiyati, tuzilmasi va ko'rinishlari

Mavzuga oid tayanch tushuncha va iboralar: kapital migratsiyasi, portfel investitsiyalar, to'g'ri investitsiyalar, TMK, transmillashuvning jahon iqtisodiyoti va mamlakatlar iqtisodiyotiga ta'siri.

Mavzuda ko'rib chiqiladigan muammolar:

1.Halqaro kapital migratsiyasi XIM bugungi kunda shiddat bilan rivojlanayotgan shakli hisoblanadi. Shunga siz qanday fikr bildirasiz?

2. Halqaro kapital migratsiyasining asosiy sabablari va shakllarini qanday izohlaysiz?

3. Halqaro korporatsiyalarning kapital migratsiyasidagi rolini siz qanday izohlaysiz?

5.1. Kapital eksporti - xalqaro iqtisodiy munosabatlarning ilg'or shakli sifatida

Kapitalni xorijga chiqarish, uning davlatlar o'rtasida faol migratsiyasi zamonaviy jahon xo'jaligi va xalqaro iqtisodiy munosabatlarning eng muhim ajratib turuvchi tomoniga aylandi.

Kapitalni chetga chiqarish jahon xo'jaligining chuqur rivojlanishi davrida tovar olib chiqish monopoliyasini sindirdi. Tovar olib chiqishni to'ldiruvchisi va uning vositachisi bo'lib, kapital olib chiqish xalqaro iqtisodiy munosabatlar tizimida aniqlovchi omilga aylanib bormoqda. Iqtisodiy hamkorlik va rivojlanish tashkilotining (IHRT) baholashiga qaraganda, XX asrning 80-yillaridan boshlab to'g'ridan-to'g'ri yo'natirilgan investitsiyalarning yillik o'sishi taxminan 34-35% ni tashkil etib, xalqaro savdo o'sishidan qariyb 5 marta ko'proqdir.

Kapitalni chetga chiqarish ma'lum bir milliy davlat o'z aylanmasidan bir qism kapitalni olib, uni boshqa bir davlatning ishlab chiqarish jarayoniga va aylanmasiga tovar yoki pul formasida joylashtirishida namoyon bo'ladi. Dastlabki yillarda kapital olib chiqish jahon xo'jaligi pereferiyasiga kapitalni eksport qiladigan kam sonli sanoati rivojlangan davlatlarga xos bo'lgan edi. Jahon xo'jaligining rivojlanishi esa bu jarayon doirasini sezilarli ravishda kengaytirdi, natijada kapital chiqarish har qanday muvaffaqiyatli, dinamik rivojlanayotgan mamlakatlar iqtisodiyotining funksiyasi bo'lib qoldi. Hozirgi kunda kapitalni ilg'or sanoati rivojlangan davlatlar ham, o'rtacha rivojlangan davlatlar ham, rivojlanayotgan, ayniqsa "yangi industrial" davlatlar ham chiqarmoqdalar.

Kapitalni chetga chiqarishning asosiy sababi uning ma'lum bir davlatlarda "nisbatan" ortiqcha bo'lib qolishligidir. Ishbilarmonlik foydasi yoki foiz olish maqsadida kapital chet elga chiqariladi. Kapital eksporti ichki investitsiya uchun kapital yetishmagan holda ham amalga oshirilishi mumkin. 90-yillarda umumjahon bo'yicha ortiqcha kapital 180-200 mlrd. dollarga teng deb baholangan edi. XX asrning ikkinchi yarmidan so'ng chetga kapital chiqarish tinimsiz o'sib bordi. Kapital eksporti hozirgi kunda o'sish sur'atlari bo'yicha tovar eksportini ham, sanoati rivojlangan davlatlarda yalpi ichki mahsulotning o'sish darajasini ham orqada qoldirmoqda. Kapitalni chetga chiqarish masshtabining keskin kengayishi xalqaro migratsiyaning kuchayishiga olib kelmoqda.

Xalqaro kapital migratsiyasi - kapital egasi uchun foyda keltiruvchi, davlatlar orasidagi qarama-qarshi harakatdir. Har bir davlat bir vaqtning o'zida kapitalning importyori va eksportyori bo'lib hisoblanadi. Jahon iqtisodiyotida katta foyda uchun kapital olib chiqishning eng muhim sabablari quyidagilardan iboratdir:

- kapital olib chiqilayotgan davlatda uning ortikcha to'planganligi;
- jahon xo'jaligining turli sohalarida kapital talabi va taklifining mos kelmasligi;
- mahalliy bozorni monopolizatsiya qilish imkoniyati mavjudligi;

kapital eksport qilinadigan davlatda arzonroq xom-ashyo va ishchi kuchining mavjudligi;

- barqaror siyosiy holat va umuman qulay investitsion muhitning mavjudligi.

Amaliy hayotda investitsiya qilish zaruriyati o'zida investitsion muhitning barcha qismlarini mujassamlashtirgan sabablar kompleksi va shuningdek ayrim bozorlarning nisbiy ustunligi tamoyillari bilan belgilanadi. Kapital olib chiqishga sabab bo'luvchi va uni rag'batlantiruvchi omillar quyidagilardir:

1.Kapital olib chiqishni faollashtiruvchi, harakatlantiruvchi kuch bo'lib milliy iqtisodiyotlarning o'sib borayotgan o'zaro bog'liqligi hisoblanadi. Ishlab chiqarishning baynalminallashuvi xalqaro kapital harakatiga katta ta'sir ko'rsatadi. Kapital eksportining bosh omili bo'lib, to'g'ridan-to'g'ri yo'naltirilgan investitsiyalar ishlab chiqarishni xalqaro ishlab chiqarishga aylanishi va shuningdek xalqaro mahsulot yaratishidir. Xalqaro mahsulot-global xalqaro bozorda sotiladigan mahsulotdir. U unifikatsiya qilingan va geografik joylashishi, milliy yoki boshqa o'ziga xosliklardan qat'i nazar sotiladi (avtomobillar, samolyotlar, radioelektronika, komp'yuterlar, asbob-uskunalar va h.k.lar);

2.Xalqaro sanoat kooperatsiyasi, transmilliy korporatsiyalarning sho''ba korxonalariga qo'yiladigan qo'yilmalari;

3.Sanoati rivojlangan davlatlarning iqtisodiy o'sish sur'atlarini ushlab turish, sanoatning ilg'or sohalarini rivojlantirish, bandlik darajasini saqlash uchun sezilarli hajmda kapital jalb qilishga yo'naltirilgan iqtisodiy siyosati;

4.Xorijiy kapital jalb qilish yordamida o‘z iqtisodiy rivoji uchun sezilarli turtki berish, “kambag‘allik doirasidan” chiqib ketishga harakat qilayotgan rivojlanayotgan davlatlarning iqtisodiy o‘z-o‘zini tutishi;

5.Ekologiya omillari sezilarli ta’sir ko‘rsatadi. Xalqaro korporatsiyalar qattiqlashayotgan ekologik normalar tufayli ishlab chiqarishni sanoati rivojlangan davlatlardan rivojlanayotgan mamlakatlarga ko‘chirishi;

6.Kapital oqimini yo‘naltiruvchi va tartibga soluvchi xalqaro moliyaviy tashkilotlar muhim rol o‘ynashi;

7.Milliy bozorning yirik moliya-sanoat guruhlari tomonidan monopollashtirilishi;

8.Harakatdagi texnologiyalarni takomillashtirish imkoniyatlarning cheklanganligi;

9.Jahon iqtisodiyotining transmilliylashishi;

10.Ishlab chiqarishning baynalminallashuvi va integratsiyaviy jarayonlarning rivojlanishi;

11. Rivojlanagan mamlakatlardagi sotuvchilar o‘rtasida keskin raqobat;

12.Halqaro tashkilotlar tomonidan halqaro investitsiyaviy bo‘shliqni erkinlashtirish siyosatining yuritilishi, investitsiyaviy sheriklikning universal me’yorlarini ishlab chiqish;

13.Jahon iqtisodiyoti va alohida mamlakatlar iqtisodiyotida amalga oshirilayotgan chuqur tarkibiy o‘zgarishlar;

14. Kapitalning foiz stavkasi bilan belgilanadigan turli chegaraviy unumdorlik;

5.2. Kapital eksportining asosiy shakllari va uning o‘ziga xos tomonlari

Jahon ho‘jaligida kapitalni chetga chiqarish asosan quyidagi shakllarda amalga oshiriladi:

1.Manbasiga ko‘ra - rasmiy va xususiy;

2.Foydalanish tabiatiga ko‘ra - ssuda va tadbirkorlik;

3.Muddatiga ko‘ra - uzoq, o‘rta va qisqa muddatli;

4.Maqsadiga ko‘ra - to‘g‘ridan-to‘g‘ri va portfel investitsiyalar,

Jahon iqtisodiyotida kapital ko‘chishi va xorijiy investitsiyalar o‘rtasida aniq farq belgilangan. Kapital ko‘chishi quyidagilarni o‘z ichiga oladi: xorijiy hamkorlar bilan operatsiyalar bo‘yicha to‘lovlar, zayomlar berish (5 yildan ortiq bo‘lmagan muddatda), faqat kapital joylashtirish maqsadida xorijiy kompaniyalarning aksiya, obligatsiya va qimmatbaho qog‘ozlarini sotib olish, qimmatbaho qog‘ozlar portfelini diversifikatsiya qilish va boshqalar.

Xorijiy investitsiyalar bu kapital qabul qiluvchi davlatda kompaniya ustidan nazorat o‘rnatish va uni boshqarishda ishtirok etish maqsadida kapital ko‘chirishdir. To‘g‘ridan-to‘g‘ri yo‘naltirilgan investitsiyalar shaklida kapital olib chiqish bu kapital qabul qiluvchi davlat hududida kapital eksportyori tomonidan ishlab chiqarishni tashkil etishini bildiradi. Bu

shuningdek, kadrlarni tayyorlash va o‘qitish, mahalliy ishlab chiqaruvchilarga raqobatchilik ta’siridir.

To‘g‘ridan-to‘g‘ri investitsiyalar xalqaro korporatsiyalarning jahon xo‘jaligidagi hukmronligining asosini tashkil qiladi. Ular korporatsiyalarning xorijiy korxonalariga to‘liq egalik qilishi yoki aksionerlik kapitalining amalda egalik qilishiga imkoniyat beradi. Odatda, bu shunday investitsiyalarki bunda xorijiy investor kompaniyaning aksionerlik kapitalining 25% dan kam bo‘lmagan miqdoriga egalik qiladi. AQSH, GFR, Yaponiyaning statistika boshqarmalari aksionerlik kapitalining 10% i va undan ko‘prog‘ini o‘ziga olgan investitsiyalarni portfel investitsiyalari yirik korporatsiyalar, markaziy va xususiy banklar tomonidan chiqariladigan obligatsiya zayomlarini moliyalashtirish uchun xorijiy kapitalni jalb qiluvchi muhim manbadir. Xorijiy portfel investitsiyalarini jalb qilishda odatda yirik investitsion banklar vositachilik qiladi. Portfel investitsiyalarning harakatiga ko‘p jihatdan alohida davlatlarda obligatsiyalar uchun to‘lanadigan foiz stavkalaridagi farq ta’sir qiladi.

To‘g‘ridan-to‘g‘ri va portfel investitsiyalar o‘rtasidagi o‘ziga xos farqlar i.f.d. A.V.Vaxabov ta’rifi bo‘yicha quydagicha[11]:

Belgilar	**To‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar**	**Portfel investitsiyalar**
Olib chiqishning asosiy maqsadi	Xorijiy firmani nazorat qilish	Yuqori foyda olish
Maqsadga erishish yo‘llari	Xorijda ishlab chiqarishni tashkil qilish va yuritish	Xorijiy qimmatli qog‘ozlarni sotib olish
Maqsadga erishish usullari	a) xorijiy firmaga to‘liq egalik qilish	Xorijiy firma aksiyadorlik kapitalining kamida 25 % sotib olish (AQSH, Yaponiya va Germaniya – 10%)
	b) aksiyalar nazorat paketini sotib olish (HVF ustaviga ko‘ra kompaniya aksiyadorlik kapitalining 25%dan kam bo‘lmasligi kerak)	
Daromad shakllari	Tadbirkorlik foydasi, dividentlar	Dividentlar, foizlar

[11] Vaxabov A.V., Tadjibayeva D.A., Xajibakiev Sh.X. Jahon iqtisodiyoti va xalqaro iqtisodiy munosabatlar. – Toshkent.: Baktria press, 2015. - 392 b.

Jahon iqtisodiyotida XX 50-yillardan keyingi davrda kapital eksporti strukturasida sezilarli o‘zgarishlar ro‘y berib jahon xo‘jaligi rivojlanishining o‘ziga xos tomonlarini namoyon qildi. Ulardan eng muhimi 70-80-yillarda xalqaro kreditlarning o‘sishi va kapitalning kredit-moliya sohasini paydo bo‘lganligidir. Iqtisodiyotda ssuda kapitalining roli keskin oshdi.

Xalqaro ssuda kapitali bozori: a) pul bozori; b) kapital bozoriga bo‘linadi. Pul bozori - bu asosan qisqa muddatli kreditlar (1 yilgacha) bozoridir. Bunday kreditlar odatda aylanma mablag‘lar yetishmovchiligini qoplash uchun ishlatiladi. Kapital bozori esa o‘zida bank kreditlari va uzoq muddatli kreditlarni namoyon qiladi. Ular asosan obligatsiyalar chiqarish va sotib olishda namoyon bo‘ladilar.

Sanoati rivojlangan davlatlar tomonidan tekin yoki imtiyozli kreditlar shaklida ko‘rsatiladigan iqtisodiy yordamni biz jahon davlatlariga yordam berish bo‘yicha dunyoda ikkinchi o‘rinda (Yaponiyadan keyin) turadigan AQSH misolida ko‘rib chiqishishimiz mumkin. Xorijiy mamlakatlarga iqtisodiy yordamning ko‘rsatishdan maqsad AQSH milliy xavsizligini ta’minlash, davlatlarga ochiq bozor iqtisodiyoti tizimini o‘rnatish va shuningdek demokratiyani rivojlanishiga yordam berishdir.

Jahon iqtisodiyotida kapitalni chetga chiqarish asosan sanoati rivojlangan davlatlardan olib chiqiladi. Sanoati rivojlangan davlatlar o‘rtasida ham kapitalning faol migratsiyasi ro‘y bermoqda. Sanoati rivojlangan davlatlar doirasida ro‘y berayotgan kapital migratsiyasini bir necha holatlarida ko‘rib chiqishimiz lozim:

“Uchlik” davlatlar o‘rtasidagi kapital migratsiyasi (AQSH-G‘arbiy Yevropa-Yaponiya) o‘rtasida;

Alohida sanoati rivojlangan davlatlar o‘rtasidagi kapital migratsiyasi;

Sanoati rivojlangan davlatlarning bir xil sohalari o‘rtasida ro‘y berayotgan kapital migratsiyasi;

Kapital migratsiyasi o‘z sub’ektlari nuqtai nazaridan makro va mikro darajalar bilan farqlanadi. Makrodaraja - bu, kapitalning davlatlararo oqimi bo‘lib, statistikada u davlatlarning to‘lov balansida tasvirlanadi. Mikrodaraja - bu, kapitalning xalqaro monopoliyalar ichida korporatsiyalar ichki kanallari orqali ro‘y berayotgan harakatidir.

Kapital olib chiqishning zamonaviy xususiyatlari orasida ishlab chiqarish kapitali eksportining o‘sib borayotgan ahamiyatini ajratib ko‘rsatish lozim. Ishbilarmonlik faoliyatida portfel investitsiyalar qatnashishdan to‘g‘ridan-to‘g‘ri yo‘naltirilgan investitsiyalarga o‘tdi. 50-yillardan boshlab to‘g‘ridan-to‘g‘ri yo‘naltirilgan xorijiy investitsiyalarni qazib chiqarish sanoatidan qayta ishlash sanoatiga, shuningdek xozirgi kunda yillik hajmining 50%dan ortig‘i to‘g‘ri kelayotgan xizmat sohalariga yo‘naltirilishi ro‘y bermoqda. To‘g‘ridan-to‘g‘ri yo‘naltirilgan investitsiyalarning tendensiyasida sezilarli o‘zgarishlar ro‘y bera boshladi:

Xorijiy kapitalning ahamiyatini avvalo biz Xitoyning yuqori iqtisodiy sur'atlarda o'sishi bilan ta'minlanganligida, ishonchligida va shuningdek siyosiy barqarorligida ko'rishimiz mumkin. Xuddi shunday o'sish darajasini biz ba'zi bir Osiyo "ajdarho"lari davlatlarida va shuningdek ba'zi bir Lotin Amerikasining "Yangi industrial davlatlari"da ham ko'rish mumkin.

Ayni bir paytda kambag'al davlatlar qatoriga kiruvchi ba'zi bir rivojlanayotgan mamlakatlar ekspertlarning fikricha sanoati rivojlangan davlatlarning investorlari uchun ozroq qiziqish uyg'otmoqdalar. Bunday davlatlar qatoriga tobora kamayib borayotan to'g'ridan-to'g'ri yo'naltirilgan investitsiyalar oqimi to'g'ri keladi. 90-yillarda kam rivojlangan davlatlar qatoriga xorijiy investitsiyalarning 5-6% to'g'ri kelgan edi xolos.

Urushdan keyingi 50-yillarda kapital olib chiqish jarayonining muhim alomatlaridan biri davlatning tartibga soluvchi, nazorat qiluvchi, rag'batlantiruvchi funksiyalar bilan bu jarayonga faol aralashuvidir.

Sanoati rivojlangan davlatlarning kapital migratsiyasiga ta'siri, milliy va davlatlararo darajada kapitalning eksport va importini rag'batlantirish yo'li bilan amalga oshiriladi. Zayom, portfel investitsiyalari shaklidagi kapital ko'chishi asosan davlat siyosatining harakati yo'lidagi barcha to'siqlarni olib tashlash asosida olib borilmoqda. Davlat to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarga nisbatan iqtisodiyotda milliy manfaatlarni himoya qilishga qaratilgan har qanday cheklanishlarni qo'llash huquqi saqlab qolgan. Xarakterli tomoni shundaki kapitalni xorijga olib chiqish, xorijiy kapitalni olib kirishdan ko'ra ko'proq tartibga solinadi. Davlat quyidagi tartibga solish choralaridan keng foydalanadi:

1.Moliyaviy tartibga solish usullari. Ushbu usullarga tezlashtirilgan amortizatsiyani, soliq imtiyozlari, subsidiya va zayomlar berish, kreditlarni sug'urtalash va kafolatlashni kiritish mumkin.

2.Nomoliyaviy usullar. Ushbu usullarga er maydonlarini berish, kerakli infrastruktura bilan ta'minlash, texnik yordamlarni ko'rsatishni kiritish mumkin.

Xorijiy kapital qo'yilmalarni tartibga solishning muhim amaliy hujjati bo'lib Osiyo-Tinch okeani hamkorlik tashkiloti doirasida ishlab chiqilgan "Ko'ngilli kodeks"dir (1994 yil Jakarta). Mutaxasislarning fikricha istiqbolda Jahon savdo tashkiloti tomonidan foydalaniladigan ushbu "Kodeks" da quyidagi investitsion tamoyillar belgilab berilgan:

- donor davlatlarga diskriminatsiyasiz yondashuv;
- xorijiy investitsiyalar uchun milliy rejim;
- investitsion rag'batlantirishlar sog'liqni saqlash, xavfsizlik va atrof-muhit himoyasi sohalaridagi talablarning kuchsizlanishiga yo'l qo'ymasligi kerak;
- savdo va kapital sohalar cheklovchi va tartibga soluvchi investitsion talablarni minimallashtirish;

- etarli va samarali kompensatsiya to‘lash sharti bilan ijtimoiy jamiyat maqsadlariga, milliy qonun va xalqaro huquq tamoyillariga muvofiq diskriminatsiyasiz investitsiyalarni ekspropriatsiya qilishdan voz kechish;

- ro‘yxatga olish va konvertatsiya imkoniyatini ta’minlash;

- kapital olib chiqishdan cheklashlarni olib tashlash;

- xorijiy investorni milliy investorlar bilan teng ravishda davlat qonunlariga, ma’muriy qoida va holatlariga rioya qilinishi;

- investitsion loyihani amalga oshirish munosabati bilan xorijiy personalga kelish va vaqtinchalik turishga ruxsat berish;

- kelishmovchiliklarni konsultatsiyalar va muzoqaralar yoki xo‘jalik sudlari orqali hal qilish.

Iqtisodiy amaliyot shuni ko‘rsatmoqdaki, investitsiyalarni jalb qilishda rag‘batlantirish siyosati bozor omillariga nisbatan kamroq ta’sir ko‘rsatadi. Iqtisodiy erkinlik, bozor mexanizmlarining to‘siqsiz ishlashi tashqi investitsiyalarni jalb qilishda muhim mezon hisoblanadi. Amerika iqtisodchilari tomonidan ishlab chiqilgan iqtisodiy erkinlikning integral ko‘rsatkichi u yoki bu mamlakatda davlat xo‘jalik sub’ektlariga nisbatan kanchalik faol aralashuvining 10 dan ortiq turli ko‘rinishdagi xususiy ko‘rsatkichlarining agregiratsiya qilingan harakteristikasi ishlab chiqilgan bo‘lib, ular quyidagi sohalardagi hollarda namoyon bo‘ladi:

- savdo siyosati sohasida;

- soliq siyosati sohasida;

- monetar siyosati sohasida;

- bank tizimining ishlashi sohasida;

- xorijiy investitsiyalarni huquqiy tartibga solish sohasida;

- mulk huquqi sohasida;

- mamlakatda ishlab chiqariladigan tovarlar va xizmatlar sohasining umumiy hajmida davlat iste’molining ulushi;

- iqtisodiy rag‘batlantirish siyosati sohasida;

- davlatda mavjud “qora bozor”ning miqyosi;

- narxning tashkil topishi va ish haqini tartibga solish sohasida va boshqalar.

Ushbu ko‘rsatkichlarning har biri bo‘yicha davlat 1 dan 5 ballgacha olishi mumkin (davlatning iqtisodiyotga eng kam va eng ko‘p aralashuviga muvofiq).

5.3. Xalqaro korporatsiyalarning mohiyati, tuzilmasi va ko‘rinishlari

Zamonaviy jahon xo‘jaligining rivojlanish xususiyatlaridan biri – xalqaro miqiyosda transmiliy kompaniyalarning rolini oshib borishidir. Transmilliy kompaniya yirik miqdorda xorijiy aktivlarga ega bo‘lgan va faoliyati doirasi bir milliy iqtisodiyotdan chetga chiqadigan kompaniyalarga aytiladi. Bugungi kunda transmilliy kompaniyalar jahon iqtisodiyoti rivojlanish traektoriyasini belgilab beruvchi turli tarmoqlarda faoliyat yuritayotgan kompaniyalardir.

Jahon iqtisodiyotida TMKlarning xarakterli belgilari quyidagilar hisoblanadi:

• Ishlab chiqarish, savdo va xizmat ko‘rsatish faoliyatining katta qismini bosh shtab-kvartira joylashgan mamlakat iqtisodiy makoni chegarasidan tashqariga olib chiqish;

• Turli davlatlarda shahobchalar, shu’ba va assotsiatsiyalangan kompaniyalarning katta tarmog‘ini shakllantirish;

• Iqtisodiy faoliyatni samarali bashoratlash va rejalashtirish sharoitida tashqi va ichki investitsion oqimlarni boshqarish;

• Kapitallar, ishchi kuchi, axborot ko‘chishi (transferti)ning firma ichkarisidagi kanallarining ko‘pligi;

Iqtisodiy adabiyotlarda halqaro korporatsiyalarning ikki hil shakllari farqlanadi:

1.Transmilliy kompaniyalar – bosh kompaniya bir mamlakat kapitaliga tegishli bo‘lib, filiallari esa dunyo bo‘ylab tarqalib ketgan kompaniyalar;

2.Ko‘p milliy kompaniyalar – bosh kompaniya ikki va undan ortiq mamlakat kapitaliga tegishli bo‘lib, xorijiy bo‘limlari turli mamlakatlarda joylashgan korporatsiyalar;

Ishlab chiqarish quvvatlarini va servis markazlarini jahonning turli hududlariga bo‘lib-bo‘lib joylashtirish (diversifikatsiyalash), bunday korporatsiyalarga xalqaro mehnat taqsimoti shartlari va ichki milliy bozor xususiyatlaridan kelib chiquvchi ustunliklardan foydalanish hisobiga katta daromad olish imkoniyatini beradi.

Milliy kompaniyani xalqaro kompaniyaga aylanishiga konkret misol sifatida «Elektrolyuks» guruhini keltirish mumkin. «Elektrolyuks» elektr uskunalari ishlab chiqish va ta’mirlash bilan shug‘ullanuvchi ikki shved firmasining qo‘shilish yo‘li bilan 1912 yilda tashkil etilgan. 50-yillarda bu kompaniya avval Shvetsiyada so‘ngra boshqa Skandinaviya mamlakatlarida ham yetakchi mavqega ega bo‘ldi. Tayyorlanayotgan mahsulotlar nomenklaturasini uzluksiz kengaytirib borgan xolda kompaniya G‘arbiy Yevropada savdo va xizmat ko‘rsatish korxonalari tarmog‘ini yaratishga kirishdi. «Elektrolyuks» o‘z tuzilmasiga AQSH («Uayt Konsolideytid» elektr uskunalari ishlab chiqarish bo‘yicha mamlakatda 3-o‘rinda turardi), Germaniya («AEG» - 1-o‘rin), Italiyaning («Zanussi» - 1-o‘rin) kabi bir necha yirik

kompaniyalarini qo‘shib oldi. Hozirgi paytda uni jahonning 75 mamlakatida bo‘limlari mavjud, bu TMKning personali 110 ming kishidan ortiq, yillik aylanmasi 16 mlrd. doll.dan oshadi.

TMKning namunaviy tuzilmasini bosh kompaniya (ushbu mamlakatda ro‘yxatdan o‘tgan korporatsiyaning bosh shtab-kvartirasi) va boshqa davlatlarda joylashgan shahobchalar, sho’ba va assotsiatsiyalashgan kompaniyalar tizimidan iborat. Ko‘pincha TMK tuzilmasiga moliya-kredit muassasalari (banklar, investitsiya fondlari va sug‘urta kompaniyalari) ham kiritilishi mumkin. Bundan tashqari yirik xalqaro korporatsiyalar odatda o‘zining muhofaza xizmati, kadrlar treningi, transport va boshqa xizmatlariga ega bo‘lishadi.

Shahobchalarning sho’ba korxonalardan farqi shundaki, ular o‘z balansi va iqtisodiy mustaqillikka ega emas. Assotsiatsiyalashgan kompaniyalarga kelsak, ular bosh kompaniya tomonidan odatda shartnoma munosabatlari tizimi (pudrat, trast kabilar) orqali nazorat qilinadi.

TMK ko‘rinishlari tanlangan mezonga bog‘lik ravishda turlicha sinflanadi. Eng keng tarqalgan alomat xalqaro korporatsiyaning bosh tuzilmasi nizom fondidagi kapital ulushini belgilovchi milliy mansublik belgisi hisoblanadi. Bu holatda quyidagilar ajratib ko‘rsatiladi:

• monomilliy kompaniyalar (milliy kompaniya, masalan - Shveysariyadagi "Nestle" konserni);

• multimilliy kompaniyalar (baynalmilal kompaniya, masalan - ingliz-golland "Royyal Datch Shell" korporatsiyasi);

• konsorsiumlar (uzoq muddatli kapital sig‘imli loyihalarni ishlab chiqish va amalga oshirish uchun bir necha korporatsiyalar aktivlarining bir qismini vaqtinchalik maqsadga yo‘naltirilgan birlashtirish);

Jahon iqtisodiyotida qayd etilgan guruhlarning solishtirma og‘irligi doimo o‘zgarib turadi. 70-yillarda monomilliy TMKlar ko‘pchilikni tashkil etgan bo‘lsa, 80-yillarga kelib konsorsiumlar paydo bo‘ldi. So‘nggi o‘n yil ichida raqobat kurashining kuchayishi va global bozorlardagi inqirozli vaziyatlar tufayli milliy kompaniyalar bir-biri bilan qo‘shilib multimilliy TMKlarga aylandi.

Xo‘sh, transmilliy korporatsiyalarni paydo bo‘lishiga sabab nima? TMKlar paydo bo‘lishining asosiy sababi milliy-davlat chegaralaridan chiqib ketgan ishlab chiqarish kuchlarining rivojlanishi asosida ishlab chiqarish va kapitalning baynalminallashuvidir. Ishlab chiqarish va kapitalning baynalminallashuvi yirik kompaniyalar tomonidan xorijiy mamlakatlarda o‘z bo‘limlarini tashkil etib, milliy korporatsiyalarning TMKga aylanishi orqali ekspansiya xarakteriga ega bo‘ladi. Jahon iqtisodiyotida kapital olib chiqish xalqaro korporatsiyalarning shakllanishi va rivojlanishining eng muhim omillaridan biridir.

Transmilliy korporatsiyalar vujudga kelishining sabablaridan yana biri haddan tashqari foyda olishga bo‘lgan intilishidir. O‘z navbatida, kuchli raqobat bu kurashda g‘alaba qozonish zaruriyati, xalqaro miqyosda ishlab chiqarish va kapitalning konsentratsiyasi ham TMKlarning paydo bo‘lishiga olib keldi.

Jahon xo‘jaligida ro‘y berayotgan iqtisodiy jarayonlarning ob’ektiv natijasiga ko‘ra vujudga kelgan transmilliy korporatsiyalar o‘ziga xos xususiyatga ega. Jahon iqtisodiyotida TMKlar xalqaro mehnat taqsimotining faol ishtirokchisi bo‘lib, uning rivojlanishiga o‘z hissasini qo‘shib kelmoqda.

Transmilliy korporatsiyalarda kapitalining harakati, odatda, korporatsiya joylashgan davlatda bo‘layotgan jarayonlardan mustaqil ravishda sodir bo‘ladi.

5.4. Jahon xo‘jaligida transmilliy korporatsiyalarning roli

BMT ekspertlarining fikricha transmilliy korporatsiyalar (TMK) “Jahon mamlakatlari iqtisodiyotining rivojlanishidagi asosiy dvigatellari” dan biri bo‘lib hisoblanadi. Jahon xo‘jaligida 40 mingdan ortiq TMKlar mavjud bo‘lib, ular o‘z davlatlaridan tashqarida faoliyat qo‘rsatib kelayotgan 250 mingga yaqin sho‘ba korxonalarni ham nazorat qilib turishadi. Hozirgi kunda jahon xo‘jaligida mavjud bo‘lgan 500 ta eng yirik xalqaro kompaniyalarning 40% mulki (shu jumladan moliyaviy mulki ham) boshqa davlatlar hududiga to‘g‘ri keladi.

BMT tasnifiga ko‘ra halqaro korporatsiya maqomini olish uchun kompaniyalar quyidagi mezonlarga javob berishi kerak:

- yillik pul aylanmasi 100 mln. AQSH dollardan kam bo‘lmasligi kerak;
- kamida 6 davlatda o‘z filiallariga ega bo‘lishi kerak;

Jahon iqtisodiyotida transmilliy korporatsiyalarning asosiy qismi AQSH, EI davlatlari va Yaponiyada joylashgan. TMK jahon xo‘jaligida ishlab chiqarilayotgan sanoat maxsulotlarining 40% ni xalqaro savdonining 50 – 55%i ustidan o‘z nazoratini o‘rnatgan. TMKning korxonalarida ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlarning yillik miqdori 1 trln. AQSH dollaridan oshiqroqni tashkil etib, ularda 73 mln.dan ortiqroq kishi ishlaydi (ya’ni jahonda ish bilan band aholining 1G’10 qismini tashkil etadi).

Jahon iqtisodiyotida foliyatini olib boruvchi TMKlar reytingda 20 yanvar 2020 yil holatiga quyidagi o‘nta kompaniya yetakchilik qilishmoqda (5.1.-jadvalga qarang).

5.1.-jadval. Dunyoning kapitallashish darajasi bo‘yicha yirik 10 TMKlari

Reytingdagi mavqei 2020 yil	Kompaniya	Bosh ofis qayd qilingan mamlakat	Kapitalashish darajasi
1	Saudi Aramco	Saudiya Arabistoni	$1 880 mlrd
2	Apple	AQSH	$1 397 mlrd
3	Microsoft	AQSH	$1 274 mlrd
4	Alphabet Inc.	AQSH	$1 020 mlrd
5	Amazon Inc.	AQSH	$924,52 mlrd
6	Facebook	AQSH	$633,49 mlrd
7	Alibaba Group	Xitoy	$610,13 mlrd
8	Berkshire Hathaway Inc.	AQSH	$562,39 mlrd
9	Tencent	Xitoy	$492,9 mlrd
10	Visa Inc.	AQSH	$441,61 mlrd

Jadvaldan ko‘rinib turibdiki, kapitallashish darjasi eng yuqori kompaniya Saudiya Arabistoni korporatsiyasi bo‘lib asosiy faoliyati neft qazib chiqarish bilan bog‘liq. Aksariyat yirik korporatsiyalar AQSH davlatida joylashgan bo‘lib elektron savdo sohasida faoliyat yuritadi.

Hozirgi kunda transmilliy korporatsiyalarning filiallari va sho‘ba korxonalari jahonning turli davlatlarida faoliyat yuritib kelmoqda. Bu kompaniyalar nisbatan mustaqil bo‘lib, ishlab chiqarish va tayyor mahsulotlarni sotish, ilmiy tadqiqot va iste’molchilarga xizmat ko‘rsatish kabi ishlarni bajaradi. Umuman ular Yagona ishlab chiqarish-sotish majmuini tashkil etib, bu majmuada hissadorlik kapitalga faqat ta’sischi davlat egalik qiladi. Shu bilan birga TMK larning filial va sho‘ba korxonalari aralash korxonalar ko‘rinishida ham bo‘lishi va ularda milliy kapital ustunlik qilishi ham mumkin.

Jahon xo‘jaligida transmilliy va ko‘pmilliy korporatsiyalar qatoriga xalqaro kompaniyalar ichida ajralib turuvchi global korporatsiyalarni (GK) ham kiritish mumkin. Ushbu kompaniyalar XX asrning 80-yillarida vujudga kelgan bo‘lib, hozirgi kunda kuchayib bormoqda. Global

korporatsiyalar zamonaviy jahon moliya kapitalining butun qudratini namoyon qiladi. Jahon iqtisodiyotida globalizatsiya jarayonlari hozirgi kunda ko‘proq ximiya, elektrotexnika va elektron sohalarda neft va avtomobil sohalarida axborot, bank va boshqa bir necha sohalarda ro‘y bermoqda.

Jahon iqtisodiyotida transmilliy korporatsiyalar yirik investitsiya va yuqori malakali mutaxasisslarni talab qiluvchi yuqori texnologiyali, ilmtalab sohalarga kirib boradi. Ushbu sohalarni transmilliy korporatsiyalar tomonidan monopollashtirish tendensiyasi ro‘y bermoqda. Hozirgi kunda 500 dan ortiq eng kuchli transmilliy korporatsiyalardan 90 ga yaqini xorijiy mamlakatlardagi investitsiyalarning 70-75% i ustidan o‘z nazoratini o‘rnatgan bo‘lib, bu 500 dan ortiq gigant TMKlar hissasiga jahon bozorlariga chiqarilayotgan elektronika va ximiya sanoatining 80-82%, farmatsevtikaning 93-95%, mashinasozlikning 76-80% sanoat mahsulotlari to‘g‘ri kelmoqda.

Jahon iqtisodiyotida kuchli ishlab chiqarish bazasiga ega bo‘lgan transmilliy korporatsiyalar ishlab chiqarishni, tovar bozorlarini samarali rejalashtirishni ta’minlovchi ishlab chiqarish-savdo siyosatini yurgizadilar. Rejalashtirish bosh kompaniya doirasida amalga oshiriladi va sho‘‘ba korxonalariga tarqatiladi.

Jahon iqtisodiyotida xalqaro korporatsiyalarni vujudga kelishi va rivojlanishiga misol qilib, o‘z qo‘lida jahon kundalik elektr jihozlari va sanoat uskunalari bozorining 25% ini ushlab turgan “Elektrolyuks” TMKni ko‘rsatish mumkin. 1912 yilda ikki shved kompaniyalarining birlashishi natijasida vujudga kelgan “Elektrolyuks” 20-yillardayoq Avstraliya va Yangi Zelandiya bozoriga chiqib, u erda ishlab chiqarishini tashkil qilgan edi. Oxirgi o‘n yilliklarda “Elektrolyuks” AQSHda uchinchi o‘rinda turuvchi, “Vestingauz”, “Gibson” va boshqa markalar ostida kundalik texnika va asbob-uskunalarni ishlab chiqaruvchi “Uayt Konsolideyted” kompaniyasini, Italiya va butun janubiy Yevropada eng yirik elektr tovarlari ishlab chiqaruvchi “Zanussi” firmasi va shuningdek GFRda asosiy elektr tovarlari ishlab chiqaruvchi “AEG” firmasini aksiyalarini sotib olgan edi. Xullas, bu uch firmani qushib olganidan keyin Shvedlarning “Elektrolyuks” kompaniyasi jahonning 75 mamlakatida kundalik elektrotexnika buyumlarini ishlab chiqarish, sotish va xizmat ko‘rsatish bo‘yicha rivojlangan tizimga ega bo‘lgan lider kompaniyaga aylandi.

Jahon iqtisodiyotida o‘z ekspansiyasini kengaytira borib, transmilliy korporatsiyalar jahon bozorini o‘zlashtirishning turli shakllaridan foydalanadilar. Bu shakllar ko‘p jihatdan shartnomaga asoslanadi va hissadorlik kapitalida boshqa firmalarning qatnashishiga bog‘liq bo‘lmaydi. TMK iqtisodiyotining bunday shakllariga ko‘pincha quyidagilar kiritiladi:

- litsenziya berish;
- franchayzing;
- boshqaruv shartnomalari;

- texnik va marketing xizmatlarni ko‘rsatish;

- korxonalarni “kalit ostida” topshirish;

- vaqt bo‘yicha cheklangan qo‘shma korxonalar tuzish haqidagi shartnomalar va alohida operatsiyalarni amalga oshirish bo‘yicha kelishuvlar va boshqalar;

Litsenzion kelishuv yuridik shartnoma bo‘lib, unga ko‘ra litsenziar litsenziantga bir qancha muddatga ma’lum to‘lov evaziga ma’lum huquqlar beradi. Litsenziya berish transmilliy korporatsiyaning ichki firma shartnomalari bo‘yicha ham, texnologiya berishning tashqi kanallari bo‘yicha ham amalga oshiriladi.

Franchayzing - uzoq muddatga mo‘ljallangan litsenzion kelishuvdir. Bunda franchayzer klient-firmaga ma’lum huquqlar beradi. Bu huquqlar o‘z ichiga ma’lum to‘lov evaziga savdo markasi yoki firma nomidan foydalanish, shuningdek texnik yordam ko‘rsatish, ishchi kuchi malakasini oshirish, savdo va boshqarish bo‘yicha xizmat ko‘rsatish sohalarini oladi.

80-yillardan so‘ng jahon iqtisodiyotida boshqaruv va marketing xizmatlarini ko‘rsatish kabi transmilliy korporatsiyalar ekspansiyasini shakli keng tarqaldi. Boshqaruv xizmatlarini ko‘rsatish bo‘yicha shartnomaga ko‘ra, korxonani operativ nazorat qilish ma’lum to‘lovlar evaziga boshqa korxonaga beriladi. Texnik xizmat ko‘rsatish haqidagi shartnomaga ko‘ra transmilliy korporatsiyalar ushbu firma faoliyatining qandaydir maxsus tomoniga bog‘liq bo‘lgan texnik xizmatlarni amalga oshiradilar. Ko‘pincha bunday shartnomalar mashina va uskunalarni remont qilish, “nou-xau” dan foydalanish bo‘yicha maslahatlar, avariyalarni tugatish va sifatni nazorat qilish bilan bog‘liq bo‘ladi.

Jahon iqtisodiyotida zavodlarni “kalit ostida” topshirish haqidagi shartnomalar keng tarqaldi. Bunda transmilliy korporatsiyalar ma’lum ob’ektni rejalashtirib ko‘rish uchun zarur bo‘lgan barcha (asosiy ishni) faoliyatni amalga oshirish javobgarligini bo‘yniga oladilar.

Transmilliy korporatsiyalar tomonidan xalqaro bozorlarni egallashning eng muhim shakllaridan biri xorijda maxsus investitsion kompaniyalar tashkil qilishdir. Bu kompaniyalarning vazifasi TMKning sho‘ba va hamkorlikdagi korxonalarining mahsulotlarini mintaqaviy bozorlarga chiqarishni rag‘batlantirish uchun ularni investitsiyalashdir. Bunday usuldan hozirgi kunda alkogolsiz ichimliklarni sotish bo‘yicha eng yirik xalqaro kompaniyalar “Pepsi-cola” va “Coka-cola” Afrikada foydalanishmoqda.

Ma’lumki, transmilliy korporatsiyalar zamonaviy jahon xo‘jaligining muhim ishtirokchilariga aylanib bormoqda. Sanoati rivojlangan davlatlar uchun aynan TMKlarining xorijdagi faoliyati ularning tashqi iqtisodiy aloqalaring xarakterini belgilab beradi. Bu davlatlar eksportida milliy kompaniyalarni o‘zlarining xorijdagi filiallariga tovar etkazib berishlari va xizmat ko‘rsatishlarining ulushi kattadir. 80-yillarning ikkinchi yarmida bunday firma ichidagi savdoning ulushiga AQSH eksportining 14-20% i, Yaponiya eksportining 23-29% i va GFR

eksportining 24-28% i to‘g‘ri kelgan edi. TMK jahondagi xususiy ishlab chiqarish kapitalining 1G’3 qismi ustidan, xorijdagi to‘g‘ridan-to‘g‘ri investitsiyalarning esa 90% ini nazorat qiladilar.

Transmilliy korporatsiyalarning sohaviy tuzilishi ham turlichadir. Xalqaro korporatsiyalarning 60% i ishlab chiqarish sohasida, 37% i xizmat ko‘rsatish sohasida, 3% i qazib chiqarish va qishloq xo‘jaligi sohasida banddir. Amerikaning “Forchun” jurnali ma’lumotlariga qaraganda, jahonning eng yirik 500 dan ortiq korporatsiyasi ichida 4ta majmua - elektronika, neftni qayta ishlash, ximiya va avtomobilsozlik sanoat tarmoqlari asosiy rol o‘ynaydi. Ular jahon iqtisodiyotida TMKlarning olib borayotgan tashqi savdo faoliyatining 80% ana shu tarmoqlarga to‘g‘ri keladi.

Transmilliy korporatsiyalarning jahon xo‘jaligi va xalqaro iqtisodiy munosabatlar tizimidagi faoliyatining yaxshi tomonlarini aytganda, ularning faoliyat ko‘rsatayotgan davlatlar iqtisodiyotiga salbiy ta’sirini ham aytib o‘tish lozim bo‘lib, ular quyidagilardan iboratdir:

- TMK faoliyat ko‘rsatadigan davlatlarning iqtisodiy siyosatini amalga oshirishga xalaqit berishi;
- davlat qonunlarini buzishi;
- monopol narxlar o‘rnatishi, rivojlanayotgan davlatlarning huquqini cheklovchi shartlarga majbur etishi va boshqalar;

Xullas, jahon iqtisodiyotida TMKlar xo‘jaliklararo aloqalarning rivojiga doimo e’tibor berib, o‘rganish va yetarli darajada xalqaro nazorat talab qiluvchi murakkab va doimiy ravishda rivojlanib borayotgan fenomendir.

Tayanch iboralar: kapital migratsiyasi, portfel investitsiyalar, to‘g‘ri investitsiyalar, TMK, transmilliylashuvning jahon iqtisodiyoti va mamlakatlar iqtisodiyotiga ta’siri

Bobning qisqacha xulosasi:

Kapitalni xorijga chiqarish, uning davlatlar orasida faol migratsiyasi zamonaviy jahon ho‘jaligi va xalqaro iqtisodiy munosabatlarning eng muhim ko‘rinishlaridan biridir. Kapital olib chiqish jahon ho‘jaligining cho‘qur rivojlanishi davrida rivoj topib kelayotgan tovar olib chiqish monopoliyasini inqirozga uchratmoqda. Tovar olib chiqishni to‘ldiruvchisi va uning vositachisi bo‘lib kapital olib chiqish xalqaro iqtisodiy munosabatlar tizimida aniqlovchi omilga aylanib bormoqda.

Jahon kapital bozorining zamonaviy ko‘rinishi asosan XIX asrning oxiri XX asirning boshlarida shakllandi. Ya’ni, bu davrda kapitalni ichki muomaladan olib (asosan TMKlar orqali) maksimal darajada foyda olish maqsadida xorijga chiqarish uchun shart-sharoit etildi. Jahon iqtisodiyotida rivojlangan kapital bozorlarini moliyaviy resurslar bilan ta’minlashda Jahon Banki va uning bo‘limlari muhim rol o‘ynamoqda.

Nazorat uchun savollar:

1. Kapital migratsiyasining asosiy sabablarini tavsiflab bering.
2. Kapital migratsiyasiga ta'sir ko'rsatuvchi omillarni ko'rsating.
3. Xalqaro kapital bozorlarida ro'y berayotgan o'zgarishlarni xarakterlab bering.
4. Transmilliy korporatsiyalarni tavsiflab bering.
5. TMKlarni jahon bozorlariga kirib borish usullarini ochib bering.

6-mavzu. Jaxon iqtisodiyotida erkin iqtisodiy xududlarning tutgan o'rni

Ko'rib chiqiladigan asosiy savollar:

1. Erkin iqtisodiy xududlarning mohiyati va ko'rinishlari
2. Erkin iqtisodiy xududlarni yaratishda jahon tajribalari
3. O'zbekistonda erkin iqtisodiy xududlarni tashkil etish imkoniyatlari va mavjud istiqbollar tahlili

Mavzuga oid tayanch tushuncha va iboralar: Erkin iqtisodiy hudud, sanoat ishlab chiqarish va moliyaviy erkin hududlar, ma'muriy-iqtisodiy imtiyozlar, investitsion siyosat, qulay investitsion muhit, O'zbekistondagi Navoiy EIIZ.

Mavzuda ko'rib chiqiladigan muammolar:

1.Erkin iqtisodiy xududlar XIM zamonavi shakllaridanbiridir. Shunga siz qanday fikr bildirasiz?

2.Erkin iqtisodiy xududlarning qanday shakllari mavjud?

3.O'zbekiston respublikasida erkin iqtisodiy xududlarni rivojlantirish istiqbollari qanday?

foydalanishni asosiy ko'rsatkichlari va suv resurslarininig ekologik-iqtisodiy xususiyatlari, ulardan foydalanish to'g'risida tushunchalar hosil qilish.

Identiv o'quv maqsadlari:

1.1.Erkin iqtisodiy xududlarning mohiyatini izohlay oladi.

1.2.Erkin iqtisodiy xududlarning asosiy shakllarini izohlay oladi.

6.1. Erkin iqtisodiy hududlarning mohiyati va ko'rinishlari

Mamlakatimizning kompleks rivojlanishini ta'minlash va investitsion muhit jozibadorligini oshirish bo'yicha, eng avvvalo, mamlakat va uning hududlari salohiyatini o'rganish, ularni baholash, ta'sir ko'rsatadigan omillarni tasniflash, o'zaro bog'liqlik kasb etgan jihatlarni chuqur tahlil qilish muhim ahamiyat kasb etadi.

Buning uchun esa, rivojlangan mamlakatlarda qo'llangan va yuqori natijalar keltirgan tajribalarni tahlil etish, muvaffaqiyatga olib kelgan usul va uslublar, omillarni O'zbekiston va uning hududlari miqyosida tatbiq etish muhimdir.

Jahonda xorijiy kapitalni jalb etish bo‘yicha mamlakatlararo keskin kurash ketmoqda. Xorijiy investitsiyalar hajmi, sifati va qulay shartlardan foydalanish borasida rivojlangan mamlakatlarda yildan-yilga investitsion muhit jozibadorligini ta’minlashga xizmat qiladigan innovatsion instrumentlarning turli ko‘rinishlari yaratib kelinmoqda.

Bugungi kunda erkin iqtisodiy zonalar yoki hududlar jahon iqtisodiy amaliyotida mustahkam o‘rnashib, xalqaro iqtisodiy munosabatlarning ajralmas qismi hisoblanadi.

Erkin iqtisodiy zonalarning tashkil etilishi va ularni faoliyati, alohida ahamiyatga ega ekanligini takidlashimiz lozim.

Erkin iqtisodiy zonalarni tashkil qilishning jahon tajribasi shuni ko‘rsatadiki, bunday zonani tashkil qilgan mamlakat uchun mazkur hududlar yuqori iqtisodiy samara berib, mintaqaning ko‘plab ijtimoiy-iqtisodiy muammolarini hal etishda muhim dastak hisoblanadi.

Jahon iqtisodiy munosabatlar tizimida erkin iqtisodiy hududlar, asosan xalqaro savdoni jadallashtirish, investitsiyalarni jalb qilish, texnologiyalar almashinuvi, axborot almashish va integratsiyalashgan iqtisodiy jarayonlarni chuqurlashtirish tufayli jadal iqtisodiy o‘sish omili sifatida namoyon bo‘ladi.

Erkin iqtisodiy zonalar – mintaqani jadal ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish uchun mamlakat va chet el kapitalini, istiqbolli texnologiya va boshqaruv tajribasini jalb etish maqsadida tuziladigan, aniq belgilangan ma’muriy chegaralari va alohida huquqiy tartiboti bo‘lgan maxsus ajratilgan hudud[12,13].

Erkin iqtisodiy zonalar rivojlanish tarixi uzoq o‘tmishga taqalib, ular XIX asr boshlarida G‘arbiy Yevropa, Buyuk Britaniya, Germaniya erkin savdo portlari, ochiq shaxarlar, bojsiz zonalar shaklida bo‘lib, u erda yaratilgan malum imtiyozlar asosida savdo iqtisodiy aloqalarni rivojlantirishga ijobiy ta’sir etgan. XX – XXI asrlar bo‘sag‘asida “Erkin (maxsus) iqtisodiy zonalar (hududlar)” (EIH) jahon xo‘jaligi rivojlanishining asosiy ko‘rinishlaridan biriga aylanib, dunyoning ko‘plab davlatlarida tashkil topdi[14].

O‘tgan asrimizning 90-yillarining o‘rtalarida dunyo mamlakatlarida turli xildagi 4 mingdan ortiq EIH faoliyat ko‘rsata boshlagan edi. G‘arb mutaxassislarining fikricha, 2004 yilda jahon tovar aylanmasining 30 – 35 %i ana shu EIHlarga to‘g‘ri kelgan. Xalqaro korporatsiyalar o‘z faoliyatini yanada kengaytirish maqsadida EIHlar uchun imtiyozli sharoitlar yaratib, foyda olish mumkin bo‘lgan soha sifatida foydalanishmoqda.

---

[12] manba: https://sez.gov.uz/uz/page/info

[13] O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 1996 y., 5-6-son, 58-modda; 2003 y., 5-son, 67-modda; O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2005 y., 49-50-son, 365-modda; 2006 y., 41-son, 405-modda; 2009 y., 39-son, 424-modda; 2015 y., 33-son, 439-modda; Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 19.04.2018 y., 03/18/476/1087-son, O‘zbekiston Respublikasining 1996 yil 25 apreldagi “Erkin iqtisodiy zonalar to‘g‘risida”gi qonuni, manba: http://lex.uz/acts/2046.

[14] Nazarova G.G‘., Xalilov X., Xanova I.M., Xakimov N.Z., Bobojonov B.R. Jahon iqtisodiyoti. O‘quv qo‘llanma. – T.: TDIU, 2006. – 25-35 b.

EIHlar milliy mamlakatlarning ba'zi bir qismlarida foydalanilmaydigan imtiyoz va rag'batlarning o'ziga xos tizimlarini qo'llaydigan iqtisodiy hududning bir qismidir, ya'ni EIH geografik jihatdan u yoki bu darajada rivoj topgan alohida bir hududdir.

Rivojlangan davlatlar uchun EIHlar ushbu hududda faoliyat ko'rsatuvchilarning hayotiy turmush darajasini va ishlab chiqarish salohiyatini ko'rsatuvchi "maxsus" hudud hisoblanadi. Shuning uchun ham bu hududlar "maxsus iqtisodiy hududlar" deyiladi.

Ma'lumki, EIHlarni ochiq iqtisodiyot tamoyillarini amalga oshirishdagi ahamiyati kattadir. Ularning faoliyat ko'rsatishi tashqi iqtisodiy faoliyatni faollashtirish va erkinlashtirish bilan bog'liqdir. U yoki bu davlatlar iqtisodiyoti tashqi dunyoga ochiqligida EIHlarning ahamiyati katta bo'lib, bojxona, soliq va investitsiya rejimlarni o'rnatishda, shuningdek tashqi va ichki investitsiyalar faoliyati uchun qulaydir. EIHlar jahon xo'jaligida kapital migratsiya uchun ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Jahon mamlakatlari ichida ro'y birayotgan iqtisodiy jarayonlarni faollashtirishda (xorijiy kapitalni jalb qilish, sanoat sohasida EIHlar faoliyatini yanada kuchaytirishda) uchta muhim vazifani ko'rishimiz mumkin:

sanoat eksportini rag'batlantirish va shu orqali valyuta mablag'lari-ni jalb qilish;

aholining ish bilan bandlik darajasini oshirish;

milliy xo'jalikni rivojlantirish maqsadida EIHlarning yangi usullarini amaliyotda qo'llash[15].

Jahon iqtisodiyotida EIHlarning tashkil topish sabablari va maqsadlari har bir mamlakatda o'zgacha bo'lib, bir-biriga mutlaqo o'xshamasligi mumkin.

Masalan, AQSH, Buyuk Britaniyada erkin iqtisodiy hududlar depressiyaga uchragan hududlarda kichik va o'rta biznesni rivojlantirishga yo'naltirilgan mintaqaviy siyosatni amalga oshirishga qaratilgan. Rivojlanayotgan davlatlarda ham EIHlar tashkil topadi. Bu esa qoloq rivojlanmagan hududlarni jadal tarzda rivojlanayotgan hududlarga aylantirish imkoniyatini beradi (sanoati rivojlangan davlatlardan farqli ravishda ushbu mamlakatlarda ko'proq xorijiy kapital jalb qilinadi).

Jahon iqtisodiyotida EIHlarning tashkiliy, huquqiy tizimi turli-tumandir. Shuning uchun ham u yoki bu EIHlarni aniq tasniflash qiyin, chunki ular ko'plab hududlarning xususiyatlariga ega.

Erkin iqtisodiy hududlarni tashkil etish borasidagi yondashuvlarni tahlil qilgan holda, tadqiqot ishimiz doirasida erkin iqtisodiy zonalarning tipologiyasini ishlab chiqdik (1-rasm).

[15] Каримов М.М., Ильина Д.Н., Акрамов А.У. Состояние и перспективы развития свободных экономических зон в Республике Узбекистан // Брошюра ПРООН, г.Ташкент, 2015. – С. 61

6.1.-jadval.

AIH tipi	Tipologik belgilar						
	Maqsad	AIH ob'ekt-lari	Iqtisodiyotga integratsiyalashuv darajasi		AIH larning tarmoq belgisi		Imtiyozlar tizimi
			Ekstravertiv	Introvertiv	Ixtisoslashgan	Ko'p profilli	
Sanoat-ishlab chiqarish	Eksport va mahalliy bozorlar uchun chuqur qayta ishlangan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish	Yer uchastkalari	Eksportga mo'ljallangan chuqur qayta ishlangan mahsulotlar ishlab chiqarishga investitsiyalar	Import o'rnini bosuvchi ishlab chiqarishlarga investitsiya kiritish	Ma'lum bir ishlab chiqarishga ixtisoslash-gan	Qayta ishlovchi ishlab chiqarishlarnin g har qanday ko'rinishi	Soliq Moliyaviy Ma'muriy Bojxona (kelishuvlar bo'yicha)
Texnikavi y-joriy etuvchi	Yangi texnika va texnologiyalarni ishlab chiqish va mahalliy ishlab chiqarishga joriy etish	Yer uchastkalari, jamoaviy foydalanish markazlari, binolar	"Texnologiyalar importi" hisobiga rezidentlarni texnologik jihatdan qurollantirish uchun shart-sharoitlar yaratish	Hudud korxona va tashkilotlarining ilmiy ishlanmalarini tijoratlashtirish	Texnologik jihatdan ixtisosla-shuv	Ustuvor texnologik yo'nalishlar kelishuv asosida aniqlanadi	Soliq Moliyaviy Ma'muriy Bojxona (kelishuvlar bo'yicha)
Turistik-rekreatsion	Turizm, sanatoriya-kurort sohasi va aralash tarmoqlarni	yer uchastkalari	Xalqaro turizm markazlarini yaratish	Zamonaviy turistik-rekratsion yoki kurortlar majmuasini	Faqat turistik sohaga ixtisoslashuv, turistik xizmat turlari bo'yicha cheklovlar yo'q		Soliq Moliyaviy Ma'muriy

	rivojlantirish			shakllantirish			
Port	Transport-logistik infratuzilmani rivojlantirish va eksportchi korxonalar uchun qo‘shimcha rag‘batlar yaratish	Yer uchastkalari	Asbob-uskuna va butlovchi qismlarni import qilish. Tovarlarni olib chiqishda boj to‘lovlaridan ozod qilish	Tovarlar eksporti. Tovarlarni olib kirishda boj to‘lovlari va QQSdan ozod qilish	Ma’lum bir mahsulotlar-ni tashish yoki port xizmatlari	Kompleks transport-logistika zonasi	Soliq Moliyaviy Ma’muriy Bojxona (kelishuvlar bo‘yicha)

Alohida iqtisodiy hududlarning tipologik tavsifi (mualliflik yondashuvi)

EIHlarni tashkil topishida ikkita konseptual (hududiy va funksional) yondashuv qo‘llaniladi. Birinchi yondashuvda barcha rezident korxonalar xo‘jalik faoliyatining imtiyozlaridan keng foydalansalar, ikkinchi yondashuvda esa rezident korxonalar mamlakatning qaysi tumanida joylashishidan qat’iy nazar tadbirkorlik faoliyatining ma’lum ko‘rinishlari bo‘yicha imtiyozli rejimlardan foydalanishi mumkin xolos.

Birinchi yondashuvga misol qilib Xitoydagi erkin iqtisodiy hududlarni, Braziliyadagi “Manaus” hududini, rivojlanayotgan davlatlardagi eksport-ishlab chiqarish hududlarini ko‘rsatish mumkin.

Ikkinchi yondashuvga misol qilib, offshor firmalarni, “dyuti fri” magazinlarini ko‘rsatish mumkin.

EIH larning eng oddiy ko‘rinishlaridan biri erkin bojxona (bojsiz) hududlari (EBH) hisoblanadi. Bu hududlar erkin savdo hududlari kabi birinchi avlod hududlariga kiradi. Ular XVII-XVIII asrlardan buyon mavjud. Bu hududlarga tranzit yoki konsignatsion omborlar, eksportga mo‘ljallangan tovarlarni qadoqlash va kam miqdorda qayta ishlash sohalari kiradi. Bunday hududlar ko‘pincha bond omborlari yoki erkin bojxona hududlari deb ham ataladi. EBHlari tovar olib kirish va olib chiqishda bojdan ozod qilinadi.

Erkin savdo hududlari (ESH) ham dunyoda keng tarqalgan bo‘lib, 1934 yilda chiqarilgan maxsus qonun-qoidalar asosida faoliyat ko‘rsatib kelmoqda. ESHlar AQSHda ko‘proq rivoj topgan. ESHlarning maqsadi xalqaro savdoni rag‘batlantirish, savdo operatsiyalarini tezlashtirish, savdo xarajatlarini kamaytirishdan iboratdir. AQSH qonunchiligining tashqi iqtisodiy faoliyatida ESHlarga nisbatan imtiyozlar belgilangan. Qonunda har bir rasmiy portda kamida bitta erkin tashqi savdo hududi tashkil etilishi belgilab qo‘yilgan. AQSH qonunchiligiga muvofiq mamlakat hududidagi erkin savdo hududlari umumiy va maxsus (subhudud) hududlarga bo‘linadi. Umumiy hududlar kichik hududda (bir necha kv. km. masofada) joylashib va milliy boj hududidan tashqarida bo‘ladi. Ularda kiritilgan tovarlarni omborlarga joylashtirish va qayta ishlash ishlari amalga oshiriladi (qadoqlash, sortlarga ajratish va h.k.).

Maxsus hududlar (subhududlar) umumiy hududdan tashqariga chiquvchi alohida yirik kompaniyalar uchun tashkil qilinadi. Subhududlarda eksport uchun yoki import o‘rnini bosuvchi tovarlar ishlab chiqariladi. 90-yillarning o‘rtalariga kelib AQSHda 500 dan ortiq erkin savdo hududlari faoliyat ko‘rsatgan.

Oddiy erkin savdo hududlari qatoriga yirik xalqaro aeroportlardagi maxsus “dyuti fri” magazinlarini kiritish mumkin. Siyosiy rejim nuqtai nazaridan ular davlat chegaralaridan tashqarida deb hisoblanadi. Erkin savdo hududlari qatoriga imtiyozli holatga ega bo‘lgan an’anaviy erkin portlarni ham kiritish mumkin.

Sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish hududlari ikkinchi avlod hududlari bo‘lib hisoblanadi. Ular erkin savdo hududlariga faqat tovar emas, kapital ham olib kirilishi, shuningdek ularda faqat savdo bilan emas balkim ishlab chiqarish faoliyati bilan ham shug‘ullanilishi mumkin. Sanoat ishlab chiqarish hududlari maxsus boj rejimiga ega bo‘lgan hududlarda tashkil qilinadi. Ularda eksport uchun yoki import o‘rnini bosuvchi tovarlar ishlab chiqariladi. Bunday hududlar soliq va moliyaviy imtiyozlarga ega bo‘ladi.

Eksport ishlab chiqarish hududlari (EICHH) ayniqsa rivojlanayotgan davlatlarda keng tarqalgan. Bunday hududlarning zamonaviy modeli 1959 yilda Irlandiyaning Shennon aeroportida tashkil qilingan hududiy tizimiga asoslanadi. Bunday hududlardan hozirgi kunda “yangi industrial davlatlar” katta samara ko‘rmoqda. Eksport ishlab chiqarish hududlarining tashkil topishi mantiqan olganda rivojlanayotgan mamlakatlar iqtisodiyoti bilan chambarchas bog‘liq. 50-60-yillarda rivojlanayotgan mamlakatlarda sanoat eksportini rag‘batlantirish va xorijiy kapital oqimi yordamida bandlik darajasini oshirish zarurati tug‘ilgan edi.

Jahon iqtisodiyotida texnika kiritish hududlari uchinchi avlod hududlari hisoblanadi (70-80-yillar). Ular stixiyali tarzda davlat yordamida yirik ilmiy markazlar atrofida tashkil topishi mumkin. Ularda Yagona soliq va moliyaviy tizimdan foydalanuvchi milliy va xorijiy tadqiqotchilar, loyihachilar, ilmiy-ishlab chiqarish firmalari faoliyat ko‘rsatadi.



6.1.-rasm. Erkin iqtisodiy zonalarning amalda bo‘lish shakllari

Hozirgi kunda texnika kiritish hududlari asosan, AQSH, Yaponiya, Xitoyda faoliyat ko‘rsatmoqda. AQSHda ularni texnoparklar, Yaponiyada-texnopolislar, Xitoyda-yangi va ilg‘or texnologiyalar hududlari deb ham yuritiladi.

Jahon iqtisodiyotida turli moliyaviy, iqtisodiy, sug‘urta va boshqa sohalar bo‘yicha xizmat ko‘rsatuvchi firma va tashkilotlar uchun tadbirkorlik faoliyatining imtiyozli sharoitlari yaratiladigan hududlar servis hududlar deb ataladi. Servis hudud qatoriga offshor hududlar (OH) va soliq gavanlari (SG) kiradi. OH va SGlar tadbirkorlarni qulay valyuta-moliya va fiskal sharoitlar, bank va tijorat sirlarining yaxshi saqlanishi hamda davlat boshqaruvining kamligi bilan o‘ziga jalb qiladi.

Offshor hududda ro‘yxatga olingan soliq va boshqa imtiyozlarga ega bo‘lgan kompaniyalarga qo‘yiladigan asosiy talab - offshor markaz joylashgan davlatning rezidenti bo‘lmaslik va bu davlat hududida daromad olmaslikdir.

Soliq gavanlarining offshor hududlardan farqi shundaki, u erdagi firmalar (xorijiy va mahalliy firmalar ham) faoliyatining barcha turlari yoki shug‘ullanishda imtiyozlarga ega bo‘ladi.

Offshor kompaniyalar faoliyat ko‘rsatayotgan davlatlar qatoriga Lixtenshteyn, Panama, Normandiya orollari, Men orollari (Britaniya), Antil orollari, Gonkong, Madeyra, Liberiya, Irlandiya, Shveysariya va boshqalar kiradi. 80-yillarda ushbu davlatlar qatoriga Malta, Mavrikiya, G‘arbiy Samoa, Isroil, Malayziya (Labuan oroli) va boshqalar ham qo‘shilgan edi.

Offshor hududlardagi sanoat, savdo, bank sug‘urta va boshqa kompaniyalar umuman soliqqa tortilmaydi (Irlandiya, Liberiya) yoki kichik miqdordagi soliqlar to‘laydi (Lixtenshteyn, Antil orollari, Panama, Men oroli va boshqalar).

Masalan, Shveysariyada offshor biznesga nisbatan kam soliq miqdori belgilangan. Bu soliq ma’lum holatlarda umuman to‘lanmasligi ham mumkin. Shuningdek, offshor hududlar valyuta cheklashlarining yo‘qligi bilan, daromadni olib chiqish erkinligi, xorijiy investorlar uchun bojlarning yo‘qligi bilan ham ajralib turadi. Offshor hududlarni tashkil qiluvchi davlatlar qo‘shimcha xorijiy kapital jalb qilish, ro‘yxatga olingan korxonadan foyda olish, mahalliy mutaxassislar uchun qo‘shimcha ish joylarini tashkil qilishi orqali foyda ko‘radi.

Odatda, offshor biznes bank sug‘urta ishi, dengiz kemachiligi, ko‘chmas mulk operatsiyalari bilan trest faoliyati, eksport-import operatsiyalari bilan konsaltingda jamlanadi.

Majmuaviy hududlar alohida bir ma’muriy rayonlar hududida xo‘jalik yuritish rejimiga nisbatan alohida, imtiyozli rejim o‘rnatish yo‘li bilan tashkil qilinadi. Ularga Xitoyning 5 ta maxsus iqtisodiy hududlari: Braziliyadagi “Manaus” hududi, Argentinaning “Olovli er”, sanoati rivojlangan davlatlarning kam rivojlangan hududlaridagi erkin tadbirkorlik hududlarini misol qilib ko‘rsatish mumkin.

Turli ko‘rinishdagi EIH larning o‘xshash tomonlaridan biri tadbirkorlar uchun moliyaviy va bojxona, soliq imtiyozlari, shuningdek umumiy tartibga nisbatan ustunlikka ega bo‘lgan qulay investitsiya iqlimining mavjudligidir.

EIH larda imtiyoz va rag‘batlantirishlar o‘zlarining ba’zi jihatlari bilan farq qilib, ularni to‘rt asosiy guruhga ajratib o‘rganish mumkin:

tashqi savdo imtiyozlari. Bunga alohida bojxona-tarif rejimi kirib (ekport-import bojlarini kamaytirish yoki bekor qilish) unda tashqi savdo operatsiyalarini amalga oshirish tartiblari soddalashtiriladi.

soliq imtiyozlari. Bunda faoliyatning ma’lum ko‘rinishlari soliq imtiyozlari orqali rag‘batlantiriladi. Ya’ni soliq bazasi (daromad, mulk qiymati va h.k.lar), shuningdek uning tarkibiy qismlari (amortizatsiya ajratmalari, ish haqiga xarajat, transport), soliqqa tortilishdan yoki vaqtinchalik ozod qilinadi.

moliyaviy imtiyozlar. O‘z ichiga turli shakldagi subsidiyalarni oladi. Ularga kommunal xizmatlarni arzonlashtirish, er maydonlari va ishlab chiqarish binolari uchun ijara haqini kamaytirish kabi imtiyozli kreditlar kiradi.

ma’muriy imtiyozlar. Bunga korxonalarni ro‘yxatdan o‘tkazish va xorijiy fuqarolarning kelib-ketishlarini yengillashtirish, shuningdek xizmat ko‘rsatish uchun ma’muriyat tomonidan maxsus hududlarning ajratilishi kiradi.

EIH lar tashkil qilishning jahon tajribasi shuni ko‘rsatadiki, ularning umumiy yutuqlari va xususiyatlarini, shuningdek rivojlanishining o‘ziga xos tomonlari haqida ma’lum bir xulosalar chiqarishga imkon beradi.

Sanoati rivojlangan davlatlardagi erkin iqtisodiy hududlarning muvaffaqiyati ularning yaxshi rejalashtirilganligiga va boshqaruv tizimining moslashuvchanligiga bog‘liqdir. Jahon xo‘jaligidagi iqtisodiy holatlarning o‘zgarib turishi erkin iqtisodiy hududlarning rivojlanishiga ta’sir ko‘rsatib, ularga mos javob qaytarishni talab qiladi.

EIH lar tashkil qilinishi ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan foydalidir. Bu hududlar ko‘plab ish o‘rinlari tashkil qilishda, xalqaro tovar ayirboshlashni jonlantirishda, tashqi savdo natijalarini yaxshilaydi, ilmiy-ishlab chiqarish salohiyatini oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Jahon iqtisodiyotida rivojlanayotgan davlatlarda EIHlar bir qator o‘xshashliklarga ega bo‘lib, ular quyidagilardan iborat.

Birinchidan, bu davlatlarda eksport uchun ishlab chiqarish hududlari (EICHX) keng tarqalgan. Yuqorida aytilganidek, EICHX tashkil qilishga qator iqtisodiy sabablar, avvalambor, eksport uchun sanoat tovarlari ishlab chiqarishni rivojlantirish, mamlakatga xorijiy kapital, ilg‘or fan-texnika, zamonaviy texnik axborotlar vositalarini jalb qilish zarurati turtki beradi.

Ikkinchidan, erkin iqtisodiy hududlardagi xo‘jalik yuritish rejimi xorijiy ishbilarmonlar uchun erkinroq va imtiyozli bo‘ladi. Bu erkin iqtisodiy hududlar orasida xalqaro raqobatning kuchayishi bilan bog‘liq bo‘lgan jarayonlardan kelib chiqadi.

Uchinchidan, erkin iqtisodiy hududlar faoliyatida tovar-sanoat diversifikatsiyasi ro‘y beradi.

O‘zbekiston Respublikasining qonunida[16], erkin iqtisodiy zonalarining quyidagi turlarini rivojlantirish ko‘zda tutilgan:

erkin savdo zonalari;

erkin ishlab chiqarish zonalari;

erkin ilmiy-texnikaviy va boshqa zonalar.

Erkin savdo zonalari - konsignatsiya omborlarini, erkin bojxona zonalarini, shuningdek tovarlarga ishlov berish, ularni o‘rash-joylash, saralash, saqlash zonalarini o‘z ichiga oladi.

Erkin savdo zonalari chegaraga tutash punktlarda, aeroportlarda, temir yo‘l uzellarida yoki O‘zbekiston Respublikasi bojxona hududining boshqa joylarida tuziladi.

Erkin ishlab chiqarish zonalari - tadbirkorlikni rag‘batlantirish, iqtisodiyotning ustun tarmoqlariga chet el investitsiyalarini jalb etish, istiqbolli texnologiyalarni joriy etish maqsadida xo‘jalik-moliyaviy faoliyatning alohida tartiboti joriy etiladigan hududlardir.

Erkin ishlab chiqarish zonalari eksportga yo‘naltirilgan ishlab chiqarish zonalarini, agropolislarni, tadbirkorlik zonalarini, industrial-iqtisodiy zonalarni va boshqa zonalarni o‘z ichiga oladi.

Erkin ilmiy-texnikaviy zonalar alohida ajratilgan hududlardan iborat bo‘lib, u yerda ilmiy-ishlab chiqarish va o‘quv markazlari jamlanadi hamda ular uchun ilmiy va ishlab chiqarish imkoniyatini rivojlantirishga qaratilgan maxsus huquqiy tartibot o‘rnatiladi.

Erkin ilmiy-texnikaviy zonalar yuksak texnologiyalar amal qiladigan zonalar, texnoparklar, mintaqaviy innovatsiya markazlari - texnopolislar shaklida tashkil etiladi[17].

---

[16] O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 1996 y., 5-6-son, 58-modda; 2003 y., 5-son, 67-modda; O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2005 y., 49-50-son, 365-modda; 2006 y., 41-son, 405-modda; 2009 y., 39-son, 424-modda; 2015 y., 33-son, 439-modda; Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 19.04.2018 y., 03/18/476/1087-son O‘zbekiston Respublikasining 1996 yil 25 apreldagi “Erkin iqtisodiy zonalar to‘g‘risida”gi qonuni. 220-I-son, manba: http://lex.uz/acts/2046., 5-modda.

[17] O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 1996 y., 5-6-son, 58-modda; 2003 y., 5-son, 67-modda; O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2005 y., 49-50-son, 365-modda; 2006 y., 41-son, 405-modda; 2009 y., 39-son, 424-modda; 2015 y., 33-son, 439-modda; Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 19.04.2018 y., 03/18/476/1087-son O‘zbekiston Respublikasining 1996 yil 25 apreldagi “Erkin iqtisodiy zonalar to‘g‘risida”gi qonuni. 220-I-son. http://lex.uz/acts/2046., 6-8 moddalar.

6.2. Erkin iqtisodiy xududlarni yaratishda jahon tajribalari

Erkin iqtisodiy zonalarni tahlil qilganda, eng avvalo iqtisodiy faoliyat ishtirokchilari mazkur hududlarni tashkil etishdan qanday naf ko‘rishlarini qarab chiqish talab etiladi.

6.2.-jadval. Erkin iqtisodiy zonalarni tashkil etishdan ko‘riladigan natijalar va unga undovchi motivlar[18]

EIZ sub’ekt-lari	Motivlar
Davlat	Mamlakat uchun ustuvor bo‘lgan faoliyat sohalarida bilim va tajribalardan keng ko‘lamda foydalanishni ta’min etuvchi intellektual salohiyatni barqaror iqtisodiy rivojlanishning asosiy o‘sish nuqtalariga aylantirish; milliy shu jumladan dunyoviy ahamiyatga ega bo‘lgan yangi texnologiyalarni ishlab chiqish va mahsulotlarni yaratish; davlat-xususiy sherikchilik orqali sinergetik samaraga erishish; uzoq muddatli istiqbolda soliqlar evaziga xarajatlarni qoplash
Hudud	Hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan rivojlantirish; hududning umumxo‘jalik infratuzilmasini shakllantirish; hudud iqtisodiyotining texnologik tuzilmasini yaxshilash; hududning asosiy xo‘jalik faoliyati bilan bir qatorda aralash tarmoq va sohalarni rivojlantirish
Korxona	Foydani ko‘paytirish, xarajatlarni qisqartirish; mahsulot eksporti; barqaror xo‘jalik yuritish kafolati; preferensiyalar; infratuzilma ob’ektlari va mavjud resurslardan keng foydalana olish imkoniyati; ilg‘or texnika va texnologiyalarni joriy etish; innovatsion va intellektual mulk mahsulotlarini ishlab chiqishda ishtirok etish; ilmiy-tadqiqot ishlanmalariga talab va buyurtmalarni ko‘paytirish
Mahalliy aholi	Bandlik darajasi va ish haqi miqdorining o‘sishi; yuqori malakali ishchi kuchiga talabning ortishi; texnologik ish o‘rinlarining barpo etilishi; ta’lim olish va boshqa ijtimoiy xizmatlar sifatining oshishi

4-jadvalda erkin iqtisodiy hududlarni tashkil etishdan ishtirokchi tomonlar ko‘rishlari mumkin bo‘lgan natijalar keltirib o‘tilgan.

[18] Tahlil natijalari asosida mualliflar ishlanmasi

Jahon tajribasini o‘rganish shuni ko‘rsatadiki, bugungi kunda jahon xo‘jaligida mamlakatlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishida erkin iqtisodiy zonalar o‘rni muhim ahamiyat kasb etadi.

EIZlar nafaqat rivojlanib kelayotgan davlatlar hududida, balki sanoati rivojlangan mamlakatlarda, yangi industrial mamlakatlarda hamda o‘tish iqtisodiyoti davrida bo‘lgan mamlakatlarda mavjud bo‘lib, ularning boy tajribasidan to‘g‘ri foydalanish hozirgi zamon davr talabiga mos keldi.

Shu jihatdan mamlakatimizda erkin iqtisodiy zonalarni tashkil etish va rivojlantirish jarayonini uzviy olib borish, bunda yetakchi xorijiy davlatlar tajribasini, xususan jahon xo‘jaligida erkin iqtisodiy zonalarni tashkil etish va rivojlantirish bo‘yicha ilg‘or tajribaga ega bo‘lgan mamlakatlarning tajribasini o‘rganish va ayniqsa ushbu tajribadan samarali foydalanish, mamlakatimizda erkin iqtisodiy zonalarning yangi turlarini tashkil etish va mavjudlarini rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etishi mumkin.

Bugungi kunda Ozarbayjonda erkin iqtisodiy zonalar mavjud bo‘lmasada, mamlakatda erkin iqtisodiy zonalar faoliyatini tartibga soluvchi huquqiy asos yaratilgan. Maxsus iqtisodiy hududlarni tashkil etish va boshqarish bilan bog‘liq bo‘lgan munosabatlar va shuningdek, mazkur hududlarda tadbirkorlik faoliyatini tashkil etish masalalari Ozarbayjon Respublikasining 2009 yil 14 apreldagi “Maxsus iqtisodiy zonalar to‘g‘risida”gi № 791-IIIQ Qonuni bilan tartibga solinadi.Mazkur qonunga ko‘ra, maxsus iqtisodiy zonalarni tashkil etishdan ko‘zlangan asosiy maqsad maxsus huquqiy rejim va ilg‘or texnologiyalardan foydalanish asosida yangi raqobatbardosh ishlab chiqarish va xizmat ko‘rsatish sohalarini tashkil etish evaziga iqtisodiyot va tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishdan iboratdir. Ozarbayjon Respublikasi Prezidentining 2009 yil 3 iyundagi “Ozarbayjon Respublikasining “Maxsus iqtisodiy zonalar to‘g‘risida”gi Qonunini kuchga kiritish to‘g‘risida”gi №101 sonli Farmoni bilan maxsus iqtisodiy zonalarni tashkil etish va ularning faoliyatini boshqarish bilan bog‘liq bo‘lgan davlat siyosatini Ozarbayjon Respublikasining Iqtisodiy rivojlanish vazirligi amalga oshiradi. Istiqbolda Ozarbayjon Respublikasining investitsion salohiyatini oshirish, neft mahsulotlari eksportini rag‘batlantirish maqsadida Geydar Aliev nomidagi xalqaro aerovokzal hududida maxsus iqtisodiy zona tashkil etish ko‘zda tutilgan.

Armanistonda erkin iqtisodiy zonalar mamlakat iqtisodiyoti uchun muhim bo‘lgan strategik soha va tarmoqlarda biznesning hech qanday ortiqcha cheklovlarsiz rivojlana olishi uchun qulay shart-sharoitlarni yaratish maqsadida tashkil etiladi. Xususan, erkin iqtisodiy zonalar mahsulot va xizmatlarning cheklovlarsiz xalqaro bozorlarga eksport qilinishini, yuqori bo‘lmagan soliq yuki sharoitida ishlab chiqarishni tashkil qilish va mahsulotlarni sotishni yo‘lga qo‘yishga imkon beradi, innovatsion yondashuv va ilg‘or texnologiyalarni iqtisodiyot soha va

tarmoqlariga joriy etishni rag‘batlantiradi va shu bilan bir qatorda katta ijtimoiy samara beradi. Armanistonda yuqorida tilga olib o‘tilgan maqsad va vazifalarga erishish, erkin iqtisodiy zonalarning faoliyatini samarali tashkil etish maqsadida tegishli huquqiy asoslar yaratilgan. Bu borada Armanistonda 2011 yil 25 mayda “Erkin iqtisodiy zonalar to‘g‘risida” Qonun qabul qilingan.

Qabul qilingan qonunga muvofiq, Armaniston Respublikasi Hukumatining tegishli ruxsatnomasi asosida faqatgina erkin iqtisodiy zona hududida faoliyat ko‘rsatuvchi tijoratchi-yuridik shaxslar, xorijiy davlatlarning vakolatxonalari, xorijiy korxona va tashkilotlarning filiallari va xususiy tadbirkorlar tegishli biznes-rejalar va tashkilotchi bilan tuzilgan shartnoma asosida faoliyat ko‘rsatishlari mumkin[19.]

“Erkin iqtisodiy zonalar to‘g‘risida”gi Armaniston Respublika-sining Qonuni va mamlakat soliq qonunchiligi asosida erkin iqtisodiy zona ishtirokchilari uchun bir qator imtiyozlar berilgan. Jumladan, ishtirokchilar foyda solig‘i, mol-mulk solig‘i, QQS va bojxona poshlinalarini to‘lashdan butkul ozod qilinganlar. Armaniston Jahon savdo tashkilotining a’zosi sifatida (2003 yil 5 fevraldan buyon) boj to‘lovlarini keskin qisqartirdi va amaldagi bojxona tizimida islohotlar amalga oshirmoqda. Import uchun talab etiluvchi hujjatlar sonini to‘qqiztadan uchtagacha qisqartirilganligi, bojxona deklaratsiyasini rasmiylashtirishning elektron tizimga o‘tkazilganligi va mamlakatga olib kirilayotgan tovarlarni ko‘zdan kechirish uchun maxsus “yo‘laklar” tashkil etilganligini bunga yaqqol misol bo‘la oladi. Armanistonning boshqa hududlarida xorijiy valyutada savdo qilish cheklangan bo‘lsada, erkin iqtisodiy zona hududida savdo erkin konvertatsiyalanuvchi valyutada amalga oshiriladi. Erkin iqtisodiy zona hududida davlat xizmatlari “bir darcha” tamoyili asosida ko‘rsatiladi. Bugungi kunda Armanistonda yuqori texnologiyalar, zargarlik va qishloq xo‘jalik sohasida 3 ta erkin iqtisodiy zona faoliyat ko‘rsatmoqda.

Belorussiyada erkin iqtisodiy zonalarni tashkil etish jarayoni ancha oldin boshlangan. 1990 yilda Brest, Mogilev, Gomel oblastlarining rahbarlari o‘z hududlarida erkin iqtisodiy zona tashkil etish tashabbusi bilan chiqishgan. Keyinchalik esa “Minsk-2” aeroporti hududida erkin savdo hududini tashkil etish varianti muhokama qilina boshlagan bo‘lsada, mamlakatda erkin iqtisodiy zonalarni tartibga soluvchi huquqiy baza bo‘lmaganligi bois, bu jarayon 1996 yilga qadar ancha sust kechgan. 1996 yilda Belorus Respublikasi Prezidentining “Belorus Respublikasi hududida erkin iqtisodiy zonalar to‘g‘risida”gi Farmoni, 1997 yilda mamlakat

[19] Источник: Информационный бюллетень Министерства экономики Республики Армения «Свободные экономические зоны в Республике Армения»

hukumatining “Belorus Respublikasi hududida erkin iqtisodiy zonalar faoliyatini tashkil etish konssepsiyasi to‘g‘risida”gi Qarori qabul qilindi. 1998 yilga kelib, mamlakatda “Erkin iqtisodiy zonalar to‘g‘risida”gi Qonun qabul qilindi. Bugungi kunda mamlakat hududida «Brest» (1996 y.), «Gomel-Raton» va «Minsk» (1998 y.), «Vitebsk» (1999 y.), «Mogilev» va «Grodnoinvest» (2002 y.) erkin iqtisodiy zonalari faoliyat ko‘rsatmoqda. Mamlakat hududida faoliyat ko‘rsatuvchi erkin iqtisodiy zonalarning barcha rezidentlari uchun bir xil maxsus huquqiy rejim o‘rnatilgan bo‘lib, ular erkin iqtisodiy zona rezidenti sifatida ro‘yxatga olingan sanadan boshlab etti yil davomida o‘zgarmay amal qiladi.

Erkin iqtisodiy zona rezidentlari uchun bir qator imtiyozlar ko‘zda tutilgan. Xususan, rezidentlar: foyda olishni boshlaganlarini e’lon qilgan sanadan boshlab keyingi besh yil davomida realizatsiya qilingan mahsulotlar hajmidan kelib chiqqan holda foyda solig‘idan ozod qilinadilar; import o‘rnini bosuvchi ishlab chiqarish mahsulotlarini realizatsiya qilishda QQS 10 % miqdorida hisoblanadi; rezidentlar joriy yilning o‘tgan choragida ko‘rsatilgan faoliyat turlari bo‘yicha faoliyat ko‘rsatsalar erkin iqtisodiy zona hududida joylashgan ko‘chmas mulk ob’ektlariga soliq to‘lashdan ozod qilinadilar; erkin iqtisodiy zona hududiga joylashtiriluvchi asbob-uskuna va tovarlar bo‘yicha boj to‘lovlarini to‘lashdan ham ozod qilinadilar; investitsion loyihalarni amalga oshirish uchun zarur bo‘lgan er uchastkalari bo‘yicha imtiyozli ijara shartlari belgilanadi; besh yilgacha rezidentlar investitsion loyihalar bo‘yicha ob’ektlar qurish uchun ajratilgan er uchastkalariga er solig‘i to‘lashdan ozod qilinadilar; valyuta tushumlari erkin tasarruf etiladi; rezidentlar uchun mamlakat hududida mehnat faoliyatini olib borishlari borasida ruxsatnomalar olish tartibi yengillashtiriladi.

Tegishli investitsion loyihani amalga oshirish uchun kamida bir million yevro mablag‘ tikuvchi xo‘jalik yurituvchi sub’ekt mamlakatda erkin iqtisodiy zona rezidenti sifatida ro‘yxatga olinadi. Erkin iqtisodiy zona rezidenti sifatida ro‘yxatdan o‘tish uchun topshirilgan hujjatlar ikki haftadan ko‘p bo‘lmagan muddatda ko‘rib chiqiladi. Mamlakatdagi mavjud erkin iqtisodiy zonalarda o‘z faoliyatini amalga oshiruvchi investorlar orasida Rossiya Federatsiyasi (19,3%), Buyuk Britaniya (14,3%), Polsha (8,4%), Germaniya (15,3%) kabi davlatlarning investorlari mavjud.

Qozog‘istonda erkin iqtisodiy zonalarni yaratish tarixi 1990 yilning noyabr oyidan boshlangan. 1990 yilda “Qozog‘iston SSRda erkin iqtisodiy zonalar to‘g‘risida”gi Qonun qabul qilingan. Dastlabki erkin iqtisodiy zonalar Qozog‘istonning Jezqozg‘on (Jayrem-Atasuy), Toldiqo‘rg‘on (Alakul va Jarkent), Ko‘stanay viloyati (Lisakov)larida 1991-1992 yillarda o‘z faoliyatini boshlagan bo‘lsada, erkin iqtisodiy zonalarni tashkil etish borasida huquqiy asosning etarli emasligi bois, mazkur zonalar uncha uzoq faoliyat ko‘rsata olmadi. Bugungi kunda

Qozog‘istonda erkin iqtisodiy zonalar faoliyati quyidagi me’yoriy-huquqiy hujjatlar bilan tartibga solinadi:

- Qozog‘iston Respublikasining Yer kodeksi (2003 yil 20 iyunda qabul qilingan);
- Qozog‘iston Respublikasining 2008 yil 10 dekabrda qabul qilingan Soliq kodeksi;

Manba: **“**KAZNEX INVEST” eksport va investitsiyalar bo‘yicha milliy agentlik

6.2.-rasm. Qozog‘istonda erkin iqtisodiy zonalarning joylashishi va ixtisoslashuvi

- Qozog‘iston Respublikasining 2010 yil 30 iyunda qabul qilingan Bojxona kodeksi;
- Bojxona ittifoqining bojxona hududida erkin iqtisodiy zonalarning faoliyatini tashkil etish masalalariga doir kelishuv (Sankt-Peterburg, 2010 yil 18 iyun);
- Qozog‘iston Respublikasining 2011 yil 21 iyulda qabul qilingan “Qozog‘iston Respublikasining alohida iqtisodiy zonalari to‘g‘risida”gi Qonuni.

Bugungi kunda Qozog‘istonda 10 ta maxsus iqtisodiy zonalar faoliyat ko‘rsatmoqda, mazkur zonalarni shartli ravishda uchta guruhga bo‘lishimiz mumkin:

1.Sanoat-ishlab chiqarish zonalari- – “Oqtov dengiz porti” (2002y.), „Оңтүstik“ (2005 y.),“Milliy industrial neft-kimyo texnoparki”(2008 y.),”Ostona – yangi shahar” (2001g.), “Pavlodar” (2011y.), “Xorgos-SHarqiy darvoza” (2011y.) va “Taraz” kimyo parki (2013y.);

2.Servis zonalar - “Burabay” (2008y.) va “Ostona-yangi shahar” zonasining qurilish subzonasi;

3.Texnik-joriy qiluvchi zona – “Innovatsion texnologiyalar parki” (2003y.).

Mazkur zonalarning har birining amal qilish muddatlari, tashkil etish maqsadlari va ixtisoslashuvi bir-biridan farq qiladi.

Qozog‘iston Respublikasining qonunchiligida erkin iqtisodiy zona ishtirokchisi

maqomini olish va ularga berilayotgan imtiyozlardan foydalana olishlari uchun mahalliy va xorijiy kompaniyalarga bir xil talablar qo‘yilgan.

Qozog‘iston Respublikasining Soliq kodeksiga muvofiq, erkin iqtisodiy zonalarning ishtirokchilari: korporativ daromad solig‘i; mol-mulk solig‘i; er solig‘i; erkin iqtisodiy zona hududida ishlab chiqariluvchi va erkin iqtisodiy zonalarni tashkil etishdan ko‘zlangan maqsadlar doirasida to‘laligicha zona ishtirokchilari tomonidan iste’mol qilinuvchi tovarlar QQS to‘lashdan ozod qilinadilar.

“Innovatsion texnologiyalar parki” ishtirokchilari uchun bir qator qo‘shimcha imtiyozlar ko‘zda tutilgan: ijtimoiy soliqlar 100%ga kamaytirilgan; dasturiy ta’minot sohasi bo‘yicha ishlatiluvchi asbob-uskuna va jihozlarga nisbatan 15 foizdan 40 foizgacha amortizatsiya me’yorlarini oshirish ko‘zda tutilgan. “Innovatsion texnologiyalar parki” ishtirokchilari erkin iqtisodiy zonalar hududidan tashqarida ham joylashishlari mumkin bo‘lgani holda, QQS va bojxona to‘lovlaridan tashqari barcha soliq imtiyozlaridan foydalanadilar.

Soliq imtiyozlarini olish uchun erkin iqtisodiy zonalarning ishtirokchisi bir paytning o‘zida quyidagi talablarga javob berishi lozim:

Erkin iqtisodiy zona joylashgan hududdagi soliq idoralarida soliq to‘lovchi sifatida ro‘yxatdan o‘tish;

Erkin iqtisodiy zona hududidan tashqarida tarkibiy bo‘linmalarga ega bo‘lmaslik;

Erkin iqtisodiy zonaning ustuvor faoliyat turlari bo‘yicha ishtirokchilar tomonidan ishlab chiqarilgan tovarlarni realizatsiya qilishdan olingan daromad ishtirokchi yillik daromadining kamida 90 foizini tashkil qilishi lozim (Innovatsion texnologiyalar parki uchun -70%).

Moldaviyada erkin iqtisodiy zonalarni tashkil etishda erkin iqtisodiy zonalarni tashkil etishning Xitoy tajribasidan keng foydalanilgan.

Moldaviyada erkin tadbirkorlik zonalari (erkin iqtisodiy zonalar) bojxona hududi maqomiga ega bo‘lgani holda, imtiyozli bojxona, soliq, valyuta, viza va mehnat rejimi amal qiladi. Moldova Respublikasida bugungi kunda yettita erkin tadbirkorlik zonalari (“Ekspo-Biznes-Kishineu”, “Ungen-Biznes”, “Otach- Biznes”, “Tarakliya”, “Tvarditsa”, “Valkanesh”, “Belso’”) va shuningdek, xalqaro erkin porti “Djurdjulesht” va erkin savdo zonasiga xos bo‘lgan belgilarga ega bo‘lgan “Merkulesht” xalqaro aeroporti faoliyat ko‘rsatadi.

Erkin tadbirkorlik zonalarida quyidagi faoliyat turlari amalga oshirilishi mumkin:

- eksportga yo‘naltirilgan mahsulotlarni ishlab chiqarish, etil spirti va alkogolli mahsulotlardan tashqari;

- Moldova Respublikasining bojxona hududi orqali tranzit qilinuvchi tovar-larni saralash, qadoqlash, markirovka qilish kabi operatsiyalarni amalga oshirish;

- tashqi savdo faoliyati;

Erkin tadbirkorlik zonalari ishtirokchilarining faoliyatini amalga oshirish uchun zarur bo‘lgan qurilish, umumiy ovqatlanish, kommunal xizmatlar ko‘rsatish kabi faoliyat turlarini amalga oshirish.

Moldova Respublikasida erkin iqtisodiy zona ishtirokchilarining zona hududida ishlab chiqarilgan o‘z mahsulotlarini eksport qilishdan olingan daromadlari erkin tadbirkorlik zonalaridan tashqari faoliyat ko‘rsatuvchi sub’ektlarga o‘rnatilgan stavkaning 50 foizi miqdorida soliqqa tortiladi. Erkin iqtisodiy zonalar ishtirokchisining daromadlari Moldova Respublikasida belgilangan soliq stavkasining 75%i miqdorida undiriladi.

Kamida 1 million AQSH dollari ekvivalenti miqdorida erkin tadbirkorlik zonalarining infratuzilmasini rivojlantirish yoki o‘z korxonalarining asosiy kapitalini yangilashga investitsiya kiritgan ishtirokchi investorlar tovar va xizmatlar eksporti bo‘yicha olingan daromadlari daromad solig‘idan 3 yildan besh yilgacha ozod qilinadilar.

Erkin tadbirkorlik zonalariga import qilinuvchi tovar va xizmatlar, erkin tadbirkorlik zonalaridan eksport qilinuvchi tovar va xizmatlar nol stavka bo‘yicha QQS to‘laydilar.

O‘z faoliyatini amalga oshirish davomida “Ungen-biznes” i “Ekspo-Biznes-Kishinev” erkin iqtisodiy zonalari eng ko‘p investitsiya jalb qilishgan (umumiy investitsiyalar hajmining mos ravishda 28,7% va 26,7%i).

Rossiyaning tarixida dastlabki erkin iqtisodiy zonalar 1990 yillardayoq paydo bo‘lgan va keyinchalik 15 yil mobaynida ularning yaratilishi va faoliyat yuritish jarayoni tizimsiz amalga oshirilgan. Bu qonuniy bazaning yetishmasligi va mintaqalar va federal markazlarning erkin hududlar uchun maksimal imtiyozlar va ularni nazorat qilish huquqini doimiy ravishda davom ettirishi bilan bog‘liq edi.

Biroq hozirgi paytda vaziyat tubdan o‘zgardi, Rossiyada erkin (maxsus) iqtisodiy zonalarni rivojlantirish bo‘yicha loyihaning yangi bosqichi boshlandi.

6.3.-jadval. Rossiyada MIZning asosiy xususiyatlari[20]

Maxsus iqtisodiy zona joylashuvi	Ixtisoslashganligi	Iqtisodiy zona infrastrukturasiga davlat investitsiyalari
Sankt-Peterburg	Dasturiy ta’minot, aloqa vositalari va maishiy elektronika ishlab chiqarish. Analitik vositalar yaratish va ishlab chiqarish.	Taxminan 1,5 mlrd rubl, shu jumladan federal byudjetdan 50 foiz

[20] http://www.grandars.ru/shkola/geografiya/svobodnaya-ekonomicheskaya-zona.html

Moskva viloyati, Dubna shahri	Elektron asbob-uskunalar, yangi uchish apparatlarini loyihalash, muqobil energiya manbalarini rivojlantirish.	2,5 mlrd rubl, shu jumladan, federal byudjetdan 65 foiz
Zelenograd	Mikrosxemalarni ishlab chiqish va o‘zlashtirish, aqlli navigatsiya tizimlari.	5 mlrd. rubl, shu jumladan federal byudjetdan 50 foiz
Tomsk	Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, elektron va tibbiy texnologiyalar, shuningdek, yangi materiallarni ishlab chiqarish	Taxminan 1,9 mlrd rubl, (federal byudjetning 70 foizi)
Lipetsk	maishiy jihozlari va uning qismlari ishlab chiqarish	1,8 mlrd rubl, (federal byudjetning 42 foizi)
Elabuga, Tatariston	Avtomobil komponentlari, avtobuslar, maishiy texnika ishlab chiqarish. yuqori texnologik kimyo mahsulotlari.	1,6 milliard rubl, (federal byudjetning 49 foizi)

Yangi bosqichning boshlanishi “Rossiya Federatsiyasining maxsus iqtisodiy zonalari to‘g‘risida” 2005 yil 22 iyuldagi 116-FZ-sonli federal qonuni qabul qilinishi bilan bog‘liq.

Ushbu qonun Rossiyada maxsus iqtisodiy hududlarni yaratish va faoliyat yuritish uchun Yagona huquqiy asos hisoblanadi.

Xorijiy va mahalliy kompaniyalarining investitsiyalarini jalb qilish; mintaqaviy rivojlanishni rag‘batlantirish; yuqori texnologiyali ishlab chiqarish va xizmat sohalarini rivojlantirish; yuqori malakali ish o‘rinlarni tashkil etish mamlakatda erkin iqtisodiy hududlarni tashkil etishdan ko‘zlangan asosiy maqsad hisoblanadi.

“Rossiya Federatsiyasidagi maxsus iqtisodiy zonalar to‘g‘risida”gi federal qonun ikki turdagi sanoat ishlab chiqarish va texnik joriy etish maxsus iqtisodiy zonalar tashkil etishni nazarda tutadi.

Maxsus iqtisodiy zona hududida faqat ushbu Qonun bilan, shuningdek Rossiya Federatsiyasi Hukumati qarorlari bilan nazarda tutilgan faoliyatni amalga oshirishga ruxsat etiladi.

Rossiya Federatsiyasining 116-FZ-sonli qonuni maxsus iqtisodiy zonalarni soliqqa tortishning asosiy prinsiplarini belgilaydi, ularning asosiy qismi soliq imtiyozlari berish hisoblanadi.

Eksport ishlab chiqarish zonalari ishtirokchilari Federatsiya sub’ektlari tomonidan mahalliy soliqlar hisobiga to‘ldiriladigan federal soliq imtiyozlari bilan ta’minlanadi:

ro‘yxatga olingan kundan boshlab 5 yil muddatga daromad solig‘idan ozod qilish;

5 yil o‘tgach investitsiyaga yo‘naltirilgan daromad miqdori bo‘yicha soliqqa tortiladigan daromadni kamaytirish;

Rossiya Federatsiyasida sotiladigan o‘z ishlab chiqargan tovarlarga qo‘shilgan qiymat solig‘ining 50 foizi (ro‘yxatga olingan kundan boshlab 5 yil mobaynida);

Yuklarni tashishda QQSdan ozod qilish.

Bugungi kunda Rossiya Federatsiyasida to‘rtta tipga mansub bo‘lgan 22 ta maxsus iqtisodiy zonalar faoliyat ko‘rsatmoqda:

- 5 ta texnik-joriy etuvchi - Zelenograd, Dubna, Tomsk, Sankt-Peterburg, Tatariston Respublikasi (“Innopolis”);
- 7 ta sanoat-ishlab chiqarish- Vladivostok, Lipetsk, Tatariston Respublikasi (“Alabuga”), Samara oblasti (“Tolyatti”), Sverdlovsk oblasti (“Titan vodiysi”), Pskov oblasti (“Moglino”), Kaluga oblasti (“Lyudinovo”);
- 7 ta turistik-rekratsion- Oltoy Respublikasi (“Oltoy vodiysi”), Buryatiya Respublikasi (“Baykal gavani”), Oltoy o‘lkasi (“Biryuzovaya Katun”), Stavropol o‘lkasi (“Grand Spa YUsa”), Irkutsk oblasti (“Baykal darvozasi”), Primore o‘lkasi (“Ostrov Russkiy”), Krasnodar o‘lkasi va Adigey Respublikasidagi turistik klasterlar;
- 3 ta port (Murmansk oblasti, Xabarovsk o‘lkasi –dengiz portlari, Ulyanovsk–aeroport).

Maxsus iqtisodiy zonalar hududida 25 ta mamlakatning 300 dan ortiq investorlari o‘zlarining investitsion loyihalarini amalga oshirmoqdalar. Maxsus iqtisodiy zonalar hisobiga mamlakatda 58000 yangi ish o‘rinlarini yaratish ko‘zda tutilgan.

Rossiya maxsus iqtisodiy zonalari faoliyatiga o‘z soha va tarmoqlarida yetakchi bo‘lgan yuqori texnologiyali kompaniyalar, texnologik va industrial parklarni, havo va dengiz portlarini boshqarish borasida katta tajribaga ega bo‘lgan professional boshqaruvchi kompaniyalar va developerlar faol jalb qilib kelinmoqda.

Sanoat-ishlab chiqarish va turistik-rekratsion zonalarning investorlari asosiy vositalarga yuqori koeffitsient belgilagan holda, tezkor amortizatsiyani qo‘llash huquqiga ega.

Maxsus iqtisodiy zonalarning muhandislik, transport, ijtimoiy, bojxona va boshqa infratuzilma ob’ektlari byudjet mablag‘lari (federal byudjet, Rossiya Federatsiyasi sub’ektlari byudjeti, mahalliy byudjet) va byudjetdan tashqari mablag‘lar hisobiga yaratiladi.

Xitoy so‘nggi 25-30 yil davomida olib borilgan samarali va oqilona islohotlar natijasida iqtisodiyoti jadal rivojlanib kelib, bugungi kunda dunyoning kuchli ikkinchi davlatiga aylandi. Ushbu natijalar zamirida milliy iqtisodiy rivojlantirishning “Xitoy modeli”, xorijiy investorlar uchun olib borilgan “Ochiq eshiklar” siyosati va albatta mamlakatda tashkil etilgan erkin iqtisodiy zonalarning o‘rni juda katta.

Xitoyda erkin iqtisodiy zonalarni tashkil etish va rivojlantirishning birinchi bosqichi 1978-1982 yillarda amalga oshirilib, bunda xorijiy kapital jalb qilishning shartnomaviy-huquqiy asoslari yaratildi.

1982 yilda aniqlangan xorijiy investitsiyalar uchun ma'qul sohalar ro'yxati asosida xorijlik ishbilarmonlar faoliyatini tartibga solish va nazorat qilish organlarini tashkil etish bosqichi uzoq davom etmadi, biroq mamlakat iqtisodiyotini "ochishda" muhim bosqich bo'ldi. Bu Xitoyga xorijiy investitsiyalarning kirib kelishini tartibga solishning tashkiliy va qonuniy asoslarini yaratish imkonini berdi. Aynan shu bosqichda uzoq muddatli iqtisodiy siyosatning Xitoyga xos xususiyatlari va mamlakat iqtisodiyotini tashqi dunyoga maksimal ochish imkoni o'rtasidagi muvozanatni saqlash jarayonlari sinovdan o'tdi. Bu tajribani amalga oshirish aniq masalalar va sharoitlardan kelib chiqqan holda muvaffaqiyatli qo'llanilmoqda.

Birinchi bosqichda dastlabki maxsus iqtisodiy zonalar Shenchjen, Chjuxay, Shantou va Syamin tashkil etildi.

Ikkinchi bosqich 1983-1989 yillarni o'z ichiga olib, birinchidan xorijiy investorlar bilan shartnomaviy-huquqiy asosdagi hamkorlikning takomillashuvi, ikkinchidan xorijiy kapitalni jalb qilish va undan foydalanish davlat siyosatining erkinlashtirilishi bilan ajralib turadi.

Ikkinchi bosqich oxirida mamlakatda imtiyozli investitsiya tartibi joriy qilingan hududlarni kengaytirdi. Biroq, bunda hukumat xorijiy investitsiyalarni mintaqaviy va soha ustuvorligi asosida amalga oshirdi[21].

Shunday qilib, Xitoy erkin iqtisodiy zonalarining asosiy rivojlanish xususiyatlari quyidagilardan iborat:

birinchidan, bozor tamoyillari asosida mustaqil iqtisodiy rivojlanish;

ikkinchidan, xorijiy kapital qo'yilmalariga tayanib faoliyat ko'rsatish;

uchinchidan, zamonaviy ishlab chiqarish tarmoqlarida sanoatning ustunlik qilishi;

to'rtinchidan, ishlab chiqarishni eksportga yo'naltirib, chet el xomashyosini jalb qilish;

beshinchidan, milliy hududlarni qamrab olish;

oltinchidan, EIZlarni mamlakatning qolgan qismlari bilan o'zaro aloqasini kengaytirishdan;

ettinchidan, soliq tizimini EIZlarning mintaqaviy xususiyatiga ko'ra turlarga bo'lishdan iborat[22].

---

[21] Н.А. Козлова. Функционирование свободно экономических зон в Китае. Вестник \Приамурьского государственного университета. https://cyberleninka.ru/article/v/funktsionirovanie-svobodnyh-ekonomicheskih-zon-v-kitae

[22] Н.А. Козлова. Функционирование свободно экономических зон в Китае. Вестник \Приамурьского государственного университета. https://cyberleninka.ru/article/v/funktsionirovanie-svobodnyh-ekonomicheskih-zon-v-kitae

Bugungi kunda Xitoyda 250 dan ortiq davlat ahamiyatidagi va 2000 ga yaqin mahalliy darajadagi erkin iqtisodiy zonalar mavjud, mamlakatda 29 ta erkin yuqori texnologiyalarni rivojlantirish hududi mamlakat miqyosida bir tekisda taqsimlangan. Ya'ni, bu borada mamlakatda hududiy biryoqlamalik oldi olingan. Mamlakatda bunday taqsimlanish fan-texnika yutuqlarin barcha erkin iqtisodiy rivojlanish hududlarida tajribadan o'tkazish imkonini beradi. Bunday iqtisodiy hududilarning barchasi o'z-o'zini iqtisodiy mablag' bilan ta'minlashga qaratilgan bo'lib, bunday hududlarga xorijiy investitsiyalarning kiritilishi ham muhim ahamiyat kasb etdi. Shu bilan bir qatorda bu hududlarda joylashgan korxonalar soliq va bojxona imtiyozlariga ega bo'lib, ushbu korxonalarda boshqaruv apparatining barcha mulk ko'rinishlaridagi loyihalari sinovdan o'tkaziladi.

Janubiy Koreyada erkin iqtisodiy zonalarni tashkil etish borasidagi dastlabki urinishlar ancha muvaffaqiyatli chiqdi. 1970 va 1974 yillarda Masan va Iksan shaharlarida Koreya hukumati erkin eksport zonalari (FREE EXSPORT ZONE) sifatida ikkita zonani ta'sis qildi. O'sha davrdagi mamlakat qonunchiligiga muvofiq, ular xorijiy investitsiyalarni jalb qilish va eksport mahsulotlari hajmini oshirish hisobiga milliy va mahalliy iqtisodiyotning rivojlanishiga turtki berishi lozim edi. Soliq imtiyozlari va ijara to'lovlari qiymatining pastligi investorlarni jalb qilishda eng muhim o'rin tutgani holda, o'zining ijobiy natijasini berdi. 1999 yilda birgina Masan shahrida joylashgan erkin eksport zonasida eksport hajmi 4,53 milliard dollarni tashkil etdi, 4,28 milliard dollarlik elektronika mahsulotlari (Koreyada ishlab chiqarilgan elektronika mahsulotlarining 95,1%i), 259 million dollarlik mashinasozlik va 121 million dollarlik tekstil mahsulotlari ishlab chiqarildi.

Koreya Respublikasida iqtisodiy, ishlab chiqarish, ilmiy-texnik va xo'jalik faoliyatini yuritishning alohida rejimiga ega bo'lgan hududlarni tashkil etishdan ko'zlangan asosiy maqsad sanoatning yuqori texnologik tarmoqlariga xorijiy investitsiyalar oqimining ko'payishini ta'min etuvchi investitsion iqlimning yaxshilanishini ta'min etishdan iboratdir.

Bugungi kunda mamlakat qonunchiligiga ko'ra, maxsus iqtisodiy zonalarning beshta turi ko'zda tutilgan bo'lib, unda xorijiy investorlarga ayrim hollarda esa koreys kompaniyalariga xo'jalik faoliyatini yuritishda preferensiyalar beriladi. Xususan, bugungi kunda mamlakatda Erkin savdo zonalari (Free Trade Zone); Erkin iqtisodiy zona (Free Economic Zone); Xorijiy investitsiya zonasi (Foreign Investment Zone); Bojsiz savdo zonasi (Customs Free Zone); xorijiy investorlar uchun industrial kompleks (Industrial Complex for foreign investors) faoliyat ko'rsatadi. Mazkur zonalarning har biri alohida qonunchilik hujjati bilan tartibga solinsada, bunday hududlarning barchasida 2001 yilning 7 aprelida qabul qilingan №6460-sonli "Xorijiy investitsiyalarni rag'batlantirish to'g'risida" (Foreign Investment Promotion Act)gi Qonun birdek amal qiladi.

Bugungi kunda Koreya Respublikasida Debul, Dongxe, Gime, Gunsan, Masan, Ulsan i Iulchon erkin savdo zonalari faoliyat ko‘rsatadi. Erkin savdo zonalaridagi kompaniyalar xomashyo va import qilinuvchi asbob-uskunalar uchun soliqlar to‘lashdan butunlay ozod qilingan.Qonunchilikka muvofiq, erkin savdo zonasida joylashgan kompaniyalar agar ishlab chiqarish sohasi uchun 10 mln. AQSH dollari yoki logistika markazlarini rivojlantirish uchun 5 mln. AQSH dollaridan ko‘proq investitsiya kiritsalar yetti yil mobaynida yoki birinchi foyda olganlariga qadar daromad solig‘i va korporativ soliq to‘lashdan ozod qilinadilar. Keyingi uch yil mobaynida ularga soliqlar to‘lashda 50%lik chegirma beriladi. Bundan tashqari uch yil mobaynida import qilinuvchi tovarlar to‘laligicha QQS va aksiz solig‘i va shuningdek, bojxona poshlinalarini to‘lashdan ozod qilinadi.

Bugungi kunda Janubiy Koreyada rivojlanishning turli bosqichlaridan bo‘lgan 8 ta erkin iqtisodiy zonalar faoliyat ko‘rsatmoqda.

Koreys hukumati erkin iqtisodiy zonalarni tartibga soluvchi maxsus soliq qonunchiligi (Special Tax Treatment Control Act) asosida xorijiy investorlarga ko‘plab imtiyozlar berilgan. Jumladan mazkur qonun korporativ soliq va daromad solig‘idan ozod qilish va stavkalarini pasaytirishni, texnologiyalar uchun litsenziya to‘lovlarini pasaytirishni ko‘zda tutadi.

Iqtisodiy faoliyatni rag‘batlantirish maqsadida koreys hukumati xorijiy investorlar uchun quyidagi ko‘rinishlarda moliyaviy va infratuzilmaviy ko‘mak ko‘rsatadi:

- Mahalliy hukumat o‘z byudjetlari hisobidan yer uchastkalari va qurilish ishlari uchun mablag‘lar ajratadi. Xorijiy investorlar uchun ijara to‘lovlari uchun subsidiyalar ajratilishi ham mumkin;

6.4.-jadval. Erkin iqtisodiy zonalarning samaradorligini oshirish bo‘yicha davlat tomonidan amalga oshiriluvchi kompleks chora-tadbirlar

EIZlarning hayotiylik sikli	Samaradorlik salohiyati	Samaradorlikni oshirish yo‘nalishlari
Shakllanish fazasi (infratuzilmani barpo qilish)	***Past*** (hudud to‘liq faoliyat ko‘rsatmaydi, byudjet investitsiyalari yuqori, hudud iqtisodiyotiga qo‘shayotgan hissasi past)	Rezident-korxonalar, investorlarni jalb qilish bo‘yicha kompaniya; erkin iqtisodiy hududlar joylashgan hududdagi mahalliy davlat hokimiyati idoralarining imkoniyatlarini va vakolatlarini kengaytirish; yuqori malakali mutaxassislarni jalb qilish
Rivojlanish (investitsion	***O‘rtacha va yuqori*** (hudud rezidentlarining	Ma’muriy to‘siqlarni bartaraf qilish; infratuzilma sifatini yaxshilash; kafolatli

jozibadorlik fazasi)	faoliyat ko‘lamlari yanada kengayib boradi)	investitsiya fondlarini shakllantirish; davlat-xususiy sherik-chilik vositalaridan maqsadli foyda-lanish; EIZ sub’ektlari faoliyatini nazorat qilish
Yetuklik fazasi	***O‘rtacha*** (investitsiyalar o‘sishi qisqaradi, infratuzilma imkoniyatlaridan to‘liq foydalaniladi, yangi rezidentlar jalb qilinmaydi. Ayni paytda hudud iqtisodiyotida erkin iqtisodiy hududning salmog‘i yuqori)	Qulay ishbilarmonlik va ijtimoiy muhitni qo‘llab-quvvatlash; byudjetdan moliyalashtirishni qisqartirish;avval tuzilgan bitim va kelishuvlarni qayta ko‘rib chiqish va muvofiqlashtirish
So‘nish fazasi	EIZ va rezident-korxonalar faoliyatida salbiy o‘zgarishlar va samaradorlik ko‘rsatkichlarining pasayishi kuzatiladi	EIZlarni iqtisodiy faoliyat yuritish-ning boshqa shakl va ko‘rinishlariga aylantirish

Manba: Internet ma’lumotlari asosida muallif tomonidan qayta ishlangan.

- Zavod yoki ilmiy markazlar qurishda xorijiy investorlarga moliyaviy yordam ko‘rsatiladi. Markaziy davlat idoralari va mahalliy o‘zini-o‘zi boshqarish organlari yo‘llar, aeroportlar, parklar va boshqa infratuzilma ob’ektlarini qurish ishlari xarajatlarining barchasini yoki ma’lum bir qismini qoplab beradi.Alohida iqtisodiy hududlarni tashkil etish borasida dunyo mamlakatlari tajribasidan foydalanish natijasida yurtimizda erkin iqtisodiy zonalarda yuqori iqtisodiy o‘sish sur’atlarini ta’minlash bo‘yicha bir qator yutuqlarga erishish mumkin.

Ular:

- **birinchidan,** mamlakatimizda EIZlarning yangi turlarini (texnoparklar, IT parklar, ilmiy-sanoat parklari) tashkil etish va “Ochiq eshiklar” siyosati orqali hududlarga xorijiy investitsiyalar oqimini oshirish orqali, ilg‘or texnologiyalarning ommaviy kirib kelishini ta’minlash;

- **ikkinchidan,** mamlakatimizdagi tashkil etilgan EIZlar milliy sanoatimiz va xorijiy ilg‘or texnologiyalar o‘rtasida asosiy aloqa bo‘g‘ini bo‘lib xizmat qilishiga erishish;

- **uchinchidan,** hududiy biryoqlamalikni oldini olib, nafaqat mamlakatga kiritilayotgan xorijiy investitsiyalarni, balki tashkil etilayotgan EIZlarning taqsimotiga ham jiddiy e'tibor qaratish;

- **to'rtinchidan,** hududda ishlab chiqarilgan mahsulotlarning ichki va tashqi bozordagi raqobatdoshligini oshishi hisobiga, hudud eksport salohiyati oshishi va aholi daromadlarining o'sishiga erishishimiz mumkin.

6.3. O'zbekistonda erkin iqtisodiy hududlarni tashkil etish imkoniyatlari va mavjud istiqbollar tahlili

O'zbekiston iqtisodiyotining barqaror o'sishiga erishishning muhim yo'nalishlaridan biri xorijiy investitsiyalarni faol jalb etishdir.

Zero, xorijiy investitsiyalarning iqtisodiyotga keng jalb etilishi ishlab chiqarishni modernizatsiyalashga, raqobatdoshlikka erishish va dunyo bozorlariga chiqishga, import o'rnini bosuvchi va eksportbop mahsulotlar ishlab chiqarishga, aholini ish bilan ta'minlashga imkoniyat yaratadi.

Respublikamizda erkin hamkorlikda iqtisodiy faoliyat olib borish uchun barcha shart-sharoitlar yaratib kelinmoqda. Xorijiy investorlar uchun xalqaro amaliyotda qabul qilingan, inson huquq va erkinliklari ustuvorligidan kelib chiqadigan huquqiy asos yaratilmoqda.

Mamlakatimizda investitsiya muhitini yanada yaxshilash, xususiylash-tirish, ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish, texnik jihatdan qayta jihozlash va rekonstruksiya qilish, respublikaning ortiqcha ishchi kuchi mavjud bo'lgan mintaqalarida yangi ish joylarini yaratish dasturlarini amalga oshirishga xorijiy investitsiyalarni keng jalb etish, shuningdek, xorijiy investorlar uchun ishonchli huquqiy himoya va kafolatlarni ta'minlash maqsadida erkin iqtisodiy zonalar tashkil etish va ular faoliyatiga doir munosabatlar 1996 yil 25 aprelda qabul qilingan O'zbekiston Respublikasining "Erkin iqtisodiy zonalar to'g'risida"gi qonun bilan tartibga solinadi.

Ushbu qonunda "Erkin iqtisodiy zona - mintaqani jadal ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish uchun mamlakat va chet el kapitalini, istiqbolli texnologiya va boshqaruv tajribasini jalb etish maqsadida tuziladigan, aniq belgilangan ma'muriy chegaralari va alohida huquqiy tartiboti bo'lgan maxsus ajratilgan hududdir" deb ta'kidlanadi.

Bugungi kunda O'zbekiston Respublikasining "Maxsus iqtisodiy zonalar to'g'risida"gi Qonuni muhokamasi yakunlandi. "Maxsus iqtisodiy zonalar to'g'risida"gi Qonunining qabul qilinishi maxsus iqtisodiy zonalar faoliyatini huquqiy jihatdan tartibga solishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Keyingi yillarda mamlakatimizda mahalliy mineral-xomashyo resurslarini chuqur qayta ishlash asosida yuqori qo‘shimcha qiymatga ega raqobatdosh mahsulotlar ishlab chiqarishni ta’minlaydigan zamonaviy korxonalar tashkil etish, respublika hududlarining ishlab chiqarish va resurs salohiyatidan kompleks va samarali foydalanish, shu asnoda yangi ish o‘rinlari yaratish va aholi daromadini oshirish uchun xorijiy, avvalo, to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalarni jalb qilishning muhim omili sifatida erkin iqtisodiy va kichik sanoat zonalarini vujudga keltirishga alohida e’tibor berilmoqda.

Mamlakatimizda yuqori texnologiyali yangi ishlab chiqarish quvvatlarini tashkil etish, hududlarni raqobatdosh va eksportga yo‘naltirilgan zamonaviy sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishni o‘zlashtirishga yanada faol jalb qilish, ishlab chiqarish, muhandislik-kommunikatsiya, yo‘l-transport, ijtimoiy infratuzilma va logistika xizmatlarini jadal rivojlantirishni ta’minlash uchun to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalarni jalb etishni kengaytirishning eng muhim omili sifatida erkin iqtisodiy zonalarni izchil rivojlantirish borasida yanada qulay shart-sharoitlar yaratish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining tegishli farmoni qabul qilindi[23].

Farmon bilan erkin iqtisodiy zonalar (“Navoiy”, “Angren”, “Jizzax”) nomlari bir xillashtirildi hamda imtiyoz berilgan soliq turlari va muddatlari ko‘lami kengaytirildi.

Shuningdek, farmonga muvofiq, EIZ ishtirokchilariga er solig‘i, foyda solig‘i, yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq, mikrofirmalar va kichik korxonalar uchun Yagona soliq hamda Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Respublika yo‘l jamg‘armasiga va Moliya vazirligi huzuridagi Byudjetdan tashqari umumta’lim va tibbiyot muassasalarining moddiy-texnika bazasini rivojlantirish jamg‘armasiga majburiy to‘lovlar bo‘yicha imtiyozlar nazarda tutilgan.

Mazkur imtiyozlar kiritilgan investitsiyalar hajmiga qarab 3 yildan 10 yil muddatgacha amal qiladi:

[23]O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2016 y., 43-son, 498-modda; 2017 y., 3-son, 40-modda; 23-son, 448-modda; Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 19.01.2018 y., 06/18/5305/0592-son; 05.04.2018 y., 06/18/5398/1004-son; 04.05.2018 y., 06/18/5428/1158-son; 16.05.2019 y., 06/19/5719/3136-son O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016 yil 26 oktyabrda “Erkin iqtisodiy zonalar faoliyatini faollashtirish va kengaytirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PF-4853-son farmoni, manba: http://lex.uz/docs/3056978.

6.5.-jadval. Erkin iqtisodiy zonalar rezidentlari uchun imtiyozlar

300 ming AQSH dollaridan 3 million AQSH dollarigacha hajmdagi investitsiyalar – 3 yil muddatga; 3 million AQSH dollaridan 5 million AQSH dollarigacha hajmdagi investitsiyalar – 5 yil muddatga; 5 million AQSH dollaridan 10 million AQSH dollarigacha hajmdagi investitsiyalar – 7 yil muddatga; 10 million va undan ko‘p AQSH dollari hajmidagi investitsiyalar so‘nggi 5 yilda amaldagi stavkalardan 50 foiz kam hajmdagi daromad solig‘i va Yagona soliq to‘lovi stavkalari qo‘llangan holda – 10 yil muddatga beriladi[24].

Erkin iqtisodiy zona hududida yuridik shaxslar va fuqarolar (jismoniy shaxslar) xo‘jalik, moliyaviy va boshqa faoliyatning istalgan turlari bilan shug‘ullanishiga yo‘l qo‘yiladi, O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlarida man etilgan faoliyat turlari bundan mustasno[25.]

Erkin iqtisodiy zonalar O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori bilan tashkil etiladi. Ularning maqomi, shuningdek qancha muddatga tashkil etilishi mazkur zonani tashkil etish to‘g‘risidagi qaror bilan, hududiy chegaralari O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadi.

Erkin iqtisodiy zonaning maqomi:

- uni tashkil etish to‘g‘risidagi qarorda belgilangan muddat tugaganidan keyin;

- uni tashkil etish to‘g‘risidagi qarorda nazarda tutilgan vazifalar bajarilmaganda va maqsadlarga erishilmaganda tugatiladi.

Erkin iqtisodiy zonaning maqomini tugatish to‘g‘risidagi qaror belgilangan muddat tugashidan kamida uch yil oldin O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan qabul qilinadi[26.]

Erkin iqtisodiy zonalar faoliyatini tartibga solish borasida O‘zbekiston Respublikasining Qonuni bilan bir qatorda, Prezident Farmonlari, Qarorlari va Farmoyishi qabul qilingan.

---

[24] O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2016 y., 43-son, 498-modda; 2017 y., 3-son, 40-modda; 23-son, 448-modda; Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 19.01.2018 y., 06/18/5305/0592-son; 05.04.2018 y., 06/18/5398/1004-son; 04.05.2018 y., 06/18/5428/1158-son; 16.05.2019 y., 06/19/5719/3136-son, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016 yil 26 oktyabrdagi “Erkin iqtisodiy zonalar faoliyatini faollashtirish va kengaytirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PF-4853-son farmoni, 3-4 bandlar, manba: http://lex.uz/docs/3056978.

[25] O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 1996 y., 5-6-son, 58-modda; 2003 y., 5-son, 67-modda; O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2005 y., 49-50-son, 365-modda; 2006 y., 41-son, 405-modda; 2009 y., 39-son, 424-modda; 2015 y., 33-son, 439-modda; Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 19.04.2018 y., 03/18/476/1087-son, O‘zbekiston Respublikasining 1996 yil 25 apreldagi “Erkin iqtisodiy zonalar to‘g‘risida”gi qonuni. 220-I-son, 1 modda, manba: http://lex.uz/acts/2046.

[26] O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 1996 y., 5-6-son, 58-modda; 2003 y., 5-son, 67-modda; O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2005 y., 49-50-son, 365-modda; 2006 y., 41-son, 405-modda; 2009 y., 39-son, 424-modda; 2015 y., 33-son, 439-modda; Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 19.04.2018 y., 03/18/476/1087-son, O‘zbekiston Respublikasining 1996 yil 25 apreldagi “Erkin iqtisodiy zonalar to‘g‘risida”gi qonuni. 220-I-son, 3-4 moddalar, manba: http://lex.uz/acts/2046.,

Shuningdek, oxirgi paytlarda qabul qilingan Vazirlar Mahkamasining 15 ta Qarorlari va 2 ta Farmoyishlari ham aynan ushbu sohaga taaluqli. O‘zbekistonda so‘nggi ikki yil ichida investitsiyalar faoliyatini tartibga solish, maxsus iqtisodiy zonalarning huquqiy asoslarini takomillashtirishga alohida e’tibor qaratilmoqda. Xususan, 2019 yil 9 dekabrda O‘zbekiston Respublikasining Qonunchilik palatasi tomonidan qabul qilingan va Senat tomonidan 2019 yil 14 dekabrda ma’qullangan “Investitsiyalar va investitsiya faoliyati to‘g‘risida” O‘zbekiston Respublikasining Qonuni 2019 yil 25 dekabrda Prezident tomonidan imzolandi[27]. Mazkur Qonun 12 ta bob, 69 ta moddadan iborat bo‘lib, investitsiya faoliyatini tartibga solish borasida milliy va ilg‘or xorijiy tajribani umumlashtirgan holda, unda asosiy e’tibor chet ellik va mahalliy investorlar tomonidan amalga oshiriladigan investitsiyalar va investitsiya faoliyati sohasidagi munosabatlarni tartibga solishga qaratilgan. Mazkur qonunda ta’kidlanishicha konsessiya faoliyati, mahsulot taqsimotiga oid bitimlar tuzish, ularni bajarish va bekor qilish, investitsiya, pay va venchur fondlari, kapital bozorini, shu jumladan qimmatli qog‘ozlar bilan bog‘liq operatsiyalarni tartibga solish, davlat-xususiy sherikchilik, maxsus iqtisodiy zonalar sohasidagi huquqiy munosabatlar alohida qonunlar bilan tartibga solinadi.

Mamlakatimiz hududlarida erkin iqtisodiy zonalarni tashkil etish masalalariga alohida e’tibor qaratilishi natijasida bugungi kunga kelib respublikamizning 13 ta hududida jami 22 ta EIZlari tashkil etilgan.

Sanoat tarmog‘i bo‘yicha 10 ta, farmatsevtika 8 ta, qishloq xo‘jaligi 3 ta, turizm 1 ta.

Respublikamizda ilk erkin iqtisodiy zona “Navoiy” erkin iqtisodiy zonasi sifatida Prezidentning 2008 yil 2 dekabrdagi farmoni[28] asosida tashkil etilgan.

Shundan so‘ng, Prezidentning tegishli farmoni bilan 2012 yil “Angren” EIZ[29]; 2013 yil “Jizzax” EIZ[30]; 2017 yil “Urgut”, “G‘ijduvon”, “Qo‘qon” va “Hazorasp” EIZ[31]; farmatsevtika

---

[27] O‘zbekiston Respublikasining Qonuni “Investitsiyalar va investitsiya faoliyati to‘g‘risida” O‘RQ-598-son. (Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 26.12.2019 yil, 03/19/598/421-son.

[28] O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2008 y., 49-son, 478-modda; 2011 y., 9-son, 84-modda; 2012 y., 3-4-son, 26-modda; 2014 y., 29-son, 356-modda; 2017 y., 12-son, 182-modda; Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 04.05.2018 y., 06/18/5428/1158-son, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2008 yil 2 dekabrdagi “Navoiy viloyatida erkin iqtisodiy zona tashkil etish to‘g‘risida”gi PF-4059-sonli farmoni, manba: http://www.lex.uz/docs/1411630.

[29] O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2012 y., 16-son, 177-modda; 2017 y., 12-son, 182-modda; Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 24.05.2019 y., 06/19/5728/3180-son; 26.06.2019 y., 09/19/525/3340-son, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2012 yil 13 apreldagi “Angren erkin iqtisodiy zonasini barpo etish to‘g‘risida”gi PF-4436-sonli farmoni, manba: http://lex.uz/docs/2002053

[30] O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2013 y., 12-son, 151-modda; 2017 y., 12-son, 182-modda; Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 13.04.2018 y., 06/18/5412/1061-son, 19.01.2018 y., 06/18/5305/0592-son, 29.08.2019 y., 06/19/5794/3669-son, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2013 yil 18 martdagi “Jizzax erkin iqtisodiy zonasini barpo etish to‘g‘risida”gi PF-4516-sonli farmoni, manba: http://lex.uz/docs/2144357

[31] O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2017 y., 19-son, 331-modda; Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 05.09.2019 y., 06/19/5809/3687-son, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 3 maydagi “ “Nukus-farm”, “Zomin-farm”, “Kosonsoy-farm”, “Sirdaryo-farm”, “Boysun-farm”, “Bo‘stonliq-farm” va “Parkent-farm” erkin iqtisodiy zonalarini tashkil etish to‘g‘risida»gi PF-5032-son Farmoni, manba: http://www.lex.uz/docs/3191758.

sohasi bo‘yicha 7 ta – “Nukus-farm”, “Zomin-farm”, “Kosonsoy-farm”, “Sirdaryo-farm”, “Boysun-farm”, “Bo‘stonliq-farm” va “Parkent-farm” EIZ[32], “Chorvoq” erkin turistik zonasi[33]; 2018 yil “Sirdaryo” EIZ[34], “Namangan”EIZ[35], qarorga asosan, “Buxoro-agro” EIZ[36], “Termiz” EIZ[37] tashkil etilib, ushbu zonalar qatnashchilariga ham soliq imtiyozlari tadbiq etilishi belgilangan.

2019 yilda farmon bilan “Andijon-Farm” EIZ[38] tashkil etilganligi va ayni paytda Qoraqalpog‘iston Respublikasini ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan barqaror rivojlantirish, hududga xorijiy investitsiyalarni yanada kengroq jalb qilish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Nukus erkin iqtisodiy zonasini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida” gi Farmoni[39] qabul qilinganligini va shuningdek, mamlakatimiz rahbarining 2019 yil 13 sentyabrdagi Farmoni bilan “Chiroqchi” erkin iqtisodiy zonasi[40] tashkil qilinganligini ham alohida ta’kidlab o‘tish lozim.

Erkin iqtisodiy zonaning faoliyati Ma’muriy kengash tomonidan muvofiqlashtiriladi.

Erkin iqtisodiy zona direksiyasi erkin iqtisodiy zonaning operativ boshqaruv organi hisoblanadi.

Ma’muriy kengash O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan tuziladi.

Ma’muriy kengashga rais boshchilik qiladi. Erkin iqtisodiy zonaning chegaralari O‘zbekiston Respublikasining ma’muriy-hududiy birligi (tuman, shahar, shahardagi tuman) chegarasiga to‘g‘ri kelgan taqdirda, Ma’muriy kengash raisining vazifalarini ijro etish tegishli hokim zimmasiga yuklanadi.

---

[32] O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2017 y., 19-son, 331-modda; Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 05.09.2019 y., 06/19/5809/3687-son, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 3 maydagi “ “Nukus-farm”, “Zomin-farm”, “Kosonsoy-farm”, “Sirdaryo-farm”, “Boysun-farm”, “Bo‘stonliq-farm” va “Parkent-farm” erkin iqtisodiy zonalarini tashkil etish to‘g‘risida»gi PF-5032-son Farmoni, manba: http://www.lex.uz/docs/3191758.

[33] Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 06.12.2017 y., 06/17/5273/0363-son; 06.01.2019 y., 06/18/5611/2430-son, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 05 dekabrdagi “Chorvoq turistik zonasini tashkil etish to‘g‘risida”gi PF-5273-sonli farmoni, manba: http://lex.uz/docs/3441087

[34] Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 13.04.2018 y., 06/18/5412/1061-son; 05.09.2019 y., 06/19/5809/3687-son, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 12 apreldagi “Sirdaryo erkin iqtisodiy zonasini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-5412-sonli farmoni, manba: http://lex.uz/docs/3678367

[35] Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 21.08.2018 y., 06/18/5517/1859-son, 2018 yil 20 avgustdagi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining“Namangan erkin iqtisodiy zonasini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-5517-son farmoni, manba: http://lex.uz/docs/3897083

[36] Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 11.07.2018 y., 07/18/3843/1488-son, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 10 iyuldagi “Buxoro-agro» erkin iqtisodiy zonasini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-3843-sonli qarori, manba: http://lex.uz/docs/3817712

[37] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Termiz” erkin iqtisodiy zonasini tashkil etish to‘g‘risida”gi 2018 yil 18 sentyabrdagi PF-5540-son Farmoni.

[38] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «Andijon-farm» erkin iqtisodiy zonasini tashkil etish to‘g‘risida» 2019 yil 14 yanvardagi PF-5629-son Farmoni.

[39] manba: https://www.gazeta.uz/uz/2019/09/05/nukus-eiz/

[40] http://axbor.sorbon.ru/crp/Kaskadaredaerkiniktisodijzonataskiletiladi_crp/

Erkin iqtisodiy zona O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tasdiqlaydigan dasturga muvofiq rivojlantiriladi[41].

Quyida Respublika bo‘yicha erkin iqtisodiy zonalar hududlarida amalga oshirilgan, amalga oshirilayotgan hamda istiqbolli loyihalar to‘g‘risida ma’lumotlar[42] keltirilgan.

6.6.-jadval. O‘zbekistonda erkin iqtisodiy zonalarda amalga oshirilayotgan loyihalar to‘g‘risida ma’lumot

	Jami loyihalar						
	Loyiha soni	Umumiy qiymati (mln.doll.)	O‘z mablag‘i	Bank krediti	FRRU	Xorijiy investitsiya	Yaratila digan ish o‘rni
Jami (21 EIZ)	721	5 418,7	1 105,9	1 472,3	111,6	2 728,9	59 582
	Amalga oshirilgan						
	214	1 236,7	385,8	405,1	52,9	392,9	14 668
	Amalga oshirilayotgan						
	411	2119,7	474	717	26,8	902,0	33312
	Istiqbolli						
	96	2062,3	246,4	350,1	31,9	1434,0	11 602

Erkin iqtisodiy zonalar faoliyatini tashkil etishda jiddiy kamchilik va nuqsonlar mavjudki, ular shunday zonalarni rivojlantirishga va samarali faoliyat yuritishiga to‘sqinlik qilmoqda. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 avgustdagi PQ-3175-son-li qarori bilan tashkil qilingan Maxsus idoralararo komissiya tomonidan joylarga chiqib o‘rganilganda quyidagilar aniqlangan:

birinchidan, erkin iqtisodiy va kichik sanoat zonalari hududlarida joylashtirish uchun loyihalarni tanlashning aniq mezonlari mavjud emas. Investitsiya loyihalarini ko‘rib chiqishda yangidan tashkil etilayotgan ish o‘rinlari soni, salohiyatli xorijiy sherik va investor-mamlakatning mavjudligi, ishlab chiqarilayotgan mahsulotning ichki va tashqi bozorlarda talab qilinishi, eksport hajmi, shuningdek, ishlab chiqarishni mahalliylashtirish darajasi hisobga olinmayapti;

ikkinchidan, erkin iqtisodiy zonalar hududida joylashtirish va amalga oshirish uchun taklif etilayotgan investitsiya loyihalarini kelishib olish va ma’qullash mexanizmi amalda haddan

[41] O‘zbekiston Respublikasining 1996 yil 25 apreldagi “Erkin iqtisodiy zonalar to‘g‘risida”gi qonuni, manba: http://lex.uz/acts/2046

[42] Iqtisodiyot va sanoat vazirligida to‘plangan ma’lumotlar asosida muallif tomonidan tayyorlandi

tashqari murakkab byurokratizmga uchragan, bu esa mazkur loyihalar bo‘yicha qarorlar qabul qilishni ko‘p oylarga cho‘zib yubormoqda;

uchinchidan, erkin iqtisodiy va kichik sanoat zonalari uchun zarur muhandislik-kommunikatsiya va ishlab chiqarish infratuzilmasini o‘z vaqtida barpo etish masalalariga yetarlicha e’tibor berilmayapti;

to‘rtinchidan, taklif etilayotgan investitsiya loyihalarining ishonchli moliyaviy manbalar, shu jumladan, mahalliy va xorijiy kredit resurslari, to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar hisobiga ishonchli ta’minlanishi mufassal ishlab chiqilmagan. Erkin iqtisodiy va kichik sanoat zonalariga biriktirilgan tijorat banklari ushbu muammolarni hal etishda sust ishtirok etmoqdalar;

beshinchidan, erkin iqtisodiy zonalarning ishtirokchilari Respublika tovar-xomashyo birjasi orqali sotiladigan xomashyo resurslarini zarur hajmda sotib olishda kattagina qiyinchiliklarga duch kelmoqda;

oltinchidan, erkin iqtisodiy zonalarning hududida foydalanishga topshirilgan korxonalarning ishlab chiqarish quvvatlaridan nihoyatda samarasiz foydalanilmoqda, buning oqibatida ishlab chiqarish va eksport hajmlari hamda ish joylari soni tasdiqlangan biznes-rejalar parametrlariga muvofiq kelmaydi;

yettinchidan, Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi raisining birinchi o‘rinbosari, viloyatlar va Toshkent shahar hokimlarining iqtisodiyot va tadbirkorlik masalalari bo‘yicha birinchi o‘rinbosarlari rahbarligida erkin iqtisodiy va kichik sanoat zonalari faoliyatini muvofiqlashtirish bo‘yicha tashkil qilingan hududiy komissiyalar tomonidan joylarda yuzaga keluvchi masalalarni tezkorlik bilan hal etish borasidagi ishlarni muvofiqlashtirishning ta’sirchan mexanizmi mavjud emas. Mana shularning hammasi erkin iqtisodiy va kichik sanoat zonalarida joylashtiriladigan investitsiya loyihalarini tanlab olish, yer maydonlari ajratib berish tartibi, xomashyo va materiallardan foydalanishni ta’minlash, tadbirkorlik sub’ektlariga kredit resurslari ajratishning prinsipial yangi tizimi yaratilishini taqozo etadi[43]. Respublikaning Jizzax, Navoiy viloyatlarini iqtisodiy salohiyatini tahlili shuni ko‘rsatganki, bu mintaqalar o‘zining ham qishloq xo‘jalik, ham sanoat ishlab ishlab chiqarish darajasi bilan hududida eksportga yo‘naltirilgan ishlab chiqarish zonalarini, erkin tadbirkorlik va erkin savdo zonalarini tashkil etish uchun qulay hisoblanadi.

[43] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori “Erkin iqtisodiy zonalar va kichik sanoat zonalari faoliyati samaradorligini oshirish borasidagi qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi 2017 yil 25 oktyabrdagi PQ-3356-sonli qarori

Har bir mintaqa o‘zining xududida u yoki bu tarmoqni rivojlanish darajasi va mavjudligi bilan farq qiladi. Bu omil EIZning malum yo‘nalishdagi modelini tanlashda rivojlanishi strategiyasini ishlab chiqarishda va infratuzilmasini yaratishda muhim hisoblanadi.

Respublikamizda EIZ larini optimal modellarini rivojlantirish, mavjud jahon tajribasining biz uchun qulay bo‘lgan iqtisodiy samarali usullaridan foydalanish, ochiq bozor iqtisodiyoti tamoyillariga amal qilgan holda, ustuvor yo‘nalish-iqtisodiyotni erkinlashtirish va jahon xo‘jaligi tizimiga integratsiya jarayonlarining chuqurlashuviga olib keladi. Natijada, erkin iqtisodiy zonalarni tuzishdan avval belgilab olingan iqtisodiy, ijtimoiy va ilmiy-texnikaviy maqsadlarga erishiladi.

Bobning qisqacha xulosasi

Mamlakatimizda erkin iqtisodiy zonalarni etish bo‘yicha huquqiy baza yaratilib, ularning samaradorligini oshirish bo‘yicha salmoqli ishlar olib borilmoqda. Ushbu sohani yanada takomillashtirish, ishlab chiqarish va resurs salohiyatidan kompleks hamda oqilona foydalanishini ta’minlash, shu asnoda yangi ish o‘rinlari tashkil etish va mahalliy aholining daromadlarini oshirish maqsadida xorijiy investitsilarni oqimini oshirishga karatilgan ko‘plab loyihalar amalga oshirilmoqda. Hozirda EIZlarni rivojlantrish bo‘yicha jahonning etakchi bo‘lgan davlatlari bilan hamkorlik o‘rnatilib, samara va natijaga olib kelgan loyihalarini o‘zlashtirish buyicha tajribalar o‘rganilmoqda.

Biroq shuni inobatga olish lozimki, mamlakatimiz bugungi kunda katta resursga, boy investitsion salohiyatga ega.

Lekin, innovatsion va investitsion infratuzilmaning yetarlicha rivoj topmaganligi mamlakatimizga xorijiy investitsiyalar oqimini cheklovchi muhim omillardan biri bo‘lib turibdi. Bundan tashqari hududlarda loyihalarni tashkil etishda sanoat salohiyatidan kelib chiqishni taqsimotiga e’tibor qaratishni, o‘rta va uzoq yillik rivojlantirish strategiyani, konsepsiyani ishlab chiqishni taqozo etmoqda.

Agar bor imkoniyatlardan to‘liq foydalanilsa, EIZlar faoliyati rivojlanish yo‘lida katta o‘rin tutgan yetakchi xorijiy davlatlarning tajribasini hududlarning sharoitidan kelib chiqib uyg‘unlashtirib qo‘llanilsa, EIZlar takomillashtirish bo‘yicha olib borilayotgan islohotlar amalga oshirilishi yo‘lida muhim omil bo‘ladi.

Nazorat uchun savollar:

1. Erkin iqtisodiy hudud deganda nimani tushunasiz?
2. Erkin iqtisodiy hududlarni tashkil etishdan maqsad nima?
3. Qaysi mamlakatlarning EIH tashkil etish bo‘yicha tajribalarini bilasiz va ularning xususiyatlari?
4. Offshor hududlarning savdo hududlaridan farqi nimada?

5. O‘zbekiston respublikasidagi EIZning istiqbolini qanday baholaysiz?

7-mavzu. Xalqaro valyuta-moliya va kredit munosabatlari

Ko’rib chiqiladigan asosiy savollar:

1. Xalqaro valyuta tizimining mohiyati va tarkibi.
2. Xalqaro valyuta tizimining rivojlanish bosqichlari.
3. Xalqaro rezerv valyuta birliklari.
4. Xalqaro valyuta va moliya-kredit bozorlari.

Mavzuga oid tayanch tushuncha va iboralar: Mineral xom ashyo, qayta tiklanmaydigan resurs ekanligi, ularning iqtisodiy xususiyatlari, ekologik jixatlari, iqtisodiy baholash ko’rsatkichlari, resurssini aniqlash, samarali foydalanish, uzoq muddatli va qisqa muddatli bashoratlash, rekultivatsiya qilish, tog’ kon sanoati, chiqindilar, unimli foydalanish.

Mavzuda ko’rib chiqiladigan muammolar:

1.Xalqaro valyuta tizimining mohiyati va tarkibi siz qanday izohlaysiz?

2.Xalqaro valyuta tizimining rivojlanish bosqichlarini izohlang?

3.Xalqaro rezerv valyuta birliklarini siz qanday izohlaysiz?

4.Xalqaro valyuta va moliya-kredit bozorlariga siz qanday fikr bildirasiz?

1-asosiy savol bo’yicha dars maqsadi: Talabalarda halqaro valyuta tizimining mohiyati va tarkibi to’g’risida tushunchalar hosil qilish.

Identiv o’quv maqsadlari:

1.1.Xalqaro valyuta tizimining mohiyatini izohlay oladi.

1.2.Xalqaro valyuta tizimining tarkibini izohlay oladi.

7.1. Xalqaro valyuta tizimining mohiyati va tarkibi

XX asrning 50-60-yillarida xalqaro iqtisodiy, moliyaviy va valyuta munosabatlarini rivojlanishida yangi davr boshlandi. Ochiq iqtisodiyotning umumiy tendensiyasi savdo ayirboshlashuvining tezlashishiga, xalqaro moliyalashtirishning rivojlanishiga, yangi valyuta bozorlarini hosil bo‘lishiga, turli mamlakatlar orasida valyuta-moliya munosabatlarining kengayishiga olib keldi.

Jahon iqtisodiyotida xalqaro valyuta munosabatlari pulning jahon puli funksiyasi bilan bog‘liq bo‘lgan iqtisodiy munosabatlarni namoyon qiladi. Pul jahon puli sifatida tashqi savdo va xizmatlar, kapital migratsiyasi, foydaning investitsiyalarga ko‘chishi, zayom va subsidiyalar berish, ilmiy-texnik almashuv, turizm, davlat va xususiy pul ko‘chirishlariga xizmat qila boshladi.

Valyuta munosabatlari odatda milliy va xalqaro darajalarda amalga oshiriladi. Milliy darajada ular milliy valyuta tizimlari (MVT) sohasini qamrab oladi. Milliy valyuta tizimi - bu valyuta qonunchiligi bilan belgilanadigan davlat valyuta munosabatlarini tashkil qilishning shaklidir. MVTning o‘ziga xos tomoni u yoki bu davlat iqtisodiyotining, shuningdek tashqi iqtisodiy aloqalarining rivojlanish darajasini va o‘ziga xosligi bilan aniqlanadi. Jahon iqtisodiyotida milliy valyuta tizimi quyidagi holatlari bilan xarakterlanadi:

- milliy valyuta birligi;
- rasmiy oltin va valyuta zahiralarining tarkibi;
- milliy valyuta pariteti va valyuta kursi shakllanishining mexanizmi;
- valyuta qaytishi sharoitlari;
- valyuta cheklanishlarining mavjudligi yoki yo‘qligi;
- davlatlarning tashqi iqtisodiy hisob-kitoblarini amalga oshirish tartibi va boshqalar;

Jahon iqtisodiyotida milliy valyuta tizimlarini bog‘lovchi zveno bo‘lib valyuta kursi va valyuta pariteti xizmat qiladi. Valyuta kursi alohida mamlakatlarning valyutalariga bo‘lgan nisbati yoki ma’lum bir davlat valyutasining boshqa bir davlatlar valyutasida hisoblangan “narxi”ni namoyon qiladi. Valyuta pariteti - valyutalarning ulardagi oltinga mos keluvchi nisbatidir. Valyuta kursi amalda hech qachon paritet bilan mos kelmaydi.

Xalqaro valyuta tizimi (XVT) jahon xo‘jaligi doirasida valyuta munosabatlarini tashkil qilishning shaklidir. U jahon kapitalistik xo‘jaligi evolyutsiyasi natijasida paydo bo‘lib, huquqiy jihatdan davlatlararo kelishuvlar bilan rasmiylashtirilgan. Xalqaro valyuta tizimining asosiy elementlari quyidagilardan iboratdir:

- valyuta birliklarining milliy va kollektiv zahiralari;
- xalqaro likvidli aktivlarning tarkibi va strukturasi;
- valyuta paritetlari va kurslari mexanizmi;
- valyutalarning o‘zaro almashuv shartlari;
- xalqaro hisob-kitob shakllari;
- xalqaro valyuta bozori va jahon oltin bozori rejimi;
- valyuta-moliya tashkilotlarini (XVF, XTTB va boshqalar) tartibga soluvchi davlatlararo valyuta-kredit tashkilotlarining maqomi;

Jahon iqtisodiyotida xalqaro valyuta tizimining asosiy vazifasi - muhim iqtisodiy o‘sishni ta’minlash, inflyatsiyani kamaytirishdan, tashqi iqtisodiy almashuv va to‘lov oborotining tengligini qo‘llab-quvatlash uchun xalqaro hisob-kitoblar va valyuta bozori sohasini tartibga solishdan iboratdir.

7.2. Xalqaro valyuta tizimining rivojlanish bosqichlari

Jahon iqtisodiyotida xalqaro valyuta tizimi dinamik rivojlanib boruvchi tizimdir. U evolyutsion rivojlanish bosqichlarda doimo o‘zgaradi va rivojlanadi. O‘zining evolyusion rivojlanishida Xalqaro valyuta tizimi xalqaro valyuta tizimlarini o‘zida namoyon qiluvchi to‘rt bosqichni bosib o‘tgan.

Xalqaro valyuta tizimida oltin standart deb ataluvchi birinchi tizim stixiyali ravishda XIX asr oxirida vujudga keldi. Unda qator davlatlarning valyutalari o‘z davlatlarining ichki bozorida erkin ravishda oltinga tenglashtirilgan. Oltin standart tizimi quyidagilar bilan ajralib turgan:

- valyuta birligi ma’lum miqdorda oltin qiymatiga egaligi bilan;
- valyutaning oltinga konvertatsiyalanishi alohida bir davlatning ichida ham tashqarisida ham ta’minlanganligi bilan;
- oltin quymalar erkin ravishda tangalarga almashtirilishi mumkin, oltin erkin eksport va import qilinadi, xalqaro oltin bozorlarida sotilishi mumkin;
- milliy oltin zahirasi va ichki pul taklifi o‘rtasida kuchli nisbatning saqlanishi bilan.

Oltin standartga asoslangan xalqaro hisob-kitoblar mexanizmi qayd qilingan kursni o‘rnatadi. Oltin tanga, oltin deviz standartlari oltin standartning turlaridir. Oltin standartning bir turidan ikkinchisiga evolyutsion o‘tishi xalqaro kapitalistik tizimining rivojlanishi mobaynida ro‘y bergan.

Kapitalistik xo‘jalik faoliyatining asta-sekin murakkablashuvi, jahon xo‘jaligi aloqalarining kengayishi va chuqurlashishi, davriy ro‘y berib turgan iqtisodiy inqirozlar iqtisodiyotni tartibga solishni, davlatning iqtisodiy jarayonlarni boshqarishga aralashuvini kuchaytirishni ob’ektiv zaruriyatga aylantirdi. Davlatning iqtisodiyotga aralashuvining kuchayib borishi bilan erkin raqobatchilik kapitalizm rivojlanishining alomatlariga javob beruvchi oltin standarti mexanizmi bilan aniqlanadigan valyuta kurslari tizimlari ham o‘zgara boshladi.

Ikkinchi tizim - oltin-deviz standarti Genuya konferensiyasi (1922 y.) qarorlari natijasida vujudga keldi. Keyinchalik u ko‘pchilik kapitalistik davlatlar tomonidan tan olindi. Bunda banknotalar oltin emas, balki keyinchalik oltinga almashtirilishi mumkin bo‘lgan boshqa davlatlar deviziga (banknota, veksel, cheklar) almashtirilgan. Deviz valyuta sifatida dollar va funt sterling tanlandi. Oltin-deviz standarti amalda tartibga soluvchi valyuta kurslari standarti tizimini oltin valyuta standarti tizimiga o‘tish bosqichi bo‘ldi.

Oltin-valyuta standarti tizimi XX asrning 30-yillarda tashkil topdi va 50-yillar oxirida to‘liq shakllandi. Bu tizim sharoitida qog‘oz pullar oltinga almashtirilmaydigan bo‘ldi. 1944 yilda bo‘lib o‘tgan Bretton-Vuds (AQSH) xalqaro konferensiyasida bu tizim huquqiy maqomni oldi. Bretton-Vuds valyuta tizimining o‘ziga xos tomonlari quyidagilardan iboratdir:

- oltin davlatlar orasida yakuniy pul hisob-kitoblari funksiyasini saqlab qoldi;

- oltin bilan turli davlatlarning valyutalari qiymat o‘lchovi, shuningdek to‘lovning xalqaro kredit vositasi sifatida tan olingan AQSH dollari rezerv valyuta bo‘ldi;

- dollar boshqa davlatlarning markaziy banklari va hukumat idoralari tomonidan AQSH xazinasida 1 troya unsiyaga (31,1g.), ya’ni 35 dollarga teng bo‘lgan kurs (1944 i) bo‘yicha oltinga almashtirilgan. Bundan tashqari hukumat organlari va xususiy shaxslar oltinni xususiy bozorda sotib olishlari ham mumkin bo‘lgan. Oltinning valyuta qiymati rasmiy qiymat asosida shakllanib bordi va u 1968 yilgacha sezilarli o‘zgarmadi;

- valyutalarni bir-biriga tenglashtirish. Ularning o‘zaro almashuvi oltin va dollarda belgilangan rasmiy valyuta paritetlar asosida amalga oshirilgan;

- har bir davlat o‘z valyutasining boshqa valyutaga nisbatan kursini barqaror saqlashi kerak bo‘lgan. Valyutalarning bozordagi kurslari qayd qilingan oltin yoki dollar paritetidan u yoki bu tomonga 1% dan ortiq o‘zgarmasligi kerak edi. Paritetlarning o‘zgarishi to‘lovlar balansining doimiy buzilishi sodir bo‘lganda amalga oshirilishi mumkin bo‘lgan;

- valyuta munosabatlarini davlatlararo tartibga solish asosan Bretton-Vuds konferensiyasida tashkil qilingan Xalqaro Valyuta Fondi (XVF) orqali amalga oshirildi. U a’zo davlatlar tomonidan rasmiy valyuta paritetlari, kurslari va o‘zaro erkin valyuta almashtirishga amal qilishlari ta’minlangan.

Bretton-Vuds kelishuvi xalqaro valyuta tizimining rivojlanishini eng muhim bosqichi hisoblanadi. Birinchi marta xalqaro valyuta tizimi hukumatlararo kelishuvlarga asoslana boshladi. Oltin-dollar standarti tizimini mustahkamlagan Bretton-Vuds tizimi xalqaro savdo oborotining kengayishida, sanoati rivojlangan davlatlar ishlab chiqarishining o‘sishida ham muhim rol o‘ynadi.

60-yillarning oxiriga kelib Bretton-Vuds tizimi jahon xo‘jaligining kuchayayotgan baynalminallashuvi bilan, transmilliy korporatsiyalarining valyuta sohasidagi faol chayqovchilik faoliyati bilan qarama-qarshi chiqa boshladi. Oltin-dollar standarti rejimi amalda asta-sekin dollar standarti tizimiga aylana boshladi. Shu bilan birga 60-yillar oxirida dollarning jahondagi mavqei G‘arbiy Yevropa davlatlari va Yaponiyaning iqtisodiy quvvati va ta’sir doirasini oshishi natijasida sezilarli yomonlashdi. AQSHdan tashqaridagi dollar zahiralari jahon iqtisodiyotida juda katta summada bo‘lib, yirik evrodollar bozorini tashkil qilgan edi. AQSH to‘lov balansining kamomadi (defitsiti) mumkin bo‘lgan normalardan ortib bordi. Bretton-Vuds tizimining dollarni oltinga aylantirish haqidagi talabi AQSH uchun og‘irlik qilib qoldi, chunki o‘z zahiralari hisobidan oltinning past narxini saqlab turishi kerak edi. 70-yillar boshida Bretton-Vuds tizimi amalda o‘z faoliyatini to‘xtatdi. AQSH dollarni oltinga rasmiy narxlarda

almashtirishdan bosh tortdi. Natijada jahon bozorlarida oltinning bahosi keskin ko‘tarilib ketdi.

1976 yilda Kingstonda (Yamayka) bo‘lib o‘tgan XVFning navbatdagi majlisida dunyoda xalqaro valyuta tizimining asoslari aniqlandi. Yamayka kelishuvidan kelib chiqqan holda xalqaro valyuta mexanizmini tashkil etuvchilar deb quyidagilarni ko‘rsatish mumkin:

1. Oltinning qiymat o‘lchovi va valyuta kurslarini hisoblashning boshlang‘ich nuqtasi sifatidagi vazifasi bekor qilindi. Oltin erkin narxli oddiy tovarga aylandi. Shu bilan bir qatorda u alohida likvidli tovar bo‘lib ham qoldi. Ya’ni, zarur bo‘lganda oltin sotilishi mumkin, olingan valyuta esa to‘lov uchun ishlatilishi mumkin bo‘lib qoldi.

2. Asosiy zahira valyuta qilish va boshqa rezerv valyutalarning rolini kamaytirish maqsadida SDR (Special drawing rights - SDR) - “maxsus o‘rnini olish huquqi” standarti kiritildi.

3. Davlatlarga valyuta kursining xohlagan rejimini tanlab olish huquqi berildi. Davlatlar o‘rtasidagi o‘zaro valyuta munosabatlari ularni milliy pul birliklarining suzuvchi kursiga asoslanadigan bo‘ldi.

Xalqaro moliyaviy qonunlarda kurslarning o‘zgarishi ikki asosiy omil bilan belgilanadi:

a) davlatlarning ichki bozorlarida valyutalarning real qiymatlari nisbati bilan;

b) xalqaro bozorlarda milliy valyutalarga bo‘lgan talab va takliflar nisbati bilan.

7.3. Xalqaro rezerv valyuta birliklari

90-yillarning boshiga kelib suzuvchi kurslar faktorini amalga oshirilishi munosabati bilan quyidagi elementlar asosida etarli darajada murakkab bo‘lgan xalqaro valyuta tizimini tashkil qilish sxemasi vujudga keldi:

1. Asosiy ustun birliklar tanlanadi. Bu bilan ular milliy valyutalar munosabatlarini, aniqrog‘i o‘z valyuta kurslarini saqlab qoldilar;

2. Valyuta kurslarinig o‘zgarish darajasi bir xil bo‘lmasdan, diapazoni keng edi. Bunda ma’lum diapazon doirasida faqat ayrim valyutalarga nisbatan valyuta kursi saqlanadi, boshqa valyutalarga nisbatan kurs erkin o‘zgarib turadi.

Amalda davlatlar e’lon qilgan valyuta rejimlari xilma-xildir. 1988 yilda jahonning 58 davlati o‘z valyutalarining asosiy hamkorlaridan birining valyutasiga nisbatan kursini o‘rnatishga qaror qildilar. Bular AQSH dollari (39 ta davlat), fransuz franki (frank zonasining 14ta davlati) yoki boshqa valyutalarda (5 ta davlat). Ayrim davlatlar o‘z valyutalarini SDRga (17 ta davlat) yoki boshqa valyutalar savatchasiga (29 ta davlat) bog‘ladilar. Bundan tashqari, 4 ta davlat Yagona valyutaga nisbatan cheklangan moslashuvchanlik rejimini ma’qulladilar. O‘z

navbatida YEI ning 8 davlati o‘zlari uchun valyuta hamkorligi mexanizmini ta’sis etishib, o‘z valyuta kurslarini barqarorlashtirdilar. Jahonning 19ta davlatlari shu jumladan, AQSH, Kanada, Buyuk Britaniya va Yaponiya mustaqil suzish rejimini tanladilar.

Yamayka kelishuvi jamoa valyuta birligi sifatida “maxsus o‘rnini olish huquqi” (SDR) ni tan oldi. SDR 1969 yilda oddiy kredit vositasi sifatida yaratilgan edi. Biroq keyinchalik SDRni “xalqaro valyuta tizimining zahira aktivi” ga aylantirish vazifasi qo‘yildi. Oldiniga SDR birligi dollarning oltin qiymatiga (1970 y.) mos ravishda oltinga tenglashtirildi. 1974 yilning iyulida valyutalarning suzuvchi kursga o‘tishi bilan SDRning oltin qiymati bekor qilindi. Bu valyuta birligining kursi valyuta savatchasi - tashqi savdosi jahon savdosining 1% dan kam bo‘lmagan 16 davlat valyutalarining o‘rtacha kursi asosida aniqlanardi. 1981 yildan boshlab SDR 5ta davlat valyutasi (AQSH dollari, GFR markasi, yapon ienasi, fransuz franki va Angliya funt sterling) to‘plamidan kelib chiqdan holda aniqlanadigan bo‘ldi.

Valyuta korzinasi - bu bir valyuta o‘rtacha hisoblangan kursining boshqa valyutalarning ma’lum to‘plamiga nisbatan solishtirish usulidir. Valyuta kursini hisoblash uning tarkibi, valyuta komponentlarining o‘lchovi, valyutalarning dollarga nisbatan bozor kursiga bog‘liq.

SDR foizlar keltiradi. Mamlakat agarda SDRdagi avuarlar assotsiatsiyalaridan ko‘p bo‘lsa foizlar oladi va aksincha SDRdagi avuarlari asosiatsiyalaridan kam bo‘lsa foiz to‘laydi. SDR XVFning maxsus schetlarida XVFga a’zo davlatlarga ajratilgan kvotalar asosida keltiriladi. Bu kvotalardan konventirlanadigan valyuta sotib olish yoki to‘lov balansi defitsitini to‘lash uchun foydalaniladi. SDR valyuta savati tarkibida milliy valyutalar ulushi ham o‘zgarib turadi. Buni quydagi jadval misolida ham ko‘rib chiqish mumkin:

7.1.-jadval. SDR valyuta savati tarkibida milliy valyutalar ulushi[44]

Valyutalar	2006-2010	2011-2015
AQSH dollari	44	41,9
Evro	34	37,4
Funt sterling	11	11,3
Yapon yenasi	11	9,4

SDR savatchasining valyuta komponentlari

Ko‘pgina iqtisodchilar SDRni kamroq zahira valyuta sifatida, ko‘proq kredit sifatida ko‘rish mumkin deb hisoblaydilar. Xullas, SDR ham zahira valyuta ham kreditdir. Uni yaratuvchilardan biri aytganidek SDR “ayrimlar qora yo‘lli oq ayrimlar oq yo‘lli qora jonivor sifatida ko‘radigan” - zebraga o‘xshaydi.

[44] Красавина Л.Н. Тенденции развития международных валютных отношений в условиях глобализации мировой экономики Деньги и кредит, №11, 2011 стр.20

Valyuta savatchasi qiymati asosida belgilanadigan yana bir jamoa zahira valyuta birligi EKYUdir. EKYU (Europe an curren cy unit) YEIga kiruvchi Yevropaning ilg‘or 12 davlati valyutalariga asoslangan edi. Ular bir valyutaning savatchadagi og‘irligi a’zo-davlatlarning YEI YAMMsi va Ittifoq ichidagi eksportdagi ulushiga muvofiq belgilanadi. 1 EKYU taxminan 1,3 AQSH dollariga tenglashtirilgan edi. SDRdan farqli o‘laroq EKYUning rasmiy emissiyasi qisman naqd oltin va dollarga aylantirilgan. EKYU emissiyasining hajmi SDRdan ko‘p.

Xuddi SDR kabi EKYU ham naqdsiz shaklda - ular bo‘yicha naqdsiz ko‘chirishda markaziy banklar (yoki tijorat banklari) schyotlarida yozuv sifatida namoyon bo‘ladi.

Yevropa valyuta tizimida (EVT) YEI har bir a’zosi valyutasining EKYUda hisoblangan asosiy kursi belgilangan. Mana shu asosiy kurs negizida valyutalarning o‘zaro kursi hisoblanadi. Bu kursdan kurslar amalda 2,25% dan ortiq farq qilishi mumkin emas. EVTga qo‘shilgan ispan peseti uchun imtiyozli rejim va Italiya lirasi uchun 1993 yil avgustidan 15% gacha o‘zgarishlar chegarasi o‘rnatilgan.

EKYU yaratishdan maqsad - ayrim EIga a’zo davlatlarni valyuta kurslarining barqarorligiga erishish edi. EKYUni yaratishning undagi muhim tomonlaridan biri AQSH dollarining oltinni o‘rnini bosish uchun yetarli darajada ishonchli emasligidir.

Bundan tashqari EKYUni yaratish Yevropa valyuta tizimini dollar o‘zgarishi va AQSHning iqtisodiy total diktatiga bog‘liqlikdan ozod qilinishi ham ko‘zda tutilgan. EKYU qo‘shma fondlar va xalqaro valyuta-kredit moliya tashkilotlarida valyuta birligi sifatida, Yagona qishloq xo‘jaligi narxlari, YEI a’zolari markaziy banklarining valyuta intervensiyasini o‘tkazishda hisob-kitoblari valyutasi sifatida namoyon bo‘ladi. 500dan ortiq yirik xalqaro tashkilotlar EKYUdan kredit berishda foydalanadilar.

7.4. Yevropa valyuta tizimi

Yevropa iqtisodiy hamjamiyatining tuzilishi Yagona Yevropa valyutasini yaratishni ko‘zda tutmagan edi. Ammo 70-yillarning o‘rtalariga kelib Yagona valyuta ittifoqini tuzish yo‘llarini qidirish faollashdi. Yevropa hamjamiyati liderlari nafaqat AQSH dollariga muqobil valyuta birligini yaratish, balki valyuta intervensiyasini amalga oshirish, valyuta o‘zgarishlarini davlat tomonidan nazorat qilishni amalga oshirishga harakat qildilar.

Murakkab muzokaralar natijasida YEI doirasida 1979 yilning martida Yevropa valyuta tizimi (EVT) tashkil topdi. EVT - umumiy iqtisodiy munosabatlarni namoyon qiluvchi, iqtisodiy integratsiya doirasida milliy valyutalarning ishlashi bilan bog‘liq bo‘lgan xalqaro (mintaqaviy) valyuta tizimidir. EVT - jahon valyuta tizimining eng muhim tarkibiy qismi bo‘lib hisoblanadi.

Yevropa valyuta tizimini yaratilish tarixining asosiy bosqichlari quyidagilardan iborat. Ya’ni 1972 yilda YEIHning, Vazirlar Kengashi hamjamiyatiga kiruvchi davlatlar

valyutalarining bir-biriga nisbatan o‘zgarishi amplitudasini cheklash haqida qaror qabul qildi. Ushbu maqsadga erishish uchun Markaziy banklar valyuta bozoridagi intervensiyalarini muvofiqlashtirishlari lozim edi. Shunday qilib “Yevropa valyuta iloni” tug‘ildi. EIH, davlatlari valyutalarining bir-biriga nisbatan kursining o‘zgarishi turli yillarda ±4,5% gacha ruxsat berildi. Grafik tasvirda “ilon” YEIga a’zo 6ta davlat (GFR, Fransiya, Italiya, Niderlandiya, Belgiya, Lyuksemburg) valyutalarining o‘zaro kursining o‘zgarishlarini eng kam miqdorini bildirgan. Agar mamlakat valyutasining kursi mumkin bo‘lganidan pastga tushib ketsa, Markaziy bank milliy valyutani chet el valyutasida sotib olishi lozim bo‘lgan.

“Valyuta iloni” a’zo-davlatlarning u yoki bu tarkibi bilan 1979 yilda V.Jiskar d, Esten va G. Shmidt taklifi bilan Yevropa valyuta tizimi kiritilgunicha amalda bo‘ldi. EVT o‘zida uch muhim elementni (EKYU - EVT asosiga, valyuta kurslari va intervensiyalari mexanizmi, Hamjamiyat davlatlari valyutalari nisbatida har ikki tomonga ±2,25% dan ortiq o‘zgarishi mumkin emasligini) qamrab oladi. Yevropa valyuta tizimida valyuta intervensiyasi bilan bog‘liq vaqtinchalik to‘lov balansi defitsiti va hisob-kitoblarni qoplash uchun Markaziy banklarga kredit berish yo‘li bilan davlatlararo mintaqaviy valyutani tartibga solish amalga oshirilgan. Yevropa valyuta tizimi oldiga quyidagi maqsadlar qo‘yilgan:

- YEI ichida yuqori valyuta barqarorligini o‘rnatish;
- barqarorlik sharoitida o‘sish strategiyasining asosiy elementi bo‘lish;
- iqtisodiy rivojlanish jarayonlarining o‘zaro bog‘liqligini kuchaytirish va Yevropa jarayoniga yangi turtki berish;
- xalqaro iqtisodiy va valyuta munosabatlariga barqarorlashtiruvchi ta’sir ko‘rsatish.

Yevropa valyuta tizimi harakat mexanizmi EKYUni tashkil qilish va barqaror, ammo tartibga solinadigan YEI davlatlari orasida valyuta kurslari orqali qiymatni o‘zaro o‘lchash negizini o‘rnatishni ko‘zda tutadi. EVT valyuta rezervlarini umumiy foydalanishga berilishini kafolatlaydi. Yaratilgan tizim YEI ichida kredit mexanizmlarining butun bir arsenalini harakatga keltiradi. Yevropa valyuta tizimining faoliyat jarayoni va rivojlanish “Delar rejasi” bilan chambarchas bog‘liq. 1989 yilda EIning atoqli arbobi (EIK raisi) J.Delar Yevropa valyuta birlashuvining uch bosqichli rejasini tasvirlagan hisobotni taqdim qildi. Bu plan quyidagilarni o‘z ichiga oladi: 1) alohida YEI davlatlarining muvofiqlashtirilgan iqtisodiy va valyuta siyosatini amalga oshirish; 2) YEI Markaziy bankini tashkil qilish; 3)Milliy valyutalarni YEI ning Yagona valyutasiga almashtirish.

1990 yilda Yevropa valyuta tizimi kengaydi. Unga Angliya, Ispaniya, Portugaliya kirdi. 1991 yilda Yagona Yevropa hududini tashkil qilish haqidagi Maastrixt shartnomasi imzolandi. Bu shartnomaga muvofiq YEI a’zolarining hukumat boshliqlari valyuta ittifoqini tuzish haqida kelishib oldilar.

G‘arbiy Yevropa valyutalari o‘zgarishini tartibga solish maqsadida tuzilgan Yevropa valyuta tizimi qariyb 15 yil mobaynida o‘z vazifalarini muvaffaqiyatli bajardi. Ammo 1992 yilning kuzidan u izdan chiqa boshladi. Bir yil mobaynida 1992 yil sentyabridan EVT dan Angliya funt sterlingi, Ispaniya peseti va Portugaliya eskudosi devalvatsiya qilindi.

Buning asosiy sabablaridan biri - qayd qilingan davlatlar markaziy banklarining valyuta devalvatsiyasiga umid qilib, kursni pasayishiga o‘ynayotgan birja olib-sotarlarining tobora kuchayayotgan hujumlariga dosh berishga qodir emasliklaridadir. Natijada 1993 yil yozida EVT ga kiruvchi 8 pul birligidan 5 tasi - Fransiya va Belgiya franki, Daniya kronasi, Ispaniya peseti va Portugaliya eskudosi o‘rnatilgan eng past darajaga tushib qoldi. Markaziy banklar tomonidan o‘z valyutalarini sun’iy ravishda ushlab turish mumkin emas degan qapop qabul qilindi. Ular belgilangan kurslar atrofida u yoki bu tomonga 15%ga o‘zgarishlari mumkin. Markaziy banklar shuningdek almashish kurslarini qo‘llash maqsadida yuqori darajada saqlab turgan hisobga olish stavkalarini pasaytirishlari mumkin.

Maastrixt shartnomasi qaroriga muvofiq YEI davlatlari tomonidan valyuta ittifoqi tuzishning oxiri, ya’ni milliy valyutalar bir-biriga nisbatan yakuniy qayd qilinadigan bosqichi 90-yillar oxirida ro‘y berishi kerak edi.

YEI rejasiga binoan valyuta ittifoqni tashkil qilinishi uch bosqichda amalga oshirilishi kerak edi.

1998 yilda boshlanadigan birinchi bosqichda valyuta ittifoqiga kirish uchun ruxsatnoma beradigan mezonga javob beradigan davlatlar aniqlandi. Maastrixt shartnomasi tomonidan belgilangan bu mezonli qarorga quyidagilarni - inflyasiya darajasi, davlat byudjeti kamomadi (3%dan ortiq emas), hisobga olish stavkasining o‘lchami, milliy valyutaning barqarorligi va boshqalarni kiritish mumkin.

Ushbu mezonlarga to‘liq javob beruvchi davlatlar birinchi guruhga kirib, bu guruh davlatlari, valyuta ittifoqini tashkil qiladi. Avvaliga bu mezonlarga faqat Germaniya, Lyuksemburg, Irlandiya va Avstriya javob bergan edi. 1998 yilning oxirigacha Markaziy Yevropa banki tashkil qilinib, Yevropa Markaziy banklar tizimi harakatga keltirildi.

Ikkinchi bosqichda (1999-2001 yy.) Markaziy Yevropa banki, birinchi qadam sifatida valyuta almashtirish bo‘yicha operatsiyalarda Yagona valyutani ishlata boshladi. Tijorat banklari va moliyaviy tashkilotlar undan valyuta bozorlarida keng foydalanisha boshladilar.

Keyingi uchinchi bosqichda (2002 y.) milliy tanga va qog‘oz pullar yangi Yevropa pul birligi EVRO bilan almashtirildi. Yangi Yagona valyuta naqd pul muomalasiga kiritildi. Milliy valyutada amalga oshirilayotgan hisob-kitoblar tizimiga mos o‘zgartirishlar kiritildi. Boshlanishida (6 oy mobaynida) yangi valyuta milliy valyutalar bilan bir vaqtda muomalada bo‘ldi. Bu davrning oxiriga kelib, rejaga muvofiq milliy valyutalar “to‘lov vositasi statusini

yo‘qotdilar”. Uchinchi bosqichda Yevropa valyuta-iqtisodiy ittifoqi hududida barcha bank schotlari Yevropa valyutasiga konvertirlanadigan bo‘ldi.

Yagona Yevropa valyutasi, iqtisodchi olimlarning fikricha, dunyoda eng kuchlilardan biri bo‘lishi uchun barcha imkoniyatlarga ega. U inflyatsiya bilan ku‘rashishni yengillashtirib, AQSH va Yaponiya bilan bozorlar uchun ko‘rashda YEI davlatlari tovar va xizmatlarining raqobatbardoshliligini oshirib YEI barqarorligining muhim omiliga aylanib boradi.

YEVROning paydo bo‘lishi qimmatli kog‘ozlar bilan bog‘liq barcha kelishuvlar hajmining oshishiga olib kelishi lozim. Yagona valyutaning kiritilishi butun dunyo investorlarining YEI ga bo‘lgan qiziqishlari tobora oshirib bormoqda. YEVRO ni juda muhim bo‘lgan valyuta bozoriga aylantirish kerak. Yagona valyutaning o‘zi esa kapital bozorida dollarning o‘rnini egallash uchun barcha imkoniyatlarga ega. YEVRO ga o‘tish butun dunyodagi moliyaviy holatga muhim o‘zgartirishlar kiritmoqda. Yagona Yevropa valyutasi dollar va iena bilan teng raqobat qilishi mumkin. Banklar, qonunga ko‘ra, kelishuvlar sonining keskin o‘sishi va investitsiyalarning yanada baynalminallashuvi sababli moliyaviy bozorlarda oladigan foydalarining oshishiga umid qilishlari kerak.

Yangi pul birligi, shuningdek bor valyutani boshqa valyutaga almashtirish bilan bog‘liq bo‘lgan sezilarli xarajatlarni yo‘qotish imkonini beradi. Bu harajatlar ba’zi hisob-kitoblarga qaraganda yiliga 40 mlrd. AQSH dollaridan 50 mlrd. dollargacha bo‘lgan. Masalan, 2 ming dollar bilan 10-12 kun G‘arbiy Yevropa davlatlari bo‘ylab yurgan fransuz sayyohi bir valyutani ikkinchi valyutaga almashtirishda bu summaning qariyb 40-50%ini yo‘qotgan. Ayni paytda, EVROning paydo bo‘lishi bilan negizida EI ichida endi tenglashtiriladigan hisobga olish stavkalari farqi yotadigan operatsiyalar ham yo‘qoladi.

7.5. Xalqaro valyuta va moliya-kredit bozorlari

Xalqaro valyuta va moliya-kredit bozorlari jahon xo‘jaligida, xalqaro iqtisodiy munosabatlarning juda muhim bo‘g‘inlaridan biridir. XX – XXI asrlar bo‘sag‘asida jahon mamlakatlarida moliya bozorlari gurkirab rivojlandi. Dunyoning ilg‘or davlatlari umumiy moliya aktivlari, ularning yalpi ichki mahsulotiga (YAIM) nisbatan 2,5 barobarga o‘sdi. Jahon valyuta va savdo operatsiyalari qiymatlarining nisbati esa dunyoning ilg‘or davlatlari umumiy aktivlari, ularning yalpi ichki mahsulotiga nisbatan 2,5 barobar tez o‘sdi. Jahon valyuta va savdo operatsiyalari qiymatlarining nisbati 1980 yildagi 10:1 dan 1992 yildagi 60:1 gacha o‘sdi. Shu bilan birga, xorij ekspertlarining fikricha, davlat obligatsiyalarining xalqaro bozori ba’zi bir kattaliklar bo‘yicha faqatgina 1920 yildagidek faoldir. Kapitalni harakatchanligi asr boshidagi darajaga yaqinlashmoqda, xolos.

Jahon iqtisodiyotida kapital davriy oboroti qonuniyati moliyaviy bozor rivojlanishining ob'ektiv asosidir. Jahonning ba'zi joylarida ortiqcha erkin kapital paydo bo‘ladi, ba'zi joylarda unga talab paydo bo‘ladi. Jahon valyuta moliya-kredit bozorlari bu qarama-qarshiliklarni jahon xo‘jaligi darajasida hal qiladi. Jahon valyuta, kredit, qimmatli qog‘ozlar bozorlari tashkil topishining ko‘rinishi quyidagilarda namoyon bo‘ladi:

- kapitalning ishlab chiqarish va bank ishida konsentratsiya;
- xo‘jalik aloqalarining baynalminallashuvi;
- banklararo telekommunikatsiyalarning rivojlanishi;

Valyuta bozorlari - xorijiy valyutaning milliy valyutaga bo‘lgan talab va taklifi asosida hosil bo‘luvchi kurs bo‘yicha oldi-sotdisi amalga oshiriladigan markazdir. Milliy valyuta bozorlari rivojlangan bozor iqtisodiyotiga ega bo‘lgan barcha davlatlarda mavjud. Milliy bozorlar va ularning o‘zaro aloqalari rivojlanib borishi bilan Yagona jahon valyuta bozori vujudga keladi. U o‘z ichiga jahon, mintaqaviy, milliy (mahalliy) valyuta bozorlarini o‘z ichiga oladi. Bu bozorlar valyuta operatsiyalarining hajmi, xarakteri va operatsiyalarda qatnashayotgan valyutalar miqdori bilan bir-biridan farq qiladi. Jahon valyuta bozorlari jahon moliya markazlarida (JMM) to‘planadi.

Jahon moliya markazlari - bu banklar, ixtisoslashgan kredit-moliya institutlari yig‘iladigan joy. Unda xalqaro valyuta, kredit, moliya operatsiyalari, qimmatli qog‘ozlar, oltin oldi-sotdisi amalga oshiriladi. Xalqaro moliya markazlari orasida London, Nyu-York, Frankfurt, Parij, Syurix, Tokiodagi bozorlar ajralib turadi. 1973 yildan 1992 yilgacha valyuta operatsiyalar hajmi kuniga 10-20 mln. AQSH doll. dan 900 mlrd. AQSH doll.ga o‘sdi.

90-yillarning boshida xalqaro valyuta savdosining 50% ga yaqini uch jahon valyuta bozorida amalga oshirildi. Jumladan, London valyuta bozorida kuniga 187 mlrd. doll., Nyu-York - kuniga 129 mlrd. doll., Tokio valyuta bozorida esa kuniga xalqoro valyuta savdosining 115 mlrd. dollari amalga oshirildi. 90-yillar o‘rtasiga kelib, xalqaro valyuta operatsiyalarining umumiy kunlik hajmi 1 trln. 230 mlrd. doll. ga etdi. Mintaqaviy va mahalliy valyuta bozorlarida ma'lum bir konvertirlanadigan valyutalar bilan operatsiyalar o‘tkaziladi. Masalan, Xitoyning valyuta markazlarida 5ta asosiy sanoati rivojlangan davlatlarning valyutalari bilan operatsiyalar o‘tkazadi. Zamonaviy jahon xo‘jaligida valyuta bozorlari uchun quyidagilar o‘ziga xosdir:

1.Jahon xo‘jalik aloqalarining baynalminallashuvi, valyuta savdosi amalga oshirishda avtomatik aloqa vositalaridan keng foydalanish asosida valyuta bozorlarini baynalminallashuvi;

2.Valyuta operatsiyalarining nomarkazlashuvi va global miqyosi;

3.Valyuta operatsiyalarining unifikatsiyasi;

4.Chayqovchilik savdosining keng miqyosdaligi.

Valyuta kurslarining barqarorligi

Valyuta bozorlari xalqaro hisob-kitoblarni operativ amalga oshirish, xalqaro valyuta bozorlarining kredit va moliya bozorlari bilan o‘zaro aloqasini ta’minlaydi. Valyuta bozorlari yordamida banklar, korxonalar, davlatlarning valyuta zaxiralari to‘ldiriladi. Bundan tashqari, valyuta bozorlari mexanizmidan iqtisodiyotni davlat tomonidan boshqarilishida, shu jumladan makrodarajada davlatlar guruhi doirasida (masalan, YEI) foydalaniladi. Institutsion nuqtai nazarida, valyuta bozorlari - bu birja, brokerlik firmalari, banklar, korporatsiyalar va shuningdek transmilliy korporatsiyalar umumiyligidir. 80-yillarning oxirida banklararo bozorda o‘zaro bir-birlari bilan, shuningdek savdo-sanoat mijozlari bilan 85-90% atrofida valyuta savdosi amalga oshirilgan bo‘lsa, 90-yillar o‘rtalarida savdo kelishuvlarining tobora ko‘pchiligi banklar emas, investitsion fondlar tomonidan amalga oshirilgan edi.

Xalqaro kredit-moliya munosabatlari ssuda kapitalining jahon kredit va moliya bozorlaridagi harakati bilan bog‘liq bo‘lgan munosabatlar tizimini qamrab oldi. Xalqaro kredit bozorida davlatlar o‘rtasida qaytarish, vaqtli, foiz to‘lash shartlari bo‘yicha pul kapitalining harakati ro‘y beradi. Jahon kredit bozori - ssuda kapitalining bir qismidir. Ssuda kapitali bozori o‘z ichiga birinchidan, jahon pul bozorini olsa (1 kundan 1 yilgacha qisqa muddatli depozit-ssuda operatsiyalari, shuningdek Evrovalyutalar bozorini o‘z ichiga oladi), ikkinchidan, jahon kapitali bozorini (o‘rta va uzoq muddatli xorijiy kreditlar va Evrokreditlar bozorini-1 yildan 15 yilgacha) o‘z ichiga oladi.

Jahon moliya bozori - bu ssuda kapitallari bozorining bir qismi bo‘lib, unda asosan qimmatbaho qog‘ozlar emissiyasi va savdo-sotig‘i amalga oshiriladi. Jahon ssuda kapitali bozori milliy ssuda kapitali bozorlarining xalqaro operatsiyalari asosida paydo bo‘ladi, ularning baynalminallashuvi davomida rivojlanadi. Jahon ssuda kapitallari bozori oxirgi o‘n yillikda tez rivojlandi. Bunga sabab ssuda kapitali harakatining uzoq muddatli an’analari, bu harakatni milliy darajada tartibga soluvchi davlatlarning huquqiy normalarining liberallashuvi, qimmatli qog‘ozlar harakatining kengayishi, integratsion jarayonlardir. Jahon ssuda kapitali bozori jahon xo‘jaligida ssuda kapitali harakatini ta’minlovchi turli kompaniya, bank valyuta-kredit munosabatlari birligini qamrab oladi. Jahon xo‘jaligi va xalqaro iqtisodiy aloqalarning rivojlanishining XX asr oxirigidagi muhim tendensiyasi shundaki, xalqaro kredit-moliya munosabatlari o‘sish sur’atlari bo‘yicha sanoat ishlab chiqarish va xalqaro savdodan ancha oldindadir.

XX asrning 50-yillari oxiridan boshlab xalqaro kredit-moliya bozorining rivojlanishi jahon ssuda kapitali bozorining o‘ziga xos tomoni - Yevrobozorning vujudga kelishi va kengayishiga sabab bo‘ldi.

Yevrobozor - bu Yevrovalyutada kredit zayomlar bo‘yicha operatsiyalar amalga oshiriladigan bozordir.

Yevrovalyuta - mamlakatning biror bir xorijiy bank hisobiga o‘tkazilgan va shu banklar tomonidan barcha davlatlarda, shu jumladan, emitent davlatda ham operatsiyalar amalga oshirishda foydalanadigan konvertirlanadigan valyutasidir.

Yevrobozorlar - davlat, hukumat bozori degan maqomga ega emas. Ularning paydo bo‘lishiga korxonalar, investorlar, shuningdek ba’zi bir davlatlarning ehtiyoji sabab bo‘ladi. Yevrobozorlardagi operatsiyalar ayrim davlatlarni davlat tomonidan valyutani tartibga solinuviga va soliq qonunchiligiga bo‘ysunmaydi. Jahon iqtisodiyotida evrobozorlar 50-yillar oxirida yuzaga kelgan bo‘lib, buning asosiy sabablari quyidagilardan iboratdir:

1.Dollarni AQSHdan tashqarida joylashtirish taklifining paydo bo‘lishi.

2.Yevropada dollarga bo‘lgan talabning kattaligi.

3.AQSHdagi tartibga solishning bu davlatda dollar bilan valyuta operatsiyalarini o‘tkazishning erkin bozordagiga nisbatan mushkullashtirilganligi.

4.Yevropa banklarining xalqaro operatsiyalarini moliyalashtirish qurolini topishga bo‘lgan istagi va boshqalar.

Yevrobozorlarning rivojlanishi jahon miqyosida moliyaviy resurslarga talab va taklifning erkin nisbatini yaratishga imkon berdi. Yevrobozorlar korxonalarga moliyalashtirishga bo‘lgan ehtiyojlarini ichki kapital bozoriga murojaat kilmasdan qondirish imkoniyatini beradi. Ular moliyaviy resurslarni ratsional joylashtirish imkoniyatini beradi.

Shunday qilib, evrobozorlar o‘z faoliyatlarini diversifikatsiya qilib jahon miqyosi o‘lchamlarini oladi. Ular kapital joylashtirish va kreditlash bo‘yicha operatsiyalarni barcha xalqaro operatorlarga taklif qiladi. Yevrobozorlar barcha yirik xalqaro banklarni, jahon moliyaviy markazlarni va barcha konvertirlanadigan valyutalarni mobilizatsiya qiladi. Yevrobozorlarning rivojlanishi yangi moliyaviy markazlarni (Singapur, Gongkong, Quvayt, Kayman orollari va boshqalar) paydo bo‘lishiga olib keldi. 1981 yilning dekabrida Nyu-Yorkda xalqaro bank xizmatlari bo‘yicha erkin zona paydo bo‘lgan bo‘lsa, 80-yillarning oxiriga kelib yangi jahon moliya markazlarida butun dunyo xalqaro valyuta-moliya operatsiyalarining uchdan bir qismi to‘plangan edi. Shunday qilib, Yevrobozorlarni rivojlanishi va xalqaro moliyaviy bozorlarni baynalminallashuvi xalqaro iqtisodiy munosabatlar uchun tovarlar bozorini rivojlanishi va baynalminallashuvida xalqaro mehnat taqsimoti kabi ahamiyatga ega bo‘ldi.

Tayanch iboralar: valyuta kursi, valyuta pariteti, oltin standart tizimi, oltin-deviz standarti tizimi, oltin-valyuta standarti tizimi, Yamayka tizimi, SDR, ssuda bozori, yevrobozorlar, yevrodollar.

Bobning qisqacha xulosasi:

XX asrlarning 50-60-yillarida xalqaro moliya va valyuta munosabatlarining rivojlanishida yangi davr boshlandi. Ochiq iqtisodiyotning umumiy rivojlanish tendensiyasi savdoda tovar ayirboshlashning tezlashishiga, xalqaro moliyaning rivojlanishiga, yangi valyuta bozorlarini hosil bo‘lishiga, mamlakatlar orasida valyuta-moliya munosabatlarini kengayishiga imkoniyat yaratmoqda.

Jahon iqtisodiyotida valyuta munosabatlari pulning jahon puli funksiyasi bilan bog‘liq bo‘lgan iqtisodiy munosabatlarda namoyon bo‘ladi. Valyuta munosabatlari odatda milliy va xalqaro darajada amalga oshiriladi. Milliy darajada ular milliy valyuta tizimlari (MVT) sohasini qamrab oladi. MVT – bu valyuta qonunchiligi bilan belgilanadigan davlat valyuta munosabatlarini tashkil qilish shaklidir. MVTning o‘ziga xos tomoni u yoki bu davlat iqtisodiyotining, shuningdek tashqi iqtisodiy aloqalarining rivojlanish darajasini xususiyatlari bilan ajralib turadi.

Xalqaro valyuta tizimi (XVT) jahon xo‘jaligi doirasida valyuta munosabatlarini tashkil qilish shaklidir. U jahon kapitalistik xo‘jalik evolyutsiyasi (4 bosqichni bosib o‘tgan) natijasida paydo bo‘lib, huquqiy jihatdan davlatlararo kelishuvlar bilan rasmiylashtirilgan. Jahon iqtisodiyotida XVTning asosiy vazifasi iqtisodiy o‘sishni ta’minlashdan, inflyasiyani kamaytirishdan, tashqi iqtisodiy almashuv va to‘lov balansining mutanosibligini qo‘llab-quvvatlash uchun xalqaro hisob-kitoblar va valyuta bozori sohasini tartibga solishdan iboratdir.

Jahon iqtisodiyotida evrobozorlarni rivojlanishi va xalqaro moliya bozorlarini baynalminallashuvi xalqaro iqtisodiy munosabatlar uchun tovarlar va bozorlarni rivojlanishi hamda baynalminallashuvida xalqaro mehnat taqsimotini rivojlanishi kabi muhim ahamiyat kasb etadi.

Nazorat uchun savollar:

1.Valyuta kursi qanday aniqlanadi?

2.Valyuta pariteti nima?

3.Jahon valyuta tizimi deganda nimani tushunasiz?

4.Jahon valyuta tizimining rivojlanish bosqichlarini ko‘rsatib bering?

5.Bretton-Vuds valyuta tizimining xususiyatlari nimada?

6.Yamayka tizimini vujudga kelishining sabablari nimada?

7.Yevrodollar nima?

8.Yevroning kiritilishi YEI davlatlari va shuningdek, jahon iqtisodiyotiga qanday ta’sir ko‘rsatdi?

9.Xalqaro moliya bozorlaridagi tendensiyalarni gapirib bering.

8-mavzu. Jahon xo'jaligida rivojlangan mamlakatlar iqtisodiyoti

Ko'rib chiqiladigan asosiy savollar:

1. Jahon xo'jaligida rivojlangan mamlakatlarning tutgan o'rni
2. Rivojlangan mamlakatlarning integratsion birlashmalari
3. Jahon mashinasozlik sanoati va uning rivojlanish xususiyatlari

Mavzuga oid tayanch tushuncha va iboralar: katta ettilik", YaIM darajasi, tashqi savdo hajmi, resurslarga ehtiyoj, TMK, sanoatlashish darajasi, postindustrializatsiya, xizmatlar sohasi ulushining ortib borishi

Mavzuda ko'rib chiqiladigan muammolar:

1.Sanoati rivojlangan mamlakatlar jahon iqtisodiyoti va siyosatida muhim rolo'ynaydi. Shunga siz qanday fikr bildirasiz?

2.Rivojlangan mamlakatlar sanoati xarakteristikasi qanday izohlaysiz?

3.Rivojlangan mamlakatlarning integratsion birlashmalari mavjud. Shunga siz qanday fikr bildirasiz?

1-asosiy savol bo'yicha dars maqsadi: Talabalarda rivojlangan mamlakatlarning jahon xo'jaligida tutgan o'rni to'g'risida tushunchalar hosil qilish.

Identiv o'quv maqsadlari:

1.1.Rivojlangan mamlakatlar iqtisodiyoti mohiyatini izohlay oladi.

1.2.Rivojlangan mamlakatlarning jahon xo'jaligi va siyosatida tutgan o'rnini izohlay oladi.

8.1. Jahon xo‘jaligida rivojlangan mamlakatlarning tutgan o‘rni

XX-XXI asrlar bo‘sag‘asida jahon xo‘jaligida rivojlangan mamlakatlarning tutgan o‘rni juda katta bo‘lib, bunday guruhga kiruvchi davlatlar asosan Yevropa qit'asi va Shimoliy Amerika materigida joylashgandir.

Ma'lumki, rivojlangan "katta ettilik" davlatlar (hozirgi kunda ushbu davlatlar guruhiga Rossiya Federatsiyasini qo‘shilishi bilan "katta sakkizlik" davlatlar degan so‘zlar ham jahon iqtisodiyotida ishlatilmoqda) iqtisodiyotini rivojlanishi asosan tabiiy resurslardan qanday foydalanishlik darajasiga va shuningdek uzoq yillarga mo‘ljallangan zamonaviy ilmiy-texnikaviy taraqqiyotdagi o‘zgarishlarga bog‘liqdir. Shuning uchun ham bu mamlakatlar iqtisodiyotida tabiiy resurslardan tejamli foydalaniladi, ishlab chiqarishda esa energetika quvvati pasayishiga yo‘l qo‘yilmaydi. Masalan, AQSH ishlab chiqarishida asosan kam harajat qilish evaziga yalpi ishlab chiqarilayotgan mahsulot 1900-1990 yillar davomida 8-9 baravarga, qishloq xo‘jalik mahsulotlarini ishlab chiqarish esa 4-5 baravarga ortgan edi.

Hozirgi kunda rivojlangan mamlakatlarda sanoat tarmoqlarining rivojlanishi qanchalik yuqori bo‘lmasin narx-navoning ko‘tarilishi ushbu davlatlarda yuqoriligicha qolmoqda. Bu holat albatta xizmat ko‘rsatish sohalari va shuningdek ilmiy-texnikaviy inqilobga asoslangan yangi tarmoqli sanoat korxonalarining vujudga kelishi bilan bog‘liqdir.

Jahon xo‘jaligining rivojlanishida rivojlangan mamlakatlarning qay darajada sanoat energetikasi bilan ta’minlanganligi ham muhim rol o‘ynaydi. Hozirgi kunda bir qator rivojlangan mamlakatlar o‘zlari ishlab chiqarayotgan sanoat energetikasi mahsulotlaridan tejamkorlik bilan samarali foydalanib kelmoqdalar. Masalan, 1970-1990 yillar davomida AQSH sanoat energetikasi iste’molini 40% ga, Yaponiya va Fransiya davlatlari esa, 30% ga qisqartirish imkoniyatiga ega bo‘lishgan edi.

Jahonning rivojlangan mamlakatlarining barchasida qayta ishlash sohalari yaxshi yo‘lga qo‘yilgan bo‘lib, ular asosan tejamkorlik bilan samarali foydalanishning ijtimoiy dasturlari asosida amalga oshirilmoqda. Hozirgi kunda rivojlangan mamlakatlarning ishlab chiqarishida qimmatbaho nodir metallar o‘rnini bosuvchi mahsulotlarni kengroq ishlatilishi muhim rol o‘ynamoqda.

Jahon xo‘jaligi rivojlanishida yetakchi sanoati rivojlangan mamlakatlar (AQSH, GFR, Yaponiya, Buyuk Britaniya, Fransiya, Kanada, Italiya) iqtisodiyoti muhim rol o‘ynamoqda. Ushbu mamlakatlar ulushiga rivojlangan davlatlarda ishlab chiqarilayotgan jami sanoat mahsulotlarining 79-80%i va dunyo mamlakatlarida ishlab chiqarilayotgan sanoat mahsulotlarining 59-60%i, tovarlar eksportining 60-61%i va xizmat ko‘rsatish sohalarining 49-50%i to‘g‘ri kelmoqda.

Rivojlangan mamlakatlar guruhi hozirgi kunda o‘z tarkibida jahonning 30 dan ortiq davlatini birlashtirgan bo‘lib, bu davlatlar dunyo mamlakatlari xo‘jaligida tutgan o‘rniga ko‘ra bir necha klassifikatsiya bo‘lib o‘rganiladi. Ular quyidagilardan iborat:

1.Yalpi ichki mahsulot (YAIM) hajmi bo‘yicha rivojlangan katta “Yettilik” davlatlar guruhi (ushbu davlatlar guruhiga Rossiya Federatsiyasini qo‘shilishi bilan “katta sakkizlik” davlatlar guruhi degan so‘zlar ham ishlatilmoqda). Ushbu guruhga AQSH, Yaponiya, GFR, Buyuk Britaniya, Fransiya, Italiya, Kanada kabi davlatlarni kiritish mumkin.

2. Yevropa Ittifoqi kiruvchi davlatlar guruhi. Ushbu guruhga GFR, Belgiya, Daniya, Irlandiya, Ispaniya, Italiya, Lyuksemburg, Niderlandiya, Portugaliya, Buyuk Britaniya, Fransiya, Shvesiya, Finlandiya, Avstriya kabi davlatlarni kiritish mumkin.

3. Yevropa Erkin Savdo assotsiatsiyaga (EAST) kiruvchi davlatlar guruhi. Ushbu guruhga Islandiya, Lixtenshteyn, Norvegiya, Shvesariya kabi davlatlarni kiritish mumkin.

4. Benilyuks guruhiga kiruvchi davlatlar guruhi. Ushbu guruhga Belgiya, Niderlandlar va Lyuksemburg kabi davlatlar kiradi.

5. Shimoliy Amerika Erkin savdo shartnomasiga (NAFTA) kiruvchi davlatlar guruhi. Ushbu guruhga AQSH, Kanada, Meksika kiradi.

Rivojlangan mamlakatlarning jahon iqtisodiyotida utgan o‘rni miqdoriy va sifat ko‘rsatkichlari bo‘yicha ifodalanadi:

Miqdoriy ko‘rsatkichlar:

- jahon sanoat maxsulotlari ishlab chiqarishining 57 foizi;
- jahon qishloq xo‘jaligi maxsulotlari ishlab chiqarishining 40 foizi ushbu mamlakatlar ulushiga to‘g‘ri keladi;

Sifat ko‘rsatkichlari:

- iqtisodiyotning ko‘p tarmoqli tarkibiga egaligi. Xizmatlar sohasi ushbu mamlakatlar yalpi ichki mahsulotining 60 foizidan ortig‘ini tashkil etadi;
- jahondagi tayyor mahsulotlar ishlab chiqarishining 80 foizi ushbu mamlakatlar ulushiga to‘g‘ri keladi;
- jahondagi ilmiy-tadqiqot ishlanmalari va yuqori texnologik mahsulotlar ishlab chiqarishning 90 foizi taraqqiy etgan mamlakatlar hissasiga to‘g‘ri keladi;

Jahon iqtisodiyotida o‘zining iqtisodiy va siyosiy mavqei darajasi bo‘yicha rivojlanagan mamlakatlarning uch markazi shakllangan. Bular:

1.G‘arbiy Yevropa – Jahon yalpi ichki mahsulotining 25% dan ortig‘ini ishlab chiqaradi;

2.Shimoliy Amerika - Jahon yalpi ichki mahsulotining 25% ga yaqin ishlab chiqaradi;

3. Yaponiya - Jahon yalpi ichki mahsulotining 8-9% ni ishlab chiqaradi;

8.2. G‘arbiy Yevropa davlatlarining jahon xo‘jaligidagi o‘rni

Jahon xo‘jaligi va XIMda G‘arbiy Yevropa mamlakatlarining iqtisodiy ribojlanishi alohida o‘rin egallaydi. Hozirgi kunda G‘arbiy Yevropa davlatlari hissasiga jahonda ishlab chiqarilayotgan jami yalpi milliy mahsulotning 28-29% i, dunyo aholisining 7-8% i to‘g‘ri keladi.

G‘arbiy Yevropa davlatlari guruhiga jami 28 ta davlat kirib, bu davlatlar guruhi o‘z hududlarining katta-kichikligi, aholisini oz-ko‘pligi va turli-tumanligi, boy tabiiy resurslarga egaligi bilan bir-biridan keskin farq qiladi. G‘arbiy Yevropa davlatlari bazasida 1957 yilda “Umumiy bozor” hamkorlik tashkiloti tashkil topdi. 1962 yilda Yevropa Erkin Savdo Assotsiatsiyasi tuzildi. Ushbu davlatlar o‘rtasida sanoat tovarlari bilan erkin savdo aloqalarni olib borish to‘g‘risida qator shartnomalar tuzildi. “Yevropa iqtisodiy kengashi to‘g‘risida”gi shartnomaga muvofiq 1992 yilning mayida G‘arbiy Yevropa Erkin Savdo zonasi va mintaqaviy iqtisodiy kompleksi tuzildi. Ushbu mintaqaviy iqtisodiy kompleks G‘arbiy Yevropaning 19 ta

davlatini o‘z tarkibiga birlashtirgan bo‘lib, G‘arbiy Yevropa va dunyo mamlakatlarida tovarlarning erkin harakati, xizmat ko‘rsatish sohalari, kapital va aholi migratsiyasini doimo nazorat qilib turadi.

G‘arbiy Yevropa Erkin Savdo zonasi hissasiga jahon savdosi aylanmasining 48-50%i to‘g‘ri kelib, bu iqtisodiy zona hozirgi kunda 400 mln. ga yaqin iste’molchiga egadir.

G‘arbiy Yevropa davlatlarining iqtisodiy taraqqiyotida jahon mamlakatlari bilan olib borilayotgan tashqi savdo aloqalar muhim rol o‘ynaydi. O‘tgan asrning 70-yillardagi Yevropa Ittifoqi (YEI) davlatlari dunyoda eng yirik savdo blokdan biriga aylangan edi. Hozirgi kunda jahon mamlakatlarining xo‘jalik aloqalarida tovarlar eksportini kapital eksporti bilan almashuvi holatlari kengayib bormoqda. Agar Yevropa Ittifoqi mamlakatlari hissasiga to‘g‘ridan-to‘g‘ri yo‘naltirilgan kapital eksporti 1961-1964 yillarda 8,7% ni, 1974-1975 yillarda 37,4% ni tashkil etgan bo‘lsa 1980-1995 yillarda esa 60-65% ni tashkil etgan edi. 1970 yilda jahon tovarlar eksportida G‘arbiy Yevropa hamjamiyati davlatlarining hissasi 34,4% ni tashkil etgan bo‘lsa, 1995 yilda 45,8% ni tashkil etgan.

XX-XXI asrlar bo‘sag‘asida bozor iqtisodiyoti rivojlangan mamlakatlarning 40 tasi G‘arbiy Yevropa, Shimoliy Amerika, Osiyo, Avstraliya va Okeaniyada joylashgan bo‘lib, uning 29 tasi iqtisodiy hamkorlik va rivojlanish tashkilotining a’zosidir. Rivojlangan davlatlarning 7 tasi, ya’ni AQSH, Yaponiya, Germaniya, Buyuk Britaniya, Fransiya, Kanada, Italiya jahonning «katta yettilik» davlatlari hisoblanadi. Ushbu davlatlar hozirgi kunda jahon xo‘jaligining barcha tarmoqlarini, iqtisodiy rivojlanish yo‘nalishini va shuningdek, mintaqalarda davlatlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish alomatlarini belgilab beradi.

Rivojlangan mamlakatlarning iqtisodiy rivojlanishining asosiy ko‘rsatkichlaridan biri aholi jon boshiga to‘g‘ri keladigan yalpi ichki mahsulot miqdori hisoblanadi. Ushbu ko‘rsatkich bu guruhdagi mamlakatlarda 40-70 ming AQSH dollarini tashkil etgan holda rivojlanayotgan mamlakatlardagi shu ko‘rsakichdan 10-15 marta yuqori hisoblanadi.

Jahon xo‘jaligida ishlab chiqarishning asosiy qismi rivojlangan mamlakatlar xududiga to‘g‘ri keladi. Rivojlangan mamlakatlarda jahon aholisining 15 % istiqomat qilgan holda jahon tayyor mahsulot ishlab chiqarishining 80% yaqini to‘g‘ri keladi. Ishlab chiqarishda asosan intensiv o‘sish tendensiyasi kuzatiladi. Milliy iqtisodiyotlarning deyarli barcha sohalarida fan-texnika tarraqiyoti yutuqlari kirib borgan. Shuning uchun ham rivojlangan mamlakatlar hozirgi kunda jahonning boshqa mamlakatlarining iqtisodiy rivojlanishi yuzasidan(tashqi savdo, xorijiy investitsiya tarmog‘i, transmilliy korporatsiya tarmog‘i, ilmiy texnikaviy monopoliyaga erishish va boshqalarni) nazorat qilishni yildan-yilga kengaytirib bormokda. 1929-1933 yillarda jahon kapitalistik xo‘jalik tizimini inqirozga yuz tutishi boshqarish tizimini izdan chiqishi,

iqtisodiyotning beqarorligi, inflyasiya, ishsizlikning kuchayishi, ishlab chiqarishning keskin tushishiga olib kelgan edi.

Rivojlangan mamlakatlarning iqtisodiyotida davlat rolining ko‘zga ko‘rinarli darajada o‘sishi Ikkinchi jahon urushidan keyin yuz berdi. Bu esa o‘z navbatida aralash iqtisodiyotni yuzaga keltirdi. Ya’ni, xususiy biznesda asosiy o‘rinni davlat sektori egallagan edi. Davlat sektori va xo‘jalik mexanizmining bozor elementlariga qarab rivojlangan mamlakatlarning aralash iqtisodyotini quyidagi bir necha iqtisodiy rivojlanish modellari asosida o‘rganish mumkin:

- Ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning liberal (Amerika) modeli-bunda xususiy mulkchilik ishlab chiqarish raqobatida bozor mexanizmidan yuqori darajada sotsial differensiyalanadi. Davlat sektori makro-mikro iqtisodiyotni qonunlar asosida boshqarib turadi. Soliq, pul-kredit siyosati, raqobat va shuningdek monopoliyani cheklash, bozorning kasotga uchrashi kabi aholining ma’lum bir guruhlarining ijtimoiy-iqtisodiy qiziqishlarini himoya qiladi. Liberal model asosan AQSH va Kanadaniki bo‘lib Buyuk Britaniya, Irlandiya, Belgiya, Italiya va Fransiya kabi davlatlar ham hozirgi kunda liberal model asosida o‘z iqtisodiyotini rivojlantirib bormokda.

- Sotsial bozor (Germaniya) modeli-ushbu model bozor mexanizmi infrastrukturasini tashkil qiladi va uni to‘ldiradi. Doimo aholining ishlab chiqarishdagi qiyinchiliklariga bardosh berishini qo‘llab-quvvatlaydi. Davlat iqtisodiy kam ta’minlangan oilalarni, ishsizlarni, yoshlarni, kichik va o‘rta fermer xo‘jaliklarini o‘zining himoyasiga olib, katta iqtisodiy faollikni olib boradi.

- Shved modeli. Jahon iqtisodiyotida bu model asosan Shvetsiya, Skandinaviya, Avstraliya mamlakatlarida qo‘llanilgan. Ushbu modelda daromadlarni keng miqyosda qayta taqsimlash va shuningdek ijtimoiy-iqtisodiy birlikka asoslangan sotsial kafolatlar yuqori darajada bo‘lishlik harkaterlidir. Shved modelining yana bir harakterli tomoni shundaki, kasaba uyumalarining xizmat sohalariga asoslanib jamoat va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish va mustahkamlashga yunaltirilganligidir. Ushbu model kooperativ modeli ham deyiladi. Shved modeli o‘zining turli tumanligi bilan Yapon modeliga xizmat qiladi.

Bozor iqtisodiyoti sanoati rivojlangan mamlakatlar uchun tovar ishlab chiqarish va uni manfaatli proporsional rivojlanishida muhim ahamiyat kasb etadi. Bu davlatlarda umumiy ishlab chiqarishning qonuniyligi siklli xarakterda (ishlab chiqarishning tebranishlari va ko‘rsatkichlarida, bandlik va narxda) namoyon bo‘ladi. Iqtisodiyot nazariyasida investitsiya aktivlarining tebranishlari pul massasining hajmida, umumiy harajatlarda asosiy kapital hajmining yangilanishi va ishlab chiqarish texnologiyasining almashtirilishi sikllarida namoyon bo‘ladi.

Jahonning ilg‘or mamlakatlarida bu holatning siklli rivojlanishiga ta’sir etmasligiga doim ko‘rilgan chora-tadbirlar avtotxon harakter kasb etadi. Zamonaviy sharoitda siklli rivojlanish harakteriga faqat kapitalning yangilanishi ta’sir etib qolmasdan balki yangi ishlab chiqarilgan mahsulotlarini moddiylashtirilishi va shuningdek umumiy ishlab chiqarishning asosiy resurslari farqidagi ma’lumot almashuvlari ham ta’sir qiladi. Jahonning sanoati rivojlangan davlatlarda iqtisodiyotning boshqa bir muhim jihatlarini biz ijtimoiy-iqtisodiy o‘sishning nomutanosibligida ko‘rishimiz mumkin.

Umumiy ishlab chiqarishda bozor iqtisodiyotining siklligi mehnatning samaradorligi, daromad ko‘rsatkichlari va shu kabilarda namoyon bo‘ladi. Agar, XVIII asr oxiri va XIX asrning 70-yillariga qadar jahon iqtisodiyotida Buyuk Britaniya lider davlatlardan biri bo‘lgan bo‘lsa, XIX asrning 80-90 yillariga kelib o‘zining liderlik o‘rnini yosh kapitalistik davlatlar bo‘lmish AQSH, Germaniya va Fransiyaga bo‘shatib bergan edi. Ammo G‘arbiy Yevropada o‘zining etakchilik pozitsiyasini saqlab qolganligini ko‘rishimiz mumkin.

Rivojlangan mamlakatlarning iqtisodiy rivojlanishning eng yuqori cho‘qqisiga chiqishi bo‘lib o‘tgan ikkita jahon urushlariga bevosita bog‘liqdir. Masalan, Birinchi Jahon urushida Germaniyaning yutqazishi AQSH, Angliya va Fransiyaning jahon xo‘jaligida o‘zining pozitsiyasini yanada mustahkamlashiga sabab bo‘ldi. Germaniyaning Ikkinchi Jahon urushidagi yakka xukmronlikka bo‘lgan intilishi esa uning mag‘lubiyati va iqtisodiyotining nihoyatda pasayib ketishi bilan yakunlandi. Bu paytda esa AQSH jahonning rivojlangan kapitalistik davlatlarining liderlaridan biri bo‘lib qolgan edi.

8.3. Rivojlangan mamlakatlarning integratsion birlashmalari

Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti (IHTT). Ikkinchi jahon urushidan keyin jahon mamlakatlari iqtisodiyoti va shuningdek xalqaro iqtisodiy munosabatlarni keskin rivojlanib borishi bilan bog‘liq holda bir qator birlashgan umumiqtisodiy tashkilotlar tashkil topdi. Ana shunday tashkilotlardan biri Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkilotidir. Bu tashkilot dunyoda eng yirik umumiqtisodiy tashkilotlardan biridir. Uning tarkibida jahonning 24 ta davlati, ya’ni, barcha rivojlangan kapitalistik (Janubiy Afrika Respublikasi va Isroildan tashqari) davlatlari birlashgan. Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti (a’zolari - AQSH, Yaponiya, Kanada, Avstraliya, Yangi Zelandiya, Islandiya, Norvegiya, Shveysariya, Turkiya davlatlari, shuningdek YEI mamlakatlariga kiruvchi 25 mamlakat) 1961 yilda Yagona iqtisodiy siyosatni nazorat qilish maqsadida tuzilgan bo‘lib, quyidagi maummolarni hal etib kelmoqda.

1. Jahon mamlakatlari iqtisodiyotining ahvoli va kelajakda ularning rivojlantirish yo‘llari;

2. Jahon mamlakatlari o‘rtasida ro‘y berayotgan xalqaro savdoni erkin qo‘yish va tartibga solish;

3. Valyuta-kredit tizimini barqarorlashtirish;

4. Sanoati rivojlangan mamlakatlarning rivojlangan davlatlar va shuningdek bozor iqtisodiyoti asosida rivojlanib borayotgan yangi mustaqil davlatlar bilan iqtisodiy munosabatlarni olib borishi va h.k.lar;

Rivojlangan “katta yettilik” davlatlarining vakillari Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkilotining Ijroiya qo‘mitasining doimiy a’zolari bo‘lib hisoblanadi.

80-yillardan so‘ng jahon xo‘jaligi va XIMda paydo bo‘lgan kuchli xalqaro uyushmalardan biri Osiyo-Tinch okeani mintaqasi davlatlarining iqtisodiy hamkorlik tashkiloti (1989 y.) va 1994 yilda tashkil topgan Shimoliy Amerika mamlakatlari iqtisodiy hamkorlik tashkiloti (NAFTA) hisoblanadi.

Osiyo-Tinch Okeani mintaqasi davlatlarining iqtisodiy hamkorlik tashkiloti shu hududdagi 20 dan ortiq mamlakatni (Yaponiya, Filippin, Tailand, Bruney, Yangi Zellandiya, Gonkong, Xitoy, Avstraliya) birlashtirgan bo‘lib, bu davlatlar hissasiga jahon mamlakatlarining yalpi milliy mahsulotini 23-24% i, jahon savdosining 40-42% i va dunyo aholisini 40-41% i to‘g‘ri keladi. Bu hamkorlik tashkilotiga a’zo bo‘lgan davlatlar 1991 yilda Osiyo zonasida erkin savdoni rivojlantirish va savdo sohasidagi samaradorlikni yanada ko‘tarish maqsadida 15 yilga (2005-yilga qadar) savdo chegaralarini va chegara bojlarini bekor qilish to‘g‘risida qaror qabul qilishgan. hozirgi kunda Osiyo-Tinch okeani mintaqasi davlatlari jahonning ko‘plab mintaqalarida moliyaviy ishlarni rivojlantirish, vositachilik, axborotlashtirish va shuningdek transport xizmatlarini kengaytirish ishlariga o‘z hissalarini qo‘shib kelmoqdalar. Xullas, hozirgi kunda Osiyo-Tinch okeani mintaqasi davlatlarining iqtisodiy hamkorlik tashkiloti nafaqat Osiyo mintaqasi, balki jahon mamlakatlari ichida ham yetakchi roliga da’vogarlik qilib turibdi.

Jahon iqtisodiyoti va xalqaro iqtisodiy munosabatlarning rivojlanishida Shimoliy Amerikaning uch yirik davlatini 1994 yilning 1 yanvarida birlashishi (NAFTA davlatlari) muhim ahamiyatga egadir. Bu mamlakatlar (AQSH, Kanada, Meksika) hissasiga jahon mamlakatlarining yalpi mahsulotining 31-32% i, dunyo aholisining 7-8% i to‘g‘ri keladi (NAFTA davlatlari hududida 370 mln.dan ortiq aholi yashaydi). Bu davlatlar tomonidan ishlab chiqarilgan yillik tovar va xizmatlar hajmi 7 trln. AQSH dollarini tashkil qiladi. NAFTA davlatlari ulushiga jahon savdosi umumiy hajmining 19-20% i to‘g‘ri keladi.

NAFTA davlatlari tomonidan imzolangan shartnomaning asosiy huquqiy holatlari quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

1. AQSH, Kanada va Meksika davlatlari o‘rtasida savdo tovarlarga nisbatan bojlarni bekor qilish;

2. Shimoliy Amerika bozorlarini Meksika orqali kirib kelayotgan tovarlarga nisbatan bojlarni to‘lamaslikka harakat qiluvchi Osiyo va Yevropa kompaniyalarining ekspansiyasidan himoya qilish;

3. Meksikaning bank va sug‘u‘rta kompaniyalari ichida AQSH va Kanada kompaniyalarini kapital qo‘yilmalariga nisbatan bo‘lib turadigan turli tazyiq va ta’qiqlarni olib tashlash;

4. Ekologik atrof-muhitni himoyalash bilan, bog‘liq bo‘lgan muammolarni hal etish va h.k.lar;

NAFTA davlatlari tomonidan imzolangan ushbu shartnomaga muvofiq 5 yil mobaynida (2005 yilga qadar), AQSH Meksikadan import qilinadigan mahsulotlar tu‘rining 2G’3 qismi uchun bojxona tariflarini bekor qilishi ko‘zda tutilgan. Imzolangan kelishuvlardan eng ko‘p foydani savdo bloklarida qatnashuvchi iste’molchilar oladigan bo‘lishdi, chunki raqobatning kuchayishi va tovarlarga nisbatan tariflarning pasaytirilishi natijasida keng tovarlar bo‘yicha narxlar pasayadi.

NAFTA davlatlari shartnomasiga muvofiq AQSH sanoatchilari arzon ishchi kuchi oqimini kuchayishi bilan bog‘liq holda ko‘plab foyda ko‘rishni maqsad qilib qo‘ygan edi. Kafolatlangan daromadning o‘sishi bilan bog‘liq holda Amerika iqtisodiyotining - elektronika kompyuter ta’minoti, qurilish materiallari, avtomobil ehtiyot qismlarini ishlab chiqarish va boshqa sohalarni rivojlantirish ko‘zda tutilgan. Ayni paytda, shakar, sitrus mevalari, qishki sabzovot yetishtiruvchi AQSH fermer xo‘jaliklari zarar ham ko‘rishi mumkin. Meksika davlati NAFTA yordamida o‘z iqtisodiy o‘sish sur’atlarini ko‘tarmoqchi bo‘lishdi (taxminan yillik YAIMning o‘sish sur’atlari 1,6-2,6% ga). Bunday iqtisodiy rivojlanishlar Meksikani sanoati rivojlangan davlatlar qatoriga qo‘shilish muddatini 45-50 yildan 10-15 yilga qisqartirishi mumkin edi.

NAFTA dan eng kam foyda ko‘rayotgan davlatlardan biri Kanadadir. Chunki, uning iqtisodiy rivojlanishi AQSH iqtisodiyoti bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib, Meksika iqtisodiyoti bilan juda kam aloqadadir. Ammo, NAFTA rivojlanib borishi bilan Kanada integratsion jarayonga yanada ko‘proq tortilib boradi va kengayotgan bozordan dividendlar oladi. Xullas, NAFTAning dastlabki ish faoliyati davrida eksport hajmining oshishi hisobiga qo‘shimcha ish o‘rinlarini hosil bo‘lishiga bo‘lgan umid oqlanmadi. Bundan tashqari AQSH ning Meksika bilan savdodagi ijobiy saldosi yo‘qolib, 1995 yilda kamomad paydo bo‘ldi. Umuman olganda NAFTAni tashkil qiluvchilarning rejasiga ko‘ra, to‘laqonli Shimoliy Amerika bozori 2010 yillarga borib tashkil qilinishi bashorat qilinmoqda.

8.4. Yaponiya iqtisodiyoti va uning jahon xo‘jaligida tutgan o‘rni

Yaponiya Sharqiy Osiyoning Tinch okeani orollarida (mamlakat 4 ta yirik va 4 mingdan ortiq kichik orollardan iborat) joylashgan yetakchi sanoati rivojlangan davlatdir. Yaponiyaning umumiy maydoni 377944 kv.km bo‘lib, aholisi 125,9 mln. (2019 yil) kishini tashkil etadi. Mamlakat territoriyasining 70% dan ortig‘i tog‘liklardan iborat bo‘lib, tekislik qismi juda kamdir. Yaponiya demografiyasida 65 yoshdan o‘tgan aholi ko‘pchilikni tashkil etib, jami aholining 13,1% ni, aholining 14 yoshdan kichiklari esa jami aholining 17,2% ni tashkil etadi. Aholining yillik o‘sish darajasi esa boshqa rivojlangan davlatlarga nisbatan ancha kam biroq, yaponlar jahon mamlakatlari ichida o‘rtacha eng uzoq umr ko‘ruvchi aholi bo‘lib, hozirgi kunda erkaklar 75 yoshni, ayollar esa 81 yoshni tashkil etadi.

Ma’lumki, Yaponiyaning dunyo mamlakatlarini iqtisodiy rivojlanishiga bo‘lgan ta’siri kattadir. Yaponiya iqtisodiyoti 1868-1912 yillarda jahonning rivojlangan mamlakatlari uchun yopilgan edi. Chunki ana shu yillar G‘arbiy Yevropa davlatlari tomonidan Osiyo-Tinch okeani mintaqasi mamlakatlarini mustamlaka qilinishidan xavotirga tushgan Yaponiya hukumati tashqi iqtisodiy aloqalarda va hatto turizm sohasida sayyohlarning mamlakatga kirib chiqishlari ustidan ham nazorat o‘rnatib, dengiz savdosida ham ma’lum cheklanishlarni amalga oshirgan. Bu davr Yaponiyaning iqtisodiy tarixida Meydzi revolyusiyasi davri deb nomlanib, mamlakat o‘z rivojlanishini to‘xtatmagan, jumladan, Yaponiyada eski pullar muomaladan chiqarilib, qiymati standartlashgan yangi milliy valyuta muomalaga chiqarildi. 1882 yilda AQSHni iqtisodiy rivojlanishi modeli asosida Markazi Bank tashkil topdi. Natijada mamlakatda savdo aylanmasi va ishlab chiqarish kompaniyalarning erkin faoliyat ko‘rsatishiga zamin yaratildi. Xullas, XIX asr oxir va XX asr boshlarida “Mitsubisi”, “Kavazaki”, “Yavata Ayren”, “Stil Uork” kabi yirik monopolistik uyushmalar tashkil topdiki, hozirgi kunda ham ushbu transmilliy kompaniyalar (TMK) jahondagi eng yirik kompaniyalardan hisoblanadi.

Ikkinchi jahon urushi yillarida Yaponiya iqtisodiyoti (ayniqsa, tashqi savdosi) katta zarar ko‘rdi. Biroq, 1950 va 1960 yillar boshida Yaponiya sanoat tovarlari eksporti sohasida bir qator ijobiy muvaffaqqiyatlarni qo‘lga kiritdi. Xorijiy mamlakatlarning sarmoyalari evaziga Yaponiyaning ishlab chiqarish korxonalari yangi texnik-texnologiya bilan qayta jihozlandi. Natijada 1960 yillarning o‘rtalariga kelib, mamlakatni tashqi savdo balansi yuqori ko‘rsatkichga ko‘tarildi. Hatto 1973-1979 yillarda jahon mamlakatlari iqtisodiyotida yuz bergan kuchli neft inqirozi Yaponiya iqtisodiyotini rivojlanishiga o‘z ta’sirini ko‘rsata olmadi. 1987 yilda mamlakat tashqi savdo sohasida eng yuqori ko‘rsatkichga, ya’ni, 96,4 mlrd. dollar miqdorida yillik daromad ko‘rishga muyassar bo‘ldi. Xullas, 1960 yillardan so‘ng Yaponiya tashqi savdosining yillik o‘sish sur’atlari 18,4% ni tashkil etgan. Mamlakatning tovarlar eksportida to‘qimachilik va

engil sanoat mahsulotlari o‘rnini og‘ir sanoat masulotlari egalladi. 70-yillarga kelib mamlakat eksportining asosiy qismini rangli televizorlar, avtomobil va ularning ehtiyot qismlari tashkil etgan bo‘lsa, 80-yillarga kelib bunday eksport tovarlar qatoriga elektron mahsulotlar - kompyuterlar, videomagnitofonlar qo‘shildi.

1973-1979 yillardagi jahon mamlakatlarida ro‘y bergan neft inqiroziga qadar Yaponiya importining 1G’3 qismi esa Yaqin va O‘rta Sharq davlatlariga to‘g‘ri kelgan. Biroq, neft krizisi yillarida bu vaziyat ancha o‘zgardi. Yaqin va O‘rta Sharq mamlakatlari Yaponiyani 70% neft mahsulotlari bilan ta’minlab, mamlakat umumiy importining 30% ni tashkil etdi. 1980 yillardan so‘ng Yaponiyaga Yevropa Ittifoqi davlatlari va AQSHdan, Osiyo-Tinch okeani mintaqasini rivojlanayotgan mamlakatlaridan tayyor mahsulotlarni kirib kelishi miqdori kengayib bordi.

Ma’lumki, Yaponiya iqtisodiyoti ikkinchi jahon urushiga qadar sekin rivojlanib jahon mamlakatlari ichida qoloq mamlakat bo‘lib qolavergan edi. Biroq, urushdan so‘ng, ayniqsa, 60-yillardan so‘ng mamlakat sanoati tez sur’atlarda rivojlana borib, jahon mamlakatlari ichida sanoati rivojlangan etakchi davlatlardan biriga aylandi. Hozirgi kunda Yaponiya yalpi sanoat mahsulotlarni ishlab chiqarish jihatidan AQSH va Yevropaning ba’zi mamlakatlaridan keyingi o‘rinda turadi. 80-yillarning o‘rtalarida jahonning rivojlangan mamlakatlarini ishlab chiqargan yalpi sanoat mahsulotini 15% i Yaponiyaga to‘g‘ri kelib, hatto 1987 yilda Yaponiya jahonning rivojlangan mamlakatlari ichida aholi jon boshiga o‘rtacha yalpi milliy sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarishi jihatidan birinchi o‘ringa chiqib olgan ham edi.

Yaponiya iqtisodiyotini ana shu yillarda tez rivojlanish sabablaridan biri ishlab chiqarishda mehnat unumdorligining yuqori darajada bo‘lishidir. Ma’lumki, Yaponiyada tabiiy yer osti resurslari nihoyatda kam bo‘lib, uning sanoati asosan xom-ashyo mahsulotlarini keltirish hisobiga ishlaydi. Jumladan, Yaponiya neftning 99,7% ni, temir rudasining 99,9% ni, rangli metallarning 75%dan 99% gacha, boksit, nikel va boshqa nodir metallarning deyarli 100% ni chetdan olib keladi. Yaponiya qishloq xo‘jalik oziq-ovqat mahsulotlari bilan jami aholisining 75-76% ni, bug‘doyi bilan aholini 1G’3 qismini, guruch va boshqa qishloq xo‘jalik mahsulotlari bilan esa aholini 107% ni ta’minlaydi.

Ikkinchi jahon urushidan so‘ng Yaponiya hukumati va uning parlamenti o‘z oldiga jahon bozorlariga sifatli raqobatbardosh tovarlarni “eksport qilish yoki halok bo‘lish” (bu yili Turkiya va boshqa rivojlanayotgan davlatlar ham qo‘llashgan) degan qarashlar konsepsiyasini qo‘ygan edi. Shuning uchun ham Yaponiya hukumati ikkinchi jahon urushidan so‘ng, ayniqsa, 60-yillardan keyin iqtisodiyotni nafaqat intensiv rivojlantirish yo‘lini, balki bir yo‘la jahon bozorlarida raqobatbardosh eksport tovarlar ishlab chiqarish yo‘lini ham tanlagan edi.

Yaponiya hukumati mamlakat iqtisodiyoti uchun zarur bo‘lgan arzon va qulay tabiiy resurslarni jahonning turli xorijiy mamlakatlaridan olib kelib, ularni jahon bozorlarida

raqobatbardosh o‘ta sifatli mahsulotlar darajasida qayta ishlab chiqarib, foyda ko‘radigan davlat bo‘lganligi uchun ham har yili dunyoning turli mamlakatlariga 50 dan ortiq “o‘rganib qaytuvchi” guruhlarni chiqarib turdi. Bundan maqsad, xorijiy mamlakatlardagi ilg‘or zamonaviy fan-texnika sohasidagi yangilik va yutuqlarni, ilmiy-texnologiyani, sanoatdagi ilg‘or boshqaruv usullarni o‘rganib qaytish va o‘zlarining ishlab chiqarish firma va korxonalarida joriy qilishdir. Shuning uchun ham Yaponiya hukumati o‘z investitsiyasining asosiy qismini eksport tovarlar ishlab chiqaruvchi sanoat korxonalarni rivojlantirishga sarflamoqda.

Yaponiya hukumatining asosiy boyligi uning xalqi hisoblanadi. Haqiqatdan ham uning xalqi “iqtisodiy mo‘‘jiza”ni mamlakatda shakllantiruvchi asosiy omillardan biri hisoblanadi. Yapon xalqi jahon mamlakatlari ichida mehnatsevarligi, tirishqoqligi, tejamkorligi, intizomligi va tadbirkorligi bilan ajralib turadi. Shuning uchun ham Yaponiya ishchi va xizmatchilarning o‘rtacha ish haqi rivojlangan mamlakatlarning barchasidan yuqori bo‘lib, ishlab chiqarishda sanoat korxonalarining barchasi o‘ta avtomatlashtirilgan.

Yaponiya iqtisodiyotining tez sur’atlar bilan rivojlanishining yana bir muhim omillaridan biri ishlab chiqarishda chiqim darajasini boshqa rivojlangan xorijiy mamlakatlarga nisbatan kamligidir. Yaponiyada yalpi milliy mahsulot ishlab chiqarishda chiqim darajasi 1.0% ni tashkil etgan holda (90 yillar boshida), AQSH da 7.0% ni, Angliyada 5.0% ni, GFRda 3.0% ni tashkil etgan. 1988 yilda sobiq SSSRda birgina harbiy sohaga sarf qilingan harajat 9.0% ni tashkil qilgan.

60-90 - yillarda Yaponiya hukumati byudjet harajatining 75-76% ni sanoat, savdo va kommersiya ishlarini rivojlantirishga, sanoat korxonalarini takomillashtirish, EVM va axborot vositalari bilan jihozlash ishlariga qaratdi. Yaponiyada ishlab chiqarilayotgan sanoat mahsulotlarning asosiy qismi kichik va o‘rta rivojlangan qayta ishlash sanoat korxonalarda ishlab chiqarilmoqda. Bunday sanoat korxonalariga, charm (ishlab chiqarilgan tayyor sanoat mahsulotning 94-95%, to‘qimachilik (ishlab chiqarilayotgan mahsulotning 88-99%, oziq-ovqat (ishlab chiqarilayotgan mahsulotning 83-84% kiradi. Hozirgi kunda mamlakatda 800 mingdan ortiq qayta ishlash sanoat korxonalar mavjud bo‘lib, ularning 70-72%i bir kishidan 9 kishiga qadar ishlaydigan kichik korxonalar, 10-12%i esa 10 kishiga qadar ishlaydigan yirik sanoat korxonalar tashkil etadi.

Yaponiyada savdo-tijorat ishlari ham nihoyatda rivojlangan sohadir. Kichik biznes ko‘rinishidagi do‘konlar mamlakatda ko‘pchilikni tashkil etadi. Bunday do‘konlar soni mamlakatda 4 mln.dan ortiq bo‘lib, ularning 50-52%da bir yoki ikki kishi mehnat qiladi. Yaponiyada 4 va undan ortiq kishi ishlaydigan oilaviy biznes do‘konlar soni ham ko‘pchilikni tashkil etib, ular biznes korxonalar ham deyiladi. Yaponiyaning jahon mamlakatlariga mashhur bo‘lgan “Toyota”, “Honda” kabi avtomobillarining qismlari faqatgina yirik ishlab chiqarish

zavodlarida yig‘iladi xolos. Uning alohida detallarini esa 10 minglab kichik xususiy korxonalar (firmalar) tayyorlab beradi. Xullas, Yaponiya sanoat korxonalari hozirgi kunda zamonaviy ilmiy-texnikaviy yutuqlarga asoslangan stanoklar bilan, sifatli texnologik uskunalar bilan, elektronika va optik asbob-uskunalar bilan jihozlangan bo‘lib, to‘liq kompyuterlashgan. Yaponiya hukumati o‘zining sifatli, chiroyli va bejirim, ixcham ishlab chiqargan sanoat tovarlari bilan jahon bozorlarini egallab turibdi. 1950-1990 yillar davomida ishlab chiqarishni o‘rtacha yillik o‘sish darajasi 7,8%ni (AQSHda 1.9%ni) tashkil etgan. 1991 yilda Yaponiya aholi jon boshiga olganda o‘rtacha yalpi milliy mahsulotni ishlab chiqarish darajasi bo‘yicha jahon mamlakatlari ichida ikkinchi o‘rinda (Shveysariyada keyin) turdi.

Yaponiya qishloq xo‘jaligi mamlakatda ro‘y bergan Meydzi inqilobidan so‘ng (1868-1912 yillar) tez sur’atlar bilan rivojlanish davriga qadam qo‘ydi. Mamlakat qishloq xo‘jaligida yer islohotlari o‘tkazilib, yerga bo‘lgan xususiy mulkchilik qonunlashtirildi. 1946-1949 yillardagi agrar islohotlar davrida pomeshchik yer egaligi mamlakatda mutlaqo tugatildi. Yaponiyada “Yer” to‘g‘risidagi mulkchilik qonunga muvofiq xususiy er egaligining umumiy maydoni 3 gektar qilib belgilandi (Xokkaydo orolida 4 gektar). Yaponiya qishloq xo‘jaligi to‘liq mexanizatsiyalashgan bo‘lib, o‘z xalqini guruch, poliz-sabzavot ekinlari va bog‘dorchilik mevalari bilan to‘liq ta’minlaydi. Yaponiya qishloq xo‘jaligi hozirgi kunda intensiv rivojlanib borayotgan soha bo‘lib, olinayotgan hosil yuqori va sifatli bo‘lishligi bilan bir qatorda jahon mamlakatlari ichida ekologik eng toza mahsulotdir.

Endi biz qisqacha Yaponiyaning yirik transmilliy kompaniyalariga tavsif beramiz.

Yaponiyaning “Toyota motors kompani limited” kompaniyasi dunyoning yirik kapitalistik mamlakatlari ichida avtomobil ishlab chiqaruvchi TMKdan biridir. Ushbu kompaniya 1937 yilda tashkil topgan bo‘lib, hozirgi kunda mamlakatda ishlab chiqarilayotgan yengil avtomobillarning 58-60%ni, yuk mashinalari va avtobuslarning 22-23%ni va boshqa texnik mahsulotlarning 20-21%ni ishlab chiqarmoqda. Kompaniyaning eksport kvotasi 1970-1990 yillar davomida 20%dan 50%ga qadar o‘sdi. “Toyota” kompaniyasi o‘z kapitalini xorijiy mamlakatlarga eksport qilishni 1960 yillarda boshlagan. Hozirgi kunda kompaniyaning yigirmadan ortiq filiallari, yig‘ma zavodlari (Avstriya, Malayziya, Indoneziya, Tayland, Filippin, Peru, Kosta-Riko, Venesuela, Portugaliya, Yangi Zelandiya va h.k.larda) faoliyat ko‘rsatmoqda.

Yaponiyaning “Nissan motors kompani limited” kompaniyasi o‘zining kattaligi jihatidan mamlakatning ikkinchi eng yirik avtomobil ishlab chiqaruvchi TMKdan biri hisoblanadi. Kompaniya 1933 yilda tashkil topgan bo‘lib, mamlakatda ishlab chiqarilayotgan avtomobillarning 88-90% i ushbu kompaniya hissasiga to‘g‘ri keladi. Bundan tashqari kompaniya avtomobil qismlari va uning uzatgichlari, shuningdek tekstil mashinalari, dengiz dvigatellari, avtoyuklagich mashinalar, raketaga tegishli bo‘lgan dvigatellarni ham ishlab

chiqarmoqda. Kompaniya Yaponiyadan tashqarida 20 dan ortiq o‘z filiallariga ega. Hozirgi kunda kompaniya yiliga 3 mln.ga yaqin avtomobillarni (30%ga yaqin) ishlab chiqarmoqda. Kompaniyaning eksport kvotasi 1970-1990 yillar davomida 21% dan 55%ga qadar o‘sgan. “Nissan” kompaniyasining yig‘uv sexlari Tayvanda (1959 y.), Meksikada (1961 y.), Chilida (1962 y.) faoliyat ko‘rsatib kelmoqda. Shuningdek kompaniyaning zavodlari Malayziya, Singapur, Tayland, Indoneziya, Hindiston, Filippin, Peru, Boliviya, Venesuela, Singapur, Nikaragua, Kosta-Rika, Avstraliya, Yangi Zelandiya, Portugaliya, Islandiya, Janubiy Afrika Respublikasi, Gresiya, Keniya kabi davlatlarda ham ishlab turibdi.

Yaponiyaning “Honda motor kompani limited” kompaniyasi jahon kapitalistik dunyosida mototsikllar ishlab chiqaruvchi eng yirik kompaniyalardan biri hisoblanadi. Avtomobil ishlab chiqarish bo‘yicha esa kompaniya mamlakatda 5-o‘rinda turadi. “Honda” kompaniyasi 1948 yilda tashkil topgan bo‘lib AQSHning “Ford” va “Kraysler” kompaniyalari bilan yaqin hamkorlikda ishlaydi. Kompaniya hissasiga mamlakatda ishlab chiqarilayotgan avtomobillarning 60-62%i, mototsikllarning 28-30% i, qishloq xo‘jalik mashinalarining 12-13% i to‘g‘ri keladi. “Honda motor” kompaniyasi 1990 yillar boshida 900 mingdan ortiq kichik hajmli avtomobillarni ishlab chiqargan bo‘lib, uning 2G’3 qismini eksportga (asosan AQSHga) chiqargan. Kompaniya Yaponiyaning avtomobil bozorlarini 6-8% ni egallab turibdi. “Honda motor” kompaniyasining kvotasi 1970-1990 yillar davomida 32% dan 75% ga qadar o‘sgan. Kompaniya jahon mamlakatlarining oltitasida avtomobil, 27 tasida esa mototsikllar ishlab chiqaradi. Kompaniyaning yirik filiallari Tayland, Avstraliya, Braziliya, Belgiya va AQSHda ishlab turibdi. Yaponiyaning “Soni korporeyshn” kompaniyasi kapitalistik dunyoning eng yirik rangli televizor va videomagnitofonlar ishlab chiqarishga asoslangan kompaniyalaridan biridir. Kompaniya jahon bozorlariga yuqori sifatli ovoz tarqatuvchi apparatlar, radiopriyomniklar va magnitofonlarni chiqaradi. Kompaniya 1946 yilda tashkil topgan, 1990 yillarda mamlakatda ishlab chiqarilayotgan magnitofonlarning 19-20% i, ovoz tarqatuvchi kuchli apparaturalarning 9-10% i, shuningdek boshqa elektron asbob-uskunalarning 16-17% i ushbu kompaniya hissasiga to‘g‘ri kelgan. “Soni” kompaniyasi AQSH, Angliya, Ispaniya, GFR, Braziliya, Janubiy Koreya va Singapurda televizor va magnitofon lentalari ishlab chiqarmoqda. “Soni” kompaniyasining filiallari Avstraliya, Belgiya, Fransiya, Gollandiya, Daniya, Shveysariya, Kanada, Panama, Venesuela, Fidji kabi xorijiy davlatlarda ham ishlab turibdi.

Yaponiyaning “Mitsubisi elektrik korporeyshn” kompaniyasi yirik elektrotexnika kompaniyalaridan biri bo‘lib, 1921 yilda tashkil topgan. Kompaniya 1923 yildan beri AQSHning “Vestingauz elektrik” texnologik kompaniyasi bilan hamkorlikda ishlab kelmoqda. Yaponiyaning “Mitsubisi elektrik” kompaniyasi elektr mashinalari (lift, elektron kompyuterlar), elektron-sanoat jihozlari, maishiy-xizmat ko‘rsatish buyumlari (televizorlar, yuqori ovoz

chiqaruvchi sifatli apparatlar, konditsionerlari, kir yuvish mashinalari) ishlab chiqaradi. Kompaniyaning eksport kvotasi 1970-1990 yillarda 7%dan 20% ga qadar o‘sgan kompaniyaning qo‘shma korxonalari Janubiy Koreya, Singapur, Malayziya, Tayvan, Filippin, Tayland, Hindiston, Meksika, Kosta-Rika, Kanada, AQSH va Angliyada faoliyat ko‘rsatmoqda.

Yaponiyaning “Mitsubisi elektrik indastrial kompani limited” kompaniyasi elektr asbob-uskunalar va apparatlar ishlab chiqaruvchi eng yirik kompaniyalardan biri bo‘lib, 1935 yilda tashkil topgan. Kompaniya o‘zining “Panasonik”, Neshnl”, “Tekniks”, “Kvazar” savdo markasi sifatida butun dunyoga mashhur. Kompaniya telefon, radiopriyomnik va uzatkichlarni mini-kompyuterlar va rangli kserokopiya apparatlarini va boshqa maishiy apparatlarni ishlab chiqaradi. Kompaniyaning eksport kvotasi 1970-1990 - yillarda 20% dan 25% ga qadar o‘sdi. 60-yillardan beri kompaniyaning filiallari AQSH, Kanada, Janubiy Koreya, Indoneziya, Tayland, Hindiston, Filippin, Meksika, Braziliya, Peru, Venesuela, Angliya, Belgiya, Ispaniya, Avstriya, Tanzaniya kabi mamlakatlarda ishlab turibdi.

Tayanch iboralar: “katta ettilik”, YAIM darajasi, tashqi savdo hajmi, resurslarga ehtiyoj, TMK, sanoatlashish darajasi, postindustrializatsiya, xizmatlar sohasi ulushining ortib borishi.

Bobning qisqacha xulosasi:

Jahon xo‘jaligida rivojlangan mamlakatlarning tutgan o‘rni juda katta bo‘lib, bunday guruhga kiruvchi davlatlar asosan Yevropa qit’asi va Shimoliy Amerika materigida joylashgan. Rivojlangan (ayniqsa “katta yettilik” G7 yoki RFning qo‘shilishi bilan ataluvchi “katta sakkizlik” G8) davlatlar iqtisodiyotini o‘rganish va ularning iqtisodiy rivojlanish tajribasidan foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki bu mamlakatlar iqtisodiyotida tabiiy resurslardan tejamli foydalaniladi, ishlab chiqarishda esa energetika quvvatini pasayishiga yo‘l ko‘yilmaydi.

Rivojlangan mamlakatlarning iqtisodiy rivojlanishida yirik TMKlar va xalqaro iqtisodiy tashkilotlar (EI, NAFTA, ASEAN va boshqalar) muhim rol o‘ynamoqda. O‘zbekistonning rivojlangan mamlakatlar bilan(ayniqsa, YEI, RF, AQSH, Osiyo-Tinch okeani davlatlari) olib borayotgan savdo-aloqalari yildan – yilga kengayib bormoqda.

Nazorat uchun savollar:

1.Sanoati rivojlangan davlatlar guruhiga qaysi mamlakatlar kiritiladi?

2.Sanoati rivojlangan davlatlarning jahon iqtisodiyotidagi o‘rnini qaysi ko‘rsatkichlar bilan ko‘rsatib berish mumkin?

3.Jahon iqtisodiy rivojlanishining uchta asosiy markazini ko‘rsatib bering.

4.“Katta yettilik” yoki “katta sakkizlik”ka kiruvchi davlatlarni sanab bering.

5.Rivojlangan davlatlarning tashqi iqtisodiy ekspansiyasini amalga oshirishda TMK qanday o‘rin tutadi?

6.Sanoati rivojlangan davlatlar ishtirokidagi qanday integratsion guruhlarni bilasiz?

7.Yaponiya iqtisodiy rivojlanishiga ta’sir qiluvchi asosiy omillarni sanab o‘ting?

8.Yaponiya iqtisodiyotining jahon bozoridagi raqobatbardoshligi nimalar hisobiga erishilgan?

9-mavzu. Rivojlanayotgan mamlakatlar - xalqaro iqtisodiy munosabatlar tizimida

Ko’rib chiqiladigan asosiy savollar:

1.Rivojlanayotgan mamlakatlarning asosiy ijtimoiy-iqtisodiy xususiyatlari

2.Rivojlanayotgan mamlakatlarning xalqaro tovar almashinuvida tutgan o’rni va roli

3.Xorijiy sarmoyalar – rivojlanayotgan mamlakatlar iqtisodiyotida

4.“Yangi industrial mamlakatlar” ning jahon xo’jaligida tutgan o’rni

Mavzuga oid tayanch tushuncha va iboralar: yuqori darajada rivojlanayotgan, o’rtacha darajada rivojlanayotgan, past rivojlangan mamlakatlar, “YaID”, YaIM o’sish sur’atlari, tashqi savdo aylanmasining o’sishi, eksportga yo’naltirilgan va importni qoplash siyosatlari.

Mavzuda ko’rib chiqiladigan muammolar:

1. Rivojlanayotgan mamlakatlar rivojlanishinig ijtimoiy-iqtisodiy xususiyatlari mavjud. Shunga siz qanday fikr bildirasiz?

2. Rivojlanayotgan mamlakatlarning xalqaro tovar almashinuvida tutgan o’rni va roli izohlang?

3.Rivojlanayotgan mamlakatlar iqtisodiyotida xorijiy sarmoyalar muhim rol o’ynaydi. Uni qanday izohlaysiz?

4.“Yangi industrial mamlakatlar” ning jahon xo’jaligida tutgan o’rniga, siz qanday fikr bildirasiz?

9.1. Rivojlanayotgan mamlakatlarning asosiy ijtimoiy-iqtisodiy xususiyatlari

XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab jahon iqtisodiyoti va xalqaro iqtisodiy munosabatlar tizimini rivojlanishining ahamiyatli tomonlaridan biri, sobiq mustamlaka va qaram territoriyalarning roli va ahamiyatini iqtisodiy jihatdan kuchayib borayotganligidir. Ushbu mamlakatlar avval jahon iqtisodiyotida rivojlanayotgan mamlakatlar yoki ozod etilgan mamlakatlar, “uchinchi dunyo mamlakatlari”, “janub” mamlakatlari yoki “periferiya” mamlakatlari sifatida tilga olingan bo‘lsa, hozirgi kunda umumiy tarzda rivojlanayotgan mamlakatlar deya ataladi..

Bu mamlakatlar iqtisodiyoti turli-tumandir, ularning hududida 3,2 mlrd atrofida aholi yashaydi. Ushbu mamlakatlarda hozirgi kunda juda murrakab ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va madaniy jarayonlar kechmoqda.

Jahon xo‘jaligi va xalqaro iqtisodiy munosabatlarda ozodlikka erishgan mamlakatlar iqtisodiyotining rivojlanishi XX asrning 60-yillaridan boshlab tobora o‘sib boruvchi xarakter kasb etmoqda. Ularning eng ilgorlari 1950 yilga kelib, rivojlanayotgan mamlakatlarning “o‘rtachalaridan” (54 mamlakat) 2,4 marta, yuksaklikka erishdi. 50 – yillarning o’rtalaridan boshlab, yuqorida zikr etilgan mamlakatlar o’rtasidagi rivojlanish darajasidagi farq sezilarli darajada ortib bordi. 90 – yillarga kelib rivojlanayotgan mamlakatlarning birinchi guruhiga kiruvchi (19 ta) mamlakatlardagi aholi jon boshiga “to‘g‘ri keluvchi o‘rtacha foyda” o‘rtachalariga nisbatan 2,9 barobar, quyi guruhlarinikiga nisbatan esa 12,2 barobar yuqori bo‘ldi. Rivojlanayotgan mamlakatlarning aynan shu guruhlarining tarkibida ham, rivojlanish darajalari o‘rtasidagi bog‘liqda ham o‘zgarishlar vujudga keldi. Jahon iqtisodiyotida ushbu jarayonlar natijasida tabaqalashuv ham ikkita asosiy mintaqada ro‘y bergan edi. Mintaqaning bir tomonida ozodlikka erishgan mamlakatlarning ko‘proq rivojlanganlari, jumladan, fors ko‘rfazidagi bir qator mamlaktlar - Qatar, Quvayt, BAA, shuningdek Osiyo - Tinch okeani mintaqasi va Lotin Amerikasidagi yangi industrial mamlakatlar joylashgan bo‘lsa, mintaqaning ikkinchi tomonida esa mutlaqo turg‘unlik holatidagi iqtisodiy kambag‘al mamlakatlar joylashgandir. Bu kategoriyaga 48 ta mamlakat taalluklidir. Bularga bir qator Afrika mamlakatlarini, jumladan Mozambik (YAIM yiliga kishi boshiga 80 dollar), Efiopiya (100 dollar), S’era Leone (140 dollar), Burundi (180 dollar), Uganda (190 dollar), Chad va Ruanda (200 dollar) kabi davlatlarni kiritish mumkin. Bu guruhga taallukli mamlakatlardan tashqari, guruh ruyxatining yanada quyi qismida joylashgan bir qator Osiyo mamlakatlarini – Nepal (160 dollar), Butan va Vetnam (170 dollar), Mayanma va boshqa davlatlarni ham ko‘rsatish mumkin.

Ushbu mintaqalar orasida rivojlanayotgan mamlakatlarning qolgan qismlari joylashgandir. Bu ham o‘z navbatida, bir xil tipda bo‘lmagan guruhdir. Uning tarkibiga kiruvchi mamlakatlar ko‘plab ijtimoiy-iqtisodiy ko‘rsatkichlar bo‘yicha farqlanadi. Bu mamlakatlardan eng rivojlanganlari hozirgi kunda iqtisodiy jihatdan “Yangi industrial davlatlar” iqtisodiyotiga yaqinlashib bormoqda. Jumladan, Lotin Amerikasi va Shimoliy Amerika o‘rtasidagi farq sezilarli ravishda qisqarmoqda. Shimoliy Amerikaning yalpi milliy mahsuloti Lotin Amerikasining yalpi milliy maxsulotidan 4 marta ko‘proqni tashkil etadi (50 yil oldin bu nisbat 10:1 ni tashkil etgan).

Ushbu iqtisodiy rivojlanishdagi farqlarga qaramasdan rivojlanayotgan mamlakatlarning barchasiga xos bo‘lgan umumiy xususiyatlarni ham alohida ajratib ko‘rsatish mumkin bo‘lib, bular qatoriga quyidagilarni kiritish mumkin:

- Rivojlanayotgan mamlakatlar iqtisodiyotining ko‘p ukladli xarakterga egaligi;

- Ishlab chiqarish kuchlarining rivojlanishi past darajada ekanligi, sanoat, qishloq xo‘jaligi va ijtimoiy infrostrukturaning qoloq ekanligi (birinchi guruh, “yuqori kutb” mamlakatlarini hisobga olmaganda);
- Ularning iqtisodiy rivojlanishi jahon xo‘jaligi tizimiga qaram holatda ekanligi, kapitalizmni periferik xarakter kasb etishi va boshqalar;

Rivojlanayotgan mamlakatlar iqtisodiyoti ko‘p ukladli ijtimoiy-iqtisodiy tarkibga asoslanadi. Bir qator mamlakatlarda kapitalistik uklad bilan bir qatorda hamon urug-aymoqchilik va patriarxal munosabatlar ham mavjuddir. Rivojlanayotgan mamlakatlar iqtisodiyotida davlat va davlat xo‘jalik ukladi muhim rol o‘ynaydi. Davlat sektorini rivojlantirish bosqichi kapitalistik ishbilarmonlikni kengaytirish siyosati bilan hamohang olib boriladi. Buning natijasida esa davlat kapitalizmi paydo bo‘ladi va rivojlanadi.

Milliy xususiy kapitalistik xo‘jalik ukladning rivojlanishi va shakllanishi jamgarish muammolari (ya’ni, pul resurslarining etishmovchiligi) va jamg’arilgan mablag’larning sarflanishi xususiyatlariga bog‘liqdir. Bu mablag’lar asosan savdoga (ichki va tashki), ko’chmas mulklarni sotib olishga, mashinalarni ta’mirlashga, sugurtaga, benzin qo‘yish shaxobchalariga, taksiga, ya’ni sarmoyalarni aylanishi tez bo‘lgan sohalarga yunaltiriladi.

Jahon iqtisodiyotida ozodlikka erishgan rivojlanayotgan mamlakatlarning ko‘pchiligida paydo bo‘lgan va rivojlanib borayotgan kapitalizm periferik xarakterga ega. Bu shuni anglatadiki, u sanoati rivojlangan mamlakatlar kapitalizmidan nafaqat rivojlanish darajasi bo‘yicha, balki eng muhimi, ishlab chiqarish usullarning modeli va moddiy ne’matlar taqsimoti bo‘yicha ham tubdan farq qiladi. Kapitalizm markazlari, jamg‘arishning organik va o‘zaro aloqador doimiy o‘sish jarayonida bo‘lgan milliy zaminda paydo bo‘ladi va rivojlanadi. Moslashuvchanlik (imitatsiya) aholining boy qatlamlarining o‘zlari uchun zaruriy bo‘lgan barcha narsalarni qo‘lga kirita oladigan maxsus bozorlarning tashkil topishidan boshlandi. Bunday vaziyatda aholining asosiy qismi kambag‘allikka mahkum etilib, ularni bozorlarda erkin muomalada bo‘lish imkoniyatidan maxrum etadi.

Transmilliy korporatsiyalar tomonidan joriy kilingan yangi texnik-texnologiyalar odatda hozirgi kunga mos keladi, ammo ularning bozor narxlari juda yuqori bo‘lib, rivojlanayotgan mamlakatlar uchun qator muammolarni keltirib chiqaradi.

Jahon iqtisodiyotida ko‘pchilik rivojlanayotgan mamlakatlarning o’xshashlik tomonlari, ya’ni ularning qashshoqligi, axolisining qoloqligi, ishsizlik darajasining yuqoriligi, sanoati rivojlangan mamlakatlardan katta miqdorda qarzdorligi bo‘lib hisoblanadi. Rivojlanayotgan mamlakatlarning ko‘pchiligi o‘zining to’laqonli ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi va axolisining yashash turmush tarzi darajasi bo‘yicha G‘arbiy Yevropani sanoatlashgan ilg’or mamlakatlaridan qariiyb 20-50 marotaba orqada qolmoqda.

9.2. Rivojlanayotgan mamlakatlarning xalqaro tovar almashinuvida tutgan o‘rni va roli

Xalqaro mehnat taqsimotida faol ishtirok etish, jahon xo‘jaligi alokalarining rivojlanishi, moliyaviy resurslarning mamlakatlararo oqib yurishi, iqtisodiy taraqqiyotning asosiy shart-sharoitlariga aylanib koldi. Mustaqil davlat sifatida jahon hamjamiyatida ishtirok etish orqali, rivojlanayotgan mamlakatlarning barchasi 60-70 yillardan e’tiboran xalqaro mehnat taqsimotida faol ishtirok etishga intilib kelmoqda.

Ularning xalqaro mehnat taqsimotida faol ishtirok etish zaruriyati tayyor mahsulot ishlab chiqarish uchun zarur bo‘lgan barcha narsalarni etishtirish imkoniyatiga ega emasligi bilan asoslanadi. Hozirgi kunda rivojlanayotgan mamlakatlar deyarli sanoati rivojlangan mamlakatlar uchun xom – ashyo yetishtirib beruvchi hamda nisbatan arzon ishchi kuchi manbayi bo‘lib qolmoqda.

Xalqaro mehnat taqsimotida xo‘jalik faoliyatining barcha shakllari jamlangan. Eng muhimi, xalqaro savdoning asosini tashkil etuvchi xom-ashyo va tayyor maxsulotlarni ishlab chiqarish barcha rivojlanayotgan mamlakatlar bilan dunyoning boshqa rivojlangan davlatlari o‘rtasidagi tovar almashinuvini ta’minlaydi. Xalqaro savdo eng kambag‘al rivojlanayotgan mamlakatlar uchun ham tashqi daromadning eng muhim manbayi bo‘lib hisoblanadi. Ammo, material va energiya sig‘imining keyingi yillarida kamayishi munosabati bilan rivojlangan mamlakatning o‘sishida tabiiy xom-ashyolarning xalqaro savdodagi tutgan o‘rni pasayib borish tendensiyalari namoyon bo‘lmoqda. Shunga muvofiq u 1991 yilda jahon eksporti umumiy ulushining 25% ni tashkil etgan edi**.** Jahon iqtisodiyotida 70-90 yillarda Afrikaning rivojlanayotgan mamalakatlarini umumiy eksport hajmidagi ulushi qisqarib borganligi qayd etiladi. Osiyo mamlakatlaridan jo‘natilayotgan sanoat va qishloq xo‘jalik mollarining doimiy o‘sib borganligiga qaramasdan u 2 barobarga pasayib ketgan edi. Eksportini asosini tashkil etuvchi xom-ashyolardan iborat bo‘lgan rivojlanayotgan mamlakatlarda, ularning jahon bozorida egallab turgan pozitsiyalarining yomonlashuvini tuxtatish imkoniyatiga ega bo‘lgan qo’shimcha eksport resurslarini izlab topishga bo‘lgan kuchli ehtiyoj sezilmoqda. Buning uchun, eksportning xilma-xilligini ta’minlashga, ya’ni chiqariladigan xom-ashyolarni qayta ishlash, boshqa turdagi sanoat maxsulotlarni jahon bozoridagi erkin harakatini ta’minlash, eng muhim ustuvor yo‘nalishlardan biri bo‘lib qolmoqda.

An’anaviy tovarlar eksporti hajmini kengaytirish borasidagi ko‘pchilik muammolarga qaramasdan, rivojlanayotgan mamlakatlarning jahon eksportidagi umumiy ulushi asta-sekinlik bilan o‘sib bormoqda. Shuningdek, u 1987 yildagi 22% o‘rniga 1992 yilga kelib 24,7% ga etgan edi. 1993 yilda rivojlanayotgan mamlakatlarning eksportini fizik hajmi, sanoati rivojlanayotgan

mamlakatlarda 1,2 % ga qisqarganiga qaramasdan, yana 10% ga ortgan edi. Rivojlanayotgan mamlakatlarda jami eksportni tarkiblashtirish jarayonlari ham sodir bo‘lmoqda. Shuningdek, rivojlanayotgan mamlakatlar eksportidagi sanoat mollarining ulushi (rangli materiallarni hisobga olganda) 1991 yilda 57,7% ga etgan edi.

Rivojlanayotgan mamlakatlarning eksportidagi sanoat mollarining ulushi ham o’sib bordi. Agar u 1970 yilda – 7,6% ni tashkil etgan bo‘lsa, 1980 yilda 11% ni , 1991 yilda 19,5% ni , 1995 yilda 25%, 2003 yilda esa 30%ni tashkil etgan edi. Xullas, jahon xo‘jaligida 90 yillar rivojlanayotgan mamlakatlarning jahon eksportidagi ulushi doimiy o‘sishlik tendensiyasiga ega bo‘lganligi bilan xarakterlanadi.

Sanoat mahsulotlari eksporti hajmining o‘sishida, mashina va asbob-uskunalar eng muhim rol o‘ynamoqda. Ularni eksport qilish 1970-1990 yillarda 85-90 marotabaga o’sib, sanoatning umumiy ulushi 35-36% ni, tovarlar eksportining umumiy hajmi esa 22% ni tashkil etgan edi. Rivojlanayotgan mamlakatlarning ba’zi birlari (Eron, Kongo, Boliviya, Paragvay kabi 12 davlat) 1980-1990 yillar mobaynida xom-ashyo mahsulotlarni chetga chiqarish hisobiga uzlarining xalqaro mehnat taqsimotida katnashish imkoniyatlarini kuchaytirishga erishdilar. Boshqa mamlakatlar esa, uzlarining jahon eksportidagi shaxsiy ulushlarini, sanoatda qayta ishlanadigan mahsulotlarning tashki bozordagi aktiv xarakati hisobiga oshirib borgan edi. O‘z navbatida, mazkur guruhlar o’rtasidagi alohida mamlakatlar erishgan muvaffaqiyatlarni ham alohida ajratib ko‘rsatish maqsadga muvofiqdir. Jahon iqtisodiyotida oldingi o‘rinlardan birida “Yangi industrial mamlakatlar” borayotgan bo‘lsa, boshqa rivojlanayotgan mamlakatlar esa, eksportning asosini tashkil etuvchi sanoatni kuchaytirish va kengaytirish borasida eng kam ulushni qo‘lga kiritishgan. Ba’zi birlari esa, masalan, Afrikaning eng yirik mamlakati hisoblanmish Nigeriya o‘zining sanoat eksportidagi ulushini tobora qisqartirib bormoqda.

Xalqaro savdo misolida, rivojlanayotgan mamlakatlarning xalqaro mehnat taqsimotida ishtirok etishini baholash orqali jahon xo‘jaligi tizimining butunlay notenglik asosida qurilganligini ko’rishimiz mumkin. Ba’zi bir rivojlanayotgan mamlakatlar ilmiy texnologik yutuqlardan kam foydalanayotgan bir paytda, rivojlanayotgan dunyoning qolgan qismi oldindagidek an’anaviy industriallashuvga, ba’zi bir qismi esa industriallashuvgacha bo‘lgan texnologik yutuqlarga asoslanib taraqqiy etmoqda.

Rivojlanayotgan mamlakatlarning jahon iqtisodiyotidagi ahvoli bilan bog‘lik bo‘lgan umumiy holatlarni xarakterlash orqali shu narsani ta’kidlab o‘tish lozimki, qoloq rivojlanayotgan mamlakatlar borgan sari xalqaro iqtisodiy munosabatlar tizimidan “ajratib” qo‘yilmoqda. Bunday fikrlar 1996 yilda xalqaro savdoning rivojlanishiga bag‘ishlab o‘tkazilgan BMTning konferensiyasida (YUNKTAD) qilingan ma’ruzalarda keltirib o‘tilgan edi. Ma’ruza mualliflari fikricha, Urugvay, Raundi, doirasida amal qiluvchi global savdo bitimi maqomini

olgan GATT - qishloq xo‘jaligi maxsulotlarini eksport qilishda subsidiyalarni qisqartirish kerakligini ta’kidlab o‘tadi. Bunday vaziyat, kuchsiz rivojlangan mamlakatlarga nisbatan berilgan kuchli zarba edi. Hozirgi kunda jahon iqtisodiyotida bug‘doy, qand, go‘sht va boshqa turdagi oziq-ovqat mahsulotlarining bozor narxlari oshib bormoqda. 2000 yilda 300-600 mlrd. dollarni tashkil etgan edi.

Dunyo savdosida xom-ashyo va oziq-ovqat maxsulotlarining ulushi tobora qisqarib borishi rolini yo‘qotmoqda. Iqtisodiy o‘sishni qo‘llab-quvvatlash maqsadidagi xom-ashyoviy ixtisoslashuv esa vaqtincha o‘zining yordamchilik rolini bajarishga kodirligini ko‘rsatmoqda xalos. Xalqaro savdoning rivojlanish tendensiyalarini guvohlik berishicha; so‘nggi o‘n yilliklarda turli xildagi xizmatlarning hajmi va ahamiyati beqiyos darajada o‘sib bormoqda.

Rivojlanayotgan mamlakatlar o‘zlarining bu yo‘ldagi imkoniyatlaridan samarali foydalanmoqdalar. Masalan, sayyohlik va mehnat bilan bog‘lik xizmatlar, turli xildagi “iflos” va past maosh to‘lanadigan ishlar uchun ishchi kuchlarini eksport qilish shular jumlasidandir.

Sayyohlik ko‘p yillardan buyon, rivojlanayotgan mamlakatlar uchun xorijiy valyutalar tushumining asosiy manbalardan biri bo‘lib qolmoqda. Misr uchun turizm sohasidan kelayotgan daromad xorijiy mamlakatlarda vaqtinchalik band bo‘lgan misrlik ishchilar hisobidan keladigan valyutalar va xorijiy yordamlardan keyingi uchinchi o‘rinni egallaydi. So‘nggi yillarda turizm Turkiyada yuqori sur’atlar bilan rivojlanib bormoqda. Bu ko‘rsatkich turizmning umum jahon miqyosidagi 4% li o‘sish ko‘rsatkichi bilan taqqoslanganda, yiliga 8%ni tashkil etadi. Turkiya ko‘proq milliy iqtisodiyotning turizm tarmog‘ini dinamik rivojlanishi bilan farq qiluvchi besh mamlakat qatoriga kiritilgan.

9.3. Xorijiy sarmoyalar – rivojlanayotgan mamlakatlar iqtisodiyotida o‘rni va ahamiyati

Jahon iqtisodiyotida “qashshoqlik botqog‘i”dan kutilishga bo‘lgan intilish, iqtisodiyotning ilg‘or tarmoqlarini rivojlanishga bo‘lgan imkoniyatni yaratish va takomillashtirish rivojlanayotgan mamlakatlar uchun xorijiy sarmoyalarni izchil jalb qilishni talab etadi. Ana shu maqsadlarda, investitsion muhitni kafolatlaydigan shart-sharoiti mavjud bo‘lgan maxsus mintaqaviy iqtisodiy zonalar tashkil etiladi.

Ko‘pchilik rivojlanayotgan mamlakatlarda investitsion muhitni kuchaytirib borish jarayonlari osonlik bilan kechayotgani yo‘q. 1992 yilda rivojlanayotgan mamlakatlarga kiritilgan to‘g‘ridan-to‘g‘ri yo‘naltirilgan investitsiyalarning miqdori 51,5 mlrd. dollarni tashkil etgan edi. 90-yillar boshida jahon bankining ma’lumotiga qaraganda, rivojlanayotgan mamlakatlar iqtisodiyotiga xususiy kapitalning jalb kilinishi yanada kuchayib, 1994 yilda 173 mlrd. dollarni

tashkil etgan. Yangi fond bozorlaridagi aksiyalarga band etilgan portfel qo‘yilmalar 1993 yilda 46,9 mlrd. dollarni tashkil etgan bo‘lsa, 1994-yilda esa 39,5 mlrd. dollarni tashkil etgan edi. O‘z navbatida banklarda deponentlangan va obligatsiyalarga qo‘yilgan xususiy sarmoyalarning kiymati 1993 yilda 45,7 mlrd. dollardan 1994 yildan 55,5 mlrd. dollarga o‘sgan. To‘g‘ridan-to‘g‘ri yo‘naltirilgan xorijiy investitsiyalar miqdori esa 1993 yilda 66,6 mlrd. dollardan 1994 yilda 77,9 mlrd. dollarga o‘sgan . Qayd etib o‘tish joizki, 1993 yilda ba’zi-bir rivojlanayotgan mamlakatlarning o‘zlari ham 14 mlrd. AQSH dollari miqdoridagi sarmoyani xorijiy mamlakatlarga eksport qilishgan.

“Ernest va Yang” amerika konsolting firmalarning bergan baholariga ko‘ra yaqin o‘n yilliklarda rivojlanayotgan mamlakatlarning eng kuzga ko‘ringanlari - Xitoy, Hindiston, Indoneziya, Meksika va Braziliya kabi mamlakatlar bo‘lishi bashorat qilinmoqda.

Rivojlanayotgan mamlakatlar iqtisodiyotiga xususiy sarmoyalar jalb qilinar ekan, eng muhimi, ular dinamikali o‘sish imkoniyatiga ega bo‘lib, istiqboli porloq bo‘lgan mamlakatlar tomon ilgarilab bormoqda. Bugungi kunda 75-80% to‘g‘ridan-to‘g‘ri yo‘naltirilgan xususiy investitsiyalarning 20-25% i rivojlanayotgan mamlakatlarga to‘g‘ri kelmoqda. Bunda asosiy o‘rinni Sharqiy Osiyo va Lotin Amerikasi mamlakatlari egallamoqda. Kuchsiz rivojlanayotgan mamlakatlar iqtisodiyotining turg‘unligi, shuningdek ulardagi siyosiy vaziyatning barqaror emasligi, ko‘pincha sanoati rivojlanayotgan mamlakatlarning ishbilarmon doiralarini cho‘chitib qo‘ymoqda. Ushbu mamlakatlar tomonidan uyushtirilayotgan davlat yordamlari, so’ngi 70-80 yillarda yetarli darajada amalga oshirilgan bo‘lsada, 90 yillarining o‘rtalaridan etiboran ularning miqdori sezilarli darajada qisqarib bormoqda. Xalqaro valyuta fondining analitiklarining fikriga qaraganda, 1994 yilda butun dunyo bo‘yicha inflyasiyaning oldini olish maqsadida davlat yo‘llari orqali 59 mlrd. AQSH dollariga teng bo‘lgan rasmiy yordamlar uyushtirilgan (bu ko‘rsatgich 1993 yildagiga nisbatan 3 mlrd. AQSH dollariga kamdir). Rivojlangan mamlakatlarning rivojlanayotgan mamlakatlar bilan davlat miqiyosidagi o‘zaro hamkorligi o‘zining meyo’riga eetgan 1990 yildagi darajasi bilan takkoslab kurilganda, bu rakam 12 mlrd. AQSH dollariga kamaygan. Bu paytda iqtisodiy hamkorlik va rivojlanish tashkiloti tomonidan uyushtirilayotgan yordam jami yalpi milliy mahsulotning 0,3% ni tashkil etgan xolos. Muhim tomoni shundaki, Afrika mamlakatlariga uyushtirilayotgan barcha tashqi yordamlar qarzlarning foizlari shaklida G‘arbiy Yevropa tomon qaytib ketmoqda. 90- yillarning o’rtalarida Afrikaning Saxarasidan janubgacha bo‘lgan mintakasidagi barcha mamlakatlarning tashqi qarzlari 211mlrd. dollarni tashkil etgan bo‘lib, 1984-1994 yillarda Afrika davlatlari ushbu kredit karzlarining 150 mlrd. AQSH dollariga yaqinini to’lashga muvofaq bo‘lishgan xolos. 1994 yilda Afrikaning barcha mintakalarida joylashgan davlatlarning umumiy qarzlari taxminan 303 mlrd. AQSH dollarini tashkil etib, u Afrika mamlakatlarini yillik eksport daromadining 204% ga tengdir.

1994 yilda eng katta tashqi qarz Meksika va Xitoyda bo‘lib, uning miqdori Meksikada 5 mlrd. dollarni, Xitoyda 111 mlrd. dollarni tashkil etgan. Tayland, Janubiy Koreya, Hindiston, Filipin kabi Osiyo davlatlarining tashki qarzlari tez suratlar bilan o‘sib bormoqda. Osiyo mintaqasidagi rivojlanayotgan mamlakatlarning tashqi qarzlarini miqdori 1994 yilda 1,7 trln. AQSH dollarni tashkil etgan bo‘lib, 1993 yilgi darajaga nisbatan 10% ga o‘sgan edi.

Jahon iqtisodiyoti va XIMda Lotin Amerikasi mamlakatlarining tashqi qarzlarini o‘sib borayotganligini biz tashqi qarzlarni aholi jon boshiga nisbatan hisoblanganda mazkur mamlakatlar boshqa mamlakatlarga qaraganda ancha oldinda turganligini ko‘rishimiz mumkin (bu ko‘rsatgich Osiyoda 250 dollarga teng bo‘lsa, Lotin Amerikasida esa 1000 dollarni tashkil etadi).

Rivojlanayotgan mamlakatlarning amaldagi qarzlari xususiy kapital qo‘yilmalarning hisobidagi mulkiy munosabatlar orqali to‘planib boradi.1995 yilda kreditor mamlakatlar orasida Yaponiya birinchi o‘rinni egallagan bo‘lib, uning rivojlanayotgan mamlakatlardagi (birinchi navbatda Osiyo mamlakatlarida) kreditlarning umumiy miqdori taxminan 236 mlrd. dollarni tashkil etgan. Keyingi o‘rinni - 147 mlrd. dollar miqdoridagi ko‘rsatkich bilan AQSH egallagan bo‘lib, ularning yarmisi Lotin Amerikasi mamlakatlariga to‘g‘ri kelgan edi. Uchinchi o‘rinda esa Germaniya turib, u 106 mlrd. AQSH dollari miqdoridagi sarmoyalarni chetga chiqargan. O‘z navbatida Fransiya ham xorijiy mamlakatlarga uncha katta miqdordagi kreditlarni beruvchi davlat hisoblanadi (103 mlrd. dollar). Uning qarzdorlari bo‘lib, asosan Afrika va Osiyoning rivojlanayotgan mamlakatlari hisoblanadi.

Jahon iqtisodiyotida rivojlanayotgan mamlakatlar tomonidan qarzlarning qaytarilishi eng og‘ir muammo bo‘lib turgan bir paytda, qarzdorlikka qarshi kurashning birdan-bir yo‘li, bu kreditor mamlakatlarning qarzlarini kechib yuboriladigan umumiy miqdorini 75-100%ga etkazish ko‘zda tutilganligidir. Bundan ko‘zlangan bosh maqsad, 80- yillardan buyon qarzlarning miqdori yuqori sur’atlar bilan o‘sib kelayotgan mamlakatlarga nisbatan yengillik berishdir.

Transmilliy korporatsiyalar ko‘pchilik rivojlanayotgan mamlakatlarda yuksak iqtisodiy o‘zgarishlarni vujudga keltirayotganligi bilan bir qatorda, ushbu koporatsiyalar texnik taraqqiyotining ichki omillariga ham juda katta imkoniyatlar ochib bermoqda. Amaliyot natijalari shuni ko‘rsatmoqdaki, transmilliy korporatsiyalar “uchinchi dunyo” mamlakatlarining rivojlanishida muhim ahamiyat kasb etmoqda. Bular quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

1. Bir qator ishlab chiqarish sanoat tarmoqlarda (engil sanoat, to‘qimachilik sanoati, elektron sanoati) qo‘llaniladigan texnika va texnologiyalarni etkazib berishda TMKlar investor-sarmoyachi sifatida ham, shuningdek investitsiya tovarlarini yoki texnologiyalarini (litsenziyalarini) yetkazib beruvchi korporatsiyalar sifatida ham muhim rol o‘ynaydi.

2. Rivojlanayotgan mamlakatlarni jahon bozoriga xom-ashyo eksport qiluvchi davlatlardan tayyor mahsulotlarning sotuvchilariga aylantirish. Bunda, bevosita qo‘yilma, rivojlanayotgan mamlakatlarni ishlab chiqarishdagi tarkibiy o‘zgarishlari uchun to‘g‘ridan - to‘g‘ri yo‘nalishidagi investitsiyalar moliyaviy resurslarni oddiy joylashtirishga nisbatan ancha muhim hisoblanadi.

3.Transmilliy korporatsiyalar an’anaviy jarayonlarning tezlashuvini ta’minlaydi. Texnologik innovatsilar hozirgi kunda asosan sanoati rivojlangan mamlakatlarda to‘plangan bo‘lib, so‘nggi o‘n yilliklarda ular bir qator mamlakatlarda, ayniqsa “yangi industrial davlatlar” iqtisodiyotida muhim rol o‘ynamoqda. Texnologiyalarni qo‘llanishi, atrof-muhit bilan bog‘liq bo‘lishi mumkin. Shuning uchun ham TMKlarning filiallarini faoliyati ular tanlagan mamlakatlarning tabiati uchun, shuningdek insonlarning manfaati va ularning hayotiga tahdid solmasligi lozim. Shu munosabat bilan xususiy xorijiy korxonalar ustidan nazoratni o‘rnatish maqsadida rivojlanayotgan mamlakatlardagi tartibot milliy organlarining faoliyatini kuchaytirish talab etiladi.

4.TMKlar rivojlanayotgan mamlakatlardagi mavjud ish bilan bandlik muammolarini ham bartaraf etadi. Shunga qaramasdan, ta’kidlab o‘tish joizki, to‘g‘ridan-to‘g‘ri yo‘naltirilgan investitsiyalar bilan bevosita bog‘liq bo‘lgan ishchi o‘rinlar unchalik ko‘p bo‘lmasdan rivojlanayotgan dunyodagi iqtisodiy aktiv aholining 1% dan kamroq qismini ta’minlay oladi, xolos.

5. Xalqaro tashkilotlar rivojlanayotgan mamlakatlarga texnik yordamlarini ko‘rsatishda TMKlar imkoniyatidan keng foydalanishmoqda. O‘z navbatida, rivojlanayotgan mamlakatlarning hukumat rahbarlari ham TMKlarni o‘z iqtisodiyotiga jalb etish borasida o‘zaro kurash olib bormoqdalar. Masalan, AQSHning “Jeneral motors” kompaniyasi 2005 yilda o‘zining Osiyo-Tinch okeani mintaqasi bozoridagi ulushini ikki barobarga oshirish maqsadida, uning 10% ga qadar ko‘paytirishga harakat qilmoqda. Xullas, jahon xo‘jaligi va xalqaro iqtisodiy munosabatlar rivojlanishining ob’ektiv qonunlariga bo‘ysungan holda, rivojlanayotgan mamlakatlar xususiy maqsadlar bilan bir qatorda ijtimoiy – iqtisodiy muammolarning hamda TMKlarning mamlakatlar iqtisodiyotidagi manfaatlariga mos keluvchi zaruriy parametrlarini izlab topmoqdalar.

9.4. “Yangi industrial mamlakatlar” ning jahon xo‘jaligida tutgan o‘rni

Jahon iqtisodiyoti va XIMda “Yangi industrial mamlakatlar”(“YAIM”) rivojlanayotgan davlatlarning ko‘pchiligidan iqtisodiy parametrlarining barcha sistemalari bo‘yicha ajralib turadi.

Yangi industrial mamlakatlarni rivojlanayotgan mamlakatlardan farqlanib turuvchi xususiyatlaridan biri ularni rivojlangan kapitalistik mamlakatlardan ham ajratib turishidir. Ya'ni, ularning rivojlanishi "Yangi industrial" rivojlanish modeli sifatida mavjudligidir. Bunday xarakterli tomonlar, Lotin Amerikasidagi va shuningdek Osiyodagi Yangi industrial mamlakatlarning rivojlanish tajribasini chuqur analiz qilish jarayonida ko'zga tashlangan edi.

Lotin Amerikasidagi Yangi industrial mamlakatlarlarning rivojlanish tajribasi va shuningdek Osiyodagi Yangi industrial mamlakatlarlarning ko'pchiligi ozodlikka erishgan jahonning rivojlanayotgan mamlakatlari uchun xalq xo'jaligining ichki rivojlanish dinamikasi bo'yicha ham, tashqi iqtisodiy munosabatlarining ekspansiyasi bo'yicha ham, rivojlanishning o'ziga xos namunasi bo'lib qolmoqda. Odatda, rivojlanayotgan "Yangi industrial mamlakatlar" qatoriga Osiyodagi Janubiy Koreya, Tayvan, Gonkong, Singapur, Malayziya shu bilan bir qatorda Lotin Amerikasidagi Yangi industrial mamlakatlar–Argentina, Braziliya, Meksika kabi mamlakatlar ta'luqlidir. Yuqorida sanab o'tilgan barcha mamlakatlar Yangi industrial mamlakatlarlarning birinchi avlodlari yoki qaldirg'ochlari hisoblanadi. Ularning orqasida Yangi industrial mamlakatlarning so'nggi avlodlari (Filippin va Xitoyning janubiy chegaralari va boshqalar) yetishib chiqmoqda..

BMT tomonidan ishlab chiqilgan metodika bo'yicha Yangi industrial mamlakatlarlar qatoriga kiruvchi davlatlar u yoki bu kriteriyalar bo'yicha alohida ajralib turadi. Ular quyidagilardan iboratdir:

- Aholi jon boshiga to'g'ri keladigan yalpi ichki mahsulotning miqdori bo'yicha;
- Yalpi ichki mahsulotning o'rtacha yillik o'sish sur'atlari bo'yicha;
- Yalpi ichki mahsulot tarkibidagi qayta ishlash sanoatining umumiy miqdori bo'yicha (20% atrofida bo'lishi kerak);
- Ishlab chiqariladigan tovarlarning umumiy miqdoriga nisbatan sanoat mahsulotlarining ulushi va eksport miqdori bo'yicha;
- Xorijiy mamlakatlarga chiqariladigan to'g'ridan-to'g'ri investitsiyalarning umumiy miqdori va hokazolar;

Yangi industrial mamlakatlarlar ushbu ko'rsatkichlar bo'yicha nafaqat rivojlanayotgan mamlakatlardan ajralib turadi, balki ayrim hollarda bir qator sanoati rivojlangan mamlakatlardan ham ushbu ko'rsatkichlar bo'yicha ustunlikka egadir. Masalan, Tayvan, 1952-1995 yillarda aholi jon boshiga yalpi ichki mahsulot hajmini 170 marotaba o'stirgan edi. (aholining o'sishiga nisbatan 2,5 marotaba ortiqroqdir). Tashqi savdo hajmini esa 544 marotabaga oshirdi. Mamlakatning inflyasiya darajasi o'rtacha 3,6%ni, iqtisodiy o'sishning o'rtacha yillik sur'ati 8,7%ni tashkil etgan edi. Tayvan iqtisodiy rivojlanish ko'rsatkichlari bo'yicha dunyoning ilg'or

mamlakatlari qatoriga kiritilgan bo‘lib, aholi jon boshiga to‘g‘ri keladigan yillik daromad taxminan 12 ming dollarni tashkil qilgan edi.

Shunday qilib, 1960-1990 yillarda Osiyo mintaqasidagi mamlakatlarning iqtisodiy rivojlanish sur’ati hisoblab ko‘rilganda uning miqdori yiliga 5%ni tashkil etganligini ko‘rishimiz mumkin (bu ko‘rsatkich Yevropa mamlakatlarida 2%ga teng bo‘lgan). Ana shu yillarda Tayvanda yillik o‘sish sur’ati juda yuqori bo‘lib 8,7%ni tashkil etgan. 90- yillarda Janubiy Koreya va Singapurda yillik o‘sish sur’atlari 8%ni, Malayziyada esa 9%ni tashkil etgan.

Jahon iqtisodiyotida “Yangi industrial mamlakatlar”ning iqtisodiy rivojlanish sur’atining yuqoriligi aholining turmush tarzi yaxshilab borayotganligi bilan uygunlashib bormoqda. 1960-1990 yillarda aholi jon boshiga to‘g‘ri keladigan yillik daromad rivojlanayotgan “YAIM”da 4 marotaba o‘sgan edi. Xullas, xalqaro ekspertlarning bashorat qilishicha, 2010 yilga borib Sharqiy Osiyoning rivojlanayotgan mamlakatlari G‘arbiy Yevropaning yalpi milliy maxsulotining hajmi bo‘yicha quvib o‘tishi, 2020 yillarga borib esa Shimoliy Amerikadan ham o‘zib ketishi bashorat qilingandi.

Osiyo-Tinch okeani mintaqasining yangi industrial davulatlaridan biri Singapur haqida shuni alohida ta’kidlab o‘tish joizki, u 1995 yilda mintaqa davlatlari ichida birinchi bo‘lib “industrial rivojlangan mamlakat” statusini qo‘lga kiritdi. Bunday unvon unga Iqtisodiy Hamkorlik va Rivojlanish Tashkiloti (IHRT) tomonidan rasman e’lon qilindi. Barqaror iqtisodiy o‘sishning 5-10 yilligi davomida o‘ziga nisbatan past rivojlangan 10 ta mamlakat doirasidan ajralib chiqib, dunyoning boy davlatlari qatoridan joy oldi (aholi jon boshiga to‘g‘ri keladigan yalpi milliy maxsulot hisobiga). Siyosiy barqarorlik sharoitida mamlakatning sanoatida yillik o‘sish sur’ati o‘rtacha 8,4%ni tashkil etdi. Mamlakat aholisining yashash turmush tarzi esa o‘rtacha yetti marotabaga ortdi. Singapurdagi har bir aholining o‘rtacha statistik daromadi 1995 yilda 22,3 dollarni tashkil etgan.

Yangi industrial mamlakatlarning iqtisodiy rivojlanish modeli va uning muvaffakiyatli taraqqiy etish tomonlari qarab chiqilganda, uning tashqi va ichki omillari xususida ham to‘xtalib o‘tiladi. Ko‘rinib turibdiki, omillarning bu ikki gruxlari, “YAIM”larning hukumat rahbarlari tomonidan olib borilayotgan maqsadli siyosatlari orqali to‘ldirib turiladi. Yangi industrial mamlakatlarlarning ichki tuzilishidagi muammolarga, hamda ularning xo‘jalik mexanizmlariga asosiy e’tiborni qaratmasdan turib, Yangi industrial mamlakatlar tashqi iqtisodiy omillarining o‘ziga xos tomonlarini ochib bera olmaymiz. Endi biz Lotin Amerikasining Yangi industrial mamlakatlarning rivojlanishi xususida to‘xtalib o‘tamiz.

Jahon tajribasi guvohlik bermoqdaki, jahonning u yoki bu mamlakatlari xalqaro iqtisodiy hamkorlikka faol aktiv kirishayotganda asosiy ishni xorijiy investitsiyalarni jalb etish hamda tashqi savdoning o‘sishiga xos hisoblanadigan shart-sharoitlarni yaratishdan boshlaydi. Shunday

ekan, bu mamlakatlar o‘z iqtisodiy rivojlanishlari doirasida texnologik ishlab chiqarishning barcha bug‘inlaridan keng foydalangan holda tarkibiy qayta qurilishlarga, ishlab chiqarishda tayyor xom-ashyolardan texnologik sig‘imi yuqori bo‘lgan tayyor mahsulotlarni ishlab chiqarishga o‘ta boshlaydi. Jahon iqtisodiyotida tarmoqlarni rivojlantirish va qayta ta’mirlash uchun eksportdan tushgan daromadlardan keng foydalanish, xalqaro mehnat taqsimoti ko‘lamida ancha istiqbolli va “foydali” usul hisoblanadi.

Jahon iqtisodiyotida AQSH, Germaniya, Yaponiya kabi bir qator sanoati rivojlangan mamlakatlar xuddi mana shu yo‘llar orqali taraqqiy etgan edi. AQSH o‘z iqtisodiy faoliyatini dastlabki yillarida asosan xom-ashyo, mevalar, paxta, asal, ko‘mir va shunga o‘xshash bir qator sanoat va qishloq ho‘jalik mahsulotlarni eksport qilishdan boshlagan bo‘lsa, GFR 50-yillarda ko‘mir, qora metalurgiya, ximiyaviy sanoat mahsulotlarni ekport qilishdan, Yaponiya esa to‘qimachilik, metalurgiya, kimyoviy sanoat mahsulotlarni eksport qilishdan boshlagan edi.

60-yillarda Sharqiy Osiyo va Lotin Amerikasidagi bir qator mamlakatlar, ya’ni Yangi industrial mamlakatlarlar ham xuddi ana shu yo‘llar orqali rivojlanish bosqichiga qadam qo‘ygan edi.

Ushbu davlatlarning barchasi iqtisodiy o‘sishning tashqi omillaridan samarali foydalandilar. Shu o‘rinda, sanoati rivojlangan mamlakatlardan xorijiy sarmoyalar-texnika va texnologiyalarni keng miqiyosda jalb qilinganligini ta’kidlab o‘tish lozimdir. Xullas, jahon iqtisodiyotida shunday savol tug‘ildi qaysi sabablarga ko‘ra “yangi industrial mamlakatlar”ni rivojlanayotgan dunyodagi boshqa mamlakatlardan ajratib o‘rganish mumkin?

Ma’lumki, bir qator sabablarga ko‘ra, “Yangi industrial mamlakatlar” ning ba’zi birlari sanoati rivojlangan mamlakatning muhim siyosiy va iqtisodiy manfaatlari ta’sir doirasiga tushib qolganligini ko‘rishimiz mumkin. AQSHning siyosiy manfaatlari asosan Sharqiy Osiyo mamlakatlarining “kommunistik ta’siriga” qarshi turuvchi Tayvan va Janubiy Koreyaning siyosiy manfaatlarini qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan edi. Shuning uchun ham ushbu mamlakatlarga cheksiz iqtisodiy yordam uyushtirilib harbiy jihatdan qo‘llab-quvatlandi. (masalan, Tayvanga 1,5 mlrd. AQSH dollari miqdorida yordam ko‘rsatilgan edi). 1950-1960 yillarda AQSHning yordami, Tayvanda jalb etilgan jami investitsiyalarning 34%ni tashkil etgan bo‘lib, uning 74%ni infrastrukturaga, 59%ni qishlok xo‘jaligiga va 13%ni esa sanoatga jalb etilgan edi. Xullas bularning barchasi Tayvan iqtisodiyotining rivojlanishida tashlangan ijobiy qadam bo‘ldi.

Jahon iqtisodiyoti va XIMda Yangi industrial mamlakatlarlarni zamonaviy iqtisodiy tarkibining shakllanishida, to‘g‘ridan-to‘g‘ri yo‘naltirilgan investitsiyalarning ta’siri katta bo‘ldi. 80- yillarning birinchi yarmida Yangi industrial mamlakatlarlarni iqtisodiyotidagi to‘g‘ridan-to‘g‘ri yo‘naltirilgan investitsiyalarning miqdori, rivojlanayotgan mamlakatlardagi to‘g‘ridan-

to‘g‘ri yo‘naltirilgan sarmoya qo‘yilmalarining 42%ga etgan edi. Sanoati rivojlangan mamlakatlar orasida AQSH “yangi industrial mamlakatlar” dagi ishbilarmonlik sarmoyalarining eng ko‘zga ko‘ringan investori bo‘lib hisoblanadi. Ulardagi to‘g‘ridan-to‘g‘ri yo‘naltirilgan investitsiyalarning o‘sishi, xorijiy mamlakatlardagi xuddi shunday investitsiyalar umumiy miqdorining 10%ni tashkil etadi. Yaponiya hozirgi kunda Yangi industrial mamlakatlardagi to‘g‘ridan-to‘g‘ri yo‘naltirilgan miqdori bo‘yicha ikkinchi o‘rinda turadi.

Yaponiya investitsiyalari, Yangi industrial mamlakatlarning industriallashuviga va ularning eksport tovarlarning raqobatbardoshligini oshirishga imkoniyat yaratib, Yangi industrial mamlakatlarlar sanoatida qayta ishlanadigan mahsulotlarning yirik eksportyorlaridan biriga aylanishida muhim rol o‘ynamoqda. Yaponiya investitsiyalarini kirib kelishi birgina 1982-1985 yillarning o‘zida Tayvanda 2,1 martaga , Gonkongda esa 61%ga o‘sgan edi.

Yaponiya sarmoyalarining ishtirokida, ushbu mamlakatlar yuqori sifatli tayyor mahsulotlarning ekportyorlari bo‘lib qolishiga imkon beruvchi yirik ishlab chiqarish bazasi tashkil etildi. 80-yillarning boshidan, Yaponiya investitsiyalari umumiy miqdorining yarmisidan ko‘prog‘ini tashkil etgan edi. Xullas, Yapon investorlari ishtirokida Yangi industrial mamlakatlarlarda zamonaviy stanoklar, elektronika jihozlari, dengiz kemalari va boshqalarni ishlab chiqarish bo‘yicha komplekslar barpo etilgan edi.

Jahon iqtisodiyotida Osiyoning Yangi industrial mamlakatlarlari uchun shu narsa xarakterli bo‘ldiki, ulardagi tadbirkorlik sarmoyalari, birinchi galda qayta ishlash sanoati va xom ashyo tarmoqlarini rivojlantirishga yo‘naltirildi. O‘z navbatida, Lotin Amerikasining “YAIM” laridagi ishbilarmonlik sarmoyalari esa, ko‘proq savdo, xizmat ko‘rsatish soxalari va qayta ishlash sanoat tarmoqlariga jalb etilgan edi. Xullas, jahon iqtisodiyotida xorijiy sarmoyalarning keng mikyosda tarkalishi shu narsaga olib keldiki, Yangi industrial mamlakatlarlarda xorijiy sarmoyalar ishtirok etmagan birorta ham iqtisodiy tarmoq qolmagan edi. 1998 yilda Lotin Amerikasi va Osiyoning Yangi industrial mamlakatlarlarining bozorlaridagi qo‘yilmalarining daromadlilik (%hisobida) quyidagicha xarakterda bo‘lgan edi. Argentinada 58%, Braziliyada 83,5% ni, Meksikada 40% ni, Chilida 39% ni, Indoneziyada 79%ni, Janubiy Koreyada 26,1% ni, Tayvanda 104% ni, Tailandda 121,3% ni, Filippinda 165,2% ni tashkil etgan edi.

Ushbu statistik manbalardan ko‘rinib turibdiki, Osiyoning Yangi industrial mamlakatlarlaridagi investitsiyalarning daromadlilik darajasi Lotin Amerikasi mamlakatlarinikidan sezilarli darajada yuqoriroq bo‘lgan. Konuniy shunday savol tugiladi, xo‘sh nima uchun xorijiy mamlakatlarning xususiy sarmoyalarining barchasi Osiyo mintaqasidagi ba’zi bir mamlakatlarga nisbatan faolroq kirib boradi.

Ma’lumki, 60-yillarning oxirida jahon xo‘jaligini rivojlanishidagi vaziyat shu qadar murakkablashgan ediki, natijada transmilliy korporatsiyalarning rivojlanish manfaatlari va

strategiyalari Osiyodagi bir qator davlatlarning imkoniyatlari va intilishlari bilan moslashib borgan edi. Rivojlanayotgan mamlakatlar importidagi turli xildagi cheklashlar va ularning uncha katta bo‘lmagan to‘lov qobiliyatiga duch kelayotgan transmilliy korporatsiyalar, joylarda ishlab chiqarishni yo‘lga qo‘yish maqsadida, sarmoyalarni chetga chiqarish orqali tovarlar eksportini qisman yangilash tomon qadam qo‘ya boshladi. Transmilliy korporatsiyalarning xuddi ana shu yo‘nalishlardagi faoliyati, rivojlangan mamlakatlarning to‘yingan bozorlarining konyukturasi, raqobatning avj olishi va ishlab chiqarish xarajatlarini pasaytirish uchun kurashish orqali amalga oshirilmoqda. Transmilliy korporatsiyalar, o‘zlari faoliyat ko‘rsatayotgan joylarda ishlab chiqarishni ilmiy asosda rivojlantirishga e’tiborni qaratadi. Xarakterli tomoni shundaki, jahon iqtisodiyotida “Osiyo ajdarxosi” deb nom olgan xalqaro iqtisodiy konyukturalarining bunday o‘zgarishlarni kabul qilishga va ulardan o‘z maqsadlari yo‘lida foydalanishga tayyor ekanligi ma’lum bo‘ldi. Transmilliy korporatsiyalarni, aynan Osiyo mintaqasiga jalb qilishida quyidagi shart-sharoitlar muhim ahamiyat kasb etgan edi.

1. “Yangi industrial mamlakatlar” ning foydali strategik joylashganligi. Ularning barchasi jahonning savdo iqtisodiy yo‘llarining chorraxasida, ya’ni jahon xo‘jaligi markazlari bo‘lmish - AQSH va Yaponiya kabi rivojlangan mamlakatlarga yaqinrok xududlarda joylashganligi.

2. “Yangi industrial mamlakatlar” ning barchasida sanoati rivojlangan mamlakatlarga nisbatan munosib hisoblangan avtokratik yoki shunga yakin bo‘lgan siyosiy muhitlar yaratilganligi. Ularda siyosiy barkarorlik ta’minlanib, siyosiy hamda demokratik o‘zgarishlar, iqtisodiy islohotlar amalga oshiriladi. Xorijiy investorlarning xavfsizligi uchun yuqori darajali kafolatlar ta’minlanadi.

3. Osiyodagi “yangi industrial mamlakatlar” aholisiga xos bo‘lgan mehnatsevarlik intiluvchanlik, tartiblilik, matonatlilik singari noiqtisodiy omillar ham katta ahamiyat kasb etdi. Bu omilar ma’lum darajada Osiyo va Lotin Amerikasidagi - Yangi industrial mamlakatlarning ikki modeli urtasidagi o‘ziga xos bo‘lgan bellashuvda hal qiluvchi ahamiyatga ega bo‘ldi. Xo‘sh, ushbu modellarning o‘ziga xos tomonlarini nimada ko‘rishimiz mumkin. Jahon iqtisodiyotida birinchi model milliy iqtisodiyotning tashki bozor va eksportga tomon ustivor yo‘nalishlari orqali rivojlanishini ko‘rsatib bersa, ikkinchi model esa import o‘rnini egallashga qaratilganligidir. Birinchi modelda ko‘rsatib o‘tilgandek, XIXasrning oxiri va XX asrning boshlarida AQSH, ikkinchi jahon urishudan keyin - G‘arbiy Yevropa davlatlari va Yaponiya, keyinchalik esa Osiyoning Yangi industrial mamlakatlarlari ham rivojlanishning birinchi modeli yo‘lidan borishdi. Ikkinchi model esa sezilarli darajada Lotin Amerikasining Yangi industrial mamlakatlarlari tomonidan o‘zlashtirib olingan edi.

Jahon tajribasi shuni ko‘rsatmoqdaki, hozirgi kunda import o‘rnini egallashga qaratilgan ishlab chiqarishni rivojlantirish strategiyalari bir qator rivojlanayotgan mamlakatlarning iqtisodiy

taraqqiyotida muhim rol o‘ynamoqda. Import o‘rnini egallash strategiyalari xo’jalik tarkibining xilma-xilligini ta’minlash imkoniyatini yaratadi. Ko‘pchilik rivojlanayotgan mamlakatlarda esa yangi va muhim bo‘lib hisoblanuvchi bir qator ishlab chiqarish tarmoqlari barpo etilishi bilan bir qatorda muhim yo‘nalishlar bo‘yicha o‘z-o‘zini ta’minlash darajasi ham o‘sib bormoqda .

Shuningdek iqtisodiyotni tubdan isloh qilishda asosiy yo‘l bo‘lib hisoblanuvchi import o‘rnini egallashga muljallangan ishlab chiqarish sohalarini rivojlantirishni asosiy o‘ringa qo‘yuvchi barcha mamlakatlarda o‘z-o‘zidan jiddiy inqirozlar bo‘lib turibdi. Gap shundaki, xorijiy kompaniyalar uchun imtiyozli kreditlarni yo‘qligi va proteksionizm siyosatiga asoslangan milliy iqtisodiyotning faoliyat ko‘rsatishini “qo‘llab-quvvatlab turganlik” muhiti jahon iqtisodiyotida tez moslashuvchan va samarali iqtisodiy tizimning vujudga kelishiga yo‘l qo‘ymadi. Umuman olganda, import o‘rnini egallash siyosati, rivojlanayotgan mamlakatlar faoliyatining dunyo xo‘jaligida tub o‘zgarishlar yasashiga yo‘l qo‘ymaydi.

Bundan tashqari, import o‘rnini egallash siyosati nafaqat tashqi omillarni pasayishiga yo‘l qo‘ymaydi, balki uning o‘sishini ham ta’minlaydi. Import o‘rnini egallash prinsiplariga o‘zok vaqt tayanilganda mamlakatlarda qoloqlikni bartaraf etish imkoniyati paydo bo‘ladi hamda keng miqyosdagi taraqqiyotga erishishni ta’minlovchi iqtisodiyotdagi yetakchi tarmoqlarni vujudga kelishiga xalaqit beruvchi barcha to‘siqlarga barham beriladi. Proteksionizm, ichki bozorlarni va biznesni himoya qilish choralari sifatida qisman samarasiz ishlayotganiga qaramasdan, uning monopol xolati va baholarining keskin o’sayotganligidan foydalanib foyda olayotgan mahalliy korxonalarni qo‘llab-quvvatlaydi. Xullas, hozirgi kunda jahon iqtisodiyotida import o‘rnini egallash davri, ko‘pchilik rivojlanayotgan mamlakatlarda, shu jumladan “yangi industrial mamlakatlar”da ham o‘z nihoyasiga yetganligini kurishimiz mumkin.

Jahon iqtisodiyotida import o‘rnini egallash strategiyasi Lotin Amerikasining Yangi industrial mamlakatlarlari (Braziliya, Argentina, Meksika) uchun xilma-xil bo‘lgan milliy iqtisodiyotni barpo etishda va shuningdek bir qator tovarlarni ishlab chiqarish bo‘yicha jahonda salmoqli o‘rinni egallab kelishida muhim rolni o‘ynamoqda. Nima bo‘lganda ham ushbu mamlakatlar sanoati rivojlangan mamlakatlarga nisbatan qoloqlik darajasini bartaraf etish uchun zarur bo‘lgan shart-sharoitni yarata olmadilar. Shuning uchun ham Lotin Amerikasining Yangi industrial mamlakatlarlari qanchalik kuchayib iqtisodiy potensialga ega bo‘lishlariga qaramasdan, Osiyodagi “YAIM”larga nisbatan iqtisodiy jihatdan ancha qoloqligicha qolmoqda. Masalan, Braziliyaning yalpi ichki maxsuloti (YAIM) Sharqiy Osiyodagi “Yangi industrial mamlakatlar” ning umumiy yalpi ichki maxsulotiga nisbatan biroz kamroqdir.

Lotin Amerikasining Yangi industrial mamlakatlarlari ekportining salmoqli o‘sishiga ega bo‘lmasdan turib, o‘z iqtisodiyotini talab darajasida tubdan isloh qilishga erisha olmadilar. Iqtisodiy o‘sish sur’atlarining natijalariga qarab, ichki iqtisodiy muammolarni bartaraf etish

uchun bir qator kamchiliklarga yo‘l qo‘yildi. Bir vaqtning o‘zida tashqi muammolar ham vujudga keldi. Eksportning past darajada o‘sishi, to‘lov balansi defitsitning hamda barcha yangi kreditlarga bo‘lgan talablarning o‘sishiga imkoniyat yaratdi. Oqibatda ushbu mamlakatlar sanoati taraqqiy etgan mamlakatlarning eng ilg‘or bo‘lmagan texnika va texnologiyalarini o‘z iqtisodiyotida joriy etish siyosatida mustahkamlanib qolaverdi.

Qayd etish joizki, Lotin Amerikasining “Yangi industrial mamlakat”lari 90-yillarning urtalariga kelib 80-yillardagi uzoq davom etgan inkirozdan chiqib oldi. Braziliya, Argentina, Meksika, Chili kabi davlatlarda amalga oshirilgan liberal iqtisodiy o‘sish sur’atlari yuksalib, savdo balansini yaxshilashda ijobiy yutuqlar qo‘lga kiritildi.

Lotin Amerikasining yirik Yangi industrial mamlakatlaridan biri Braziliyada olib borilayotgan siyosat - bu ochiq iqtisodiyotni yaratishga qaratilganligidir. Buning uchun mamlakatning ichki bozorida raqobat kurashuvi uchun muhit yaratilayotgan bo‘lib, unga bog‘liq holda import tariflari pasaytirildi. 1995 yilda MERKOSUR mamlakatlari (Braziliya, Argentina, Paragvay va Urugvay) urtasida bojxona to’siqlari to’liq olib tashlandi.

Osiyodagi “Yangi industrial mamlakatlar” o‘z iqtisodiyotining eksportga mo‘ljallangan ancha samarali va tez moslashuvchan modelini joriy etdi. Bu model, ma’lum davr mobaynida bir vaqtning o‘zida import o‘rnini egallash siyosatini ham o‘z ichiga olgan edi. Eksport siyosati o‘rnini egallashga mo‘ljallangan industriallashuvning tugallangan davrini qayta sodir etishni talab etmaydi. Ma’lumki, jahon iqtisodiyotida import o‘rnini egallash va eksportga mo‘ljallangan iqtisodiy siyosat bir-biri bilan teng holda harakat qilib, ba’zi davrlarda esa ular bir-biridan ustunlikka ham ega bo‘lishi mumkin. Eksportni kengaytirish davriga yoppasiga o‘tish oldidan, import o‘rnini egallash uchun jahon mamlakatlari ishlab chiqarishining zamonaviy tizimlarini vujudga keltirish, iqtisodiyotni an’anaviy sektorini qayta qurish kabi masalarga ham e’tiborni qaratishmoqda.

Osiyoning ko‘pchilik mamlakatlarida, jumladan XX asrning 50 va 60 yillarida Janubiy Koreya va Tayvanda, 60-yillarda Malayziyada; 60 va 70 yillarning boshlarida Tailandda, 50 va 60 yillarning oxirida Filippinda import o‘rnini egallash siyosati ustuvor yo‘nalishga ega bo‘lgan edi. Gonkong va ma’lum darajada Singapur, o‘zlarining tarixiy rivojlanish shart-sharoitlari, jugrofiy joylashuvi va ichki talabning cheklanganligi ta’sirida ishlab chiqarishni ko‘proq eksportga qaratdilar. Mahalliy ishlab chiqarishni ragbatlantiruvchi chora-tadibrlar, qayta ishlash sanoatidagi foyda me’yorini oshirish, iste’mol maxsulotlarni va shuningdek uzoq muddatli foydalanishga mo‘ljallangan tovarlar ishlab chiqaruvchi tarmoqlarning asta-sekinlik bilan import o‘rnini egallashiga sabab bo‘lgan edi.

60-80 - yillarda Janubiy Koreya jahon bozoriga uzoq muddatli foydalanishga mo‘ljallangan mahsulotlarning 2,9%ni, 3,4%ni, 9,6%ni, 9,3%ni, 11,1%ni va 9,6%ni etkazib bergan bo‘lib, uning jahon kemasozlik sanoati eksportidagi ulushi 13,1% ga to’gri kelgan edi.

Osiyoning “Yangi industrial davlatlari” sanoat mahsulotlari eksportining yuqori dinamikasiga asoslangan holda, an’anaviy ayrim tovarlar eksporti bo‘yicha tashqi savdo aylanmasida hal qiluvchi o‘rinni egallagan edi. Masalan, Janubiy Koreya va Tayvan eksportida xom-ashyo va oziq-ovqatning ulushi mos ravishda 7,1% va 7%ni tashkil etgan edi. Xullas, 90-yillarda Janubiy Koreyada tovarlar eksportida kiymati bo‘yicha ikkinchi o‘rinni poyafzal mahsulotlari egallagan bo‘lsa, Tayvanda esa o’yinchoklar va sport tovarlari egallagan edi. Janubiy Koreya eksportida to‘rtinchi o‘rinda sintetik mahsulotlardan tayyorlangan tekstil tovarlari turgan bo‘lsa, Tayvanda esa ettinchi o‘rinda poyafzal mahsulotlari turgan edi.

Osiyoning “Yangi industrial davlatlari”da ayniqsa, mashina va asbob-uskunalar ishlab chiqarish bo‘yicha eksportida Hindiston va shuningdek Lotin Amerikasining “YAID”larining kuchsizligi seziladi. Agar Lotin Amerikasining “YAID”larini tovarlar eksportinig rivojlangan davlatlar umumiy eksportidagi ulushi 1998 yilda 1980 yilga nisbatan unchalik kamaymagan (0,5%) bo‘lsada, mashina va asbob-uskunalar ishlab chiqarish bo‘yicha ulushi qariyb 1,8 barobar kamayganligini ko‘rishimiz mumkin. Aynan ana shu mashinatexnik mahsulotlar eksporti rivojlanayotgan davlatlarning xalqaro mehnat taqsimotidagi holatlarini yaxshilanishining eng muhim omilidir.

90-yillarda Osiyoning “Yangi industrial davlatlari” ni olib borayotgan faol tashqi savdo siyosati AQSHning Osiyo-Tinch okeani mintaqasi davlatlari bilan bo‘lgan yillik o‘zaro savdo hajmi (128,4 mlrd. doll.) G‘arbiy Yevropa bilan bo‘lgan savdo aylanmasidan (117,1 mlrd. doll.) yuqori bo‘lgan edi. Bunda Osiyoning “YAID”lari (Yaponiyani qo‘shib hisoblaganda) AQSH bozorida avtomobillar va elektrotexnikaning 30%ni, tekstil va tikuvchilik mahsulotlarining 50%ni egallagan edi.

80-90 yillarda Rivojlangan mamlakatlarning eng yirik kapital importyori bo‘lgan “Yangi industrial davlatlar”o‘z geografiyasini ancha kengaytirgan edi. Hozirgi kunda ilg‘or sanoati rivojlangan davlatlarini kapitali uchun Osiyo-Tinch okeani mintaqasidagi rivojlanayotgan davlatlarning yangi bozorlaridir. Masalan, Janubiy Koreya firmalari AQSHda aniq maqsadga yo‘naltirilgan eksport ekspansiyasini o‘tkazmoqda. Amerika iqtisodiyotiga kapital qo‘yishib, Janubiy Koreyaliklar o‘z iqtisodiyoti uchun eng yangi texnologiyalarni kirib kelishiga yo‘l ochmoqdalar. Shuningdek Janubiy Koreya firmalari Osiyoning “ajdarho” deb nom olgan boshqa davlatlariga ham kapital olib chiqishni ko‘paytirmoqda. Masalan, Tayvanning Xitoyga bo‘lgan qiziqishi juda kattadir. 90-yillarning urtalarida Tayvanning XXR dagi

investitsiyalari 9 mlrd. doll.dan oshib ketgan edi. O‘z navbatida Gongkonglik ishbilarmonlar XXR da ro’yxatga olingan qo‘shma korxonalarning yarmidan ko‘prog‘ini tashkil qilishgan.

XX asrning 50-yillarida jahon xo‘jaligida baynalminalallashuv jarayonlarining tezlashishi rivojlanayotgan davlatlarni, birinchi navbatda “yangi industrial davlatlar”ni ham qamrab olgan edi. Jahon iqtisodiyotida ishlab chiqarishni, mehnat va kapital bozorlarini va tovar ayirboshlash jarayonlarining baynalminallashuviga moliya bozorlarining baynalminallashuvi ham qushildi. Yangi industrial mamlakatlarning kredit imkoniyatini o‘sishi, milliy moliyaviy bozorlarining rivojlanishi va moliyaviy salohiyatining oshishi bilan ham chambarchas bog‘liqdir. Ko‘pgina “yangi industrial davlatlar” hozirgi kunda milliy moliyaviy bozorlarni tashkil topishining birinchi bosqichidan o‘tishib ularning faoliyatini liberallashtirishning ikkinchi bosqichiga kirishdilar. Bu bilan esa ularning xalqaro moliya munosabatlari tizimiga faol integratsiyalashuviga asos yaratildi. Kapital harakatining baynalminallashish jarayonlari hatto rivojlangan davlatlar orasida ham yakunlanishdan uzoqdir. Shuning uchun ham bu haqda rivojlanayotgan davlatlar haqida gapirmasa ham bo‘ladi. Shunga qaramasdan, ba’zi bir “yangi industirial davlatlar” (Singapur va Gonkong) bu yo‘lda o‘zlarining sezilarli qadamlarini qo‘ydilar. Bunga, 70-yillarda jahon iqtisodiyotida yangi xalqaro moliyaviy markazlarning hosil bo‘lishi va tez o‘sishini kiritish mumkin. XXI asr boshlarida Tayvan Osiyo-Tinch okeani mintaqasidagi yirik valyuta-moliyaviy markaziga aylanishini o‘z oldiga maqsad qilib qo‘ydi. Osiyoning Yangi industrial mamlakatlari xalqaro moliya markazlari kredit-moliya operatsiyalarini o‘tkazish miqyosi bo‘yicha London, Parij, Syurix kabi yirik moliya markazlari qatoriga chiqib, ularni ssuda kapitali bozoridan asta-sekin siqib chiqarmoqda.

Osiyoning Yangi industrial mamlakatlari iqtisodiy evolyutsiyasining xarakterli tomonlaridan biri ularning bir-biriga bo‘lgan qiziqishini tobora ortib borayotganligidir. Sanoati rivojlangan Fapbiy Yevropa davlatlariga kapital yo‘naltirishning ustuvor tendensiyasi, mintaqa va bir-biriga yaqin bo‘lgan submintaqalarda savdo-iqtisodiy hamkorlarni olib borishligi bilan tuldirilmoqda. Ammo bu Osiyoning Yangi industrial mamlakatlarini raqobatbardoshliligini oshirishga e’tibor bermayapti degani emas. Xullas, 90-yillarning o’rtalarida tovarlarning raqobatbardoshligi bo‘yicha jahondagi birinchi beshlikda Singapur, Gonkong, Tayvan kabi davlatlar turgan edi.

Bu davlatlarda kabul qilingan iqtisodiy strategiyaning asosiy yo‘nalishi-ilmtalab mahsulotlar ishlab chiqarishdir. Mehnattalab va past rentabelli ishlab chiqarishlar Yangi industrial mamlakatlarning “ikkinchi oqimi”da turgan Xitoy va Vetnamga “Topshirmoqda”. Natijada bu ishlab chiqarishlarni bir paytlar sodir etgan sanoati rivojlangan davlatlardan birinchi avlod “yangi industrial davlatlar”ga ko’chish jarayoni amalda qaytarilmoqda. Shunday qilib Yangi industrial mamlakatlarni rivojlanishidagi qo‘lga kiritilgan yutuqlari, jahon xo‘jaligiga

integratsiyasi, iqtisodiy o‘sishining istiqbollari, aholi turmush tarzini o‘sishi ushbu davlatlarning iqtisodiyotida tashqi iqtisodiy ekspansiyalarning roli yuqori darajada deyishga imkon beradi. XXI asrda ushbu davlatlar jahon iqtisodiy hukmronligida yuqoriroq o‘rinni egallab, yangi va muhim natijalarni namoyish qilmoqda. Jahon Bankininng bashoratiga qaraganda, yaqin 10 yillar mobaynida o‘sishning o’rtacha sur’atlari Janubiy Osiyoda - 5,5%ni, Sharqiy Osiyoda - 7,7%ni, Lotin Amerikasida - 3,5%ni tashkil etgan. 1996-2004 yillarda Sharqiy Osiyoda aholi jon boshiga to’gri keladigan daromadning yillik o‘sishi 6,6%ni tashkil etib, o‘rta hisobda aholi jon boshiga to‘g‘ri keladigan yillik daromad 1,9% ga o‘sgan edi.

Tayanch iboralar: yuqori darajada rivojlanayotgan, o‘rtacha darajada rivojlanayotgan, past rivojlangan mamlakatlar, “YAID”, YAIM o‘sish sur’atlari, tashqi savdo aylanmasining o‘sishi, eksportga yo‘naltirilgan va importni qoplash siyosatlari.

Bobning qisqacha xulosasi:

XX asrning 50-yillaridan so‘ng jahon iqtisodiyoti va xalqaro iqtisodiy munosabatlarni rivojlanishining ahamiyatli tomonlaridan biri, mustamlaka va qaram mamlakatlarning (Osiyo, Afrika va Lotin Amerikasi mamlakatlari) roli va ahamiyatini iqtisodiy jihatdan kuchayib borayotganligidir. Ushbu mamlakatlar hozirgi kunda jahon iqtisodiyotida rivojlanayotgan mamlakatlar yoki ozod etilgan mamlakatlar, “Uchinchi dunyo mamlakatlari”, “janub mamlakatlari”, “periferiya mamlakatlari” sifatida tilga olinadi. Rivojlanayotgan mamlakatlarning barchasiga xos bo‘lgan umumiy xususiyatlar - iqtisodiyotning ko‘p ukladli xarakterga egaligi, ishlab chiqarish kuchlari rivojlanishining past darajadaligi, sanoat, qishloq xo‘jaligi va ijtimoiy infrastrukturaning qoloqligi, iqtisodiy rivojlanishi jahon xo‘jaligi tizimiga (ayniqsa – etakchi mamlakatlarga) qaramligi, kapitalizmni periferik xarakter kasb etishi va boshqalar.

Jahon iqtisodiyoti va XIMda “Yangi industrial mamlakatlar” (“YAID”) rivojlanayotgan mamlakatlarning ko‘pchiligida iqtisodiy rivojlanish parametrlarining barcha tizimlari bo‘yicha ajralib turadi. Ya’ni, ularning rivojlanishi “yangi industrial” rivojlanish modeli sifatida mavjudligidir.

Transmilliy kompaniyalar rivojlanayotgan mamlakatlarda yuksak iqtisodiy o‘zgarishlarni vujudga keltirayotganligi bilan bir qatorda, ushbu mamlakatlarning texnik taraqqiyotining ichki rivojlanish omillarining rivojlanishiga ham juda katta imkoniyatlar ochib bermoqda.

Nazorat uchun savollar:

1.Rivojlanayotgan mamlakatlar guruhiga kiruvchi davlatlarni tavsiflab bering.

2.Jahon iqtisodiyotida rivojlanayotgan mamlakatlar necha guruhga bo‘lib o‘rganiladi?

3.Rivojlanayotgan mamlakatlar iqtisodiyotiga hos bo‘lgan umumiy xususiyatlarni harakterlab bering.

4.Rivojlanayotgan davlatlar uchun xorijiy investitsiyalarni jalb etish qanday ahamiyat kasb etadi.

5.Rivojlanayotgan va sanoati rivojlangan davlatlar o‘rtasidagi farqlarni oshib borish sabablarini ochib bering.

6.Rivojlanayotgan davlatlarning xalqaro qarzdorlik muammosi haqida gapirib bering.

7 Yangi industrial mamlakatlar qatoriga kiritishda qanday ko‘rsatkichlar e’tiborga olinadi?

8 Yangi industrial mamlakatlarning iqtisodiy rivojlanishiga qanday omillar ta’sir ko‘rsatmoqda?

9 Yangi industrial mamlakatlarda qanday rivojlanish modellar mavjud?

10-mavzu. Xalqaro iqtisodiy integratsiya

Ko’rib chiqiladigan asosiy savollar:

1. Iqtisodiy integratsiya mohiyati va unga ta’sir etuvchi omillar
2. Iqtisodiy integratsiya shakllanishi shart – sharoitlari
va uning bosqichlari
3. Iqtisodiy integratsiyaning milliy davlatlar iqtisodiyotiga ta’siri
4.Jahon iqtisodiyotidagi asosiy integratsion guruhlar

Mavzuga oid tayanch tushuncha va iboralar: erkin iqtisodiy hudud, bojxona ittifoqi, to’liq iqtisodiy ittifoq, qonunchilikning unifikatsiyalanishi, Evropa Ittifoqi, Maastrixt shartnomasi, Yagona Evropa Akti, NAFTA, “Merkosur”, IHT

Mavzuda ko’rib chiqiladigan muammolar:

1. Iqtisodiy integratsiya mohiyati va unga ta’sir etuvchi omillarini qanday izohlaysiz?
2. Iqtisodiy integratsiya shakllanishi shart–sharoitlari va uning bosqichlarini qanday izohlaysiz?
3. Iqtisodiy integratsiyaning milliy davlatlar iqtisodiyotiga ta’sirini
qanday izohlaysiz?
4.Jahon iqtisodiyotidagi asosiy integratsion guruhlarga qaysilar kiradi?

10.1. Iqtisodiy integratsiya mohiyati va unga ta’sir etuvchi omillar

XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab yetakchi industrial mamlakatlarning tez iqtisodiy rivojlanishi va xalqaro transport hamda kommunikatsiya vositalarining takomillashishi natijasida tovarlar hamda xizmatlar almashinuvining qizg‘in rivojlanishi ro‘y berdi. Ishlab chiqarish omillari (kapital, ish kuchi va texnologiyalar) xalqaro harakatining turli shakllari vujudga kela boshladi, buning natijasida xorijga faqat tayyor mahsulot emas, balki uni ishlab chiqarish omillari ham ko‘chib o‘ta boshladi. Tovarning narxiga qo‘shilgan foyda endilikda faqat milliy chegaralar doirasidagina emas, balki xorijda ham yaratila boshlandi. Iqtisodiy integratsiya

tovarlar va xizmatlar xalqaro savdosi hamda ishlab chiqarish omillari aylanishi rivojlanishning qonuniy natijasi bo‘ldi.

Iqtisodiy integratsiya-mamlakatlar o‘zaro iqtisodiy hamkorligining natijasi bo‘lib, u xo‘jalik mexanizmlarining yaqinlashuviga olib keladi va bu yaqinlashuv davlatlararo bitimlar shaklini oladi hamda tegishli davlatlararo organlar tomonidan tartibga solinadi.

Hozirgi vaqtda mutaxassislar orasida integratsiyalashuv jarayonlariga nisbatan Yagona nuqtai nazar yo‘q. Iqtisodchilarning bir guruhi integratsiya jarayonida mamlakatlar o‘rtasida yangi tovar oqimlarini shakllantirish hisobiga "Resurslarning cheklanganligi" omilini bartaraf etishni eng muhim hol deb biladilar va bu alohida olingan bir mamlakat ichida bir-biriga o‘xshash qimmatroq tovarlar ishlab chiqarishni bartaraf etish yoki ilmiy-tadqiqot hamda tajriba-konstruktorlik ishlariga sarflanadigan vositalarni tejash imkonini beradigan texnologik o‘zaro almashuvlarni kengaytirishga imkon tug‘diradi deb hisoblaydilar.

Olimlarning boshqa guruhi ustunlik qiluvchi shart-sharoitlar sifatida tashqi iqtisodiy omillar, masalan, kollektiv mudofaa qobiliyatini oshirishni ilgari suradilar. Uchinchi guruh olimlar esa, integratsion guruhlar tuzilishi bu ularning a’zolariga ishlab chiqarishning birdek o‘sishi, ijtimoiy barqarorlik va shakliy maqsadlarga oson hamda tezroq erishish imkonini beradi deb hisoblashadi. Integratsiyaga nisbatan bu va boshqa nazariy yondashuvlarini umumlashtirib, shuni ta’kidlash joizki, integratsiya-mintaqaviy miqyosda sifat jihatidan yangi iqtisodiy muhitni shakllantirish yo‘li bilan milliy xo‘jalik komplekslarining yaqinlashuvi va bir-biriga kirib borishini ifodalaydi.

Jahon iqtisodiyotida integratsiya jarayonlari har bir davlat uchun faqat "o‘z ishlab chiqarishiga" ega bo‘lish foyda bermaydigan bo‘lib qoladigan vaziyatni keltirib chiqaradi.

Ba’zi milliy iqtisodiyotlar o‘z iqtisodiy salohiyatlarini kuchaytirishga intilib, jahon xo‘jaligiga tobora ko‘proq qo‘shilib bormoqda. Jahon xo‘jaligi ishchi kuchining aylanishi, kadrlar tayyorlash, mutaxassislarni o‘zaro ayriboshlash o‘sib borgan sari baynalmilal tus olmoqda. Jahon xo‘jalik aloqalari shakllanishi va rivojlanishining istiqbollari xalqaro jahon xo‘jaligi rivojlanishining asosiy tendensiyasi sayyoramiz miqyosida tovarlar, kapitallar va xizmatlarning Yagona bozorini yaratishga, alohida mamlakatlarning iqtisodiy yaqinlashishi va yaxlit xalqaro xo‘jalik kompleksiga birlashishiga intilishda namoyon bo‘lishini ko‘rsatadi. Bu esa xalqaro iqtisodiy munosabatlarning boshqacha, ancha yuqori bosqichi hisoblanadi.

Integratsiyaviy tuzilmalarni ishlab chiqarishning integratsiyalashuvida erishilgan darajasiga qarab ajratish lozim. Bunda integratsiyalashuv ham rasmiy, ham real xususiyatga ega bo‘lishi mumkinligini hisobga olish kerak. Rasmiy integratsiyalashuv ishlab chiqarishni shunday xalqaro umumlashtirishdan iboratki, uning asosida mamlakatlar o‘rtasidagi iqtisodiy aloqalar xalqaro mexnat taqsimoti asosida o‘rnatiladi.

Real iqtisodiy integratsiya esa, ishlab chiqarishni shunday xalqaro umumlashtirishdan iboratki, bu umumlashtirish ishtirokchi davlatlar asosiy ijtimoiy-iqtisodiy o‘lchamlarining ma’lum paritetini nazarda tutadi.[45]

Iqtisodiy integratsiya, o‘z navbatida, ishtirokchi mamlakatlarning asosiy ijtimoiy-iqtisodiy ko‘rsatkichlarini ko‘tarish uchun sharoit yaratadi. Iqtisodiy integratsiyaga olib keladigan jarayonlarni quyidagi o‘zaro bog‘langan zanjir ko‘rinishida ifodalash mumkin: ishlab chiqarish kuchlarini rivojlantirish, xalqaro mehnat taqsimoti, ishlab chiqarish va kapitalning integratsiyalashuvi, iqtisodiy integratsiya. Ma’lumki, ko‘plab milliy va xorijiy mamlakatlar iqtisodchilari asarlarida shu xolatlar ma’lum bo‘lmoqdaki, integratsion guruhda u yoki bu mamlakatning ishtirok etishining ijobiy yoki salbiy tomonlarini baholash murakkabligicha qolmoqda. Biroq, shu narsa ma’lumki, integratsiyadan ichki bozori kichik, resurslarga boy bo‘lmagan, jahon YAIMida kam ulushga ega bo‘lgan davlatlar ko‘proq samara oladi.

Bunga ko‘ra iqtisodiy integratsiya bir qator ob’ektiv omillarga asoslangan bo‘lib, ular orasida quyidagilar muhim o‘rin tutadi:

1) Xo‘jalik hayoti baynalminallashuvining o‘sib borishi;

2) Xalqaro mehnat taqsimotining chuqurlashuvi;

3) O‘z xususiyatiga ko‘ra umumjahon ilmiy-texnika inqilobi;

4) Milliy iqtisodiyotlar ochiqligi darajasining oshishi;

5) Yangi savdo oqimlarning paydo bo‘lishi:

6) Integratsiyalashayotgan mamlakatlarda daromadlarning ortishi;

7) Integratsion birlashmaga a’zo mamlakatlarning uchinchi mamlakatlarga nisbatan iqtisodiy pozitsiyasining mustahkamlanishi;

8) Ishlab chiqarish xarajatlari, tovarlar va xizmatlar narxining pasayishi tufayli iqtisodiy farovonlikning o‘sishi;

9) Mintaqada siyosiy hamkorlikning rivojlanishi va integratsion birlashmaga a’zo mamlakatlarning uchinchi mamlakatlarga nisbatan siyosiy pozitsiyasining mustahkamlanishi;

Bu omillarning barchasi o‘zaro bog‘liqdir. Integratsiyalashuv-mamlakatlar o‘rtasidagi (avvalambor, xalqaro mehnat taqsimoti asosida) barqaror o‘zaro aloqalar rivojlanishi jarayoni va qayta ishlab chiqarishning milliy xo‘jalik doirasidan chetga chiqishidir.

Integratsiyaviy jarayonlar rivojlanishining boshqa omili xalqaro mehnat taqsimoti tuzilishidagi chuqur ilgari siljishlar (ilmiy-texnika inqilobi ta’siri ostidagi) hisoblanadi. Xalqaro mehnat taqsimoti mamlakatlar o‘rtasida mehnatni ijtimoiy-hududiy taqsimlashni

[45] Ломакин Мировая экономика: учебник для студентов вузов, обучающихся по экономическим специальностям и направлениям / В.К. Ломакин. – 3-е изд., перераб. и доп. – М.: ЮНИТИ-ДАНА, 2007.

rivojlantirishning ma’lum mahsulot ishlab chiqarishni alohida mamlakatlarda barqaror jamlashni nazarda tutuvchi yuqori bosqichidir.

10.2. Iqtisodiy integratsiya shakllanishining shart-sharoitlari va uning bosqichlari

Iqtisodiy integratsiya shakllanishining shart-sharoitlarini tahlil qilamiz. Ular quyidagilardir:

✓ Integratsiyalashayotgan mamlakatlar iqtisodiy rivojlanishi va bozor munosabatlaridagi yetukligi darajasining yaqinligi. Kamdan-kam istisnolardan tashqari, qolgan barcha hollarda davlatlararo integratsiya yo industrial mamlakatlar yoki rivojlanayotgan mamlakatlar orasida rivojlanadi. Hatto, sanoati rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlar doirasida, tahminan bir xil iqtisodiy rivojlanish darajasidagi davlatlar o‘rtasida integratsion jarayonlar eng faol bo‘ladi.

✓ Integratsiyalashayotgan mamlakatlarning jo‘g‘rofiy yaqinligi, ko‘p hollarda umumiy chegara va tarixan shakllangan iqtisodiy aloqalarning mavjudligi. Dunyodagi integratsion birlashmalarning aksariyati jo‘g‘rofiy jihatdan bir-biriga yaqin joylashgan, transport aloqalariga ega bo‘lgan va ko‘pincha bir tilda gaplashadigan bir necha qo‘shni mamlakatlardan boshlangan edi.

✓ Rivojlanish, siyosiy hamkorlik va turli sohada mamlakatlar oldida turgan iqtisodiy va boshqa muammolarning umumiyligi. Iqtisodiy integratsiya integratsiyalashayotgan mamlakatlar oldida mavjud bo‘lgan aniq muammolar to‘plamini hal qilishga qaratiladi. Balki asosiy muammosi-bozor iqtisodiyotining asoslarini yaratishga bo‘lgan mamlakatlar bozorining rivojlanganligi, umumiy valyutani joriy qilishni talab etadigan davlatlar bilan integratsiyalashuv mumkin emasligi yaqqol ayonligi bunga sababdir.

✓ Ustunlikni namoyish qilish samarasi. Integratsion birlashmalarni tuzgan davlatlarda odatda ijobiy iqtisodiy siljishlar (iqtisodiy o‘sish sur’atlarining tezlashuvi, inflyasiyaning pasayishi, ish bilan bandlikning o‘sishi) ro‘y beradi va bu shubhasiz o‘zgarishlarni kuzatib borayotgan boshqa mamlakatlarga ma’lum ruhiy ta’sir ko‘rsatadi..

✓ "Domino samarasi". U yoki bu mintaqadagi mamlakatlarning ko‘pchiligi integratsion birlashmaga a’zo bo‘lgach, bu birlashma doirasidan chetda qolgan mamlakatlar, shubhasiz, ba’zi qiyinchiliklarga duch keladi. Bu qiyinchiliklar mazkur guruhga kiruvchi mamlakatlar iqtisodiy aloqalarining uzviyligi bilan bogliqdir. Bu ko‘pincha, hatto, integratsiya

doirasidan tashqarida qolishdan qo‘rqib, integratsiya doirasidan chetdan qolgan mamlakatlar bilan savdoni qisqartirishga ham olib keladi.[46]

Hozirgi kunda xalqaro iqtisodiyotda yuzaga kelayotgan va rivojlanayotgan ko‘plab integratsion birlashmalar aslida o‘z oldiga bir-biriga o‘xshash vazifalarni qo‘yadilar. Bular quyidagilardan iborat:

1.Keng ko‘lamli iqtisodiyot ustunliklaridan foydalanish. Keng ko‘lamli iqtisodiyot nazariyasi asosida bozorlar hajmini kengaytirish, transaksion xarajatlarni kamaytirish va boshqa bir qator afzalliklardan foydalanish. Bu, o‘z navbatida, katta hajmdagi bozorlarga katta ishtiyoq bilan kirib keladigan to‘g‘ridan-to‘g‘ri chet el investitsiyalarini jalb qilishga bevosita imkon beradi.

2.Qulay tashqi siyosiy muhitni yaratish. Ko‘plab integratsion birlashmalarning muhim maqsadi ularda ishtirok etuvchi davlatlarning siyosiy, harbiy, ijtimoiy, madaniy va boshqa noiqtisodiy sohalarda bir-birini tushunishi va hamkorligini mustahkamlashdir.

3. Savdo siyosatidagi vazifalarni hal qilish. Mintaqaviy integratsiya, ko‘pincha, GAATG’BST doirasida ishtirok etayotgan mamlakatlarning muzokarasi nuqtai nazaridan olib qaraladi. Mamlakatlar bloki nomidan kelishilgan holdagi bayonot ancha jiddiy hisoblanadi va savdo siyosati sohasida kutilgan natijalarni beradi.

4.Iqtisodiyotni tuzilmaviy qayta qurishga ko‘maklashish. O‘z qo‘shinlarini integratsiya jarayonlariga qo‘shar ekanlar rivojlanganroq davlatlar ham o‘sha mamlakatlardagi to‘laqonli va katta hajmli bozorlarni yaratish hamda ulardagi bozor islohotlarining ildiz otishidan manfaatdor bo‘ladi. Yevropa Ittifoqining u yoki bu shakliga qo‘shila turib, ko‘plab G‘arbiy Yevropa mamlakatlari shu maqsadlarni ko‘zlagan edi.

Milliy sanoatning yosh sohalarini qo‘llab-quvvatlash. Hatto, integratsion birlashmalar uchinchi mamlakatlarga nisbatan kamsituvchi choralarni nazarda tutmaganlarida ham, ular faoliyati uchun kengroq mintaqaviy bozor ochiladigan mahalliy ishlab chiqaruvchilarni qo‘llab-quvvatlash usuli sifatida qaraladi.

Tarixan integratsion jarayonlar bir nechta asosiy bosqichlar asosida rivojlanib keldi. Ularning har biri uning rivojlanishining ma’lum darajaga etganligini ifoda etadi. Integratsion guruhlar tipologiyasining asoslari ishtirokchi mamlakatlar milliy iqtisodiyotining makro va mikro darajada o‘zaro yaqinlashishi va bir-birini iqtisodiy jihatdan naqadar chuqur kirib borishini baholashda namoyon bo‘ladi.

---

[46]А.Киреев Международная экономика, уч.пособ. Часть 1 Международная микроэкономика . М.: Международная экономика 1999.

Jahon xo‘jaligidagi integratsion jarayonlarni rivojlantirish bo‘yicha to‘plangan tajriba iqtisodiy integratsiyaning yuzaga kelishi va rivojlanishida besh bosqichdan o‘tish zarurligidan dalolat beradi

Birinchi bosqich-zamonaviy talqinda pereferensial savdo kelishuvlari. Erkin savdo hududlari iqtisodiy integratsiyaning boshlang‘ich bosqichi bo‘lib hisoblanadi. Erkin savdo hududlari amalda ikki va undan ortiq davlatlarning o‘zaro savdosida bojlar, litsenziyalar va kvotalarni muzlatish va asta sekinlik bilan bekor qilish to‘g‘risidagi bitimning imzolanishi natijasida yuzaga keladi.

Ikkinchi bosqich - ishtirokchi mamlakatlar o‘rtasida bojxona tariflari va boshqa cheklashlarni bekor qilib, erkin savdo hududlarini tashkil etish. Ishtirokchi mamlakatlar bu bosqichda o‘zaro savdo to‘siqlarini bekor qiladi, lekin uchinchi mamlakatlar bilan iqtisodiy aloqalarda to‘la erkinlikni saqlab qoladilar (masalan, bojxona poshlinalarini yoxud boshqa cheklashlarni bekor qilish yoki yangiliklarni kiritish va savdo-iqtisodiy shartnomalar, bitimlar tuzish huquqlari). Buning oqibatida mamlakatlar o‘rtasida ularning chegaralarini kesib o‘tayotgan tovarlarning kelib chiqishini nazorat qiladigan va tegishlicha uchinchi mamlakatlardan imtiyozli ravishda tovarlarni olib kirishga to‘sqinlik qiladigan bojxona chegaralari hamda postlari saqlanib qoladi. Bunday erkin savdo hududlarga (zonalarga) 1960 yildan buyon mavjud bo‘lgan Yevropa erkin savdo uyushmasini misol qilib keltirish mumkin.

Erkin savdo hududlarining ijobiy tomonlariga ishtirokchi mamlakatlar savdo siyosatida barqarorlikni o‘rnatilishini kiritish mumkin. Bunday hududlarga a’zo mamlakatlarni xalqaro iqtisodiy munosabatlarga jalb etish jarayonini tezlashtirishga yordam beradi, ular xalqaro mehnat taqsimotidan samarali foydalanish imkoniyatiga ega bo‘ladi.

Erkin savdo hududlarining salbiy tomonlariga keladigan bo‘lsak, ular ichki bozor raqobatining kuchayishi bilan belgilanadi, chunki bu milliy ishlab chiqaruvchilarga salbiy ta’sir etishi va bankrotlik xavfini kuchaytirishi mumkin. Bu bosqichda millatlararo tartibga soluvchi tashkilotlarni tashkil etish ko‘zda tutilmaydi. Bu esa o‘z navbatida birgalikda qarorlar qabul qilish jarayonlarini sekinlashtiradi.

Uchinchi bosqich - savdo va ishchi kuchi, kapital aylanishida Yagona tariflarni o‘rnatgan holda, bojxona ittifoqi tuzishdir. Integratsiyaning bu bosqichida davlatlar faqat o‘zaro to‘siqlarni bartaraf etibgina qolmay, balki tashqi savdo to‘siqlarining Yagona tizimini va uchinchi davlatlarga nisbatan bojxona poshlinalarining Yagona tizimini tashkil qiladilar. Ya’ni xuquqiy nuqtai nazardan Bojxona Ittifoqi (BI) ikki va undan ortiq davlatlar o‘rtasida o‘zaro va uchinchi mamlakatlarga nisbatan soddalashtirilgan soliq siyosatini o‘tkazilishini aks ettiradi, bu Yagona iqtisodiy makonni shakllantirish va ana shu makon doirasida har qanday bojxona chegaralarini bartaraf etishni anglatadi. Bunda ishtirokchi mamlakatlar chegaralari bilan belgilangan Yagona

bojxona makoni vujudga keladi. Bunday tashkilotlar tuzilmalari qatoriga Yevropa Ittifoqiga asos bo‘lgan Yevropa iqtisodiy hamjamiyatini misol qilib kiritish mumkin. Uchinchi bosqich - real iqtisodiy integratsiyaning boshlang‘ich fazasi-Iqtisodiy ittifoqning tashkil topishidir. Bu bosqichda davlatlar o‘z milliy chegaralari orqali faqat tovarlar emas, balki barcha ishlab chiqarish omillari kapital, ishchi kuchi, texnologiya va ma’lumotlarni erkin harakati haqida kelishadilar. Natijada umumiy bozor makoni, umumiy bozor shakllanadi. Bojxona ittifoqini umumiy bozorga aylantirish jarayoni faqatgina savdoni emas, balki iqtisodiy siyosatning boshqa sohalarini ham qamrab oluvchi qonuniy me’yorlarni uyg‘unlashtirish masalalarini ham hal etish bilan bog‘liqdir. Shuning uchun ham ichki bojxona to‘siqlari va boshqa cheklashlarni bartaraf etish orqali uchinchi mamlakatlar bilan savdoda umumiy tamoyillarni ishlab chiqish zarurki, buning natijasida milliy chegaralar orqali tovarlar, xizmatlar, kapital va ishchi kuchining har qanday to‘siqlarsiz o‘tishiga sharoit yaratiladi. Umumiy bozorni shakllantirishda jamoatchilik fondlarini yaratish zaruriyati tug‘iladi. Bundan tashqari millatlararo muvofiqlashtiruvchi tashkilotlarning tuzilishi ham muhim ahamiyat kasb etadi. Yevropa Ittifoqi tajribasidan ma’lumki, bunday tashkilotlarni tashkil etmasdan turib milliy qonunchilik me’yorlarini soddalashtirish va integratsion birlashma ishtirokchilarining umumiy qarorlarini bajarilishini nazorat qilish tizimini joriy etish mumkin emas. Bunda ishtirokchi mamlakatlar chegaralari bilan belgilangan Yagona bojxona makoni vujudga keladi.

10.1.-jadval. Integratsiya jarayonlari shakllari va bosqichlari

	Integratsiya tiplari	**Belgilari**
1.	Pereferensial savdo kelishuvlari	O‘zaro savdoda tariflar va boshqa to‘siqlar olib tashlanadi. Uchinchi mamlakatlarga nisbatan milliy tariflar saqlanadi. Davlatlararo boshqaruv organlari tuzilmaydi.
2.	Erkin savdo zonalari	Bitim shakli. Bunda qatnashchilar bir-birlariga nisbatan bojxona tariflari va kvotalarini olib tashlash to‘g‘risida ahdlashadilar. Uchinchi mamlakatlarga nisbatan har kimning o‘z siyosati mavjud bo‘ladi. Misol uchun: NAFTA, ANZSERTA. ilgarigi Yevropa iqtisodiy hamjamiyati.

3	Bojxona ittifoqi	Uchinchi mamlakatlarga nisbatan Yagona bojxona siyosati. Biroq bunda ham jiddiyroq ichki qarama-qarshiliklar paydo bo‘ladi. Yevropa iqtisodiy hamjamiyati buning misoli bo‘lishi mumkin.
4	Umumiy bozor	Ishtirokchi mamlakatlar o‘rtasida ishlab chiqarishning barcha harakati uchun to‘siqlarni to‘liq bartaraf etish. Iqtisodiy siyosatni to‘liq kelishish, iqtisodiy ko‘rsatkichlarni tenglashtirish kabi masalalar qal etish jarayonida turadi.
5	To‘liq iqtisodiy integratsiya	Yagona iqtisodiy siyosat ia buning oqibati sifatida qonunchilik bazasini birxillashtirish. Shartlari: umumiy soliq tizimi; Yagona standartlarning mavjudligi; mehnat to‘g‘risidagi Yagona qonunlar va boshqalar.
5.1.	Iqtisodiy ittifoq	Yuqori iqtisodiy rivojlanish bosqichida paydo bo‘ladi. Iqtisodiy siyosat (hatto Yagona iqtisodiy siyosat) kelishiladi va shuning asosida barcha to‘siqlar olib tashlanadi. Davlatlararo (davlatlardan yuqori turuvchi) organlar tashkil etiladi. Barcha qatnashchi mamlakatlarda yirik iqtisodiy islohotlar amalga oshiriladi.
5.2.	Valyuta ittifoqi	Iqtisodiy Ittifoq shakli va ayni bir uning yirik qismi. Quyidagilar valyuta ittifoqining xarakterli belgilari hisoblanadi: - Milliy valyutalarning kechishilgan (birgalikdagi) muomalasi; qatnashchi mamlakatlarning Markaziy banklari tomonidan maqsadga qaratilgan holda qo‘llab-quvvatlanadigan qatiy begilangan valyuta kurslarining o‘rnatish; ushbu xalqaro valyuta birligining emissiya

		markazi hisoblangan Yagona mintaqaviy bank shaklantirilishi. Rivojlanayotgan mamlakatlarda valyuta ittifoqi deganda kliring bitimlari tushuniladi.

Manba: А.Киреев Международная экономика М.: 2004 г.

Bunday tashkilotlar tuzilmalari qatoriga Yevropa Ittifoqiga asos bo‘lgan Yevropa iqtisodiy hamjamiyatini misol qilib kiritish mumkin.

Beshinchi bosqich - Yagona iqtisodiy siyosat, umumiy valyuta va milliy darajadan ustun turuvchi tartibga solish tashkilotlariga ega to‘liq integratsiya. Integratsiyaning bu darajasiga erishish siyosiy-iqtisodiy ittifoq unga kirayotgan davlatlar integratsiyaning oldingi bosqichlarida erishilgan natijalarni hisobga olgan holda, uchinchi mamlakatlarga nisbatan birgalikda savdo, so‘ngra umuman, iqtisodiy siyosatni olib borish hamda iqtisodiyotni tartibga solish tizimini birhillashtirish haqida kelishuvlarni o‘z ichiga oladi. Integratsiyaning ushbu bosqichi qatnashuvchi mamlakatlarning tashqi siyosatini kelishilgan holda olib borilishini ko‘zda tutadi. Bu esa, o‘z navbatida har bir qatnashuvchi mamlakat va umuman, ittifoqning iqtisodiy rivojlanish manfaatlari yo‘lida bor imkoniyat va vositalarni o‘zaro manfaatli birlashtirish uchun keng imkoniyatlar yaratadi.

Oxirgi ikki bosqich u yoki bu integratsion guruhning xususiyati bilan bog‘liq, ma’lum kichik bosqichlarni o‘z ichiga olishi mumkin. Jahonda mavjud bo‘lgan integratsion guruhlar ko‘pincha formal integratsion bosqichda bo‘lib, integratsion rivojlanishning birinchi va ikkinchi bosqichlaridadirlar.

Jahon tajribasini o‘rganish shundan dalolat beradiki, integratsiya davlatning jahon xo‘jaligiga qo‘shilishini rag‘batlantirish uchun samarali, tub tashqi iqtisodiy siyosat ekanligini, barqaror iqtisodiy o‘sishni, aholi daromadlari o‘sishini, inson kapitali jamlanishini, iqtisodiyotda ilg‘or texnologik va tarkibiy siljishlar yuz berishini, ishlab chiqarish, investitsiyalarni boshqarish hamda ularning sifati oshishini ta’minlashidan dalolat beradi.

10.3. Iqtisodiy integratsiyaning milliy iqtisodiyotlarga ta'siri

Yevropa hamjamiyati yuzaga kelgunga qadar iqtisodiyot fanida «iqtisodiy integratsiya» atamasi ma'lum emas edi. Biroq milliy davlatlar orasidagi «bozorlar integratsiyasi» va «siyosat integratsiyasi» kabi jarayonlar uzoq vaqtlardan beri mavjud. Yagona milliy bozorlar savdoning stixiyali rivojlanishi va mehnat taqsimoti natijasida shakllanib keldi. Bu jarayonlarning yuqori bosqichi sifatida birlashgan milliy iqtisodiyot komplekslarining yuzaga kelishi bo'ldi.

Yevropa integratsiyalashuvining yo'li ham shu kabi bo'ldi: Yagona ichki bozor yaratildi, Yevropa hamjamiyati bo'ylab Yagona iqtisodiy qonunchilik tizimi va Yagona (yoki hech bo'lmaganda uyg'unlashgan) iqtisodiy siyosat olib borilib boshlandi. Biroq alohida olingan milliy davlatlar ichidagi birlashtiruvchi jarayonlar bilan davlatlararo birlashtiruvchi jarayonlar orasida jiddiy sifat jihatidan farqlar mavjud edi.

Faqatgina 50-yillarga kelibgina tadqiqotchilar jamoatchilik diqqat-e'tiborini erkin savdo zona va bojxona ittifoqlarini tashkil etish shubhasiz dunyo miqyosida erkin savdo paradigmasidan chekinish ekanligiga qarata boshlashdi.

Integratsiya - integratsion guruh ichida erkin savdoning maksimal rivojini, lekin shu bilan birga ushbu guruh va tashqi olam orasidagi proteksionizmning kuchayishini anglatadi. Shu sababli, hududiy integratsiyaning ratsionalligi yoki irratsionalligi masalasi, pirovard natijada, ikki o'zaro qarama-qarshi samaralarning nisbatiga keltiriladi.

Bir tomondan, agarda erkin savdo zonasini yoki bojxona ittifoqini yaratilishi natijasida qimmat ichki ishlab chiqarishni arzonroq import bilan almashtirilsa, u holda «savdoni tashkil etish» (trade creation) ro'y beradi. Boshqa tarafdan, agarda integratsiya natijasida uchinchi davlatlardan olinadigan arzon import, erkin savdo zonasi yoki bojxona ittifoqi bo'yicha qo'shni-davlatdan olinadigan qimmat import bilan almashtirilsa, u holda «savdoni chalg'itish» (trade diversion) ro'y beradi. Birinchi bor bu konsepsiya Dj.Viner va M.Bielar tomonidan 1950 yilda, ya'ni «oltilik»ning bojxona ittifoqi tuzishiga qadar, ilgari surilgan edi.[47]

Agar:

- Tovarlar va ishlab chiqarish omillari bozorlarida mukammal raqobat mavjud;
- Barcha resurslar to'la mashg'ul;
- Barcha kattaliklar biror bir xarajatsiz yangi sharoitlarga avtomatik tarzda moslashadi;

[47] Шемятенков В. Европейская интеграция М.: Международные отношения. 2003. 242 стр.

• Alohida olingan davlat ichida omillarning to‘la mobilligi, hamda davlatlararo omillarda mobillikning absolyut yo‘qligi;

• Xarajatlar va narxlarning aniq mosligi;

kabilar o‘rinli deb qabul qilinsa, u holda N (bojxona ittifoqiga kirishni rejalashtirayotgan mamlakat), davlatlar orasidagi savdoning shakllanishi va chalg‘itilishi orasidagi nisbat, R (N davlatning bojxona ittifoqi bo‘yicha potensial sherigi) va W (dunyoning barcha boshqa davlatlari) quyidagi diagramma ko‘rinishida tasvirlanishi mumkin:



10.1.-rasm. Savdoning tashkil etilishi va savdodan chetlanish

Eslatma. 10.1.- rasmdagi koordinatalar o‘qi ma’lum turdagi tovarning narxi va miqdorini anglatadi.

D_H - ushbu tovarga H mamlakatning ehtiyojlik egri chizig‘i;

S_W – ushbu tovarni jahon bozori yoki W mamlakatlarining takliflari egri chizig‘i (taklifning butkul elastikligi va bojxona tariflari yo‘qligi sharti asosida);

S_H – ushbu tovarni H mamlakati tomonidan taklif egri chizig‘i;

S_{HQP} - H va P lar birgalikdagi (tariflar yo‘qligi sharti asosida) takliflarining egri chizig‘i. Bunda H va P mamlakatlardagi taklif bahosi o‘rta jahon baholaridan yuqori deb faraz qilinadi, aks holda bojxona ittifoqini tuzishga ma’no bo‘lmay qoladi.

Agarda N mamlakat jahonning barcha mamlakatlari bilan erkin savdo rejimiga ega bo‘lsa, talab va taklifning muvozanat nuqtasi shunday R nuqta bo‘ladiki, bunda ushbu tovarning minimal ichki bahosi (OA) ga va ichki iste’molning maksimal hajmi q_S ga erishiladi. Bunda N mamlakat ushbu tovarni o‘zida ishlab chiqarmaydi va bojxona daromadini olmaydi deb faraz qilinadi.

Agarda N mamlakat AD ga teng bo‘lgan nodiskriminatsion t_H tarif kiritsa, u holda ushbu tovarning N mamlakatdagi samarali taklif chizig‘i BREFQT ko‘rinishni oladi: o‘zining taklif chizig‘i E nuqtagacha, keyin jahon bozorining [S_W (1Qt_H)] tarif bilan chegaralangan taklif chizig‘i. Tovarning ichki bahosi bunda OD ga teng, ichki ishlab chiqarish hajmi – Oq_2 , ichki iste’mol hajmi – Oq_3 , import hajmi esa- q_2q_3 . N mamlakat import mahsulot uchun q_2 LMqq_3 a ni to‘laydi, o‘z navbatida mamlakat ichidagi iste’molchilar esa- q_2 Efq_3 (aQbQc). Ular orasidagi farq (LEFMqbQc) davlatning bojxona daromadini tashkil etadi.

Faraz qilaylik, N va R mamlakatlar bojxona ittifoqini tuzsinlar. Bu holda AD tarif R davlatdan boshqa dunyoning barcha davlatlariga taalluqli bo‘ladi. Unda samarali taklif BRGQT ko‘rinishdagi chiziq bo‘ladi. Bojxona ittifoqi hududidagi narx, N mamlakatdagi ichki ishlab chiqarishning q_1 darajagacha qisqarishi natijasida, OC darajagacha tushadi. Import esa q_1 q_4 gacha, iste’mol esa Oq_4 gacha ko‘tariladi, qo‘shimcha importning hammasi R mamlakatdan keladi.

Barcha shu o‘zgarishlar natijasida hosil bo‘ladigan iqtisodiy samarani baholash, iste’molchining foydasi nuqtai nazaridan amalga oshiriladi (bunda ishlab chiqaruvchining qiziqishlari e’tiborga olinmaydi, chunki avvaldan kelishib olgan shartlar bo‘yicha ushbu sohada band bo‘lgan resurslar avtomatik tarzda boshqa sohalarda ishlatila boshlaydi).

Nodiskriminatsion tarif shartlarida mavjud bo‘lgan holatga solishtirilganda, iste’molchining yutug‘i CDFG (qdQeQcQf) ni tashkil etadi. Yutuqning bir qismi (d) ishlab chiqaruvchilar foydasining kamayishi natijasida, boshqa qismi (s) - bojxona daromadining qaytishi natijasida hosil bo‘ladi. Shu sababli, bojxona ittifoqini toza holda o‘rganish natijasida, faqatgina e va f qismlarnigina hisobga olish darkor.

Ichki ishlab chiqarishning Oq_2 dan Oq_1 gacha kamayishi importning q_1 q_2 kattalikka oshishiga olib keladi. Importning narxi q_1JIq_2 ni, xuddi shu miqdordagi tovarni ichki ishlab chiqarishning narxi esa q_1JEq_2 ni tashkil etadi. Shunday qilib, iste’molchilarning yutug‘i e ga teng bo‘ladi. Iste’molning Oq_3 dan Oq_4 gacha o‘sishi importning q_3 q_4 kattalikka oshishiga olib keladi. Qo‘shimcha importning narxi q_3HGq_4 ga, import qilingan tovarlar beradigan qoniqtirish kattaligi (shartli miqdoriy ifodasi) esa q_3FGq_4 ga teng bo‘ladi. Demak, toza yutuq f ga teng.

Shuni hisobga olish lozimki, erkin savdoda q_2q_3 importning narxi a ga teng bo‘lgan bo‘lar edi. Bojxona ittifoqini tashkil etilgandan keyin bu raqam aQb gacha oshadi., lekin bunda davlat b

ga teng kattalikdagi bojxona daromadini yo‘qotadi. Shuning uchun, bojxona ittifoqining samaradorligini xulosaviy baholash uchun savdoni tashkil etish (yoki toza yutuq) kattaligini ifodalovchi eQf zonasi bilan, savdodan chetlanish (yoki toza yutqazuv) ni ifodalovchi b zonani solishtirish zarur.

Viner va Bielarning konsepsiyasidan yana bir juda muhim xulosa kelib chiqadi. Agarda bojxona ittifoqi tarifning uni man qiluvchi darajaga olib keluvchi kattaligida tashkil qilinayotgan bo‘lsa, bojxona ittifoqining o‘rnatilishi batamom savdoni tashkil etilishiga olib keladi. Lekin agarda N mamlakat bojxona ittifoqiga erkin savdo rejimidan o‘tsa, u holda bojxona ittifoqining yaratilishi natijasi batamom savdodan chetlanishga olib keladi.[48]

Savdoni «tashkil etish» va «savdodan chetlatish» tushunchalari xalqaro savdoning «sof» nazariyasi doirasida paydo bo‘ldi. Ular butunlay sun’iy shartlar va farazlar asosida qurilgan. Bunda Yevropa ittifoqi oddiygina bojxona ittifoqi doirasidan anchagina kengroq ekanligi hisobga olinayotgani yo‘q. Shu sababli, Yevropa integratsiyasining samarasi batamom savdoni tashkil etish – savdodan chetlanish samarasi bilangina aniqlanib qolmaydi.

A.Kuper va B.F.Massellar 1965 yili asosli ravishda ta’kidlashgan ediki, N mamlakat bojxona ittifoqini tashkil etishdan avval bo‘lajak sherigini qo‘shgan holda barcha mamlakatlar uchun bojxona tarifini kamaytirishi mumkin. U holda bojxona ittifoqi OS narxda tashkil etiladi. Bu esa shuni anglatadiki, savdoni tashkil etish natijasida eQf foyda olinadi, savdodan chetlatish bo‘yicha yo‘qotishlar esa bo‘lmaydi, chunki samarali talab yangi chizig‘i BJGU bo‘ladi. Bundan esa N mamlakatga uchinchi mamlakatlardan tovarlar avvalgidek a narx bo‘yicha kelaveradi. Shu bilan birga savdoning tashkil etishi munosabati bilan kelib chiqadigan barcha qo‘shimcha import arzonroq bo‘ladi, shu yili X.Dj.Djonsonning ishi paydo bo‘ldi, unda yaqqol keynsianlik motivlari yangradi, xususan, xususiy va jamoat sarf-xarajatlarini ajratish ko‘rindi. Djonson hukumatlar tariflardan asosan iqtisoddan tashqari maqsadlar, birinchi navbatda jamiyat ehtiyojlarini qondirish, milliy sanoat va daromadni himoya qilish kabi maqsadlarga erishish uchun foydalanishlari isbotlashga o‘rinib ko‘rdi. Shunday mulohazalarga asoslangan proteksion siyosat o‘zining iqtisodiy ma’nosiga ega. Uning limiti milliy sanoat faoliyatining jamiyat tomonidan iste’mol qilinishing maksimal foydaliligi bilan ishlab chiqarishni xalqaro raqobatdan himoya qilish natijasida yuzaga keladigan maksimal ortiqcha xususiy sarf-xarajatlar orasidagi muvozanat nuqtasi bo‘ladi. Bu sarf xarajatlar ikki qismdan iborat: ishlab chiqarishning chegaraviy sarf xarajatlari, hamda xususiy iste’molning chegaraviy sarf-xarajatlari.Birinchi element ishlab chiqarishning ichki sarf-xarajatlari jahonnikidan qanchalik ko‘p bo‘lishi bilan

---

[48] Шемятенков В. Европейская интеграция М.: Международные отношения.2003. 245 стр.

aniqlanadi. Ikkinchisi esa bojxona tariflarining o‘rnatilishi va ichki bozorda narxlarning ko‘tarilishi natijasida iste’mol talabining kamayishiga teng. Ikkinchi elementning dinamikasi tarif kattaligi talab va taklifning elastikligiga bog‘liq bo‘ladi. Muvozanat nuqtasi sanoat ishlab chiqarishining jamiyat tomonidan afzal deb topilishining miqdoriy ifodasi bo‘lib xizmat qiladi.

Agarda bu sxemani faqatgina N mamlakatga emas, balki uning bojxona ittifoqi bo‘yicha sherigiga ham qo‘llanilsa, u holda ikkala mamlakat ham nafaqat savdoni tashkil etishdan, balki savdodan chetlanishdan ham yutishi kelib chiqadi. Bundan tashqari, savdodan chetlatish N mamlakat uchun maqsadga muvofiqroq, chunki bunda ichki sanoat ishlab chiqarishini qisqartirish talab etilmaydi. Savdoni tashkil etish ham chalg‘itish ham ishlab chiqarish ko‘lamini kengaytirish hisobiga ijobiy samara berishi mumkin.

Yevropa integratsiyasining jahon iqtisodiyotida mustaqil voqelik sifatida iqtisodiy asoslarini anglash borasidagi birinchi qadamlar 50-yillarning boshlarida mashhur golland iqtisodchisi Yan Tinbergen tomonidan amalga oshirildi. U birinchi bo‘lib «salbiy» va «ijobiy» integratsiya orasidagi farqni ko‘rsatib berdi. Salbiy integratsiya, oddiygina, tovarlar, xizmatlar va ishlab chiqarish faktorlarining chegaralararo xarakatlari yo‘lidagi to‘siqlarni bartaraf etishni nazarda tutadi. Iqtisodiyot nazariyaning an’anaviy qonunlariga ko‘ra, bu avtomatik tarzda raqobatni kuchayishiga, narxlarni tushishi va tovarlar, xizmatlar va ishlab chiqarish faktorlarining sifatini oshishiga, va natijada iqtisodiyotning samarali o‘sishiga olib keladi. Ijobiy integratsiya - bu tovarlar, xizmatlar va ishlab chiqarish faktorlari mobilligini yanada oshiruvchi qonunlar qabul qilinishi va institutlarning tashkil etilishidir.[49]

Integratsiya iqtisodiy nazariyasining rivojlanishi yo‘lidagi muhim qadam bo‘lib B.Balassaning ishlari bo‘ldi, u integratsiyaning dinamik samaralarini va ularning integratsiyalashuvchi mamlakatlar yalpi ichki mahsulotlarining o‘sish templariga ta’sirini tizimlashtirishga harakat qildi. Bu kabi dinamik samaralar qatoriga quyidagilar kiradi:

❖ Ishlab chiqarish masshtablarini kengaytirish hisobiga hosil bo‘ladigan iqtisod. Bunday iqtisod, agarda bozorni kengaytirish firmalar va sohalarga integratsion jarayonlar boshlangunga qadar ishlatilmagan ishlab chiqarish quvvatlaridan foydalanish imkonini berganda yuzaga keladi.

❖ Firma va sohalarga nisbatan tashqi bo‘lgan iqtisod. Bunday iqtisod butun iqtisoddagi umumiy va xususiy sarf-xarajatlarni kamytirish evaziga yuzaga kelishi mumkin.

❖ Qutblanish samarasi. Bu samaraning mohiyati qatnashuvchi mamlakatlarning birida boshqa mamlakatda savdoni tashkil etish yoki ishlab chiqarish faktorlarining boshqa yoqqa yo‘naltirilishi natijasida yuzaga keladigan iqtisodiy faoliyatning kumulyativ qisqarishidan iborat.

[49] А.Киреев Международная экономика Ч 1. М:.Международная экономика 2004 г.

- Real investitsiyalar va hajmlarni joylashtirishga ta'sir.
- Umumiy iqtisodiy samaradorlikka ta'sir.

Ali M.E.-Agraning mulohazalari ham shu yo‘nalishdadir. Uning konsepsiyasiga ko‘ra, erkin savdo va bojxona ittifoqi zonalarining afzalliklari qatoriga quyidagilar kiradi:

- Solishtirma afzalliklar qonuniga mos ravishda ixtisoslashishning kengayishi natijasida ishlab chiqarish samarodorligining o‘sishi.
- Bozor ko‘lamining kengayishi natijasida hosil bo‘ladigan ishlab chiqarish masshtabinining iqtisodi samarasidan yaxshiroq foydalanish natijasida ishlab chiqarish hajmining o‘sishi.
- Savdo shart-sharoitlarini yaxshilashga imkoniyat beruvchi, xalqaro maydondagi muzokaralar pozitsiyasining mustahkamlanishi.
- Kuchliroq raqobat natijasida zarur bo‘lib boradigan ishlab chiqarish samaradorligi sohasidagi o‘zgarishlar.
- Ilmiy-texnik progress tezlashishi natijasida paydo bo‘ladigan va ishlab chiqarish omillarida miqdor jihatidan ham, sifat jihatidan ham aks etuvchi o‘zgarishlar.
- Iqtisodiy integratsiyaning yanada yuqori shakllari quyidagilar natijasida qo‘shimcha ijobiy samara beradi:
- Chegaralararo savdoga halaqit qiluvchi to‘siqlarni bartaraf etish borasidagi ishlab chiqarish omillari mobilligining o‘sishi;
- Pul-kredit va solik siyosatining koordinatsiyasi;
- To‘la bandlikka o‘tish, tezkor iqtisodiy o‘sish va integratsiyalashuvchi mamlakatlarning umumiy maqsadlariga daromadni adolatli taqsimlash. [50]

10.4. G‘arbiy Yevropada integratsiya jarayonlarining rivojlanishi

Integratsiya G‘arbiy Yevropa mamlakatlari iqtisodiyotida o‘zining eng to‘liq rivojlanishiga erishdi. G‘arbiy Yevropa integratsiyasi ob'ektiv iqtisodiy jarayonlardan tashqari V.Gyugo, I.Kant kabi ko‘plab Yevropa siyosiy va jamoat arboblari, mutafakkirlari tomonidan ilgari surilgan Yagona Yevropa g‘oyalari bilan sug‘orilgan edi. Yevropa Ittifoqi (EI)ning tashkil topishi va rivojlanishining zamonaviy tarixi 1951 yildan boshlanadi. Shu yil aprel oyida Yevropa ko‘mir va po‘lat birlashmasi to‘g‘risidagi shartnoma imzolandi. Unga oltita mamlakat - Fransiya, GFR, Italiya, Belgiya, Niderlandlar, Lyuksemburg kirdi. Bu G‘arbiy Yevropa integratsiyasining o‘ziga xos ibtidosi edi. G‘arbiy Yevropa integratsiyasining real paydo bo‘lishi va rivojlanishi 1957 yilga to‘g‘ri keladi. SHu yili yuqorida sanab o‘tilgan mamlakatlar Yevropa iqtisodiy

[50] В.Шемятенков Европейская интеграция М.: Международные отношения.2003 г. 248стр

hamjamiyati (EIH) va Yevropa atom energiyasi hamjamiyati (Evratom) tashkil etish to‘g‘risidagi shartnomalarni imzoladilar. Hamjamiyatlar tarkibiga rivojlanish darajasi yuqori bo‘lgan mamlakatlar kirdi, bu ularning keyingi 15 yil mobaynida iqtisodiy o‘sishining yuqori sur’atlariii belgilab berdi.

G‘arbiy Yevropa integratsiyasining rivojlanishi 50-yillar oxiridan boshlab xozirgi vaqttacha notekis va nisbatan ziddiyatli kechdi. Shu bilan birga Yevropa iqtisodiy hamjamiyatini tashkil etishda oldinga qo‘yilgan maqsad va vazifalar etarlicha izchil va muvaffaqityatli amalga oshirildi.

G‘arbiy Yevropa iqtisodiy integratsiyasi rivojlanishi jarayonini shartli ravishda to‘rtta bosqichga bo‘lish mumkin.

Birinchi bosqich (50-yillar oxiri - 70-yillar o‘rtasi). Hamjamiyat xayotidagi "oltin asr" hisoblanadi. Ushbu bosqich bojxona ittifoqining muddatidan oldin tashkil etilishi Yagona agrar bozorning nisbatan muvaffaqiyatli shakllantirilishi, EIga uchta yangi mamlakat: Buyuk Britaniya, Daniya, Irlandiyaning kirishi bilan xarakterlanadi .

Ko‘pincha "Umumiy bozor" deb yuritiladigan Yevropa iqtisodiy hamjamiyatini tashkil etishning aniq maqsadlari quyidagilardan iborat edi:

- ishtirokchi davlatlar o‘rtasidagi savdoda barcha cheklashlarni asta-sekin bartaraf etish;
- uchinchi mamlakatlar bilan savdoda umumiy bojxona tarifini belgilash;
- "insonlar, kapital, xizmatlar" erkin xarakat qilishi uchun cheklashlarni tugatish;
- transport va kishlok xo‘jaligi sohasida umumiy siyosatni ishlab chiqish va amalga oshirish;
- valyuta ittifoqini tashkil etish;
- soliq tizimini birxillashtirish;
- qonunchilikni yaqinlashtirish;
- kelishilgan iqtisodiy siyosat prinsiplarini ishlab chiqish. [51]

Qatnashuvchi mamlakatlar tovarlari, kapitallari, xizmatlari va ishchi kuchi umumiy bozori tashkil etilishi vazifasining hal etilishini YEIH o‘zining birinchi maqsadi qilib qo‘ydi. Buning uchun bojxona ittifoqi tashkil etildi. YEIHga aynan bojxona ittifoqi asos qilib olingan. Bojxona ittifoqi doirasida:

- ishtirokchi mamlakatlarning o‘zaro savdosidagi savdo cheklashlari bekor qilindi;
- uchinchi mamlakatlarga nisbatan Yagona bojxona tarifi belgilandi;
- kapitallar, kreditlar xarakati, pul o‘tkazmalari, xizmatlar ko‘rsatish erkinligiga erishildi;
- ish kuchining erkin migratsiyasi va yashash joyini erkin tanlash ta’minlandi.

[51] Shodiev R.X., Maxmudov E.R.“Jahon iqtisodiyoti”. – T.: “Gofur Gulom”, 2005 y.- 92 b.

Ushbu choralarning barchasi sanoat integratsiyasining jadallashuviga ko‘maklashdi. Ayni bir vaqtning o‘zida kompensatsiya yig‘imlari va kishloq xo‘jaligi jamg‘armasi orqali moliyalashtirish yordamida umumiy proteksionizm o‘rnatish shaklida agrar integratsiyani amalga oshirishga urinib ko‘rildi. YEIning agrar siyosati YEI azolari bo‘lgan mamlakatlarning ko‘plab qishloq xo‘jaligi mahsulotlari uchun birdek minimal narxlar belgilanishini kafolatlovchi narxlarning Yagona tizimiga asoslanadi.

Umumiy bozor shakllantirilishi YEIH milliy monopoliyalarining transmilliy monopoliyalarga aylanishi jarayonini tezlashtirdi, sherik mamlakatlar iqisodiyotiga kirib borishga ko‘maklashdi. YEIHning rivojlanishi hamdo’stlik qatnashchisi bo‘lgan mamlakatlarning yakkalanib qolgan milliy xo‘jaliklardan tashqi bozorga qaratilgan ochiq turdagi iqtisodiyotga jadal o‘tishini anglatar edi.

Ikkinchi bosqich (70-yillar boshi - 80-yillar o‘rtasi) YEI tarixiga Yevropa valyuta hamkorligi dasturi qabul qilinishiga, tashqi siyosiy kelishuvlarga muvaffaq bo‘linganligi sifatida kirdi. Birok, baribir paydo bo‘lgan salbiy tendensiyalar ushbu davrda G‘arbiy Yevropa iqtisodiy integratsiyasining jiddiy tangligiga olib keldi. Ushbu tanglik "Evroskleroz" degan nom oldi. 80-yillar boshida YEI mamlakatlari o‘rtasidagi rivojlanish darajasidagi tafovut ko‘paydi. 1981 yilda Gretsiyaning YEI ga kirishi bilan ushbu tedentsiya yanada aniqroq namoyon bo‘ldi, chunki ushbu mamlakatning iqtisodiyoti hamjamiyatning boshqa qatnashchilariga taqqoslanganda ancha past darajada edi.

Uchinchi bosqich (80-yillar ikkinchi yarmi - 90-yillar boshi) - Hamjamiyat tarkibining yanada kengayish bosqichi bo‘ldi. 1986 yilda Ispaniya va Portugaliyaning qo‘shilishi ilgari mavjud bo‘lgan mamlakatlararo nomutanosiblikning keskinlashuviga olib keldi. Shu bilan birga ayni ushbu davr G‘arbiy Yevropa integratsiyasi rivojlanishidagi yangi kuchayish bilan xarakterlanadi. Bu eng avvalo, Yagona Yevropa Akti (YAEA) qabul qilinishi bilan bog‘liqdir.

YAEA da hamjamiyat qatnashchilari bo‘lgan mamlakatlarning umumiy maqsadi - Yevropa Ittifoqi tashkil etish tasdiqlandi. Yevropa Ittifoqi uzida hamjamiyat qatnashchilarining siyosiy alyansini ifodaladi va ularning iqtisodiy, valyuta-moliyaviy, insonparvarlik hamkorligining yuqori darajasinigina emas, balki tashqi siyosatni, shu jumladan, xavfsizlikni ta’minlashni kelishishni ham nazarda tutar edi. YAEA da Yagona iqtisodiy makon barpo etish maqsadi unda qayd etilgan markaziy qoida edi. YEIH qatnashchilari bo‘lgan xar mamlakatlar Yagona xo‘jalik organizmini tashkil etishi kerak edi. YAEA qabul qilinishi bilan hamdustlik a’zolari bo‘lgan mamlakatlarniig mikro va makroiqtisodiyot, siyosat, huquq fan va ekologiya, mintaqaviy rivojlanish, ijtimoiy munosabatlar sohasidagi integratsiya jarayonlari kuchaydi. 90-yillar boshida YEI a’zosi bo‘lgan mamlakatlar Yagona bozor asoslarini barpo etishni amalda tugalladilar va valyuta-iqtisodiy va siyosiy ittifoklarni shakllantirishga juda yaqinlashib qoldilar.

To‘rtinchi bosqich (XX asrning 90-yillari o‘rtasi - XXI asr boshi) da Yagona Yevropa Aktiga muvofiq 1993 yil 1 yanvardan boshlab hamjamiyat chegaralari ichida ishlab chiqarish omillarining erkin xarakat qilishi joriy etildi. Amalda hamjamiyat doirasida Yagona iqtisodiy makon paydo bo‘ldi, bu EIning iqtisodiy integratsiyasining sifat jihatidan yangi bosqichiga kirganligini anglatar edi.

Maastrixt shartnomasi asosida (1992 yil fevral) 1994 yil 1 yanvardan boshlab YEIH qatnashchi mamlakatlari soni 15 ta bo‘lgan Yevropa Ittifoqiga aylantirildi. YEI doirasida to‘liq Yagona ichki bozor tashkil etish amalga oshirildi. Bundan buyongi integratsiya hamkorligi maqsadlari e’lon qilindi. Ular Yagona valyuta - evro emissiyasi huquqi bilan Yagona Yevropa banki, ichki chegaralarsiz Yagona G‘arbiy Yevropa makoni barpo etilishini o‘z ichiga olar edi.

Maastrixt bitimlari (1991 yil, dekabr) G‘arbiy Yevropa integratsiyasining rivojida sifat jihatidan yangi bir bosqich hisoblanadi, zero, unda mamlakatlarni mikro darajada bir-biriga yaqinlashtirish vazifasi qo‘yilgan edi.

Maastrixt bitimlari Yevropa Ittifoqiga quyidagi vazifalarni yuklangan:

- Yagona valyuta yaratish va uni boshqarish;
- Yagona iqtisodiy siyosatni, ayniqsa, uning byudjet ishlariga taalluqli qismini muvofiklashtirish, nazorat qilish, (o’rinli topilganda) kuchaytirish;
- erkin rakobatga asoslangan Yagona bozorni tashkil etish va himoyalash;
- boy va qashshoq mintaqalar o‘rtasida tenglikka intilish hamda (imkon bo‘lgan joylarda) mablag‘larni qayta taqsimlash;
- qonunchilik va tartib-qoidani qo‘llab-quvvatlash;
- ayrim fuqarolarning tub huquqlarini e’tirof etish va rivojlantirish;
- uchinchi mamlakatlarga nisbatan bamaslahat yuritiladigan savdo, keyinroq esa umumiy iqtisodiy siyosat to‘g‘risida, iqtisodiy siyosatni Yagonalashtirish borasida ham kelishib olishlarini nazarda tutadi.[52]

"Yagonalashgan", muvofiqlashtirilgan umumiy iqtisodiy siyosatni amalga oshirishni taqozo etuvchi mazkur qoidalarni ro‘yobga chiqarish yo‘lida esa ijroiya - muvofiqlashtirish vazifalari yuklatilgan xalqaro davlat tashkilotlariga ehtiyoj tug‘ildi.

Xozirgi kunda 27 davlatdan iborat bo‘lgan Yevropa Ittifoqi AQSH va Yaponiya bilan birgalikda dunyodagi asosiy ishlab chiqaruvchi hamda iste’molchilardan biri hisoblanadi. Yevrostat ma’lumotlariga ko‘ra, jahon eksportining 57 foizi va importning 55 foizi uning ulushiga to‘g‘ri keladi. Ayni vaktda YEI mamlakatlarining jaxon savdosidagi ulushi keyingi yigirma yilda Ittifoq a’zolari soni ko‘payganligiga qaramay, tushib ketdi.

[52] Shodiev R.X., Maxmudov E.R.“Jahon iqtisodiyoti”. – T.: “Gofur Gulom”, 2005 y.- 98 b.

Xarid qobiliyati pariteti bo‘yicha hisoblab chiqilgan aholi jon boshiga yillik yalpi ichki maxsulot mikdori YEI mamlakatlari uchun 17,3 ming yevroni tashkil etadi.

10.2.-jadval. Yevropa Ittifoqining kengayishi

Ta’sischi mamlakatlar (1957y. 25mart)	Birinchi kengayish 1973 y.	Ikkinchi kengayish 1981 y.	Uchinchi kengayish 1986y.	To‘rtinchi kengayish 1995 y.	Beshinchi kengayish 2004 y.	Oltinchi Kengayish 2007 y.	Ettinchi kengayish 2013 yil
Belgiya	Buyuk Britaniya	Gretsiya	Ispaniya	Avstiya	Vengriya	Bolgariya	Xorvatiya
Fransiya	Daniya		Portugaliya	Finlyandiya	Kipr	Ruminiya	
Germaniya	Irlandiya			Shvetsiya	Malta		
Italiya					Latviya		
Lyuksemburg					Litva		
Niderlandlar					Polsha		
					Slovakiya		
					Sloveniya		
					Chexiya		
					Estoniya		

YEI ning rivojlanib borishi Ittifoqda qarama-qarshiliklar va qiyinchiliklar yo‘q ekanligini anglatmaydi. Yuqorida YEI ga yangi a’zolar qo‘shilishi natijasida mamlakatlararo va mamlakat ichidagi nomutanosibliklar paydo bo‘lganligi qayd etilgan edi. Yagona agrar siyosatni, qishloq xo‘jaligi mahsulotlarining asosiy turlariga Yagona markazlashtirilgan narxlarning amalga oshirilishi jarayonida anchagina muammolar paydo bo‘ldi va paydo bo‘lmoqda. Yevropa Ittifoqi mafkurachilarini Yevropa tovarlarining xalqaro bozorlaridagi raqobatbardoshligining tushib ketishi, jahon savdosida YEI ulushining qisqarishi, kompyuterlashtirish va boshqalarda AQSHdan orqada qolish tashvishga solmoqda.

G‘arbiy Yevropadagi iqtisodiy integratsiya faqat YEI hududi bilan cheklanib qolmaydi: 60-yillar boshidan boshlab Yevropa erkin savdo uyushmasi mavjuddir. Yevropa erkin savdo uyushmasi YEI dan farq qilgan holda, milliy manfaatlardan ustun turuvchi funksiyalarga va davlatlararo muvofiqlashtiruvchi institutlarga ega emas. Yevropa erkin savdo uyushmasi (EESU) iqtisodiy hamkorlikni asosiy maksad qilib qo‘yadi. U birinchi navbatda savdoning erkinlashishiga va bojxona to‘siqlari bartaraf etilishiga ko‘maklashdi. EESU a’zolari bo‘lgan mamlakatlar (80-yillarda ular ettita, 90-yillar o‘rtasida to‘rtta - Norvegiya, Islandiya, Lixtenshteyn, Shveysariya) uchinchi mamlakatlar bilan u yoki bu savdo-iqtisodiy bitimlarga ixtiyoriy qo‘shiladilar, EESU qatnashchilaridan xar biri ushbu mamlakatlarga nisbatan istalgan bojxona tariflarini belgilashga xaqlidir. EESU a’zolari bo‘lgan mamlakatlar o‘rtasidagi savdoda erkin bojsiz savdo aylanmasi rejimi faqat sanoat tovarlariga nisbatan amal qiladi, chunki EESU konvensiyasining amal qilishi qishloq xo‘jaligi mahsulotlariga joriy etilmaydi.

1972 yilda EESUga kiruvchi har bir davlat YEIXG’YEI bitim imzoladi. Unga muvofiq sanoat tovarlariga boj va mikdoriy cheklashlar asta-sekin pasaytirildi. Ushbu mamlakatlar o‘rtasidagi bojsiz savdo tovarning kelib chiqishiga bog‘liq ravishda ishlab chiqilgan murakkab qoidalar tizimiga asoslanadi. Yagona bojxona tarifi mavjud emasligi tufayli EESU ichida erkin bojsiz savdo faqat a’zo mamlakatlarda ishlab chiqarilgan tovarlar uchun mavjuddir.

1994 yilda EESU va YEI “Yagona iqtisodiy makon” (YAIM) tashkil etish to’g‘risidagi bitimni imzoladi. Unga G‘arbiy Yevropa mamlakatlaridan fakat Shveysariya kirmadi. Bitimning asos bo‘luvchi prinsipi kapitallar, tovarlar, xizmatlar va jismoniy shaxslarning erkin harakat qilishidir.

Ta’kidlash zarurki, Yagona iqtisodiy makon bojxona ittifoqi hisoblanmaydi. EI va EESU tuzilmasi doirasida unga kiruvchi davlatlar na Yagona savdo siyosatiga va na uchinchi mamlakatlarga nisbatan umumiy bojxona tariflariga ega. YAIMga bitim qatnashchilari bo‘lgan davlatlar vazirlaridan iborat Kengash qaror qabul qiladi.

EESU unga kiruvchi davlatlar rivojlanganligining yuqori darajasiga va o‘zaro iqtisodiy aloqalarga qaramay, to‘laqonli integratsion guruhga aylanmadi. Amalda u YEIX va YEIning yangi a’zolari uchun o‘ziga xos "tayyorgarlik sinfi" bo‘ldi.

Shunday qilib, integratsiya jarayoni eng boshidayoq a’zo mamlakatlarning muvofiqlashgan siyosatiga duch keldi.

Yevropa iqtisodiy hamjamiyati qabul qilgan maqsadlarni ro‘yobga chiqarish jarayonida:

1. Sanoat integratsiyasining jadallashuvi ta’minlandi;
2. Qishloq xo‘jalik jamg‘armasi faoliyati orqali birgalikda xomiylik o‘rnatish, to‘lov yig‘imlarini joriy etish shaklida agar integratsiyani jadallashtirishga xarakat qilindi;
3. Yevropa valyuta tizimi yuzaga keldi.

Ana shu chora-tadbirlarning barchasi iqtisodiy integratsiyaning keng tomir yoyishiga, Yevropa iqtisodiy hamjamiyati ta’sir doirasining kengayishiga olib keldi.

10.5. Amerika qit’asida integratsiya jarayonlari rivojlanishining xususiyatlari

Jahon xo‘jaligida integratsion markazlardan biri Shimoliy Amerika hududi hisoblanadi. Shimoliy Amerika Erkin savdo assotsiatsiyasi - NAFTA tashkil etilishi va uning faoliyat ko‘rsatishi rivojlanayotgan integratsiya jarayonlaridan biridir.

AQSHning Kanada bilan mavjud iqtisodiy integratsiyasi va ularning G‘arbiy Yevropadagi sheriklar bilan hamkorligi AQSHni qoniqtirmay qo‘ydi. Natijada Shimoliy Amerikadagi integratsiya jarayonlari ushbu davlatlar tashqarisiga chiqdi. Shimoliy Amerika erkin savdo zonasi to‘g‘risidagi shartnoma imzolandi va u 1994 yil 1 yanvardan boshlab kuchga kirdi. NAFTAga AQSH va Kanadadan tashqari Meksika ham kiradi. Blokning xududi 370 mln. aholini o‘z ichiga oluvchi keng hududni tashkil etadi va u qudratli iqtisodiy salohiyatga ega. Ushbu mamlakatlar tomonidan yillik tovarlar ishlab chiqarish va xizmatlar ko‘rsatish 7 trillion dollarni tashkil etadi. Jahon savdosi butun hajmining qariyb yigirma foizi ular ulushiga to‘g‘ri keladi.

10.3.-jadval. NAFTAga a'zo mamlakatlarning iqtisodiy rivojlanish ko'rsatkichlari 1992 yil (bitim tuzish vaqtida)[53]

	Aholi (mln.kishi	YAIM mlrd.doll	Aholi jon boshiga YAIM doll.	Eksport mlrd.doll.	Import mlrd.doll
Kanada	27,4	493,6	20710	150,5	153,7
Meksika	89,5	329,0	3470	42,8	52,7
AQSH	255,0	5920,2	23240	640,5	670,1

Shartnomaning asosiy qoidalari quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- AQSH, Kanada, Meksika o'zaro savdo qiladigan tovarlarga bojxona poshlinalarini bekor qilish;
- Shimoliy Amerika bozorini o'z tovarlarini Meksika orqali AQSHga qayta eksport qilish yo'li bilan Amerika poshlinalaridan xalos bo'lishga urinuvchi Osiyo-Yevropa kompaniyalarining ekspansiyasidan himoya qilish;
- Meksikada bank va sug'urta ishida Amerika va Kanada kompaniyalarining raqobatiga va kapital qo'yishiga taqiq qo'yish;
- atrof-muhitni qo'riqlash bilan bog'liq muammolarni xal qilish uchun uch tomonlama guruhlar tashkil etish.

Savdo bloki iste'molchilari tuzilgan bitimdan eng ko'p foyda oldilar, chunki raqobatiing kuchayishi va tariflarning pasayishi natijasida keng doiradagi tovarlarning narxlari pasaydi. Amerika sanoatchilari qulay mavqeni egalladilar, chunki arzon ish kuchi oqimi o'sdi. Amerika iqtisodiyotining elektronika, kompyuter ta'minoti, qurilish materiallari, avtomobil ehtiyot qismlari ishlab chiqarishi singari sektor-larida daromadlarning kafolatli o'sishi kutilmoqda. Ayni vaqtda qand-shakar, sitrus mevalar, qishki sabzavotlar etishtiruvchi Amerika fermerlari zarar ko'rmoqdalar. Meksikaga kelganda esa, u NAFTA yordamida o'zining iqtisodiy rivojlanishi sur'atlarini yalpi ichki maxsulot o'sishining taxminan 1,6-2,6 foizi miqdorida jadallashtirishni rejalashtirmokda. Natijada Meksika o'z iqtisodiyotini isloh qilish davrini va rivojlangan mamlakatlar klubiga yaqinlashishni yarim asrdan 10-15 yilgacha qisqartirishga muvaffaq bo'ladi.

[53] Klein L ft, Salvatore D. Welfare effects of NAFTA G'G' Journal of policy modeling. New-York, 1995. Vol. 17. №2.

Kanada NAFTAdan eng kam foyda ko‘rishi mumkin. Uning iqtisodiyoti AQSH bilan mustahkam aloqada, biroq Meksika bilan uncha sezilarli aloqaga ega emas. Biroq NAFTA rivojlanishi davomida Kanada integratsiya jarayonlariga tobora ko‘proq tortiladi va kengayayotgan bozordan dividendlar oladi. NAFTA faoliyat ko‘rsatishining dastlabki ikki yilida eksport xajmlarini ko‘paytirish xisobiga qo‘shimcha ishchi o‘rinlari barpo etilishiga nisbatan ishonchini oqlamadi. Undan tashqari AQSHning Meksika bilan savdosining ijobiy savdo saldosi 1995 yilda o‘z o‘rnini taqchillikka bo‘shatib berib qo‘ydi.

10.4.-jadval. NAFTAga a’zo mamlakatlarning iqtisodiy rivojlanish ko‘rsatkichlari 2012 yil.[54]

Ko‘rsatkichlar	AQSH	Kanada	Meksika	NAFTA
Aholi (mln.kishi)	314,0	35,0	121,0	470
YAIM (mlrd.doll.)	15734,6	1777,9	1176,9	18689,4
YAIM aholi jon boshiga (AQSH doll.)	50120	50970	9740	36943
Eksport mlrd.doll	2166,9	532,3	386,8	3086
Import mlrd.doll	2746,7	580,1	405,7	3732,5

Integratsiya jarayonlari Janubiy Amerikada ham faollashmoqda. O‘z vaqtida (60-yillar boshida) Markaziy Amerika umumiy bozori tashkil etilgan edi. Biroq, siyosiy va iqtisodiy tanglik Markaziy Amerika umumiy bozori doirasida integratsiya rejalarini amalga oshirish imkonini bermaydi. 90-yillar o‘rtasiga kelib integratsiya jarayonlari 1991 yilda Argentina, Braziliya, Urugvay, Paragvay o‘rtasida MERKOSUR savdo pakti tuzilishi vositasida faollashdi. Janubiy konus mamlakatlarining umumiy bozori -MERKOSUR o‘zi mavjud bo‘lgan erlarda jahonning eng dinamik integratsiya guruhlaridan biriga aylandi. 1998 yildayoq birlashmaning to‘rt qatnashchisi o‘rtasidagi savdo xajmining deyarli 95 foiziga poshlina solinmadi.

Agar, 90-yillar o‘rtasida Lotin Amerikasi mamlakatlari NAFTA blokiga intilmokdalar deb hisoblangan bo‘lsa, hozir vaziyat o‘zgardi. MERKOSURga erkin savdo to‘g‘risidagi bitim asosida Chili va Boliviya qo‘shildi (assotsiatsiyalangan a’zolar sifatida). MERKOSUR bilan And guruhi o‘rtasidagi hamkorlik to‘g‘isidagi muzokaralar olg‘a siljimohda. Unga Boliviyadan tashqari Venesuela, Kolumbiya, Peru, Ekvador kiradi. MERKOSUR yakin istiqbolda Panama

54 World Development Report.. Risk and Opportunity Managing for Development 2014/ World Bank 2014 p. 293-298

kanalidan Magellan bo‘g‘ozigacha bo‘lgan erni qamrab oluvchi Janubiy Amerika erkin savdo zonasi - SAFTAni tashkil etish rejasiga ega.

MERKOSURning barpo etilishi o‘zaro savdoning keskin ko‘payishiga, boshqa mintaqaviy savdo guruhlari bilan savdo-iqtisodiy hamkorlikning kengayishiga olib keldi. O‘zaro investitsiya faolligi sezilarli ravishda o‘sdi, chet eldan keluvchi investitsiyalar o‘smokda. MERKOSURning muvaffaqiyatli faoliyati mintaqada siyosiy barqarorlikka sezilarli ta’sir ko‘rsatmoqda G‘arbiy Yevropa integratsiyasidan farq qilgan xolda, ushbu Janubiy Amerika birlashmasi o‘z darajasiga ko‘ra turlicha bo‘lgan davlatlar Yagona tashkilotda mavjud bo‘lishidangina emas, balki muvaffaqiyatli hamkorlik qilishidan ham dalolat beradi. Buning uchun bunday birlashmalarning barcha bo‘g‘inlarini puxta tayyorlash, ular faoliyatiga yuqori malaka bilan raxbarlik qilish, ushbu jarayonda har bir mamlakat uchun uning o‘z o‘rnini topish uchun, qarama-qarshiliklarni yumshatish, murosaga borish istagi talab etiladi.

§ 10.6. Osiyo-Tinch okeani mintaqasida integratsion jarayonlarning xususiyatlari

Osiyo-Tinch okeani mintaqasi integratsion jarayonlarining uchinchi eng yirik markazi hisoblanadi.

Deyarli 30 yil mobaynida Janubi-Sharqiy Osiyo mamlakatlari uyushmasi (ASEAN) muvaffaqiyatli faoliyat ko‘rsatmokda. Unga Osiyodagi to‘rtta "ajdaxodan biri - Singapur, shuningdek, "yangi to‘lqin" - yangi industrial mamlakatlar - Malayziya, Indoneziya, Tailand, Bruney va Filippin kiradi. Ushbu guruh doirasida o‘zaro hamkorlikning muvaffaqiyati ASEAN qatnashchilari bo‘lgan ko‘pchilik mamlakatlarning shiddatli iqtisodiy o‘sishi, ular rivojlanishini taqqoslash mumkinligi, yaxshi yo‘lga qo‘yilgan va uzoq, tarixiy an’analarga ega bo‘lgan o‘zaro savdo aloqalarining mavjudligi, shuningdek, hamkorlik shakllarining tartibga solinishi bilan mustahkam bog‘liqdir. ASEAN rejalarida 2000 yilgacha qatnashchi mamlakatlar bojxona poshlinalarini 38 ming turdagi tovarlar bo‘yicha o‘rtacha 5 foizga pasaytirish rejasi mavjud edi. 1995 yil oxirida 2000 yilda, voqealar ko‘ngildagidek rivojlangan takdirda 2002 yilda erkin savdo zonasi barpo etish to‘g‘risida qaror qabul qilingan edi.

Sharqiy Osiyoda iqtisodiy integratsiyani rivojlantirish istiqbollari ko‘p jixatdan Osiyo-Tinch okeani iqtisodiy hamjamiyatini tashkil etish bilan bog‘liqdir. Osiyo-Tinch okeani iqtisodiy hamjamiyati mintaqaning 21 davlatini birlashtiruvchi hukumatlararo birlashmadir.

Osiyo-Tinch okeani iqtisodiy hamjamiyati 1989 yilda Avstraliyaning taklifi bilan Tinch okeani xavzasida iqtisodiy hamkorlikni rivojlantirish maqsadida tashkil etilgan edi. Dastlab unga 12 mamlakat: Avstraliya, Bruney, Kanada, Indoneziya, Yaponiya, Malayziya, Yangi Zellandiya, Filippin, Singapur, Janubiy Koreya, Tayvan va AQSH kirdi. Keyingi yillarda unga Xitoy,

Gonkong (Syangan), Tayvan, Meksika, Chili, Papua-Yangi Gvineya, 1998 yilda Vetnam, Peru va Rossiya qo‘shildi.

Osiyo-Tinch okeani iqtisodiy hamjamiyati rasman maslahat maqomiga ega, biroq uning ishchi organlari doirasida savdo, investsiiya va moliya faoliyatini yuritishning minqtaqaviy qoidalari belgilanadi, u yoki bu sohalarda hamkorlik masalalari bo‘yicha tarmoq vazirlari va ekspertlarning uchrashuvlari o‘tkaziladi.

1993 yilda Osiyo-Tinch okeani iqtisodiy hamjamiyati etakchilarining birinchi uchrashuvi bo‘lib o‘tdi (Sietl, AKSH). Uchrashuv davomida mintaqada avj olayotgan integratsiya jarayonlaridan foyda ko‘rish noto‘g‘ri taqsimlanishi yuzasidan jiddiy tafovutlar borligi aniqlandi. Ekspertlarning fikricha, Osiyo-Tinch okeani iqtisodiy hamjamiyatida savdoni erkinlashtirish a’zo mamlakatlarning real daromadlari 2 foizga o‘sishiga olib kelishi kerak. Biroq foydani birinchi navbatda eng raqobatbardosh mamlakatlar oladilar.

Osiyo-Tinch okeani mintaqasida iqtisodiy integratsiya jarayonlariga baho berar ekan, ko‘pchilik mutaxassislar uning rivojlanishining o‘ziga xos shart-sharoiti va o‘ziga xosligini ko‘rsatadilar. Osiyo-Tinch okeani mintaqasi integratsiya jarayonining asosiy xususiyatlariga quyidagilarni kiritish mumkin:

- *birinchidan,* Osiyo-Tinch okeani iqtisodiy hamkorligi tashkilotidagi integratsiya jarayoni davlatlararo hamkorlik uchun negiz yaratuvchi transmilliy korporatsiyalarning yetakchilik roli sharoitida yuz bermoqda;
- *ikkinchidan,* integratsiya jarayoni iqtisodiy rivojlanishi darajasi jiddiy ravishda turlicha bo‘lgan, madaniy va ijtimoiy-siyosiy tizimlari xar xil bo‘lgan mamlakatlarni qamrab oladi. Osiyo-Tinch okeani iqtisodiy hamkorligining noyobligi shundaki, unda XX asrning ikki buyuk iqtisodiy davlati - AQSH va Yaponiya, shuningdek, XXI asrning iqtisodiy giganti - Xitoy birlashadi.

Yaponiyaga kelganda esa, Osiyo-Tinch okeani iqtisodiy hamjamiyati integratsiya tipidagi Yagona xalqaro tuzilma hisoblanadi. Osiyo-Tinch okeani iqtisodiy xamjamiyatiga o‘z munosabatlari uncha oddiy bo‘lmagan qulay tashqi shart-sharoitlarni talab etuvchi XXR va Tayvan kirishini qayd etish muhimdir;

- *uchinchidan,* Osiyo-Tinch okeani mintaqasi ko‘lamidagi integratsiya sub mintaqaviy ittifoqlarni (ASEAN, NAFTA, Janubiy Tinch okeani forumi va boshqalar) o‘z ichiga oladi, ya’ni integratsiyaning turli darajalariga yo’l qo‘yadi, masalan, tashqi savdoni erkinlashtirish darajasi bo‘yicha;
- *to‘rtinchidan,* ATES va Osiyo-Tinch okeani mintaqasida Tinch okeani "ochiq" regionalizmi mafkurasi mintaqaviy integratsiyani iqtisodiy globalizm elementi sifatida qaraydi. Bunda jahon iqtisodiyoti evolyusiyasi mintaqaviy iqtisodiy ittifoqlarning asta-sekin birlashishi va o‘zaro bir-biriga qo‘shilish jarayoni sifatida qaraladi. "Ochiq regionalizm" konsepsiyasi, shuningdek, Tinch

okeani mintaqasi ichida tovarlar, sarmoyalar, ish kuchi, xarakati, cheklanishi olib tashlanishini ham nazarda tutadi, proteksionizmdan voz kechish bo‘yicha majburiyatlar qabul qilinadi, ichki mintaqaviy iqtisodiy aloqalar rag‘batlantiriladi. Umuman olganda, Osiyo-Tinch okeani mintaqasida integratsiya munosabatlari yetukligi xali uncha yuqori emas. Jumladan, ASEAN tizimidagi savdo zonasini iqtisodiy integratsiya rivojlanishining birinchi bosqichiga, ya’ni tariflar va boshqa cheklashlar olib tashlanadigan erkin savdo zonasiga kiritish mumkin. Osiyo-Tinch okeani iqtisodiy hamjamiyatiga nisbatai xozircha erkin savdo zonasi sifatida emas, balki "ochiq iqtisodiy uyushma" sifatida gapirish mumkin.

Ushbu tashkilot doirasida Osiyo-Tinch okeani iqtisodiy hamjamiyatini va integratsiya jarayonlarini rivojlantirish istiqbollari yaqin yillarda uch variantda ko‘rib chiqiladi.

Birinchi variant - Osiyo-Tinch okeani iqtisodiy hamjamiyatini rivojlantirish Bagor (1994 y., Indoneziya)dagi kengashda qabul qilingan senariy bo‘yicha amalga oshiriladi. Unga muvofiq erkin savdo zonasi tashkil etiladi va 2020 yilda (sanoati rivojlangan mamlakatlar uchun 2010 yilgacha) investitsiya sohasi erkinlashtiriladi. Bojxona tariflarini pasaytirish GAATG’BST doirasida erishilgan bitimlarga muvofiq yuz beradi.

Ikkinchi variant - mutaxassislarning fikricha, eng ehtimolli variant Osiyo-Tinch okeani iqtisodiy hamjamiyati uchun mintaqada savdo muammolarini muhokama qilish forumi rolini mustahkamlaydi. Ushbu xolda mavjud ahdlashuvlarni bajarishning borishi munosabati bilan nizolar kelib chiqishi shubxasizdir. Bu tashkilotning kuchsizlanishiga olib keladi. Bunday sharoitlarda boshqa integratsiyalashgan mintaqaviy guruhlarning roli oshadi, chunki submintaqalarida va Osiyo-Tinch okeani mintaqasi guruhidagi ayrim mamlakatlarning integratsiyalashuv darajasi nisbatan yuqori va ular umuman olganda, mintaqada integratsiya jarayonlari jadal rivojlanishining o‘ziga xos yacheykalari bo‘lishi mumkin. Jumladan, "o‘sish uchburchagi" - Janubiy-Xitoy iqtisodiy zonasi (XXR, Gonkong, Tayvan); "o‘sish oltin uchburchagi" (Indoneziya, Malayziya, Singapur); Yapon dengizi havzasi mamlakatlari iqtisodiy zonasi; Xindi-Xitoy iqtisodiy zonasi mavjud.

Uchinchi variant - AQSH va YEI da proteksionistik kayfiyatlar ustunlik qilishini istisno etmaydi, bu jahon savdosining tezlikda erkinlashishiga to‘sqinlik qilishi va Osiyo-Tinch okeani iqtisodiy hamjamiyatida integratsiya jarayonlari doirasini Osiyo mamlakatlari bilan cheklashi mumkin.[55]

Osiyo-Tinch okeani mintaqasi ko‘plab mamlakatlarning tezlikda barqaror iqtisodiy o‘sishi jahon iqtisodiy rivojlanishining markazi Tinch okeani havzasi tomonga siljimoqda, degan umumiy fikr shakllanishiga ko‘maklashdi. 90-yillar o‘rtasida jahon aholisining 38,2 foizi va uning yalpi ichki mahsulotining 55,7 foizi Osiyo-Tinch okeani iqtisodiy hamjamiyati

[55] Международные экономические отношения.Учебник Под.ред.Евдокимова М.: Проспект, 2003 год.

mamlakatlariga tug‘ri keldi (YEIda mos ravishda 6,7 va 20,5%). NAFTA mamlakatlari ham YEIga yaqin salmoqqa ega. Jahon tovarlar savdosi xajmining 43,9 foizi, xizmatlar savdosining 32,9 foizi va texnologiyalar eksportining 64,1 foizi Osiyo-Tinch okeani iqtisodiy hamjamiyati ulushiga to‘g‘ri keladi. Tashai savdo sohasida Osiyo-Tinch okeani iqtisodiy hamjamiyati va unga kiruvchi mamlakatlar doirasida ichki mintaqaviy aloqalar 70 foizni tashkil etadi. Ayni vaqtda YEImamlakatlarida ushbu ko‘rsatkich 55 foizga etdi. Osiyo-Tinch okeani iqtisodiy hamjamiyatining 3 asosiy qatnashchisi: Yaponiya, AQSH va Janubiy-Sharqiy Osiyo mamlakatlari (Yaponiyadan tashqari) o‘rtasidagi tovar aylanmasi tez sur’atlarda o‘smoqda.

10.7. O‘zbekistonning integratsion tashkilotlardagi ishtiroki

O‘zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishgach, ham siyosiy, ham iqtisodiy sohada ko‘pgina yutuqlarga erishdi. Respublikamizning jahon hamjamiyatida faol ishtirok etishi va O‘zbekistonning milliy manfaatlariga mos keladigan ko‘p tomonlama siyosat yuritishi davlatimizning jahon xo‘jaligida tutgan o‘rnini mustahkamlashning muhim shartidir.

Endilikda O‘zbekiston tashqi siyosat maydonida borgan sari munosib o‘rin egallamoqda. Biz qo‘ygan ko‘pgina amaliy qadamlar O‘zbekistonning halqaro hamjamiyatda uzoq muddat mobaynida yaratuvchilik faoliyati bilan shug‘ullanish istiqboliga mo‘ljallangandir.

Boshqa davlatlar bilan bo‘ladigan iqtisodiy integratsiya davlatning har xil extiyojlarini qondirish va samaradorligini oshirishning muhim omili hisoblanadi va fan-texnika taraqqiyotini jadallashtirishga, millatlar va elatlarning yaqinlashuviga, aholining turmush darajasini oshirishga yordam beradi.

Har qanday davlat xoh kichik xoh katta bo‘lsin, iqtisodiy integratsiyasiz rivojlanishi tez bo‘lmaydi. Buni ko‘pgina davlatlar o‘z tajribalarida isbotlashdi. Iqtisodiy integratsiyani rivojlantirishga qaratilgan O‘zbekiston Respublikasi siyosati ham iqtisodiyoti yuksak darajada rivojlanishiga erishishga qaratilgan. Iqtisodiy integratsiya iqtisodiyotga bevosita quyidagi natijalarga erishish imkoniyatini beradi: tovarlar, kapitallar, xizmatlar erkin harakat qiladi; raqobat kuchayadi; ishlab chiqarish kuchlari rivojlanadi; ishlab chiqarish samaradorligi ortadi; sifatli va arzon tovarlar ishlab chiqariladi; iste’molchilarning talabi ortib boradi; taklif qilinadigan tovarlar nomenklaturasi ko‘payadi; bozorlarning rivojlangan shakllari paydo bo‘ladi va umumiy bozorlar tashkil qilinadi; ishsizlik darajasi pasayadi; milliy iqtisodiyotdagi farqlar yo‘qolib boradi; yangi kuchli umumiy iqtisodiyot shakllanadi; milliy iqtisodiyot rivojlanib boradi; eng muhimi kishilar hayoti farovonligi oshadi va h.k.

Bu natijalarga erishish uchun O‘zbekiston Respublikasi Markaziy Osiyo, MDH davlatlari, rivojlangan va rivojlanayotgan qolaversa, Yevropa Ittifoqi davlatlari bilan hamkorlikka erishishga harakat qilishi kerak.

O‘zbekiston dunyo xo‘jaligi tizimiga kirib borar ekan, uning xalqaro iqtisodiy aloqalari uzoq va yaqin xorijiy mamlakatlari bilan taraqqiy etmoqda.

O‘zbekistoning MDH va Iqtisodiy Hamkorlik Tashkiloti kabi integratsiya uyushmalarida ishtirok etishi mamlakatimizning dunyo miqyosidagi obro‘ e’tiborini yanada orttiradi.

O‘zbekiston Respublikasi a’zo bo‘lib kirgan eng muhim birlashmalardan biri - Mustaqil Davlatlar hamdo‘stligi (MDH) bo‘lib, u 1991 yil dekabrda tuzilgan. Xozir MDH ga Ozarbayjon Respublikasi, Armaniston Respublikasi, Belorus Respublikasi, Qozog‘iston Respublikasi, Tojikiston Respublikasi, Qirg‘iziston Respublikasi, Moldova Respublikasi, Rossiya Federatsiyasi, Turkmaniston Respublikasi, O‘zbekiston Respublikasi va Ukraina kiradi.

O‘zbekiston sobiq Ittifoq respublikalari bilan aloqalarga katta ahamiyat berib, dastlab Mustaqil davlatlar hamdo‘stligini tuzish g‘oyasini qo‘llab-quvvatladi. Bunday hamkorlikka hamdo‘stlik mamlakatlarining xududiy yaqinligi va iqtisodiy jixatdan bog‘langanligi emas, balki chuqur tarixiy, madaniy va ma’naviy alokalar, katta tarixiy davr mobaynida xalqlarimizning taqdiri mushtarakligi ham asos bo‘lmoqda.

Hamdo‘stlik maqsadlari quyidagilar:

• demokratik huquqiy davlatlar tuzish, ular o‘rtasidagi munosabatlar davlat mustaqilligini va suveren tenglikni o‘zaro tan olish va xurmatlash, o‘z taqdirini o‘zi belgilash huquqi, teng huquqlilik va ichki ishlarga aralashmaslik, har qanday tazyiqlardan voz kechish, nizolarni tinch yo‘l bilan hal etish, inson xuquqlari va erkinliklarini, shu jumladan kichik millatlar xuquqlarini xurmat qilish, majburiyatlarini va bjshqa umum tan olingan xalqaro huquq tamoyillari va normalarini halol bajarish asosida rivojlanadi;

• bir-birlarini hududiy butunligini va mavjud chegaralar buzilmasligini tan olish va hurmat qilish;

• chuqur tarixiy ildizlarga ega bo‘lgan xalqlarning tub manfaatlarini hamda qo‘shnichilik va o‘zaro manfaatli hamkorlik munosabatlarini mustahkamlash;

• fuqarolararo va millatlararo totuvlikni saqlash.

Ayni vaqtda O‘zbekiston Respublikasining MDHga a’zoligi unga bir qator muhim vazifalarni millat, iqtisodiyot manfaatlariga muvofiq hal etish imkonini beradi:

- ishlab chiqarishni, aholi ta’minotini (avvalo oziq-ovqat bilan) qo‘llab-quvvatlashni ta’minlovchi keng ko‘lamda kooperativ xo‘jalik aloqalarini rivojlantirish va takomillashtirish;

- MDHning bir qator tovarlarini bozorda, ayniqsa an'anaviy mahsulotlarni sotish sohasida yetakchi mavqeni saqlash;

- sobiq ittifoqchi respublikalar ega bo‘lgan xom-ashyo resurslaridan foydalanish;

- O‘zbekistonning uchinchi mamlakatlarga eksport-import tovar

oqimiga xizmat ko‘rsatuvchi transport kommunikatsiyalaridan kafolatli va xatarsiz foydalanish.

O‘zbekistonning MDH mamlakatlari bilan iqtisodiy hamkorligi mexanizmini takomillashtirishning asosiy yo‘nalishlari iqtisodiy erkinlashtirish, uni bozor tamoyillariga izchillik bilan o‘tkazish, xo‘jalik tuzilmasini qayta qurishdan iborat umumiy yo‘l bilan belgilanadi.

MDH davlatlari O‘zbekistonning asosiy savdo iqtisodiy hamkorlaridan biri hisoblanadi. Ularning hissasiga respublika tashqi savdo umumiy hajmining 30% dan ortig‘i to‘g‘ri keladi. O‘zbekiston va MDH mamlakatlari mol ayirboshlash dinamikasi tenglik va o‘zaro foydali tamoyillarga asoslangan, savdo-iqtisodiy munosabatlarning izchil rivojlanayotganligidan dalolat beradi. 2000-2007 yillar davomida O‘zbekiston bilan yirik savdo aloqalarini olib boruvchi davlatlar Rossiya, Qozog‘iston, Ukraina hisoblanadilar.

Mustaqil Davlatlar hamdo‘stligi mamlakatlari bilan iqtisodiy munosabatlarning shakli va tarkibi tubdan o‘zgarib bormoqda. O‘zbekistonning mavqei tobora mustahkamlanmoqda. MDHdagi ko‘pgina mamlakatlar bilan savdo sohasida O‘zbekiston ijobiy saldoga egadir.

Rossiya O‘zbekistonning eng muhim savdo hamkori hisoblanadi. O‘zbekiston Respublikasidan asosan paxta tolasi, oziq-ovqat, mashina va uskunalar, yonilgi mahsulotlari, kimyo mahsulotlari eksport qilinadi.

Markaziy Osiyo mamlakatlari bilan hamkorlik qilish mintaqaning rivojlanishi va davlatlar iqtisodi uchun muhim ahamiyatga ega.

O‘zbekistonning mavqei mintaqada ahamiyatli bo‘lishiga qaramay, bir qancha jug‘rofiy-siyosiy omillar mamlakatning strategik imkoniyatlarini cheklab qo‘yadi. Mamlakat qolgan Markaziy Osiyo davlatlarining barchasi singari dengizga chiqish yo‘liga ega bo‘lmaygina qolmay, balki jahon transport kommunikatsiyalariga erkin kira olmaydigan davlatlar bilan qurshab olingan. Ammo shular bilan bir qatorda suv resurslarining cheklanganligi, Farg‘ona vodiysida aholining zichligi, qishloq xo‘jaligida band bo‘lgan aholi salmog‘i katta ekanligi respublikamizda integratsiya jarayonlarini rivojlantirishni to‘xtatmaydi.

O‘zbekiston Republikasi 1992 yilda Iqtisodiy Hamkorlik Tashkiloti (IHT) a'zosi bo‘ldi. IHT Afg‘oniston Islom Davlati, Ozarbayjon Respublikasi, Eron Islom Respublikasi, Qozog‘iston Respublikasi, Pokiston Respublikasi, Tojikiston Respublikasi, Turkiya

Respublikasi, Turkmaniston Respublikasi, O‘zbekiston Respublikasi kabi davlatlarni birlashtiradi. 1992 yilda Texronda oliy darajadagi IHT uchrashuvi paytida e’lon qilingan axborotda IHT a’zolarining iqtisodiy farovonligi yo‘lida ko‘ptomonlama mintaqaviy hamkorligini ko‘zda tutuvchi maqsadlar va vazifalar e’lon qilindi.

O‘zbekistonning Iqtisodiy hamkorlik tashkilotiga integratsiyalashuvi -transport, aloqa savdo, investitsiya va energetika singari ustuvor sohalarni rivojlatirish uchun imkoniyat yaratadi. Bu sohalardagi hamkorlik jarayonlarini jadallashtirish imkonini beradi. Tranzit savdo, mintaqa ichida xalqaro xuquqiy me’yorlarga muvofiq bojxona tadbirlarining umumiy tizimini yaratish yuzasidan loyihalar amalga oshirilmoqda. Turkmaniston va O‘zbekistonni Afgoniston orqali Karchi va Gvadar portlari bilan birlashtiruvchi tranzit yo‘llariga alohida e’tibor berilmoqda. Termiz-Xirot-Kandaxor-Chaman temir yo‘li va uning Xirot-Kushka, Kerman-Zoxidon, Astare (Ozarbayjon)-Resht-Kazvin tarmoqlari bilan, shuningdek Avn kuli atrofidan aylanib o‘tuvchi temir yo‘lini tugallash maqsadida ularga ham ustivor ahamiyat berilishi lozim.

Mintaqada gaz va neft o‘tkazish tarmoqlarini rivojlantirish rejalari ishlab chiqildi va ma’kullandi. Bunda Turkmanistondan Eron va Turkiya orqali Pokistonga, shuningdek Erondan Pokistonga o‘tadigan gaz quvurlari qurilishi alohida e’tiborda turibdi. IHT a’zosi bo‘lgan Markaziy Osiyodagi boshqa mamlakatlar ham bu gaz kuvurlaridan foydalanishlari mumkin.

IHT a’zosi bo‘lgan mamlakatlar o‘rtasidagi savdoni yanada rivojlantirish maqsadida boshqa mintaqalardagi va jahon savdo muhitidagi tajribani xisobga olgan holda erkin savdo mintaqasi (EKOFTA) tuzishga asta-sekin o‘tish ko‘zda tutilmokda. IHT mintaqasidagi mamlakatlarning tashqi iqtisodiy aloqalarini rivojlantirishda va ularning harakatlarini muvofiqlashtirishda tobora ko‘proq rol o‘ynamoqda.

2002 yil 10 iyunda Qozog‘iston, Xitoy Xalq Respublikasi, Qirg‘iziston, Rossiya Federatsiyasi, Tojikiston va O‘zbekiston davlat boshliqlari tomonidan Shanxay hamkorlik Tashkilotining Xartiyasi- asosiy nizom xujjatiga qo‘l qo‘yildi. O‘zbekiston bu tashkilotga 2001 yilda a’zo bo‘lgan edi. Shanxay hamkorlik tashkilotiga a’zo bo‘lish O‘zbekiston va tashkilot a’zolari uchun ikki tomonlama manfaatli. Ishtirokchi davlatlar uchun O‘zbekiston muhim strategik sherik bo‘lib hisoblanadi. Chunki tarixiy «Buyuk ipak yo‘li»ning qayta tiklanishida O‘zbekistonning ishtiroki muhim ahamiyatga egadir. Uzbekiston uchun esa bu Yevropa va Osiyo-Tinch okeani mintaqasiga chiqish uchun ishonchli yo‘l hisoblanadi va ishtirokchi mamlakatlar bilan turli yo‘nalishdagi aloqalarni rivojlantirish imkoniyatini beradi.

O‘zbekistonning turli xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlik aloqalarining rivojlantirilishi uning jahon xo‘jaligi integratsiyasida samarali ishtirok etishini ta’minlaydi. Bunday xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlik o‘tish davri muammolarini hal etishni, shuningdek ijtimoiy yo‘naltirilgan bozor xo‘jaligini shakllantirishni yengillashtiradi. Bu narsa kreditlar olishda,

bevosita xorijiy investitsiyalarni jalb qilishda, mahsulotlarni jahon bozorlariga chiqarishda katta yordam beradi.

Tayanch iboralar: erkin iqtisodiy hudud, bojxona ittifoqi, to‘liq iqtisodiy ittifoq, qonunchilikning unifikatsiyalanishi, Yevropa Ittifoqi, Maastrixt shartnomasi, Yagona Yevropa Akti, NAFTA, “Merkosur”, IHT.

Bobning qisqacha xulosasi:

XX asrning 50-yillaridan so‘ng xo‘jalik hayotining baynalminallashuvi zamonaviy jahon xo‘jaligi rivojlanishining etakchi an’analaridan biriga aylandi. Jahon xo‘jaligini global baynalminallashuvining asosiy tendensiyalaridan biri – ma’lum bir davlat yoki bir necha davlatlar guruhining ta’sir zonasini vujudga kelishidir. Bu davlatlar yoki davlatlar guruhi jahon xo‘jaligi aloqalari ta’sirida o‘ziga xos mintaqalar hosil qilib, boshqa davlatlarni o‘z atrofida birlashtiruvchi integratsion markazlarga (EI, NAFTA, ATES, MERKOSUR, Shanxay guruhi va boshqalar) aylanib bormoqda. Xalqaro iqtisodiy integratsiya jahon mamlakatlari o‘rtasida ishlab chiqarish va kapitalning baynalminallashuviga imkon beradi. Jahon iqtisodiyotida iqtisodiy integratsiyani quyidagi sxemali o‘zaro boqliq bo‘lgan zanjirlar shaklida tasvirlash mumkin: ishlab chiqarish kuchlarining rivojlanishi – xalqaro mehnat taqsimoti – ishlab chiqarish va kapitalning baynalminallashuvi – iqtisodiy integratsiya. Xalqaro iqtisodiy integratsiyaga ikkita asosiy omil (ilmiy-texnika inqilobi va transmilliy kompaniyalarni faoliyati) katta ta’sir ko‘rsatadi.

Nazorat uchun savollar:

1.Iqtisodiy integratsiyaning mazmuni va mohiyatini tushuntirib bering.

2.Xalqaro iqtisodiy integratsiyaning qanday bosqichlari xarakterlab bering?

3.Erkin savdo hududlarini tavsiflab bering.

4.Integratsion jarayonlar milliy davlatlar iqtisodiyotini rivojlanishiga qanday ta’sir ko‘rsatishini xarakterlab bering.

5.YEI qachon va qaysi davlatlar tomonidan tashkil etildi.

6.NAFTAni tuzilishidan asosiy maqsad nima va unga qaysi davlatlar a’zo?

11- mavzu. Jaxoi iqtisodiyotini tartibga solishda xalkaro tashkilotlarning roli

11.1. Xalqaro iqtisodiy tashkilotlarning tasniflanishi

Xalqaro iqtisodiy munosabatlar murakkab iqtisodiy mexanizm sifatida bir tomondan bozorga xos o‘z-o‘zini boshqarish qobiliyatiga ega bo‘lsa (XIMning moddiy asosi hali ham jahon bozori hisoblanadi), ikkinchi tomondan, ayniqsa XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab,

alohida mamlakatlar va hududlar o‘rtasida o‘zaro aloqalarni osonlashtiruvchi davlatlararo tuzilmalarni yaratishni talab etadi. Ayni paytda shuni qayd etib o‘tish kerakki, birinchi (1914-1918 yillar) va ikkinchi (1939-1945 yillar) jahon urushlari orasida xalqaro tashkilotlarni gurkirab vujudga kelish jarayoni (shu davr Xalqaro mehnat tashkiloti, o‘zining «Inkoterms» kabi tijoriy hujjatlari bilan taniqli bo‘lgan Xalqaro savdo palatasi, Xalqaro hisob-kitoblar banki tashkil etilgan) va ayniqsa 40-yillarda ikkita to‘qnashuvni boshidan kechirgan davlatlar tarixidagi favqulotda holatlar va 1929-1932 yillardagi chuqur iqtisodiy tanazzul bilan bog‘liq. Xalqaro iqtisodiy tashkilotlarning vujudga kelishining ikkinchi «to‘lqini» va harakatdagi faoliyatining faollashuvi ikkinchi jahon urushidan so‘ng mustamlakachilik tizimining parchalanishi hamda 60-70 yillardagi iqtisodiy chayqalishlar bilan bog‘liqdir. Va nihoyat, 80-yillarning boshlarida xalqaro iqtisodiy tashkilotlar faoliyatida uchinchi bosqichning boshlanganligini ko‘rishimiz mumkin. Bunga sabab sifatida totalitar tizimlarning (sobiq SSSRni) inqirozga uchrashi va yangi ming yillik ostonasida insoniyatning global muammolarini keskin kuchayishi kabilarni ko‘rsatish mumkin. Jahonining ko‘plab mamlakatlarining hukumat organlari zamonaviy xalqaro iqtisodiy munosabatlardagi muammolarni mustaqil hal eta olmadilar va natijada ular qayd etib o‘tilgan muammolarni hal etishda birgalashib harakat qilish usullarini ishlab chiqara boshladilar. Hozirgi kunda jahon iqtisodiyotida iqtisodiy rivojlanishi va jahon xalqlari farovonligini ta’minlash masalasi bilan shug‘ullanuvchi minglab xalqaro tashkilotlar hisobga olingan. Ekspertlarning fikricha jahon iqtisodiyotiga sezilarli ta’sir o‘tkaza oladigan xalqaro tashkilotlar soni 100 ta atrofidadir.

Xalqaro iqtisodiy tashkilotlarning shakllanishida muhim o‘rin tutgan quyidagi omillarni keltirishimiz mumkin:

1.Insonlar hayotining bir biriga bog‘liqligining yanada o‘sishi;

2.Sanoat revolyusiyasi va ilmiy yutuqlar insonlarni bir- biridan ajratib turgan masofalarni qisqartirishi va xalqaro munosabat va hamkorlikni kengaytirishi;

3.Savdo, valyuta-moliya munosabatlari, kapital bozori umuman iqtisodiy o‘sish;

4.Davlatlarning barcha sohada bir – birlariga bog‘liqligining o‘sishi;

5.Duyodagi umumiy resurslardan oqilona foydalanishning zarurligini chuqurroq anglash.

Davlatning xalqaro iqtisodiy tashkilotlarga a’zo bo‘lishi uning har tomonlama rivojlanish imkoniyatlarini oshiradi. Chunki xalqaro iqtisodiy tashkilotlarga a’zo bo‘lish, uning boshqa a’zo davlatlari bilan ham keng hamkorlikni yo‘lga qo‘yishni ta’minlaydi.

Xalqaro iqtisodiy tashkilotlar topologiyasi haqida gapirganda, ikkita mezondan (jug‘rofiy qamrovi kengligi va faoliyat xususiyatlari) foydalanish maqsadga muvofiqdir. Birinchisidan kelib chiqib, ikki tomonlama, hududiy va global tuzilmalar ajratib ko‘rsatiladi. Ikkinchi mezonni qo‘llagan holda maxsuslashtirilgan (sohalar bo‘yicha) va global tashkilotlarga ega bo‘lamiz.

Bularning ichida ayniqsa 1945 yilning 24 oktyabrida tashkil etilgan Birlashgan Millatlar Tashkiloti (BMT) tasarrufidagi iqtisodiy hamkorlik organlari alohida o‘ringa ega. BMT – ikkinchi jahon urushidan so‘ng Antigitler koalitsiyasi a’zolari tomonidan tashkil etilgan eng universal, obro‘-e’tiborli va son jihatdan eng yirik xalqaro tashkilot hisoblanadi.

11.2. Jahon xo‘jaligidagi global tashkilotlar. Birlashgan millatlar tashkiloti tizimi

BMT shtab-kvartirasi Nyu-Yorkda joylashgan bo‘lib, uning tarkibida 190 dan ortiq a’zo-mamlakat mavjud. BMT nizomining 1-moddasida tashkilot faoliyatining asosiy maqsadlari ichida, «iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy va gumanitar harakterdagi xalqaro muammolarni hal etishda xalqaro hamkorlik qilish» maqsadi ham etakchi o‘rinda turadi. BMT iqtisodiy sohada asosan quyidagi to‘rtta yo‘nalish bo‘yicha faoliyat olib boradi:

- global muammolarni hal etish;
- davlatlarning iqtisodiy hamkorligiga ko‘maklashish;
- mamlakatlarning iqtisodiy rivojlanishidagi uzilishlarni yengib o‘tish;
- hududiy rivojlanishni rag‘batlantirish;

Yuqorida sanab o‘tilgan yo‘nalishlarning har biri BMT muassasalarning faoliyatida axborot, texnika-maslahat va moliya sohasida hamkorliklarni ham o‘z ichiga oladi. BMT bosh va yordamchi organlari, shuningdek, 18 ta maxsuslashtirilgan institut va bir qator avtonom tuzilmalar bo‘limlari Bosh Assambleya (BA), Iqtisodiy va Ijtimoiy Kengash (EKOSOS) hamda Sekretariat hisoblanadi.

Bosh Assambleya yilida bir marta sessiya o‘tkazadi (sentyabr), bu sessiyalarning har birida rais, uning o‘rinbosarlari va asosiy qo‘mitalarning boshliqlari saylanadi. Jahon iqtisodiyotidagi asosiy masalalar ham umumiy majlislarda ham maxsus ikkinchi qo‘mita doirasida muhokama qilinadi.

BMTning iqtisodiy va ijtimoiy kengash bo‘limi (EKOSOS) 1946 yilda tashkil etilgan. 54 mamlakat uning a’zolari sanaladi va a’zolarning uchdan bir qismi (Buyuk Britaniya, Xitoy, Rossiya, AQSH va Fransiyadan tashqari) har yili uch yil muddatga qayta sanaladi. Yuqoridagi beshta davlat urush va tinchlik masalalari bilan shug‘allanuvchi Xavsizlik kengashida bo‘lgani kabi doimiy ravishda EKOSOS tarkibiga kiradi. Kengash odatda bir yilda ikki marta (ijtimoiy-huquqiy va gumanitar mavzuda, shuningdek, iqtisodiy va ijtimoiy masalalar bo‘yicha) sessiya o‘tkazadi. XIM muammolari bo‘yicha qarorlar va tavsiyalar qabul qilish huquqiga ega bo‘lgan barcha tashkilotlar faoliyatini muvofiqlashtirish mas’uliyati ham EKOSOS zimmasidadir. Bugungi kunga kelib EKOSOS oltita doimiy qo‘mita, ettinchi funksional va beshta hududiy komissiyalarni ta’sis etgan. Bulardan tashqari 18 ta maxsuslashtirilgan muassasa, Jahon oziq-

ovqat dasturi va YUNKTADG'UST Xalqaro savdo markazi ham EKOSOS patronaji ostida faoliyat olib boradi. BMTning iqtisodiy organlari tizimida uchinchi bo‘g‘in sifatida Sekretariat faoliyat olib boradi. Sekretariat bir necha bo‘limlardan (iqtisodiy va ijtimoiy masalalar bo‘yicha Departament) tarkib topgan bo‘lib, ma’muriy-ijrochi tuzilma sifatida ish olib boradi.

Jahon xo‘jaligi muammolarini hal qilishda BMTning savdo va taraqqiyot bo‘yicha anjumani (YUNKTAD) va BMTning sanoat taraqqiyoti bo‘yicha tashkiloti (YUNIDO) to‘g‘risida alohida to‘xtalib o‘tish lozim.

1964 yilning oxirida BMTning Bosh Assambleyasi xalqaro savdo bo‘yicha hamkorlikka ko‘maklashish uchun YUNKTADni ta’sis etish haqida qaror qabul qildi. Anjumanning oliy organlari to‘rt yilda bir o‘tkaziladigan sessiya va yilda ikki marta to‘planadigan Kengash hisoblanadi. Kengash nazorati ostida doimiy qo‘mitalar, vaqtinchalik ishchi guruhlari va Sekretariat faoliyat ko‘rsatadi. YUNKTADga hozirgi kunda 186 ta davlat a’zo bo‘lib, uning shtab-kvartirasi Jenevada joylashgan. YUNKTAD rahbarligi ostida o‘tkazilgan hukumatlararo maslahatlar natijasida bir qator muhim savdo bitimlari imzolandi, xom-ashyo tovarlari savdosi sohasidagi holatlarni o‘rganish uchun ekspert guruhlari tashkil etildi. Anjuman Yevropa va Amerika bozorlarida rivojlanayotgan mamlakatlarning mahsulotlari uchun maxsus imtiyozlar berish rejimini quvvatlash yo‘nalishida faoliyat ko‘rsatmoqda.

1967 yilda tashkil etilgan YUNIDO 166 ta davlatni birlashtirgan bo‘lib, uning shtab-kvartirasi Vena shahrida joylashgan. Bu tashkilotning bosh vazifasi Osiyo, Afrika, Janubiy Amerika va Okeaniyadagi kambag‘al va rivojlanish darajasi past bo‘lgan mamlakatlar guruhini iqtisodiy qoloqlikdan olib chiqish jarayonini rag‘batlantirish maqsadida BMT doirasida sanoat rivojlanishini muvofiqlashtirishdan iborat. YUNIDOning oliy organi ikki yilda bir marta chaqiriladigan Bosh Anjuman sanaladi. Boshqaruv tuzilmalari esa sanoat taraqqiyoti bo‘yicha kengash va byudjet masalalari bo‘yicha qo‘mita hisoblanadi. YUNIDO faoliyati hukumatlar va xususiy tarmoq bilan hamkorlik asosida qurilgan. Tashkilot investitsiyalar, texnik va sanoat hamkorligi masalalari bo‘yicha forumlar o‘tkazadi. Xorijiy investitsiyalarning ko‘payib borishiga, rivojlangan mamlakatlarga texnologiyalar yetkazib berishga ko‘maklashadi. Bu masalalarni amalga oshirishda YUNIDOning Sanoat va texnologik axborotlar banki (STAB) samarali faoliyat ko‘rsatmoqda.

Moliyalashtirishdagi muammolar, ortiqcha qog‘ozbozlik va qarorlarning bajarilishini nazorat qilishning kuchsizligiga qaramasdan, zamonaviy xalqaro iqtisodiy munosabatlarning rivojlanishida BMT tizimidagi iqtisodiy tashkilotlarning ahamiyati ortib bormoqda. BMTning maxsuslashtirilgan muassasalari rolining kuchayib borishida xalqaro mehnat taqsimoti tuzilmasining murakkablashuvi, axborot-texnologik ayirboshlashning yangidan-yangi

kanallarining vujudga kelishi jahon xo‘jalik hayotining jadallashuvi va shuningdek insoniyat oldida turgan jiddiy global muammolar muhim rol o‘ynamoqda.

11.3. Iqtisodiy hamkorlik va rivojlanish tashkiloti. Hududiy iqtisodiy tashkilotlar

BMT doirasiga kirmaydigan iqtisodiy tashkilotga 1961 yilda tashkil topgan, shtab-kvartirasi Parijda joylashgan Iqtisodiy Hamkorlik va Taraqqiyot tashkilotini (IHTT) kiritish mumkin. IHTT ikkinchi jahon urushidan keyin AQSHning moliyaviy yordamidan samarali foydalanish va ko‘hna qit’adagi tiklanish jarayonini muvofiqlashtirish maqsadida tashkil etilgan. Yevropa iqtisodiy hamkorlik tashkilotining vorisi hisoblanadi. «Boylar klubi», jahon iqtisodiyotining «Aql markazi» deb ataluvchi IHTT hozirgi kunda jahonning iqtisodiy jihatdan eng rivojlangan 29 ta mamlakatini o‘z tarkibiga birlashtirgan. Chunonchi, bu tashkilotga a’zo-mamlakatlar hissasiga jahon tovar va xizmatlar ishlab chiqarishning 2G’3 qismi to‘g‘ri keladi.

IHTTning oliy kengashi bo‘lib, uning tarkibiga har bir a’zo mamlakatdan bittadan vakil kiradi. Kengash a’zolar oyda bir marta Bosh kotib raisligida uchrashishadi. Bundan tashqari Kengash vazirliklar (tashqi ishlar vazirligi, moliya vaziligi, iqtisodiyot vazirligi kabilar) miqyosda yillik majlislarni ham o‘tkazib turadi. Doimiy asosda ish yurituvchi Ijroiya qo‘mitaning asosiy vazifasi IHTT faoliyatini nazorat qilish va Kengash majlislarini tayyorlashdan iborat. 200 dan ortiq qo‘mitalar, ishchi guruhlari va ekspert komissiyalarini ijtimoiy-iqtisodiy harakterda bo‘lgan keng doiradagi masalalar bilan ham shug‘ullanadi.

IHTT tuzilmasi haqida fikr bildirilganda albatta Yevropa va o‘tish davri iqtisodiyotli mamlakatlar o‘rtasida hamkorlik markazini eslatib o‘tish joizdir. Bu markaz 1990 yilda tashkil etilgan bo‘lib, IHTT va Sharqiy Yevropa mamlakatlari o‘rtasidagi aloqalarni muvofiqlashtirib turadi. IHTT faoliyatidagi eng muhim jihat - bu tashkilotga a’zo-mamlakatlar hukumatlari o‘rtasida iqtisodiy va ijtimoiy, siyosiy muammolari bo‘yicha fikr almashishni yo‘lga qo‘yishdir. Kapital va xizmatlarning erkin harakatini ta’minlash, poraxo‘rlikka qarshi kurash kabilar to‘g‘risidagi qonunlar bu say-harakatlarning samarasidir. Hozirgi kunda IHTTning amaliy vazifalari sifatida quyidagilarni keltirish mumkin:

- bolalar va ayollar mehnati, mahsulot bahosini ataylab pasaytirish kabilar g‘irrom raqobatni chegaralash yo‘llarini izlash;

- mehnatni himoyalash bo‘yicha bo‘yicha barcha mamlakatlar uchun Yagona bo‘lgan me’yoriy hujjatlar to‘g‘risida konvensiya qabul qilish;

- global miqyosda bevosita chet el investitsiyalarni berish rejimini tartibga solish (Investitsiyalar to‘g‘risida ko‘p tomonlama kelishuv loyihasi kompaniyalarga, o‘zlarini nuqtai nazaricha, hukumatning noxolis investitsion siyosati bilan tortishish imkoniyatini beradi);

- sanoat korxonalari faoliyatini ekologik jihatdan xalqaro nazoratini amalga oshirish.

Jahonda integratsion jarayonlar - YEI, NAFTA, MERKOSUR, MDH kabilar bilan to‘g‘ridan-to‘g‘ri bog‘liq bo‘lmagan o‘nlab hududiy miqyosdagi xalqaro iqtisodiy tashkilotlar mavjud. Ularning faoliyat ko‘rsatish mexanizmlarini o‘rganish maqsadida biz G‘arbiy yarim shar va Afrika qit’asidagi muhim ahamiyatga ega bo‘lgan Amerika davlatlari tashkiloti (ADT) va Afrika Birdamlik Tashkiloti (ABT) to‘g‘risida batafsil to‘xtalib o‘tamiz.

Amerika davlatlari tashkiloti (ADT) 1948 yilda Bogota shahrida (Kolumbiya) o‘tkazilgan Amerika davlatlarining 9-chi xalqaro Anjumanida tashkil etilgan bo‘lib, o‘z tarkibiga 35 davlatni birlashtirgan. Shtab-kvartirasi Vashingtonda joylashgan. Tashkilotning faoliyati nafaqat iqtisodiy, balki siyosiy harakterga ham ega. 60-yillarda «Sovuq urush» davri siyosati o‘tgach, iqtisodiy masalalar bu tashkilot faoliyatidan oldingi o‘ringa chiqdi. ADTning oliy bosh organi Bosh Assambleya hisoblanadi, yilda bir marta chaqiriladigan sessiyalarda eng jiddiy masalalar bo‘yicha qarorlar qabul qilinadi. Doimiy Kengash tashkilotning barcha joriy faoliyatiga rahbarlik qiladi va nazoratni amalga oshiradi, shuningdek, doimiy qo‘mitalar va ishchi guruhlarga tayangan holda Bosh Assambleyaning sessiyalarini tayyorlaydi. A’zo mamlakatlar o‘rtasida hamkorlikni rivojlantirishga ko‘maklashishga qaratilgan Amerika davlatlararo iqtisodiy va ijtimoiy kengashi ham muhim ahamiyat kasb etadi.

1994 yilda Amerika qit’asidagi 34 mamlakat (Kubadan tashqari) davlat va hukumat rahbarlarining uchrashuvda «taraqqiyot va rivojlanish» maqsadida hamkorlik tamoyillari: demokratiya, erkin savdo va amerikada barqaror rivojlanish to‘g‘risida dekloratsiya» qabul qilindi. Ushbu anjuman qatnashchilari kelajakda - 2005 yildan so‘ng Panamerika erkin savdo hududini tashkil etishga qaror qilishdi. Afrika Birdamlik Tashkiloti 1963 yilda Addis-Abeba shahrida (Efiopiya) o‘tkazilgan Afrika davlatlari rahbarlarining bu tashkilotning shtab-kvartirasi ham shu shaharda joylashgan bo‘lib, unga Afrikaning deyarli barcha davlatlari a’zo bo‘lgan (Marokashdan tashqari). ABT faoliyati ADTdagi kabi kompleks harakatiga ega, iqtisodiy masalalar hamisha boshqaruv tuzilmalari diqqat markazida turadi. ABTning oliy organi Davlat va hukumat rahbarlari Assambleya hisoblanib, u yilda bir marotaba sessiyalar o‘tkazadi. Tashkilotning boshqa muassasalari ichida Afrika davlatlarining iqtisodiy rivojlanishiga ko‘maklashish yuzasidan bevosita mas’ul bo‘lgan Iqtisodiy va ijtimoiy komissiya sezilarli mavqega ega.

ABT hududiy siyosatiga tavsif berganda, 1991 yilda a’zolar-mamlakatlar tomonidan qabul qilingan Afrika iqtisodiy hamjamiyatini tashkil etish to‘g‘risidagi bitimni eslatib o‘tish kerak. Bu jarayonning umumiy davomiyligi 34 yilga mo‘ljallangan bo‘lib, u olti bosqichdan iborat. Xullas, jahon iqtisodiyotidagi ushbu hududiy iqtisodiy tashkilotlar global miqyosdagi tuzilmalar bilan birgalikda mamlakatlarga milliy chegaralanganlikni engib o‘tish, xo‘jalik aloqalarini

jadallashtirish va XX-XXI asrdar bo‘sag‘asida insoniyat duch kelayotgan juda ko‘p muammolarni hal etish uchun harakatlarni birlashtirish imkonini beradi.

Shunday qilib, jahon iqtisodiyotida faoliyat ko‘lami va sohasi turli tuman muassasalarni o‘z ichiga oluvchi xalqaro iqtisodiy tashkilotlar XIM tizimida vaqt o‘tgan sayin yanada ahamiyatliroq bo‘lib bormoqda. Xalqaro iqtisodiy tashkilotlar ichida BMT tizimiga kiruvchi tuzilmalar (EKOSOS, YUNKTAD, YUNIDO va boshqalar) markaziy o‘rinni egallaydi. BMB doirasidan tashqari juda ko‘p nufuzli, obro‘li global va hududiy miqyosdagi tashkilotlar ham mavjud bo‘lib, ushbu tashkilotlar jahon iqtisodiyotida keng doirada faoliyat ko‘rsatmoqda.

11.4. Jahon savdo tashkilotining jahon xo‘jaligidagi rivojlanish yo‘nalishlari va uni mamlakatlar iqtisodiyotida ahamiyati

Jahon savdo tashkiloti (JST) 1995 yilning 1 yanvarida tashkil topdi. JST ko‘p tomonlama savdo tizimlarining huquqiy va institutsional asosidir. U muhim shartnoma majburiyatlarni ta’minlaydi. Bu shartnoma majburiyatlari hukumatlarga ichki qonunchilikni shakllantirish va amalga oshirishda, shuningdek tashqi savdoni boshqarishni aniqlab beradi. JST 1947 yilda tashkil topgan va 1948 yilning 1 yanvaridan kuchga kirgan Tariflar va savdo bo‘yicha bosh kelishuv (GATT)ning davomchisi hisoblanadi. JST kelishuvi xalqaro savdoning yangi qonuniyatlarini, Urugvaydagi ko‘p tomonlama muzokaralar jarayonida erishilgan bitimlarni umumiy idoraga jamlashni qamrab oladi. Bu qoidalar GATT doirasida 125 ta mamlakat ishtirokida etti yil davom etgan va 1993 yilning 15 dekabrida Urugvayda tugagan ko‘p tomonlama muzoqaralar natijasidir. Vazirlar 1994 yil aprelda Marokashdagi majlisda yakunlovchi aktni imzoladilar. 15 apreldagi “Marokko deklaratsiyasi” shuni tasdiqladiki, Urugvay raundi natijalari jahon iqtisodiyotini mustahkamlab, savdo va kapital qo‘yilmalarini, bandlikni liberallashtirib, butun jahonda tushumlarni ko‘payishga olib keladi. GATT-JSTning qismi sifatida quyidagi asosiy qoidalarga ega:

1. Tariflar orqali milliy iqtisodiyotni himoyalash. GATT erkin savdo bilan shug‘ullansa ham JSTga a’zo mamlakatlari o‘zlarining milliy sanoatini tashqi raqobatdan ximoya qilish huquqiga egaligini tan oladi. Biroq , GATT mamlakatlardan tariflar orqali himoya qilishni talab etadi. Bu tamoyilni amalda bajarilishini ta’minlash uchun GATT qonun-qoidalariga ko‘ra bir necha istisnolar bo‘yicha miqdoriy cheklovlardan foydalanish man etildi.

2.“Tariflarni aloqalash”. Davlatlar ko‘p tomonli savdo kelishuvlari orqali milliy sanoatni qo‘llab-quvvatlashni kamaytirishi, iloji bo‘lsa, tariflarni kamaytirib, boshqa savdo to‘siqlarini olib tashlashi kerak. Tariflar ma’lum darajada kamayib “aloqa”ga kirmoqda. Aloqaga kirishish shuni bildiradiki, aniq bir mahsulotni munosabatga kirishishdagi tarif darajasi JST a’zosining

majburiyatidir va asosiy savdo sherigi bilan kompensatsiya haqidagi kelishuvsiz tarifni oshira olmaydi.

3.“Eng qulay rejim. ”GATT ning ushbu qonuni ajratmaslik prinsipi hisoblanadi. Qonunda ta’kidlanishicha, eksportyor va importyor davlatlarga o‘zgartirilgan tarif va boshqa me’yorlar BSTning a’zosi bo‘lgan boshqa davlatlarga ham kamsitishlarsiz qo‘llanilishi kerak. Hech qanday davlat boshqasiga alohida savdo foydasi yoki kamsituvchi choralar qo‘ya olmaydi. Hamma bir xil darajada va hamma savdo to‘siqlarini tushirish maqsadidagi barcha choralardan foyda oladi.

4. “Milliy rejim”.Agar afzal ko‘rilgan davlatlarda kamsitish man qilingan bo‘lsa, “Milliy rejim” qoidasida esa bozorga chiqarilgan tovarlar davlat ichida ishlab chiqarilgan ekvivalent tovarlar bilan bir xil shart-sharoitda amalga oshirilishi kerak.

Jahon Savdo Tashkilotiga a’zo bo‘lish jarayoni qiyin va uzoq vaqtni talab qiladi. Birinchi bosqichda JSTga qo‘shilishni xohlovchi davlatlarning hukumat boshliqlari JSTda kuzatuvchilik huquqini beruvchi ariza beradi. Bunda hukumat JSTga yuboruvchi o‘z memorandumida mamlakatning savdo va iqtisodiy siyosatini to‘liq qamrab olgan aspektlarni taqdim etadi. Bu memorandum qo‘shilish to‘g‘risidagi so‘rovlarni to‘liq o‘rganish uchun asos bo‘ladi. Shundan so‘ng JSTga ariza beruvchi davlatlar bo‘yicha ishchi guruh tuziladi.

Ishchi guruh yigilishlarida ariza bergan hukumat tovar va xizmatlar savdosiga nisbatan o‘z huquq va majburiyatlarini aniqlab olishlari maqsadida qiziquvchi a’zo-mamlakatlar hukumatlari bilan ikki va ko‘p tomonlama muzokaralar olib boradi. Muzokaralar natijasida JSTga kirayotgan davlat tovarlar va xizmatlar savdosi bo‘yicha bajarishi lozim bo‘lgan va o‘zgartirilmaydigan aniq bir tariflar beradi. Ariza beruvchi davlatning savdo rejimini o‘rganish va bozorga kirishga imkon beruvchi muzoqaralar tuzish bilan ishchi guruh asosiy qo‘shilish shartlarini ishlab chiqadi va yig‘ilish natijasiga ko‘ra JSTga kirayotgan davlat to‘g‘risida qaror tayyorlaydi va bu hujjatlar bosh kengash yoki vazirlar konferensiyasida tasdiqlash uchun taqdim etiladi. Qo‘shilish to‘g‘risidagi qaror JST a’zolarining 2G’3 qismi ovoz bergan taqdirda imzolangan hisoblanadi. JSTga a’zo bo‘lgan davlat Urugvay raundi qamrab olgan bitimlarni qabul qilishi va amalga oshirishi kerak bo‘ladi.

Urugvay raundi yangi ko‘p tomonlama savdo tizimi tashkil topishida muhim rol o‘ynaydi. 1994 yilning 15 aprelida Marokashda (Marokko) 125 ta a’zo-mamlakatlarning vazirlari Urugvay raundi quyidagi tizimlardan tashkil topganligini tasdiqlovchi bitimni imzoladilar.

Jahon Savdo Tashkiloti to‘g‘risida Marokash bitimi.

- Tovarlar savdosi
- Xizmatlar savdosi

Tariflar va savdo (GATT-1994) bo‘yicha bosh bitim va u bilan bogliq bo‘lgan bitimlar quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

O‘zaro yuk tashish inspeksiyasi bo‘yicha bitim	PSI
Texnik barterlar va savdo bo‘yicha bitim	TBT
Sanitar va fito sanitar holat bo‘yicha bitim	SPS
Investitsiya savdo aspektlari holati bo‘yicha bitim	TRIMS
To‘qimachilik va kiyim-kechak bo‘yicha bitim	ATC
Qishloq xo‘jaligi bo‘yicha bitim	
Qoidalarning kelib chiqishi bo‘yicha bitim	

- Xizmatlar savdosi. Xizmatlar savdosi bo‘yicha bosh bitim (GATS)
- Intellektual resurslar huquqi (IPRS). Intellektual resurslar savdosi bo‘yicha bitim o‘z navbatida:

  - Chegaralangan ishtirokchilar soniga ega sektorial savdo bitimga.
  - Fuqaro aviatexnikasi bo‘yicha bitimga.
  - Davlat xaridorlari to‘g‘risidagi bitimlarga bo‘linadi.

2001 yilning noyabrida Doxa shahrida (Qatar) JSTning 4-vazirlar konferensiyasi bo‘ldi. Uning natijasida “Doxa taraqqiyot tartibi” savdo muzoqaralarining yangi raundi bosqichi to‘g‘risida qaror qabul qilindi. Konferensiyada dunyo savdo tizimining liberalizatsiyasi bo‘yicha qo‘yidagi asosiy mavzular- xizmatlar, sanoat mollari savdosi tariflari, intellektual mulk huquqining savdo tomonlari, qishloq xo‘jaligida ichki qo‘llab-quvvatlash va eksportga subsidiyalar berish, “Singapur muammolari”, savdo va investitsiya, raqobat borasida siyosat, davlat xaridlarida transparentlik, savdo hamkorligi, savdo va atrof-muhit muammolari kabi mavzular ko‘rib chiqildi. Bu muammolar bo‘yicha turli qarashlar konsepsiyasi bilan bog‘liq bo‘lgan jahonning 148 mamlakatni savdo vazirliklari 2003 yilning 10-14 sentyabrida Meksikaning Kankun shahrida bo‘lib o‘tgan JSTning 5-vazirlar konferensiyasi chog‘ida savdo tizimini erkinlashtirish bilan bog‘liq bo‘lgan Yagona fikrga kela olmadilar.

11.5. JSTning tashqi savdo operatsiyalarini tartibga solish uslublari

Jahon amaliyotida tashqi savdo operatsiyalarini tartibga solishni tarif va notarif uslublari mavjud bo‘lib, ularni qay me’yorda va qay ko‘lamda qo‘llanilishi har bir davlatning tashqi iqtisodiy siyosati va tashqi iqtisodiy faoliyatidagi asosiy yo‘nalishlari bilan belgilanadi. JST talablariga ko‘ra barcha tashqi savdo operatsiyalari imkon qadar tariflar yordamida, ya’ni bojxona bojlari asosida tartibga solishi maqsadga muvofiq.

JST tashkil etilgunga qadar GATT 1960-yillar oxirlarida notarif uslublarni tashqi savdo operatsiyalarini tartibga solishda qo‘llanilishi “xalqaro savdoni erkin oqimiga to‘sqinlik qiluvchi,

tarifdan o‘zga barcha choralar”-deb e’tirof etgan. Ularni turkumlash va tegishli guruhlarga ajratish bo‘yicha hozirgi kungacha xalqaro miqyosda kelishilgan va tasdiqlangan umumiy bir qoida yo‘q. SHu tufayli tashqi savdoni davlat tomonidan notarif uslublar asosida tartibga solishda xalqaro (universal) me’yoriy hujjat mavjud emas.[56]

JST, xalqaro savdo palatasi, BMTning savdo va rivojlanish bo‘yicha Konferensiyasi, Jahon taraqqiyot va tiklanish banki, AQSH tarif komissiyasi hamda turli olimlarning notarif uslublarini turkumlashga o‘zgacha yondashuvlari mavjud. BMTni savdo va rivojlanish konferensiyasi tashqi savdodagi notarif uslublarni (notarif cheklovlarni) quyidagi turkumlarga bo‘ladi va u umuman olganda JSTning turkumlashiga mos keladi:

a) paratarif uslublar

b) narxlarni nazorat etish choralari

c) moliyaviy choralar

d) miqdoriy nazorat choralari (kvotalash)

e) avtomatik litsenziyalash choralari

f) monopolistik choralar

j) texnik choralar

Paratarif uslublar o‘z mazmuniga ko‘ra tegishli davlat hududida xorijiy tovarlarni kiritish chog‘idan bojxona bojlaridan tashqari mavjud bo‘lgan barcha to‘lovlar, soliqlar, aksizlardan tarkib topgan bo‘lib, bojxona yoki boshqa savdoni nazorat etuvchi organlar tomonidan undiriladi. Bir ko‘rishdan ular bojxona bojlari singari qo‘llanilsada, iqtisodiy mazmuniga ko‘ra notarif uslublar sanaladi. Masalan, qo‘shimcha qiymat solig‘i (QQS), aksizlar, bojxona undiruvlari, ichki soliqlar, maxsus maqsadli to‘lovlar. Ular ichida QQS, aksizlar juda keng qo‘llanilsada, ayrim davlatlarda esa o‘zgacha tarzdagi to‘lovlar, soliqlar tarzida belgilangan.

Masalan, Avstriyada “Eksportni rivojlantirish fondiga yig‘im”, Daniyada “Atrof muhit himoyasi uchun yig‘im”, Shvetsiyada “O‘simliklarni himoyalash uchun soliq”, Finlandiyada “Chiqindilarga kurash uchun yig‘im” va boshqa shu kabi yig‘im va soliqlar shular jumlasidandir. Umuman olganda paratarif uslublar tegishli mamlakatning yalpi bojxona rejimiga bilvosita ta’sir o‘tkazadi.

Narxni nazorat etish choralari-import qilinayotgan tovarlar narxini sun’iy kamaytirishiga yoki eksportyor davlatdagi eksport subsidiyalariga qarshi belgilangan barcha turdagi chora tadbirlarni o‘z ichiga oladi. Bu holat ko‘pgina importyor davlatlarga jahon eksport narxlaridan past narxlarda tovarlar kiritilishida uchraydi va antidemping to‘lovlari (poshlinalarni) qo‘llanilishini keltirib chiqaradi.

---

[56] Nazarova G.G., Xalilov X.X. va boshqalar “Jahon iqtisodiyoti” T. “RAM-S” : MCHJ, 2007 y.

GATTning 1994 yillarda qabul qilingan VI-moddasiga (odatda u “Antidemping Kodeksi” deb ataladi) ko‘ra, dastlab demping holatini (faktini) aniqlash uslubi orqali antidemping to‘lovlari (poshlinalarni) qo‘llash yuridik jihatdan asoslanishi lozim. Shundan so‘ng, antidemping to‘lovlarni (poshlinalarni) qo‘llash uchun tegishli tekshiruvlar o‘tkaziladi va u haqiqatda importyor davlatning tegishli tarmog‘i uchun moddiy zarar etkazganligini aniqlash kerak.

Ko‘plab davlatlar o‘rtasidagi savdo-sotiq operatsiyalarida antidemping tekshiruvlari tahlili shuni ko‘rsatadiki, ko‘pgina holatlarda “dempingdagi ayblov” to‘liq isbotlanmay qoladi. Lekin, ushbu tekshiruvlarni boshlanish jarayonining o‘zi davlatlar o‘rtasidagi savdo-sotiq munosabatlariga, ayniqsa yirik eksportyor va importyor tashkilotlar o‘rtasiga sovuqchilik tushiradi.

Bundan tashqari, ko‘p davlatlar eksportga ko‘mak berish maqsadida dotatsiyalar, soliq imtiyozlari, imtiyozli tariflar va boshqa turdagi moliyaviy vositalar bilan protensionistik siyosati tadbirlarini amalga oshiradilar. “Yangi proteksionizm” deb nom olgan ushbu choralarni qo‘llash tartibi JST doirasida qabul qilingan “Subsidiyalar va kompensatsion poshlinalar to‘g‘risidagi Bitim”da o‘z aksini topgan.

Moliyaviy choralar- valyuta operatsiyalarini amalga oshirishning o‘ziga xos qoidalari tarzida tashqi savdo aloqalarida qo‘llaniladi. (Masalan, tashqi savdo operatsiyalaridan olingan valyuta tushumining bir qismini albatta sotish tartibi).

Miqdoriy nazorat choralari (kvotalash) tegishli mamlakatga muayyan tovarlarni kiritish va chiqarishdagi miqdoriy chegaralarni qo‘llanilishida o‘z ifodasini topadi.

GATTning 1994 yilda qabul qilingan hujjatlarida miqdoriy choralarni amaliyotda qo‘llanilishidan voz kechish-jahondagi tegishli iqtisodiy munosabatlarni erkinlashtirish omili sifatida belgilangan bo‘lsada, u yoki bu tovar bo‘yicha miqdoriy cheklovlarni qo‘llashga ruxsat etilgan. Shu tufayli, ko‘pgina davlatlar, mamlakatning to‘lov balansida muvozanatni saqlash, ichki bozordagi raqobatni ta’minlash maqsadlarida miqdoriy cheklov (kvotalash) choralarini qo‘llaydilar. Ko‘p hollarda u import qilinayotgan tovarning fizik miqdori bo‘yicha cheklov, (xususan tonna, dona, metr va h.k.) yoki tovarlar guruhi bo‘yicha pul miqdoridagi cheklov (masalan, 5 mln. AQSH dollari hajmida) belgilandi.

Avtomatik litsenziyalash choralari, tegishli tovarni mamlakatga kiritish va chiqarishda muayyan hujjat-litsenziyaning mavjud bo‘lishini talab etadi. Litsenziyalash kiritilishi bilan tovarlar savdosini monitoring qilish, kuzatish imkoni vujudga keladi. Odatda litsenziyalashning avtomatik tarzda amalga oshirilishi ko‘pgina davlatlar tajribasida keng qo‘llanildi. JST doirasida “Importni litsenziyalash tadbirlari to‘g‘risidagi Bitim” (Importni litsenziyalash Kodeksi) mavjud

bo‘lib, u import litsenziyalarini berishdagi rasmiyatchiliklarni soddalashtirish va unifikatsiyalashtirishga qaratilgan.

Monopolistik choralar tarkibiga davlatning rivojlanish bosqichida ichki va tashqi savdo tizimini davlat qo‘lida saqlanishiga oid bo‘lgan tashkiliy jarayonlar kiradi. Tashqi savdoga davlat monopoliyasi u yoki bu tovar guruhiga yoki barcha tizimga ham ta’luqli bo‘lishi mumkin. Bunda ushbu tadbirlar ma’naviy asoslar, sihat-salomatlikni saqlash (masalan, alkogol va tamaki mahsulotlariga nisbatan), aholini uzluksiz dori-darmon bilan ta’minlash, oziq-ovqat bo‘yicha xavfsizlik (masalan, don mahsulotlariga nisbatan), sanitariya-veterinariya nazoratini kuchaytirish maqsadlarida (masalan, oziq-ovaqat va go‘sht mahsulotlariga nisbatan) qo‘llanilishi mumkin.

GATTning 1994 yilgi Bosh Bitimning XVII-moddasi tashqi savdoda monopolistik choralar qo‘llanilishini nazarda tutadi va davlat savdo korxonalarining unda faoliyat yuritishini man etmaydi. Lekin, ular o‘z faoliyatida diskriminatsiyaga yo‘l qo‘ymasliklari va tijorat prinsiplari asosida sifat va narx bo‘yicha mutanosiblikni ta’minlashlari zarurligi alohida ta’kidlab o‘tilgan.

Texnik choralar yoki texnik bare’rlar. Import qilayotgan mamlakat o‘z milliy standartlari asosida xavfsizlik va tovarlar sifatini nazorat etish maqsadida ushbu notarif uslubdan foydalandilar. Ushbu turkumga cheklovlar muayyan bir standartlar tarzida bo‘lib, eksport qilinayotgan tovarlar sifatini ta’minlash, ishlab chiqarish texnologiyasini takomillashtirish, insonlar hayoti va xavfsizligini ta’minlash, atrof muhit himoyasi, milliy xavfsizlik nuqtai nazaridan asoslangan bo‘lishi lozim.

JST doirasida savdoda texnik barerlar to‘g‘risidagi Bitimga asosan har qanday davlat majburiy texnik standartlarini belgilashi mumkinligi ta’kidlab o‘tilgan. Xususan, u tovarlarni qadoqlanishi, markirovkasiga ham tegishli bo‘lishi mumkin. Amalda qo‘llanilayotgan texnik barerlar texnik standartlar tarzida mahsulot sifatining texnik me’yorlarini (masalan, elektr toki quvvati, kuchlanishi, mahsulotning milliy o‘lchov birliklar tizimiga mosligi, ekologik zararsizligi va h.k. talablar) ifodalaydi. Tashqi savdoda texnik barerlarni qo‘llayotgan davlatlar xalqaro standartlar asosida uni belgilashlari yoki nima asosida kiritilayotganliklari haqida JST sekretariatiga xabar berishlari lozim.

Tashqi savdo operatsiyalarini tartibga solishda asosiy o‘rinni tarif uslublari xususan, import bojxona tarifi egallaydi. o‘z tabiatiga ko‘ra import bojxona tariflari bir-biriga bog‘langan to‘rt asosiy elementdan tarkib topadi:

- mamlakatga kiritiladigan tovarlar turkumining (nomenklaturasi) tizimga solingan tarkibi. Odatda u Bojxona hamkorligi Kengashi tomonidan ishlab chiqilgan va JSTG’GATT tizimida tan olingan “Tovarlarni tavsiflash va kodlashtirishning muvofiq tizimi” (ingl. Harmonised Commodity Description and Coding System) asosida amalga oshiriladi. Ko‘pgina

hollarda u sodda tarzda “Tashqi iqtisodiy faoliyat tovar nomenklaturasi” (ruscha, odatda. TN VED) deb ataladi;

- bojxona qiymatini aniqlash uslublari va bojlar undirish tartibi. U tegishli davlatning Bojxona Kodeksi va Boj tariflari to‘g‘risidagi qonun va hukumatning maxsus qarorlari asosida amalga oshiriladi;
- bojlarni kiritish va bekor qilish mexanizmi (tartibi). Bu elementlar ham Bojxona kodeksi, Boj tariflari to‘g‘risidagi qonun hamda hukumat yoki qonun chiqaruvchi organlarning maxsus qarorlari asosida amalga oshiriladi;
- tovarlarni kelib chiqish mexanizmini aniqlash qoidalari. JSTG’GATT hamda xalqaro bojxona tashkiloti yo‘riqnomalari, tavsiyalari asosida tovarga qaysi manzilda ko‘proq qo‘shimcha qiymat qo‘shilganligiga asoslanib, unga asosiy ishlab chiqarilgan davlat manzilini belgilash.

Shunday qilib, tashqi savdoni tartibga solish uslublari o‘ta murakkab va o‘zaro bog‘liq bo‘lgan qoida va tartiblar bilan bir qatorda, turli yo‘nalishdagi choralarni o‘z ichiga oladi. Tashqi savdoda tarif va notarif uslublarni qay me’yorda qo‘llanilishi tegishli mamlakatning tashqi savdo siyosatiga bog‘liq.

Tayanch iboralar: Xalqaro iqtisodiy tashkilotlar, tashkilotlar tasnifi, Birlashgan millatlar tashkiloti, Butunjahon savdo tashkiloti, xalqaro tashkilotlarning iqtisodiy roli.

Bobning qisqacha xulosasi:

Jahon iqtisodiyotida xalqaro tashkilotlarning o‘rni juda muhim sanaladi. Chunki ular o‘zlari tarkibida turli guruh va davlatlarni birlashtirar ekan umumiy maqsadlarni ko‘zlagan holda harakatlanish imkonini beradi. Shuningdek xalqaro tashkilotlar jahon xo‘jaligini hamkorlikda tartibga solish va muvofiqlashtirishga xizmat qiladi. Hozirda duyoda sezilarli mavqega ega bo‘lgan 100 dan ortiq xalqaro tashkilotlar mavjud bo‘lib, ulardan asosiylari sifatida BMT tizimidagi xalqaro tashkilotlar, Butunjahon savdo tashkiloti, yirik xalqaro bank va moliyaviy tashkilotlar (XVF, JB, ETTB, OTB, ITB) hamda nodavlat va nohukumat tashkilotlarni keltirish mumkin.

Nazorat uchun savollar:

1.Xalqaro iqtisodiy tashkilotlar qanday tasniflanadi?

2.BMT va BMT tizimidagi tashkilotlarning jahon xo‘jaligidagi roli qanday?

3.Xalqaro hududiy tashkilotlar va ularning funksional vazifalari nimalardan iborat?

4.JSTga a’zo bo‘lish bosqichlarini xarakterlab bering.

12- mavzu. Jaxon xo'jaligining globallashuv jarayonlarida O'zbekistonning ishtiroki

Ko'rib chiqiladigan asosiy savollar:

1. O'zbekistonning iqtisodiy salohiyati va imkoniyatlari.
2. O'zbekiston Respublikasining jahon mamlakatlari bilan iqtisodiy aloqalarining rivojlanishi.
3. O'zbekiston Respublikasi iqtisodiyotida xalqaro iqtisodiy tashkilotlar bilan hamkorlikning ta'siri.

Mavzuga oid tayanch tushuncha va iboralar: tashqi savdo, ikki tomonlama va ko'p tomonlama iqtisodiy munosabatlar, JSTga a'zo bo'lish, xalqaro moliya-kredit tashkilotlari bilan iqtisodiy munosabatlar.

Mavzuda ko'rib chiqiladigan muammolar:

1. O'zbekistonning iqtisodiy salohiyati va imkoniyatlarini siz qanday izohlaysiz?
2. O'zbekiston Respublikasining jahon mamlakatlari bilan iqtisodiy aloqalarining rivojlanishi siz qanday izohlaysiz?
3. O'zbekiston Respublikasi iqtisodiyotida xalqaro iqtisodiy tashkilotlar bilan hamkorlikning ta'sirini siz qanday izohlaysiz?

12.1. O'zbekistonning iqtisodiy salohiyati va imkoniyatlari

Bugungi kunda mamlakatimiz ulkan territoriyaga, ko'p millionli aholiga, turli-tuman resurslarga ega bo'lsada, u boshqa mamlakatlar bilan doimiy va belgilangan iqtisodiy aloqalarga ega bo'lmasdan turib, yakka holda rivojlanishning yuqori cho'qqilariga erisha olmaydi.

O'zbekistonning jahon xo'jalik aloqalariga qo'shilish jarayoni ob'ektiv tuzilmaviy shart-sharoitlar etilgan va tashqi iqtisodiy aloqalarning xo'jalik mexanizmi isloh qilina borgan sari bosqichma-bosqich rivojlanmoqda.

Milliy iqtisodiyotning jahon xo'jaligiga munosib tarzda kirib borishiga yo'naltirilgan strategiya respublikaning iqtisodiy salohiyatiga asoslanishi real vaziyatidan kelib chiqqan holda tug'iladi va u davlatimizni siyosiy-iqtisodiy rivojlantirishning asosiy maqsadlariga erishishga qaratilgan.

Jahon xo'jalik aloqalarining moddiy-ashyoviy asoslarini u yoki bu mintaqaviy guruhlar yoxud ittifoqlarga birlashgan mamlakatlarning integratsiyaviy salohiyati tashkil qiladi.

Mamlakatning integratsion salohiyati deganda, fikrimizcha, xalqaro iqtisodiy integratsiyaning alohida tomonlari-sub'ektlari amalga oshiradigan xalqaro ishlab chiqarish-iqtisodiy hamkorlik va almashuv predmeti bo'lgan milliy tabiiy, mehnat, ishlab chiqarish, moliya-kredit, savdo resurslari, ilmiy xodimlar va odamlarning aqliy qobiliyati majmuini tushunish zarur. O'zbekistonning integratsion aloqalarini jadallashtirishga xizmat qiladigan omillar va sharoitlar orasidan respublika integratsion salohiyatining quyidagi aniq-ravshan ustunliklarini sanab o'tish mumkin: - O'zbekistonning Yevroosiyo qit'asidagi qulay geostrategik joylashuvi;

- yer, mineral-xom ashyo va o'simliklarning ancha katta zahirasi, shuningdek, qishloq xo'jaligini rivojlantirish uchun qulay bo'lgan tengi yo'q tuproq-iqlim sharoitlari;

- muhim tashqi savdo va eksport salohiyati;

- tegishli davlatlararo kooperatsiyalashuv va birgalikdagi investitsiyalar mavjud bo'lganda ancha qisqa muddatlar ichida tayyorgarlikning yuqori darajasiga ega raqobatbardosh mahsulot ishlab chiqarishni tashkil qilishga imkon beradigan yirik ishlab chiqarish salohiyati;

- insonlar salohiyati, tez ko'payib borayotgan mehnat resurslari, shuningdek, nisbatan arzon (jahon miqyosida olib qaraganda) ish kuchining mavjudligi;

- rivojlangan ishlab chiqarish infratuzilmasi, birinchi navbatda respublikani MDHning boshqa mintaqalari bilan bog'lab turadigan, avtomobil va temir yo'l magistrallari, telekommunikatsiya tizimining mavjudligi;

- respublikada chet el kapitalini investitsiya qilish, o'zaro foydali tashqi iqtisodiy va integratsion hamkorlikning yaxshi kafolati bo'lgan barqaror siyosat.

Yuqorida ko'rsatilgan pozitsiyalar bo'yicha milliy iqtisodiyotning bozor iqtisodiyotiga o'tayotgan sharoitida mamlakat integratsiyaviy salohiyatidan samaraliroq foydalanish uchun bu salohiyatning hozirgi holatiga baho berish kerak.

Birinchi navbatda, bu potensialning tarkibiy qismlari bo'lgan geostrategik joylashuv, tabiiy-xomashyo va mehnat resurslari, shuningdek eksport imkoniyatlari kabilarni tavsiflash lozim.

Respublika noyob tabiiy boyliklarga, qudratli iqtisodiy va ilmiy-texnikaviy, aqliy va ma'naviy salohiyatga ega. Tarixning o'zi O'zbekistonning o'rnini G'arbni Sharq bilan, Janubni Shimol bilan bog'laydigan Yevroosiyo yo'llari chorrahasida belgilagan. Bizning Respublikamiz Yevroosiyo iqtisodiy va madaniy ko'prigi bo'lib xizmat qilishi mumkin. Bu ko'prik doirasida tovarlar, texnologiyalar, sarmoyalar va madaniy qadriyatlarning xarakati va almashuvi uchun yaxshi sharoit yaratilgan.

34 milliondan ortiqrok aholisi bo‘lgan O‘zbekiston jo‘g‘rofiy jihatidan ham, siyosiy jihatidan ham Markaziy Osiyoning o‘zagini tashkil etadi. Dunyodagi eng qadimiy sivilizatsiyalardan biri mana shu mintaqada paydo bo‘lgan. Qadim zamonlarda Buyuk Ipak yo‘li shu erdan o‘tgan. Xalqimizning tarixi o‘z ildizlari bilan asrlarga borib taqaladi va uch ming yildan ko‘proq davrni o‘z ichiga oladi. Qadimiy Turon, Movarounnaxr, Turkiston hududida ravnaq topgan davlatlar jahon madaniyatini rivojlantirishda yorqin iz qoldirgan.

Toshkent, Samarkand, Buxoro, Xiva shaharlari juda qadim zamonlardan dunyoga mashhur bo‘lgan. Qadimgi asrlarda bu shaharlar Xitoydan Ispaniyagacha, Yevropadan Hind okeanigacha aloqa bog‘lagan, Bundan ko‘rinib turibdiki, o‘tmish ajdodlarimiz azaldan tashqi dunyo xalqlari bilan har taraflama xalqaro aloqalarni rivojlantirib kelgan.

O‘zbekistonning xalqaro mehnat taqsimotida ishtirok etishi va uning jahon xo‘jaligi tizimiga integratsiyalashuvi, o‘z navbatida uning salohiyati, dunyoda tutgan mavqei bilan xarakterlanadi.

O‘zbekiston tabiiy resurslarga boy o‘lka. Mamlakat hududida 2 2700 dan ortiq foydali qazilma boyliklari koni mavjud, ulardan 900 ga yaqini o‘zlashtirilgan.

O‘zbekistonning kelajagi qimmatbaho qazilma boyliklari, rangli va noyob metallar, organik yonilg‘ilarning barcha turlari - neft, tabiiy gaz va gaz kondensati, ko‘mir, uran, qurilish materiallarining ko‘plab turlari va boshka konlarni o‘zlashtirish bilan bog‘liq.

Qator foydali qazilmalar - oltin, tabiiy gaz, volfram, kaliy tuzi, fosforitlar, kaolinlarning aniqlangan zahiralari va istiqbolli loyihalari bo‘yicha O‘zbekiston nafaqat MDHda, balki dunyo miqyosida ham yetakchi o‘rinlarni egallaydi.

O‘zbekiston kazib olinadigan oltinning umumiy xajmi bo‘yicha dunyoda sakkizinchi o‘rinni, uni aholi jon boshiga ishlab chikarish bo‘yicha esa beshinchi o‘rinni egallaydi; respublika 30 ga yaqin oltin konlar aniqlangan. Muruntog‘dagi oltin konlarini (miqdori va sifati bo‘yicha) Kolondayk (AQSH), Vitvatersrand (JAR), Kolar (Hindiston) singari jahondagi eng yirik konlar bilan bir qatorga qo‘yish mumkin. Mustaqillik sharofati tufayli, oltin zahiralarini o‘zi tasarruf etish imkoniyatiga ega bo‘lgan O‘zbekiston, jahon oltin bozorida ham teng huquqli hamkor bo‘la olishi mumkin.

Butun Markaziy Osiyo mintaqasi bo‘yicha gaz kondensati zahiralarining 74 %, neftning 31 %, tabiiy gazning 40 %, ko‘mirning 55 %i O‘zbekiston hissasiga tog‘ri keladi. Tabiiy gaz qazib olish bo‘yicha respublika MDH mamlakatlari ichida uchinchi o‘rinda va dunyodagi bu sohaning kuchli yetakchi 10 mamlakatlari qatorida turadi.

O‘zbekiston Markaziy Osiyoda va MDH doirasida paxta etishtiruvchi asosiy mamlakat bo‘lib hisoblanadi. Agar butun Markaziy Osiyo mamlakatlari 2 mln. tonna paxta tolasi etishtirsa,

uning 1,4 mln. tonnasi o‘zbek tolasidir. O‘zbekiston paxta tolasi etishtirish bo‘yicha dunyoda turtinchi o‘rinda, uni eksport qilish bo‘yicha esa ikkinchi o‘rinda turadi.

O‘zbekiston gaz uzatish tizimi MDH davlatlarining Yagona gazquvur tizimiga kiradi. U Markaziy Osiyo, Rossiya va Ukraina kabi Yevropa davlatlariga gaz uzatish texnik imkoniyati bilan birgalikda 9 ta bosh gaz transport tarmog‘i nafaqat O‘rta Osiyo uchun, MDHning Yevropa qismi davlatlari va Kavkazorti uchun ham umumdavlat ahamiyatiga ega.

Respublikada yuk va yo‘lovchilarni mamlakat ichkarisida va tashqarisida tashishni MDH, yaqin va uzoq xorij mamlakatlari bilan iqtisodiy aloqalarni ta’minlovchi tarmoqlangan transport tizimi shakllandi. O‘zbekiston Qozog‘iston respublikasi bilan mustahkam transport aloqasiga ega. Bu aloqa orqali respublikamizning Rossiya, Xitoy, Osiyoning boshka davlatlari va Tinch okeani regioni avtoyo‘llariga chiqishi ta’minlanadi. O‘zbekistonning bevosita ishtirokida Transosiyo magistralining bir qismi hisoblangan, Janubiy-Sharqiy Osiyoni G‘arbiy Yevropa bilan tutashtiradigan va Transsibir magistralidan 1500 km qisqa bo‘lgan Tajan-Seraxs-Mashxad yangi yo‘li ishga tushirildi. Shu bilan bir qatorda O‘zbekiston va Markaziy Osiyo mamlakatlariga Poti porti orqali Yevropa bilan bog‘lanish imkoniyatini beruvchi Turkmaniston va Transkavkaz yo‘li orqali o‘tgan transport yo‘lagi o‘zlashtirildi.

Respublika avtomobil yo‘llaritarmog‘i rivojlanishining asosiy ko‘rsatkichlari bo‘yicha MDH mamlakatlari orasida yetakchi o‘rinda turadi. Mavjud avtomobil yo‘llari respublika hududdi orqali Qirgiziston, Turkmaniston, Tojikiston, Afg‘oniston, ular orqali esa Pokiston, Hindiston, Eron, Janubi-Sharqiy Osiyo davlatlari yo‘llariga tranzit yuk va yo‘lovchilarning uzluksiz o‘tishini ta’minlaydi.

O‘zbekiston milliy aviakompaniyasi Boing- 747, A-310, Il-86, TU-154 va boshqa shu kabi zamonaviy havo laynerlariga va mahalliy yo‘llarga mo‘ljallangan ko‘p miqdordagi havo kemalariga ega.

Hozirgi vaqtda O‘zbekiston MDHning bir necha yirik shaharlari va jahonning 20ta davlati: AQSH, Germaniya, Buyuk Britaniya, Shveysariya, Hindiston, Turkiya, Saudiya Arabistoni, Isroil, Janubiy Koreya, Singapur va boshqa davlatlar bilan bevosita havo yo‘llari orqali bog‘langan.

Mavjud transport va telekommunikatsion tarmoqlarning rivojlanishi, O‘zbekistonning dunyo miqyosidagi nufuzini oshirmoqda va uning xalqaro aloqalarini yanada kuchaytirmoqda.

Sayohatni rivojlantirish uchun imkoniyatlarimiz juda katta. Respublika hududida 4 mingdan ortiq me’morlik yodgorliklari mavjud. Ularning ko‘plarini YUNESKO o‘z muhofazasiga olgan.

O‘zbekistonning xalqaro bozorga mustaqil sur’atda chiqishi va dunyo xo‘jaligiga integratsiyalashuvi sharoitlarida uning boshlang‘ich iqtisodiy salohiyati jahon xo‘jaligiga samarali qo‘shilish istiqbollariga umid qilish imkonini beradi.

12.2. O‘zbekiston Respublikasining jahon mamlakatlari bilan iqtisodiy aloqalarining rivojlanishi

Hozirda O‘zbekiston qator obro‘li va jahon iqtisodiyotida muhim ahamiyatga ega bo‘lgan xalqaro tashkilotlarning teng huquqli a’zosi, jahonning o‘nlab davlatlari bilan do‘stona aloqalarini bog‘lagan, yirik bank va moliyaviy organlar bilan hamda nodavlat va nohukumat tashkilotlar bilan hamkorlik qilmoqda. Respublikada 43 ta chet davlatlarning elchixonalari, 15 ta hukumatlararo va 49 ta nohukumat tashkilotlar akkreditatsiya qilingan.

O‘zbekiston turli darajadagi – global va mintaqaviy integratsion jarayonlarda qatnashish bilan bir paytda bir muhim tamoyilga rioya qiladi: bir davlat bilan yaqinlashish boshqa bir davlat bilan uzoqlashish evaziga bo‘lmasligi kerak. O‘zbekistonning jahon hamjamiyati bilan integratsiyasining tarkibiy qismi turli davlat va xalqaro tashkilotlar bilan ko‘p tarmoqli aloqalardir.

Bunda Yevropa Ittifoqi muhim o‘rin egallaydi. Yevropa Ittifoqining jahon miqyosidagi o‘rni kuchayib borgan sari, jahon mamlakatlari ushbu integratsion guruh bilan hamkorlik qilishga intilmokdalar.

O‘zbekiston Respublikasi uchun YEI bilan iqtisodiy va siyosiy hamkorlikni kengaytirish mamlakat uchun nafaqat iqtisodiy afzalliklar, balki shu bilan bir katorda O‘zbekistonni jahondagi mavqeini mustahkamlash imkoniyatlarini ham yuzaga keltiradi. Jahonning nufuzli integratsion guruhi bilan teng huquqli hamkorlik o‘rnatish O‘zbekiston uchun dunyoning boshqa mamlakat va hududlari bilan teng huquqli hamkorlik o‘rnatish kafolati bo‘lib xizmat qiladi. Shu bilan bir qatorda, O‘zbekiston uchun YEIga a’zo-mamlakatlar bilan alohida-alohida munosabatlar o‘rnatish va kengaytirish ham muhim ahamiyat kasb etadi.

O‘zbekiston Respublikasi va Yevropa Ittifoqi o‘rtasidagi hamkorlik 1992 yil 15 aprelda O‘zbekiston Respublikasi hukumati va Yevropa Ittifoqi qo‘mitasi o‘rtasida o‘zaro hamkorlik to‘g‘risida Memorandumning imzolanishi bilan boshlangan.

1994 yil 24 yanvarda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi qoshida YEI Qo‘mitasining O‘zbekistondagi texnik aloqa hamkorligi bo‘yicha byuro tuzish to‘g‘risida qaror qabul qilindi. Bu organlarning maqsadi O‘zbekistonda iqtisodiy islohotlar jarayoni va bozor munosabatlariga o‘tishda texnik yordam ko‘rsatish, shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi hukumati va YEI Qo‘mitasining hamkorligini kuchaytiishdir.

O‘zbekiston Respublikasi bilan Yevropa mamlakatlari o‘rtasidagi ko‘p tomonlama hamkorlikni rivojlantirish maqsadida 1996 yil 21 iyundagi sammitda EI a’zo davlatlari rahbarlari bilan «O‘zbekiston va Yevropa Hamjamiyati hamda unga a’zo davlatlar o‘rtasida hamkorlik va sheriklik» to‘g‘risida bitim imzolandi. O‘zbekiston Sobiq Ittifoq davlatlari ichida Rossiyadan keyin bunday bitim imzolagan ikkinchi davlatdir.

O‘zbekistonning YEI va YEIga a’zo davlatlar o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlarning huquqiy asosini tashkil qiladi. Shuningdek, siyosiy, iqtisodiy, fan-texnikaviy va madaniy aloqalar uchun keng imkoniyat ochadi.

1999 yil mayda Yevroparlament va Yevropa Ittifoqiga a’zo davlatlar bilan sherikchilik va hamkorlik haqida bitim ratifikatsiyasi bo‘yicha barcha muhim tadbirlar nihoyasiga etdi. 1999 yil 1 iyulda «Sherikchilik va hamkorlik haqidagi bitim» kuchga kirdi va «YEI-O‘zbekiston» qo‘shma qo‘mitasi o‘rniga O‘zbekiston-YEI hamkorlik qo‘mitasi tuzildi. YEI O‘zbekistonning muhim savdo-iqtisodiy sheriklaridan biri hisoblanadi. O‘zbekiston Respublikasi va YEI mamlakatlari o‘rtasidagi mol ayirboshlashning o‘sishi ko‘rsatkichlari savdo-iqtisodiy munosabatlarning muvaffaqiyatli rivojlanayotganligidan guvohlik beradi. 2007 yil yakuni bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasining YEI mamlakatlari bilan ikki tomonlama mol ayirboshlash hajmi 1 mlrd. 65,8 mln. AQSH dollarinini tashkil etgan, undan 520,6 mln. AQSH dollari eksport, import esa 545,2 mln. AQSH dollarini tashkil etadi. 2007 yil davomida mol ayirboshlash hajmi bo‘yicha YEI mamlakatlari ichida respublikamizning eng yirik savdo sheriklari: Buyuk Britaniya (302,0 mln. AQSH dollari), GFR (250,8 mln. AQSH dollari), Italiya (123,8 mln. AQSH dollari), Belgiya (95,5 mln. AQSH dollari), Fransiya (91,5 mln. AQSH dollari), Niderlandiya (68,5 mln. AQSH dollari) bo‘ldi.

YEI mamlakatlari bizning yetakchi investorlarimiz bo‘lib, hozirda O‘zbekistonda YEI a’zo davlatlarining 147 firma va kompaniyalari akkreditatsiya qilingan. Respublika hududida YEI mamlakatlari firma va kompaniyalari kapitali ishtiroki bilan 480 korxona o‘z faoliyatini amalga oshirmoqda, ulardan 114 tasi-100% lik Yevropa kapitali bilan, 1995-2007 yillar davomida YEI firma va kompaniyalari, shuningdek bank tuzilmalari O‘zbekistonda umumiy qiymati 8 mlrd. AQSH dollari atrofida bo‘lgan yirik investitsion loyihalarni amalga oshirishda ishtirok etdi. Shu bilan birga oxirgi yillarda Germaniya, Buyuk Britaniya, Fransiya, Belgiya, Portugaliya, Avstriya, Gretsiya, Chexiya, Slovakiya, Ruminiya va boshqa qator davlatlar bilan to‘g‘ridan-to‘g‘ri ikki tomonlama aloqalar izchil va barqaror rivojlanmoqda. Yuqoridagilaridan xulosa qilib shuni aytish mumkinki, YEI O‘zbekiston uchun xozirgi kundagi asosiy hamkordir. YEI bilan iqtisodiy munosabatlarni kay tarzda amalga oshishi O‘zbekistonning jahon hamjamiyatidagi urnini belgilaydi. Shunday ekan O‘zbekiston Respublikasining YEI davlatlari bilan iqtisodiy

munosabatlarini chuqurlashuvi o‘z-o‘zidan siyosiy, madaniy hamkorlikni rivojlanishiga olib keladi.

O‘zbekiston - YEI munosabatlar kelajagi ko‘p jihatdan transport muammolari xal bo‘lishiga bog‘lik. Bu sohada YEI ning TRASEKA dasturi alohida e’tiborga sazovor.

O‘zbekiston - YEI hamkorligining istihbolli sohalari, hamda ularning amalga oshirilishida YEI ning qaysi mamlakatlari bilan hamkorlik qilish maqsadga muvofiqligi bo‘yicha tavsiyalar sifatida quydagilarni keltirish mumkin:

• Kompaniyalarni turli investitsion loyihalarni amalga oshirishda ishtirok etishga jalb etish (Germaniya, Fransiya, Daniya, Shvetsiya va b.);

• Kadrlar tayerlashdagi keng qamrovli hamkorlik (Germaniya, Fransiya, Gollandiya);

• Eksport imkoniyatlarini kengaytirish maksadida YEI davlatlarida o‘zbek savdo uylarini ochish (YEI barcha mamlakatlari);

• Qo‘shma korxonalar tashkil etish yo‘li bilan YEI texnologiya va nou-xaularni O‘zbekistonga keltirish (Germaniya, Fransiya, Daniya, Shvetsiya va boshqalar)

• Oziq-ovqat sanoatini rivojlantirishda YEI a’zolari tajribasidan foydalanish (Belgiya, Gollandiya, Daniya, Irlandiya, Portugaliya);

• Qurilish sohasi va qurilish materiallari ishlab chiqarishdagi hamkorlikni kengaytirish (Italiya, Fransiya, Avstriya, Shvetsiya va boshqalar);

• Paxta tolasini qayta ishlash va kiyim-kechak, poyabzal ishlab chiqarishda hamkorlikni kengaytirish (Italiya, Germaniya, Avstriya, Ispaniya va b.);

• Turizm sohasidagi keng qamrovli hamkorlikni kengaytirish (YEIning barcha mamlakatlari);

• Kommunikatsiya sohasida hamkorlikni kengaytirish. YEI a’zolari portlari, avtomobil va temir yo‘llaridan foydalanishni yo‘lga qo‘yish (Gollandiya, Germaniya, Finlyandiya, Gretsiya);

• Bank sohasini isloh qilishda YEI a’zolari tajribasidan foydalanish (Germaniya, Fransiya, Belgiya va b.);

• Suvni tozalovchi moslamalarga doir YEI etakchi texnologiyalaridan foydalanish (Shvetsiya, Daniya, Germaniya);

• Farmatsevtika sohasidagi hamkorlikni kengaytirish va O‘zbekistonda dori-darmon ishlab chiqarish imkoniyatlaridan foydalanish (Belgiya, Avstriya, Germaniya, Fransiya, Irlandiya, Gretsiya);

• Foydali qazilmalar ishlab chiqarish va qayta ishlashdagi hamkorlikni kengaytirish (Fransiya, Shvetsiya va boshqalar);

• Qishloq xo‘jalik mahsulotlarini yetishtirish va qayta ishlashdagi hamkorlik imkoniyatlaridan foydalanish (Belgiya, Gollandiya, Daniya, Irlandiya);

• Metallurgiya sohasidagi hamkorlik (Avstriya, Italiya, Lyuksemburg);

• O‘zbekiston aeroportlaridan tranzit uchun foydalanish masalalaridagi hamkorlikni o‘rnatish va amalga oshirish (YEI ning barcha mamlakatlari);

O‘zbekiston va AQSH. Yirik siyosiy, iqtisodiy va intellektual salohiyatga ega dunyoning yetakchi davlati - AQSH bilan ko‘p tomonlama munosabatlarni chuqurlashtirish va rivojlantirish O‘zbekiston uchun ustuvor ahamiyatga ega. «O‘zbekiston Respublikasi va AQSH o‘rtasidagi strategik sheriklik va hamkorlik asoslari to‘g‘risida Deklaratsiya» ikki mamlakat o‘rtasidagi hamkorlikni rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega.

Respublikada Amerika investorlari ishtirokidagi 323 korxona ro‘yxatga olingan, ulardan 233 tasi qo‘shma korxonalar va 90 tasi 100% chet el kapitaliga qurilgan.

Amerika kapitali ishtirokidagi investitsion loyihalar tog‘-kon va neft gaz komplekslari, agrosanoat kompleksi texnologik bazalari, oziq-ovqat sanoati va transport infratuzilmasini rivojlantirish kabi iqtisodiyotning asosiy tarmoqlarida amalga oshiriladi.

Umuman olganda, O‘zbekiston Respublikasi mustaqillikni qo‘lga kiritgandan buyon Amerika kompaniyalari va moliyaviy institutlari ishtirokida amalga oshirilgan investitsion loyihalar umumiy summasi 2,4 mlrd. AQSH dollaridan ortiq, shundan 1,4 mlrd. AQSH dollarilik loyihalar Amerika moliyaviy institutlari tomonidan sug‘urtalangan. AQSH O‘zbekistonning muhim savdo hamkori bo‘lib qolmoqda.

Yaponiya davlatiga to‘xtaladigan bo‘lsak, u O‘zbekiston mustaqilligini 1991 yil 28 dekabrda tan olgan. Ikki davlat o‘rtasida diplomatik munosabatlar 1992 yil 26 yanvarda o‘rnatilgan.

Ikki tomonlama munosabatlarning rivojlanishida O‘zbekiston Respublikasi birinchi prezidenti I.A.Karimovning Yaponiyaga 1994 yil may va 2002 yil iyulda amalga oshirgan rasmiy tashriflari muhim rol o‘ynagan. Tashriflar chog‘ida O‘zbek-Yapon davlatlararo munosabatlariga asos bo‘lgan qator hujjatlar imzolangan. Shu qatorda «O‘zbekiston Respublikasi va Yaponiya qo‘shma bayonoti», «O‘zbekiston Respublikasi hukumati va Yaponiya hukumati o‘rtasida imzolangan bitimlarga O‘zbekistonning huquqiy vorisligi haqida maktublar almashinuvi», shuningdek, «O‘zbekiston va Yaponiya o‘rtasida do‘stona, strategik sheriklik va hamkorlik to‘g‘risida qo‘shma bayonot» imzolandi.

Ikki tomonlama munosabatlarning rivojlanishida 1994 yil tuzilgan iqtisodiy hamkorlik bo‘yicha O‘zbek-Yapon va Yapon-O‘zbek qo‘mitalari muhim rol o‘ynaydi.

Muntazam ravishda respublikaga Yaponiyaning nufuzli parlament vakillari, ishbilarmon davralari va siyosiy partiyalari rahbarlari tashrif buyurmoqda. Mamlakatimiz eksport salohiyatini rivojlantirish va moliyaviy hamkorlik, neft-gaz va to‘qimachilik tarmog‘i, mineral xom-ashyo

bazalarini rivojlantirish bo‘yicha investitsion seminarlar, konferensiyalar, taqdimotlar tashkil etilmoqda.

Yaponiyaning iqtisodiyot, savdo va sanoat hamda moliya vazirliklari bilan birgalikda doimiy asosda moliyaviy va texnik hamkorlikni kengaytirish masalalari bo‘yicha konsultatsiyalar o‘tkazilmoqda.

Toshkentda Yaponiyalik investorlar ishtirokida tuzilgan 19 yirik Yapon kompaniyalari akkreditatsiya qilingan va 8 qo‘shma korxona ishlamoqda. O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishda strategik rejalarni amalga oshirishda muhim rol o‘ynovchi moliyaviy-iqtisodiy yordamga, Yaponiya bilan hamkorlikni rivojlantirishga ustuvor ahamiyat beriladi.

O‘z navbatida, Yaponiya O‘zbekistonga Markaziy Osiyodagi vaziyatga katta ta’sir ko‘rsata oladigan mintaqaviy yirik davlat sifatida qaraydi. Hozirgi vaqtda ikki davlat o‘rtasida savdoda mumkin qadar qulaylik berish rejimi o‘rnatilgan.

O‘zbekiston va Yaponiyaning iqtisodiy hamkorligi oxirgi yillar mobaynida barqaror rivojlanmoqda. O‘tgan davrda respublikaga keltirilgan moliyaviy vositalarning umumiy hajmi 1,563 mlrd.dan ortiq AQSH dollarini tashkil etdi.

Xalqaro hamkorlik Yapon banki (JBIC) tijorat kreditlari orqali respublika yoqilg‘i-energetika va to‘qimachilik komplekslarida umumiy summasi 721,1 mln. AQSH dollari bo‘lgan 8 ta investitsion loyihalarning amalga oshirilishi moliyalashtirildi.

Beg‘araz va insonparvarlik yordamlari bo‘yicha sog‘liqni saqlash, maorif, transport va madaniyat sohalariga umumiy summasi 130,83 mln. AQSH dollari bo‘lgan resurslar Yaponiya tomonidan ajratildi.

1993-2008 yillar davomida O‘zbekistondagi tashkilot va muassasalarda iqtisodiyot, telekommunikatsiya, turizm, transport infratuzilmasini va boshqa sohalarda ishlash uchun 150 nafar atrofida ekspertlar jo‘natildi. Bundan tashqari 1993 yildan boshlab respublikaning turli vazirlik va muassasalaridan 500 ga yaqin mutaxassislar Yaponiyada amaliyot o‘tab qaytishgan.

Xitoy Xalq Respublikasi bilan hamkorlik. O‘zaro foydali hamkorlikning asosiy yo‘nalishlari 1992 yil martdagi, 1994 yil oktyabrdagi, 1999 yil noyabrdagi O‘zbekiston Respublikasi birinchi prezidenti I.A.Karimovning Xitoyga, shuningdek, 1994 yillarda XXR Davlat statistika Qo‘mitasi Bosh Vaziri Li Penning 1996 yil iyulda XXR raxbari Szyan Szeminning O‘zbekistonga rasmiy tashriflari chog‘ida aniqlab olingan.

1992 yil yanvarda O‘zbekiston Respublikasi va XXR o‘rtasida imzolangan savdo iqtisodiy bitimlarga muvofiq mamlakatlar o‘rtasida mumkin qadar qulaylik rejimi o‘rnatildi.

2002 yilda ikki davlat o‘rtasida mol ayirboshlash 130 mln. AQSH dollarini tashkil etdi, bundan 17,3 mln. AQSH dollarini eksport, 112,7 mln. AQSH dollarini import. Bu davr mobaynida eksportning asosiy moddalari: xizmatlar, elektr va mexanik asbob-uskunalar, ipak,

to‘qima materiallar, ishlash uchun o‘simlik materiallari, mineral yoqilg‘i, neft va uni qayta ishlangan mahsulotlari, paxta tolasi, xo‘l meva va yong‘oqlar, mato, kalava ip va boshqalardan iborat.

Importning asosiy moddalari - mexanika anjomlari, optika apparatlari va priborlar, plastmassa va uning mahsulotlari, kofe, choy va qandolat mahsulotlari, yer transporti vositalari, anorganiq ximiyaviy mahsulotlar, to‘qimachilik kiyimlari, poyafzal, organik ximiyaviy qo‘shilmalar, kauchuk va rezina mahsulotlari, qora metall va qora metall mahsulotlari, trikotaj kiyimlari va boshqalar.

Respublikada XXRning investorlari ishtirokida tuzilgan 100 dan ortiq korxonalar o‘z faoliyatini chakana va ulgurji savdo, yengil sanoat mahsulotlari, qishloq xo‘jalik mahsulotlarini qayta ishlash va boshqa sohalarda yuritmoqda.

Hozirgi paytda O‘zbekiston Respublikasida 19 ta Xitoy kompaniyalari vakolatxonalari akkreditatsiya qilingan. Akkreditatsiya qilingan vakolatxonalar faoliyatining asosiy tarmoqlari: eksport-import operatsiyalarini bajarish, qurilish xizmatlarini ko‘rsatish, to‘qimachilik sanoati, qishloq xo‘jalik mahsulotlarini qayta ishlash, informatsion texnologiyalar va boshqalarni o‘z ichiga oladi.

Koreya Respublikasi bilan savdo-iqtisodiy munosabatlar. O‘zbekiston Respublikasi va Koreya Respublikasi o‘rtasida savdo-iqtisodiy, investitsion va «Savdo to‘g‘risida», «Investitsiyalarni o‘zaro ximoyalash va kengaytirish to‘g‘risida» ilmiy-texnikaviy bitimlar imzolangan. Hozirgi kunga kelib O‘zbekiston va Koreya Respublikasi o‘rtasida huquqiy-shartnomaviy asosga ega bo‘lgan 22 ta hukumatlararo shartnoma va hujjatlar imzolangan.

1996 yil 19 iyulda Asaka shaxrida «O‘zDEUAvto» qo‘shma korxonasi avtomobil zavodi prezentatsiyasi bo‘lib o‘tdi. 1992 yil iyunda O‘zbekiston va Koreya Respublikasi o‘rtasida imzolangan savdo shartnomasiga muvofiq savdoda birmuncha qulay sharoitlar rejimi o‘rnatildi.

Eksportning asosiy moddalarini bu davrda paxta tolasi, xizmatlar, mato va paxta qog‘ozi, kalava ipi tashkil etdi. 2006 yilning 9 oyi mobaynida ikki mamlakat o‘rtasida mol ayirboshlash 179,1 mln. AQSH dollarini tashkil qildi, 39,1 mln. AQSH dollari eksportga, 140 mln. AQSH dollari importga to‘g‘ri keladi. 2007 yilning birinchi yarmiga kelib mamlakatimiz eksporti 1.4% ni, importi 9.0% ni tashkil etdi.

Respublika retsipient davlatlar orasida Agentlikning yordam ko‘rsatilishi hajmi bo‘yicha beshinchi o‘rinni egallaydi. 1992 yildan boshlab KOICA tashkilotidan O‘zbekistonga ko‘rsatilgan moliyaviy yordamning umumiy hajmi 8,6 mln. AQSH dollarini tashkil etadi. O‘zbekistonning KOICA bilan asosiy hamkorligi 5 ta sohada amalga oshirilmoqda: beg‘araz asosda uskuna va materiallarni keltirish, amaliyotlarni taklif qilish, ko‘ngillilarni jo‘natish, ekspertlarni jo‘natish, tibbiy korxonalarni jo‘natish.

Respublika hududida Koreya kapitali ishtirokidagi 118 ta korxona faoliyat olib bormoqda, undan 97 tasi qo‘shma korxona va 21 tasi 100% chet el kapitali bilan tuzilgan korxonalardir. Bu korxonalar asosan avtomobil qurilishi, to‘qimachilik va elektrotexnika sanoati, xizmat ko‘rsatish va aloqa sohalarida to‘plangan.

Hozirda O‘zbekiston Respublikasida 20ta Koreya kompaniyalari vakolatxonalari akkreditatsiya qilingan. Bu vakolatxonalar quyidagi sohalarda faoliyat olib boradi: eksport-import operatsiyalari o‘tkazish, transport xizmatlari ko‘rsatish, to‘qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish va boshqalar.

Xulosa qilib aytganda, O‘zbekiston dunyo xo‘jaligi tizimiga kirib borar ekan, uning xalqaro iqtisodiy aloqalari uzoq va yaqin xorijiy mamlakatlari bilan yanada taraqqiy etmoqda.

12. 3. O‘zbekiston Respublikasi iqtisodiyotida xalqaro iqtisodiy tashkilotlar bilan hamkorlikning ta’siri

O‘zbekistonning turli xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlik aloqalarining rivojlantirilishi uning jahon xo‘jaligi integratsiyasida samarali ishtirok etishini ta’minlaydi. Bunday xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlik o‘tish davri muammolarini hal etishni, shuningdek ijtimoiy yo‘naltirilgan bozor xo‘jaligini shakllantirishni yengillashtiradi. Bu narsa kreditlar olishda, bevosita xorijiy investitsiyalarni jalb qilishda, mahsulotlarni jahon bozorlariga chiqarishda katta yordam beradi.

Mustaqil O‘zbekiston 30 ta obro‘li iqtisodiy va moliyaviy tashkilotlarning to‘laqonli a’zosi bo‘ldi. Bularning jumlasiga Jahon Banki guruhiga kiruvchi tashkilotlar, shuningdek, Xalqaro moliya korporatsiyasi, Xalqaro Valyuta fondi, Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki, Osiyo taraqqiyot banki, Islom taraqqiyot banki, Butunjahon bojxona tashkiloti, Butunjahon turizm tashkiloti, Paxta bo‘yicha xalqaro konsultativ komiteti va boshqa tashkilotlarga a’zo bo‘ldi. Respublika hozirgi kunda BSTga a’zo bo‘lish uchun qator ishlarni amalga oshirmoqda.

Jahon Banki bilan hamkorlik. 1992 yil sentyabrda O‘zbekiston Respublikasi JB ga a’zo bo‘ldi. 1992 yil sentyabrdan Toshkent shahrida Jahon bankining vakolatxonasi ochildi.

O‘zbekiston Respublikasiga qarzlar quyidagi shartlar asosida beriladi:

- qaytarilish muddati 20 yil;
- imtiyozlar davri 5 yil;
- foiz stavkasi suzib yuruvchi, har yili aniqlanadigan;

Bank strategiyasi bosqichma-bosqich rivojlanishda hukumat islohatlarini qo‘llab quvvatlash va tatbiq etish maqsadida maslahatlar berish, shuningdek texnik-moliyaviy yordam ko‘rsatishni

o‘z ichiga oladi. Jahon Banki kreditlarni asosan qishloq xo‘jaligini rivojlantirish uchun suv ta’minoti va sanitariya irrigatsiya tizimi va drenajni qo‘llashga ajratadi.

JB ning mamlakatga berayotgan yordamining(2002-2008 yil) asosiy maqsadi:

A) valyuta va savdo tartibini liberallashtirish masalasida siyosiy holatni takomillashtirish va davlat boshqaruvi samarasini oshirish.

B) xususiy sektor va to‘g‘ridan-to‘g‘ri investitsiyalar uchun qulay shart-sharoitlarni yaratish.

C) ijtimoiy infratuzilmadagi davlat resurslarini qo‘llash va taqsimlashdagi samaradorlikni oshirish.

D) texnik xizmat va mamlakat infratuzilmasida irrigatsiya-melioratsiya ishlarini olib borishdagi tizimni takomillashtirishni o‘z ichiga oldi.

Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki bilan hamkorlik. O‘zbekiston 1992 yil 19 apreldan ETTB ga a’zo bo‘ldi. O‘zbekistonga ETTB tomonidan kelgan vakillar respublikadagi ijtimoiy-iqtisodiy holatni o‘rganish va kelajakdagi o‘zaro hamkorlikni rivojlantirish maqsadidagi tashrifi davomida bank direktorlar kengashi tomonidan O‘zbekistonga nisbatan ETTB o‘z strategiyasini belgiladi. Bunda bank kelgusida O‘zbekiston xususiy sektorini rivojlantirish va kengaytirish; tabiiy resurslarni o‘zlashtirish; energetika sektorini, kichik va o‘rta korxonalarni, paxtani qayta ishlash va boshqa yengil sanoatni, turizm infrastrukturasini rivojlantirish kabi sohalardagi asosiy yo‘nalishlarni aniqladi.

Xalqaro valyuta fondi bilan hamkorlik. O‘zbekiston 1992 yil sentyabr oyidan boshlab XVFga a’zo bo‘lib kelmoqda. XVF 1995 yil yanvarda O‘zbekiston Respublikasiga mamlakat boshqaruvi tomonidan qabul qilingan dastur asosida birinchi 72,4 mln. AQSH dollari miqdorida transh mablag‘lari berdi. Shuningdek 1995 yil dekabr oyida milliy valyutani qo‘llab-quvvatlash maqsadiga 2 transh berilgan. Berilgan mablag‘lar bo‘yicha foiz stavka suzib yuruvchi hisoblanadi. Qarzni to‘lash muddati 5,5 yilni tashkil etadi. 1995 yil 18 dekabrda XVF O‘zbekiston Respublikasiga «Stend Bay» kreditini berdi. Bu mablag‘lar iqtisodiy islohotlarni davlat tomonidan 1995-1996 yil qo‘llab quvvatlanishi uchun ko‘zlangan 2000-2001 yil davlat tomonidan valyuta siyosatini tartibga solish uchun qo‘llash chora tadbirlarini hisobga olgan holda 2001 yil avgustda O‘zbekiston Respublikasi va XVF o‘rtasida O‘zbekiston Respublikasi 31 iyul va 31 dekabr 2001 yil oralig‘idagi moliyaviy va iqtisodiy siyosat to‘g‘risida memorandum qabul qilingan. Memorandum asosida O‘zbekiston va XVF vakillari hamkorligida 2002 yil 1 yanvar va 30 iyun oralig‘iga makroiqtisodiy va tuzilmaviy siyosatning asoslari ishlab chiqildi. 2002 yil XVF monitoring dasturi asosida bir qancha vazifalarni bajarishdi. O‘zbekiston Respublikasida turli vazirlik va idoralar o‘rtasida chora tadbirlar o‘tkazildi. Bundan asosiy maqsad iqtisodiy islohatlarni rivojlantirishda kredit va soliq byudjet siyosatini qattiq saqlagan

holda valyuta rejimini tartibga solish bo‘ldi. 2003 yilda O‘zbekiston Respublikasiga XVF dan vakillar tashrif buyurishgan. Bu muzokaralarda XVF nizomidagi 8-modda davlat rejasi asosida bir necha shartlar imzolandi. Bunga savdo sohasidagi soliq byudjet va pul-kredit siyosatini amalga oshirishda samarali unsurlardan foydalanildi (2003 y). Shuningdek, tuzilmaviy islohotlar sohasida bir qancha ishlarni amalga oshirish kiradi. 2003 yil 15 oktyabrda O‘zbekiston Respublikasi XVF kelishuvidagi 8-modda, 3-4 modda, 2a qismidagi shartlarini qabul qilishini ma’lum qildi.

Osiyo Taraqqiyot Banki. O‘zbekiston Respublikasi 1995 yil 30 avgustda OTB ning to‘laqonli a’zosi bo‘ldi. OTB bilan o‘zaro moliyaviy va texnik hamkorlik maqsadida, shuningdek OTBga taqdim etilishi mumkin bo‘lgan investitsion loyihalarni tayyorlash ishlarini mo‘ljallashtirish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasi tomonidan 1996 yil 16 yanvardagi №27 farmoyishi bilan OTB bilan hamkorlik uchun idora tashkil etildi. O‘zbekiston Respublikasi Milliy Banki OTB avuarida O‘zbekiston Respublikasi milliy valyutasidagi rasmiy bank depozitariysi deb e’lon qilindi. Moliya Vazirligi OTB bilan aloqalarda ma’sul hisoblanadi. O‘zbekiston Respublikasining MB O‘zbekiston Respublikasini OTBning direktorlar kengashi guruhiga qo‘shish to‘g‘risida murojaat qildi. Bu guruhga Malayziya, Singapur va Tayvand mamlakatlari kiradi. OTB bu murojaatnomani qabul qilgandan so‘ng O‘zbekiston iqtisodiy integratsiya maqsadlaridan kelib chiqqan holda Osiyo tinchlik mintaqasi mamlakatlari bilan tenglikda a’zo bo‘ldi.

OTB respublika hukumati bilan kelishgan holda bank tomonidan kelgusida takomillashtirish uchun ba’zi iqtisodiyot sektorlari aniqlangan: qishloq xo‘jaligi, transport va kommunikatsiya, ijtimoiy infrastruktura. 2003 yil 11-12 oktyabrda Toshkentda O‘rta Osiyoda mintaqaviy iqtisodiy hamkorlik bo‘yicha OTB Vazirliklar konferensiyasi bo‘lib o‘tdi. Konferensiyada aholining ijtimoiy ahvolini yaxshilash, transport, savdo va energetika sohasidagi sun’iy to‘siqlarni olib tashlash, energetika resurslaridan to‘g‘ri foydalanish, atrof muhit ximoyasini kuchaytirishda xususiy sektorni rivojlantirish uchun qulay shart-sharoitlar yaratish, iqtisodiy infratuzilmani takomillashtirish masalalari ko‘rib chiqildi.

BMTning Qishloq xo‘jaligi savdosi tashkiloti (FAO) bilan hamkorlik. O‘zbekiston Respublikasi 2001 yil noyabrda FAOga a’zo bo‘ldi. 2002 yilda O‘zbekiston FAOning «Mintaqada parvarish qilinayotgan yerlarning hosildorligini o‘stirish» mintaqaviy dasturida ishtirok etdi. Bu loyihaning umumiy miqdori 1,34 mln. AQSH dollarini, shuningdek, O‘zbekistonga 350 ming AQSH dollarini tashkil etadi. FAO dasturida O‘zbekistondan tashqari Hindiston, Pokiston, Misr kabi mamlakatlar qatnashdilar.

Tayanch iboralar: tashqi savdo, ikki tomonlama va ko‘p tomonlama iqtisodiy munosabatlar, JSTga a’zo bo‘lish, xalqaro moliya-kredit tashkilotlari bilan iqtisodiy munosabatlar.

Bobning qisqacha xulosasi:

O‘zbekiston Respublikasi Markaziy Osiyo mintaqasining markazida joylashgan bo‘lib, bu yerda mintaqa aholisining 45%i yashaydi. O‘zbekiston mintaqaning boshqa davlatlari (Qozog‘iston, Tojikiston, Turkmaniston, Qirg‘iziston) bilan umumiy chegaralarga ega bo‘lgan Yagona mamlakat bo‘lib, u Yevropa bilan Osiyo-Tinch okeani mintaqasi va shuningdek Janubiy Osiyo, Yaqin va O‘rta Sharq mamlakatlarini transport va telekommunikatsiya bo‘yicha birlashtiruvchi muhim koridor hisoblanadi.

O‘zbekiston jahon iqtisodiyoti va xalqaro iqtisodiy munosabatlarda muhim ahamiyatga ega bo‘lgan xalqaro tashkilotlarning (BMT, YUNESKO, FAO, YUNKTAD) teng huquqli a’zosi, jahonning o‘nlab davlatlari (160 dan ortiq) bilan do‘stona aloqalarni bog‘lagan, yirik xalqaro bank va moliyaviy tashkilotlar (XVF, JB, ETTB, OTB, ITB) bilan hamda nodavlat va nohukumat tashkilotlar bilan hamkorlik qilib borayotgan davlatlardan biri hisoblanadi.

Jahon iqtisodiyotida O‘zbekiston turli darajadagi global va mintaqaviy (MDH, Shanxay guruhi) integratsion jarayonlarida qatnashish bilan bir paytda muhim tamoyilga, ya’ni bir davlat bilan yaqinlashish boshqa bir davlat bilan uzoqlashish evaziga bo‘lmasligi kerak degan qoidaga amal qiladi.

Nazorat uchun savollar:

1.O‘zbekiston Respublikasining jahonning yetakchi mamlakatlari bilan ikki tomonlama manfaatli aloqalarining rivojlanish istiqbollarini tavsiflab bering.

2.O‘zbekistonning xalqaro iqtisodiy tashkilotlar bilan olib borayotgan aloqalarni xarakterlab bering?

3.O‘zbekiston Respublikasining Jahon banki guruhi bilan munosabatlarini ochib bering.

4.O‘zbekiston JSTda qanday maqomga ega?

5.O‘zbekistonning JSTga a’zo bo‘lish bosqichlarini xarakterlab bering.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR, JURNALLAR VA INTERNET TARMOG’IDAN OLINGAN TARQATMA MATERIALLAR

1.James H. The End of Globalization: lesns from the great Depression. Harvard College, 2020.

2. Kenen P.B. The International Economy. Cambridge: Cambridge University Press, 2020.

3. Lane J.E., Ersson S. Government and the Economy: a global perspective. London: Continuum, 2002.International Trade Statistics. WTO Publications.

4.International Yearbook of Industrial Statistics. UNIDO. Vienna.
5. Japan An International Comparison.
6. Journal of International Law.
7.OECD. Economic Outlook.
8.OECD. Institutional Investors Statistics Yearbook.
9.The Global Competitiveness Report.
10.UNCTAD. World Investment Report.
11.UNESCO. World Education Report. Paris.
12.Union countries — IMF. Washington D.C.
13.UNSTAD World Investment Report, United Nations, Geneva.
14.World Development Indicators. The World Bank.
15. World Development Report.
16.World Economic and Social Survey.
17.World Economic Outlook.
18.World Investment Report. UN.

1.2. AMALIY MASHG'ULOTLAR

Jaxon xo'jaligi va xalkaro iqtisodiy munosabatlar: asosiy ko'rinishlari va xususiyatlari. Xalkaro mexnat taqsimoti

Jahon xo'jaligi va xalqaro iqqisodiy munosabatlar: asosiy ko'rinishlari va xususiyatlari. Xalkaro mehnat taqsimoti. "Jahon iqtisodiyoti va xalqaro iqtisodiy munosabatlar" fanining predmeta, mazmuni va mohiyati. Jahon xo'jaligi to'grisida tushuncha. Jahon xo'jaligi va uning milliy iqgisodiyotlarga ta'siri. Xalqaro iqtisodiy munosabatlar tizimi va uning kontseptsiyalari. Jahon bozori tuzilmasi va zamonaviy xalqaro iqtisodiy munosabatlar ko'rinishlari. XXI asrda xalkaro iqtisodiyotning xususiyatlari. Dunyo mamlakatlarining xalqaro iqtisodiyot va xalqaro savdodagi ishtirokining asosiy ko'rsatkichlari. Xalkaro tovarlar, xizmatlar va ishlab chiqarish omillari harakati. Ishlab chiqarish resurslari va omillari. Ishlab chiqarish omillarini xalqaro ayirboshlashning o'ziga xos xususiyatlari. Jahon bozorida tovar va xizmatlar xarakatining xususiyatlari. Ishlab chiqarish omillarining xalqaro harakati. Jahon iqgisodiyotida global miqyosdagi muammolarni hal kilishda mamlakatlararo o'zaro iqqisodiy aloqalar. Xalqaro mehnat taqsimoti tushunchasi. Ixtisoslashuv va kooperatsiya. Mamlakatlararo xalqaro hamkorlik.

[A2, 7-13; A24, 15-23; A25, 10]

Xalqaro savdoning rivojlanish nazariyalari va modellari

Xalqaro iqtisodiy munosabatlar tizimida xalqaro savdo. Tashqi savdoni erkinlashtirish (liberallashtirish) va jahon savdosida protektsionizm siyosati. Merkantilistlar nazariyasi va mutlaq ustunlik nazariyasi. Amaliyotdagi iqgisodiy siyosat. Merkantilizmning tanqid qilinishi. Mehnat taqsimoti - o'sishning asosi. Mutlaq ustunliklar modeli. Nisbiy ustunlik nazariyasi. Muqobil xarajatlar. Ishlab chiqarish omillari nisbati nazariyasi. Ishlab chikarish omillari bilan turlicha ta'minlanganlik. Leontev paradoksi. Xalqaro savdoning umumiy muvozanat nazariyasi va zamonaviy xalkaro savdoning rivojlanishi. Xalkaro muvozanat. Rivojlanishning asosiy tendentsiyalari. Xalkaro savdoni taxlil qilish instrumentlari: savdo sharti. Eksport va import egiluvchanligi. Sotnladigan va sotilmaydigan tovarlar modeli. Xalqaro savdo klassik nazariyalarining rivojlantirilishi. Nazariyalarning cheklanganligi. Noan'anaviy yondashuvlar. Maxsus va harakatchan omillar. Xalkaro savdoning yangi nazariyalari. Xalqaro savdoning daromadga ta'siri, keng ko'lamda ishlab chiqarish effekti va nosoglom raqobat. Monopolistik raqobat sharoitida savdo. Tarmok ichidagi savdo nazariyasi, xalqaro savdoda talab va revers nazariyalari: tarmoq ichidagi savdo va tarmoqlararo savdoning farqlari. Tarmoq ichidagi savdo modeli. Tarmoq ichidagi savdoning o'zgarishi. Kesishuvchi talab. Ishlab chiqarish omillari reversi. Differentsiallashgan tovarlar. Iste'molchilar daromadlarining barobarligi va ular didparining o'xshashligi. Iste'molchi hatti-harakati asosida iqgisodiy modellar.

[A2, 64-100; A24, 270-284; A25, 15]

Tashqi savdoni davlat tomonidan tartibga solish va boshqarish Yo'llari

Erkin savdo va protektsionizm: Xalqaro savdoda davlatning roli. Savdo siyosati instrumentlari. Xalkaro savdoni davlat tomonidan tartibga solish. Xalqaro savdoni davlat tomonidan tartibga solish instrumentlari. Tarifli va notarif usullar. Bojxona tariflari va bojlar. Bojga tortish me'yori. Tarif eskalatsiyasi. Tariflarning iqtisodiy roli: tarifning kichik mamlakat iqtisodiyotiga ta'siri; tarifning katta mamlakat iqgisodiyotiga ta'siri. Daromad effekti va chegaraviy effekt. Himoyalash va iste'mol effekti. Ichki va tashqi daromad effekti. Tarif siyosatiinig maxsus holatlari: optimal tarif. Tarif kvotasi. Eksport tarifi. Tarifga karshi argumentlar. Tarifni yoqlovchi argumentlar. Milliy iqtisodiy farovonlik. Uzgaruvchan bojxona bojlari. Eksport bojining fiskal va muvozanatlash vazifalari. Tariflar o'rnatilishiga turlicha qarashlar. Yosh tarmoklarni xorijiy raqobatdan himoyalash va milliy xavfsizlikni ta'minlash. Xalqaro savdoni davlat tomonidan tartibga solishning notarif usullari. Mikdoriy cheklashlar: Notarif usullarni o'lchash. Kvotalash yoki kontingentlash. Litsenziyalash. «Ko'ngilli» eksport

cheklashlari. Notarif usullarni mikdoriy jihatdan kvalifikatsiyalash. Mikdoriy cheklashlar. Cheklashlarning importyor uchun umumiy iqtisodiy effekti. Savdo siyosatining yashirin usullari: Texnik to'siqlar. Milliy standartlarga rioya kilish. Import mahsuloti sifati to'grisida sertifikat olish. Tovarlarni maxsus qoliplash va markirovkalash. Sanitariya-gigiena me'yorlariga rioya qilish to'grisida tapablar qo'yish, ichki soliqlar va aktsizlar. Savdo siyosatining moliyaviy usullari va tartibga solishning noiqgisodiy usullari: subsidiyalar, demping. Savdo shartnomalari. Xuquqiy rejimlar. Milliy eksportyorlarni qo'llab- quvvatlashga qaratilgan pul to'lovlari. Eksport subsidiyasi. Dempingga qarshi bojlar. Ikki xamkor davlat tomonidan savdoni amalga oshirishning huqukiy asosini belgilovchi ikki tomonlama shartnomalarni imzolash. Qulay savdo rejimi o'rnatish. Ko'ptomonlama kelishuvlar imzolanishi.

[A2, 104-135; A24, 295-323;]

Halqaro ishchi kuchi migratsiyasi

Jahon ishchi kuchi bozorining mohiyati va paydo bo'lish sabablari. Mehnat migratsiyasining asosiy yo'napishlari va markazlari. Xalqaro mehnat migratsiyasi ko'rinishlari. Migrantlar - mehnat qobiliyatli yoshdagi iqgisodiy faol odamlar. Xorijda ish qidirishga intilayotgan odamlarga ko'maklashuvchi migratsiya xizmatlari va xalqaro tashkilotlari. Jahon ishchi bozoridagi eksportyor mamlakatlar. Migratsiya jarayonlarining importyor mamlakatlar iqgisodiyotiga ta'siri. Mehnat migratsiyasining milliy iqgisodiyotlarga ta'siri. Xorijdan valyuta transferta oqimlarini kengayishi - ishchi kuchini eksport qiluvchi mamlakatlar asosiy foydasi sifatida. Mehnat immigratsiyasining miqdoriy va sifat darajasini kvotalar va cheklashlar joriy qilish orqali tartibga solish. "Aqlli kishilarni ketib qolishi" muammosining mohiyati. Bu muammoning Uzbekistotsda hal etish imkoniyatlari. Ishga joylashish maqsadida xorijga chiqib ketgan malakapi kadrlarni yo'qotishning eksport qiluvchi mamlakat uchuy iqgisodiy zarari. Muammoni hal etishning umumiqtisodiy va utilitar yo'llari. [A2, 202-218; A24, 429-454; A25, 76]

Xalqaro kapital migratsiyasi va transmilliy kompaniyalar

Chetga kapital chiqarish xalkaro iqgisodiy munosabatlarni ko'rinishlaridan biridir. Kapital chiqarishni sababi va mohiyati. To'gri portfel investitsiyalar. Jahon iqgisodiyotida xalqaro qarzlar (zayomlar), ularning tutgan o'rni. Rivojlanishda rasmiy yordam tushunchasi. Kapital chiqarishning asosiy yo'napishlari, ko'lamlari. Investitsion iqlim. Kapital olib chiqishning mohiyati va ko'rinishlari: Jahon kapital bozorining mohiyati va paydo bo'lish jarayoni. Kapital olib chiqish ko'rinishlari. Umumjahon banki guruhining faoliyati. Jahon kapital

bozorining zamonaviy ko'rinishi. Kapitaplarni ichki muomapadan olib maksimal darajada foyda olish maqsadida xorijga chiqarish. Rivojlangan kapital bozorlari. To'gri va portfel investitsiyalar: to'gri xorijiy investitsiyalarning mohiyati va ahamiyati. Portfel investitsiyalarning xususiyatlari. Investitsion muhit tushunchasi. TMK faoliyati ko'lamining kengayishi - to'gri kapital qo'yilmaparining eng etakchi tamoyili sifatida. Xorijdan moliyaviy resurslar jalb qilishning zaruriy iqgisodiy omillari. Kapital eksporta jugrofiy tuzilmasidagi o'zgarishlar. Kapital eksportining zamonaviy jugrofiy tuzilmasi. Jahon kapital bozorida Uzbekistonning o'rni. Rivojlangan iqgisodiyotlar rolining ortib borishi. Jahon bozoriga yangi industrial mamlakatlarning katta guruhi va sobiq sotsialistik davlatlarning kirib kelishi. Jahon iqgisodiyotida Transmilliy korporatsiyalar (TMK). TMKning tashkil topishi, faoliyati va ishlab chiqarishni baynalmilallashuvdagi roli. TMKlar va yangi sanoatlashgan davlatlar. TMKlar faoliyatini xalkaro boshqaruvi. Xalkaro korporatsiyalarning mohiyati, tuzilmasi va ko'rinishlari. Bosh kompaniya, assotsiatsiyalashgan firmalar, sho''ba korxonalar, kichik shaxobchalar. TMKning jahon iqgisodiyotida tutgan o'rni va ahamiyati. TMK faoliyatining yangi ko'rinishlari: lizing va faktoring. XXI asrda xorijiy mamlakatlarning kapital qo'yilmalari va uning Respublika iqgisodiyotini rivojlanishidagi ahamiyati. O'zbekiston Respublikasi iqtisodiyotiga chet el kapitalini jalb qilinishi muammolari. Chet el investitsiyalarini Davlat tomonidan boshqarish. Chet el investitsiyalari to'g'risidagi Qonun. O'zbekiston iqtisodiyotiga chet el kapitalini jalb qilinishi, shakllari. Tabiiy resurslarni o'zlashtirishda chet el kapitapining tutgan o'rni. Respublikaning huquqiy va iqgisodiy boshqaruvi, rivojlanish muammolari.

[A4, 142-146; A24, 387-409; A25, 66]

Jaxon iqtisodiyotida erkin iqtisodiy xududlarning tutgan o'rni

Jahon iqgisodiyotida erkin iqtisodiy xududlar, ularning funktsiyalari va turkumlanishi (klassifikatsiyasi). Erkin iqtisodiy hududlar tajribasi. "Erkin iqtisodiy hudud" (EIH) tushunchasi. Erkin iqtisodiy hududlarning asosiy ko'rinishlari. Erkin iqtisodiy hududlarni yaratishning AQSh, Xitoy modellari va ularning xususiyatlari. Moliyaviy va ma'muriy tadbirlar. Erkin iqtisodiy xududlarda joriy etiladigan imtiyozlar. Savdo EIXdari. Texnoparklar. Texnopolislar. Offshor hududlar.

[A7, 150-175; A25, 5-9; A3, 36]

Xalqaro valyuta-moliya va kredit munosabatlari

Milliy va mintaqaviy valyutalar tizimidagi asosiy qonun-qoidalar. Valyuta bozorlari, ularning funktsiyasi, turlari. Xalqaro kredit munosabatlarning mohiyati, mazmuni. Suzib

yuruvchi va fiksatsiya qilingan valyuta kurslari. Valyuta operatsiyalari, ularning ko'rinishi. Valyuta pozitsiyasini shakllari. "SVOP", "FORVARD" operatsiyalari, valyuta vaucherlari "SPOT", qimmatbaho qogozlar arbitraji. Valyutani cheklanishi, uning ko'rinishlari. Valyuta tavakalchiligi. Valyuta tavvakalchiligini sugurtalash. Xalqaro moliyaviy kredit tashkilotlar. Xalqaro valyuta fondi (XVF), uning funktsiyalari. Xalqaro bank guruhlari: Evropa rivojlanish va qaytatiklash banki (ETTB), Osiyo rivojlanish banki (ORB), va boshqalar.

[A3, 200-215; A24, 494-505; A14,29-75]

Jahon xo'jaligida rivojlangan mamlakatlar iqtisodiyoti

Rivojlangan davlatlar guruhining jahon xo'jaligi va siyosatida tutgan o'rni. Rivojlangan davlatlar sanoatiga xarakteristika. Guruhga kiruvchi mamlakatlar kriteriyasi, iqtisodiyotini umumiy belgilari. Iqnisodiyotdagi makrotuzilma. Mamlakatlarning ilmiy-texnikaviy va mahsulot ishlab chiqarish sohasidagi, tabiiy resurslari va mehnat taksimoti sohasidagi imkoniyatlari. Inson omilini roli. Milliy iqtisodiyotning strukturasini o'ziga xos xususiyatlari. Iktisodiy rivojlanishning dastlabki shart - sharoitlari va xususiyatlari. "Katta sakkizlik" etakchi rivojlangan davlatlarni jahon sanoati mahsulotlarini ishlab chiqarishdagi, jahon savdosi va xalqaro kapital migratsiyasidagi ulushi. Rivojlangan davlatlar iqtisodiyotining hozirgi davr strukturasi. Mamlakatlar sanoati strukturasidagi o'zgarishlar. Rivojlangan mamlakatlarning moliya-kredit siyosati. "Katta sakkizlik" davlatlarning tashqi iqtisodiy strategiyasi. Asosiy sanoat va moliyaviy markazlar. Dunyo xukmronligini ko'lda ushlab turishda AKShning iqtisodiy hamkorlik markazlari. Yaponiya kuchli iqtisodiy markaz sifatida. G'arbiy Evropa - sanoati rivojlangan mamlakatlar joylashgan xudud sifatida. Rivojlangan mamlakatlarda tashqi savdo va uning zamonaviy yo'nalishlari. Ilmiy - texnikaviy munosabatlar. Valyuta munosabatlarining xarakteri. G'arbiy Evropadagi integratsion jarayonlar. Evropa itgifoqi - G'arbiy Evropaning raqobat qiluvchi markaziy yadrosidir. Rivojlangan mamlakatlarning tashqi iqtisodiy strategiyasi. Ilmiy-texnika inqilobi (ITI) ta'sirida rivojlangan mamlakatlarning makroiqtisodiy strukturasidagi o'zgarishlar. Iqtisodiy ko'rsatkichlarning asosiy dinamikasi. Qisqa muddatli reja va tavvakalchilik. Sanoati rivojlangan mamlakatlar iqtisodiyotidagi umumiy muammolar.

[A3, 254-258; A24, 71-88; A25, 10-109]

Rivojlanayotgan mamlakatlar - xalqaro iqtisodiy munosabatlar Tizimida

Rivojlanayotgan mamlakatlarning asosiy belgilari, xususiyatlari. Xapqaro mehnat taqsimotidagi o'rni. Mamlakatlarning asosiy guruhlari. Rivojlanayotgan mamlakatlarning

rivojlanish darajasiga ko’ra qoloq va o’rta darajada rivojlanayotgan, rivojlanib borayotgan “yangi sanoatlashgan mamlakatlar” ga bo’linishi. Xalqaro mehnat taqsimotida rivojlanayotgan mamlakatlarning huquqiy qatnashishi, mustaqillikka erishish muammolari. Tashqi qarzlarni ko’payishini hal etish muammolari. Rivojlanayotgan mamlakatlarda hususiylashtirish jarayonlari. Yangi industrial mamlakatlarning iqtisodiy rivojlanish modellari. O’tish davridagi mamlakatlarning iqtisodiy rivojlanish xususiyatlari.

[A8, 110-120; A24, 133-146; A25, 127-183]

Xalqaro iqtisodiy integratsiya

Xalqaro iqtisodiy integratsiyaning mohiyati, ko’rinishlari. G’arbiy Evropa integratsiyasining rivojlanish bosqichlari. Evropa Ittifoqi tashqilotlarining tashkil topish mexanizmi. Evropa bo’shligi. Shimoliy Amerika integratsiya yo’li (NAFTA). Tinch okeani xamkorligi tashkilotining tashkil topishi. Sharqiy Evropa integratsiyasining vazifalari. Mustaqil Davlatlar Hamdo’stligi (MDH) mamlakatlari doirasidagi integratsion jarayonlar. Xalkaro tashkilotlar klassifikatsiyasiga umumiy tafsiv. Birlashgan Millatlar Tashkiloti (BMT) tizimiga kiruvchi iqtisodiy tashkilotlar va ularning vazifalari. Xalqaro moliya-valyuta va kredit tashkilotlari. Uzbekistonning xalkaro iqtisodiy tashkilotlarda qatnashishi.

[A4, 10-46; A24, 544-565; A25, 91]

Jaxoi iqtisodiyotini tartibga solishda xalqaro tashkilotlarning roli

Xalqaro tashkilotlarning paydo bo’lish jarayoni. Xalqaro tashkilotlarning tasniflanishi. Global va xududiy tashkilotlar. Hukumatlararo va noxukumat iqtisodiy tashkilotlar. BMT va uning tizimi. Xalqaro tashkilotlarning o’z faoliyatini qayta qurishi. Savdo va tariflar bo’yicha Bosh kelishuvning imzolanishi sabablari. Savdo va tariflar bo’yicha Bosh kelishuvning tamoyillari, vazifalari va tuzilmasi. Savdoni global erkinlashtirish jarayoni. GATT maqsadlari va funktsiyalari. O’zbekiston Respublikasining USTga kirishi imkoniyatlari. Umumjahon savdo tashkiloti (UST) ni tashkil etipishi va uning GATTdan farqi. USTning tamoyillari, maqsad va vazifalari. UST tuzilmasi va faoliyati. Umumjahon savdo tashkiloti - mamlakatlar va xududlar o’rtasida tovar oqimlarini tartibga solish muammolari bilan shugullanuvchi eng salmoqli tuzilma sifatida. Xalqaro investitsiyalarni kafolatlash agentligi, Xalqaro hisob-kitoblar banki, Xalqaro valyuta fondi, Birlashgan millatlar tashkiloti va uning ixtisoslashgan muassasalari.

[A22, 294-306; A24, 523-544; A14,29-75]

Jaxon xo'jaligining globallashuv jarayonlarida O'zbekistonning ishtiroki

Talabalarning bilim va ko'nikmalarini baholash mezonlari

Guruh	**Baho**	**Baholash ko'rsatkichlari va mezonlari**			**Jami**
		Topshiriqni aniq bajardi	**Muammoga echim topdi**	**Faol qatnashdi**	
	Ball	1,5	1,0	0,5	3
1.					
2.					
3.					

Guruh ishlarini umumlashtiruvchi baho

Guruh	1	2	3	Jami ball	Baho
1					
2					
3					

2,2 – 3 ball – a’lo

1,2 – 2,5 ball – yaxshi

0,5 – 1,1 ball – qoniqarli

0 – 0,5 ball – qoniqarsiz

2-ilova (11.2)

Bilimlarni faollashtirish uchun savollar

Rivojlangan mamlakatlar iqtisodiyotlaridagi o’ziga xos xususiyatlar.

Rivojlangan mamlakatlarning xalqaro mehnat taqsimotidagi ishtiroki

3-ilova (3.1)



8-mavzu	**Rivojlanayotgan mamlakatlar – xalqaro iqtisodiy munosabatlar tizimida**

Amaliy mashg’ulotni olib borish texnologiyasi

Talaba soni 20-50 ta	Vaqti 4-soat
Mashg’ulot shakli	Bilimlarni chuqurlashtirish va

	mustahkamlash ga qaratilgan amaliy mashg'ulot.
Mashg'ulot rejasi	1. Rivojlanayotgan mamlakatlarning asosiy ijtimoiy-iqtisodiy xususiyatlari 2. Rivojlanayotgan mamlakatlarning xalqaro tovar almashinuvida tutgan o'rni va roli 3. Xorijiy sarmoyalar – rivojlanayotgan mamlakatlar iqtisodiyotida 4. "Yangi industrial mamlakatlar"ning jahon xo'jaligida tutgan o'rni
O'quv mashg'ulotining maqsadi: mavzu bo'yicha bilimlarni chuqur o'zlashtirishni ta'minlash	
Pedagogik vazifalar:	*O'quv faoliyati natijalari:*
1. Rivojlanayotgan mamlakatlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi yuzasidan ma'ruza qiladi 2. Rivojlanayotgan mamlakatlarda xalqaro tovar almashuvi bo'yicha ma'lumot beradi. 3. Xorijiy sarmoyalar - rivojlanayotgan mamlakatlar iqtisodiyotida tutgan o'rnini tushuntiradi 4. Rivojlanayogan mamlakatlarning moliya - valyuta siyosatining xususiyatini yoritib beradi.	*Rivojlanayotgan mamlakatlar iqtisodiyotidagi asosiy tendentsiyalarini sanab bershadi;* *Rivojlanayotgan mamlakatlarning xalqaro tovar almashinuvida tutgan urnini tushuntirishadi;* *Xorijiy sarmoyalar - rivojlanayotgan mamlakat iqtisodiyotida qanday ahamiyatga egaligini tushuntirib berishadi;* *"Yangi industrial mamlakatlar"ning jahon xo'jaligida tutgan o'rnini baholab berishadi;* *"Yangi industrial mamlakatlar"ning rivojlanish modellari xususiyatlarini ochib beradi.*
Monitoring va baholash	Og'zaki nazorat, savol-javob, o'z-o'zini nazorat qilish, reyting tizimi asosida baholash.
O'qitish usullari -texnikasi	*topshiriqlar, amaliy ishlash usuli, suhbat*
O'qitish vositalari	Tarqatma material, kompyuterlar, doska
O'qitish shakllari	individual, kollektiv

O'qitish sharoiti	*kompyuter sinfi (har bir tinglovchi kompyuterda ishlash imkoniga ega)*

Amaliy mashg'ulotning texnologik kartasi (1-mashg'ulot)

Ish jarayon lari vaqti	Faoliyatning mazmuni	
	o'qituvchi	talaba
I-bosqich. Mavzuga kirish (5 daqiqa)	1.1. O'quv mashg'uloti mavzusi, maqsad va o'quv faoliyati natijalarini aytadi.	Tinglaydilar, yozib oladilar.
	1.2. Talabalarning mashg'ulotdagi faoliyatini baholash ko'rsatkichlari va mezonlari bilan tanishtiradi (1-ilova).	Tanishadilar
II-bosqich. Asosiy (70 daqiqa)	2.1. Talabalarning bilimlarini tekshirish uchun test o'tkazadi. (2-ilova)	Test savollariga javob beradi.
	2.2. Talabalarni 3 yoki 4 ta kichik guruhlarga bo'ladi.	Guruhlarga bo'linadi.
	2.3. Mavzu bo'yicha tayyorlangan 1-topshiriqni tarqatadi (3-ilova),	Topshiriqlarni bajaradilar.
	2.4. Guruhlarga topshiriqlarni bajarish uchun yordam beradi. Qo'shimcha ma'lumotlardan foydalanishga imkon yaratadi. Diqqatlarini kutiladigan natijaga jalb qiladi.	Faol qatnashadilar.
	2.5. Har bir guruh topshiriqlarni vatman-qog'ozlarga tushirib, taqdimotini o'tkazishda yordam beradi, izoh beradi. Topshiriqlarni bajarilishi qay dara-jada to'g'ri ekanligini diqqat bilan tinglaydi.	Ishning taqdimotini o'tkazadilar, xulosa chiqara-dilar.
	2.6. Guruhlarga «Baliq skeleti» texnikasidan foydalanilgan holda 2-topshiriqni beradi. (4-ilova)	Organayzerni to'ldiradilar
III-bosqich. Yakuniy (10 daqiqa)	3.1. Kurs bo'yicha yakuniy xulosa chiqaradi. Faol talabalarni baholash mezoni orqali rag'batlantiradi.	Eshitadi. Aniqlaydi.
	3.2. Yakuniy nazorat ishiga tayyorgarlik ko'rish uchun maslahatlar beradi.	Eshitadi. Aniqlaydi.

1- ilova

Baholash mezoni va ko'rsatkichlari

Guruhlar Topshiriqlar	Savolning to'liq va aniq yoritilishi 0-5 ball	Misollar bilan muammoga echim topishi 0-5 ball	Guruh a'zolarining faolligini 0-5 ball	Jami ball

1,5 – 1,3 ball – «a'lo».

1,2 – 1,0 ball – «yaxshi».

0,9 – 0,6 ball – «qoniqarli».

1-guruh

1. Rivojlanayotgan mamlakatlarning jahon xo'jaligidagi o'rnini belgilovchi asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlarni izohlang

2.Afrika davlatlarining jahon iqtisodiyotidagi o'rni

2-guruh

1. Rivojlanayotgan mamlakatlarning jahon savdosidagi o'rnini belgilovchi asosiy ko'rsatkichlarni izohlang

2.Janubiy Amerika davlatlarining jahon iqtisodiyotidagi o'rni

3-guruh

1. Rivojlanayotgan mamlakatlarning jahon ishlab chiqarishidagi o'rnini belgilovchi asosiy ko'rsatkichlarni izohlang

2.Ochsiyo mamlakatlarining jahon iqtisodiyotidagi o'rni

2- **ilova**



«Baliq skeleti» texnikasi

Ushbu texnologiya katta muammolarning echimini topishga qaratilgan. Yuqori qismida muammolar turi yozilsa, pastki qismida esa misollar bilan izohlanadi.

3- ilova

Nazorat uchun savollar

Rivojlanayotgan davlatlar guruhiga qaysi mamlakatlar kiritiladi?

Rivojlanayotgan davlatlarning jahon iqtisodiyotidagi o'rnini qaysi ko'rsatkichlar bilan ko'rsatib berish mumkin?

Rivojlayotgan mamlakatlarning umumiy xususiyatlarini aytib bering.

Amaliy mashg'ulotning texnologik kartasi (2-mashg'ulot)

Ish jarayon lari vaqti	Faoliyatning mazmuni	
	O'qituvchi	talaba
I-bosqich. Mavzuga kirish (5 daqiqa)	1.1. O'quv mashg'uloti mavzusi, maqsad va o'quv faoliyati natijalarini aytadi.	Tinglaydilar, yozib oladilar.
	1.2. Talabalarning mashg'ulotdagi fao-liyatini baholash ko'rsatkichlari va me-zonlari bilan tanishtiradi (1-ilova).	
II-bosqich. Asosiy (75 daqiqa)	2.1. Talabalarning bilimlarini tek-shirish maqsadida jonlantiruvchi savollar beradi (2-ilova)	Test savollariga javob beradi.
	2.2. Talabalarni 3 yoki 4 ta kichik guruhlarga bo'ladi.	Guruhlarga bo'linadi.
	2.3. Guruhlarga «Baliq skeleti» texnikasidan foydalanilgan holda turizmning ahamiyatini ochib	Organayzerni to'ldiradilar

	bering. (3-ilova)	
III-bosqich. Yakuniy (5 daqiqa)	3.1. Mavzu bo'yicha yakuniy xulosa chiqaradi. Faol talabalarni baholash mezoni orqali rag'batlantiradi.	Eshitadi. Aniqlaydi.

1-ilova

Talabalarning bilim va ko'nikmalarini baholash mezonlari

Guruh	**Baho**	**Baholash ko'rsatkichlari va mezonlari**			**Jami**
		Topshiriqni aniq bajardi	**Muammoga echim topdi**	**Faol qatnashdi**	
	Ball	1,5	1,0	0,5	3
1.					
2.					
3.					

Guruh ishlarini umumlashtiruvchi baho

Guruh	**1**	**2**	**3**	**Jami ball**	**Baho**
1					
2					
3					

2,2 – 3 ball – a'lo

1,2 – 2,5 ball – yaxshi

0,5 – 1,1 ball – qoniqarli

0 – 0,5 ball – qoniqarsiz

2-ilova (12.2)

"Jonlantiruvchi savollar"

Xalqaro tovar almashuvida rivojlanayotgan mamlakatlarning tutgan o’rni xarkaterlab bering.

2. Rivojlanayotgan mamlakatlar iqtisodiyotida xalqaro korporatsiyalarning rolini tavsiflab bering

3-ilova (11.2)



9-mavzu	**Xalqaro iqtisodiy integratsiya**

Amaliy mashg’ulotning texnologik ta’limi

Talabalar soni 20-25ta	*Vaqti* 4-soat
Mashg’ulot shakli	Bilimlarni chuqurlashtirish va mustah-kamlashga qaratilgan amaliy mashg’ulot.
Mashg’ulot rejasi	1. Iqtisodiy integratsiya mohiyati va unga ta’sir etuvchi omillar 2. Iqtisodiy integratsiya shakllanishi shart – sharoitlari va uning bosqichlari 3. Iqtisodiy integratsiyaning milliy davlatlar iqtisodiyotiga ta’siri 4. G’arbiy Evropada integratsiya jarayonlarining rivojlanishi 5. Amerika qit’asida integratsiya jarayonlari rivojlanishining xususiyatlari 6. Osiyo-Tinch okeani mintaqasida integratsion jarayonlarning xususiyatlari 7. O’zbekistonning integratsion tashkilotlardagi ishtiroki
O’quv mashg’ulotining maqsadi: mavzu bo’yicha bilimlarni kengaytirish va chuqurlashtirish	
Pedagogik vazifalar: 1.mavzu bo’yicha bilimlarni kengaytirish va chuqurlashtirish; 2.bilimlarni, taqqoslashni, umumlashtirishni, tahlilni tizimlashtirish ko’nikmasini hosil qilish;	*O’quv faoliyatining natijalari:* *Talaba bajarishi lozim:* *Iqtisodiy integratsiyaning mohiyatini ochib berish* *Integratsiyaning bosqichlarini sanab beradilar* *Evropa Ittifoqi doirasidagi integratsiyaning*

3.o'z fikrini shakllantirish va bildirish jarayonini tashkil qilish; 4.kommunikatsiya, guruhdaG'juftlikda ishlash ko'nikmalarini rivojlantirish.	*rivojlanishi va uning xususiyatlari* *Jahon iqtisodiyotidagi integratsiya guruhlarini sanab berish*
O'qitish usullari-texnikasi	*ma'ruza, tushuntirish, instruktsiya berish, namoyish, blits-so'rov, paradokslar usuli*
O'qitish vositalari	ma'ruza matni, kompyuter slaydlari, doska
O'qitish shakllari	frontal, kollektiv ish
O'qitish sharoiti	*kompyuter, multimedia proektor* *(yoki proektor va LCD panel)*
Monitoring va baxolash	Kuzatish, og'zaki nazorat, yozma nazorat, savol-javobli so'rov, o'quv topshiriq.

Amaliy mashg'ulotning texnologik xaritasi

Ish bosqichlari	faoliyatning mazmuni	
	O'qituvchi	Talaba
1-bosqich. Mavzuga kirish (10 min)	O'quv mashg'uloti 1-2 savollar chuqurroq tahlil qilinadi va o'quv faoliyati natijalarini aytadi.	Mavzu nomini yozib oladilar
	Tinglovchilarning mashg'ulotdagi faoliyatini baholash ko'rsatkichlari va mezonlari bilan tanishtiradi.	Yozib oladilar
	Savollar berib suhbat tarzida tinglovchilar bilimlarini jonlantiradi *(1-ilova)* .	Topshiriqlar bilan tanishadilar
2 -bosqich. Asosiy bo'lim. (60 min)	2.1. Mavzu bo'yicha tayyorlangan topshiriqlarni tarqatadi *(2-ilova)* va guruhda ishlashni tashkil etadi. Taqdimotni e'lon qiladi. Bajargan topshiriqni natijalarini tahlil qilib tushuntiradi.	2 ta mini guruhga ajraladilar. Topshiriqni bajaradi. Taqdimotni amalga oshiradi
	2.2. Iqtisodiy integratsiyaning ob'ektiv asoslari va bosqichlari. rejasi yuzasidan misollar beradi. Misol mazmunini tushuntiradi va bajarish bo'yicha maslahatlar beradi. Kuzatib boradi.	Bajaradilar. Natijani tahlil qiladilar.
3-bosqich. Yakunlovchi (10 min)	3.1. Mashg'ulot bo'yicha yakunlovchi xulosalar qiladi.	Savol beradilar
	3.3. Mashg'ulot maqsadiga erishishdagi tinglovchilar faoliyati tahlil qilinadi va baholanadi.	
	3.3. Mashg'ulot bo'yicha bilimlarini chuqurlashti- rish uchun adabiyotlar beradi	Yozib oladilar

1-Ilova

Iqtisodiy integratsiyaning mohiyati nimada?
Iqtisodiy integratsiyani milliy iqtisodiyot rivojlanishiga ta’siri.
Erkin savdo hududi nima?
Iqtisodiy integratsiyani asosiy shakllarini aytib bering.

2-ilova

1– topshiriq Iqtisodiy integratsiyani kelib chiqishining asosiy sabablari nimalardan iborat?

2– topshiriq Erkin savdo hududi va uning xususiyatlari?

Amaliy mashg’ulotning texnologik kartasi (2-mashg’ulot)

Ish jarayon lari vaqti	*Faoliyatning mazmuni*	
	O’qituvchi	*Talaba*
I-bosqich. Mavzuga kirish. (10 daqiqa)	1.1. Amaliy mashg’ulotning maqsadi va o’quv faoliyati natijalarini aytadi. Ta’lim jarayoni «Kichik guruhlarda ishlash» orqali amalga oshirilishini e’lon qiladi *(4-ilova).*	Tinglaydilar. O’UM ga qaraydilar.
	1.2. «Nima uchun» texnikasidan foydala-nilgan holda talabalarga, «Nima uchun NAFTA tuzilgan?» degan savol bilan murojaat qiladi. Bajarilgan ishlarni ko’zdan kechirib xulosalaydi *(4-ilova).*	O’z fikrlarini erkin bildiradilar. Organayzerni to’ldiradilar.
	1.3. Talabalarning fikrini umumlashtirib, ularni 3-4 ta kichik guruhlarga bo’ladi.	Interfaol usul-lardan foydala-nilgan holda kichik guruhlarga bo’linadi.

	1.4. Talabalarning mashg'ulotdagi faoliyatini baholash ko'rsatkichlari va mezonlari bilan tanishtiradi *(5-ilova)*.	O'UM ga qaraydilar.
	1.5. Mavzu bo'yicha tayyorlangan topshi-riqlarni tarqatadi *(6-ilova)*.	Topshiriqlar us-tida ishlaydilar.
II-bosqich. Asosiy (60 daqiqa)	2.1. Guruhlarga topshiriqlarni bajarishi uchun yordam beradi. Ularni baholash mezonlari bilan tanishtiradi. Qo'shimcha ma'lumotlardan foydalanishga imkon yaratadi. Diqqatlarini kutiladigan nati-jaga jalb qiladi.	Faol qatnashadilar.
	2.2. Har bir guruh topshiriqlarini vatman-qog'ozlarga tushirib, taqdimotini o'tkazishga yordam beradi, bilimlarini umumlashtiradi, xulosalarga alohida e'tibor beradi. Topshiriqlarning bajarilishini qay darajada to'g'ri ekanligini diqqat bilan tinglaydi.	Jamoa bo'lib ba-jarilgan ishning taqdimotini o't-kazadilar, bahs-munozara yurita-dilar, qo'shimchalar qiladilar, xulosa chiqaradilar. Baholaydilar.
	2.3. Guruhlarga «Muammoli vaziyat» uslubidan foydalanilgan holda «Markaziy Osiyo integratsiyasini rivojlantirish istiqbollari qanday?» deb savol bilan murojaat qiladi *(7-ilova)*.	Mustaqil baja-radilar. Erkin fikrlarini namoyon etgan holda jadvalni to'ldiradi.
	2.4. Har bir guruh topshiriqlarni vatman-qog'ozlarga tushirib, taqdimotini o'tkazishda yordam beradi. Yagona xulosa chi-qarishga ko'mak beradi va nihoyasida umumlashtiradi.	Taqdimot o'tkaza-di. G'olib guruh-larni aniqlab, baholaydi.
III-bosqich. Yakuniy (10 daqiqa)	3.1. Ish yakunlarini chiqaradi. Faol talabalarni baholash mezoni orqali rag'batlantiradi.	Eshitadi. Aniqlaydi.
	3.2. Keyingi mavzu ma'ruzalar matnini insert texnikasi yordamida o'qib kelish	O'UM ga qaraydilar.

3-ilova

Kichik guruhlarda ishlash qoidasi

1. Talabalar ishni bajarish uchun zarur bilim va malakalarga ega bo'lmog'i lozim.
2. Guruhlarga aniq topshiriqlar berilmog'i lozim.
3. Kichik guruh oldiga qo'yilgan topshiriqni bajarish uchun etarli vaqt ajratiladi.
4. Guruhlardagi fikrlar chegaralanmaganligi va tazyiqqa uchramasligi haqida ogohlantirilishi zarur.
5. Guruh ish natijalarini qanday taqdim etishini aniq bilishlari, o'qituvchi ularga yo'riqnoma berishi lozim.

4- ilova

«Nima uchun?» texnikasi



5-ilova

Baholash mezoni va ko'rsatkichlari

Guruhlar	Savolning to'liq va aniq yoritilishi 0-5 ball	Misollar bilan muammoga echim topishi 0-5 ball	Guruh a'zolarining faolligini 0-5 ball	Jami ball

1.5 – 1.3 ball – «a’lo».

1.2 – 1.0 ball – «yaxshi».

0.9 –0.6 ball – «qoniqarli».

6-ilova

Ekspert qog’ozlari - topshiriqlar

1-guruh

Iqtisodiy integratsiyaning iqtisodiyotiga nafini ko’rsatib bering (misollar yordamida).

2-guruh

Bojxona ittifoqinin mohiyatini ko’rsatib bering (misollar yordamida).

3-guruh

Iqtisodiy integratsiyaning shakllariga tavsif bering.

4-guruh

Iqtisodiy ittifoq nima.

7-ilova

«Muammoli vaziyat»

«Muammoli vaziyat» turi	*«Muammoli vaziyat» sabablari*	*Vaziyatdan chiqib ketish harakatlari*
“Markaziy Osiyo integratsiyasini rivojlantirish istiqbollari qanday?»		

10-mavzu	Jahon iqtisodiyotini tartibga solishda xalqaro tashkilotlarning roli

10.1. Amaliy mashg'ulotni olib borish texnologiyasi

1Amaliy mashg'ulot texnologik kartasi (1-mashg'ulot)

Ish bosqichlari	faoliyatning mazmuni	
	O'qituvchi	Talaba
1-bosqich. Mavzuga kirish (10 min)	1.1. O'quv mashg'ulotida savollar tahlil qilinadi va o'quv faoliyati natijalarini aytadi.	Mavzu nomini yozib oladilar
	Tinglovchilarning mashg'ulotdagi faoliyatini baholash ko'rsatkichlari va mezonlari bilan tanishtiradi.	Yozib oladilar
	Savollar berib suhbat tarzida tinglovchilar bilimlarini jonlantiradi *(1-ilova)* .	Topshiriqlar bilan tanishadilar
2 -bosqich. Asosiy bo'lim. (60 min)	Mavzu bo'yicha tayyorlangan topshiriqlar ni tarqatadi *(2-ilova)* va guruhda ishlashni tashkil etadi.Taqdimotni e'lon qiladi. Bajargan topshiriqni natijalarini tahlil qilib tushuntiradi.	2 ta mini guruhga ajraladilar. Topshiriqni bajaradi. Taqdimotni amalga oshiradi
	2.2. Xalqaro ixtisoslashuv va ishlab chiqarish kooperatsiyasi rejasi yuzasidan misollar beradi. Misol mazmunini tushuntiradi va bajarish bo'yicha maslahatlar beradi. Kuzatib boradi.	Bajaradilar. Natijani tahlil qiladilar.
3-bosqich. Yakunlovchi (10 min)	3.1. Mashg'ulot bo'yicha yakunlovchi xulosalar qiladi.	Savol beradilar
	3.3. Mashg'ulot maqsadiga erishishdagi tinglovchilar faoliyati tahlil qilinadi va baholanadi.	
	3.3. Mashg'ulot bo'yicha bilimlarini chuqurlashti- rish uchun adabiyotlar beradi	Yozib oladilar

1-Ilova

50-70 yillarda xalqaro iqtisodiy tashkilotlarning vujudga kelishi jarayonlarini sabablarini ochib bering?
BMT tizimidagi iqtisodiy muassasalarning (savdo va taraqqiyot bo'yicha anjumani – YuNKTAD) tuzilmalarini tavsiflab bering.
O'zbekiston Respublikasini xalqaro iqtisodiy tashkilotlarda ishtirokini yoritib bering?
O'zbekistonning asosiy integratsion guruhlar bilan hamkorligini ko'rsating.

2-ilova

1– topshiriq
1. Hududiy iqtisodiy tashkilotlarni tavsiflab bering?

2– topshiriq
O'zbekistondagi investitsion muhit va uning jahon iqtisodiyotiga integratsiyalashuvini ochib bering?

11-mavzu	**Jahon xo'jaligining globallashuv jarayonlarida O'zbekistonning ishtiroki**

11.1. Amaliy mashg'ulotda ta'lim texnologiyasi

Talabalar soni: 15-30	*Vaqt* – 4 soat
O'quv mashg'ulotining shakli	Muammoli amaliy mashg'ulot
Amaliy mashg'ulotda muhokama qilish uchun savollar	1.O'zbekistonning iqtisodiy salohiyati va imkoniyatlari

	2.O’zbekiston Respublikasining jahon mamlakatlari bilan iqtisodiy aloqalarining rivojlanishi 3.O’zbekiston Respublikasi iqtisodiyotida xalqaro iqtisodiy tashkilotlar bilan hamkorlikning ta’siri
O’quv mashg’ulotining maqsadi: mavzu bo’yicha bilimlarni kengaytirish va chuqurlashtirish, muammoli vazifalarni hal qilish ko’nikmasini rivojlantirish.	
Pedagogik vazifalar: *Mavzu bo’yicha bilimlarni o’zlashtirish va mustahkamlashga motivatsiya yaratish;* *Mavzu bo’yicha bilimlarni tizimlashtirish, mustahkamlash va chuqurlashtirish;* *Muammoli vazifalarni hal qilish, muammoni tahlil qila bilish, muqobil qarorlarni ilgari surish, muqobillarni baholash, yakuniy qaror shakllantirish ko’nikmalarini rivojlantirish.*	*O’quv faoliyati natijalari*: *Talaba bajarishi kerak:* *Quyidagi tushunchalarga tarif berishadi: «eksportga yo’naltirilgan siyosat», «import o’rnini qoplashga qaratilgan siyosat», «savdo siyosati»;* *Respublika tashqi savdosidagi tendentsiyalarni aytib berishadi;* *O’zbekiston Respublikasida tashqi iqtisodiy aloqalarining rivojlanish tendentsiyalarini tushuntirib beradilar.*
O’qitish usullari	Muammoli usul, suhbat, aqliy hujum, taqdimot, munozara.
O’qitish vositalari	Ma’ruza matnlari, A32 bichimdagi qog’oz, markerlar, skotch, o’quv materiallari.
O’qitish shakllari	Frontal, jamoaviy, guruhlarda ishlash.
O’qitish sharoitlari	Guruhlarda ishlash uchun moslashtirilgan auditoriya
Monitoring va baholash	Og’zaki nazorat: blits-so’rov, nazorat savollari

Amaliy mashg’ulot texnologik kartasi (1-mashg’ulot)

Ish bosqichlari	Faoliyat	
	O’qituvchi	Talabar

1-bosqich. Mavzuga kirish (10 min)	O’quv mashg’uloti 1-2 savollar chuqurroq tahlil qilinadi va o’quv faoliyati natijalarini aytadi.	Mavzu nomini yozib oladilar
	Tinglovchilarning mashg’ulotdagi faoliyatini baholash ko’rsatkichlari va mezonlari bilan tanishtiradi.	Yozib oladilar
	Savollar berib suhbat tarzida tinglovchilar bilimlarini jonlantiradi *(1-ilova)* .	Topshiriqlar bilan tanishadilar
2 -bosqich. Asosiy bo’lim. (60 min)	1.1. Mavzu bo’yicha tayyorlangan topshiriqlarni tarqatadi *(2-ilova)* va guruhda ishlashni tashkil etadi. Taqdimotni e’lon qiladi. Bajargan topshiriqni natijalarini tahlil qilib tushuntiradi.	2 ta mini guruhga ajraladilar. Topshiriqni bajaradi. Taqdimotni amalga oshiradi
	2.2. O’zbekiston Respublikasi tashqi savdo aloqalarining geografik va tovar tarkibi rejasi yuzasidan misollar beradi. Misol mazmunini tushuntiradi va bajarish bo’yicha maslahatlar beradi. Kuzatib boradi.	Bajaradilar. Natijani tahlil qiladilar.
3-bosqich. Yakunlovchi (10 min)	3.1. Mashg’ulot bo’yicha yakunlovchi xulosalar qiladi.	Savol beradilar
	3.3. Mashg’ulot maqsadiga erishishdagi tinglovchilar faoliyati tahlil qilinadi va baholanadi.	
	3.3. Mashg’ulot bo’yicha bilimlarini chuqurlashti- rish uchun adabiyotlar beradi	Yozib oladilar

1-Ilova

O’zbekiston Respublikasi tashqi savdosi rivojlanishining asosiy yo’nalishlari?
O’zbekiston eksportining asosiy yo’nalishlarini ayting.
O’zbekiston asosiy tashqi savdo hamkorlari qaysi mamlakatlar?

2-ilova

1– topshiriq
Eksportga yo’naltirilgan iqtisodiy siyosatning asosiy maqsadlari nimalardan iborat?
2– topshiriq
Importni qoplashga qaratilgan iqtisodiy siyosatning mohiyati nimada?

3-ilova

Baholash ko’rsatkichlari va mezonlari (ballarda)

Guruh	Echim (to’liqligi, to’g’riligi)		Tushuntirish (aniqlik, ketma-ketlik)	Guruhning faolligi (qo’shimchalar, savollar)	Jami ballar
	Vazifa echimi, muammo-ni aniqlash	Vazifani hal qilish choralari	(0,6)	(0,4)	(2,0)
	(0,5)	(0,5)			
1					
2					
3					

Guruhlar ishini umumlashtirilgan baholash

guruh	1	2	3	jami	2 ga bo’lingan umumiy summasi
1	-				
2		-			
3			-		

MUSTAQIL TA’LIMGA OID TOPShIRIQLAR

Fan bo’yicha talabaning mustaqil ta’limi shu fanni o’rganish jarayonining tarkibiy qismi bo’lib, uslubiy va axborot resurslari bilan to’la ta’minlangan. Talabalar auditoriya mashg’ulotlarida professor-o’qituvchilarning ma’ruzasini tinglaydilar, amaliy misollar echadilar.

Auditoriyadan tashqarida talaba darslarga tayyorlanadi, adabiyotlarni konspekt qiladi, uy vazifa sifatida berilgan topshiriqlarni bajaradi. Bundan tashqari ayrim mavzularni kengroq o'rganish maqsadida qo'shimcha adabiyotlarni o'qib referat (taqdimot)lar tayyorlaydi hamda mavzu bo'yicha testlar echadi. Mavzuga doir masalalar, keys-stadi va o'quv loyihalarini Axborot resurs markazi manbalari ma'lumotlarini to'plagan holda bajaradi. Mustaqil ta'lim natijalari reyting tizimi asosida baholanadi.

"JI a XIM" fanidan mustaqil ish majmuasi fanning barcha mavzularini qamrab olgan quyidagi mavzu ko'rinishida shakllantirilgan:

1.Jahon iqtisodiyotining mohiyati va XX-XXI asrlar bo'sag'asidagi taraqqiyotining asosiy konuniyatlari va tamoyillari.
2.Xalqaro mehnat taqsimoti jahon xo'jaligining moddiy asosi sifatida.
3.Xalqaro ishlab chikarishning ixtisoslashuvi va kooperatsiyasi.
4.Jahon iqgisodiyotda Yangi industrial davlatlarning tutgan o'rni.
5.Bozor iqgisodiyotiga o'tayotgan davlatlarning iqtisodiy rivojlanish modellari.
6.Jahon xo'jaligida iqgisodiy xavfsizlik muammolari.
7.Jahon iqtisodiyotida transmilliy korporatsiyalarning tutgan o'rni.
8.Jahon xo'jaligida iqtisodiy o'sish va ijtimoiy rivojlanish muammolari.
9.Erkin iqtisodiy xududlar va ularni tashkil etish muammolari.
10.Xalqaro raqobat va uning zamonaviy sharoitda yuzaga chiqish xususiyatlari.
11.Zamonaviy jahon xo'jaligi sub'ektlari va mamlakatning jahon iqtisodiyotdagi o'rnini tavsiflovchi ko'rsatkichlar tizimi.
12.Xalqaro iqtisodiy integratsiyaning mazmuni va mohiyati.
13.Xalqaro ilmiy-texnikaviy hamkorlik.
14.XXI asr bo'sag'asida jahon iqgisodiyotida global muammolar.
15.Jahon iqgisodiyotida oziq-ovqat muammosi.
16.Germaniya Federativ Respublikasi. Jahon mamlakatlari bilan olib borayotgan iqtisodiy munosabatlari.
17.Frantsiya Respublikasi iqtisodiyoti. Jahon mamlakatlari bilan olib borayotgan iqtisodiy munosabatlari.
18.Buyuk Britaniya va Shimoliy Irlandiya birlashgan qirolligi iqtisodiyoti. Jahon mamlakatlari bilan olib borayotgan iqgisodiy munosabatlari.
19.Italiya Respublikasi iqtisodiyoti. Jahon mamlakatlari bilan olib borayotgan iqtisodiy munosabatlari.
20.Yaponiya iqtisodiyoti. Jahon mamlakatlari bilan olib borayotgan iqtisodiy munosabatlari.
21.Koreya Respublikasi iqtisodiyoti. Jahon mamlakatlari bilan olib borayotgan iqtisodiy munosabatlari.
22.Malayziya federatsiyasi iqtisodiyoti. Jahon mamlakatlari bilan olib borayotgan iqtisodiy munosabatlari.
23.Xitoy Xalq Respublikasi iqtisodiyoti. Jahon mamlakatlari bilan olib borayotgan iqtisodiy munosabatlari.

Eslatma: Mustaqil ish topshiriqlari tegishli mavzular bo'yicha o'quv- metodik majmua oxirida keltirilmoqda

O’ZBEKISTON RESPUBLIKASI

OLIY VA O’RTA MAXSUS TA’LIM VAZIRLIGI

GULISTON DAVLAT UNIVERSITETI

«TASDIQLANDI»

O’quv ishlari bo’yicha prorektor

_____ F.G.Sharipov

«___» _____ 2020 yil

№_____

“JAHON IQTISODIYOTI VA XALQARO IQTISODIY MUNOSABATLAR”

FANINING IShChI O’QUV DASTURI

Bilim sohasi: **100 000 - Gumanitar soha**

Ta’lim sohasi: **23000 - Ijtimoyi soha, iqtisod va huquq**

Ta’lim yo’nalishi: **5230100-Iqtisodiyot (tarmoqlar va sohalar bo’yicha)**

Umumiy o’quv soati: – 156 soat

Shu jumladan:

Ma’ruza – 60 soat

Amaliyot – 30 soat

Mustaqil ta’lim – 66 soat

GULISTON – 2020

Fanning ishchi o'quv dasturi O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2020 yil "__" __ dagi "__"-sonli buyrug'i bilan (buyruqning ____- ilovasi) tasdiqlangan "Jahon iqtisodiyoti va halqaro iqtisodiy munosababtlar" fani dasturi asosida tayyorlangan.

Fan dasturi Guliston davlat universiteti Kengashining 2020 yil "___" _____dagi ___ - sonli bayoni bilan tasdiqlangan.

Tuzuvchi:

Shoev A.X. GulDU Iqtsodiyot kafedrasi o'qituvchisi

Taqrizchi:

Burxonov A.X. GulDU Iqtisodiyot kafedrasi dotsenti, iqtisod fanlari nomzodi

GulDU "Ijtimoiy-iqtisodiy"

fakulteti dekani:

2020 yil "___" "_____" _____ B.B.To'ychiboev

GulDU "Iqtisodiyot"

kafedrasi mudiri:

2020 yil "___" "_____" _____ O.T.Sattorqulov

GulDU O'quv-uslubiy bo'lim

boshlig'i :

2020 yil "___" "_____" _____I.Xudoyberdiev

2.O’quv materiallari mazmuni

2.1.Ma’ruza mashg’ulotlari mazmuni

Kirish

Mamlakatimizni rivojlantirish, yangilash va modernizatsiya qilish bo’yicha tanlagan stragegiyamiz va Inqirozga qarshi qabul qilgan dasturimizni amalga oshirish natijasida yurtimiz dunyodagi sanokdi davlatlar qatorida iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishning barqaror sur’atlarini ta’minlash, aholimizning moddiy farovonligini yuksaltirishga erishgani barchamizga katta mamnuniyat va iftixor bag’ishlaydi, albatga. Ushbu o’quv dasturi “Jahon iqtisodiyoti va xalqaro iqtisodiy munosabatlar” fanidan chuqur nazariy va amaliy bilimlarni egallashda, tashqi iqtisodiy muhitni chuqur taxdil qilishda, iqtisodiy rivojlanish strategiyalarini ishlab chiqishda, rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlar tajribasini o’rganishda, shuningdek ushbu mamlakatlar iqtisodiyoti rivojlanishining o’ziga xos jihatlarini tushunishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Fanning maqsad va vazifalari

Fanni o’qitishdan maqsad - talabalarga jahon iqtisodiyoti va xalqaro iqtisodiy munosabatlarga oid nazariy va amaliy bilimlarni berish, o’z yo’nalishiga mos tasavvur va ko’nikmalarni rivojlantirishdir.

Fanning vazifalari - talabalarga jahon iqtisodiyoti va xalqaro iqtisodiy munosabatlarning nazariy asoslari va tamoyillarini rivojlantirishning o’ziga xos jihatlarini tushunishiga yordam berish; jahon mamlakatlari iqtisodiyotini belgilovchi asosiy ko’rsatkichlardan foydalanishni o’rgatish; jahon mamlakatlari iqtisodiyotini belgilab beruvchi asosiy makroiqgisodiy parametrlar taxdilini amalga oshirishni o’rgatish; jahon iqtisodiyotida xalqaro savdoning mohiyati va ahamiyatini tushuntirish; jahon iqtisodiyotida xalqaro tashkilotlar faoliyatining maqsad va vazifalarini tushuntirish; jahon mamlakatlari bilan samarali hamkorlik qilishning nazariy va amaliy tomonlarini o’rgatishdan iboratdir.

Fan bo’yicha talabalarning bilim, ko’nikma va malakalariga qo’yiladigan talablar

“Jahon iqtisodiyoti va xalqaro iqtisodiy munosabatlar” o’quv fanini o’zlashtirish jarayonida amalga oshiriladigan masalalar doirasida bakalavr:

jahon iqtisodiyoti tizimi, tarmoq tuzilishini;

jahon xo’jaligi tizimi rivojlanishining asosiy qonuniyatlari, tendentsiyalari va zamonaviy xususiyatlarini;

jahon mamlakatlarining guruxdarga tasniflanishi va ularning ijtimoiy-iqtisodiy tavsiflarini;

jahon iqtisodiyotida mamlakatlar o'rtasidagi o'zaro munosabatlarning asosiy shakllari va zamonaviy xususiyatlarini;

jahon xo'jaligining global muammolarini; jahon iqtisodiyotida O'zbekistonning o'rnini bilishn kerak;

jahon xo'jaligida ma'lumotlar yig'ishni tashkillashtirish va ularning sifatini baholash;

kuzatishlar natijasida olingan ma'lumotlarni tizimlash va qayta ishlash;

ma'lumotlarni qayta ishlash natijalarini umumlashtirish va taxlil qilish ko'nikmalariga ega bo'lishi kerak;

jahon iqtisodiy o'sishi va rivojlanishining asosiy ko'rsatkichlarini hisoblash va taxdil qilish;

jahon iqtisodiyotining rivojlanish tendentsiyalarini aniqlash; xorijiy mamlakatlarning asosiy iqtisodiy ko'rsatkichlarini taxdil qilish asosida ularning rivojlanish darajasini aniqlash;

jahon iqtisodiyotida xalqaro hamkorlikning eng oqilona uslub va ko'rinishlarini aniqlash malakalariga ega bo'lishi kerak.

Fanning o'quv rejadagi boshqa fanlar bilan o'zaro bogliqligi va uslubiy jihatdan uzviyligi

"Jahon iqtisodiyoti va xalqaro iqtisodiy munosabatlar" fani umumkasbiy fanlar majmuasiga taaluqli bo'lib, talabalar uni VI-semestrda o'rganishadi.

Bu dasturni amalda bajarish uchun talabalar "Iqtisodiyot nazariyasi", "Mikroiqtisodiyot", "Statistika", "Makroiqgisodiyot" fanlaridan etarlicha ma'lumotga ega bo'lishlari lozim.

"Jahon iqtisodiyoti va xalqaro iqtisodiy munosabatlar" fani "Mehnat iqtisodiyoti. Inson taraqqiyoti", "Kichik biznes va tadbirkorlik", "Logistika" va boshqa fanlarni o'rganishda asos bo'lib xizmat qiladi.

Fanning ishlab chiqarishdagi o'rni

O'zbekiston Respublikasining ishlab chiqargan korxonalarining maxsulotlarini tashqi bozorlarga chiqishi, chet el firma va kompaniyalarining mamlakatimizda shakllanayotgan tovar va xizmatlar bozoriga kirishi sezilarli darajada rivojlanib bormoqda. Ma'lumki, ochiq turdagi iqgisodiyotni yaratmay turib mamlakatimizning jahon xo'jaligiga integratsiyalashuvi bir muncha sekin kechadi. Shundan kelib chiqib jahon iqtisodiyotini rivojlanish tamoyillarini chukur taxlil etish va o'rganish, jahon mamlakatlari bilan iqtisodiy munosabatlarni rivojlantirish shu kunning talabiga aylanib bormokda.

Yurtimizda keng imkoniyatlar mavjudligini, ya'ni boy xomashyo resurslarga va shuningdek mapakapi ishchi kuchlariga egaligini, borligini inobatga olib raqobatbardosh, sifatli mahsulotlarni o'z yurtimizda chiqarib, shu yo'l bilan jahon hamjamiyatida va shuning dunyo

bozorida o’zimizga munosib o’rin egallash mumkin. Mamlakatimiz rivojida xorijiy investitsiyalarni urni alohida ahamiyatga ega bo’lib, shuningdek mamlakatimizni rivojlantirishning ustuvor yo’nalishlardan biri hisoblanadi.

Fanni o’qitishda zamonaviy axborot va pedagogik texnologiyalar

Talabalarning “Jahon iqtisodiyoti va xalqaro iqtisodiy munosabatlar” fanini o’zlashtirishlari uchun o’qitishning ilgor va zamonaviy usullaridan foydalanish, yangi informatsion-pedagogik texnologiyalarni tatbiq etish muhim ahamiyatga ega. Fanni o’zlashtirishda darslik, o’quv va uslubiy qo’llanmalar, ma’ruza matnlari, tarqatma materiallar, elektron materiallar, virtual stendlar va maketlardan foydalaniladi. Ma’ruza, amaliy va laboratoriya darslarida mos ravishdagi ilgor pedagogik va axborot texnologiyalaridan hamda o’quv-uslubiy majmualardan foydalaniladi.

Fandan o’tiladigan mavzular va ular bo’yicha mashg’ulot turlariga ajratilgan soatlarning taqsimoti

TG’r	Fanning bo’limi va mavzusi, ma’ruza mazmuni	**Ma’ruza**	**Amaliyot**
1	Jahon xo’jaligi va halqaro iqtisodiy munosabatlar asociy ko’rinishlari va xususiyatlari. Halqaro mehnat taqsimoti	4	2
2	Halqaro savdoning rivojlanish nazariyalari va modellari	6	4
3	Tashqi savdoni davlat tomonidan tartibga solish va boshqarish yo’llari	6	4
4	Halqaro ishchi kuchi migratsiyasi	4	2
5	Halqaro kapital migratsiyasi va tranmilliy kompaniyalar	6	2
6	Jahon iqtisodiyotida Erkin iqtisodiy xududlarning tutgan o’rni	4	2
	ON		
7	Halqaro valyuta-moliya va kredit munosabatlari	4	2
8	Jahon xo’jaligida rivojlangan mamlakatlar iqtisodiyoti	6	2
9	Rivojlanayotgan mamlakatlar halqaro iqtisodiy munosabatlar tizimida	6	2
10	Halqaro iqtisodiy integratsiya	6	4
11	Jahon iqtisodiyotini tartibga solishda halqaro tashkilotlarning roli	4	2

12	Jahon xo'jaligining globallashuv jarayonlarida O'zbekistonning ishtiroki	4	2
	ON		
	YaN		
	Jami	**60**	**30**

ASOSIY QISM

Jahon xo'jaligi va xalqaro iqtisodiy munosabatlar: asosiy ko'rinishlari va xususiyatlari. Xalqaro mehnat taqsimoti

Jahon xo'jaligi va xalqaro iqtisodiy munosabatlar: asosiy ko'rinishlari va xususiyatlari. Xalkaro mehnat taqsimoti. "Jahon iqtisodiyoti va xalqaro iqtisodiy munosabatlar" fanining predmeti, mazmuni va mohiyati. Jahon xo'jaligi to'grisida tushuncha. Jahon xo'jaligi va uning milliy iqgisodiyotlarga ta'siri. Xalqaro iqtisodiy munosabatlar tizimi va uning kontseptsiyalari. Jahon bozori tuzilmasi va zamonaviy xalqaro iqtisodiy munosabatlar ko'rinishlari. XXI asrda xalqaro iqtisodiyotning xususiyatlari. Dunyo mamlakatlarining xalqaro iqtisodiyot va xalqaro savdodagi ishtirokining asosiy ko'rsatkichlari. Xalqaro tovarlar, xizmatlar va ishlab chiqarish omillari harakati. Ishlab chiqarish resurslari va omillari. Ishlab chiqarish omillarini xalqaro ayirboshlashning o'ziga xos xususiyatlari. Jahon bozorida tovar va xizmatlar xarakatining xususiyatlari. Ishlab chiqarish omillarining xalqaro harakati. Jahon iqgisodiyotida global miqyosdagi muammolarni hal qilishda mamlakatlararo o'zaro iqtisodiy aloqalar. Xalqaro mehnat taqsimoti tushunchasi. Ixtisoslashuv va kooperatsiya. Mamlakatlararo xalqaro hamkorlik.

[A2, 7-13; A24, 15-23; A25, 10]

Xalqaro savdoning rivojlanish nazariyalari va modellari

Xalqaro iqtisodiy munosabatlar tizimida xalqaro savdo. Tashqi savdoni erkinlashtirish (liberallashtirish) va jahon savdosida protektsionizm siyosati. Merkantilistlar nazariyasi va mutlaq ustunlik nazariyasi. Amaliyotdagi iqisodiy siyosat. Merkantilizmning tanqid qilinishi. Mehnat taqsimoti - o'sishning asosi. Mutlaq ustunliklar modeli. Nisbiy ustunlik nazariyasi. Muqobil xarajatlar. Ishlab chiqarish omillari nisbati nazariyasi. Ishlab chikarish omillari bilan turlicha ta'minlanganlik. Leontev paradoksi. Xalqaro savdoning umumiy muvozanat nazariyasi va zamonaviy xalkaro savdoning rivojlanishi. Xalkaro muvozanat. Rivojlanishning asosiy tendentsiyalari. Xalkaro savdoni taxlil qilish instrumentlari: savdo sharti. Eksport va import egiluvchanligi. Sotnladigan va sotilmaydigan tovarlar modeli. Xalqaro savdo klassik nazariyalarining rivojlantirilishi. Nazariyalarning cheklanganligi. Noan'anaviy yondashuvlar. Maxsus va harakatchan omillar. Xalkaro savdoning yangi nazariyalari. Xalqaro savdoning

daromadga ta’siri, keng ko’lamda ishlab chiqarish effekti va nosoglom raqobat. Monopolistik raqobat sharoitida savdo. Tarmok ichidagi savdo nazariyasi, xalqaro savdoda talab va revers nazariyalari: tarmoq ichidagi savdo va tarmoqlararo savdoning farqlari. Tarmoq ichidagi savdo modeli. Tarmoq ichidagi savdoning o’zgarishi. Kesishuvchi talab. Ishlab chiqarish omillari reversi. Differentsiallashgan tovarlar. Iste’molchilar daromadlarining barobarligi va ular didparining o’xshashligi. Iste’molchi hatti-harakati asosida iqgisodiy modellar.

[A2, 64-100; A24, 270-284; A25, 15]

Tashqi savdoni davlat tomonidan tartibga solish va boshqarish Yo’llari

Erkin savdo va protektsionizm: Xalqaro savdoda davlatning roli. Savdo siyosati instrumentlari. Xalqaro savdoni davlat tomonidan tartibga solish. Xalqaro savdoni davlat tomonidan tartibga solish instrumentlari. Tarifli va notarif usullar. Bojxona tariflari va bojlar. Bojga tortish me’yori. Tarif eskalatsiyasi. Tariflarning iqtisodiy roli: tarifning kichik mamlakat iqtisodiyotiga ta’siri; tarifning katta mamlakat iqgisodiyotiga ta’siri. Daromad effekti va chegaraviy effekt. Himoyalash va iste’mol effekti. Ichki va tashqi daromad effekti. Tarif siyosatiinig maxsus holatlari: optimal tarif. Tarif kvotasi. Eksport tarifi. Tarifga karshi argumentlar. Tarifni yoqlovchi argumentlar. Milliy iqtisodiy farovonlik. Uzgaruvchan bojxona bojlari. Eksport bojining fiskal va muvozanatlash vazifalari. Tariflar o’rnatilishiga turlicha qarashlar. Yosh tarmoklarni xorijiy raqobatdan himoyalash va milliy xavfsizlikni ta’minlash. Xalqaro savdoni davlat tomonidan tartibga solishning notarif usullari. Mikdoriy cheklashlar: Notarif usullarni o’lchash. Kvotalash yoki kontingentlash. Litsenziyalash. «Ko’ngilli» eksport cheklashlari. Notarif usullarni mikdoriy jihatdan kvalifikatsiyalash. Mikdoriy cheklashlar. Cheklashlarning importyor uchun umumiy iqtisodiy effekti. Savdo siyosatining yashirin usullari: Texnik to’siqlar. Milliy standartlarga rioya kilish. Import mahsuloti sifati to’grisida sertifikat olish. Tovarlarni maxsus qoliplash va markirovkalash. Sanitariya-gigiena me’yorlariga rioya qilish to’grisida tapablar qo’yish, ichki soliqlar va aktsizlar. Savdo siyosatining moliyaviy usullari va tartibga solishning noiqgisodiy usullari: subsidiyalar, demping. Savdo shartnomalari. Xuquqiy rejimlar. Milliy eksportyorlarni qo’llab- quvvatlashga qaratilgan pul to’lovlari. Eksport subsidiyasi. Dempingga qarshi bojlar. Ikki xamkor davlat tomonidan savdoni amalga oshirishning huqukiy asosini belgilovchi ikki tomonlama shartnomalarni imzolash. Qulay savdo rejimi o’rnatish. Ko’ptomonlama kelishuvlar imzolanishi.

[A2, 104-135; A24, 295-323;]

Halqaro ishchi kuchi migratsiyasi

Jahon ishchi kuchi bozorining mohiyati va paydo bo'lish sabablari. Mehnat migratsiyasining asosiy yo'napishlari va markazlari. Xalqaro mehnat migratsiyasi ko'rinishlari. Migrantlar - mehnat qobiliyatli yoshdagi iqgisodiy faol odamlar. Xorijda ish qidirishga intilayotgan odamlarga ko'maklashuvchi migratsiya xizmatlari va xalqaro tashkilotlari. Jahon ishchi bozoridagi eksportyor mamlakatlar. Migratsiya jarayonlarining importyor mamlakatlar iqgisodiyotiga ta'siri. Mehnat migratsiyasining milliy iqgisodiyotlarga ta'siri. Xorijdan valyuta transferta oqimlarini kengayishi - ishchi kuchini eksport qiluvchi mamlakatlar asosiy foydasi sifatida. Mehnat immigratsiyasining miqdoriy va sifat darajasini kvotalar va cheklashlar joriy qilish orqali tartibga solish. "Aqlli kishilarni ketib qolishi" muammosining mohiyati. Bu muammoning Uzbekistotsda hal etish imkoniyatlari. Ishga joylashish maqsadida xorijga chiqib ketgan malakapi kadrlarni yo'qotishning eksport qiluvchi mamlakat uchuy iqgisodiy zarari. Muammoni hal etishning umumiqtisodiy va utilitar yo'llari. [A2, 202-218; A24, 429-454; A25, 76]

Xalqaro kapital migratsiyasi va transmilliy kompaniyalar

Chetga kapital chiqarish xalkaro iqqisodiy munosabatlarni ko'rinishlaridan biridir. Kapital chiqarishni sababi va mohiyati. To'gri portfel investitsiyalar. Jahon iqgisodiyotida xalqaro qarzlar (zayomlar), ularning tutgan o'rni. Rivojlanishda rasmiy yordam tushunchasi. Kapital chiqarishning asosiy yo'napishlari, ko'lamlari. Investitsion iqlim. Kapital olib chiqishning mohiyati va ko'rinishlari: Jahon kapital bozorining mohiyati va paydo bo'lish jarayoni. Kapital olib chiqish ko'rinishlari. Umumjahon banki guruhining faoliyati. Jahon kapital bozorining zamonaviy ko'rinishi. Kapitaplarni ichki muomapadan olib maksimal darajada foyda olish maqsadida xorijga chiqarish. Rivojlangan kapital bozorlari. To'gri va portfel investitsiyalar: to'gri xorijiy investitsiyalarning mohiyati va ahamiyati. Portfel investitsiyalarning xususiyatlari. Investitsion muhit tushunchasi. TMK faoliyati ko'lamining kengayishi - to'gri kapital qo'yilmaparining eng etakchi tamoyili sifatida. Xorijdan moliyaviy resurslar jalb qilishning zaruriy iqgisodiy omillari. Kapital eksporta jugrofiy tuzilmasidagi o'zgarishlar. Kapital eksportining zamonaviy jugrofiy tuzilmasi. Jahon kapital bozorida Uzbekistonning o'rni. Rivojlangan iqgisodiyotlar rolining ortib borishi. Jahon bozoriga yangi industrial mamlakatlarning katta guruhi va sobiq sotsialistik davlatlarning kirib kelishi. Jahon iqgisodiyotida Transmilliy korporatsiyalar (TMK). TMKning tashkil topishi, faoliyati va ishlab chiqarishni baynalmilallashuvdagi roli. TMKlar va yangi sanoatlashgan davlatlar. TMKlar faoliyatini xalkaro boshqaruvi. Xalkaro korporatsiyalarning mohiyati, tuzilmasi va ko'rinishlari. Bosh kompaniya, assotsiatsiyalashgan firmalar, sho''ba korxonalar, kichik shaxobchalar. TMKning jahon iqgisodiyotida tutgan o'rni va ahamiyati. TMK faoliyatining yangi ko'rinishlari:

lizing va faktoring. XXI asrda xorijiy mamlakatlarning kapital qo'yilmalari va uning Respublika iqgisodiyotini rivojlanishidagi ahamiyati. O'zbekiston Respublikasi iqtisodiyotiga chet el kapitalini jalb qilinishi muammolari. Chet el investitsiyalarini Davlat tomonidan boshqarish. Chet el investitsiyalari to'g'risidagi Qonun. O'zbekiston iqtisodiyotiga chet el kapitalini jalb qilinishi, shakllari. Tabiiy resurslarni o'zlashtirishda chet el kapitapining tutgan o'rni. Respublikaning huquqiy va iqgisodiy boshqaruvi, rivojlanish muammolari.

[A4, 142-146; A24, 387-409; A25, 66]

Jahon iqtisodiyotida erkin iqtisodiy xududlarning tutgan o'rni

Jahon iqgisodiyotida erkin iqtisodiy xududlar, ularning funktsiyalari va turkumlanishi (klassifikatsiyasi). Erkin iqtisodiy hududlar tajribasi. "Erkin iqtisodiy hudud" (EIH) tushunchasi. Erkin iqtisodiy hududlarning asosiy ko'rinishlari. Erkin iqtisodiy hududlarni yaratishning AQSh, Xitoy modellari va ularning xususiyatlari. Moliyaviy va ma'muriy tadbirlar. Erkin iqtisodiy xududlarda joriy etiladigan imtiyozlar. Savdo EIXdari. Texnoparklar. Texnopolislar. Offshor hududlar.

[A7, 150-175; A25, 5-9; A3, 36]

Xalqaro valyuta-moliya va kredit munosabatlari

Milliy va mintakaviy valyutalar tizimidagi asosiy qonun-qoidalar. Valyuta bozorlari, ularning funktsiyasi, turlari. Xalqaro kredit munosabatlarning mohiyati, mazmuni. Suzib yuruvchi va fiksatsiya qilingan valyuta kurslari. Valyuta operatsiyalari, ularning ko'rinishi. Valyuta pozitsiyasini shakllari. "SVOP", "FORVARD" operatsiyalari, valyuta vaucherlari "SPOT", qimmatbaho qogozlar arbitraji. Valyutani cheklanishi, uning ko'rinishlari. Valyuta tavakalchiligi. Valyuta tavvakalchiligini sugurtalash. Xalqaro moliyaviy kredit tashkilotlar. Xalqaro valyuta fondi (XVF), uning funktsiyalari. Xalqaro bank guruhlari: Evropa rivojlanish va qaytatiklash banki (ETTB), Osiyo rivojlanish banki (ORB), va boshqalar.

[A3, 200-215; A24, 494-505; A14,29-75]

Jahon xo'jaligida rivojlangan mamlakatlar iqtisodiyoti

Rivojlangan davlatlar guruhining jahon xo'jaligi va siyosatida tutgan o'rni. Rivojlangan davlatlar sanoatiga xarakteristika. Guruhga kiruvchi mamlakatlar kriteriyasi, iqgisodiyotini umumiy belgilari. Iqnisodiyotdagi makrotuzilma. Mamlakatlarning ilmiy-texnikaviy va mahsulot ishlab chiqarish sohasidagi, tabiiy resurslari va mehnat taksimoti sohasidagi imkoniyatlari. Inson omilini roli. Milliy iqtisodiyotning strukturasini o'ziga xos xususiyatlari. Iktisodiy rivojlanishning dastlabki shart - sharoitlari va xususiyatlari. "Katta sakkizlik" etakchi rivojlangan davlatlarni jahon sanoati mahsulotlarini ishlab chiqarishdagi, jahon savdosi va xalqaro kapital migratsiyasidagi ulushi. Rivojlangan davlatlar iqtisodiyotining hozirgi davr strukturasi. Mamlakatlar sanoati strukturasidagi o'zgarishlar. Rivojlangan mamlakatlarning moliya-kredit

siyosati. “Katta sakkizlik” davlatlarning tashqi iqtisodiy strategiyasi. Asosiy sanoat va moliyaviy markazlar. Dunyo xukmronligini ko’lda ushlab turishda AKShning iqtisodiy hamkorlik markazlari. Yaponiya kuchli iqtisodiy markaz sifatida. G’arbiy Evropa - sanoati rivojlangan mamlakatlar joylashgan xudud sifatida. Rivojlangan mamlakatlarda tashqi savdo va uning zamonaviy yo’nalishlari. Ilmiy - texnikaviy munosabatlar. Valyuta munosabatlarining xarakteri. G’arbiy Evropadagi integratsion jarayonlar. Evropa itgifoqi - G’arbiy Evropaning raqobat qiluvchi markaziy yadrosidir. Rivojlangan mamlakatlarning tashqi iqtisodiy strategiyasi. Ilmiy-texnika inqilobi (ITI) ta’sirida rivojlangan mamlakatlarning makroiqtisodiy strukturasidagi o’zgarishlar. Iqtisodiy ko’rsatkichlarning asosiy dinamikasi. Qisqa muddatli reja va tavvakalchilik. Sanoati rivojlangan mamlakatlar iqtisodiyotidagi umumiy muammolar.

[A3, 254-258; A24, 71-88; A25, 10-109]

Rivojlanayotgan mamlakatlar - xalqaro iqtisodiy munosabatlar Tizimida

Rivojlanayotgan mamlakatlarning asosiy belgilari, xususiyatlari. Xapqaro mehnat taqsimotidagi o’rni. Mamlakatlarning asosiy guruhlari. Rivojlanayotgan mamlakatlarning rivojlanish darajasiga ko’ra qoloq va o’rta darajada rivojlanayotgan, rivojlanib borayotgan “yangi sanoatlashgan mamlakatlar” ga bo’linishi. Xalqaro mehnat taqsimotida rivojlanayotgan mamlakatlarning huquqiy qatnashishi, mustaqillikka erishish muammolari. Tashqi qarzlarni ko’payishini hal etish muammolari. Rivojlanayotgan mamlakatlarda hususiylashtirish jarayonlari. Yangi industrial mamlakatlarning iqtisodiy rivojlanish modellari. O’tish davridagi mamlakatlarning iqtisodiy rivojlanish xususiyatlari.

[A8, 110-120; A24, 133-146; A25, 127-183]

Xalqaro iqtisodiy integratsiya

Xalqaro iqtisodiy integratsiyaning mohiyati, ko’rinishlari. G’arbiy Evropa integratsiyasining rivojlanish bosqichlari. Evropa Ittifoqi tashqilotlarining tashkil topish mexanizmi. Evropa bo’shligi. Shimoliy Amerika integratsiya yo’li (NAFTA). Tinch okeani xamkorligi tashkilotining tashkil topishi. Sharqiy Evropa integratsiyasining vazifalari. Mustaqil Davlatlar Hamdo’stligi (MDH) mamlakatlari doirasidagi integratsion jarayonlar. Xalkaro tashkilotlar klassifikatsiyasiga umumiy tafsiv. Birlashgan Millatlar Tashkiloti (BMT) tizimiga kiruvchi iqtisodiy tashkilotlar va ularning vazifalari. Xalkaro moliya-valyuta va kredit tashkilotlari. Uzbekistonning xalkaro iqtisodiy tashkilotlarda qatnashishi.

[A4, 10-46; A24, 544-565; A25, 91]

Jaxon iqtisodiyotini tartibga solishda xalqaro tashkilotlarning roli

Xalqaro tashkilotlarning paydo bo'lish jarayoni. Xalqaro tashkilotlarning tasniflanishi. Global va xududiy tashkilotlar. Hukumatlararo va noxukumat iqtisodiy tashkilotlar. BMT va uning tizimi. Xalqaro tashkilotlarning o'z faoliyatini qayta qurishi. Savdo va tariflar bo'yicha Bosh kelishuvning imzolanishi sabablari. Savdo va tariflar bo'yicha Bosh kelishuvning tamoyillari, vazifalari va tuzilmasi. Savdoni global erkinlashtirish jarayoni. GATT maqsadlari va funktsiyalari. O'zbekiston Respublikasining USTga kirishi imkoniyatlari. Umumjahon savdo tashkiloti (UST) ni tashkil etipishi va uning GATTdan farqi. USTning tamoyillari, maqsad va vazifalari. UST tuzilmasi va faoliyati. Umumjahon savdo tashkiloti - mamlakatlar va xududlar o'rtasida tovar oqimlarini tartibga solish muammolari bilan shugullanuvchi eng salmoqli tuzilma sifatida. Xalqaro investitsiyalarni kafolatlash agentligi, Xalqaro hisob-kitoblar banki, Xalqaro valyuta fondi, Birlashgan millatlar tashkiloti va uning ixtisoslashgan muassasalari.

[A22, 294-306; A24, 523-544; A14,29-75]

Jaxon xo'jaligining globallashuv jarayonlarida O'zbekistonning ishtiroki

O'zbekiston Respublikasining XXI asrdagi resurslari (tabiiy, inson, ilmiy-texnikaviy va ishlab chiqarish) va rivojlanish imkoniyatlari. Mustaqillik yillaridagi respublikaning iqtisodiy ahvoli. Global miqyosdagi iqgisodiy inqirozlarni bartaraf etishdagi qiyinchiliklar. Bozor iqtisodiyotiga o'tish davri muammolari. O'zbekistonni jahon ho'jaligiga qo'shilishi. Respublikani iqtisodiy rivojlanish istiqbollari. Xalkaro savdoda respublikani ishtiroki. Moliya tizimi, pul-kredit siyosati. Moliya bozorlarini tashkil topishi. O'zbekistonning horijiy mamlakatlar bilan olib borayotgan tashqi iqtisodiy munosabatlari. Respublikani jahon iqgisodiyoti va integratsiyasida ishtiroki. Mamlakatning iqtisodiy o'sishini ta'minlashdagi strategik yo'nalishlari va tamoyillari. Xalqaro hamjamiyat bilan xamkorlik munosabatlari.

[A4, 10-46; A24, 5-9; A25, 245]

Amaliy mashgulotlarning gaxminiy ro'yxati

